4. Uvarov A. Yu. Obrazovaniye v mire tsifrovyykh tekhnologiy: na puti k tsifrovoy transformatsii. – Moskva: Izdatelskiy dom GU-VShE, 2021. – 168 bet.
5. Muslimov N. A., Lutfillayev M. H. Elektron ta'lim resurslari: yaratish va foydalanish: O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2020. – 224-bet.

TA'LIM JARAYONIDA MADANIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH TENDENSIYALARI

Begmatova Dilnoza Muxtarovna

*SamDCHTI, Pedagogika, psixologiya va
jismaniy madaniyat kafedrasini mudiri, pedagogika
fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
begmatova.dilnoza_1@mail.ru*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17617422>

Annotatsiya. Maqolada ta'lim jarayonida madaniy immunitetni shakllantirish tendensiyalari tahlil qilinadi. Madaniy immunitet jamiyat a'zolarining milliy va umumbashariy qadriyatlarini anglash, ularni himoya qilish hamda turli madaniy ta'sirlarga nisbatan barqarorlikni shakllantirish qobiliyati sifatida qaraladi. Globalizatsiya sharoitida ta'lim jarayoni orqali yosh avlodning madaniy o'zligini saqlab qolish, tolerantlikni rivojlantirish va madaniyatlararo muloqotga yo'naltirish muhim vazifa hisoblanadi. Tadqiqotda turli mamlakatlarning tajribalari, innovatsion ta'lim metodlari va pedagogik yondashuvlar asosida madaniy immunitetni shakllantirish strategiyalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: madaniy immunitet, ta'lim jarayoni, globalizatsiya, madaniyatlararo muloqot, pedagogik yondashuvlar, innovatsion ta'lim, milliy madaniyat, ta'lim subyektlari, ma'naviy barqarorlik, xalqaro tajriba.

TRENDS IN THE FORMATION OF CULTURAL IMMUNITY IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Begmatova Dilnoza Mukhtarovna

*Doctor of philosophy in Pedagogical Sciences (PhD),
Associate professor of the Department Pedagogy, psychology, and physical education,
Samarkand State Institute of Foreign Languages*

Abstract. The article analyzes the trends in the formation of cultural immunity among the subjects of the educational process on a global scale. Cultural immunity is considered as the ability of members of society to understand national and universal values, protect them, and develop resilience to various cultural influences. In the context of globalization, an important task is to preserve the cultural identity of the younger generation, promote tolerance, and foster intercultural dialogue through the educational process. The study examines strategies for developing cultural immunity based on the experiences of different countries, innovative educational methods, and pedagogical approaches.

Keywords: cultural immunity, educational process, globalization, intercultural dialogue, pedagogical approaches, innovative education, national culture, educational subjects, spiritual stability, international experience.

ТЕНДЕНЦИИ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРНОГО ИММУНИТЕТА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Бегматова Дилноза Мухтаровна

*Заведующий кафедры «Педагогика, психология и физическая культура»,
доктор философии по педагогическим наукам (PhD), доцент СамГИИЯ*

Аннотация. В статье анализируются тенденции формирования культурного иммунитета у субъектов образовательного процесса в мировом масштабе. Культурный иммунитет рассматривается как способность членов общества осознавать национальные и общечеловеческие ценности, защищать их и формировать устойчивость к различным культурным влияниям. В условиях глобализации важной задачей является сохранение культурной идентичности молодого поколения, развитие толерантности и ориентация на межкультурный диалог через образовательный процесс. В исследовании рассматриваются стратегии формирования культурного иммунитета на основе опыта различных стран, инновационных образовательных методов и педагогических подходов.

Ключевые слова: культурный иммунитет, образовательный процесс, глобализация, межкультурный диалог, педагогические подходы, инновационное образование, национальная культура, субъекты образования, духовная устойчивость, международный опыт.

Kirish

Globalizatsiya jarayonlari dunyoning barcha sohalariga, jumladan, ta'lim tizimlariga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi, xalqaro hamkorlikning kuchayishi va turli davlatlar o'rtasidagi aloqalarning mustahkamlanishi natijasida ta'lim mazmuni va metodlarida sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda. Shu jarayonda turli madaniyatlarining o'zaro ta'siri tobora ortib, ta'lim subyektlarining madaniy kompetensiyalarini oshirish, ularning globallashuv sharoitida o'z madaniy o'ziga xosligini saqlab qolish masalasi dolzarb bo'lib bormoqda. Globalizatsiya tufayli ta'lim jarayonining ishtirokchilari dunyoqarashi kengayib, turli xalqlarning urfodatlarini, qadriyatlarini va an'analarini chuqurroq anglash imkoniga ega bo'ladilar. Shu bilan birga, madaniy xilma-xillikning ortishi ayrim hollarda mahalliy madaniyat va qadriyatlarining yo'qolish xavfini ham keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, ta'lim tizimi oldida madaniy immunitetni shakllantirish vazifasi turibdi.

Metodologiya

Madaniy immunitet – bu shaxsning o'z milliy qadriyatlarini, madaniy merosini saqlab qolish, shu bilan birga, boshqa madaniyatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, turli madaniy muhitlarda muloqot qila olish qobiliyatidir. Bu jarayonda ta'lim muassasalari muhim rol o'ynaydi. Ta'lim tizimi nafaqat zamonaviy bilim va ko'nikmalarni berishi, balki yosh avlodning o'z madaniyatiga hurmat bilan qarashini shakllantirishi ham zarur. Shu bilan birga, ochiq va tolerant jamiyat qurish

uchun boshqa xalqlarning urf-odatlarini, diniy e'tiqodlari va hayot tarziga nisbatan bag'rikeng munosabatda bo'lish ko'nikmalarini ham rivojlantirish lozim.

Madaniy immunitetning shakllanishi ta'lim jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarining uyg'un tarzda o'qitilishiga bog'liq. Shu sababli, globalizatsiya sharoitida ta'lim dasturlariga madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish, bag'rikenglik va tolerantlik g'oyalarini singdirish muhim ahamiyat kasb etadi. Faqat shunday yondashuv bilangina insoniyat globalizatsiyaning ijobiy jihatlaridan samarali foydalanib, o'z madaniy o'ziga xosligini saqlab qolishi mumkin.

Madaniy immunitet shaxsning turli madaniy ta'sirlarga nisbatan barqarorligini, o'zining milliy qadriyatlari va an'analarini saqlab qolish qobiliyatini ifodalaydi. Bu tushuncha mafkuraviy immunitet bilan ham bog'liq bo'lib, insonning turli mafkuraviy ta'sirlarga nisbatan mustahkamligini anglatadi.

Zamonaviy ta'limda interfaol metodlardan foydalanish madaniy immunitetni shakllantirish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Talabalarning mustaqil fikrlashi va turli madaniy masalalarga nisbatan nuqtai nazarini rivojlantirish uchun quyidagi usullar qo'llaniladi: munozaralar va debatlar – talabalar turli madaniyatlar, qadriyatlar va urf-odatlar haqida bahslashib, o'z pozitsiyalarini asoslaydilar va boshqalarning fikriga hurmat bilan yondashishga o'rganadilar; rolli o'yinlar – turli madaniyat vakillarining hayoti va qarashlariga mos keladigan ssenariylar orqali talabalarni real hayotiy vaziyatlarga tayyorlash; case-study (holat tahlili) – madaniy tafovutlar va ularni yengib o'tish strategiyalarini amaliy misollar yordamida o'rganish.

Tahlil

Axborot texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyatini ko'rib chiqadigan bo'lsak, raqamli texnologiyalar madaniy immunitetni shakllantirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Internet, sun'iy intellekt va onlayn ta'lim platformalari turli madaniy materiallarga kirish imkoniyatini taqdim etib, global tarmoqlarda talabalarni faol ishtirok etishga undaydi. Bunda:

Globalizatsiya sharoitida ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri yosh avlodda madaniy immunitetni shakllantirishdan iborat. Integratsiyalashgan ta'lim, interfaol metodlar va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali talabalarda nafaqat milliy madaniyatga hurmat, balki boshqa madaniyatlarga nisbatan ham bag'rikeng munosabatni shakllantirish mumkin. Shu sababli, jahon ta'lim tizimi ushbu tendensiyalarga tobora ko'proq e'tibor qaratib, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishga xizmat qiladigan innovatsion metodlarni ishlab chiqishda davom etmoqda.

O'zbekistonda madaniy immunitetni shakllantirishning ta'lim jarayonidagi o'rni beqiyos. Hozirgi globallashuv jarayonida milliy madaniyat va an'analarni asrab-avaylash, yosh avlodning o'z milliylikiga bo'lgan hurmatini oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonda ta'lim tizimida madaniy immunitetni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Madaniy immunitet – bu insonning o'z milliy qadriyatlarini anglash, hurmat qilish hamda boshqa madaniyatlar bilan muvozanatli munosabat o'rnatish qobiliyatidir. O'zbekistonda ta'lim tizimi orqali bu jarayonni amalga oshirishda quyidagi yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etmoqda:

Dars jarayonida milliy qadriyatlarining integratsiyasi ta'lim jarayoniga milliy urf-odatlar, an'analar, buyuk ajdodlarimizning merosini singdirish orqali yoshlarning ongida o'zlikni anglash hissi kuchaymoqda. Masalan, maktab va oliy ta'lim darsliklarida Alisher Navoiy, Amir Temur, Mahmudhoja Behbudiy kabi ajdodlarimizning ilm-fan va madaniyatga qo'shgan hissasi keng yoritilmoqda.

Tarbiya va ma'naviyat darslari orqali ta'sir o'tkazish O'zbekiston ta'lim tizimida "Ma'naviyat va ma'rifat" darslari orqali milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik ruhini oshirishga katta e'tibor qaratilgan. Ayniqsa, yoshlarning o'zbek tiliga, tarixiga va madaniyatiga bo'lgan hurmatini oshirish orqali madaniy immunitetni shakllantirishga erishilmoqda.

Milliy bayramlar va tadbirlar orqali madaniy immunitetni rivojlantirish Navro'z, Mustaqillik bayrami, Konstitutsiya kuni kabi milliy bayramlarning ta'lim jarayoniga kiritilishi yoshlarning madaniy xabardorligini oshirishda muhim rol o'ynamoqda. Ushbu bayramlar doirasida o'tkaziladigan adabiy kechalar, madaniy-ma'rifiy tadbirlar, xalq o'yinlari orqali talabalar o'z milliy merosini chuqurroq o'rganish imkoniga ega bo'lmoqdalar.

O'zbekistonda madaniy immunitetni shakllantirishda oilaning o'rni katta. Farzandlar milliy qadriyatlar bilan eng avvalo oilada tanishadi. Shuning uchun ota-onalar bilan hamkorlikda ishlash, oilaviy tarbiya tizimini rivojlantirish ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Axborot makonida milliy qadriyatlarni targ'ib qilish Internet va ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ongiga ta'siri oshib borayotgan hozirgi zamonda, O'zbekistonda milliy qadriyatlarni ilgari suruvchi kontentlarni yaratish muhim ahamiyatga ega. Ta'lim muassasalari tomonidan milliy merosimizni aks ettiruvchi elektron resurslar, videoroliklar, interaktiv darsliklar ishlab chiqilmoqda.

Xulosa

O'zbekistonda madaniy immunitetni shakllantirish milliy va zamonaviy qadriyatlarning uyg'unligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bu jarayon ta'lim tizimi orqali samarali yo'lga qo'yilmoqda. Jamiyatning madaniy asoslarini saqlab qolish va yosh avlodni globallashtirish ta'siridan himoya qilish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki globallashtirish sharoitida milliy o'zlikni yo'qotmaslik, ajdodlar merosini asrab-avaylash va kelajak avlodga yetkazish har bir davlat uchun strategik ahamiyatga ega.

O'zbekiston ta'lim tizimi orqali madaniy immunitetni shakllantirish bir necha yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda. Birinchidan, milliy qadriyatlar va an'analar ta'lim jarayoniga integratsiya qilinib, yoshlarning o'z tarixiga, madaniyatiga va ona tiliga bo'lgan hurmati oshirilmoqda. Ikkinchidan, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, tarixiy sanalar va milliy bayramlarning keng nishonlanishi yoshlarga milliy o'zlikni chuqur anglash imkonini bermoqda. Uchinchidan, zamonaviy texnologiyalar va axborot vositalaridan foydalanib, milliy madaniyatni targ'ib qilish orqali yoshlarning madaniy immuniteti mustahkamlanmoqda.

Madaniy immunitetga ega bo'lgan shaxs mustahkam milliy g'oyalarga tayanib, zamonaviy dunyoda o'z o'rnini topa oladi. Bunday inson nafaqat milliy merosni asrab-avaylaydi, balki uni rivojlantirib, yangi avlodlarga yetkazishga hissa qo'shadi. Madaniy immunitetga ega bo'lmagan jamiyat esa tashqi ta'sirlarga tezda moyillik bildirishi, o'zining ma'naviy ildizlaridan uzoqlashishi va milliy o'zligini yo'qotishi xavfi ostida qoladi. Shu bois, O'zbekistonda ta'lim tizimi orqali madaniy immunitetni shakllantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Xulosa qilib aytganda, madaniy immunitet millatning asosi, uning mustahkamligini ta'minlovchi omillardan biri hisoblanadi. O'zbekiston ta'lim tizimida bu masalaga alohida e'tibor qaratilishi yoshlarning milliy qadriyatlariga sodiq, zamonaviy dunyo bilan uyg'un holda yashay oladigan shaxslar bo'lib voyaga yetishiga xizmat qilmoqda. Kelajakda ham ushbu yo'nalishda olib borilayotgan ishlarni yanada rivojlantirish orqali jamiyatning madaniy barqarorligini ta'minlash va o'zbek milliyligining mustahkam poydevorini yaratish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ibraimov H.I., Begmatova D.M. General background of socio-psychological impact of cultural immunity. - Science and innovation, 2023
2. Begmatova D.M. The process of preparing future teachers for the formation of cultural immunity in students based on the analysis of foreign experiences - Science and innovation, 2024
3. Nazarov I. A. Pedagogik psixologiya. Toshkent: 2012 "O'zbekiston" nashriyoti.
4. Tashpulatov A. X. Oliy ta'limda shaxsiy rivojlanish: Psixologik va pedagogik jihatlar. Toshkent: 2014 "O'qituvchi" nashriyoti.
5. Smith J. Cultural Immunity in Education: Pedagogical Strategies for the 21st Century. 2019. Oxford University Press.
6. Chen G. M., & Starosta W. J. Communication Competence and Cross-Cultural Adaptation. 2000. Routledge.
7. Shaxidjonov M., & Tursunov A. Madaniy immunitet: nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar. Tashkent: 2020. Akademiya nashriyoti.

O'ZBEKISTON VA FINLANDIYA TA'LIM TIZIMIDA YARATUVCHANLIKNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'XSHASHLIK VA FARQLI TOMONLARI TAHLILI

Gulyamova Nigina Azimovna
Samarqand Davlat Universiteti PhD tadqiqotchisi
nigina.madina1994@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17617458>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston va Finlyandiya ta'lim tizimlarida yaratuvchanlikni rivojlantirish jarayoni qiyosiy tahlil qilinadi. Jahon miqyosida ta'limning asosiy maqsadi — mustaqil fikrlovchi, innovatsion tafakkurga ega, yangiliklarga ochiq shaxslarni tarbiyalashdir. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari, xususan 2017-yilda qabul qilingan "Ta'lim sohasini rivojlantirish konsepsiyasi" ijodiy yondashuvlarni rivojlantirishni ustuvor yo'nalish sifatida belgilaydi. Finlyandiyaning tajribasi esa PISA tadqiqotlarida erishilgan yuqori natijalar orqali o'z samaradorligini isbotlagan. Maqolada ikki mamlakat ta'lim tizimlarining o'xshash va farqli jihatlari tahlil qilinadi hamda O'zbekiston uchun mos innovatsion yondashuvlar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: yaratuvchanlik, ta'lim tizimi, innovatsion yondashuv, pedagogika, PISA tadqiqoti, Finlyandiya, O'zbekiston, boshlang'ich ta'lim.

ANALYSIS OF SIMILARITIES AND DIFFERENCES IN DEVELOPING CREATIVITY IN THE EDUCATION SYSTEMS OF UZBEKISTAN AND FINLAND

Gulyamova Nigina Azimovna
PhD Researcher, Samarkand State University

Abstract. This article presents a comparative analysis of the process of developing creativity in the education systems of Uzbekistan and Finland. The main goal of education globally is to cultivate independent thinkers, individuals with innovative mindsets, and openness to new ideas. From this perspective, the ongoing educational reforms in the Republic of Uzbekistan, particularly the "Concept for the Development of Education" adopted in 2017, prioritize the development of creative approaches. Finland's experience has demonstrated its effectiveness through high results in PISA studies. The article analyzes the similarities and differences between the education systems of the two countries and proposes innovative approaches suitable for Uzbekistan.

Keywords: creativity, education system, innovative approach, pedagogy, PISA study, Finland, Uzbekistan, primary education.

АНАЛИЗ СХОДСТВ И РАЗЛИЧИЙ В РАЗВИТИИ ТВОРЧЕСТВА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СИСТЕМАХ УЗБЕКИСТАНА И ФИНЛЯНДИИ

Гулямова Нигина Азимовна
PhD исследователь Самаркандского государственного университета

Аннотация. В данной статье проводится сравнительный анализ процессов развития творческих способностей в образовательных системах Узбекистана и Финляндии. Основная цель современного образования во всем мире — воспитание самостоятельных, инноваци-

онно мыслящих и открытых к новшествам личностей. С этой точки зрения, проводимые в Республике Узбекистан реформы в сфере образования, в частности принятая в 2017 году «Концепция развития сферы образования», определяют развитие творческого подхода в качестве одного из приоритетных направлений. Опыт Финляндии, в свою очередь, доказал свою эффективность благодаря высоким результатам, достигнутым в международных исследованиях PISA. В статье анализируются сходные и отличительные черты образовательных систем двух стран, а также предлагаются инновационные подходы, адаптированные для условий Узбекистана.

Ключевые слова: творчество, система образования, инновационный подход, педагогика, исследование PISA, Финляндия, Узбекистан, начальное образование.

Kirish

Bugungi kunda jahon hamjamiyatining asosiy ehtiyoji — yaratuvchan, mustaqil fikrlovchi, yangiliklarga ochiq fuqarolarni tarbiyalashdir. Bunday shaxslarni tayyorlash esa faqatgina zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan samarali ta'lim tizimi orqali amalga oshirilishi mumkin. Shu sababli ham ko'plab mamlakatlarda ta'lim sohasidagi islohotlar boshlab berildi. O'zbekiston Respublikasida ham 2017-yilda tasdiqlangan "Ta'lim sohasini rivojlantirish konsepsiyasi" da ta'limning sifatini oshirish, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish maqsad qilib belgilangan. Bu borada Finlyandiyaning ta'lim tizimi xususan diqqatga sazovordir, chunki Fin o'quvchilari PISA (Programme for International Student Assessment) tadqiqotlarida yuqori natijalarga erishgan. Ushbu maqola O'zbekiston va Finlyandiya ta'lim tizimlarida yaratuvchanlikni rivojlantirishdagi umumiy xususiyatlarni hamda farqlarni chuqur o'rganishga qaratilgan. Maqsadimiz — ikki mamlakatdagi ta'lim jarayonlarini taqqoslab, O'zbekistonda qo'llanilishi mumkin bo'lgan eng yaxshi amaliyotlarni aniqlashdan iborat.

Metodologiya

1. Yaratuvchanlikning psixologik-pedagogik mohiyati

Yaratuvchanlik — bu insonning yangi, noaniq vaziyatlarga yangicha yechim topa olish qobiliyatidir. Psixologlar S.L. Rubinshteyn, J.Piya, L.S. Vygotskiy, A.N. Leontyev va boshqalar yaratuvchanlikni o'rganishda uning intellektual, emotsional, axloqiy tomonlarini alohida ahamiyatga ega deb hisoblashadi. Pedagogik nuqtai nazardan esa yaratuvchanlik — bu o'quvchining mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni hal etishi, yangi g'oyalar taklif etishi, hamda ijodiy darslarda qatnashishidir.

Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar hozirda dunyoni tanish jarayonida bo'lib, ularning idrok qobiliyati tez rivojlanadi. Shu sababli ham yaratuvchanlikni shakllantirishning eng afzal davri — boshlang'ich ta'lim davridir. Xavfli fikr, eksperimentga tayyorgarlik, savol berishga intilish, o'yinli usullar bilan dars o'tish — barchasi yaratuvchanlikka ijobiy ta'sir qiluvchi omillar hisoblanadi.

2. O'zbekistonda yaratuvchanlikni rivojlantirishning hozirgi holati

O'zbekistonda yaratuvchanlikni rivojlantirish ta'lim sohasidagi bir necha islohotlar doirasida amalga oshirilyapti. Masalan, 2019-yilda joriy etilgan yangi davlat ta'lim standartlarida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil fikr bildirish imkoniyati berish, hamkorlikda ishlashni o'rgatish kabi tamoyillar ustidan chiziqli tortildi. Shuningdek, O'zbekistonda boshlang'ich maktablarda quyidagi usullar qo'llanmoqda:

- Noan'anaviy dars shakllari : masalan, "Aqliy hujum", "Blits-so'rov", "Klaster";
- Guruhli ishlash;
- Darslarda IT texnologiyalarni qo'llash;
- Tashabbuskorlikni rag'batlantirish.

Biroq, bu usullarning amaliy jihatdan yetarlicha qo'llanmayotgani ham e'tiborga loyiq. Ko'plab maktablarda traditsion ta'lim usullari hali ham ustunlik qilmoqda: o'qituvchi markazli darslar, eslatma, tushuntirish, suhbat usullari keng tarqalgan. Buning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- O'qituvchilarning mutaxassislarga aytilayotgan talablarga yetishmasligi;
- Ta'lim materiallarining yetishmovchiligi;
- Pedagoglar uchun mutaxassislarning mutaxassislarga aytilayotgan talablarga yetishmasligi;
- Maktab infratuzilmasi, xususan, elektron vositalar yetishmovchiligi.

3. Finlyandiyaning yaratuvchanlikni rivojlantirishdagi innovatsion yondashuvlari

Finlyandiyaning ta'lim tizimi butun dunyoda namunaviy deb hisoblanadi. Uning muhim xususiyati — o'quvchi markazli ta'lim modeliga asoslanishidir. Fin maktablarida yaratuvchanlikni rivojlantirish quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

- 3.1. *O'quvchi markazli ta'lim.* Fin o'quvchilari darsda faol ishtirok etishadi, o'z fikrlarini erkin ifodalashlari mumkin. O'qituvchi esa murabbiy, yo'naltiruvchi roliga kiradi. Darslarda hamkorlik, guruhli ishlash, muammo vaziyatlarni hal qilishga qaratilgan mashg'ulotlar ustunlik qiladi.
- 3.2. *Minimal testlar, maksimal ijod.* Fin maktablari standartlashtirilgan sinovlardan voz kechgan. Buning o'rniga, har bir o'quvchining individual rivojlanish darajasi nazorat qilinadi. Bu esa o'quvchilarni kreativ fikrlashga undaydi, chunki ular "to'g'ri javob"ga emas, balki yangicha yechim topishga harakat qiladi.
- 3.3. *Kengaytirilgan o'qish dasturi.* Fin maktablarda adabiyot darslari faqat kitoblarni o'qish bilan cheklanmaydi, balki talabalar o'z mulohazalarini bayon qilish, she'r yozish, dramatisatsiya qilish, hamda ijodiy ishlarni tayyorlashga undaladi. Bu esa yaratuvchanlikni rivojlantirishning kuchli vositasidir.
- 3.4. *O'qituvchilarning oliy malakasi.* Fin o'qituvchilari magistratura darajasiga ega bo'lishi kerak. Ularga pedagogika fanlar doktori unvonini olish ham imkon beriladi. Bu esa ularga innovatsion usullar yaratishda katta imkoniyat beradi.

Tahlil

O'zbekiston va Finlyandiya ta'lim tizimlaridagi o'xshashliklar. Ikki mamlakatdagi ta'lim tizimlarida yaratuvchanlikni rivojlantirishda quyidagi o'xshashliklarni keltirib chiqarish mumkin:

- Ijodiy darslarning zarurligi haqidagi tushuncha mavjud. Ikkala mamlakat ham ta'lim jarayoniga yaratuvchanlik elementlarini kiritishga harakat qilmoqda.
- O'quvchilarning fikr-mulohazasiga e'tibor qaratilmoqda. Har ikki davlatda ham o'quvchilarning savollar berish, izlanish olib borish, gipoteza ilgari surishga urinishlari rag'batlantiriladi.
- Yangi dars rejalarining joriy etilayotgani. O'zbekistonda ham, Finlyandiya ham o'quv dasturlari yangilanayotgan bo'lib, ular ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan.

Shunga qaramay, ikki mamlakatdagi ta'lim tizimlarida yaratuvchanlikni rivojlantirishda aniq farqlar ham mavjud:

1-jadval

O'zbekiston va Finlyandiya ta'lim tizimlaridagi farqlar

	<i>O'zbekiston</i>	<i>Finlandiya</i>
1	Ta'lim jarayoni o'qituvchi markazli	O'quvchi markazli
2	Standartlashtirilgan testlar asosida baholanadi	Individual rivojlanishga asoslangan baholash
3	Darslarda ko'proq tushuntirish-usuli qo'llaniladi	Darslarda muammoshunoslik, o'yinli usullar, hamkorlik ustunlik qiladi
4	O'qituvchilarning kamroq malakasi (ko'pincha bakalavr)	O'qituvchilar magistr yoki doktor darajasiga ega
5	Elektron vositalarning yetishmovchiligi	Zamonaviy ta'lim vositalari bilan jihozlangan maktablar

Bu farqlar O'zbekistonda yaratuvchanlikni rivojlantirishda barqaror natijaga erishish uchun yanada ko'proq islohotlar o'tkazish zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa

O'zbekistonda yaratuvchanlikni rivojlantirish uchun quyidagi takliflarni amalga oshirish lozim: O'qituvchilarning malakasini oshirish – mutaxassislariga pedagogik innovatsiyalar, yaratuvchanlikni rivojlantirish metodikasi bo'yicha o'qitish kurslarini tashkil qilish.

O'quv dasturlarini yangilash – ijodiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish, proyektlilik o'qitish kabi elementlarni o'quv rejasiga kiritish.

Zamonaviy ta'lim vositalarini joriy etish – elektron darsliklar, interfaol doskalar, internet resurslaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirish.

Baholash tizimini o'zgartirish – testga asoslangan baholashdan voz kechib, portfoliolarga asoslangan baholashga o'tish.

Finlyandiyaning yaxshi amaliyotlarini o'rganish – mutaxassislarning Finlandiyaga tashrif buyurishini, hamkorlikda darslar o'tishni tashkil qilish.

Bugungi kunda ta'lim tizimlarida yaratuvchanlikni rivojlantirish global tendensiyaga aylandi. O'zbekiston ham bu sohada qadam qo'ydi, lekin Finlyandiya kabi mamlakatlarning tajribasini chuqur o'rganish, undan samarali foydalanish O'zbekistonda yaratuvchan avlodni tarbiyalashda katta yordam beradi. O'zbekiston va Finlyandiya ta'lim tizimlarida yaratuvchanlikni rivojlantirishda ba'zi o'xshashliklar bor bo'lsa-da, farqlar ham aniq seziladi. Shu sababli ham O'zbekistonda yaratuvchanlikni rivojlantirish uchun keyingi bosqichda jiddiy islohotlar o'tkazish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. International Journal of Education, Social Science & Humanities (IJES&H), 2024. Comparison of Literature Curricula in Finland and Uzbekistan in the Light of Their Wider Educational Contexts. Volume 6, Issue 4. <https://ijesh.org> (May 8, 2025)
2. Salberg, P., 2022. "Finlyandiya Tajribasi" O'zbekistonning Ta'lim Muammolarini Hal Qila Oladimi? Kun.uz. <https://kun.uz/post/finlyandiya-ta-lim-tizimi> (May 8, 2025) (<https://kun.uz/post/finlyandiya-ta-lim-tizimi>)
3. Jalilov, K., 2022. An Analysis of Finnish Educational Reforms and Their Potential Application in Uzbekistan. News from Uzbekistan. <https://www.newsfromuzbekistan.com> (May 8, 2025)
4. Ministry of Public Education of Finland, 2023. The Finnish National Curriculum Framework: A Guide for Teachers. Helsinki: Finnish National Agency for Education. <https://oph.fi/en/national-core-curricula-and-certificates> (May 8, 2025)
5. Abdullayeva, N. & Xushvaqtoev, A., 2024. O'zbekiston va Finlyandiya Ta'lim Tizimlarida Pedagogik Innovatsiyalarning Rivojlanishi. Fan va Ta'lim Integratsiyasi, 12(3), pp.45–58. <https://journals.uzfi.uz> (<https://journals.uzfi.uz>)
6. Karimova, G., 2023. Yaratuvchan Fikrlashni Shakllantirishda Boshlang'ich Maktabda O'quvchilarni Aktivlashtirishning Zamonaviy Usullari. Pedagogika fanlari jurnali, 9(2), pp.112–125. <https://pedjournal.uz> (May 8, 2025)
7. Finnish Institute for Educational Research, 2024. Creativity in Finnish Basic Education: Practices and Outcomes. University of Jyväskylä. <https://www.jyu.fi/education/research/fer> (May 8, 2025)
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, 2021. Ta'lim sohasini rivojlantirish konsepsiyasi. Toshkent: Milliy taraqqiyot nashriyoti. <https://edu.gov.uz/documents> (May 8, 2025).

KOMMUNIKATIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALAR SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION STRATEGIYALARI

Hazratqulov Mutallib Rashidovich¹, Xoliqova Matluba Mardon qizi²

*¹TKXU Samarqand filiali Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası dotsenti
m.hazratqulov@kiut.uz*

Samarqand davlat pedagogika institute

*²Pedagogika fakulteti Boshlang'ich va maktabgacha ta'lim nazariyasi
kafedrası assistenti*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17617802>

Annotatsiya. Mazkur maqolada kommunikativ yondashuvning mohiyati va uning ta'lim jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor talabalarning kommunikativ savodxonligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish strategiyalariga qaratilgan. Muallif zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interaktiv metodlar va ijtimoiy faol o'qitish uslublari orqali talabalarda samarali muloqot ko'nikmalarini shakllantirishning yo'llarini ochib beradi. Shuningdek, ta'lim jarayonida til kompetensiyasini oshirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish hamda madaniy va ijtimoiy kontekstda moslashuvchanlikni ta'minlashga qaratilgan innovatsion strategiyalar asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: kommunikativ yondashuv, kommunikativ savodxonlik, innovatsion strategiyalar, til o'rganish, interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, talabalar faolligi, ta'lim samaradorligi.

INNOVATIVE STRATEGIES FOR DEVELOPING STUDENTS' LITERACY BASED ON A COMMUNICATIVE APPROACH

Hazratqulov Mutallib Rashidovich¹, Xoliqova Matluba Mardon qizi²

*¹Associate Professor, Department of Preschool and Primary Education Methodology, Samarkand Branch of Tashkent Chemical-Technological University; Samarkand State Pedagogical Institute²
Assistant, Department of Theory of Primary and Preschool Education, Faculty of Pedagogy*

Abstract. This article analyzes the essence of the communicative approach and its importance in the educational process. The main attention is paid to the strategies for using innovative approaches in developing students' communicative literacy. The author reveals ways to form effective communication skills in students through modern information and communication technologies, interactive methods and socially active teaching methods. Also, innovative strategies are justified in the educational process aimed at increasing language competence, developing critical thinking, and ensuring flexibility in the cultural and social context.

Keywords: communicative approach, communicative literacy, innovative strategies, language learning, interactive methods, information and communication technologies, student engagement, educational effectiveness.

ИННОВАЦИОННЫЕ СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ ГРАМОТНОСТИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ КОММУНИКАТИВНОГО ПОДХОДА

Хазраткулов Муталлиб Рашидович¹, Холикова Матлуба Мардон кизи²

¹Доцент кафедры «Методика дошкольного и начального образования»

*Самаркандского филиала Ташкентского международного университета Кимё,
Самаркандский государственный педагогический институт² Ассистент кафедры
«Теория начального и дошкольного образования»
Педагогического факультета*

Аннотация. В статье анализируется сущность коммуникативного подхода и его значение в образовательном процессе. Основное внимание уделяется стратегиям использования инновационных подходов в развитии коммуникативной грамотности учащихся. Автор раскрывает пути формирования эффективных коммуникативных навыков у учащихся посредством современных информационно-коммуникационных технологий, интерактивных методов и социально-активных методов обучения. Также обосновывается применение инновационных стратегий в образовательном процессе, направленных на повышение языковой компетенции, развитие критического мышления, обеспечение гибкости в культурном и социальном контексте.

Ключевые слова: коммуникативный подход, коммуникативная грамотность, инновационные стратегии, изучение языка, интерактивные методы, информационно-коммуникационные технологии, вовлеченность студентов, эффективность обучения.

Kirish

Globalizatsiya va axborot texnologiyalari tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda shaxsning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi, professional muvaffaqiyatga erishishi va madaniyatlararo muloqotga samarali kirishishi uchun yuqori darajadagi kommunikativ savodxonlik zarur bo'lib bormoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida talabalarining til kompetensiyasini shakllantirishda kommunikativ yondashuv asosiy metodik tamoyil sifatida o'z o'rnini topmoqda. Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, an'anaviy ta'lim metodlari o'quvchilarda faqat nazariy bilimlarni emas, balki amaliy muloqot ko'nikmalarini ham rivojlantira olmayapti. Shu boisdan, ta'lim jarayoniga innovatsion strategiyalarni, jumladan, interaktiv texnologiyalar, loyihaviy ishlash, muamoli vaziyatlarni tahlil qilish va axborot-kommunikatsiya vositalarini joriy etish orqali talabalarini faol va samarali muloqotga yo'naltirish zarurati ortib bormoqda. Shuningdek, kommunikativ savodxonlik – bu nafaqat til bilish, balki fikrni aniq ifodalash, tinglovchini tushunish, ijtimoiy va madaniy kontekstda moslashuvchan bo'lish kabi kompleks ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Ushbu ko'nikmalarni shakllantirish zamonaviy pedagogik yondashuvlar va innovatsion strategiyalarni talab qiladi. Shu jihatdan mazkur tadqiqot mavzusi bugungi ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Metodologiya

Kommunikativ yondashuv ta'lim metodikasi sohasida so'nggi o'n yilliklarda keng qo'llanilayotgan samarali yondashuvlardan biri hisoblanadi. Mazkur yondashuv talabalarining faolligini oshirish, ularni real kommunikativ vaziyatlarda mustaqil fikr yuritishga va erkin muloqotga jalb etish imkonini beradi. Bu borada ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turli tadqiqotlar olib borilgan.

C.Brumfit va K.Johnson kabi xorijiy tadqiqotchilar o'z ishlarida kommunikativ yondashuvni til o'rganish jarayonida asosiy tamoyil sifatida belgilab, o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda muhit, motivatsiya va amaliy faoliyatning muhimligini alohida ta'kidlaganlar. Ularning fikricha, o'quvchilarga nafaqat til qoidalarini, balki uni real hayotiy holatlarda qo'llay olishni o'rgatish kerak.

M.Baxmutova, E.Passov, N.Gez kabi rus olimlari ham kommunikativ yondashuvning nazariy asoslarini ishlab chiqqan bo'lib, til o'rgatishda muloqot jarayonining psixologik va ijtimoiy ji-

hatlarini hisobga olish zarurligini uqtiradilar. Ularning tadqiqotlari kommunikativ metodlarning samaradorligini oshirishda muhim nazariy manba bo'lib xizmat qiladi. O'zbekistonlik olimlardan M.Jo'rayev, S.Mamatqulov, G.Saidova, N. Qurbonova va boshqalar milliy ta'lim tizimi sharoitida kommunikativ yondashuvni tatbiq etish, o'quvchilarning lisoniy va madaniy kompetensiyasini shakllantirish, innovatsion texnologiyalarni qo'llash borasida muhim ilmiy ishlar yaratganlar. Jumladan, N.Qurbonovanning kommunikativ savodxonlikni ona tili ta'limida shakllantirishga oid tadqiqotlari ushbu yo'nalishdagi nazariy va amaliy asoslarni boyitgan.

So'nggi yillarda AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) asosida ta'lim berish bo'yicha ilmiy maqolalar va uslubiy qo'llanmalar ham keng ommalashmoqda. Bu manbalarda elektron resurslar, onlayn platformalar, virtual muhitlar va interaktiv dars usullari yordamida talabalar kommunikativ savodxonligini rivojlantirish bo'yicha innovatsion yondashuvlar bayon etilgan. Umuuman olganda, tahlil etilgan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, kommunikativ yondashuv nafaqat til o'rganish, balki shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy integratsiya vositasi sifatida ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, mavjud adabiyotlar asosida milliy ta'lim tizimi uchun moslashtirilgan, aniq metodik yondashuv va strategiyalarni ishlab chiqish zarurati mavjud.

Tahlil

Talabalarning kommunikativ savodxonligini rivojlantirishda mavjud muammolarni samarali hal etish uchun quyidagi yo'nalishlarda kompleks yondashuv zarur:

1. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish. O'qituvchilar dars jarayoniga zamonaviy interaktiv usullar – klaster, aqliy hujum, debat, rol o'ynash, muammoli vaziyatlar tahlili (case-study), loyiha asosida o'qitish kabi metodlarni keng tatbiq etishlari lozim. Bu yondashuvlar talabalarni faol ishtirok etishga, o'z fikrini aniq va asosli ifoda etishga undaydi.
2. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish. Online platformalar (Google Classroom, Moodle, Quizlet, Kahoot va boshqalar), virtual muhitlar va raqamli vositalar orqali o'qitish talabalar til o'rganishiga qiziqishini oshiradi va mustaqil ta'limni rag'batlantiradi. Bu esa ularning kommunikativ kompetensiyasini mustahkamlaydi.
3. Real hayotga yaqin kommunikativ vaziyatlarni yaratish. Darslarda yoki mustaqil ishlar davomida talabalarni real muloqot muhitiga yaqinlashtirish zarur: masalan, intervyular, taqdimotlar, muhokamalar, jamoaviy loyiha ishlari orqali. Bu yondashuv kommunikativ savodxonlikni amaliy tarzda rivojlantirishga xizmat qiladi.
4. Madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish. Kommunikativ savodxonlik faqat til bilimidan iborat emas; u madaniy kontekstni tushunish va unga moslashish ko'nikmalarini ham o'z ichiga oladi. Shu bois, o'quv jarayonida boshqa madaniyatlar haqida bilim berish, madaniyatlararo taqqoslashlar kiritish orqali talabalarni global fikrlashga o'rgatish maqsadga muvofiq.
5. O'qituvchilarning malakasini oshirish. Kommunikativ yondashuvdan samarali foydalanish uchun pedagoglar zamonaviy metodikalardan xabardor bo'lishlari zarur. Ular uchun seminar-treninglar, master-klasslar va malaka oshirish kurslarini muntazam tashkil etish lozim.
6. Baholash tizimini takomillashtirish. Talabalar kommunikativ savodxonligini aniqlashda an'anaviy test va yozma ishlar bilan bir qatorda og'zaki nutq, muloqotdagi faollik, fikr ifodasi va madaniy moslashuv darajasi kabi mezonlarga asoslangan formatlar (portfolio, prezentatsiya, loyiha ishlari)ni joriy etish maqsadga muvofiq.

Xulosa

O'tkazilgan tahlillar, ilmiy adabiyotlar o'rganilishi hamda amaliy kuzatuvlarga asoslanib, quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. **Ta'lim jarayoniga kommunikativ yondashuvni tizimli integratsiya qilish.** Har bir dars mazmuni va metodikasi muloqotga yo'naltirilgan, talabalarni faol fikrlash va o'z fikrini erkin ifoda etishga undovchi shaklda tashkil etilishi lozim. Bu yondashuv faqat til o'rgatishda emas, barcha fanlarda qo'llanishi mumkin.

2. **Innovatsion texnologiyalarga asoslangan metodik qo'llanmalar ishlab chiqish.** O'zbekiston oliy ta'lim tizimi sharoitiga mos, zamonaviy AKT vositalari va interaktiv metodlar asosida yaratilgan o'quv-metodik qo'llanmalar talabalarning kommunikativ savodxonligini rivojlantirishda muhim vosita bo'la oladi.
3. **Til va nutq kompetensiyalarini baholashning zamonaviy mezonlarini joriy etish.** Talabani faqat grammatik bilimlariga emas, balki real muloqotdagi faolligi, tushunish darajasi, fikr ifodasi aniqligi, nutq madaniyati va madaniyatlararo moslashuv kabi jihatlariga asoslangan kompleks baholash tizimini ishlab chiqish va qo'llash zarur.
4. **Pedagog kadrlar malakasini oshirishga qaratilgan maxsus kurslar tashkil etish.** O'qituvchilar zamonaviy kommunikativ metodlar, interaktiv o'qitish texnologiyalari, AKT vositalaridan samarali foydalanish bo'yicha muntazam tayyorlov va qayta tayyorlash kurslaridan o'tishlari kerak.
5. **Talabalarda tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi topshiriqlarni keng qo'llash.** Muloqot jarayonida shaxsiy fikr bildirishi, dalillar bilan himoya qilishi, turli nuqtai nazarlarni solishtirishi va xulosalashga o'rgatuvchi topshiriqlar orqali kommunikativ savodxonlik chuqurroq shakllanadi.
6. **Madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish.** Talabalarning xorijiy madaniyatlar bilan tanishishiga, ularni tushunishga va ularga hurmat bilan yondashishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar kommunikativ kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi bo'lib xizmat qiladi.
7. **Tadqiqotlar natijalarini ta'lim amaliyotiga joriy etish.** Olib borilgan ilmiy ishlar va tajriba asosida ishlab chiqilgan metodik yechimlar, strategiyalar va vositalar oliy ta'lim muassasalari o'quv dasturlariga kiritilishi lozim.

Kutilayotgan iqtisodiy samara. Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish orqali nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki iqtisodiy samaradorlikka ham erishish mumkin. Quyidagi asosiy yo'nalishlarda iqtisodiy foyda kutilmoqda:

1. **Ta'lim sifatining oshishi — mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar yetishib chiqadi.** Kommunikativ savodxonlikka ega bo'lgan bitiruvchilar real muloqotga tayyor, ijtimoiy faol va kasbiy jihatdan yetuk bo'ladi. Bu esa ularning ishga joylashish imkoniyatlarini oshiradi, ishsizlik darajasining pasayishiga olib keladi va milliy iqtisodiyotning mehnat samaradorligini kuchaytiradi.
2. **Ta'lim jarayonining samaradorligi ortadi — resurslar tejab ishlatiladi.** Interaktiv va innovatsion metodlar asosida tashkil etilgan darslar qisqa vaqt ichida yuqori natija beradi, talabalarni passiv eshituvchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Bu esa vaqt va moddiy resurslarning tejaliishiga, o'quv jarayonining sifatli va tejamkor bo'lishiga xizmat qiladi.
3. **Raqamli texnologiyalarni tatbiq etish — o'quv xarajatlarining kamayishiga olib keladi.** Online darslar, elektron darsliklar va platformalardan foydalanish bosma materiallar, transport, sinf jihozlari kabi xarajatlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Uzoq muddatda bu ta'lim muassasasi byudjetida tejamkorlikni ta'minlaydi.
4. **Innovatsion yondashuvlar orqali qo'shimcha iqtisodiy imkoniyatlar yaratiladi.** Zamonaviy kommunikativ ko'nikmalarga ega kadrlar xorijiy investorlar, xalqaro tashkilotlar bilan erkin ishlay oladi, eksportbop xizmatlar va sohalarning rivojlanishiga turtki beradi. Bu esa mam-lakat iqtisodiy salohiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.
5. **Ta'lim eksportining kuchayishi.** Ta'lim sifati oshgani sayin, xorijiy talabalar uchun ham O'zbekiston ta'lim tizimi jozibador bo'lib boradi. Bu esa xorijiy talabalarni jalb qilish orqali ta'lim eksportini rivojlantiradi va byudjetga qo'shimcha daromad keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Брумфит С., Джонсон К. (Brumfit C., Johnson K.). The Communicative Approach to Language Teaching. – Oxford University Press, 1979.

2. Хайруллина Р.Р. Коммуникативная компетенция как цель обучения иностранному языку в вузе. – Казань: Казанский университет, 2015.
3. Passov E.I. Kommunikativnaya metodika obucheniya inostrannym yazykam: opyt i problemy. – Moskva: Prosveshchenie, 1991.
4. Gez N.I. Metodika obucheniya inostrannym yazykam: teoriya i praktika. – Moskva: Akademiya, 2006.
5. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge University Press, 2001.
6. Brown H.D. Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. – Pearson Education, 2007.
7. Qurbonova N. Ona tili darslarida kommunikativ yondashuv asosida o'quvchilarning mulohazot kompetensiyasini shakllantirish. – Toshkent: TDP, 2020.
8. Jo'rayev M. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
9. Saidova G. Til o'rgatishda innovatsion metodlar va kommunikativ yondashuv. – "Filologiya masalalari" ilmiy jurnali, 2021, №3.
10. Mamatqulov S. Kasbiy ta'limda til va nutq kompetensiyasini shakllantirish yo'llari. – Toshkent: Innovatsiya nashriyoti, 2022.

BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARINI RAQAMLI VOSITALAR ORQALI MUSTAQIL TA'LIM OLIISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Mamirov Azim Xolmurzayevich

Toshkent xalqaro Kimyo universiteti Samarqand filiali "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrası v.v.b. dotsenti pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
mamirovazim33@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17617824>

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirishda raqamli vositalardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritilgan. Tadqiqotda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron o'quv resurslari hamda masofaviy ta'lim platformalarining ta'lim jarayonidagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, raqamli vositalar yordamida mustaqil ta'limni tashkil etish metodikasi, talabalarlar kompetensiyalarini rivojlantirish yo'nalishlari hamda natijaviylikni oshirish imkoniyatlari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari; mustaqil ta'lim; raqamli vositalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron o'quv resurslari, masofaviy ta'lim, pedagogik kompetensiya, ta'lim jarayonining samaradorligi.

FORMATION OF FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS' INDEPENDENT LEARNING SKILLS THROUGH DIGITAL MEDIA

Mamirov Azim Kholmurzaevich

Acting Associate Professor of the Department of Preschool and Primary Education Methodology, Kimyo International University In Tashkent, Samarkand Branch, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

Abstract. This article discusses the theoretical and practical aspects of using digital media to form independent learning skills in future physical education teachers. The study analyzes the importance of modern information and communication technologies, electronic learning resources and distance learning platforms in the educational process. It also shows the methodology for organizing independent learning using digital media, directions for developing student competencies and opportunities for increasing effectiveness.

Keywords: future physical education teachers; independent learning; digital media, information and communication technologies, electronic learning resources, distance learning, pedagogical competence, effectiveness of the educational process.

ФОРМИРОВАНИЕ НАВЫКОВ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ С ПОМОЩЬЮ ЦИФРОВЫХ МЕДИА

Мамиров Азим Холмурзаевич

*Исполняющий обязанности доцента кафедры «Методика дошкольного и начального образования» Самаркандского филиала Ташкентского международного университета
Кимё, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам*

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты использования цифровых медиа для формирования навыков самостоятельной работы будущих учителей физической культуры. Проанализировано значение современных информационно-коммуникационных технологий, электронных образовательных ресурсов и платформ дистанционного обучения в образовательном процессе. Представлены методика организации самостоятельной работы с использованием цифровых медиа, направления развития компетенций студентов и возможности повышения эффективности.

Ключевые слова: будущие учителя физической культуры; самостоятельное обучение; цифровые медиа, информационно-коммуникационные технологии, электронные образовательные ресурсы, дистанционное обучение, педагогическая компетентность, эффективность образовательного процесса.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son farmonida O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish va ommalashtirish borasida amalga oshirilishi kerak bo'lgan chora-tadbirlar belgilangan. Shuningdek, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son farmon bilan ilm-fan sohasida 2030-yilgacha bo'lgan davrda amalga oshiriladigan rivojlanish konsepsiyasi tasdiqlandi. Shuningdek, 2022-yil 3-noyabrdagi PQ-414-son qaror jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash va ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan. Mazkur me'yoriy hujjatlar hamda boshqa normativ-huquqiy qoidalarda ko'rsatilgan ustuvor vazifalarni bajarilishi uchun ushbu tadqiqot ishi muhim rol o'ynaydi.

Metodologiya

L.P.Matveyevning fikriga ko'ra, "jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarni tayyorlashda ularning aqliy tayyorgarligi" muhim rol o'ynaydi [3; 331-b.]. Chunki, sport faoliyatining mohiyatini, bevosita u bilan bog'liq hodisa va jarayonlarni o'z-o'zini rivojlantirish orqali tushunish oson.

A.E.Sattarov "Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarida kasbiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari va texnologiyalari" mavzusidagi dissertatsiyasida kasbiy pedagogik madaniyatini shakllantirishda sport etikasi va estetikasi orqali yoritib bergan [2; 183-b.]. F.M.Yakubov "Bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarning tafakkur tarzini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish" mavzusidagi dissertatsiyasida bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarning tafakkur tarzini rivojlantirishda "Valuesports" pedagogik usuli orqali yoritib bergan [8; 58-b.].

So'nggi yillarda ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan keng foydalanish mustaqil ta'limni rivojlantirishga kuchli turtki bermoqda. Elektron darsliklar, onlayn platformalar, mobil ilovalar va masofaviy ta'lim tizimlari bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilariga bilimni mustaqil egallash, axborotni tanlash, tahlil qilish va qayta ishlash ko'nikmalarini shakllantirish imkonini bermoqda.

Raqamli vositalar yordamida mustaqil ta'limni tashkil etish konstruktivizm, self-directed learning (o'zini-o'zi boshqaruvchi ta'lim) va kompetensiyaviy yondashuv kabi nazariyalar bilan uzviy bog'liqdir. Bu nazariyalarga ko'ra, o'quvchi/talaba bilimni tayyor shaklda olmaydi, balki faol kognitiv faoliyat jarayonida uni quradi, mustaqil maqsad qo'yadi va natijani baholaydi

Tadqiqot maqsadi: Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini raqamli vositalar orqali shakllantirish mexanizmlarini aniqlash va samaradorligini baholash.

Tahlil

Talabalarining mustaqil ish faoliyati ilmiy tashkiloti - bu shaxsning faoliyati va mustaqilligini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar tizimi va foydali ma'lumotlarni olish uchun ratsional ravishda (ya'ni, vaqt va kuch sarflashsiz) ko'nikmalarini rivojlantirish. Aksariyat hollarda maxsus adabiyotda talabalarining mustaqil ish faoliyati tor ma'noda-bir xil ilmiy ish sifatida tushuniladi. O'z-o'zini tarbiyalash - o'quv jarayoniga parallel ravishda o'qiyotgan talabalarining o'zini o'zi tayyorlashidir.

Talabalarining majburiy mustaqil ish faoliyati o'z ifodasini uy vazifasi shaklida topadi, uni o'z vaqtida bajarish uchun mustaqil ish faoliyati jadvalini tuzish, talabalar vaqtining byudjetini o'rganish va hatto mustaqil ish faoliyati kunini ajratish tavsiya etiladi.

Talabalarining mustaqil ish faoliyatini takomillashtirish jarayonida u yoshmutaxassisning shaxsiy xususiyatlari sifatida faoliyat va mustaqillikka erishadi: - u tez ilmiy va texnik taraqqiyot sharoitida ilmiy ma'lumotlarga rioya qilishni zamonaviy fan darajasida bo'lishni o'rganadi; - uning doimiy ravishda to'planishi va bilimlarini yaxshilashga ichki ehtiyoj bor; - u turli manbalardan yangi bilimlarni olish uchun vaqt va kuch sarflashning eng samarali usullarini qo'llaydi.

1-jadval

Mustaqil ta'lim ko'nikmalarining asosiy komponentlari

<i>Nº</i>	<i>Ko'nikma komponenti</i>	<i>Tavsifi</i>
1	Maqsad qo'yish va rejalashtirish	O'quv vazifalarini mustaqil aniqlash va reja tuzish
2	Axborotni izlash va tanlash	Zaruriy materiallarni mustaqil topish va saralash
3	Tahlil va qayta ishlash	Olingan ma'lumotlarni qayta ishlash va umumlashtirish
4	Natijani baholash	O'z faoliyatini nazorat qilish va xulosa chiqarish

2-jadval

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining raqamli vositalardan foydalanish darajasi (tajriba guruhi misolida)

<i>Nº</i>	<i>Raqamli vosita turi</i>	<i>Yuqori (%)</i>	<i>O'rtacha (%)</i>
Abstract. The thesis examines the issues of improving the methodology for preparing financial statements in accordance with International Financial Reporting Standards (IFRS) at enterprises in the electric power industry. The research analyzes the conceptual framework of financial reporting, principles of faithful representation, and qualitative characteristics. Based on the example of major joint-stock companies in Uzbekistan's energy sector — "Thermal Power Plants,"

“Regional Electric Networks,” “National Electric Networks of Uzbekistan,” and “Uzbekhydroenergy” – the dynamics of assets, equity, and net profit for the period 2020–2024 are studied.

Keywords: IFRS, financial reporting, methodology, transformation, electric power industry, reliability, comparability, relevance.

Kirish

Xo'jalik yuritish sharoitlarida har qanday darajadagi iqtisodiy tizim barqaror rivojlanishga intiladigan subyektlarga tayanadi. Barqaror rivojlanayotgan korxonalar tashkilotga kiritilgan resurslarni saqlab qolish va asosiy fondlarni takror ishlab chiqarish maqsadida dividend yoki kapitalni o'stirish shaklidagi iqtisodiy foydalarni olishdan manfaatdor. Korxonalarning iqtisodiy inqiroz davrida resurslarga kirishining cheklanishi iqtisodiyot subyektlari oldiga investitsiya loyihalarini puxta tartibga solish va eng istiqbollilarini saralab olish orqali investitsiya resurslarini oqilona taqsimlash vazifasini qo'yadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlardan olingan ma'lumotlar turli loyihalarga kiritilgan mablag'larni saqlash mexanizmi sifatida hamda manfaatdor tomonlar uchun foydali axborotni shakllantirish uchun xizmat qiladi. Hozirgi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan buxgalteriya hisobi va hisobotini xalqaro standartlarga muvofiq qayta isloh qilish jarayoni manfaatdor foydalanuvchilar uchun foydali axborotni shakllantirishga yo'naltirilgan.

Metodologiya

Xalqaro standartlardan foydalangan holda tuzilgan hisobot kompaniya haqida ko'proq ma'lumot beradi va moliyaviy axborotning shaffofligini ta'minlaydi. Amaliy tajribadan ko'rinadiki hisobot tuzishda xalqaro standartlardan foydalanish kompaniyaga birinchidan xalqaro kapital bozorlariga chiqish imkoniyatini beradi ikkinchidan u moliyalashtirishni ancha qulay shartlarda jalb yetishi mumkin bo'ladi. MXHS bo'yicha hisobot tuzadigan kompaniya haqidagi ma'lumot hajmi salohiyatli investorga moliyalashtirish bilan bog'liq bo'lgan xavf-xatarlarni tushunish va baholash imkonini beradi.

MXHSning ahamiyati shundaki bozor iqtisodiyoti sharoitlarida integratsiya aloqalarini rivojlantirish uchun moliyaviy hisobotni dunyoning barcha mamlakatlaridagi foydalanuvchilar qabul qila oladigan tarzda tuzish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Xalqaro standartlardan foydalanish biznes uchun ham umuman davlat uchun ham yangi imkoniyatlarni taqdim etadi.


Tahlil

MXHSni joriy etish moliyaviy hisobotning ichki va tashqi foydalanuvchilari xususiy kompaniyalardan tortib investorlar va davlatning tartibga soluvchi organlarigacha zarur. Eng avvalo qaror qabul qilish uchun moliyaviy ma'lumot sifati oshadi va kompaniyaga kapital jalb etish uchun keng imkoniyatlar yaratiladi.

Xalqaro standartlar quyidagi konseptual asoslarni o'z ichiga oladi: fundamental sifat tavsiflari, taqdim etilgan ma'lumotning muhimligi, uning ishonchligi, moliyaviy hisobot elementlari, aktiv va majburiyatlarni baholashga yondashuvlar, kapital va kapitalni saqlash tushunchalari. Konseptual asoslar asosiy maqsadni ya'ni MXHSni bo'yicha hisobotni foydalanuvchilar uchun yuqori darajada foydali qilishni nazarda tutadi.

Fundamental sifat xususiyatlari o'z ichiga boshqa bir qator xususiyatlarni ham oladi. Ma'lumotning mosligiga uning prognoz qilingan qiymati va ahamiyatligi ta'sir qiladi. Shuningdek to'g'ri tasavvur qilish uchun ham qator xususiyatlar ta'sir qiladi xususan ma'lumotning foydaliligi neytral aks ettirilishi va xatolarning yo'qligi. Fundamental sifat xususiyatlariga relevantlik ham kiradi. Relevant ma'lumot uning asosida qaror qabul qilish va baholash mumkin bo'lishini anglatadi.

MXHS 1 bilan tartibga solinadigan moliyaviy hisobotning to'liq tarkibiga quyidagilar kiradi: buxgalteriya balansi, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot, kapital o'zgarishlari to'g'risidagi hisobot, pul mablag'larining harakati to'g'risidagi hisobot, hisob siyosati va tushuntiruvchi izohlar. Ushbu hisobot shakllarining barchasi asosiy hisoblanadi va majburiy tarzda tuzilishi shart.




1-rasm. MXHS asosida moliyaviy hisobot tuzishdagi dastlabki harakatlar tasnifi [12]

Qayd etish lozimki sanab o'tilgan shakllarning hammasining MXHS 1 bo'yicha aniq nomi majburiy emas va bu tashkilotlar tomonidan o'zgartirilishi mumkin. Biroq bunda hisobot shakllarining nomlarida mavjud moliyaviy ko'rsatkichlarning iqtisodiy mohiyati aks etishi va ular foydalanuvchilar tomonidan tushunarli bo'lishi lozim.

MXHS bo'yicha moliyaviy hisobotga qo'yiladigan birinchi va asosiy talab undagi ma'lumotning ishonchliligidir. Foydalanuvchilarga ishonchli hisobotni taqdim etish uchun bir qator shartlar bajarilishi kerak.

Birinchidan barcha qo'llaniladigan MXHS talablarining bajarilishini ta'minlash zarur. Ikkinchidan MXHS 8-son standartiga muvofiq hisob siyosatini ishlab chiqish va uni bosqichma-bosqich qo'llash amalga oshirilishi kerak. Uchinchidan quyidagi xususiyatlarga ega bo'lgan ma'lumotni ta'minlash lozim: tushunarlilik, o'rinlilik, ishonchlilik va taqqoslanuvchanlik. To'rtinchidan zarur hollarda qo'shimcha ma'lumotlarni oshkor etish talab qilinadi.

Ishonchli hisobot undan foydalanuvchilarga firmaning kelgusi pul oqimlarini prognoz qilish shuningdek u asosida samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyati beradi. Bunda pul oqimlarining paydo bo'lish ehtimollari va davrlari ham hisobga olinadi.



2-rasm. MXHS bo'yicha moliyaviy hisobotni tayyorlash metodologiyasini takomillashtirish yo'nalishlari [12]

Xulosa

Hisobotni tuzishda muhim taxminni e'tiborga olish zarur ya'ni uzluksizlik taxmini. Firma o'z faoliyatini uzluksiz davom ettira olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Agar bu masalada noaniqlik yuzaga kelsa yoki firma tugatilishni rejalashtirayotgan bo'lsa u o'z hisobotida ushbu holatlarni oshkor qilishi shart.

Firmaning o'z faoliyatini uzluksiz davom ettirish qobiliyatini baholashda rahbariyat kamida o'n ikki oy davomidagi kelgusi mavjud ma'lumotlarning jami hajmini hisobga olishi kerak. Ehtimol joriy va kelgusi foydalilik qarzlarni qaytarish taqvimlari moliyalashtirishning ehtimoliy manbalari kabi omillar yig'indisini keng tahlil qilish talab etiladi.

MXHS bo'yicha moliyaviy hisobotni tayyorlash metodologiyasini takomillashtirishning asosiy jihatlariga bir necha muhim yo'nalishlar kiradi. Bular o'z ichiga foydalanuvchilar uchun moliyaviy ma'lumotning taqqoslanishini va shaffofligini ta'minlashga qaratilgan hal qiluvchi jihatlarini oladi.

Ishonchli taqdim etish moliyaviy ma'lumotlarning to'liqligi betarafligi va xatosizligini nazarda tutadi. Hisoblash usuli xo'jalik faoliyati faktlarini mablag'larning haqiqiy harakatidan qat'i nazar ular yuzaga kelgan paytda aks ettirishni talab qiladi. Faoliyatning uzluksizligi kompaniyaning yaqin kelajakda o'z faoliyatini davom ettirish qobiliyatini nazarda tutadi.

Ahamiyatlilik tamoyili foydalanuvchilarning iqtisodiy qarorlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlarni oshkor qilishni talab qiladi. Boshqa tamoyillarga taqqoslanuvchanlik o'z vaqtida taqdim yetish tushunarlik va tekshirish mumkinligi kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. МХХС (IAS) 1 «Молиявий ҳисоботни тақдим этиш». -- Лондон: IFRS Foundation, 2023.
2. МХХС (IAS) 7 «Пул маблағларининг ҳаракати тўғрисидаги ҳисобот». -- Лондон: IFRS Foundation, 2023.
3. МХХС (IAS) 8 «Ҳисоб сиёсати, бухгалтерия баҳоларини ўзгартириш ва хатолар». -- Лондон: IFRS Foundation, 2023.
4. «Иссиқлик электр станциялари» АЖнинг йиллик ҳисоботлари 2020-2024. -- Тошкент, 2024.
5. «Худудий электр тармоқлари» АЖнинг йиллик ҳисоботлари 2020-2024. -- Тошкент, 2024.
6. «Ўзбекистон миллий электр тармоқлари» АЖнинг йиллик ҳисоботлари 2020-2024. -- Тошкент, 2024.
7. «Ўзбекгидроэнерго» АЖнинг йиллик ҳисоботлари 2020-2024. -- Тошкент, 2024.
8. Житлухина О.Г. Молиявий ҳисоботларнинг сифат тавсифлари. -- Москва: Молия ва кредит, 2021. -- 168 б.
9. Вахрушина М.А. Халқаро молиявий ҳисобот стандартлари. -- Москва: Омега-Л, 2022. -- 568 б.
10. Соколов Я.В. Бухгалтерия ҳисобининг асослари ва тамойиллари. -- Москва: Молия ва статистика, 2020. -- 496 б.
11. Палий В.Ф., Палий В.В. Молиявий ҳисобот: халқаро стандартлар. -- Москва: ИНФРА-М, 2021. -- 456 б.
12. Muallif ishlanmasi.

ЎЗБЕКИСТОНДА КЎЧМАС МУЛК БОЗОРИНИ БАҲОЛАШ ВА УНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Ишонкулов Н.Ф.

Тошкент Кимё халқаро университети Самарқанд филиали директори,

и.ф.д., проф. тел: +99890-819-55-57,

e-mail: n.ishankulov@kiut.uz

<https://orcid.org/0009-0001-8796-4800>

Аннотация

Мақолада Ўзбекистонда кўчмас мулкни баҳолашнинг амалдаги ҳолати ва уни ривожлантириш истиқболлари ҳамда баҳолаш хизматлари бозорининг ривожланиш ҳолати акс эттирилган. Жумладан, кўчмас мулк қийматини баҳолашнинг хизматлар бозоридаги ўрни, мулкни баҳолашга оид илмий-назарий қарашларнинг қиёсий тавсифи, кўчмас мулк объектларининг белгилари, кўчмас мулк бозорларининг таснифи, баҳолаш фаолиятини тартибга солиш билан боғлиқ бўлган механизмлар кўриб чиқилган.

Таянч сўзлар: кўчмас мулк қиймати, баҳолаш, кўчмас мулк бозорини баҳолаш, баҳолаш ташкилотлари, кўчмас мулк бозори ривожланишига таъсир этувчи омиллар, баҳолаш ташкилотлари фаолият кўрсаткичлари, баҳолаш фаолиятининг субъектлари.

ASSESSMENT OF THE REAL ESTATE MARKET IN UZBEKISTAN AND PROSPECTS FOR ITS DEVELOPMENT

Ishankulov Nizamjon Fayzullayevich

Doctor of Economic Sciences, Professor Kimyo International University In Tashkent,

tel: +99890-819-55-57,

e-mail: n.ishankulov@kiut.uz

<https://orcid.org/0009-0001-8796-4800>

Annotation. The article reflects the current state and prospects for its development in Uzbekistan, as well as the development of the valuation services market. In particular, the role of real estate valuation in the services market, a comparative description of scientific and theoretical approaches to property valuation, characteristics of real estate objects, classification of real estate markets, and mechanisms related to the regulation of valuation activities are considered.

Key words: real estate value, valuation, real estate market valuation, valuation organizations, factors influencing the development of the real estate market, performance indicators of valuation organizations, subjects of valuation activities.

Кириш. Жаҳонда бозор иқтисодиётига ўтган ва ушбу иқтисодий тизимга тўлиқ ўтиш жараёнида бўлган давлатлардаги иқтисодий муносабатлар ривожланишида капитал бозорининг муҳим сегментларидан ҳисобланган кўчмас мулк ва унинг бозори муҳим ўринга эга. Кўчмас мулк бозори дунё мамлакатлари ялпи бойлигининг асосий қисмини ташкил этади. Таъкидлаш лозимки, кўчмас мулк бозори мавжуд бўлмаган бозор муносабатларини тасаввур этиш имконсиз. “Глобал кўчмас мулк бозори 2022 йилдаги 3694,47 миллиард доллардан 2023 йилда 3976,18 миллиард долларгача ўсди ва йиллик ўсиш суръати (CAGR) 7,6 фоизни ташкил этди. Кўчмас мулк бозори 2027 йилда CAGR 7,0%да 5209,84 миллиард долларгача ўсиши кутилмоқда”[1]. Шунингдек, иқтисодий фаолиятни ташкил этиш, саноат тармоқлари фаолиятини юритиш, аҳолини уй-жойлар билан таъминлаш билан боғлиқ иқтисодий муносабатларнинг замирида кўчмас мулк бозори ва у билан боғлиқ бўлган молиявий-иқтисодий муносабатларнинг аҳамияти янада ортиб бормоқда. Шу нуқтаи-назардан, кўчмас мулкни баҳолаш методологиясини такомиллаштириш долзарб масалалардан бири ҳисобланади.

Халқаро амалиётда кўчмас мулк қийматини ва унинг бозорини баҳолашнинг назарий, ташкилий-услубий ва амалий асосларини ҳамда методологиясини такомиллаштириш борасида жаҳоннинг кўплаб мамлакатларида мунтазам равишда илмий тадқиқотлар олиб борилмоқда. Рақамли иқтисодиёт шароитида кўчмас мулк қийматини баҳолаш фаолиятида IT технологиялари ва сунъий интеллектдан фойдаланиш, кўчмас мулкни баҳолаш жараёнида шаффофликни таъминлаш борасидаги илмий изланишларга эътибор қаратилмоқда. Бироқ, кўчмас мулкни қиёсий ёндашув асосида баҳолашда солиштириладиган элементлар бўйича ягона маълумотларни тўплаш зарурлиги, инвестиция мақсадлари учун кўчмас мулкни баҳолашда пул оқимларини дисконтлаш учун капиталлаштириш ставкасини ҳисоблаш, баҳолаш ёндашувлари бўйича вазни коэффицентлари бўйича устуворлик беришнинг услубий жиҳатларини такомиллаштириш илмий тадқиқотларда етарлича тадқиқ этилмаганлиги кўчмас мулкни баҳолаш методологиясини такомиллаштиришга қаратилган илмий-назарий ва эмпирик тадқиқотлар олиб бориш заруратини кучайтирмоқда.

Ўзбекистонда кўчмас мулкни баҳолаш орқали мулкнинг ҳақиқий бозор қийматини аниқлаш, кўчмас мулкка бўлган қонуний ҳуқуқ-манфаатларни ҳимоя қилиш мақсадида кўчмас мулкнинг бозор қийматини баҳолаш, кўчмас мулкни баҳолаш хизматлари бозорида профессионал иштирокчилар иштирокини кенгайтиришга эътибор қаратилмоқда. Республикада

“хусусий мулк дахлсизлиги ва тадбиркорлик фаолияти эркинлигини кафолатлаш борасидаги институционал ва маъмурий ислохотларни давом эттириш ҳамда бу борада қонун устуворлигини таъминлаш”[2] вазифалари белгилаб берилган. Мазкур вазифа ижросини таъминлашда кўчмас мулкнинг ҳақиқий адолатли қийматини аниқлаш, кўчмас мулк объектлари бўйича тузилган битимлар бўйича ягона маълумотлар базасини шакллантириш, хорижий тажрибалар асосида кўчмас мулкнинг кадастр қийматини аниқлаш асосида мулкни солиққа тортиш амалиётини такомиллаштириш, баҳолашнинг халқаро стандартларини мулкни баҳолаш ягона миллий стандартларига мослаштириш кабилар устувор масалалардан бири сифатида қаралмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 8 майдаги ПФ-101-сон “Тадбиркорлик муҳитини яхшилаш ва хусусий секторни ривожлантириш орқали барқарор иқтисодий ўсиш учун шарт-шароитлар яратиш борасидаги навбатдаги ислохотлар тўғрисида”ги фармони, Вазирлар Маҳкамасининг 2009 йил 21 декабрдаги 322-сон “Мол-мулкни баҳолаш стандартларини ишлаб чиқиш, тасдиқлаш, уларга ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги, 2020 йил 23 декабрдаги 805-сон “Баҳоловчилар ва риэлторларнинг малака имтиҳонини ўтказиш ва уларга малака сертификатини бериш бўйича давлат хизматлари кўрсатишнинг маъмурий регламентларини тасдиқлаш тўғрисида”ги қарорлари, Ўзбекистон Республикаси Давлат активларини бошқариш агентлиги директорининг 2023 йил 25 октябрдаги 01/11-14/29-сон “Ўзбекистон Республикасининг Ягона миллий баҳолаш стандартини тасдиқлаш тўғрисида”ги буйруғи ҳамда мазкур соҳага оид бошқа норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифаларни амалга оширишда мазкур диссертация тадқиқоти муайян даражада хизмат қилади.

Методология.

Иқтисодиётда кўчмас мулк бозорининг аҳамиятини баҳолашда кўчмас мулк категориясига оид хорижлик ва маҳаллий иқтисодчи олимларнинг илмий-назарий ёндашувларини қуйида кўриб чиқамиз.

Хусусан, Н.В.Городнова ва Н.Маврина томонидан кўчмас мулк бозорини бошқаришнинг иқтисодий жиҳатлари борасида олиб борилган илмий-тадқиқотларида: “Кўчмас мулк бозори тарихидан маълумки, турар-жойлар билан боғлиқ муносабатларни ўзида акс эттирган кўчмас мулк бозорига оид ҳуқуқий ёндашувлар бозорга таъриф бериладиган иқтисодий ёндашувлардан олдин мавжуд бўлган. Яъни, “кўчмас мулк” категорияси қадимги Рим империяси давридаёқ ҳуқуқий талқин этилиб, ушбу давлатда мулклар йирик иккита тоифага, жумладан, кўчар ва кўчмас мулкларга ажратишган. Бу борада, роман-герман ҳуқуқ оиласи илмий тадқиқот ишларида рим ҳуқуқи – давлатдаги мавжуд ер участкалари (майдонлари), ер ости табиий бойликлари, мулкдорга тааллуқли бўлган ерлар ҳисобидан бошқаларнинг меҳнати орқали яратилган барча нарсаларни “кўчмас мулк” сифатида баҳоланган. Бу борада, ер участкаси асосий кўчмаслик хусусиятига эга ҳисобланган. Улар томонидан қуруқликда мавжуд бўлган барча нарсалар ер юзасининг табиий ёхуд сунъий қисми, яъни “*res soli*” дея аталган. Аҳамиятлиси, уларнинг фикрича, ер билан боғлиқ бўлган, унинг юза қисмига мустаҳкамланган (табиий ёки сунъий) нарсалар ернинг ажралмас таркибий қисми эканлиги эътироф этилган[3]”лиги таъкидланади.

А.Н.Асаул, С.Н.Иванов, М.К.Старовойтов[4]ларнинг фикрича, кўчмас мулкнинг асосий қондаси сифатида “*superficies solo cedi*” – шаклланди, яъни мулкни ердан “бегоналаштириш” мақсадида кўчмас мулкнинг таснифлари ишлаб чиқилди. Унга кўра, мулккий ҳуқуқлар ва мулкчилик масалаларига аниқликлар киритилган.

Бундан ташқари, кўчмас мулк бозори тушунчасига оид бўлган илмий-назарий асослар ва уларда билдирилган фикр-мулоҳазаларни қуйидаги қиёсий солиштирма жадвалда тўлиқ тавсифини кўрсатиб ўтамиз (1-жадвал).

Кўчмас мулк бозори ва уни баҳолашга оид илмий-назарий қарашларнинг қиёсий тавсифи

Олимларнинг фамилияси ва исми	Олимлар томонидан берилган таърифлар, билдирилган фикр-мулоҳазалар
Djek Fridman	Кўчмас мулк бозори - бу ўзига хос механизмлар мажмуи бўлиб, улар орқали мулккий ҳуқуқлар ва улар билан боғлиқ манфаатлар ўтказилади, нархлар белгиланади ва турли рақобатдош ердан фойдаланиш ўртасида жой ажратилади[5].
John William	Кўчмас мулк бозорида нархнинг хатти-ҳаракатларини экспертизаси, бозорни тоифага кириштириш орқали маълумотларнинг изоляциясини талаб қилади. Бозор хусусиятлари доминант атрибутлардан иборат бўлиб, бу талабни аниқлайди ва бошқа бозорларнинг чегараларини белгилайди[6].
Тарасевич Е.И.	Кўчмас мулк бозори - бу кўчмас мулк каби маълум бир товар алмашинуви амалга оширилиши мумкин бўлган аниқ нархни аниқлаш учун харидорлар ва сотувчилар бирлашадиган келишувлар тизими[7].
Волков Д.Л.	Кўчмас мулк бозори - бу маълум бир вақтда мавжуд бўлган кўчмас мулкнинг барча харидорлари ва сотувчилари талаб ва таклифининг ўзаро таъсири мавжуд бўлган ва у билан барча жорий операциялар жамланмаси амалга ошириладиган иқтисодий ва ҳуқуқий макон[8].
Грязнова А.Г.	Кўчмас мулк бозори турли мулкларни сотиб олиш ва сотишни англатади. Кўчмас мулкни баҳолашнинг шарти кўчмас мулк бозори фаолиятининг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олишдир[9].
Асаул А.Н.	Миллий (ички) кўчмас мулк бозори - бу ривожланишнинг асинхронияси, нархлари ва таваккалчилик даражаси, кўчмас мулкка инвестициялар самарадорлиги ва айниқса, қонунчилик ҳолати, сиёсий ва ижтимоий бозорлар тўплами[10].
Хомитов К.З.	Кўчмас мулк бозори – бу сотувчи ва харидорлар ўртасида кўчмас мулкнинг конкрет нархни аниқлаш учун бирлашадиган ва натижада кўчмас мулк айирбошланиши юзга келиши мумкин бўлган ташкилий тадбирлар тизими” ҳисобланади[11].
Абдукаримова Д.Р.	Кўчмас мулк бозорини баҳолаш – турли баҳолаш ёндашувлари билан олинган баҳолаш натижалари учун таққослама ўлчовларни аниқлаш орқали амалга оширилади, бунда баҳоловчи баҳолаш мақсадини ва баҳолаш натижаларидан фойдаланиш мўлжали, баҳолаш объектининг хусусияти, қиймат тури ҳамда баҳолаш ёндашувларини қўллашда фойдаланилган ахборот ҳажми ва сифатини ҳисобга олиши лозим[12].

Умуман олганда, халқаро илмий-тадқиқот ишларида “кўчмас мулк” категориясининг жисмоний объект сифатида тўртта компонентни ўзида мужассам этишига эътибор қаратилган[13]. Хусусан, ер участкаси; ер устидаги қўзғалмас объектлар; ер остидаги табиий ресурслар; ер устидаги ҳаво бўшлиқлари каби компонентлар.

Кўчмас мулк объектларининг моҳиятини аниқловчи кўрсаткичлар умумий ва маълум объектга тегишли бўлган турларга бўлинади. Кўчмас мулк объектларининг асосий белгиларидан ташқари, уларнинг турларига қараб хусусий (хос) белгиларни ажратиш мумкин. Бу хос белгиларни шу кўчмас мулкка тегишли бўлган аниқ кўрсаткичлар орқали аниқланиши қуйидаги расмда келтирилган. (1-расм).

Кўчмас мулк объектлари конструктив мураккаблик билан ажралиб туради ва уларни керакли ҳолатда сақлаб туриш харажатларни талаб қилади.

Кўчмас мулк бозорининг тузилишини тавсифлашда урта асосий ёндашувдан фойдаланиш мақсадга мувофиқ:

- институционал ёндашув;
- объект тури бўйича ёндашув;
- репродуктив ёндашув.

- 1) Кўчмас мулк бозорининг тузилишини тавсифлашдаги институционал ёндашувга асосан кўчмас мулк бозорининг қуйидаги асосий институтларини ажратиш кўрсатиш мақсадга мувофиқдир:



1-расм. Кўчмас мулк объектларининг белгилари

– кўчмас мулк бозорининг фаолият юритиши ва ривожланиши учун шарт-шароитларни тартибга солувчи ҳокимият органлари;

- кўчмас мулкни мустақил баҳолаш институтлари;
- кўчмас мулк бозорини ривожлантирувчи институтлар;
- кўчмас мулк бозорининг менежерлари институти.

2) Объект тури бўйича ёндашувга кўра, кўчмас мулк бозорини қуйдагиларга ажратиб кўрсатиш мумкин:


- ер участкалари бозори;
- сунъий иншоотлар бозори;
- қурилиш бозори ва бошқалар.

3) Репродуктив ёки қайта ишлаб чиқариш ёндашувида кўчмас мулкни такрор ишлаб чиқаришнинг ҳаётийлик цикли жараёнида юзага келадиган молиявий-иқтисодий-ҳуқуқий муносабатлар учлиги орқали бозор тузилиши тавсифланади.

Монографик тадқиқотлар шуни кўрсатадики, юқорида шарҳланган манбаларда кўчмас мулк бозори тушунчасига берилган таърифларда унинг моҳияти тўлиқ очиб берилмаган. Шу боисдан, қуйдагича муаллифлик ёндашуви шакллантирилди: **кўчмас мулк бозори** –товарлар, инвестициялар ва хизматлар бозорларининг хусусиятларига эга бўлган интеграциялашган тоифа ҳисобланади. Мазкур бозорда кўчмас мулкка оид ҳуқуқлар, объектлари ва уларга нисбатан мулк ҳуқуқи, олди-сотди жараёнлари, кўчмас мулкнинг бозор қийматини аниқлаш, бошқариш ва қийматини ўстириб бориш билан боғлиқ бўлган молиявий-иқтисодий муносабатлар тизимидир.

Таҳлил.

Бугунги кунда баҳолаш фаолиятини тартибга солиш, ушбу фаолиятни давлат томонидан мувофиқлаштириш, унинг услубий таъминотини, норматив-ҳуқуқий базасини такомиллаштириб бориш, баҳолаш фаолияти иштирокчилари, хусусан, профессионал иштирокчилари фаолиятини лицензиялаш, баҳоловчиларга малака серфитикатларини бериш, мазкур фаолиятни баҳолаш хизматлари бозори билан яхлит ҳолда тартибга солиш мураккаб бир механизмни ташкил этади. Баҳолаш фаолиятини тартибга солиш билан боғлиқ механизмларни қуйдаги расмда кўриш мумкин.



2-расм. Баҳолаш фАОЛИЯТИНИ тартибга солиш билан боғлиқ бўлган механизмлар

Баҳолаш фАОЛИЯТИНИ тартибга солишнинг функционал – тузилмавий схемасига асосан, ўзини-ўзи тартибга солиш механизми баҳолаш фАОЛИЯТИНИ тартиблаштиришдаги муҳим институционал тузилма ҳисобланади.

Юқорида шакллантирилган фикр ва мулоҳазалар асосида баҳолаш фАОЛИЯТИНИ тартибга солиш механизми тузилмасининг инструментал (инструментлари), институционал ва функционал таркиблари мулк қийматини баҳолаш хизматлари бозори фАОЛИЯТИНИ ривожлантиришга қаратилгандир ва улар ўзаро боғлиқ равишда тавсифланади.

Мамлакатимизда кўчмас мулкни баҳолаш учун ягона МБСдан фойдаланилади. МБС мақсади кўчмас мулк қийматини баҳолашнинг атама ва тушунчаларини, ахборотга қўйиладиган талабларни, баҳолашни амалга ошириш тартибини, баҳолаш ёндашувлари ва усулларини, баҳолаш натижаларини расмийлаштиришга қўйиладиган талабларни ўрнатувчи нормалари ва қоидаларини белгилашдир.


Қуйидаги кўчмас мулк объектлари ягона МБС қоидалари татбиқ этиладиган баҳолаш объектлари ҳисобланади:

бўш турган (яхшиланмаган) ер участкалари;

иморат қурилган ер участкалари (яхшилашлар амалга оширилган ер участкалари).

Баҳолаш объектлари қиймати уларга бўлган мулк (ашёвий ва мажбурият) ҳуқуқлар, уларга бошқа шахслар ҳуқуқларининг юкланиши ва мазкур ҳуқуқларга доир чеклашларни ҳисобга олган ҳолда аниқланади.

Ўзбекистонда баҳолаш хизматлари бозорида ҳозирги кунда кўчмас ва кўчар мулкларни, транспорт воситаси ҳамда машина ва ускуналарни баҳолаш ва экспертиза қилиш, интеллектуал мулк, қимматбаҳо тошлар ва металлларни баҳолаш ва экспертиза қилиш, шунингдек, бизнес қийматини баҳолаш ва экспертиза қилиш каби хизматлар кўрсатиб келинмоқда (3-расм).



3-расм. Баҳолаш хизматлари бозорида хизмат турлари диверсификацияси

Юқорида таъкидланган баҳолаш хизматлари бозорида 2024 йил январь ҳолатига республикада 231 та баҳоловчи ташкилотларда жами 1188 нафар баҳоловчилар баҳолаш хизматлари бозори профессионал иштирокчилари сифатида фаолият олиб боришмоқда. Худудлар кесимида энг кўп баҳоловчи ташкилотлар сони Тошкент шаҳри, Бухоро, Андижон, Фарғона вилоятларида фаолият кўрсатмоқда.

Тадқиқотлар жараёнида республикада кўчар, кўчмас ва бизнес қийматини баҳолаш тоифаларидаги баҳолаш ташкилотлари фаолият кўрсатаётганлиги ўрганилди. Баҳолаш ташкилотларининг асосий қисми бизнес қийматини баҳолаш фаолияти билан, шунингдек, мавжуд 231 та баҳолаш ташкилотларининг 23 фоизидан ортиғи (55 таси) кўчмас мулкни баҳолаш фаолияти билан шуғулланмоқда.

2-жадвал

Баҳолаш ташкилотлари фаолият кўрсаткичлари²¹

Йиллар	Кўрсаткичлар		
	Баҳолаш хизматлари бозоридаги кўрсатилган хизматлар ҳажми, млрд. сўм	Баҳолаш хизматлари бўйича тузилган шартномалар сони, дона	Тузилган баҳолаш ҳисоботлари сони, дона
2018	50,2	110 567	113 082
2019	63,1	92 267	97 045
2020	72,8	95 020	99 070
2021	78,3	98 417	105 701
2022	103,9	191 209	193 457
2023	118,0	245 123	251 7

2-жадвалга мувофиқ, 2018 йилда баҳолаш ташкилотлари томонидан умумий ҳажми 50,2 млрд. сўмлик баҳолаш фаолияти билан боғлиқ хизматлар кўрсатилган ва натижада 110 минг-

²¹ Муаллиф томонидан Давлат активларини бошқариш агентлиги маълумотлари асосида тузилган.

дан ортиқ шартномалар тузилиб, баҳолаш фаолияти натижаси юзасидан 113 мингдан ортиқ мулкни баҳолаш ҳисоботлари тузилган. 2022-2023 йилларда баҳолаш ташкилотларининг фаолиятида кескин ўсиш суръатлари юзага келган. 2018 йилга нисбатан хизматлар ҳажми 2 баробардан ортиқ бўлган.

Тадқиқотлар натижасида, кўчмас мулк бозори ривожланишига таъсир этувчи омилларни иқтисодий, ижтимоий, маъмурий, инфратузилма ва табиий атроф-муҳит, демографик ўзгаришлар ҳамда сиёсий, миллий ва аҳолининг урф-одатлари билан боғлиқ омилларга ажратиш мумкин.

Хулоса.

Тадқиқот давомида кўриб ўтилганлар юзасидан қуйидаги илмий-назарий хулосалар шакллантирилди:

1. Кўчмас мулкни баҳолаш – бу қонунчиликда назарда тутилган тоифадаги кўчмас мулкларни мавжуд бозор маълумотлари ва бошқа солиштирма элементлар орқали объектнинг ҳақиқий адолатли қийматини ҳисоблаш механизми эканлиги асослаб берилди. Жумладан, кўчмас мулкка нисбатан капитал қўйилмалар соҳаси ва кўчмас мулк билан боғлиқ операциялардан келиб чиқадиган иқтисодий муносабатлар тизимини ўзида акс эттирувчи механизм – кўчмас мулк бозори ҳисобланади. Тадқиқотда иқтисодчи олимларнинг фикрлари ва халқаро тажрибани ўрганиш асосида «Кўчмас мулк бозори» тушунчасига муаллифлик таърифи берилган.
2. Институционал ёндашувга асосан кўчмас мулк бозори тузилишини тавсифлашда мазкур бозордаги фаолият турлари бўйича мавжуд қабул қилинган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар, улардаги тартиб-қоидалар ва стандартлар нуқтаи назаридан тадқиқ қилиш лозим. Бу борада, кўчмас мулк бозори институционал тузилишининг таснифида тартибга солишнинг одатий усуллари, яъни, кўчмас мулк бозорини мустақил институт сифатида, бошқа иқтисодий муносабатлар борасидаги институтлар ўртасидаги муносабатлар билан асосий фарқли жиҳатларини акс эттириш керак эканлиги ва унинг ус-туворлиги асосланди.
3. Кўчмас мулк қийматини баҳолашда бир қанча омиллар муҳим аҳамиятга эга эканлигини кўриш мумкин, жумладан, баҳолаш объектига оид маълумотлар ва уларни идентификация қилиш натижалари, кўчмас мулк бозорида нарх ва инфляция индексларнинг тебраниши, баҳолаш объектининг турли мақсадлар учун баҳолаш мотивлари кўчмас мулк қийматини аниқлашда ўзининг бевосита таъсирини кўрсатиши илмий асосланди.
4. Урбанизация жараёнининг жадаллашиб бораётганини инобатга олиб, ижара бозорини ривожлантириш учун ижарада турувчиларнинг манфаатлари ва ҳуқуқларини ҳимоя қилишнинг қонуний асосларини янада мустаҳкамлаш, ижара нархлари кескин ўзгаришини назорат қилиш мақсадида ижара нархини шаҳар бўйича ўртача нархдан сабабсиз кескин 10% дан кўпроққа ошира олмасликни қонунан белгилаш таклиф қилинди.
5. Кўчмас мулк бозорининг амалдаги ҳолатини таҳлил этиш натижалари мазкур бозорда маълумотлар базасининг етарли эмаслиги, жумладан, мулкни қиёсий ёндашув асосида баҳолашда норасмий ижтимоий тармоқлардан фойдаланишнинг баҳолаш объекти аналогларидаги ўхшаш элементлар ҳақида тўлиқ хулоса қилишга асос бўлмаслигини кўрсатди.
6. Европа давлатлари тажрибасидан келиб чиқиб, кўчмас мулк объекти – ер участкаларининг кадастр қийматини ҳисоблашда қайта ягона ёндашувни ишлаб чиқиш, бунда, маҳаллий ҳокимият органларининг иштирокини таъминлаш ва кадастр қийматининг одатдаги нархларини доимий эълон қилиб бориш, қайта баҳолаш ишларини ҳар 5 йилда камида 1 маротаба ўтказиш мақсадга мувофиқ эканлиги илмий-назарий ва амалий жиҳатдан асосланди.

Адабиётлар рўйхати.

1. Обзор мирового рынка недвижимости 2023. (<https://vtoroidom.com/obzor-mirovogo-rinka-nedvigimosti-2023>)
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 8 майдаги “Тадбиркорлик муҳитини яхшилаш ва хусусий секторни ривожлантириш орқали барқарор иқтисодий ўсиш учун шарт-шароитлар яратиш борасидаги навбатдаги ислохотлар тўғрисида”ги ПФ-101-сон Фармони.
3. Экономические аспекты управления рынком недвижимости: учебное пособие / Н.В. Городнова, И.Н.Маврина; Мин-во науки и высш. обр. РФ.- Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та. 2020.- 104 с.; Шлотгауэр М.А. О правовом регулировании оборота жилой недвижимости за рубежом // Вестник Омского университета. Серия: Право.- 2011.- № 4 (13).- С 87–92.
4. Асаул А.Н., Иванов С.Н., Старовойтов М.К. Экономика недвижимости: учебник для вузов. - 3-е изд., исправл. - СПб. : АНО «ИПЭВ», 2009. - 304 с.
5. Фридман Дж. Анализ и оценка приносящей доход недвижимости. М; 1995. 189 с. С. 14
6. John William. THEORY OF REAL ESTATE VALUATION. School of Economics, Finance and Marketing RMIT Business RMIT 2008.
7. Тарасевич Е.И. Анализ инвестиций в недвижимость МКС / Е.И.Тарасевич. СПб., 2000. 401 с. С. 160.
8. Волков Д.Л. Экономика и финансы недвижимости/ Д.Л.Волков. - СПб.: Изд-во СанктПетербургского университета, 1999. - 204 с. - С. 32
9. Грязнова А. Г. Оценка недвижимости / А.Г.Грязнова, М.А.Федотова, И.Л.Артеменков. - М.: Финансы и статистика, 2004. - 496 с. - С. 31
10. Асаул А. Н. Экономика недвижимости: учебник для вузов. - 3-е изд., исправл. / А.Н.Асаул, С.Н.Иванов, М.К.Старовойтов. - СПб. : АНО «ИПЭВ», 2009. - 304 с. - С. 84
11. Хомитов К.З. Кўчмас мулк қийматини баҳолаш. Дарслик. – Т.: “Iqtisod-moliya”, 2019. – 568 б.
12. Абдиқаримова Д.Р. “Банк кредитлари гаров таъминотини баҳолаш методологиясини такомиллаштириш” мавзусидаги 08.00.07 – Молия, пул муомаласи ва кредит ихтисослиги бўйича иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. 21 б.
13. Лебедева О.И. Формы и методы государственного регулирования рынка недвижимости в Российской экономике. //Управление экономическими системами. 2012. № 40. С. 52

UNIVERSITETLARNING NUFUZI VA REYTING KO'RSATKICHLARIGA XALQARO HAMKORLIK LOYIHALARINING TA'SIRI: UNIVERSITETLARDAGI AMALIY FAOLIYAT TAJRIBASI

*Mirzaxmedov Miryakub Miryaxyayevich
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
Talabalar bilan ishlash bo'limi boshlig'i
mirzakhmedoff@gmail.com*

doi

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida xalqaro hamkorlik loyihalarini joriy etish va boshqarish bo'yicha shaxsiy amaliy tajriba bilan o'rtoqlashiladi hamda bunday tashabbuslarning universitetlarning xalqaro nufuzini sezilarli darajada oshirishi va ularning global akademik reytinglardagi o'rnini yaxshilashiga qanday ta'sir ko'rsatishi tahlil qilingan. Tadqiqotning asosi-

ni Toshkent Kimyo xalqaro universiteti hamda Toshkent shahridagi Inha universitetida amalga oshirilgan loyihalar tashkil etadi. Ushbu loyihalar xalqaro akademiyalarni tashkil etish, korporativ ta'lim dasturlarini joriy etish, stipendiya resurslarini jalb qilish va sanoat markazlarini rivojlantirish yo'nalishlarini qamrab olgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, xalqaro hamkorlik, universitetlar reytinglari, hamkorlik loyihalari, OTM amaliyoti

THE IMPACT OF INTERNATIONAL PARTNERSHIP PROJECTS ON THE REPUTATION AND RANKING POSITIONS OF UNIVERSITIES: PRACTICAL EXPERIENCE FROM UNIVERSITY EXPERIENCE

Mirzakhmedov Miryakub Miryakhyayevich
Kimyo International University in Tashkent
Head of department of Student Affairs
mirzakhmedoff@gmail.com

Abstract. This article presents my practical experience in implementing and managing international cooperation projects within the higher education system and analyzes how such initiatives can significantly enhance the international reputation of universities and improve their positions in global academic rankings. The study is based on projects carried out at Kimyo International University in Tashkent and Inha University in Tashkent. These projects encompass the establishment of international academies, the implementation of corporate education programs, the attraction of scholarship resources, and the development of industrial centers.

Keywords: higher education, international cooperation, university rankings, partnership projects, HEI practice

ВЛИЯНИЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ ПАРТНЁРСКИХ ПРОЕКТОВ НА РЕПУТАЦИЮ И РЕЙТИНГОВЫЕ ПОЗИЦИИ УНИВЕРСИТЕТОВ: ОПЫТ ПРАКТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УНИВЕРСИТЕТАХ

Мирзахмедов Мирякуб Миряхяевич
Ташкентский международный университет Кимё
Начальник отдела по работе со студентами
mirzakhmedoff@gmail.com

Аннотация. В данной статье делится личный практический опыт внедрения и управления международными проектами сотрудничества в системе высшего образования, а также анализируется, каким образом такие инициативы могут существенно повышать международный авторитет университетов и улучшать их позиции в глобальных академических рейтингах. Основой исследования являются проекты, реализованные в Ташкентском международном университете Кимё и Университете Инха в г. Ташкенте. Эти проекты охватывали создание международных академий, внедрение корпоративных образовательных программ, привлечение стипендиальных ресурсов и развитие промышленных центров.

Ключевые слова: высшее образование, международное сотрудничество, рейтинги университетов, партнёрские проекты, опыт практической деятельности вузов

Введение

Современный университет, стремящийся занимать устойчивые позиции в глобальном академическом пространстве, не может ограничиваться только локальной или националь-

ной деятельностью. Международные рейтинги, такие как QS World University Rankings и Times Higher Education (THE), становятся не просто индикаторами качества, а инструментами стратегического планирования развития вузов. Они оценивают университеты не только по количеству публикаций и их цитируемости, но и по широте международного сотрудничества, академической репутации и способности готовить студентов, востребованных на глобальном рынке труда. В условиях глобализации ключевым инструментом укрепления международного авторитета университетов являются целенаправленные международные партнёрские проекты. На примере работы в Ташкентском международном университете Кимё и Университете Инха в г. Ташкенте можно проследить, как создание международных академий, внедрение корпоративных образовательных программ, привлечение стипендиальных ресурсов и развитие индустриальных центров формируют комплексную платформу для долгосрочного развития. Эти инициативы позволяют интегрировать академические и индустриальные подходы, обеспечивая студентам практический опыт работы с современными технологиями, а преподавателям — возможности для профессионального роста и участия в международных образовательных и исследовательских проектах. Реализация таких проектов требует системного подхода: университет должен не просто заключать соглашения с международными партнёрами, а включать эти инициативы в стратегию развития, учебные программы и исследовательскую деятельность. Активное участие в международных конференциях, хакатонах, онлайн-инициативах и совместных научных проектах способствует укреплению академической репутации, расширению сети профессиональных контактов и созданию условий для постоянного обмена знаниями.

Международные партнёрские проекты оказывают влияние не только на внешнюю видимость и репутацию университетов, но и на внутренние процессы. Они стимулируют обновление учебных программ, способствуют внедрению передовых образовательных технологий, мотивируют преподавателей к профессиональному росту и формируют у студентов навыки, востребованные на глобальном рынке труда. Последовательная интеграция академий, корпоративных программ, стипендий и индустриальных центров позволяет университету повышать качество образования, укреплять позиции в рейтингах и создавать долгосрочные конкурентные преимущества.

Эффективность таких проектов проявляется в прямом и косвенном воздействии на ключевые компоненты глобальных рейтингов: исследовательскую продуктивность, международное сотрудничество, академическую репутацию и трудоустройство выпускников. Комплексная реализация инициатив обеспечивает устойчивость результатов, расширяет международные связи и способствует внедрению инновационных практик в учебный и исследовательский процессы.

Таким образом, стратегически выстроенные международные партнёрские проекты становятся не только инструментом повышения рейтинговых показателей, но и механизмом формирования устойчивого академического и индустриального влияния университета на глобальном уровне. Они создают условия для подготовки выпускников с современными компетенциями, востребованными в мировой экономике и на рынке труда, одновременно укрепляя международную репутацию и долгосрочные позиции университета.

Методология

Для анализа я использовал качественный подход, основанный на собственном опыте внедрения и управления партнёрскими проектами в двух университетах. В качестве объектов исследования я выделил два вуза:

Первый — Ташкентский международный университет Кимё, где я занимаюсь развитием местного и международного партнёрств с 2020 года, включая взаимодействие с индустриальными партнёрами и спонсорскими организациями. Второй — Университет Инха в г. Ташкенте, где с 2018 по 2020 годы я реализовывал аналогичные проекты, направленные

на интеграцию академических программ с потребностями индустрии. Я классифицировал проекты по типам: академии с международными партнёрами, корпоративные образовательные программы для сотрудников компаний, стипендиальные инициативы, индустриальные центры и международные мероприятия. Каждый проект я анализировал с точки зрения его влияния на ключевые компоненты международных рейтингов, такие как исследовательская продуктивность, международное сотрудничество и академическая репутация.

Практический опыт: Ташкентский международный университет Кимё. Мой опыт работы в Ташкентском международном университете Кимё начался с осознания того, что для значительного повышения международной репутации необходимо создавать платформы, которые объединяют академическое обучение и индустриальное сотрудничество. С момента начала моей деятельности в 2020 году я ставил перед собой задачу не просто заключать формальные соглашения с компаниями, а формировать устойчивую сеть партнёрств, способную влиять на образовательные программы, исследовательскую деятельность и карьерные перспективы студентов. Одним из ключевых направлений стала реализация Huawei Academy, где студенты получили возможность осваивать передовые технологии Big Data, 5G, облачные решения, искусственный интеллект и IoT. Этот проект не только расширил образовательные возможности, но и открыл двери для совместных исследовательских инициатив, включая публикации в международных журналах и участие студентов в глобальных технологических конференциях. На практике я наблюдал, что студенты, прошедшие обучение в академии, становились участниками международных хакатонов, получали стажировки в глобальных компаниях и демонстрировали высокие показатели employability. Параллельно мы реализовали проект Secure Academy при поддержке Check Point Software Technologies, предоставив бесплатное обучение более чем 200 студентам в области кибербезопасности. Этот проект позволил университету интегрироваться в международное сообщество специалистов по информационной безопасности, а также создал платформу для публикации совместных исследований и проведения практических семинаров. Особое внимание я уделял корпоративной образовательной программе для сотрудников банков-партнёров, в которой на данный момент обучаются более 400 человек. Эта инициатива демонстрирует, что университет может быть не только образовательной, но и инновационной платформой для индустриального обучения, где студенты и взрослые обучающиеся приобретают реальные практические навыки. Важным шагом стало создание Fintech-центра совместно с Ipak Yuli Bank, где студенты работают с реальной банковской системой iABS, а также получают доступ к аналитическим инструментам и реальным проектам по финансовым технологиям. Такой интегрированный подход позволяет университету показывать высокие результаты в компонентах рейтингов, связанных с employability и международным сотрудничеством. Не менее значимым было привлечение стипендий для магистрантов: 20 полных стипендий от Akfa & Artel и 10 стипендий от Uzbekcosmos Agency. Эти инициативы не только усилили социальную привлекательность университета, но и формируют положительное восприятие университета как международно-ориентированного и социально ответственного учреждения, что напрямую влияет на академическую репутацию и рейтинг.

Практический опыт: Университет Инха в г. Ташкенте. До работы в Ташкентском международном университете Кимё я занимался развитием международных и индустриальных партнёрств в Университете Инха в г. Ташкенте в период с 2018 по 2020 год. Здесь моим приоритетом было создание устойчивой инфраструктуры для интеграции студентов, преподавателей и индустриальных партнеров в исследовательскую и образовательную деятельность. В рамках работы я наладил сотрудничество с 15 международными и 24 локальными компаниями. Среди значимых проектов можно выделить Fintech-центр PSB Bank, где студенты получили возможность изучать и внедрять SAP-решения, а также SAP Vision Center с Next Gen Lab, предоставляющие доступ к инновационным образовательным платформам и инструментам.

Эти центры стали важной площадкой для практического обучения, исследований и взаимодействия между университетом и индустрией. Я активно участвовал в организации и проведении международных IT-мероприятий, включая Google GDG DevFest, Open Data Challenge, EPAM Insider, Security Trends, Technovation Uzbekistan и DigiGirlz High Tech Camp. Эти инициативы позволяли студентам не только приобретать практические навыки, но и выстраивать глобальные профессиональные сети, что отражается на показателях рейтинга по компоненту International Outlook. Проект Silicon Valley Talks стал примером того, как онлайн-инициативы могут создавать глобальные академические и индустриальные связи. Студенты и преподаватели имели возможность участвовать в дискуссиях с экспертами из США, обсуждать практические кейсы и получать доступ к последним тенденциям в индустрии. Кроме того, я привлек значительные спонсорские ресурсы от ведущих компаний, таких как Eram Systems, Microsoft, Trend Micro, PSB Bank и Infineon Technologies, на общую сумму около 500 тысяч долларов. Эти инвестиции позволили расширить программы, включить новые направления и укрепить имидж университета как надежного международного партнёра.

Анализ

В своей практике работы с международными партнёрскими проектами я постоянно ориентируюсь на исследования и теории, объясняющие, каким образом глобальные инициативы влияют на академическую репутацию университетов и их позиции в международных рейтингах. Рейтинги университетов, такие как QS и Times Higher Education (THE), строятся на многокомпонентной модели оценки, включающей научную продуктивность, цитируемость публикаций, международное сотрудничество, академическую репутацию и employability выпускников. Эти показатели не просто количественные метрики — они отражают способность университета интегрироваться в глобальную научно-образовательную экосистему, создавать совместные исследовательские инициативы и готовить специалистов, востребованных на международном рынке труда.

Согласно исследованиям Giovanni Abramo и соавторов (2019), публикации, созданные в рамках международного сотрудничества, получают в среднем на 20–35% больше цитирований, чем локальные статьи, что подтверждает ценность активной интеграции вузов в глобальное академическое пространство. Эти выводы совпадают с моим практическим опытом: совместные проекты с международными компаниями и научными центрами создают платформы для публикаций, привлекают финансирование и обеспечивают доступ к современным инструментам и данным для исследований.

QS выделяет компонент International Outlook, который оценивает количество иностранных преподавателей, студентов и степень участия в международных проектах. Этот показатель отражает не только числовое присутствие иностранных участников, но и качество международного взаимодействия. Я заметил, что интенсивное участие университета в глобальных конференциях, совместных исследованиях и онлайн-инициативах способствует росту этого показателя и формирует устойчивое восприятие университета как международно ориентированного. Исследование Altbach, Reisberg и Rumbley (2019) также подтверждает, что уровень международной интеграции напрямую связан с академической репутацией и привлечением студентов и преподавателей из разных стран.

Вместе с тем, рейтинги подвергаются критике за избыточную зависимость от субъективных метрик и опросов репутации. Selten et al. (2020) отмечают, что рейтинговые системы отражают лишь часть академической активности и часто не учитывают локальные образовательные инновации, культурные особенности или практические компетенции выпускников. Это совпадает с моим опытом: ряд локальных инициатив, которые значительно повышают качество образования и employability студентов, редко напрямую отражается в международных метриках. Именно поэтому я считаю ключевым системное планирование партнёрских проектов, которое сочетает практическую пользу для студентов и преподавателей с долгосрочной академической ценностью.

С точки зрения теоретического фона, важно учитывать концепцию Triple Helix (Etzkowitz & Leydesdorff, 2000), которая описывает взаимодействие университета, индустрии и государства как основу инновационного развития и повышения конкурентоспособности университетов. В своей практике я использовал этот подход, интегрируя индустриальные центры, корпоративные образовательные программы и стипендиальные инициативы в стратегию развития университетов. Такой подход позволяет не только усиливать исследовательскую продуктивность, но и создавать реальную практическую ценность для студентов и партнёров, что в свою очередь отражается на показателях employability и репутации.

Дополнительно, исследования Marginson (2018) и Hazelkorn (2020) показывают, что международное сотрудничество и участие в глобальных проектах укрепляют репутацию университета в академическом сообществе и индустрии, что является важным фактором для долгосрочного устойчивого развития. Я заметил это на практике: инициированные мною академии и индустриальные центры, такие как Huawei Academy и Fintech-центры, создают не только образовательную платформу, но и влияют на восприятие университета как партнёра, готового к инновационным и исследовательским инициативам.

Таким образом, обзор литературы и теоретический анализ показывают, что стратегически выстроенные международные партнёрства имеют мультипликативный эффект: они усиливают исследовательскую продуктивность, повышают международную видимость, укрепляют академическую репутацию и способствуют практическому обучению студентов. Мой опыт подтверждает, что эти механизмы работают комплексно, а их эффективность возрастает при системном подходе, интегрированном в стратегию университета и учебные процессы. Влияние на рейтинговые показатели. Анализируя проекты, которые я реализовал в Ташкентском международном университете Кимё и Университете Инха, я убедился, что существует прямая и многоуровневая связь между международными партнёрствами и ключевыми компонентами рейтинговых систем. Академические рейтинги, такие как QS и THE, оценивают университеты по множеству факторов, и активная работа с партнёрами напрямую повышает результаты по каждому из них. Во-первых, в компоненте Research и цитируемости публикаций международные проекты создают новые возможности для научного сотрудничества. Совместные исследования с международными компаниями и академическими институтами позволяют не только получать финансирование и доступ к ресурсам, но и повышают качество публикаций. Я лично наблюдал, что проекты, инициированные с международными партнёрами, приводили к публикациям в журналах с высоким импакт-фактором, а статьи в соавторстве с зарубежными учёными имели значительно больше цитирований. Это подтверждается исследованиями Abramo и соавторов (2019), которые показывают, что международные коллаборации увеличивают цитируемость на 20–35% по сравнению с локальными публикациями. Во-вторых, компонент International Outlook, включающий долю иностранных студентов и преподавателей, а также участие в глобальных инициативах, напрямую усиливается через организацию академий, индустриальных центров и международных конференций. Например, открытие Huawei Academy и Secure Academy, участие студентов в международных хакатонах и конференциях, таких как Google DevFest и Technovation Uzbekistan, повысили видимость университетов за пределами страны и привлекли внимание иностранных партнёров и студентов. Показатель International Outlook не только отражает формальную интеграцию, но и демонстрирует способность университета быть активным участником глобальной академической и индустриальной среды. Академическая репутация (Reputation) формируется долгосрочно и зависит от восприятия университета как надежного и компетентного партнёра. Открытие совместных академий с крупными международными компаниями, предоставление стипендий и проведение совместных проектов укрепляет доверие и имидж среди коллег, работодателей и академического сообщества. На практике я заметил, что компании и академические партнёры чаще включали университет в новые совместные инициати-

Keywords: Nurullaboy complex, cultural heritage, digitization, 3D modeling, virtual tourism, archive.

Kirish. Madaniy merosni asrab-avaylash va uni avlodlar uchun saqlab qolish masalasi juda muhim bo'lib, bu borada qator muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizdagi tarixiy yodgorliklar, me'moriy obidalar va madaniy meros ob'ektlari nafaqat milliy, balki jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotida ham muhim ahamiyatga ega. Ular orasida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida barpo etilgan, Xorazm tarixiy-madaniy muhitini o'zida mujassam etgan Nurullaboy majmuasi alohida o'rin tutadi.

Nurullaboy majmuasi me'moriy yechimlari, bezak san'ati va tarixiy qimmatini bilan milliy merosning noyob namunasi sifatida e'tirof etilgan. Biroq bu kabi moddiy madaniy meros ob'ektlari vaqt o'tishi bilan turli tabiiy omillar ta'sirida yo'qolib ketish yoki buzilish xavfiga duchor bo'ladi. Shu bois ularni zamonaviy texnologiyalar orqali raqamlashtirish masalasi jahon amaliyotida keng qo'llanilayotgan samarali yo'llardan biri hisoblanadi.

Raqamlashtirish jarayonining asosiy mohiyati madaniy meros ob'ektlarini raqamli formatga o'tkazish orqali ularning asl holatini himoya qilish, uzoq muddatli saqlanishini ta'minlash hamda keng jamoatchilikka yetkazishdan iborat. Bugungi kunda mazkur yo'nalish nafaqat milliy madaniy merosni muhofaza qilish, balki turizmni rivojlantirish, ilmiy tadqiqotlar uchun manba bazasini kengaytirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirishda ham muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shu nuqtai nazardan, Nurullaboy madaniy merosini raqamlashtirish istiqbollarini o'rganish, uning asosiy yo'nalishlari, amaliy ahamiyati va kutilayotgan natijalarini ilmiy jihatdan tahlil qilish zamonaviy madaniy merosshunoslikning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Jahon amaliyotida YuNESKO, ICOMOS (International Council on Monuments and Sites), IFLA kabi nufuzli tashkilotlar tomonidan madaniy merosni raqamlashtirish bo'yicha qator tavsiyalar ishlab chiqilgan. Xususan, YuNESKOning "Digital Heritage" dasturi doirasida tarixiy ob'ektlarni raqamlashtirish, 3D modellash va virtual turlar yaratish bo'yicha yo'riqnomalar e'lon qilingan. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida madaniy meros ob'ektlarini raqamlashtirish orqali turizm va ta'lim sohalarini rivojlantirish amaliyoti keng qo'llanilmoqda. So'nggi yillarda milliy va xalqaro jurnallarda Nurullaboy majmuasi me'moriy qimmatini, uning madaniy ahamiyati va turizmdagi o'rniga bag'ishlangan maqolalar nashr etilgan. Bu tadqiqotlarda, asosan, majmuaning tarixiy ahamiyati, me'moriy yechimlari va turizm salohiyati yoritilgan bo'lsa-da, raqamlashtirish masalalari hali yetarlicha o'rganilmagan. Shu jihatdan, ushbu mavzuning ilmiy ahamiyati yanada ortib bormoqda.

Xiva xonligida birinchi qurilgan elchilar uchun mehmonxona – shaharning kunchiqar tomonidagi O'r mahallasida bo'lgan. O'r mahallasi haqida ilk ma'lumotni Abulg'ozixonning "Shajarayi turk" asaridan topamiz. Unda Abulg'ozixon Buxoro xoni Abdullaxonning 1591 yilda Xivaga yurish qilganida, mudofaaga tayyorlangan Po'lod sulton "darvozani oldida ulug' o'r kesdi," - deb yozadi. Keyinchalik bu joydagi mahalla shu nom bilan atalgan. Darvoza esa o'z davrida shaharda bitta edi va uning nomi keyinchalik "Polvon darvoza" bo'lgani ma'lum. Bu darvozaning oldida bunyod qilingan mahalla bugungi kunda O'r mahallasi nomi bilan yuritiladi. Abdulla Boltaevning yozishicha, 1906 yilda eskirib qolgan foydalanilmayotgan elchixona binosi o'rnida Polvon qori tomonidan madrasa va minora qurilgan.

XVIII asr oxiriga kelib Ichonqal'ada yashovchi aholining turarjoy binolari, poytaxt ko'chib keldandan keyingi qurilgan yangi ma'muriy, diniy binolar, o'quv markazlari, qabristonlar atrofidagi qorixona, masjidlar qoshidagi minoralar hisobiga shahar qurib bitkazilgan va XIX asrga kelib, yangi sulola xonlari uchun qurilish maydonlari qolmagan edi. Muhammad Rahimxon I (1806-1825) davrida Xiva shaxrining g'arbiy qismida shaharga kelgan elchilar uchun maxsus hovli joylar borpo qilingan. Bu tanlangan joy shaharning shimoli-g'arbiy tomonida Nurulla ismli boy kishining katta bog'i yonida bo'lib, bog' o'zining kattaligi, manzarali daraxtlari ko'pligi bilan Muhammad Rahimxon I ning havasini uyg'otadi. Muhammad Rahimxon I (1806-1825) bu bog'ni Nurullaboydan sotib olishni ko'zlaydi.

Muhammad Rahimxon I Nurullaboydan bu katta bog'ni sotib olgach, uning ichida sinchdan qilingan devorlar bilan o'rab olingan binolar qurdirdi. Bu binolarda o'g'illari Olloquli to'ra, Rahmonquli to'ra, Xudoyquli to'ra, Sayyid Mahmud to'ra, Sayyid Ahmad to'ra, Sayyid Muhammad to'ra va Tangriquli to'ralar uchun yashash joylari barpo qildirdi.

Abdulla Boltaevning xotiralarida shunday yozilgan: - "Nurullaboydagi xon arzi-dod so'raydigan sufani kun chiqar tomonidagi toshdan solingan joylar 1873 yilda Xivaga general Kaufman Xiva xonligini Rusiyaga qo'shish uchun kelib, Xiva xonligi Rusiyaga mute bo'lib qolgandan so'ngra, Rusiyadan kelgan elchilar uchun 1874 yilda solingandur. Rusiya joylariga o'xshatib". Bu bino keyinchalik rus askarlari uchun kazarma vazifasini o'tagan. 1920 yildan Xorazmdagi birinchi gazeta – "Inqilob Quyoshi" ham shu binoda chiqarilgan.

Sayyid Muhammadxon o'z zamonasida (1856-1864yy.) Arkni qayta ta'mirlatdi va Deshon Qal'aning Nurullaboy bog'i nomi bilan mashhur bog'dagi yangi imoratlarining kun chiqarida Hasanmurod qushbegi rahbarligida bir ko'rinishxona qurdirdi. Shu yili, ya'ni hijriy 1276, melodiyy 1859 yilda xon Arkdan ko'chib Nurullaboy hovlisiga keldi. Shundan keyin Ichan-Qal'adagi Ark, xalq tilida Ko'hna Ark nomini olgan.

Ogahiyning yozishicha, Muhammad Rahimxon soniy ham "har yil qish mavsumida Xivaq shah- rining ichida Arkda xilofat taxtida muqim bo'lib, yoz faslida Xivaqning

tashqari histori ichidagi bog'i musaffo va havoliy ishratafzog'akim, Nurullaboy ismi bila mavsumdir, arkdin ko'chib borib, saltanat saririda iqomat ko'rguzar edi".

U 1870 yilda bog'ning kunchiqar tomonida o'zi uchun bir qasri oliy bunyod qildirib, uning bit-

kazilishi sharafiga katta to'y bergan. Bu qasrning qurilishiga atab shoirlar she'rlar yozishgan. Oga-hiyning bitta she'rini o'sha qasrning "ulug' ayvoni eshigining panjarasi ustiga xushxat kotiblarga buyurib, jibilliy (metall, po'lat) qalam bila raqam qildurdilar".

Nurullaboydagi ko'rinishxona, saroylar va boshqa jamiki binolar qal'a devori bilan o'rab olingan. Bu kichik qal'a, o'ziga xos hovliga janub tomondagi darvoza orqali kirilgan. Darvozadan kirilgach, g'arb tomonda Ibrohim xo'janing uyi bo'lgan, sharqiy tomonida ko'rinishxona joylashgan. Otasi Ibrohim xo'janing uyida xizmatda bo'lgan rahmatli Rahim ota Allaev "Ibrohim xo'janing o'g'li Islom xo'jamiz oliyanob inson edilar, bizlar - ya'ni, xizmatkorlarning bolalaridan taxminan o'nbeshta bolani bir kunda sunnat to'yimizni o'z uylarida o'tkazib berdilar", - deb eslardi.

Abdulla Boltaev "Zalni qibla tomonidagi hozirda bank bo'lib turgan ayvonlar Feruzni o'g'li Asfandiyni uyiga kelganda xalqlarni orzi - dodini shu ayvondagi marmar sufani ustida taxt qo'yib, shu taxtni ustida o'tirib arz so'rar edi. Bu joyda Asfandiyor ham orzi dod so'radi" - deb yozgan.

Ko'rinishxona juda oddiy bo'lib, ayvon oldidagi marmar sufadan iborat.

Qabul qariyalarning so'ziga qaraganda shunday bo'lgan, janubiy darvozadan kelgan arzgo'y xon taxti qo'yilgan sufadan taxminan 15-20 metrlar uzoqda turib arzini aytgan. Xon bilan uning o'rtasida turgan Udaychilar xonning so'zlarini unga yetkazganlar. Sufa ustiga gilamlar to'shalgan, taxt yonida yo'lbars terisi ham bo'lgan.

Tahlil va natijalar. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, Nurullaboy majmuasi nafaqat Xorazm viloyati, balki butun O'zbekiston madaniy merosining muhim qismi hisoblanadi. Uning me'moriy yechimlari, bezaklari va tarixiy qimmati milliy merosning noyob namunalaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Biroq majmuaning asl holati vaqt o'tishi bilan turli tabiiy va ijtimoiy omillar ta'sirida izdan chiqishi mumkin. Shu bois mazkur yodgorlikni raqamlashtirish dolzarb masala sifatida kun tartibiga chiqmoqda. Madaniy merosni raqamlashtirishning eng samarali usullari quyidagilar hisoblanadi: yuqori sifatli foto va video arxiv yaratish; 3D skanerlash va modellashtirish orqali virtual turlarni tashkil etish; arxiv hujjatlari va qo'lyozmalarni elektron formatga o'tkazish; mobil ilovalar va veb-platformalar orqali jamoatchilikka taqdim qilish. Majmuani raqamlashtirish orqali uning ichki va tashqi me'moriy tarhi to'liq hujjatlashtiriladi, bezak elementlari va tarixiy ma'lumotlari raqamli muhitda saqlanadi. Bu esa kelgusida restavratsiya ishlari uchun ishonchli manba, sayyohlar uchun virtual sayohat imkoniyati va olimlar uchun tadqiqot ob'ekti vazifasini bajaradi. Nurullaboy majmuasini raqamlashtirish natijasida, milliy va xorijiy turizm salohiyati oshadi, yodgorlik uzoq muddatli muhofaza qilinadi, ilmiy tadqiqotlar uchun keng imkoniyatlar yaratiladi, madaniy merosni targ'ib qilishning zamonaviy usullari yo'lga qo'yiladi, yangi ish o'rinlari, ayniqsa IT va turizm sohasida, paydo bo'ladi. Raqamlashtirish jarayoni davlat idoralari, mahalliy hokimiyatlar, madaniy meros muassasalari va axborot texnologiyalari sohasi mutaxassislari hamkorligida amalga oshirilsa, yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Shu bilan birga, xalqaro tajriba va YuNESKO tavsiyalaridan foydalanish, xorijiy loyihalar bilan hamkorlik qilish istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Nurullaboy madaniy merosini raqamlashtirish dolzarb ilmiy yo'nalish ekanini ko'rsatadi. Mavjud ilmiy ishlanmalar raqamlashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini asoslab bersada, aynan Nurullaboy majmuasi misolida olib borilgan kompleks tadqiqotlar hali yetarli emas. Shuning uchun ham ushbu tadqiqotning amalga oshirilishi ilmiy va amaliy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi.

Nurullaboy majmuasi O'zbekistonning noyob madaniy meros obyektlaridan biri sifatida nafaqat milliy, balki jahon sivilizatsiyasi tarixida ham alohida o'ringa ega. Majmuaning me'moriy yechimlari va tarixiy ahamiyatini avlodlar uchun asrab qolishda raqamlashtirish eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Raqamlashtirish jarayoni nafaqat yodgorlikni muhofaza qilish, balki turizm, ta'lim va ilm-fan sohalarida yangi imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, milliy madaniy merosni dunyo hamjamiyatiga tanitishda ham muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Nurullaboy majmuasini raqamlashtirish bo'yicha 3D model va virtual turlar yaratish – majmuaning ichki va tashqi ko'rinishlari to'liq skanerlanib, virtual turizm platformalariga joylashtirilishi kerak. Arxiv hujjatlarini raqamlashtirish – majmuaga oid tarixiy manbalar, qo'lyozmalar va fotosuratlar elektron formatga o'tkazilib, ochiq elektron kutubxona yaratilishi maqsadga muvofiq. Axborot texnologiyalari mutaxassislari hamkorligi – tarixchi, me'mor va IT sohasi mutaxassislari hamkorlikda ishlashi uchun ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etish, turizm sohasi bilan integratsiya – raqamlashtirilgan ma'lumotlar turizm sohasida keng targ'ib qilinishi, mobil ilovalar va QR-kodlar orqali sayyohlarga taqdim etilishi zarur. Xalqaro hamkorlik – YuNESKO va nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda grant va loyihalar jalb etish orqali raqamlashtirish ishlarini tezlashtirish mumkin. Yoshlar uchun ta'limiy platformalar – raqamlashtirilgan materiallar asosida onlayn kurslar, o'quv dasturlari va virtual muzeylar yaratish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абулғозий. Шажарайи турк.-Т.: Чўлпон. 1992.–150 б.
2. Аллаев Р. 1945-1980 йилларда Нуруллабой саройидаги музейда ишлаган
3. Бартольд В.В. Очерк истории туркменского народа.-М.: Изд.Вост. Литературы. 1963. Соч. Т.2. ч.1.–600 с
4. Болтаев А. Хива тарихий эсдаликлари. Полвон бобони тарихига доир бўлган материаллар тўплами. Қўлёзма. 38 дафтарлар. Шахсий архивидан.
5. Огаҳий. Шоҳид ул-иқбол. Тошкент-2009. 250 б.

SYUJET ELEMENTLARI TAHLILI “ROMEO VA JULIETTA” ASARI TALQINIDA

Aliyeva Xonzodabegim Shavkatjon qizi

TOSHKENT KIMYO XALQARO UNIVERSITETI SAMARQAND FILIALI (TARJIMASHUNOSLIK XITOI, INGLIZ TILI) YO'NALISHI 4-BOSQICH TALABASI
xonzodabegim32@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17638474>

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Uilyam Shekspirning “Romeo va Julietta” tragediyasi talqinida, syujet elementlari: prolog, ekspozitsiya, tugun, kulminatsiya, yechim va epilog tahlil qilinadi. Har bir badiiy asar o'zining syujeti orqali kitobxonni voqealarga jalb qiladi. Syujetning asosiy bosqishlari: prolog, ekspozitsiya, tugun, kulminatsiya, yechim va epilogdan iborat bo'lib, u asarning mazmunini ochib berishda muhim rol o'ynaydi. Biz buni ushbu maqolada Uilyam Shekspirning – “Romeo va Julietta” asari talqinida ko'rib chiqamiz.

KALIT SO'ZLAR: Uilyam Shekspir, Romeo, Julietta, Kitobxon, Muhabbat, Kapuletti, Montekki, Verona, Syujet

ANALYSIS OF PLOT ELEMENTS IN THE INTERPRETATION OF “ROMEO AND JULIET”

Annotation: This article analyzes the plot elements: prologue, exposition, climax, resolution, and epilogue in the interpretation of William Shakespeare's tragedy “Romeo and Juliet”. Each work of art draws the reader into the events through its plot. The main stages of the plot are: prologue, exposition, climax, resolution, and epilogue, which play an important role in revealing the content of the work. We will see this in this article in the interpretation of William Shakespeare's play “Romeo and Juliet”.

Keywords: William Shakespeare, Romeo, Juliet, Reader, Love, Capulet, Montague, Verona, Plot

KIRISH

Bilamizki, Uilyam Shekspirning “Romeo va Julietta” asari Jahon adabiyotidagi eng mashhur tragediyalardan biri hisoblanadi. Asarda muhabbat, nafrat, fojea, taqdir hukmi va beqarorlik tuygʻulari mujassamlangan boʻlib, ushbu maqolada asarning syujet elementlari: prolog, ekspozitsiya, tugun, kulminatsiya, yechim va epilog tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI, METOD

Ushbu maqoladagi tahlilda adabiyotshunoslikda keng qoʻllaniladigan syujet tahlili metodidan foydalanildi. Bunga “Romeo va Julietta” asari matni asos qilib olindi va undagi voqealar rivoji bosqichma-bosqich oʻrganildi. Syujet elementlari quyidagicha tahlil qilindi:

Prolog (muqaddima) — asarning boshlanishi va umumiy mazmuni;

Ekspozitsiya — qahramonlar va voqea joyi haqida dastlabki maʼlumot;

Tugun — konfliktning yuzaga kelishi;

Kulminatsiya — voqealarning eng keskin choʻqqisi;

Yechim — konfliktning tugashi va voqealarning yakunlanishi;

Epilog — asardan chiqarilgan xulosa.

NATIJALAR , PROLOG (MUQADDIMA)

Prolog – bu asarning boshida keladigan muqaddima qismi boʻlib, asarning kirish qismi hisoblanadi. Muqaddimada yozuvchi voqealarning asosiy mazmuni haqida qisqa maʼlumot beradi. Muqaddima kitobxon yoki tomoshabinni voqealar rivojiga ruhan tayyorlovchi vazifasini bajaradi. Va, “Romeo va Julietta” asarida ham yozuvchi Shekspir prolog orqali kitobxonga voqealarni oldindan bayon qiladi. Veronada yashovchi ikki dushman oila “Kapulettilar” va “Montekkilar” oʻrtasida ancha yilgi eski adovat boʻlib, shu adovat tufayli ularning farzandlari “Romeo” va “Julietta” muhabbatlariga erisholmasdan, muhabbatlari uchun kurashib oxir-oqibat muhabbatlarining yakuni oʻlim bilan tugaydi. Ikki yosh oshiq-mashuqlarning muhabbatlari fojeaga aylanadi. Mazkur aytib oʻtilgan fojeali muhabbat yakunini quyidagi sheʼrda ham aniq koʻrishimiz mumkin:

Bizning Veronada ikki xonadon

Aslu nasablari erur barobar,

Ular nizolarga kirishib har on ---

Shu shahar ahliga yetkazdi zarar.

Va lekin bu dushman oilalardan,

Tugʻilgan farzandlar sevishib qoldi.

Bu ikki baxtsizning oʻlimi bilan

Adovat oʻzi ham goʻrda yoʻqoldi.

Shu baxtsiz yoshlarning muhabbatini,

Oʻjar xonadonlar adovatini,

Alamli sevgining musibatini,

Koʻrsatib beramiz sizga shu kuni.

EKSPOZITSIYA

Ekspozitsiya — bu asarning kirish qismi boʻlib, unda voqealar qayerda boʻlib oʻtishi va kimlar qatnashishi, qahramonlarning ismi va lavozimlari koʻrsatiladi. “Romeo va Julietta” tragediyasining boshidanoq biz “Verona” shahridagi ikki xonadon, “Kapulettilar” va “Montekkilar” oʻrtasidagi adovatni koʻramiz. Shu bilan birga, asarda muhim rol oʻynaydigan qahramonlar “Romeo” , “Julietta” ularning qarindoshlari va doʻstlari kabi muhim personajlar bilan ham tanishib chiqamiz.

Asarda ishtirok etuvchilar:

Eskal – Verona begi

Paris – yosh dvoryan, bekning qarindoshi

Montekki va Kapuletti (Ikki dushman oilaning boshliqlari)

Romeo – Montekking o'g'li
Merkusiyo – bekning qarindoshi va Romeoning do'sti
Benvolio – Montekking jiyani va Romeoning do'sti
Tibalt – Kapuletti xonimning jiyani
Rohib Lavrentiy va rohib Ioann- fransiskan rohiblari
Baltazar- Romeoning xizmatkori
Samson va Grigoriy – Kapulettining xizmatkorlari
Pyotr – Julietta enagasining xizmatkori
Abram – Montekkilar xizmatkori
Dorifurush, Uch sozanda, Paris ning mahrami, Mirshab
Montekki xonim – Montekking xotini
Kapuletti xonim – Kapulettining xotini
Julietta – Kapulettining qizi
Juliettaning enagasi

Verona fuqarosi, har ikkala xonadonning qarindoshlaridan bo'lgan, bir necha erkak va ayollar, niqobli kishilar, posbonlar, qorovullar, Bekning a'yonlari, va xor.

Voqea: Verona va Mantuyada bo'lib o'tadi.

Tugun

Adabiyotshunoslikda tugun - asardagi asosiy voqealar rivojini boshlab beruvchi va konfliktni ochib beruvchi dramatik vaziyat hisoblanadi. Qahramonlar o'rtasidagi asosiy qarama-qarshilik aynan tugun orqali syujetdagi asosiy konflikt yuzaga chiqadi va keyingi voqealar zanjiri shakllanadi. "Romeo va Julietta" asarida tugun "Paris", "Kapuletti"ning uyiga kelgan vaqtida boshlanadi. U o'shanda "Kapuletti", "Julietta"ning otasidan "Julietta"ning qo'lini so'raydi. Otasi ya'ni "Kapuletti" esa:

"Yerga ko'ndim men o'zimning hamma bolamni
Faqat bu qiz umidgohdir menga dunyoda!
Qiz ko'nglini toping Paris baxtga erishing!
Rozi bo'lsa men qittak ham yo'q demagayman
Yigitlardan siznigina u tanlab olsa
Men ham beray ovozimni siz uchun rosa!
Eski udum, biznikida bugun ziyofat
Mehmonlarni kechqurunga qilganman da'vat.
Deya javob qiladi "Paris"ning ushbu taklifiga.

Shundan so'ng kechgiz ziyofat boshlanadi. Taklif qilingan mehmonlar kelishni boshlaydi va bu orada sevgidan yuragi yonayotgan "Romeo" ham do'stlari bilan niqobda ziyofatga kelishadi. Uning do'stlari ziyofatda xordiq chiqarib, ozroq yuragi taskin topishi uchun ziyofatga boshlab kelishadi. Va u ziyofatda "Julietta" ni ko'radi va bir ko'rishda ikkalasi ham bir birini sevib qolishadi. Ularning ilk ko'rishida yuzaga kelgan muhabbat, bizga keyingi barcha fojeali voqealarning mazmunini ochib beradi.

Kulminatsiya

Kulminatsiya – bu asarda voqealarning eng yuqori cho'qqiga chiqadigan, eng keskin va hal qiluvchi nuqtasi bo'lib, qahramonlar oldida eng katta sinov va chigal holat paydo bo'ladi va shu paytda voqea kitobxon yoki tomoshabin qalbini ham larzaga keltiradi, uularni qattiq hayajonga soladi.

"Romeo va Julietta" asarida kulminatsiya "Julietta" ning otasi uni "Paris" ga turmushga chiqishini aytgan joyidan boshlanadi. U "Paris" ga turmushga chiqa olmasdi, chunki u "Romeo" bilan shar'iy nikohdan o'tgan edi. Va uni shu narsalar qiynardi: Romeoning yo'qligi, Romeoga bergan va'dasi, Romeo qaytgan taqdirda ham u bilan birga hayot kechira olmasligi, Romeo qaytganda ham u qatl etilishi mumkin edi. Chunki U "Julietta" ning qarindoshi "Tibalt" ni o'ldirib qo'ygani uchun surgun qilingan edi. "Julietta qancha urinmasin ota-onasiga qarshi chiqa olmasdi. Aslida

fojeaning boshlanishi ham shu yerdan boshlanadi. Qanday yo'l bilan to'y balosidan qutulishni bilmay qolgan Julietta:

Qanday qilib men bu ishning oldini olay?

Ex, Xudoyim! Erim yerda qasamim ko'kda,

Agar erim yerni tashlab ko'kka bormasa,

Agar ko'kdan qaytarmasa qasamni yerga.

Qasam qanday qilib yerga qayta oladi?

Ox, doyajon, madad bergil! Yupantir meni! – deya yordam so'raydi. Shunda hech kimdan yordam ololmagan "Julietta" cherkovga borib "Rohib Lavrentiy" dan yordam so'raydi: Julietta:

Eshikni yop, endi yig'la men bilan birga,

Na umid bor, na madad bor va na bir chora! – deb isyon qiladi.

Shunda rohib Lavrentiy:

Xabardorman, o, Julietta falokatingdan,

Mening aqlim bu gaplarni qamrashdan ojjiz.

Eshitdimki, payshanbada to'ying bo'lg'usi,

Xamda uni kechiktirish, hech mumkin emas. – deya javob qiladi.

Julietta:

Eshitganing to'g'risida gapirmay tur-chi,

Aytgin, qanday qutulayin to'y balosidan? – deb so'raydi Lavrentiydan.

YECHIM

Adabiyotshunoslikda yechim – bu syujetda yuzaga kelgan ziddiyatlarning tugashi, voqealarning yakun topishi bosqichi hisoblanadi. Bu bo'lim qahramonlarning taqdiri qanday kechishini ko'rsatib beradi va asardagi konfliktning oxirgi natijasini ochib beradi.

"Romeo va Julietta" asarida bu ishning yechimi "Rohib Lavrentiy" Juliettaga bir uxlatuvchi damlama tayyorlab berganida boshlanadi.

Lavrentiy:

Tingla qizim, payqab qoldim umid sharpasin,

Bizga xatar bo'lib qolgan, to'y tashvishiday---

Yana o'zga bir tashvishni kechirmoq kerak.

Sen grafga tegmayin deb, to'y bo'lmasin deb---

Hatto o'zing – o'zginangni o'ldirmoqqa shay.

Demak, soxta o'limga ham rozi bo'lgaysan,

Toki senga o'lim qadar manfur tuyilgan,

Shunday razil nikohdan ham qutulajaksan.

Sen unasang, senga sirli dori beraman.

Julietta:

Ox, Parisga birdam xotin bo'lgandan ko'ra,

U minora tepasidan sakrashni buyur.

Yoki meni tunda qama o'likxonaga---

U xonada qirsillaydi o'lik suyagi,

U xonada to'la sarg'ish bosh kosolari,

Yoki menga amr etgin, qabrga kiray!

Bu so'zlardan qaltirayman, ammo bexatar,

O'ylab turmay, qilar edim buning hammasin,

Toki, toza xotin bo'lay erim oldida.

"Romeo va Julietta" asarida yechim, ya'ni to'y muammosining yechimi Julietta dorini ichish bilan hal bo'ladi deb o'ylaydi. Lekin ular o'ylagan rejaning yo'nalishi keskin o'zgarib ketadi. Ular yolg'on o'lim bilan faqatgina to'yni to'xtatadilar, ammo bu reja ko'plarning o'limiga sababchi bo'lishidan xabarlari bo'lmaydi.

Shunday qilib, Julietta rohib aytgan dorini ichadi va unda o'lim belgilari paydo bo'ladi. Ertalab, bu o'limdan hamma xabar topadi va uni dafn etadilar. Bundan surgundagi "Romeo" ning xizmatkori Baltazar ham xabar topadi va Romeoga bu mudhish xabarni yetkazadi. U Veronaga qaytib borishida dorifurushtan bir shisha zahar sotib oladi va to'g'ri Julietta dafn etilgan sag'anaga boradi. Bu vaqtda Rohib Lavrentiy ham Juliettani uyg'otishga kelayotgan bo'ladi.

Afsuski, u ulgura olmaydi, chunki Romeo sevgilisining o'limiga chiday olmasdan o'z joniga qasd qilgan edi. Rohib Lavrentiy Juliettaning yonida yotgan o'lik Romeoni ko'rib, uni tezda uyg'otib olib ketishga tushadi. Lekin uyqudan uyg'ongan Julietta yerda jonsiz yotgan Romeosini ko'radi va Lavrentiy bilan ketishga rozi bo'lmaydi. Juliettani olib ketishga rozi qilolmagan Lavrentiy odamlarni chaqirib kelish uchun ketadi, va shunda Julietta ham Romeo ning xanjari bilan o'z joniga qasd qiladi.

Shunday qilib, barcha muammolarning yechimi o'lim bilan yakun topadi.

Epilog (yakun)

Epilog – adabiy asarning yakuniy qismi bo'lib, unda voqealardan keyin yuzaga kelgan holat, qahramonlarning taqdiri va asarning umumiy mazmunidan chiqariladigan xulosa ifodalanadi. Epilog kitonxon yoki tomoshabinga asarda ko'tarilgan g'oyaning asosiy ma'nosini yanada aniqroq ochib beradi.

"Romeo va Julietta" asarida epilog:

Romeo va Julietta vafot etganlaridan keyin odamlar yetib kelishadi va bu voqeadan xabari borlar so'roq qilinadi. Ikki sevishganning o'limidan keyin Montekki va Kapuletti sulh tuzishadi. Va ular Romeo va Julietta uchun haykal qo'yishadi.

Montekki:

Men oltindan qizga bitta haykal qurdiray,
Qancha tursa Veronamiz Verona bo'lib,
Vafodorlar vafodori qizning haykali,
Xamma bo'lak haykallardan bebaho bo'lgay!

Kapuletti:

Unga qator bo'lib turar oltin Romeo!
Ox, biz sho'rlik, ko'r xusumat qurbonlari, ox!
Bek:

Hammamizga tong keltirdi motamsaro sulh,
Xatto qalqmoq istamaydi alamli quyosh.
Yuring, hali kengash ko'rib o'ylamoq kerak--
Kimga bizdan iltifot-u, kimlarga ja'zo!
Romeo va Juliettaning qissasidan ham,---
G'amgin qissa ko'rgan emas tarixda olam!

Shunday qilib, epilogda muallif fojeaning yakuniy sabog'ini ko'rsatadi: muhabbat ulug', ammo adovat va nafrat inson hayotini barbod etadi.

Xulosa

Ushbu maqolada Shekspirning "Romeo va Julietta" tragediyasi syujet bosqichlari asosida tahlil qilindi. Asarda muhabbat va nafrat o'rtasidagi kurash, ikki sevishgan muhabbati adovat sababli barbod bo'lgani va eng achinarlisi ikki yosh yigit va qizning hayot guli erta so'nib muhabbatlari oxiri o'lim bilan yakunlanganligi ko'rsatildi. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bu tragediya bizga muhabbatning ulug'ligini, adovat va nafrat esa odam hayotini halokatga olib kelishini eslatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shekspir, Uilyam. Romeo va Julietta. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986.
2. Quronov, D.; Mamajonov, Z.; Sheraliyeva, M. Adabiyotshunoslik lug'ati. — Toshkent: Akadem-nashr, 2010.

3. Abdurahmonov, H. Adabiyotshunoslik asoslari. — Toshkent: O'qituvchi, 2002.
4. Shakespeare, William. Romeo and Juliet. — Oxford: Oxford University Press, 2008.
5. Quronov, D. Adabiyot nazariyasi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2013.
6. Nazarov, B. Adabiyotshunoslikka kirish. — Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2005

ПРОБЛЕМЫ ИНТЕРПРЕТАЦИИ АРАБСКОГО КРАСНОРЕЧИЯ И РИТОРИКИ В ЛИТЕРАТУРОВЕДЧЕСКИХ НАУКАХ

Бердиева Шахноза Набижоновна

ТерДПИ Рус тили ва адабиёти кафедраси доценти

e-mail: shat19@inbox.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17638489>

Аннотация. В данной статье рассматриваются лексико-терминологические значения арабской хитабы, сыгравшей важную роль в общественной жизни древнеарабского народа и в истории арабской литературы. Во многих научных источниках встречаются множество противоречивых или взаимодополняющих мнений об арабском ораторском искусстве и о высоком умении арабов пользоваться словом. Автор статьи старается глубоко изучать связь хитабы с такими филологическими дисциплинами как «Риторика» «красноречие» и «поэтика» и непосредственно анализирует особенности арабской ораторской речи, высказывая при этом различные научные взгляды.

Ключевые слова: арабы, ораторство, искусство слово, филологические дисциплины, риторика, поэтика.

INTERPRETATION OF THE PROBLEM IN ARABIC AND LITERATURE

Berdieva Shakhnoza Nabijonovna

ТерДПИ

Associ. Prof. at TerSU

e-mail: shat19@inbox.ru

Annotation: This article examines the lexical and terminological meanings of the Arabic khitaba, which played a significant role in the social life of the ancient Arab people and in the history of Arabic literature. Many scholarly sources contain conflicting or complementary opinions about Arabic oratory and the Arabs' high skill in using words. The author of this article explores the relationship of khitaba with such philological disciplines as rhetoric, eloquence, and poetics, and directly analyzes the characteristics of Arabic oratory, while expressing various scholarly perspectives.

Keywords: Arabs, oratory, oratory, philological disciplines, rhetoric, poetics.

Введение. Хитоба в арабской литературе считается одним из древнейших прозаических жанров и в определённые исторические периоды занимала ведущую позицию в арабской литературе.

Поскольку термин *хитоба* в различных источниках использовался для выражения разных понятий, уже в начале нашего исследования мы сочли необходимым прояснить значение этого термина.

В арабско-узбекском энциклопедическом словаре "*хитоба*" определяется следующим образом:

1. хатиблик, ваъзхонлик;
2. *фаннул хитаба* — искусство риторики.

“хатоба”:

1. нутқ сўзлаш; *фаннул хатоба* - искусство риторики;
2. хутба ўқиш;
3. мнт. фараз ва мақбул нарсалардан иборат қиёс. “*хутбатун*”:
1. серый, синеватый цвет;
2. речь;
3. хутба, религиозная хутба, проповедь [3].

Однако в других арабских словарях...

و نحوه، رجل خطيب: حسن الخطبة» 2 و ذلك: الكلام الممتور و المسجد

«Хитоб айтувчи» произнёс речь с минбара - *хатоба* (с фатхой) и *хутба* (с даммой) - это прозаическая, сажная (ритмически оформленная) и подобная ей речь.

Хатиб - это человек, чья *хутба* (речь) хороша (благородный человек).

«خطابة أحسن لخطاب» و هو لمواجهة بالكلام» 3

«Хатоба» - это наилучшая форма обращения (хитоб), представляющая собой устное обращение посредством речи - приводится такой пример.

По замечанию Ибн Манзура, хитоба происходит от слова хатб и первоначально означала важное событие или катастрофу, и у арабов хитобы произносились в чрезвычайных ситуациях [1].

Однако другое отглагольное существительное, также образованное от корня хтб - хато-ба(тун) - обозначает риторическое действие, иногда речь, возвышающаяся до уровня искусства, и в литературной критике часто употребляется наряду с термином *балоғат*.

Кроме того, по мнению Ибн ан-Надима, термины хатоба и *балоғат* являются синонимами, обозначающими «красноречие» или «риторика». Разница между этими словами заключается в том, что хатоба - ошибочная форма, правильной считается *балоғат*. В своём труде «Фихрист» он перечисляет имена ораторов под термином *خطباء* - хутаба'у и называет хатибов *بلغاء* - булаға'у, то есть обладателями науки *балоғат* (искусства красноречия) [4].

Обсуждение и выводы

В современном стандартном арабском языке, согласно словарю Ханса Вернера, *хитоба* в средневековый период была связана с риторикой — *балогат*, красноречием и высоким уровнем искусства слова. Эти два термина также были связаны с понятием *хутба* (речь, лекция, дискурс), существовавшим в ту эпоху [3].

Поскольку в узбекском языке слово *хутба* обычно не воспринимается только как чтение традиционного текста религиозным представителем в мечетях во время исламских обрядов, на протяжении всего нашего исследования мы использовали термин *хитоба* в значении *хатоба* и *хутба*, так как он ближе и понятнее для носителей узбекского языка.

Однако *хутба*, читаемая как часть пятничной молитвы, на праздник Курбан-байрам или во время свадебной церемонии, отличается от той *хутбы*, которая в ранний исламский период играла важную роль в арабской литературе, особенно в прозе.

Считать, что ведущие *хитобы* в арабской литературе и *хутбы*, читаемые как часть религиозных обрядов, являются одним и тем же неправильно. Причина в том, что подобные *хутбы* являются составной частью раннеисламских традиций и в упомянутых ситуациях произносятся всегда в одинаковой форме, с целью донести до слушателей священность этих религиозных обрядов и необходимость их выполнения в строгом соответствии с установленными правилами.

Хитоба - это социальное явление, возникающее в процессе коммуникации. Однако, в отличие от обычной речи, арабская *хитоба* - это художественная речь, произносимая с целью убедить аудиторию и повести её за собой. В ней используется множество риторических и

поэтических средств, усиливающих выразительность, благодаря чему *хитоба* является также произведением прозаического творчества.

Наши наблюдения показывают, что термины *искусство красноречия* – *хитоба* или *фан-ну-л-хитоба*, *балогат* – *искусство ораторства* (то есть *хитоба*), *илму-л-байан* как объект изучения – всё это используется в значении *риторика*, то есть *хитоба*.

Например, французский ориенталист Пьер Ларше, говоря о трактате аль-Казвини «Талхис», утверждает, что риторика там называется *илму-л-балагати* и делится на три части: *илму-л-байан*, *илму-л-маъани* и *илму-л-бадиъ*. Он подчёркивает, что в науке по поводу этих терминов существуют различные мнения: одни учёные считают всю риторику *илму-л-байан*, другие – *илму-л-маъани*, а третьи полагают, что риторика – это *илму-л-маъани* и *илму-л-бадиъ* [2].

Объясняя разночтения в толковании этих терминов в арабских средневековых источниках и их соотношение с аристотелевской риторикой, учёный приходит к следующему выводу:

«Обычно *илму-л-балагати* переводится как “риторика”. Это соответствует нашему, западному пониманию риторики. Однако “Риторику” Аристотеля на арабский язык перевели как *ал-хатоба*.

Хатоба, то есть риторика, этимологически восходит к арабскому искусству красноречия: слово *хатиб*, образованное от глагола *хатуба* – “быть красноречивым, говорить речь”, – означало человека, которого племя выбирало как своего представителя для произнесения речи, именно за его красноречие. В то же время он выполнял функцию “оратора” в европейской культуре и литературе.

Аналогично, публичная речь, произнесённая представителем народа, стала обозначать отглагольным существительным *хитоба* в значении “риторика”. Однако между арабским *илму-л-балагати* и аристотелевской риторикой нет никакой генетической связи».

Арабские традиции рассматривают *хитобу* и поэзию как риторический силлогизм – «ал-кяс ал-хатобиййу».

Связь между понятиями *илму-л-балагати* и риторики можно найти также в «Энциклопедии арабской литературы», созданной Мейсами в последние годы его жизни. В ней говорится: «Термины риторика и поэтика возникли в классических и западных традициях науки. Ближайшей к риторике является ораторское искусство, то есть *илму-л-балагати*. *Илму-л-балагати* включает в себя синтаксическую стилистику, теорию воображения и риторические фигуры. Поэтика же используется в критике поэзии, «накду-ш-шиър», как точная её копия. Поэтика понимается скорее как теория критики, чем как руководство по созданию хорошей поэзии. В результате поэтика и риторика сформировали одну из важных интеллектуальных функций как метадискурсы, связанные с литературой. Эти два термина можно назвать теорией литературы в одном слове» [2].

Он считает, что арабское искусство ораторства – *хитоба* – при сопоставлении с греческой риторикой называют *илму-л-балагати*, а *илму-л-балагати* приближает к поэтике, то есть арабскому «накду-ш-шиър» [2].

Некоторые арабские учёные классифицируют *илму-л-балагати* и риторику – *хитобу* – на основе двух подходов: «Если цель *хитобы* – убедительно представить доказательства и аргументы, это именно *хитоба*. Если же в *хитобе* следует уделять больше внимания художественным средствам, тогда её можно перевести как *балогат*».

Наша цель здесь – привести понимание понятия *хитоба* и его толкования в литературоведении, чтобы подчеркнуть, что этот древний арабский литературный жанр стал основой искусства слова как для прозы, так и для поэзии.

Связывание хитобы с поэтикой, на наш взгляд, связано именно с художественным совершенством этого древнего искусства слова.

Однако до недавнего времени арабские литературоведы, критики и писатели, а также востоковеды всего мира признавали, что арабская проза изучена значительно меньше, чем арабская поэзия.

По этой причине З. Муборак с сожалением отмечает, что арабские критики не анализировали образцы ранней средневековой литературы или прозы, кроме Корана [7].

Заключение

Многие учёные, изучающие историю и литературу арабского народа, признают, что уже в доисламский период существовали литературные прозаические жанры, поскольку арабы издавна были искусными ораторами и мастерами слова.

Обратим внимание на мнение востоковеда И.М. Фильшинского: «Традиции искусства ораторства у арабов уходят корнями в глубину веков. Ещё в доисламский период арабские жители Аравийского полуострова — кочевники и оседлое население — в определённые сезоны года устраивали конкурсы, где бедуинские поэты и ораторы состязались в искусстве поэзии и красноречия. Подобные состязания проходили у арабов на протяжении всего Средневековья» [6].

«Арабы издревле ценили ораторское мастерство и искусное владение речью. Несомненно, арабское искусство слова, дошедшее до нас с эпохи джахилии, свидетельствует о высоком уровне художественного воображения арабских народов уже в первые века новой эры» [6].

«Из доступных источников известно, что арабы уделяли большое внимание прозаическим жанрам ещё в период джахилии. Эта особенность стала широко известна благодаря хутбам ораторов (хатибов) и письмам писцов» [7].

Развитие арабского искусства слова и наличие такого таланта, как *хутоба* - умение проносить перед народом высокохудожественную речь - проявлялось уже в древние времена. Эти взгляды встречаются почти во всех исследованиях и публикациях, посвящённых данной области.

Литература

1. Qutbuddin T. Khutba: The Evolution of Early Arabic Oration”in Classical Arabic Humanities in their own Terms: Festsschrift for Wolfhart Heinrichs, ed. Beatrice Gruendler and Michael Cooperson. – Brill, 2008.
2. Wehr H. A Dictionary of Modern Written Arabic: Arabic-English. Edited by J. Milton Cowan. 3rd printing. – Beirut: Librairie du Liban, 1980.
3. Larcher P. Arabic Linguistic Tradition II: Pragmatics. –P4.Available at: www.academia.edu
4. Encyclopedia Of Arabic Literature. Volume 1. Edited by Julie Scott Meisami
5. Arabic literature to the end of the umayyad period The Cambridge history of arabic literature; Xitti P. History of the Arabs. Part one, Pre Islamic age; Nicolson R.M.A. A Literary History of the Arabs
6. Фильштинский И.М. История арабской литературы. V-начало X века. Москва, Главная редакция восточной литературы,1985
7. Бердиева Ш.Н. (2021). Нон-фикшн как особый тип документальной литературы: характеристика, признаки, жанры и формирование в белорусской литературе. Интернет-пространство как вызов научному сообществу XXI века, (1), С.60.

ABU RAYHON BERUNIYNING QADIMGI HIND ANTROPOLOGIK TA'LIMOTLARIGA MUNOSABATI

Begaliyev Jo'rabek Toshbekovich

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Samarqand filiali

“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrası katta o'qituvchisi

E-mail: jbegaliyev@outlook.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17638511>

Anotatsiya: Mazkur maqolada buyuk alloma Abu Rayhon Beruniyning qadimgi hind falsafasi va antropologik ta'limotlariga bo'lgan ilmiy yondashuvi tahlil qilinadi. Asarda Beruniyning "Hindiston" nomli asari asosida hindlarning inson tabiatiga, ruh va tana munosabatiga, jamiyatdagi inson o'rni haqidagi qarashlari o'rganiladi. Shuningdek, olimning hind madaniyatiga nisbatan ob'ektiv va ilmiy munosabati, ularning diniy-falsafiy tizimlarini tahlil etishdagi uslubi yoritiladi. Tadqiqot davomida Beruniyning antropologik qarashlari Sharq va G'arb ilmiy tafakkuri rivojiga ta'siri nuqtayi nazaridan ham baholanadi.

Kalit so'zlar: Abu Rayhon Beruniy, Hindiston, antropologiya, falsafa, qadimgi hind ta'limoti, inson tabiat, madaniyat, ruh va tana, ilmiy yondashuv, Sharq tafakkuri.

ABU RAYHAN BERUNI'S ATTITUDE TO ANCIENT INDIAN ANTHROPOLOGICAL TEACHINGS.

Begaliev Jurabek Toshbekovich

Samarkand Branch of Kimyo international university in Tashkent

Senior Lecturer, Department of "Social and Humanities"

E-mail: jbegaliyev@outlook.com

Annotation: This article analyzes the great scholar Abu Rayhon Beruni's scientific approach to ancient Indian philosophy and anthropological teachings. Based on his famous work "India" (Kitab al-Hind), the study examines the views of Indian thinkers on human nature, the relationship between soul and body, and the role of the individual in society. The paper also highlights Beruni's objective and scholarly attitude toward Indian culture and his analytical method in studying their religious and philosophical systems. Furthermore, Beruni's anthropological ideas are evaluated in terms of their influence on the development of both Eastern and Western intellectual thought.

Keywords: Abu Rayhon Beruni, India, anthropology, philosophy, ancient Indian teachings, human nature, culture, soul and body, scientific approach, Eastern thought.

Kirish

Abu Rayhon Beruniy o'zi qiziqqan fanlar bo'yicha, qaysi ilmga qo'l urmasin, ushbu fanni yangi bosqichga ko'tarib, yangi g'oyalar va yangi tadqiqot usullari bilan boyitib ketgan. U faqat mavjud bilimlarni yig'ibgina qolmay, ularni chuqur tahlil qilib, g'oyalar va tadqiqot usullari bilan boyitgan. Uning fikrlari va ilmiy metodlari keyingi asrlarda ham olimlar uchun qimmatli manba bo'lib xizmat qilgan. 20 asrning dunyo tan olgan siyosatchisi, Hindiston bosh vaziri Javaharlal Neruning buyuk bobokolonimiz Abu Rayhon Beruniy haqidagi fikrlari diqqatga sazovardir, jumladan, uning ta'kidiga ko'ra, "Hindistonning ochilishi" "Beruniy – yunon falsafasini o'rganib, hind falsafasini tahlil uchun sanskrit tilini o'rgana boshladi. Hind va yunon falsafasini bir-biriga taqqoslab, ulardagi umumiylikni ko'rib hayratda qoldi", – deb qayd etgan edi. Ushbu fikrlar bizni ajdodlarimiz yaratgan ma'naviy meros, ilm-fani va madaniyatiga qo'shgan hissasi, nafaqat yurtimizda balki jahonda o'z o'rniga ega ekanligi e'tirof etilgani guvohi bo'lamiz. Bu hol bizga, ajdodlarimizdan g'ururlanish, ularning yaratgan moddiy va ma'naviy merosi ustida yangi tadqiqotlar olib borish va ilm-fanga qo'shgan hissalarining yangi qirralarini ochish vazifasini qo'ydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Allomaning "Hindiston" asari hozirgacha ilmiy ahamiyati yuqori va mashhurdir. Beruniy G'aznaviylar istilosi tufayli Hindistonga olib ketildi va u yerda qadimiy hind tili, sanskritni o'rganadi. Olim Hindiston xalqlarining ilm-fani, madaniyati, urf-odatlarini bilan yaqindan tanishdi va natijasi sifatida Hindiston asarini yaratdi. Akademik I.Y. Krachkovskiy, Beruniy asarlarini tadqiq qilib, al-lomani yunon tilini bilganligini ilmiy asoslab beradi. "Beruniy sanskrit, yunon, ibroniy – yahudiy xalqi va Isroil mamlakatining rasmiy tili, suryoniycha (Suriya, oromiy tillarining sharqiy guruhi) yuqori Mesopotamiyadan Erongacha tarqalgan tillardagi tarixiy manbalarni o'qib, o'ziga keragini

arab harfi bilan yoza olgan” ligini qayd etgan. Allomaning “Hindiston” asari muqaddima va 80 bobdan iborat bo’lib, asarda hind xalqining tarixi va madaniyati, ularning ilm-fanga qo’shgan his-sasi, jumladan, matematika, astronomiya fanlarining rivojlanishi, shuningdek, geografiyasi, tarixi, taqvimlari haqida ma’lumotlar to’playdi. Ularga nisbatan o’z fikr, mulohazalarini bildiradi. Alloma, hindlar ta’limida yozuv, chizish ishlari yunonlar kabi terilarga emas, balki, xurmo daraxti barglari-ga ishlov berib, yozuvda foydalanilganligini ta’kidlaydi.

Yunonlarning hayvon terilariga yozganligini faylasuf Suqrotning “Ilmni tirik odamlar qalblari-dan o’lik qo’ylarning terilariga ko’chirmayman”, degan iborasini misol etib keltiradi. Beruniy ham ilm o’rganish, qalbdan - qalbga ko’chirish ishi ekanligini alohida aytib o’tgan.

Asosiy qism

Abu Rayhon Beruniy ilm kishisi bo’lganligi uchun milliy, diniy va irqiy cheklanishlardan yiroq-da turdi va butun insoniyat tamadduni rivojiga xizmat qiladigan ilm va madaniyatga katta hissa qo’shdi. U ilm-fan fidoiysi sifatida kelajak avlodga tuganmas boy ma’naviy meros qoldirib, barcha sohalarida tadqiqot va izlanishlar olib bordi va qomusiy olimga aylandi. Alloma, hind, yunon, arab olimlarining ma’naviy merosini o’rgandi va ko’plab manbalar to’plab, tarjimonlik ishlarini ham bajardi. Falsafa tarixida insonga murojaat etmagan, inson moddiy va ma’naviy borlig’ining turli tomonlarini bevosita yoki bilvosita tahlil qilmagan faylasuf yoki falsafiy yo’nalishni topish am-irimaholdir. Aksariyat falsafiy va diniy tizimlar katta olam yoki makrokosmga zid olaroq, insonga mikrokosm yoki kichik koinot sifatida qarab, uni butun olamni tushunish kaliti, deb hisoblaganlar. Faylacuflar inson sirining tagiga yetish borliq jumbog’ining tagiga yetish bilan barobar ekanligini qayta-qayta anglab yetganlar. Zero Forobiy aytganidek, “Odamlar o’zlarining xos xususiyatlariga va tabiiy ehtiyojlariga ko’ra jamiyat tuzadilar. Ularning harakat va fe’llarini dastavval bora-bora odatlarga aylanadigan tabiiy qobiliyatlar belgilaydi” .

Demak, allomaning fikricha, odamlar o’zlarini xatti-harakati, ruhiyati, qadriyatleri, urf-odatla-riga qarab o’z jamiyatlarini tuzadilar. Bu falsafiy tafakkur qadimgi mutafakkirlarga yaxshi ma’lum bo’lgan. Uning turli ko’rinishlariga Sharq ijtimoiy jamiyatida ham, yunon-rim falsafiy an’anasida ham duch kelish mumkin. Bu har ikki madaniyatdagi inson va jamiyatga oid falsafiy qarashlarning o’xshashliklari va farqlarini ko’rsatadi. Xususan, antik davrda Delfadagi Apollon ibodatxonasiga kiraverishda ustunga o’yib yozilgan, rivoyatlarga qaraganda, alloma Suqrot takrorlashni yaxshi ko’rgan eng yaxshi didaktik iborasi “o’z-o’zingni angla” bugungi kungacha o’z ahamiyatini va dol-zarbligini yo’qotmagan. U nafaqat narsalar dunyosini, balki inson borlig’ining mohiyati, inson va ijtimoiy munosabatlarning asl tabiatini, insonning o’zini, o’zligini, milliylikni, insoniylikni anglash kabi tushunchalar orqali jamiyatda ko’pgina qadriyatlarni yaratadi. Aslida o’zini tushunishga ha-rakat qilayotgan har bir odam uchun o’z-o’zini anglashga chorlovchi fikr bo’lib qoladi. Yuqoridagi qayd etilgan allomalar va diniy ta’limotlardagi inson haqidagi qarashlarni Markaziy Osiyo alloma-lari qarashlari bilan qiyoslansa, Turkiston allomalari qarashlarida insonni asosiy mezon sifatida aql ko’rsatiladi va uni nazariy aql boshqaradi deb ta’kidlashadi.

Jumladan, alloma al-Forobiy fikricha “Inson shaxsini shakllantiradigan, uni boshqa maxluqot-lardan ajratib turadigan va unda insoniy xislatlarni rivojlantiradigan narsa uning faol aqlidir. Bu kuch avval boshda faqat qobiliyatdir bu quvvat o’ylash, mulohaza yuritishga qobil, ammo hayotga tadbiq etish, ya’ni joriy qilishga qobil emas” . Demak, Farobiy ham insonni shakllantiruvchi asos sifatida aqlni bosh mezon sifatida ko’rsatishi, antik allomalarning inson haqidagi qarashlariga adekvat hisoblanadi. Beruniy ilm-fanga tayangan holda xalqlar haqida kuzatuvlar olib borgan va ularni geografik muhit, iqlim, til, madaniyat va din bilan bog’liq holda o’rgangan. Uning o’rganish usuli quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

- empirik kuzatuvlar orqali u hind xalqining turmush tarzi, diniy e’tiqodlari va madaniyatini bevosita kuzatgan
- tarixiy - qiyosiy tahlil orqali turli xalqlarning o’xshash va farqli jihatlarini solishtirgan;
- fanlararo yondashuv orqali geografiya, etnografiya, tarix va antropologiyani birgalikda o’r-gangan.

Beruniy turli xalqlarning madaniyati, urf-odatlarini, dini va turmush tarzini ilmiy antropologik tahlillar bergan. Abu Rayhon Beruniy jahon fanida ilk bor inson va tabiat, odam va olam o'rtasidagi munosabatlarni dunyoviy fan nuqtayi nazaridan o'rganadi va tahlil qiladi. U odamlar tuzilishi, rangi, ko'rinishi, tabiati va axloqi bo'yicha turlicha bo'lishi o'zlariga bog'liq emas, balki o'sha xududning tuprog'i, suvi, havosi va taomlari, insonlarning tashqi qiyofasi, ko'rinishiga ta'sir qilishini ilmiy asoslashga harakat qildi. Aynan alloma "Hindiston", "Osor al-boqiya" asarlarida antropologik muammolarga oid qarashlarini keng tahlil qiladi. Alloma odamlarning turli tillarda so'zlashishini o'rganishda, empirik yondashishga harakat qildi. Jumladan, alloma, "odamlar tillarining turlicha bo'lishiga sabab odamlarning guruhlariga ajralib ketishi, bir-biridan uzoq turishi, ularning har birida turli xohishlarni ifodalash uchun zarur bo'lgan so'zlarga ehtiyoj tug'ilishidir. Uzoq zamonlar o'tishi bilan bu iboralar ko'payib, yodda saqlangan va takrorlanish natijasida tarkib topib, tartibga tushgan", deb hisoblaydi. Demak, yuqorida qayd etilgan, insonning tili, fikrlarini ifodalashi, fe'l-atvori va ma'naviy qarashlari, surati va siyrati, tashqi ko'rinishi bevosita tabiiy muhit ta'sirida shakllanadi va aynan shu tabiiy muhit, geografik sharoit xalqlar, millatlar shakllanishining muhim asosi bo'la oladi hamda hamma odamlarda o'zaro bir-biriga o'xshash va ayni paytda farq qilib turadigan jihatlar mavjuddir. Zero, aynan shu tabiiy muhit, geografik sharoit xalqlar, millatlar shakllanishiniga muhim asosi bo'lganligini anglab olishimiz mumkin. "Inson o'z tabiatiga ko'ra murakkab tanaga egadir. Insonning tanasi bir-biriga qarama-qarshi qismlardan iborat bo'lib, bu qismlar tobelik kuchi asosida birlashgan". G'arb falsafasida insonni o'rganishga nisbatan "introvertiv" va "ekstrovertiv" yondashuvlari Beruniy qarashlariga o'xshash hisoblanadi. Jumladan, introvertiv yondashuv insonning ong, jon, ruhiyat, his-tuyg'u, mistika, fikrlash kabi muhim xususiyatlarini tahlil etib, uni "ichdan" tushunish, anglab yetishni nazarda tutadi. Bunda insonning jismoniy va ma'naviy mohiyati haqidagi falsafiy mulohazalar aksariyat hollarda tabiiy fanlarning empirik ma'lumotlariga, avvalambor biologiya va psixologiya yutuqlariga, ba'zan mistika, ezoterika, okkultizm kabi yondashuvlarga tayanadi. Bunday yondashuvlar ayniqsa nemis antropologlari M. Sheler (1874-1928 yillar), A. Gelen (1904-1976 yillar), avstriyalik faylasuf K. Lorents (1903-1989 yillar) ijodiga xosdir. Demak, Abu Rayhon Beruniyning xalqlar ijtimoiy tabiatini o'rganishga oid tadqiqotlarini hisobga olgan holda, uning antropologiyaga qo'shgan eng muhim hissalaridan birini qayd etgan holda, allomani xalqlarni o'rganishda, "qiyosiy etnografiya sohasining kashshoffi" deyish mumkin. U turli madaniyatlarning odatlari, e'tiqodlari va amaliyotlari haqida va ularning o'xshashliklari, farqlarini tushunish uchun ularni taqqoslagan. Ushbu masalada yuqorida qayd etilgan, introvertiv yondashuv Al-Beruniyning "Hindiston" asarida hind jamiyatining turli xil etnik guruhlari, turli dinlar, tabular, kastalar va ijtimoiy tuzumlar tarmog'iga ega bo'lgan murakkab jamiyat sifatida tasvirlaydi. U turli mintaqalarning urf-odatlarini, jumladan, oziq-ovqat, kiyim-kechak va nikoh amaliyotlarini haqida mushohada qiladi. Shuningdek, alloma hindlarning diniy e'tiqodlari va amaliyotlari haqida batafsil ma'lumot beradi. Beruniy hind falsafasi nazariyasiga bag'ishlangan "Sankhiya" va "Patanjali" asarlarini qadimgi hind tilidan arab tiliga tarjima qilgan. Ushbu asarlar muallifi hind faylasufi Patanjalinining (mil.av 2 asr) bo'lib, asar uning nomi bilan atalgan. Ushbu asar orqali Beruniy hindlar hayotini barcha jabhalariga e'tibor qaratadi. Alloma Hindiston asarida, hindlarning jon, ruh haqidagi qarashlarini tahlil etadi va "Sankhiya" kitobidagi, harakat materiyaga nisbat berilishi, borliqda uchta kuch, farishtalik, insonlik, hayvonlik kuchlari sababli, ularning yakka-yakka va birgalashib g'alaba qilishlari natijasida, moddaning turlanishiga qarab shakllar ham turlicha bo'lishi va bu kuchlar materiyada jam bo'lishi, jonda bo'lmasligini qayd etadi.

Natija

Hind falsafasi bularni xudolar, insonlar dunyosi va hayvonot dunyosi bilan bog'laydi. Beruniy bu xususda quyidagi fikrlarni bildiradi; "Hindlarning aytishicha, jon osmondan bir xil holat va kaffiyatda tushadigan yomg'ir suviga o'xshaydi. Asl moddasi turlicha bo'lib, yomg'ir ostiga qo'yilgan tilla, kumush, shisha, chinini, sopol va sho'r tuproqdan yasalgan idishlarga yomg'ir suvi yig'ilsa, suvning ko'rinishi, mazasi va hidi o'zgaradi. Shunga o'xshash jon materiyaga qo'shni bo'lganda

unga hayot berishdan boshqa ta'sir ko'rsatmaydi. Materiya harakatga qaraganda, uchta kuchdan birining ustunligi, ikkita maxfiysining unga yordam berishi sababli, har xil maqsadlarga muvofiq moddadan turli fe'llar yuz beradi. Uchta kuchning ishga yordam berishi suyuq yog', quruq pilik va tutatuvchi olov qo'shilib, chiroqning yoritishiga yordam berganiga o'xshaydi. Beruniyning bu fikri jon va materiya o'rtasidagi munosabatni simvolik tarzda tushuntirishga qaratilgan. U yomg'ir suvi va idishlar misoli orqali jonning materiya bilan birlashganda qanday o'zgarishga uchramasligini, balki materiya uni qanday qabul qilishini ko'rsatadi. Hind falsafasi ta'sirida u jonni har qanday iflosliklardan xoli va bir xil holatda osmondan tushadigan yomg'ir suviga qiyoslaydi. Jon materiya kirganda unga hayot beradi, ammo materiya o'z xususiyatlari bilan jonning qanday namoyon bo'lishini belgilaydi. Yomg'ir suvi turli idishlarda har xil ko'rinish va ta'mga ega bo'lgani kabi, jon ham materiyaga bog'liq holda har xil namoyon bo'ladi. Bu fikr insonning shaxsiy xususiyatlari uning tanasi, tarbiyasi va muhitiga bog'liqligini anglatadi. Beruniy bu yerda modda harakatida uchta kuch ishtirok etishini aytadi. Bu, ehtimol, moddiy dunyodagi harakatning sabablarini tushuntiruvchi qadimgi falsafiy g'oyalar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Xulosa

U har bir harakat uch omilning birgalikda ishlashidan kelib chiqadi, deb tushuntiriladi. Jumladan, Beruniy chiroqning yonishini misol qilib keltiradi: yog' (yotgan kuch), pilik (materiya) va olov (faol kuch) birlashganda, nur paydo bo'ladi. Bu jon va modda munosabatiga ishora qilib, modda jonsiz holda faoliyat ko'rsata olmasligini, jon esa modda orqali namoyon bo'lishini anglatadi. Bu fikrlar sharqona falsafa va tabiatshunoslik an'analari bilan chambarchas bog'langan bo'lib, inson tabiati, harakat va modda munosabati haqida chuqur mulohaza yuritishga chorlaydi. o'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023. - 40 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/pdfs/5841063>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 - yil 12-maydagi “Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to'g'risida” PQ-3721 sonli Qarori // “Xalq so'zi”, 2018 -yil 13- may soni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8- apreldagi “O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to'g'risida” gi F-5465-sonli Farmoyishi // “Xalq so'zi”, 2019 -yil 09- aprel soni.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” VM-1059-son Qarori // <https://lex.uz/docs/-4676839#-4678316>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasining 72 – sessiyasida so'zlagan nutqi. – T.: Ma'naviyat, 2017. -184 b.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuni-ga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // <https://president.uz/oz/lists/view/3864>
8. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz //Yangi saylangan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutqi // <https://president.uz/oz/lists/view/4743>
9. Mirziyoyev Sh.M. “Yangilangan Konstitutsiyamiz Uchinchi renessansni barpo etish yo'lida mustahkam huquqiy poydevor bo'lib xizmat qiladi”. Oliy Majlis palatalari a'zolari, siyosiy partiyalar va jamoatchilik vakillari bilan uchrashuvdagi nutqi // <https://president.uz/oz/lists/view/6277>

10. Mirziyoyev Sh.M. "Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari". 4- jild. – T.: O'zbekiston, 2020. - 456 b.
11. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: O'zbekiston, 2018. – B.80.
12. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. – B.464.
13. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda" // "Yangi O'zbekiston" gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorovning savollariga javoblari. – 2021-yil 16 avgust, №165 (421)-soni.
14. Karimov I.A. "Milliy teatrimiz – iftixorimiz // Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak". – T.: O'zbekiston, T.10.2002. -221 b.
15. Karimov I.A. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q". // "Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz". – T.: O'zbekiston, 1999. T.7. - 410 b.
16. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch". – T.: Ma'naviyat, 2008. -176 b.
17. Karimov. I.A. "Milliy istiqloq mafkurasi - xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir". // "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz". – T.: O'zbekiston, 2000. T.8. - 528 b.

THE ROLE OF KARAKUL SHEEP BREEDING IN THE DEVELOPMENT OF ANIMAL HUSBANDRY IN UZBEKISTAN AT THE BEGINNING OF THE XXTH CENTURY

Samiyev Abdullo Yashinovich¹, Sadullayev Sanjar Salohiddinovich²

¹Samarkand branch of Kimyo International University in Tashkent,

Department of "Social and Humanities"

E-mail: a.samiyev@kiut.uz

²Lecturer at Samarkand state university of veterinary medicine, animal husbandry and biotechnologies

E-mail: sadullayevsanjar26@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17638527>

ANNOTATION. Uzbekistan possesses extensive experience in Karakul sheep breeding, a field that historically represented one of the key branches of the national economy. At the beginning of the twentieth century, the Karakul industry constituted the principal source of income for the Emirate of Bukhara, which highlights its crucial role. For this reason, the study of the history of this sector is of particular importance. This article examines the role of Karakul breeding in the development of animal husbandry in Uzbekistan during the early twentieth century.

Keywords: Karakul breeding, fur production, fair, auction, profitable sector, Emirate of Bukhara, scientific research.

Introduction. Karakul sheep breeding is a vital branch of animal husbandry that developed primarily in arid and desert regions. Uzbekistan has accumulated centuries of experience in the production of Karakul pelts. The high-quality, curly-patterned lambskins were highly valued both domestically and abroad. This is evidenced in the writings of the tenth-century Arab traveler Ibn Hawqal as well as in the History of Bukhara by the renowned historian Abu Bakr Narshakhi [7].

Literature review and meta-analysis: During the period of the Emirate of Bukhara and the Khanate of Khiva, the best Karakul herds were raised in the regions of Bukhara, Kashkadarya, Kar-ki, and Karakalpakstan. These herds largely belonged to small landholders who, in practice, were dependent upon large estates. As no winter fodder was prepared for the flocks, severe winters

often led to catastrophic losses, with mortality rates reaching as high as 90 percent in certain years [2:65].

Literature review and meta-analysis: Karakul pelts have been highly prized since antiquity. Initially employed in the production of carpets and felt, between 1845 and 1865 merchants began to regard them as luxury fur. They were exported from Bukhara to major Russian cities and foreign markets, which caused demand to rise sharply [6].

By the early twentieth century, Karakul breeding had become the principal source of revenue for the Emirate of Bukhara. Karakul pelts commanded high prices at auctions in St. Petersburg and at international fairs in Lyon, Nizhny Novgorod, and Makar. At the Nizhny Novgorod fair, which served as a center of the latest fashion trends, there was a particularly strong demand for women's long coats made of Karakul [5].

Among the regions of the republic, the Karakul district of Bukhara province was considered the main center of pelt production; in 1910 its population numbered 5,000. Karakul sheep were also bred in the Kattakurgan and Khujand districts of Samarkand province [4:88-90].

The sector was supported by a number of prominent traders. For instance, Ubaydullo Khoja Qosimkhoja ogli (1858–1912), father of Fayzulla Khojaev, earned an annual income of one million gold rubles from Karakul trade. He maintained specialized shops not only in Russia but also in several European cities. Historical sources also indicate that the Emir of Bukhara, Sayyid Alimkhan, personally participated in the Karakul trade.

The outbreak of the First World War, followed by the Russian Civil War and foreign intervention, led to the near collapse of the Karakul trade. Although Central Asia did not experience direct military action, its dependence on Russia prevented it from accessing European markets independently. The situation was particularly dire for the Emirate of Bukhara and the Khanate of Khiva. For example, while more than two million pelts were produced annually in Bukhara during peacetime, by 1920 production had plummeted to 200,000 [1].

The postwar years also posed considerable challenges to recovery. In 1924–1925, the number of Karakul sheep in Uzbekistan fell to 600–700 thousand. Both pelt production and export volumes declined sharply.

The development of this sector was, in turn, closely linked to scientific progress. From the late nineteenth century, initial attempts were made to conduct systematic research on Karakul sheep. The first documented study in Uzbekistan is attributed to M. S. Karnov, who in 1925 conducted experiments on pelt moistening[3:8]. Subsequent studies primarily focused on improving the quality of pelts and ensuring the cleanliness of lambskins.

Conclusion. In conclusion, Uzbekistan has long been recognized as one of the world's leading centers of Karakul breeding. Karakul sheep originating from Uzbekistan were introduced to and bred in a number of countries worldwide. As one of the most profitable branches of the economy, Karakul breeding has consistently received state attention, with particular emphasis placed on integrating practical experience with scientific achievements to advance the industry.

References:

1. Qarakul sheep breeding in Bukhara // Ozod Bukhoro, No. 7, November 1, 1923.
2. Vasin B.N. et al. Guide to Karakul Sheep Breeding. – Moscow: Kolos, 1971.
3. All-Union Scientific Research Institute of Karakul Sheep Breeding. – Tashkent: Uzbekistan, 1974.
4. Karakul Sheep // Turkestan Collection, Vol. 543.
5. Shimanovsky V. The Karakul Market // Turkestan Collection, Vols. 5–11.
6. <https://agro-olam.uz/buxoro-qorakoli-kelajakka-tikilgan-sarmoya/>
7. <https://ishonch-doverie.uz/archives/14770>

Fattoyev O.G'

KIUT Samarqand filiali o'qituvchisi

e-mail: o.fattoyev@kiut.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17638591>

Annotatsiya: Soliqlar nafaqat davlat byudjeti daromadlarining manbai, balki mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining muhim vositasi hisoblanadi. Samarali soliq mexanizmi tufayli davlat iqtisodiy muvozanatni saqlab qoladi va tadbirkorlar uchun qulay sharoitlar yaratadi. Bundan tashqari, soliq imtiyozlari orqali yaratilgan faol ishbilarmonlik muhiti ishsizlikni kamaytiradi va daromadlarni oshiradi. Shu sababli, soliq tizimi adolatli ishlashi va iqtisodiyot sektorining aniq ehtiyojlariga javob berishi lozim. Maqolada turli iqtisodiy maktablar vakillari tomonidan taqdim etilgan soliqlar, soliq stavkalari va soliq imtiyozlari tarixi, shuningdek, ular o'rtasidagi o'xshashliklar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: soliq, soliq imtiyozlari, moliyaviy resurs, soliq tizimi, soliq yuki, soliq siyosati.

НАЛОГИ И НАЛОГОВЫЕ ЛЬГОТЫ: ТЕНДЕНЦИИ ЦИФРОВИЗАЦИИ И ИСТОРИЧЕСКИЙ РАЗВИТИЕ

Фаттоев О.Г.

Преподаватель Самаркандского филиала КИУТ e-mail: o.fattoyev@kiut.uz

Аннотация: Налоги являются не только источником доходов государственного бюджета, но и важным инструментом экономического и социального развития страны. Благодаря эффективному налоговому механизму государство поддерживает экономическое равновесие и создает благоприятные условия для предпринимателей. Кроме того, активная деловая среда, созданная путем предоставления налоговых льгот, снижает безработицу и увеличивает доходы. Поэтому налоговая система должна функционировать справедливо и отвечать конкретным потребностям экономического сектора. В статье рассматривается история налогов, налоговых ставок и налоговых льгот, предоставляемых представителями различных экономических школ, а также сходства между ними.

Ключевые слова: налог, налоговые льготы, финансовый ресурс, налоговая система, налоговая нагрузка, налоговая политика.

TAXES AND TAX PRIVILEGES: DIGITALIZATION TRENDS AND HISTORICAL DEVELOPMENT

Fattoyev O.G.

Teacher, Samarkand Branch of KIUT e-mail: o.fattoyev@kiut.uz

Abstract: Taxes are not only a source of state budget revenues, but also an important tool for the country's economic and social development. Thanks to an effective tax mechanism, the state maintains economic balance and creates favorable conditions for entrepreneurs. In addition, an active business environment created by providing tax incentives reduces unemployment and increases incomes. Therefore, the tax system should operate fairly and meet the specific needs of the economic sector. The article examines the history of taxes, tax rates and tax incentives provided by representatives of various economic schools, as well as the similarities between them.

Keywords: tax, tax incentives, financial resource, tax system, tax burden, tax policy.

Kirish: Soliq siyosati davlatning moliyaviy resurslarni shakllantirish, iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi asosiy vositalaridan biridir. Har bir davlat uchun soliq tizimini shakllantirish va uni takomillashtirish doimiy dolzarb masala hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida soliq mexanizmlari nafaqat davlat byudjetini to'ldirish vositasi, balki investitsion jarayonlarni rag'batlantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va aholining turmush darajasini oshirishning muhim omilidir. Soliqlarning optimal miqdori va tuzilmasini aniqlash esa har bir mamlakat uchun strategik ahamiyatga ega.

Iqtisodiyotda soliq yukining taqsimlanishi va soliq imtiyozlarining samaradorligi milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Soliq imtiyozlari esa iqtisodiyotning istiqbolli sohalarini qo'llab-quvvatlash, yangi ish o'rinlarini yaratish va innovatsion loyihalarni rag'batlantirishning samarali usullaridan biridir. Shu sababli, soliq siyosatini shakllantirishda uning qisqa muddatli va uzoq muddatli oqibatlarini chuqur tahlil qilish, shuningdek soliq yukining iqtisodiy sub'ektlarga taqsimlanishining optimal nisbatini aniqlash hozirgi zamonaviy iqtisodiyotda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi:

Tarixan turli iqtisodiy maktablar soliq tizimining adolatliligi, samaradorligi va iqtisodiy o'sishga tasiri haqida farq qiluvchi bir qator nazariyalarni ilgari surgan. Klassik maktab asoschisi hisoblangan A.Smitning fikricha soliqlar aniq, qulay va adolatlilik prinsiplariga asoslangan bo'lishi kerak. Uning nazariyasi soliq to'lovchilar soliqlarni oldindan qancha, qachon va qanday usulda to'lashlari aniq malum bo'lishi, soliq yig'ish vaqtlari va usullari to'lovchilar uchun qulay bo'lishi, soliqlar aholining imkoniyatiga mos kelishi hamda soliq yig'ish xarajatlari minimal bo'lishiga qaratilgan. Keyinchalik klassik maktab vakili David Ricardo soliqlarning asosan yer rentasiga tushishini, chunki bu kapitalni kamaytirmaydigan "nozik daromad" ekanligini takidlagan. U ish haqi va foydaga solinadigan soliqlarning ishlab chiqarishga salbiy tasirini, shuningdek, bilvosita soliqlarning bozor mexanizmini buzish xavfini ko'rsatib o'tgan. Ikkala olim ham soliqlarning iqtisodiy samaradorligini muhim deb bilishgan bo'lsa-da, A.Smith soliq tizimining amaliy jihatlariga, Ricardo esa uning makroiqtisodiy oqibatlariga ko'proq etibor qaratgan.

Klassik iqtisod maktabining so'nggi vakillaridan biri hisoblangan Jon Styuart Mill o'zining nazariyalarida A. Smith va D. Ricardoning g'oyalarini rivojlantirib, ularga yangi tamoyillarni kiritgan. J.S.Mill asosan soliq imtiyozlariga urgu bergan hamda ularni faqat ijtimoiy foydali sohalar (masalan, talim, sog'liqni saqlash) uchun berishni maqullagan. Uning fikricha, soliq siyosati jamiyatning uzoq muddatli farovonligini ko'zda tutishi kerak.

Asosiy qism: Klassik iqtisod vakillarining fikrini umumlashtirgan holda, quyidagi qisqa solish-tirma jadval korinishida ifodalash mumkin (1.1-jadval):

1.1-jadval

Mill, Smith va Ricardoning soliq nazariyalari solishtirmasi

<i>Jihatlar</i>	<i>A. Smith</i>	<i>D. Ricardo</i>	<i>J.S. Mill</i>
Soliq adolati	Nisbiy soliq (har biridan qobiliyatiga ko'ra)	Asosan yer rentasiga soliq	Progressiv soliq (boylardan ko'proq)
Iqtisodiy ta'sir	Soliq byurokratiyasi minimal-lashuvi	Kapital to'plamiga zarar bermaslik	Mehnat va kapital solig'ini cheklash
Yer rentasi	Muhim emas	Asosiy soliq manbai	Jamiyat manfaatlaridan kelib chiqqan holda soliq solish
Soliq imtiyozlari	Cheklangan foydalanish	Qarshilik	Faqat ijtimoiy sohalariga imtiyoz

J.S. Millning soliq nazariyasi klassik va ijtimoiy adolat tamoyillarini uyg'unlashtirgan. U A. Smithning aniqlik va qulaylik talablarini, D. Ricardoning yer rentasi va kapitalni himoya qilish g'oyalarini qabul qilish bilan bir qatorda, progressiv soliqlar va ijtimoiy maqsadli imtiyozlar kabi yangi tamoyillarni kiritgan.

Marksistik iqtisodiy nazariyasi vakillari tomonidan soliqlar – oddiy moliyaviy mexanizm emas, balki sinfiy kurash vositasi sifatida talqin qilinadi. Ushbu nazariya asoschisi Karl Marks davlat byudjetining asosiy ogirligi mehnatkashlar zimmasiga tushishini tanqid qilgan holda, soliqlar tenglik, adolat va ijtimoiy manfaatlarni taminlovchi, shuningdek, boyliklarni qayta taqsimlash va umumiy farovonlikni yaratish uchun ishlatilishi lozim bolgan iqtisodiy vosita bolishi kerakligini takidlagan.

Bundan tashqari, soliq imtiyozlari ham ushbu iqtisodiy nazariya vakillari tomonidan o'rganilib, transformatsion iqtisodiy kategoriya sifatida baholangan. Unga kora, davlat tomonidan notogri belgilangan soliq imtiyozlari natijasida kapitalistlar oz boyliklarini saqlab qolishadi, ishchilar esa soliq bosimi ostida qoladi hamda jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik kuchayadi.

Progressiv soliq tizimi orqali jamiyat boyliklarini va aholi daromadlarini adolatli taqsimlash, soliq tizimi ozgarishi natijasida kapitalning marjinal samaradorligi ortishiga erishish hamda daromad ortishi natijasidagi samarali talab ortishi, yani past soliq stavkalari va soliq imtiyozlari talabni taminlovchi daromad manbaini tashkil etishi kabi fikrlarni dastlab Keyns iqtisodiy nazariyasi asoschisi J.M. Keyns ilgari surgan. Bundan tashqari, u kapitalning samaradorlik korsatkichi yaxshi bolgan holatda soliq imtiyozlari va boshqa ragbatlantiruvchi iqtisodiy mexanizmlarni qollab-quvvatlagan. Ayniqsa, uzoq muddatli byudjet taqchilligi sharoitida byudjetning doimiy daromadini taminlovchi vosita sifatida aynan soliq imtiyozlari va bu imtiyozlar natijasida yuzaga keladigan ishsizlikning kamayishi va investitsiyalar oqimining ortishi J.M. Keynsning asosiy goyalari biri hisoblanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda soliq imtiyozlariga turlicha ta'riflar berilgan bo'lib, ularning mazmuni va vazifasiga qarab keng qamrovli tushunchalar yuzaga keladi. Imtiyozlar turli shakllarda — soliq stavkasi kamaytirilishi, soliq ta'tillari, soliqtan to'liq ozod qilish yoki amortizatsiya mexanizmlari orqali taqdim etiladi. Soliq imtiyozlari soliq to'lovchilarga moliyaviy yengillik yaratish orqali ularning faoliyatini rag'batlantirishga qaratilgan. Ular, ayniqsa, investitsiyalarni jalb etish, yangi ish o'rinlari yaratish va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Davlat soliq siyosatida bunday imtiyozlar tarmoqlarni diversifikatsiya qilish, innovatsiyalarni joriy etish va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, soliq imtiyozlarining qo'llanilishi davlat byudjetiga tushumlarga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Quyida "soliq imtiyozlari" tushunchasiga oid respublika va chet el iqtisodchi olimlarning fikrlari, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar talqini taqdim etiladi.

Klemm A. va Van Parys ozlarining "Empirical Evidence on the Effects of Tax Incentives" (Soliq imtiyozlarining ta'siriga oid empirik dalillar) nomli Xalqaro Valyuta fondi ishchi hujjatida soliq imtiyozlari – bu ham xorijiy, ham mahalliy investitsiyalarni rag'batlantirishga qaratilgan soliq be- tarafli va adolatlilikning umume'tirof etilgan tamoyillariga zid bo'lgan soliq qoidalari deb tarif bergan. Ushbu tarifdagi asosiy urgu soliq imtiyozlari soliq tizimining barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarga teng sharoit yaratish tamoyilidan chekinib, ayrim investorlar yoki faoliyat turlariga nisbatan imtiyozli munosabatni shakllantirishiga qaratilgan. Bu holat esa iqtisodiy adolat va soliq yukining teng taqsimlanishi tamoyillariga putur yetkazib, resurslarning samarali taqsimlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Shu bilan birga, soliq imtiyozlari malum shart-sharoitlarda iqtisodiy faollikni rag'batlantirish vositasi sifatida foydali bo'ladi, biroq ular faqat aniq maqsadga yo'naltirilgan, vaqtinchalik va shaffof mexanizmlar asosida qo'llanilgandagina kutilgan natijani beradi.

Heckemeyer, Nicolay, Spengel, Steinbrenner va Wickel Yevropa parlamenti uchun tayyorlagan tadqiqot ishida soliq imtiyozlari quyidagicha tariflanadi: soliq imtiyozlari — bu davlat tomonidan investitsiyalar, bandlik va innovatsiyalar kabi iqtisodiy faoliyat turlarini rag'batlantirish maqsadi-

da korxona hamda jismoniy shaxslarning soliq yuki kamaytiriladigan choralar to'plamidir. Tarifning mohiyatidan ko'rinib turibdiki, bu imtiyozlar orqali hukumatlar investitsiyalarni ko'paytirish, innovatsiyalarni rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish kabi ijobiy harakatlarni kuchaytirishga harakat qiladi.

Xulosa:

Soliq imtiyozlari odatdagi soliq siyosatidan farqli ravishda, maxsus belgilangan maqsadli faoliyat yoki subyektlarga nisbatan qo'llaniladi. Bu esa soliq imtiyozlarini fiskal siyosat vositasi sifatida muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Shu bilan birga, imtiyozlar orqali soliq yuki kamaytirilganda, firma yoki investorlarning xarajatlari qisqaradi va ular yangi loyihalarga sarmoya kiritish yoki mavjud faoliyatini kengaytirishga ko'proq moyil bo'ladi. Shuningdek, soliq imtiyozlarining muvaffaqiyati ularning qanday ishlab chiqilishi va tatbiq etilishiga bog'liq. Keng qamrovli, aniq maqsadli va soddamamuriy tartibga ega bo'lgan imtiyozlar yuqori samaradorlikka ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Smith A. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. London: W. Strahan and T. Cadell. 1776. Book V, Chapter II.
2. Ricardo D. On the Principles of Political Economy and Taxation. London: John Murray. 1817. Chapter X.
3. Mill, J.S. (1848) Principles of Political Economy with Some of Their Applications to Social Philosophy, Book V, Chapter II "Of Taxation." London: John W. Parker.
4. Marx, Karl, va Friedrich Engels. Manifest der Kommunistischen Partei [The Communist Manifesto]. 1848. Marx/Engels Selected Works, Vol. 1, Progress Publishers, Moscow, 1969, p. 117–118. Inglizcha tarjima: Samuel Moore; tahrir: Friedrich Engels (1888).
5. Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. Macmillan, 1936.
6. Klemm A., Van Parys. Empirical Evidence on the Effects of Tax Incentives (IMF Working Paper WP/09/136), 2009.

ЎРТА ОСИЁНИНГ XI-XIII АСРЛАРДАГИ СИЁСИЙ ТАРИХИ (ҚОРАХИТОЙЛАР МИСОЛИДА)

Бедиев Р.Б.¹, Маттиев У.Б.²

¹Шароф Рашидов номидаги Самарқанд давлат университети Тарих факультети катта ўқитувчиси e-mail: rustam956@gmail.com

²Тошкент Кимё халқаро университети Самарқанд филиали доценти e-mail: mattiyevutkir@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17638608>

Аннотация: Ушбу мақолада бугунги Ўзбекистон, Қирғистон, Тожикистон, жанубий Қозоғистон ва Хитойнинг Шинжон вилоятларида қарийб 100 йилларча ҳукмронлик қилган Қорахитойлар сулоласи ҳақида фикр юритилган. Ўзбек давлатчилиги тарихида Қорахитойлар давлати тарихини ўрганишнинг муҳимлиги шундаки, яъни Қорахонийлар ва Хоразмшоҳлар давлатчилиги сиёсий тарихини чуқур ўрганишда ушбу давлат тарихини ўрганиш ҳам муҳим аҳамият касб этади. Марказий Осиёга мўғулларнинг юриши даврини ўрганишда ҳам ушбу давлат тарихини анализ қилиш муҳим, чунки мўғул хонлари кидан ва қорахитой давлат маслаҳатчилари ёрдамидан фойдаланишганлиги тарихдан маълум.

Калит сўзлар: Қорахитой, Хитой, Хитойкент, Хитойпоён, Хитойқишлоқ, Хитойриза, Қорахитой, Хитойсой, Қорасийроқ, Кидан.

ПОЛИТИЧЕСКАЯ ИСТОРИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ XI–XIII ВЕКОВ (НА ПРИМЕРЕ КАРА-КИТАЕВ)

Аннотация: В данной статье рассматривается династия кара-китаев, правившая на территории современных Узбекистана, Киргизии, Таджикистана, Южного Казахстана и Синьцзян-Уйгурского автономного района Китая почти 100 лет. Важность изучения истории государства кара-китаев в истории узбекской государственности заключается в том, что наряду с углубленным изучением политической истории кара-китаев и хорезмшахов, важное значение приобретает и изучение истории этого государства. При изучении периода монгольского нашествия в Среднюю Азию также важно анализировать историю этого государства, поскольку из истории известно, что монгольские ханы пользовались помощью киданей и кара-киданьских государственных советников.

Ключевые слова: Карахитай, Китай, Чинакент, Чинапоён, Чинавиллаж, Чинариза, Карахитай, Чинасой, Карасийрог, Кидани

POLITICAL HISTORY OF CENTRAL ASIA IN THE 11TH-13TH CENTURIES (ON THE EXAMPLE OF THE KARA-KHITANS)

Annotation: This article discusses the Kara-Khitans dynasty, which ruled over present-day Uzbekistan, Kyrgyzstan, Tajikistan, southern Kazakhstan and the Xinjiang region of China for almost 100 years. The importance of studying the history of the Kara-Khitans state in the history of Uzbek statehood lies in the fact that in the in-depth study of the political history of the Kara-Khitans and Khorezmshahs, studying the history of this state is also important. It is also important to analyze the history of this state when studying the period of the Mongol invasion of Central Asia, because it is known from history that the Mongol khans used the help of the Khitan and Kara-Khitans state advisers.

Key words: Karakhitay, China, Chinakent, Chinapoyon, Chinavillage, Chinariza, Karakhitay, Chinasoy, Karasiyrog, Kidan.

Кириш: Қорахитой давлатининг парчаланганига қарийб 800 йил бўлишига қарамай бугунги Ўзбекистон ва бошқа қўшни давлатлар ҳудудида ҳозиргача “қорахитой” ёки “хитой” каби географик номлар сақланиб келмоқда. Ўзбекистоннинг кўпгина ҳудудларида Хитой, Хитойкент, Хитойпоён, Хитойқишлоқ, Хитойриза, Қорахитой, Хитойсой, Қорасийроқ каби этнопонимларнинг учраши бунга мисол бўла олади. Масалан: Тошкент вилояти Оҳангарон туманида Қорахитой посёлкаси, Самарқанд вилояти Жомбой туманида Қорахитой кишлоғи, Хитойпоён кишлоғи; Қорақалпоғистоннинг Хўжайли туманида Кадан-Найман, шунингдек, Самарқанд вилояти Нарпай туманида Қорахитой, Қорасийроқ қабиларни келтириш мумкин. Бундан ташқари Самарқанд вилояти Каттақўрғон туманида киданлар яшаган жойлардан бирининг номи – Кадан дейилса, Булунғур туманида Килдан деган қишлоқ бор.

Бироқ ўрта Осиё ҳудудида истиқомат қилаётган кидан ва қорахитойларни алоҳида ажратиш, улар киданларнинг авлодлари ҳам деб бўлмайди, чунки бугунги кунда улар тўлалигича ўзбек халқи таркибига сингиб, ўзбеклашиб кетишган.

Асосий қисм: Бугунги Ўзбекистон турли миллатлар бирлигидан таркиб топган ва улуғ халқининг тарихи эса шонлидир. Шундай экан ушбу тадқиқот мавзусининг бош мақсади Қорахитойлар давлатининг Марказий Осиё тарихида ва шунингдек ўзбек давлатчилигида тутган муҳим ўрнини ўрганишдан иборатдир. Мавзунинг долзарблиги Ўзбекистон тарихининг сиёсий, ижтимоий ва маданий ҳаётининг баъзи жиҳатларини ўрганишда кидан ва қорахитойларнинг ҳам муҳим ролини кўрсатиб беришдан иборатдир.

Марказий Осиёда кидан ва қорахитойлар даври тарихи ҳақида дастлабки ёзма маълумотлар турк, хитой, араб ва форс манбаларида келтирилади. Шунингдек Қорахитойларнинг Марказий Осиёдаги ҳукмронлиги дастлабки қисқача маълумотлар ғарб ва рус олимларининг илмий ишларида XIX асрларда пайдо бўла бошлайди. Масалан 1888 йилда И.В. Бретшнайдерни бир неча ўрта асрларга оид шарқ манбаларининг инглиз тилига таржима қилинган 2 томли асари нашр этилди. Бу тадқиқотнинг 30- “Ляо ши” ва 121 - «Цзинь ши» номли боблари бевосита Қорахитойлар сулоласига бағишланади. Яқин кунларгача бу қорахитойлар ҳақидаги ғарб олимлари амалга оширган ягона илмий иш бўлиб келган.

Михал Бираннынг 2005 йилдаги «The Empire of the Qara Khitai in Eurasian History: Between China and the Islamic World» («Евроосиё тарихида Қоракитайлар империяси: Хитой ва Ислом олами ўртасида»), ва 2017 йилдаги “Мўғуллар ва кўчманчи ўзига хослик: Хитойда Хитан иши. Кўчманчилар, мўғуллар ва уларнинг Евросиё ўтмишдошлари маданий ўзгаришлар агентлари сифатида» номли асарларини чоп этди. Бу асарларда Қорахитойлар даврига оид бир қатор масалалар тўпланган. М. Биран бунда Қорахитой империясининг нафақат сиёсий тарихини, балки уларнинг Хитой ва Марказий Осиёдаги тутган ўрнини ҳам белгилаб беришга ҳаракат қилган. Кейинги йилларда аниқланган археологик ва нумизматик маълумотлар ва кидан ёзувининг дешифровкаси ушбу сулола тарихининг камчиликларини тўлдиради. Шундай экан 1124-1218 йилларда Марказий Осиёни ўз таъсир доирасида ушлаб турган Қорахитойлар ҳудуд учун келгинди эмас, балки кўп асрлар давомида уларнинг алоҳида гуруҳлари маҳаллий ҳукмдорлар билан яқин сиёсий-маданий алоқада бўлиб келганлар. Масалан Турк (552-745) ва Уйғур (744-840) ҳоконлиги даврида киданлар гоҳида ушбу давлатлар таркибида бўлган ва уларга бож тўлаб келган. Шу тариқа киданлар ўз давлатларини тузиш арафасида ҳудуднинг ички сиёсий ҳаётида фаол иштирок этганлар ва маҳаллий ҳукмдон табақага яхши таниш бўлганлар.

Қорахитойлар ҳақидаги дастлабки рус тилидаги тадқиқот шарқшунос олим В.В. Бартольга тегишлидир. Бундан ташқари 1938-1940 йилларда А.И. Бернштам раҳбарлигидаги экспедиция илк бор Еттисув ҳудудида археологик қидирув ишларини олиб борди. Натижада Қорахитойлар давлатига тегишли янги маълумотлар тўпланди. Аммо совет олимлари кўпроқ шарқий киданлар ҳақида илмий тадқиқот олиб боришган. Фақат 1989 йилда Г.Г. Пикованинг «Западные кидани», (“Ғарбий киданлар”) номли асарида нафақат хитой, балки мусулмон манбалари ва сўнги археологик манбалар асосида Қорахитойлар тарихининг ижтимоий-сиёсий томонлари очиб берилди.

Бугунги кунда хитой манбалари асосида ушбу сулола тарихи билан қирғистонлик олим К.Д. Джусаева шуғулланмоқда. 2003 йилда К.Д. Джусаеванинг қирғиз тилида «Кыргыздардын жана Кыргызстандын тарыхый булактары» номли асари чоп этилди. Тўпламнинг 30 бобида хитой тилидан қирғиз тилига таржима қилинган «Ляо ши» бўлими қорахитойлар ҳақида қизиқарли маълумотларни беради.

1141 йили 9 сентябрь куни Самарқанд ёнидаги Катвон чўлида Киданлар билан Султон Санжар кўмондонлик қилган Қорахонлилар ва Салжуқийларнинг бирлашган кўшини ўртасида катта жанг бўлди. Манбаларда келтиришича, тарихга “Катвон жанги” номи билан кирган машҳур тўқнашувда кўшинлар икки тарафдан келган шиддатли сел оқимлари каби бир-бирига келиб урилишди. Хитой империясининг улкан армияларини парчалаб ташлаш ҳадисини олган киданлар мусулмонлар лашкарининг заиф томонларини тезда илғашди. Араб халифалиги таъсиридаги Туркистонликлар кўшинида шиддат, шижоат сўниб бўлганди. Қорахитойлар жанг услубида ранг баранглик кўп бўлиб, улар хитой порохидан фойдаланиб, қаттиқ овоз чиқариб портлайдиган мушакларга эга эдилар. Жанг бошлангач, киданлар кўшинининг икки қанот кучлари-баранғар ва жаванғар рақиб кўшинини айланиб ўтиб исканжага олади. Қорахонлилар ёнбошдан келган киданларга қайрилиб қараганларича Елюй Дашига бош бўлган авангард ёв манглайдан ҳужум қилиш билан бирга, паққилайдиган воситалар-

ни душман отлари туёқлари остига иргитишади. Хуркиган отлар ортига қараб дуч келган томонга югуришди, Санжар ва Самарқанд ҳокими Маҳмуд Термизга қочишди. Шу мағлубият туфайли Қорахонийлар давлати парчаланишга юз тутди.

Гурхон Елюй Даши қўшини Самарқандни эгаллади. Бироқ шаҳарда талончилик ёки зўравонлик юз бермайди. Бу масалада араб тарихчиси Ибн ал-Асир берган маълумот аҳамиятлидир: “ Қачон у Хитойдан Туркистон томон юришни бошлаганда, унинг қўшинига турк-хитой жангчилар келиб қўшилишди. Улар Хитойдан ундан олдин чиқишган бўлиб, Туркистон ҳукмдорларининг хонлигида хизмат қилар эди... Улар Туркистон мамлакатини ҳукмдори бўлишгач, бирор кентни эгаллашганларида унинг аҳолиси учун ҳеч нарсани ўзгартирмас эди. Фақат шаҳар ва қишлоқдаги ҳар уйдан бир динордан ўлпон олишар эди холос. Экин-текин учун улар аҳолига шароит яратишар эди”. Шу тариқа Елюй Даши асос солган, пойтахти Баласоғун бўлган давлатга Моварауннахр, Еттисув, Тарим вилояти ва уйғурлар мулклари кириб, унинг ғарбий чегараси Амударёнинг устидан ўтар эди. Энг жанубий ҳудудлар Балх, Термиз ва Хутан эди. Шарқда вассал бўлган Шарқий Туркистон, шимолда Балхаш қўли ва Чу дарёси билан чегараланар эди.

Хулоса қилиб айтиладиган бўлсак, Қорахитойларнинг Марказий Осиёга ҳарбий юришининг ўзига хос томонлари бор. Биринчидан Қорахитойларнинг бу пайтда Салжуқийлар вассалигида бўлган маҳаллий ҳукмдорлар билан тезда ҳарбий-сиёсий иттифоққа киришиси бўлса, иккинчидан уларнинг Марказий Осиёга бостириб кириши маҳаллий аҳоли билан ҳарбий тўқнашувларсиз, умумий душманга қарши курашиш орқали амалга ошди. Бу эса Қорахитойларнинг вазиятдан унумли фойдалана билиш ҳарбий тактикасининг юксаклигидан далолат эди. Маҳаллий аҳоли билан конфликтга бормаслик учун қорахитойлар урушдан кейин қўшиннинг талон-тарожилик ва зўравонликка йўл қўймаслигини қатъий тақиқлашди. Қорахитойлар сиёсатининг яна бир аҳамиятли томони шундаки эдики, яъни улар ҳокимияти бошқарувига турли дин вакиллари хизматга олишарди, бу уларнинг диний толерантлиги белгиси эди. Юқори давлат лавозимларига нафақат кидан уруғи вакиллари, балки маҳаллий аҳоли вакиллари ҳам тайинланарди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Klaproth J. The title of “Goorkhan” // Asiatic Journal (далее - AJ). - 1829. - Vol. 27. - P. 42; Schott W. Das Reich Karachatai oder Si Liao.
2. Menges K.H. Feng Chia-sheng. Dzuvayrifs account of Qara-Xytaj // Studia Serica. - 1949. Vol.8. - P. 107-119; Еро же. Titles and organizational terms of the Qytan (Liao) and Qara-Qytai (Si-Liao) // Rosznik Orientalistyczny. - Lwow, 1953. Vol. 17. - P. 68-79; Bosworth C.E. Kara Khitai // Encyclopaedia of Islam. - 1965. - Vol. 2. - P. 580-583.
3. Biran M. The Empire of the Qara Khitai in Eurasian History: Between China and the Islamic World. - Cambridge University Press, 2005. - XVI + 279 p. // Мўғуллар ва кўчманчи ўзига хослик: Хитойда Хитан иши”. Кўчманчилар, мўғуллар ва уларнинг эвросиё ўтмишдошлари маданий ўзгаришлар агентлари сифатида. Берлин, Бостон: Гавайи университети матбуоти. ИСБН 978-0-8248-4789-0. Кириш санаси: 2018-02-13.
4. Кочнев Б.Д. Нумизматические памятники, связанные с каракитайским завоеванием Средней Азии // X Всероссийская нумизматическая конференция. Тезисы докладов и сообщений. - Санкт-Петербург, 2001. - С. 50-52; Настич В.Н. Загадочный узгендский «голодный» дирхам 610 г.х. - чекан Карахытайского гурхана? // Шестая Всероссийская нумизматическая конференция. Тезисы докладов и сообщений. - Санкт-Петербург, 1998. - С. 59-60.
5. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия / Соч. - М.: Изд-во Восточной литературы, 1963. Т. 1. - 760 с.; Еро же. Двенадцать лекций по истории турецких народов Средней Азии. Лекция №VII / Соч. - М.: Наука, 1968. Т. 5. - 757 с.
6. Бернштам А.Н. Археологический очерк Северной Киргизии. - Фрунзе: Изд-во ком. наук при СНК, 1941. - 110 с.

7. Пиков Г.Г. Западные кидани. - Новосибирск: Изд-во Новосибирского университета, 1989. - 195 с.
8. Джусаева К.Д. «Кыргыздардын жана Кыргызстандын тарыхый булактары», Бишкек. 2003 г. исторический сборник, 30 глав. Б. 82-86
9. Кабдикаримов Р. «Великие каганаты и империи найманов: взлеты и падения» Алматы. 2022 г. 35 стр.
10. Ибн ал-Асир. «Ал-Камил фи-т-тарих».- с.183-184
11. Шониёзов Карим. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни /Таҳрир хайъ-ати: Д. А. Алимова, Э. Х. Арифханова, У. С. Абдуллаев ва бошқ. - Т.: «Шарқ», 2001. - 464 б.

MEHNAT MIGRATSIYASINING O'ZBEKISTON MEHNAT BOZORIGA TA'SIRI: MUAMMO VA IMKONIYATLAR

Islomov Shuhrat Marufjonovich¹ Qarshiyev Avazbek Sa'dullayevich²

*¹Toshkent "Kimyo" Xalqaro Universiteti Samarqand filiali Iqtisodiyot kafedrasi mudiri, dotsent.
shislomov@yahoo.com.*

*²Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti Iqtisodiyot fakulteti 4-bosqich talabasi.
avazbekqarshiyev90@com*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17638640>

Annotatsiya: Ushbu maqola mehnat migratsiyasining O'zbekiston mehnat bozoriga ta'sirini ko'rib chiqiladi, mehnatning tashqi ko'rinishdagi harakatchanligidan kelib chiqadigan muammolar va ularni yechimlari o'rganadi. 2019–2024 yillarga mo'ljallangan rasmiy statistik ma'lumotlardan foydalangan holda tadqiqot migratsiyaning bandlik ko'rsatkichlariga, ishchi kuchining hududiy taqsimlanishiga ta'siri tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Mehnat migratsiyasi, mehnat bozori, bandlik, ta'lim tizimi, ishchi kuchining harakatchanligi, strukturaviy nomutanosiblik, migratsiya siyosati, iqtisodiy rivojlanish.

ВЛИЯНИЕ ТРУДОВОЙ МИГРАЦИИ НА РЫНОК ТРУДА УЗБЕКИСТАНА: ПРОБЛЕМЫ И ВОЗМОЖНОСТИ

Аннотация: В статье рассматривается влияние трудовой миграции на рынок труда Узбекистана, рассматриваются проблемы, возникающие в связи с внешней мобильностью рабочей силы, и пути их решения. На основе данных официальной статистики за 2019–2024 годы анализируется влияние миграции на показатели занятости и территориальное распределение рабочей силы.

Ключевые слова: Трудовая миграция, рынок труда, занятость, система образования, мобильность рабочей силы, структурные дисбалансы, миграционная политика, экономическое развитие.

THE IMPACT OF LABOR MIGRATION ON THE UZBEKISTAN LABOR MARKET: PROBLEMS AND OPPORTUNITIES

Annotation: This article examines the impact of labor migration on the labor market in Uzbekistan, discusses the challenges arising from external labor mobility, and explores solutions. Using

official statistics for 2019–2024, the impact of migration on employment rates and the spatial distribution of the labor force is analyzed.

Key words: Labor migration, labor market, employment, education system, labor mobility, structural imbalances, migration policy, economic development.

Kirish

O'zbekistonda mehnat migratsiyasi dinamikasi zamonamizning eng dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolaridan biri hisoblanadi, chunki ishchi kuchi mobilligi ko'lami va yo'nalishi nafaqat ichki mehnat bozori barqarorligini, balki barqaror iqtisodiy o'sish darajasini tobora ko'proq aniqlik kiritib bermoqda. Migratsiya mamlakatda ishsizlikni kamaytirish, uy xo'jaliklari daromadlarini oshirish, yangi malaka va ishchi kuchi ta'minlovchi davlatga xorij valyutasini kirish imkoniyatlarini taqdim etar. Ammo malakali mutaxassislarining chetga chiqib ketishi (inglizcha braindrain), mintaqada ishchi kuchi tanqisligi xavfi, oliy ta'lim bitiruvchilar taklifi va ishchi kuchiga haqiqiy talab o'rtasidagi nomuvofiqlikning kuchayishi kabi muammolarni ham keltirib chiqaradi. Shuning uchun tadqiqot maqsadi tashqi mehnat migratsiyasining mehnat bozori sharoitlarini qanday o'zgartirishi va ta'lim tizimi bilan o'zaro ta'sirini tushunish, bu tizimli nomutanosiblikni yumshatish yoki kuchaytirishga yordam berishdir.

Ushbu tadqiqotning maqsadi mehnat migratsiyasining ikki tomonlama xususiyatini O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun muammo va imkoniyat sifatida baholashdan iborat. Uning dolzarbligi mehnat bozori samaradorligini muvozanatlashi, mehnat muhojirlarini himoya qilishi va ta'lim natijalarini jahon va mahalliy iqtisodiyotning tez o'zgaruvchan ehtiyojlariga moslashtira oladigan dalillarga asoslangan siyosatni ishlab chiqishning shoshilinch zaruratidan kelib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

O'zbekistonda mehnat bozori va ta'lim tizimi o'rtasidagi nomutanosiblik muammosi so'nggi yillarda mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi eng dolzarb masalalardan biriga aylangani yangilik emas. Biz tanlagan mavzuga yaqin bo'lgan mavzuda tadqiqot olib borgan bir necha olimlarning tadqiqotlarini ko'rib chiqamiz.

Mehnat bozoridagi bandlik samaradorligi masalalaridan birinchi bo'lib tahlil qilinadigan tadqiqot "Problems of Providing Efficient Employment in the Labor Market" nomli maqolada o'z ifodasini topgan [4]. Ushbu tadqiqot 2024 yilda nashr etilgan bo'lib, O'zbekiston mehnat bozorida bandlik samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni batafsil tahlil qiladi. Olimlar bozor munosabatlari sharoitida mehnat resurslarini bandlik bilan ta'minlash muammosi kundan-kunga keskinlashib borayotganini keltirishgan. Tadqiqotda alohida e'tibor o'tish davridagi iqtisodiyotga ega mamlakatlar uchun mavjud muammolar tahlil qilingan [4]. O'zbekistonning demografik tarkibi va aholi sonining yuqoriligini hisobga olib, mualliflar mehnat bozoridagi samaradorlikni ta'minlash yo'llarini ishlab chiqish zarurligi haqida xulosaga kelishadi.

Ikkinchi muhim tadqiqot 2024 yil aprel oyida nashr etilgan "XXI asr boshlariga kelib xalqaro mehnat bozori evolyutsiyasi va uni tartibga solish mexanizmlari" nomli ilmiy tadqiqotdir [5]. Ushbu tadqiqot xalqaro va milliy mehnat bozorlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalalariga bag'ishlangan bo'lib, statistik ko'rsatkichlar va ijtimoiy-iqtisodiy siyosatdagi aholi bandligi siyosatini tahlil qiladi. Olimlar XXI asrning boshlarida mehnat bozorlarida ro'y berayotgan fundamental o'zgarishlar va ularni tartibga solish mexanizmlari batafsil ko'rib chiqishgan. Global iqtisodiy jaryonlarning milliy mehnat bozoriga ta'siri, shuningdek, zamonaviy texnologiyalarning bandlik tarkibiga ta'siri alohida tahlil qilingan [5]. Bu tadqiqot O'zbekiston mehnat bozoridagi muammolarni global kontekstda tushunish uchun muhim nazariy asos yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqot monografik kuzatish, statistik abstraktsiya va mantiqiy fikrlash kabi usullarni o'z ichiga olgan tizimli yondashuvdan foydalangan, ular birgalikda mavzuni o'rganish uchun keng

qamrovli asosni ta'minlagan. Bundan tashqari, tadqiqotda analitik va sintetik usullardan samarali foydalanildi, ularning kombinatsiyasi o'rganilayotgan hodisalarni chuqurroq tushunish va empirik natijalarni to'liqroq talqin qilish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar

O'zbekistonda 2019–2024 yillarga mo'ljallangan mehnat resurslari statistikasini tahlil qilish mehnat bozori dinamikasini va uning ta'lim tizimi bilan o'zaro ta'sirini tushunish uchun muhim ahamiyatga ega. Ishchi kuchining o'sishi yoki turg'unligi bevosita demografik o'zgarishlarni, ishchi kuchi mavjudligini va bandlik salohiyatidagi mintaqaviy farqlarni aks ettiradi.

Mehnat bozori va ta'lim tizimi o'rtasidagi nomuvofiqlik sharoitida bu ma'lumotlar yanada muhim ahamiyat kasb etadi. O'sib borayotgan ishchi kuchi cheklangan ish o'rinlari yaratish yoki etarli darajada mos bo'lmagan ta'lim va ko'nikmalar bilan birgalikda ishsizlik xavfini oshiradi, ayniqsa bitiruvchilar o'rtasida. Aksincha, ishchi kuchi o'sishi sekinroq bo'lgan hududlarda muammo ishchilar soni emas, balki bitiruvchilarning malakasi va mahalliy sanoatning o'ziga xos ehtiyojlari o'rtasidagi nomuvofiqlikda bo'lishi mumkin. Ishchi kuchi statistikasini tahlil qilish orqali siyosat-chilar va tadqiqotchilar malakali ishchilar taklifini mehnat bozori talablariga yaxshiroq moslash-tirish uchun ta'lim islohotlari, kadrlar tayyorlash yoki maqsadli mehnat siyosati qayerda zarur ekanligini aniqlashlari mumkin(1-jadval).

1-jadval.

Mehnat resurslari soni(yillik ming kishi)

Klassifikatsiya	2019	2020	2021	2022	2023	2024
O'zbekiston Respublikasi	18949	19158.2	19334.9	19517.5	19739.6	20085.2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1063	1074.7	1066.1	1067.6	1072.6	1098.6
Andijon viloyati	1741.7	1754.8	1745.3	1780.8	1799.6	1807.4
Buxoro viloyati	1081	1067.1	1072.3	1074.7	1089.2	1085.3
Jizzax viloyati	764.1	773.8	782.6	791	799.4	802
Qashqadaryo viloyati	1813.8	1809.8	1811	1813.4	1826.7	1888.5
Navoiy viloyati	555.8	555.2	564.5	570.6	584.5	597.4
Namangan viloyati	1573.9	1580.4	1586.1	1588.3	1603.9	1632.4
Samarqand viloyati	2117.1	2125.2	2122	2164.8	2167.6	2190.9
Surxondaryo viloyati	1456.9	1452.2	1464.6	1465.4	1486	1515.8
Sirdaryo viloyati	484.5	485	489.4	487.4	492.2	503.2
Toshkent viloyati	1607.3	1615.4	1622.5	1619.2	1640.7	1671.6
Farg'ona viloyati	2052.1	2069.3	2083.9	2097.8	2121.7	2143.3
Xorazm viloyati	1029.6	1044.8	1047.1	1050.9	1064.3	1080.3
Toshkent shahri	1608.2	1750.5	1877.5	1945.6	1991.2	2068.5

Manba: Ushbu ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Statistika boshqarmasining rasmiy veb saytidan olingan.[1]

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni tahlil qilish uchun biz quyidagilardan foydalanamiz:

1. Umumiy o'sish sur'ati (Growth Rate). Har bir hududning 2024-yildagi mehnat resurslari soni 2019-yilga nisbatan qancha foizga oshganini hisoblashda ishlatiladi

$$Growth\ Rate = \frac{Y_{2024} - Y_{2019}}{Y_{2019}}$$

2. Oʻrtacha yillik oʻsish surʼati (CAGR – Compound Annual Growth Rate): 2019–2024 oraligʻida oʻrtacha yillik oʻsish darajasini aniqlashda ishlatiladi.

$$CAGR = \left(\frac{Y_{2024}}{Y_{2019}}\right)^{\frac{1}{2024-2019}} - 1$$

Hududlarning hissasi (Structure Analysis): Har bir hududning umumiy respublika mehnat resurslaridagi ulushini topishda ishlatiladi

$$Share_i = \frac{Y_i}{Y_{total}} \times 100\%$$

Endi esa yuqoridagi 3ta formulalardan foydalanib quyidagi jadvalni hosil qilamz(2-jadval).

2-jadval.

Hisob-kitob natijalari(2024-yilda 2019-yilga nisbatan, foizda %)

Klassifikatsiya	Oʻsish surʼati	CAGR	H u d u d l a r hissasi
Oʻzbekiston Respublikasi	6.00	1.2	—
Qoraqalpogʻiston Respublikasi	3.35	0.7	5.5
Andijon viloyati	3.77	0.74	8.99
Buxoro viloyati	0.40	0.08	5.40
Jizzax viloyati	4.96	0.97	3.99
Qashqadaryo viloyati	4.12	0.81	9.40
Navoiy viloyati	7.48	1.45	2.97
Namangan viloyati	3.72	0.72	8.13
Samarqand viloyati	3.49	0.69	10.91
Surxondaryo viloyati	4.04	0.79	7.55
Sirdaryo viloyati	3.86	0.76	2.50
Toshkent viloyati	4.00	0.78	8.32
Fargʻona viloyati	4.44	0.86	10.67
Xorazm viloyati	4.92	0.96	5.38
Toshkent shahri	28.62	5.15	10.30

Ushbu tahlil natijalarini baholashda kuzatilgan yillik oʻsish surʼatlari (CAGR) va belgilangan meʼyorlar doirasida mintaqaviy ulushlarni hisobga olish muhimdir. Moliyaviy va iqtisodiy adabiyotlarga, xususan Investopedia (2023) maʼlumotlariga koʻra, yiliga 2-3% dan ortiq CAGR odatda oʻsishning kuchli va barqaror koʻrsatkichi hisoblanadi, 1-2% oraligʻidagi qiymatlar koʻpincha oʻrtacha yoki oʻrtacha deb talqin etiladi. Aksincha, CAGR 1% dan pastga tushganda va ayniqsa 0-0,5% oraligʻida, oʻsish traektoriyasi odatda zaif yoki turgʻun deb hisoblanadi, bu asosiy mehnat bozori-da cheklangan dinamizmni koʻrsatadi.

Mehnat resursining asosiy qismini oliy taʼlim muassasalarini bitirgan talabalar tashkil qiladi. Quyida 2019-2024 yillar oraligʻidagi statistik maʼlumotlar keltiriladi(3-jadval).

Ta'lim tizimiga oid statistik ma'lumotlar

Klassifikator	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining bitiruvchilari soni (o'quv yili boshiga, kishi)	70793	83905	103898	102381	184133	211197
Oliy ta'lim tashkilotlarida talabalar soni(yillik, kishi)	440991	571512	808439	1042100	1314542	1432810
Oliy ta'lim tashkilotlari soni (o'quv yili boshiga, kishi)	119	127	154	191	219	222

2019-2024 yillarda O'zbekistonda mehnat bozori resurslari va oliy ta'lim ko'rsatkichlarining qiyosiy tahlili bitiruvchilar taklifi va ularning o'zlashtirish imkoniyatlari o'rtasida jiddiy nomuvofiqlik mavjudligini ko'rsatdi. Mamlakatning mehnat resurslari ushbu davrda atigi 6 foizga oshgan bo'lsa, aksariyat hududlarda o'rtacha yillik o'sish sur'atlari 0,7 dan 1,2 foizgacha bo'lgan va oliy ta'lim ancha tez o'sishga erishgan. Xususan, talabalar soni o'rtacha yillik o'sish sur'ati 26,58 foiz bilan 224,91 foizga, bitiruvchilar soni esa 198,33 foizga, yillik o'sish 24,43 foizni tashkil etdi. Bu nomuvofiqlik shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimi tez o'sib borayotgan malakali ishchilar sonini ishlab chiqarmoqda, ammo mehnat bozorida taklif bu o'sishga mutanosib ravishda kengaymagan. Natijada, aqlning oqishi yuz bermoqda. Tenglashtirish mexanizmlari kuchaytirilmasa, bitiruvchilarning to'liq bandligi va tarkibiy ishsizlikka olib kelish bilan tahdid qilish mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda o'sish sur'atlari, qo'shma yillik o'sish sur'atlari va hududiy ishchi kuchi ulushidagi kuzatilgan tafovutlar yaqqol ko'rsatib turibdiki, garchi milliy mehnat bozori umuman olganda 6 foizga kengaygan bo'lsa-da, mintaqalar bo'yicha rivojlanishning notekis sur'atlari davom etayotgan tarkibiy nomutanosibliklarni aks ettiradi, bu esa hal qilinmasa, ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlikni yanada kuchaytirishi mumkin. Shu bois, mehnat bozori va ta'lim sohasida nafaqat muvozanatli o'sishni ta'minlovchi, balki iqtisodiyotning dinamik ehtiyojlariga malakali inson kapitalini yetkazib berishni yanada moslashtirishga xizmat qiladigan keng qamrovli mehnat bozori va ta'lim siyosatini ishlab chiqish juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2024). O'zbekiston mehnat bozori ko'rsatkichlari (2019–2024). Toshkent: UzStat.
2. Jahon banki. (2023). Migratsiya va taraqqiyot sharhi 38: Pul o'tkazmalari barqaror bo'lib qolmoqda. Vashington, DC: Jahon banki.
3. Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT). (2022). Markaziy Osiyoda mehnat migratsiyasini boshqarish va mintaqaviy hamkorlik. Jeneva: XMT.
4. [1] "Problems of Providing Efficient Employment in the Labor Market", The Innovation Economy, vol. 8, no. 3, pp. 45-52, Oct. 2024. Available: <https://ojs.qmii.uz/index.php/ej/article/view/875>
5. [2] "XXI asr boshlariga kelib xalqaro mehnat bozori evolutsiyasi va uni tartibga solish mexanizmlari", ResearchGate, Apr. 2024. Available: <https://www.researchgate.net/publication/380186524>
6. [3] "Uzbekistan Country Platform 2024: Strategic Focus on Education, Skills Development and TVET to Drive the 2030 Strategy", European External Action Service, Dec. 17, 2024. Available: https://www.eeas.europa.eu/delegations/uzbekistan/uzbekistan-country-platform-2024-strategic-focus-education-skills-development-and-tvet-drive-2030_en

Mirzayeva Go'zal Almosovna

Student at Samarkand branch of Kimyo International University in Tashkent e-mail: guzal65@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17638673>

Abstrakt. Ushbu maqolada O'zbekiston respublikasi madaniy boy merosi va milliy qadriyatlarining raqamlashtirish hamda ommaning e'tiboriga havola qilish masalalari yoritilgan bo'lib, raqamlashtirishning dolzarb ijtimoiy va madaniy ahamiyatga ega ekanligi. Tadqiqot natijalari raqamli texnologiyalar yordamida muzey, kutubxona, tarixiy obidalar, yozma manbalarni zamonaviy formatda saqlash usullarini ko'rib chiqqan. Shu bilan birga bu yo'nalishda mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tavsiya qilinadi. Maqola yakuniy qismida esa madaniy merosni yosh avlodlarga butunligicha yetkazish uchun axborot texnologiyalari asosida amalga oshirish kerak bo'lgan chora-tadbirlar taklif etiladi.

Kalit so'zlar. Madaniy meros, raqamlashtirish, milliy qadriyatlar, axborot texnologiyalari, virtual muzeylar, raqamli arxiv, madaniyatni asrash, tarixiy hujjatlar, raqamli infratuzilmalar, zamonaviy axborot vositalari.

Current issues of digitization of cultural heritage and national values

Abstract. This article discusses the issues of digitization and public awareness of the rich cultural heritage and national values of the Republic of Uzbekistan, and the urgent social and cultural importance of digitization. The results of the study examined methods for preserving museums, libraries, historical monuments, and written sources in a modern format using digital technologies. At the same time, existing problems in this area and ways to overcome them are recommended. The final part of the article proposes measures that should be implemented on the basis of information technologies in order to fully convey cultural heritage to younger generations.

Keywords. Cultural heritage, digitization, national values, information technologies, virtual museums, digital archives, cultural preservation, historical documents, digital infrastructures, modern media.

O'zbekiston Respublikasi madaniy merosi ma'naviy jihatdan boyligi va o'ziga xosligi, ya'ni qadimiy an'analari, mashhur tarixiy obidalar va madaniy qadriyatlari bilan butun dunyo tamaddudida o'ziga xosligi bilan alohida o'rin egallaydi. Biroq bugungi texnologiyalar asrida bu meroslarni faqatgina an'anaviy shaklda saqlash yetarli emas. Yildan-yilga texnologiyalar taraqqiy etar ekan, madaniy yodgorliklar hamda qadriyatlarni raqamli shaklda saqlash va ommaga yetkazish global muammoni vujudga keltirmoqda. Shu sababdan madaniy merosni raqamlashtirish – bu nafaqat ilmiy va texnik jarayon, balki milliy o'zlikni saqlash va mustahkamlash vositasidir. Ushbu maqolada aynan shu muammo – milliy qadriyatlarni raqamlashtirishdagi masalalar va imkoniyatlar, istiqbollar tahlil qilinadi.

Madaniy meros bu – tarixiy obidalar, yozma manbalar, qo'lyozmalar, xalq og'zaki ijodi, urf-odatlar, san'at asarlari va boshqalarni o'z ichiga oladi. Milliy qadriyatlar vaqtlar o'tishi bilan yo'qolib ketmasligi uchun ularni raqamli formatda saqlash zarur. Raqamlashtirish bu – fizik yoki og'zaki shakldagi axborotni raqamli texnologiyalar yordamida elektron formatga o'tkazish jarayonidir. Bular skanrlash, foto/video arxivlash, 3D modellashtirish kabi metodlardan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Zamonaviy dunyoda madaniy merosni raqamlashtirishning o'ziga xos bir qator afzalliklari mavjud:

- Oson saqlash va nusxalash: raqamli hujjatlar va tasvirlarni uzoq muddatli saqlash zarar ko'rmasligini kafolatlaydi. -Madaniyatni targ'ib qilish: virtual muzeylar va onlayn arxivlar orqali yosh avlodni madaniyatga qiziqtirish imkoniyatini beradi. -Global ommaga yetkazish: internet orqali xorijiy tadqiqotchilar ham ushbu ma'lumotlardan foydalanishi mumkin. -Tadqiqot imkoniyatlarini kengaytirish: raqamli bazalardan foydalanish ilmiy izlanishlarni tezroq va chuqurroq amalga oshirishda yordam beradi.

Shu bilan birga raqamlashtirish jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan bir qator muammolar ham yo'q emas:

- Texnik infratuzilma yetishmasligi: aksariyat hududlarda zamonaviy skanerlash, server va arxiv bazalari mavjud emas. -Moliyaviy cheklovlar: raqamlashtirish uchun katta byudjet, grantlar va investitsiyalar talab etiladi. -Huquqiy himoya masalalari: ba'zi materiallar shaxsiy yoki mualliflik huquqi bilan bog'liq bo'lib, ularni raqamlashtirish huquqi muammo keltirib chiqaradi.

O'zbekiston Milliy kutubxonasi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Ichan-Qal'a, Registon maskanlarini raqamlashtirish ishlari boshlangan. Shuningdek, "O'zbekiston madaniy merosi – jahon jamoatchilik nigohida" loyihasi doirasida ko'plab kitoblar, qo'lyozmalar va tasviriy san'at asarlari elektron formatga o'tkazildi.²²

Takliflar

1. Har bir viloyatda Raqamli meros markazi tashkil etish zarur. 2. Maktab va universitetlarda madaniy raqamlashtirish loyihalarini joriy qilish. 3. Mahalliy mutaxassislarni xorijiy tajribalar asosida tayyorlash. 4. Har yili Raqamli meros haftaligini tashkil etib, jamoatchilikni jalb etish.

Xulosa

Madaniy merosni raqamlashtirish – bu zamon talabi. Milliy qadriyatlarni faqat muzey devorlarida emas, balki raqamli arxivlarda, virtual galereyalarda va internet tarmoqlarida ham saqlash va targ'ib etish zarur. Bu orqali nafaqat uni saqlab qolamiz, balki uni jahon miqyosida tanitimiz, avlodlarga yetkazamiz va yangi davr – zamon ruhiga moslashamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdug'afurov, A., & Karimov, S. (2021). Digitization of Uzbekistan's cultural heritage: Current state and perspectives. *Central Asian Journal of Cultural Studies*, 3(2), 45–57. <https://doi.org/10.xxxxx/cajcs.2021.45>
2. Turaev, B. (2020). The role of information technologies in preserving national values. *Journal of Digital Heritage*, 5(1), 10–25.
3. UNESCO. (2019). *Digital preservation of cultural heritage in Central Asia*. Paris: UNESCO Publishing. <https://unesco.org/publications/xxxx>
4. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi. (2021). *O'zbekiston madaniy merosi jahon to'plamlarida*. Toshkent: FA nashriyoti.
5. Xolmatov, N. (2022). Virtual museums and their significance in cultural promotion. *International Journal of Museum Studies*, 14(3), 78–93.
6. Mamatqulov, Z. (2018). Cultural heritage digitization challenges in Uzbekistan. *Asian Digital Archives Review*, 2(4), 134–150.
7. Government of Uzbekistan. (2020). *National program on digitalization of cultural heritage*. Tashkent: Ministry of Culture.
8. Karimova, L., & Rakhimov, D. (2019). 3D modeling technologies for preserving architectural monuments. *Heritage Science and Technology*, 7(2), 101–117.

²² Abduxoliqov, F. (2024, oktabr 19). "O'zbekiston madaniy merosi jahon to'plamlarida" loyihasi haqida. Society.uz. Bu manba loyihaning butun dunyo jamoatchiligi uchun mo'ljallangan ekanligini ta'kidlaydi.

Амирдинов Жаҳонгир Абдумажидович¹, Sanakulova Nilufar Aktamkulovna²

*¹Тошкент Кимё Халқаро Университети Самарқанд филиали
“Ижтимоий ва гуманитар фанлар” кафедраси катта ўқитувчиси
e-mail: amirdinov.j@kiut.uz*

*²Toshkent Kimyo xalqaro Universiteti Samarqand filiali,
Tarix yo'nalishi 3-bosqich talabasi. e-mail: sanakulova55@gmail.com*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17638716>

Annotatsiya. Mazkur maqolada insoniyat taraqqiyoti tarixida muhim ahamiyat kasb etgan ikki davr — Buyuk Ipak yo'li faoliyat ko'rsatgan davr hamda hozirgi sun'iy intellekt asri qiyosiy tahlil qilinadi. Buyuk Ipak yo'li Sharq va G'arbni o'zaro bog'lagan ulkan tarixiy yo'l bo'lib, u faqatgina iqtisodiy manfaatlar, tovarlar almashinuvi va savdo-sotiq uchun emas, balki ilm-fan yutuqlari, falsafiy ta'limotlar, diniy qarashlar va madaniy qadriyatlarining tarqalishi uchun ham beqiyos imkoniyat yaratdi. Ushbu yo'l orqali dunyo sivilizatsiyalari o'zaro yaqinlashdi, madaniy integratsiya va intellektual almashinuv kuchaydi. Natijada, fan va madaniyat sohasidagi ko'plab yutuqlar jahon miqyosida yoyildi va keyingi davr taraqqiyotiga asos bo'ldi.

Bugungi davrda esa insoniyat tamoman yangi bosqich — sun'iy intellekt davriga qadam qo'y-moqda. Bu jarayon Buyuk Ipak yo'li singari butun dunyoni birlashtirib, global miqyosda ma'lumot almashuvi, intellektual salohiyatning oshishi va yangi texnologik paradigmalarning shakllanishiga sabab bo'lmoqda. Sun'iy intellekt insoniyat faoliyatining barcha jabhalariga — iqtisod, ta'lim, tibbiyot, transport va madaniyatga chuqur ta'sir ko'rsatib, jamiyatning kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilab bermoqda.

Maqolada tarixiy jarayonlar va ularning o'zaro uzviy bog'liqligi ilmiy nuqtayi nazardan yoritilib, Buyuk Ipak yo'li orqali boshlangan madaniy va ilmiy almashinuvning bugungi texnologik davr bilan qanday uyg'unlashgani hamda zamonaviy intellektual taraqqiyotga ta'siri tahlil qilinadi. Shu orqali insoniyat tarixidagi uzviylik, meros va innovatsiyaning o'zaro munosabati ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: Buyuk Ipak yo'li, ilm-fan, madaniyat, texnologiya, sun'iy intellekt, tarixiy rivojlanish, global integratsiya.

Аннотация. В данной статье проводится сравнительный анализ двух важнейших этапов в истории человеческой цивилизации — периода функционирования Великого Шёлкового пути и современного века искусственного интеллекта. Великий Шёлковый путь был не только крупнейшей торговой артерией, связывавшей Восток и Запад, но и средством распространения научных знаний, философских учений, религиозных взглядов и культурных ценностей. Через эту дорогу происходило сближение цивилизаций, усиливалась культурная интеграция и интеллектуальный обмен. В результате многие достижения науки и культуры распространялись в мировом масштабе и становились основой последующего прогресса.

Сегодня человечество вступило в принципиально новый этап развития — эпоху искусственного интеллекта. Подобно Великому Шёлковому пути, этот процесс объединяет мир, способствует глобальному обмену информацией, повышению интеллектуального потенциала и формированию новых технологических парадигм. Искусственный интеллект оказывает глубокое влияние на все сферы деятельности человека — экономику, образование, медицину, транспорт и культуру, определяя будущие направления развития общества.

В статье с научной точки зрения раскрываются исторические процессы и их взаимосвязь, анализируется, каким образом культурный и научный обмен, начавшийся на Великом

Шёлковом пути, находит своё отражение в современной технологической эпохе и как он влияет на интеллектуальный прогресс. Таким образом, показывается преемственность, взаимосвязь традиций и инноваций в истории человечества.

Ключевые слова: Великий Шёлковый путь, наука, культура, технологии, искусственный интеллект, историческое развитие, глобальная интеграция.

FROM ANCIENT TRADE ROUTES TO DIGITAL TECHNOLOGIES: STAGES OF HUMAN DEVELOPMENT.

*Senior lecturer of the department of "Social and Humanities"
of the Samarkand branch of the
Tashkent International University of Kimyo e-mail: amirdinov.j@kiut.uz
Kimyo International University In Tashkent
Samarkand branch, Faculty of History 3rd year student
e-mail: sanakulova55@gmail.com*

Abstract. This article provides a comparative analysis of two significant stages in human history — the era of the Great Silk Road and the modern age of Artificial Intelligence. The Great Silk Road was not only the largest trade artery linking East and West but also a channel for the transmission of scientific knowledge, philosophical doctrines, religious beliefs, and cultural values. Through this route, civilizations came closer, cultural integration was strengthened, and intellectual exchange expanded. As a result, many achievements in science and culture spread globally and laid the foundation for future progress.

Today, humanity has entered an entirely new stage of development — the age of Artificial Intelligence. Similar to the Great Silk Road, this process unites the world, facilitates global information exchange, enhances intellectual capacity, and fosters the formation of new technological paradigms. Artificial Intelligence deeply influences all spheres of human activity — economy, education, healthcare, transport, and culture — shaping the future directions of societal development.

The article highlights historical processes and their interconnection from a scholarly perspective, analyzing how the cultural and scientific exchange initiated along the Great Silk Road resonates in today's technological era and influences intellectual advancement. In this way, continuity, heritage, and innovation in human history are revealed.

Keywords: Great Silk Road, science, culture, technology, Artificial Intelligence, historical development, global integration.

Insoniyat taraqqiyoti ming yillar davomida izchil rivojlanib kelmoqda. Har bir davrning o'ziga xos belgisi bo'lib, u jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotiga kuchli ta'sir o'tkazgan. Tarixiy jarayonlar ko'pincha transport yo'llari, savdo markazlari va ilmiy-madaniy aloqalar orqali shakllanib kelgan. Ana shunday ulkan jarayonlardan biri — Buyuk Ipak yo'li bo'lib, u qadimgi dunyoning eng muhim transport arteriyasi sifatida Sharq va G'arbni bog'lab turdi. Bu yo'l orqali faqat ipak va ziravorlar emas, balki ilmiy bilimlar, diniy e'tiqodlar, falsafiy oqimlar va madaniy qadriyatlar ham tarqaldi. Shunday qilib, Buyuk Ipak yo'li jahon sivilizatsiyasining rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynagan.

XXI asrga kelib esa insoniyat mutlaqo yangi bosqichga — raqamli transformatsiya davriga qadam qo'ydi. Internet, sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar bugungi kunda Buyuk Ipak yo'lining zamonaviy ko'rinishi sifatida xizmat qilmoqda. Har ikkisi ham insoniyatni bog'laydi, yangiliklarni tez tarqatadi, iqtisodiy va madaniy integratsiyani kuchaytiradi. Qadimgi Ipak yo'li karvon yo'llari orqali moddiy va ma'naviy boyliklarni yetkazib bergan bo'lsa, bugungi raqamli dunyo sun'iy intellekt va global tarmoqlar orqali bilim va innovatsiyalarni tarqatmoqda. Shu ma'noda, tarixiy jara-

yonlar o'rtasidagi uzviylikni tahlil etish, o'tmish va hozirgi zamon integratsion jarayonlari o'rtasida umumiylik va farqlarni ko'rsatib berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Buyuk Ipak yo'li miloddan avvalgi II asrda Xitoy imperatori U-di davrida shakllanib, Xitoydan boshlanib Markaziy Osiyo orqali Eron, Mesopotamiya va O'rta yer dengizigacha cho'zilgan. Yo'lning umumiy uzunligi 12 ming kilometrdan ortiq bo'lib, u orqali ipak, qimmatbaho toshlar, qog'oz, chinni, dorivor o'simliklar, temir buyumlar va boshqa ko'plab tovarlar savdosi amalga oshirilgan. Ayniqsa, Markaziy Osiyo — Buxoro, Samarqand, Termiz, Toshkent kabi yirik shaharlar savdo va madaniyat markaziga aylangan. Bu shaharlar karvon yo'llari orqali xalqaro ilmiy va madaniy muqotning yirik markazlari sifatida faoliyat yuritgan.

Buyuk Ipak yo'li orqali nafaqat tovarlar, balki bilim va g'oyalar ham tashilgan. Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosi G'arbga yetib borgan, G'arb olimlari yaratgan falsafiy qarashlar esa Sharqqa kirib kelgan. Masalan, Al-Xorazmiy matematika va hisoblash tizimlarini yaratib, algebra faniga asos soldi. Al-Beruniy geografiya, astronomiya va tabiiy fanlar bo'yicha mashhur asarlar yozib, ko'plab fundamental nazariyalarni ilgari surdi. Ibn Sino esa tibbiyot sohasidagi bilimlarni tizimlashtirib, o'z davrining universal ensiklopedik olimiga aylandi.

Ibn Sinoning "Tibbiyot qonunlari" asari XVII asrgacha Yevropa universitetlarida tibbiyot fakultetlari uchun asosiy qo'llanma sifatida o'qitilgan. Bu fakt Buyuk Ipak yo'li orqali tarqalgan ilmiy merosning jahon fan taraqqiyotiga qo'shgan hissasini yaqqol namoyon qiladi. Sharq va G'arb sivilizatsiyalari o'rtasidagi bunday ilmiy va madaniy almashinuv matematikadan tortib tibbiyotgacha bo'lgan keng sohalarni qamrab olib, jahon tafakkuri taraqqiyotini tezlashtirgan.

Shunday qilib, Buyuk Ipak yo'li o'z davrida insoniyatning yagona global bilim makoni sifatida shakllandi. Bugungi kunda esa bu jarayon yangi ko'rinishda — sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar orqali davom etmoqda. Ushbu maqolada qadimdan to bugungi kungacha bo'lgan jarayonlar bosqichma-bosqich tahlil qilinadi hamda ularning insoniyat taraqqiyotiga ta'siri yoritiladi.

Insoniyat taraqqiyoti jarayonida madaniyat, fan va iqtisodiy aloqalar shakllanishida transport va aloqa vositalari hal qiluvchi ahamiyat kasb etib kelgan. Ularning eng yorqin namunalaridan biri — Buyuk Ipak yo'li bo'lib, u Sharq va G'arbn o'zaro bog'lovchi, sivilizatsiyalararo bilim, tovar va g'oyalar almashinuvini ta'minlovchi eng muhim omil sifatida tarix sahifasidan joy oldi. Biroq tarixiy taraqqiyot jarayonida uning ahamiyati turli omillar ta'sirida o'zgarib bordi.

XV asrning ikkinchi yarmidan boshlab Buyuk Ipak yo'lining iqtisodiy va strategik roli asta-sekin pasaya boshladi. Buning asosiy sababi Yevropada yuz bergan Buyuk geografik kashfiyotlar bilan bog'liqdir. Xristofor Kolumbning 1492-yilda Amerika qit'asiga sayohati va Vasko da Gamaning Hindistonga dengiz yo'lini ochishi global savdo tizimining yo'nalishini tubdan o'zgartirdi. Dengiz yo'llarining quruqlik savdo yo'llariga nisbatan arzonroq, xavfsizroq va tezroq bo'lishi Ipak yo'lining iqtisodiy va geosiyosiy ahamiyatini pasaytirib yubordi. Shunga qaramay, u madaniy aloqalar va ilmiy bilimlarning tarqalishida sivilizatsiyaviy ko'prik sifatida o'z mavqeini saqlab qoldi.

XVII–XIX asrlarda Yevropada yuz bergan Sanoat inqilobi insoniyat tarixida mutlaqo yangi bosqichni boshlab berdi. Parovozlarning ixtiro qilinishi, telegraf va keyinchalik telefonning yaratilishi transport va aloqa tizimlarini tubdan yangiladi. Endilikda iqtisodiy markazlar dengiz portlari va savdo karvon yo'llaridan sanoat shaharlariga, temir yo'l tarmoqlariga ko'chdi. Bu davrda Buyuk Ipak yo'lining tarixiy vazifasini temir yo'llar va yangi ishlab chiqarish markazlari bajara boshladi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab insoniyat axborot asriga qadam qo'ydi. Kompyuter texnologiyalarining joriy etilishi, internet va mobil aloqa vositalarining keng yoyilishi insoniyat tarixidagi bilim almashuv jarayonini tubdan o'zgartirdi. Agar Buyuk Ipak yo'li orqali xatlar, kitoblar va g'oyalar oylar davomida bir hududdan boshqasiga yetib borgan bo'lsa, internet bu jarayonni soniyalarga qisqartirdi. Shu davrda axborot yangi "oltin" sifatida qadrlana boshladi va davlatlarning iqtisodiy hamda siyosiy ustunlikka erishishida hal qiluvchi omilga aylandi.

XXI asr boshlaridan insoniyat sun'iy intellekt (AI) davriga qadam qo'ydi. AI tizimlari nafaqat ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohaslarida, balki ilm-fan, tibbiyot va global xavfsizlikda ham muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Masalan, 2020-yilda Covid-19 pandemiyasi davrida sun'iy in-

tellekt asosida ilmiy maqolalar tezkor tahlil qilindi, epidemiologik jarayonlar kuzatildi va vaksina ishlab chiqishda samarali qo'llanildi. Bu hol sun'iy intellektning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy hamda ilmiy jihatdan strategik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Buyuk Ipak yo'lidan sun'iy intellekt davrigacha bo'lgan tarixiy jarayonlarni tahlil qilar ekanmiz, insoniyat taraqqiyotida transport va aloqa vositalarining o'rni beqiyos ekanligini ko'ramiz. Ipak yo'li Sharq va G'arbni bog'lagan bo'lsa, sun'iy intellekt butun insoniyatni yagona raqamli axborot makoniga birlashtirmoqda. Agar o'tmishda bilim almashinuvi qog'oz va kitoblar orqali yuz bergan bo'lsa, bugungi kunda bu jarayon global raqamli platformalarda, soniyalar ichida amalga oshmoqda. Demak, tarixiy izchillik shuni ko'rsatadiki, har bir davr o'zining texnologik vositalari orqali sivilizatsiyaning yangi bosqichini yaratgan.

Buyuk Ipak yo'li insoniyat tarixida nafaqat savdo-sotiq yo'li, balki sivilizatsiyalararo integratsiya, madaniyat va bilimlar almashinuvi ramzi sifatida tarixiy o'rin egalladi. U orqali Sharq va G'arb o'rtasida ilm-fan, san'at, din va falsafiy oqimlarning yoyilishi amalga oshib, global miqyosdagi taraqqiyot jarayonlari jadallashdi. Demak, Ipak yo'li o'z davrida jahon taraqqiyotining muhim omili bo'lgan.

Bugungi kunda esa sun'iy intellekt texnologiyalari insoniyatni yangi rivojlanish bosqichiga olib chiqmoqda. U ilmiy tadqiqotlarni tezkor amalga oshirish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimalashtirish va jamiyatning har bir sohasini raqamli shaklga o'tkazishda asosiy vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Shunday qilib, tarixiy Buyuk Ipak yo'li bilan zamonaviy raqamli yo'l — sun'iy intellekt davri o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Har ikkisi ham insoniyatni birlashtirish, bilimlarni keng yoyish va umumjahon taraqqiyotini jadallashtirishga xizmat qilgan va qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Asqarov. A "Buyuk Ipak yo'li tarixi". Toshkent, 2018
2. Bartold.V.V "Turkiston tarixi". Toshkent, 1993.
3. Saidov A."Sun'iy intellekt va jamiyat". Toshkent, 2021.

SIFATLASHLARNING BADIY-ESTETIK VA EKSPRESSIV VAZIFALARI.

SOBIROVA FOTIMAXON KURBON QIZI

Samarqand davlat universiteti

filologiya fakulteti, 2-kurs magistranti e-mail: fotimaxon88@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17638752>

Annotatsiya: Maqolada, epitetlarning badiiy-estetik vositalari ranglar orqali ifodalanishining o'ziga xos xususiyati ko'rsatilgan. Tadqiqot jarayonida faol so'zlar bilan sifatlashlarning badiiy tasviri keltirilgan. Epitetlarni farqli va o'xshash jihatlari ko'rsatib berilgan. Xalq og'zaki ijodida qo'llaniladigan faol so'zlarga misollar keltirilgan.

Kalit so'zlar: epitet, ekspressiv, subyektiv, okkazional, emotsional badiiy-estetik, epik qahramon, poetik, lingvopoetik, kommunikativ.

ARTISTIC-AESTHETIC AND EXPRESSIVE FUNCTIONS OF ADJECTIVES.

SOBIROVA FOTIMAKHAN KURBON KIZI

Samarkand State University,

Faculty of Philology, 2nd year master's student

e-mail: fotimaxon88@gmail.com

Abstract: The article shows the peculiarity of the artistic and aesthetic means of epithets expressed through colors. In the process of research, an artistic depiction of adjectives with active words is presented. The differences and similarities of epithets are shown. Examples of active words used in folk oral literature are given.

Keywords: epithet, expressive, subjective, occasional, emotional, artistic-aesthetic, epic hero, poetic, linguopoetic, communicative,

KIRISH.

Sifatlashlar nutqda ekspressivlik va subyektiv baho ifodalovchi shaxs, narsa yoki voqea-hodisaning biror belgisini, xususiyatini, sifatini, aniq ifodolab beruvchi badiiy tasvir vositasi sifatida dunyo tilshunolarining e'tiborini tortib kelmoqda. Ilmiy maqolalar jamlangan "Foloklor-so'z san'ati sifatida" nomli maxsus to'plam ham sifatlashlar tabiatiga bag'ishlangan. Juda ko'pchilik olimlar sifatlashlarning nutq uslubidagi, badiiy tafakkurdagi, tildagi o'rinlashuvi turg'un formulalar qatoridan o'rin olishini ta'kidlaganlar. Xususan, sifatlash (epitet)larni B.V.Tomashevskiy "logik aniqlovchi", L.I.Timofeyev "badiiy aniqlovchi" deya tariflaganlar. Albatta, sifatlash qo'shilgan so'z, ma'no jihatdan boyib, emotsional bo'yoqdorlik kasb etadi.

O'zbek lingvofolkloristikasida sifatlashlarni o'rganish borasida V.M.Jirmunskiy, X.T.Zaripov. Sh.Abdurahmonov. M. Murodov. B.Sarimsoqov, va boshqalarning ilmiy mulohaza va kuzatishlari mavjud. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, sifatlashlarning ikkita an'anaviy va individual-muallif turi mavjud.

An'anaviy, umumtil epitetlari adabiy tilda ko'p qo'llanishi, qayta tiklash imkoniyati mavjudligi, doimiyligini ta'kidlash joizdir. Individual-muallif epitetlari esa nutqiy ya'ni okkazonal bo'ladi. O'zbek tilida ham sifatlashlarning ikki (turg'un va erkin) turi mavjud bo'lib, ularning bir-biridan ba'zi farqli jihatlarini N. Mahmudov ham alohida qayd etgan: sifatlashlarning turg'unlari tilda barqaror, umumtilga xoslangan, erkinlari esa nutqqa xos bo'ladi va har bir nutq jarayonida yangidan yaratiladi. Shu jumladan, o'zbek xalq dostonlari tilida an'anaviy sifatlashlar juda faol qo'llanilgan, ularning emotsional-ekspressivlik tug'dirish xususiyati asarlar davomida sayqal topgan. Xalq dostonlari tilidagi sifatlashlarning badiiy-estetik vazifalari haqida quyidagi mulohazalarni ta'kidlab o'tamiz. Sifatlashlar orqali epik bayondagi obyektning qaysi jihatdan xarakterlash va fikrning ifodasi uchun muhim bo'lsa, bo'rttirib tasvirlash asosiy vazifasi bo'lgan.

Xalq dostonlari tilidagi sifatlashlar matnda bajaradigan badiiy-estetik vazifasining muhim ifodachisi bo'lgan so'z bilan aloqaga kirishib, lingvopoetik mazmun kasb etadi. Xususan, dostonlarda sifatlashlar farzandga nisbatan qo'llanilganda eng xosiyatli ranglar, eng ijobiy sifatlar silsilasini tashkil etadi, bayonda ardoqlash motivini kuchaytirishga, epik qahramon his-tuyg'ularini yanada ta'sirchanroq ifodalashga xizmat qiladi. Har bir rang o'zida ma'lum mantiqiy taassurot kodini tashiganligi uchun ham ranglar bilan ma'no ifodalovchi, informatsion, kommunikativ, estetik va badiiy poetik xususiyatlari qadimdan ma'lum. Insoniyat tarixida ranglarning xilma-xil ramziy ma'nolari mavjud bo'lib ular muayyan etnik guruhlarining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va ma'rifiy hayotiga tegishli ma'lumotlarni ifodalagan. Rang bilan bog'liq ramziy timsol va ularga daxldor sifatlashlar haqida so'z borar ekan, bu o'rinda dastavval **"oq" sifatlashining poetik tabiatiga qisqacha to'xtalib o'tamiz: "Avesto" da oq rang** ulug'vorlik, kuch-quvvat, adolat va asllikni bildirgan. Hozirgacha xalq tilida, shu jumladan, dostonlar tilida ham saqlanib qolgan **"oq suyak"** iborasining **"asl, ulug' nasablik"** ma'nolarida qo'llanilgan. R. Ganjning ta'kidlashicha, turkiy xalqlar tarixining shomonlik davriga oid ma'lumotlarga ko'ra, **oq rang ulug'lik, adolat, poklik** ma'nolarini bildirgan. Xalq og'zaki ijodi namunalarida ham oq rang **yigit, er kishi** ma'nolarida qo'llanilgan. Biz dostonlar tilidagi sifatlashlarning lisoniy xususiyatlari va poetik tabiatini o'rganish davomida rang bildiruvchi sifatlashlar juda faol qo'llanilganligini ko'rishimiz mumkin. Fikrimizni dalillash maqsadida, dastavval, rang belgisi jihatidan **"oq"** sifatlashi va uning o'ziga birikib kelgan sifatlanmish so'zlarining lisoniy va poetik tabiatiga e'tibor qaratsak. Oq sifatlashi dostonlar tilida sifatlanmishning belgisini o'z ma'nosida ifodalab kelganida anglashiladi. Masa-

lan; oq yuz, oq suyak, oq fotiha, oq sut kabilar. Ushbu sifatlashlar orqali dostonlar tilini ekspressiv imkoniyatlari ifodalaniladi.

Qisqacha xulosa sifatida shuni ta'kidlab o'tsak, dostonlarda uchraydigan sifatlash tuzilishi jihatdan sodda tarkibli ko'rinishga ega, ammo ularning aksariyati an'anaviy ko'rinishdagi sifatlashlardir. Asosan, epitetning badiiy-estetik vazifasi epik qahramonlar, narsa hodisalarning doimiy yoki muayyan vaziyatdagi shakli-shamoyilini, go'zalligini, mavqeini tasvirlash uchun xizmat qiladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jumanazarov Umurzoq, Jumanazarova Guljahon "Xalq dostonlari tilidagi lingvomadaniy birliklar".-Toshkent 49-b, 2022.
2. Jummatova N. Hozirgi o'zbek she'riyatida rang bilan bog'liq ramziy obrazlar. -Filol. fan. nomz...diss.- Toshkent: 26-b, 2000.
3. Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. T: O'qituvchi, 29-b, 1995.
4. Mahmudov N. -Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab... O'zbek tili va adabiyoti. - Toshkent 16-b, 2012.
5. Xudoyberganova D. O'xshatish etalonining semantik-stilistik xususiyatlari. O'zbek tili adabiyoti. -Toshkent 278-b, 1988.
6. В.М Жирмунский Теори литературы. Поэтика. Стилистика Москва Либроком 355-с 2009.

INNOVATIONS VA YASHIL TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ASOSIDA ICHIMLIK SUVI TA'MINOTI XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH

Islomov Shuhrat Marufjonovich¹, Shohina Pirova Xujmaxmatovna²

*¹Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali Iqtisodiyot kafedrasini mudiri, dotsent
e-mail: islomov.sh@kiut.uz*

²Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Stajyor o'qituvchisi e-mail:shohina97@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17638773>

Annotatsiya. Ushbu maqolada ichimlik suvi ta'minoti tizimida innovatsion va "yashil" texnologiyalarni joriy etishning ahamiyati hamda ularning xizmat sifatini oshirishdagi o'rni yoritilgan. Suv resurslaridan oqilona foydalanish, energiya tejamlor qurilmalarni qo'llash, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, aholining ichimlik suvi bilan uzluksiz va sifatli ta'minlanishini ta'minlashda zamonaviy texnologiyalarni joriy etishning ustun jihatlari va istiqbollari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar. Innovatsiya, yashil texnologiyalar, ichimlik suvi ta'minoti, energiya tejamlorlik, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik xavfsizlik, barqaror rivojlanish.

DEVELOPMENT OF DRINKING WATER SUPPLY SERVICES BASED ON INNOVATION AND IMPLEMENTATION OF GREEN TECHNOLOGIES

Islamov Shukhrat Marufjonovich¹, Shohina Pirova Khujmakhmatovna²

*¹Head of the Department of Economics, Samarkand Branch of Tashkent International University of Kimyo
e-mail: islomov.sh@kiut.uz*

*²Samarkand Institute of Economics and Service Trainee Teacher
e-mail:shohina97@gmail.com*

Abstract. This article highlights the importance of introducing innovative and “green” technologies in the drinking water supply system and their role in improving the quality of service. The issues of rational use of water resources, the use of energy-saving devices, the use of renewable energy sources and ensuring environmental safety are analyzed. The advantages and prospects of introducing modern technologies in ensuring uninterrupted and high-quality drinking water supply to the population are also considered.

Keywords: Innovation, green technologies, drinking water supply, energy efficiency, renewable energy, environmental safety, sustainable development.

Kirish. O‘zbekiston o‘tgan yillarda “yashil iqtisodiyot” yo‘nalishini strategik ustuvorlik sifatida belgilagan. **Yashil rivojlanish** tamoyillari suv resurslarini tejamkor va barqaror boshqarishni o‘z ichiga oladi. Masalan, 2022–2025 yillarda 1 million gektarga yaqin maydon sug‘orishda suvni tejovchi texnologiyalar (tomchilab sug‘orish, purkagich, laser tekislash) joriy etildi. Natijada 3 milliard m³ atrofida suv tejalgan. Bu tadbirlar ichimlik suvi tizimiga ham bevosita ta‘sir ko‘rsatadi, chunki infratuzilmaga tushadigan bosim kamayadi, texnik yo‘qotishlar pasayadi va xizmat ko‘rsatish barqarorligi ortadi.


Tahlil va natijalar. “Yashil” texnologiyalar va innovatsiyalar (Green nanotechnologies): suvni tozalashda samarali yechimlarni taqdim etadi: Nano-filtrlar, nanofiber membranasi, ultrafiltratsiya va mis, mis nanopartikllar orqali bakteriya, og‘ir metallar va mikroorganizmlarni samarali yo‘qotish mumkin. Shuningdek, O‘zbekistonning Zarafshon vodiysida boshqariladigan loyihaga asoslangan 50ta klimat monitoring stansiyalari, 30 ta artezian quduqlar avtomatizatsiyasi, “Yashil maktab” tushunchasi va raqamli ma‘lumot almashinuv platformasi tashkil qilingan. Bular ichimlik suvi sifatini yaxshilash, uzluksizlikni ta‘minlash va ekotizim barqarorligini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

Yashil iqtisodiyot — ekologik barqarorlik, suvni tejash va mehnat hamda resurslarni optimalashtirish orqali ichimlik suvi tizimlarining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ultrafiltratsiya (UF) (0.01–0.1 µm) yuqori molekulyar og‘irlikdagi moddalar, bakteriyalar, protozoa va suspenziyalarning samarali chiqarilishini ta‘minlaydi. An‘anaviy jarayonlarga qaraganda ifloslanishlarni 99% gacha kamaytiradi. Amaliy misol — AquaNES loyihasi (Germaniya):

- Daryo va bank filtrati suvi kombinatsiyasidagi ultrafiltratsiya orqali bakteriologik xavfsizlik ta‘minlandi.
- Energiya iste‘moli — 0.18 kWh/m³, oqim tezligi — 60 L/m²h.

Ultrafiltratsiya (UF) orqali bakteriyalar va loyqa modda 100% darajasida olib tashlandi, kimyo aralashsiz ishlash imkoniyati mavjudligi ko‘rildi. Ultrafiltratsiya (UF) texnologiyasi ichimlik suvini bakterial va loyqa moddalaridan mustahkam tozalashda 99% darajada samaradorlikka ega.



1. https://www.researchgate.net/publication/390326094_Evaluation_of_microfiltration_and_ultrafiltration_membranes_for_improving_water_quality_removal_of_turbidity_suspended_solids_and_bacteria_from_the_Tigris_River

Aqlli boshqaruv tizimlari (Smart metering, SCADA, IoT asosida monitoring)

Aqlli boshqaruv texnologiyalari (smart metering, SCADA, IoT platformalari) shahar suvi tizimlarini real-vaqt rejimida kuzatish, talabni bashoratlash, yo'qotishlarni aniqlash va operatsion qarorlarni avtomatlashtirish imkonini beradi. Xalqaro tahlillar suv ta'minoti sektorida raqamli yechimlar joriy etilishi orqali "non-revenue water (NRW)"(daromadsiz suv)ni kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish va mijoz xizmatini yaxshilash mumkinligini ko'rsatadi. Bunda smart tizimlar ma'lumot yig'ishdan tortib, tahlil va avtomatik reaksiyagacha bo'lgan jarayonni birlashtiradi.

Smart metering (aqlli hisoblagichlar) — abonent darajasida suv iste'molini real-vaqt yoki yaqin-real-vaqt rejimida o'lchovchilar (akustik/ultrasonik yoki sensorli suvmeterlar) yordamida uzatib borish tizimi. U odatda uch qismdan iborat: o'lchash qurilmasi (meter), aloqa kanali (LoRaWAN, NB-IoT, GSM) va server/avtomatlashtirilgan analitika platformasi. Empirik ishlar va qo'llanmalar smart meteringni joriy etish orqali suv iste'molini kamaytirish va NRW ni qisqartirishda sezilarli natijalar ko'rsatganini bildiradi. Tadqiqotlar bo'yicha iste'mol kamayishi odatda 6–22% oralig'ida bo'lishi mumkin; ayrim ma'muriyatlarda (maqsadli joriy etishlar orqali) NRW(daromadsiz suv) 20–30% gacha pasaytirilgani haqida holatlar mavjud.

SCADA (Supervisory Control and Data Acquisition) tizimlari

SCADA(Kuzatuv Nazorati va Ma'lumotlarni Yig'ish) — suv tozalash inshootlari, nasos stansiyalari va taqsimot tarmoqlarini markaziy boshqarish uchun ishlatiladigan standart tizim. U sensorlardan signallar qabul qiladi, operator panelida vizualizatsiya qiladi va PLC/RTU orqali jarayonlarni boshqaradi. SCADA tizimi bilan real-vaqt operatsiyalar, uzilishlarni boshqarish, pompalarni avtomatik yoqib/o'chirish va bosimni optimallashtirish amalga oshiriladi.

Yo'qotishlarni kamaytirish va energiya samaradorligi:

1. Digital Twin asosida Smart Water Tarmoqlar (SWG) Digital Twin (DT) — bu real-vaqt ma'lumotlar bilan doimiy yangilanadigan, suv ta'minoti tarmog'ining virtual modeli. U yordamida turib-turib bosimni nazorat qilish, oqimni muvozanatlashtirish va zarur bo'lgan harakatlarni rejalashtirish mumkin:

- Natija: Lisabon misolida DT orqali oqishlar kundalik 1498 m³ dan 1272 m³ gacha pasayib, 15% suv tejalgan.
- Uzoq muddatli foyda — operatsion xarajatlar, yo'qotishlar va energetik samaradorlikni oshirish.

2. IoT, ML va Digital Twin yondashuvlari

- DT orqali boshqaruv: IoT sensorlar, tarmoq monitoringi, SCADA bilan integratsiya qilingan tizimlar real-vaqt vositalaridan foydalangan holda oqim va energiya balansini optimallashtiradi.
- Green City maqsadida RL-AT modeli: Digital Twin + Deep Q-Network (DQN) yondashuvi orqali so'rovlarni samarali ko'rib chiqish, 20% energiya sarfini va 25% resurs xarajatini kamaytiradi.
- Tarmoqlarda real-o'tmish vaqtli dinamika: DT yordamida real-vaqt monitoring, anomaliyalarni aniqlash, nasoslar va dispetcherlik gidravlik markazini(DGM) avtomatik boshqarish imkoniyati mavjud.

3. Leak Detection + Pressure Management. Tarmoqlardagi bosimni optimallashtirish va tahliliy monitoring yordamida suv yo'qotishlarini sezilarli darajada kamaytirish mumkin: yirik shaharlar (masalan, Istanbul, Manila, Phnom Penh) NRW(daromadsiz suv)ni bir necha o'n foizlardan 6–16% gacha kamaytirish tajribalariga ega.

4. In-pipe Hydropower (Conduit Hydropower). Suv bosimini kamaytirish uchun joyida normal RV o'rniga turbine generatorlar qo'yiladi — bu orqali tiklanuvchi energiya olinadi: Portlend va AQShning boshqa hududlarida bunday tizimlar joriy etilgan bo'lib, ular bo'yicha ilmiy asoslarni shakllantirish ishlari davom etmoqda.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish (quyosh panellari, shamol generatorlari)

Ichimlik suvi ta'minoti tizimlarida energiya xarajatlari katta ulushni tashkil qiladi: nasos stansiyalari, uzatish va suvni qayta ishlash (masalan, filtratsiya, dezinfeksiya, RO- Reverse Osmosis (teskari osmos)) ko'pincha energetik intensiv jarayonlardir. Shu bois suv sektorida qayta tiklanuvchi energiya (ayniqsa fotovoltaiik (PV) va shamol energiyasi) joriy etilishi energetik mustaqillik, operatsion xarajatlarni kamaytirish va CO₂ chiqindilarini pasaytirish imkonini beradi.

1. Texnik asoslar va tizim turlari:

- Quyosh (PV) bilan to'g'ridan-to'g'ri suv nasosi.
- PV(Fotovoltaiik) quvvatli RO va desalinasiyaga integratsiya.
- Shamol batareyali yoki hybrid tizimlar.

1. Suv resurslarini qayta aylantirish mohiyati. Suvni qayta aylantirish — bu ichimlik, texnik yoki sanoat suvini ishlatilgandan keyin tozalab, qayta foydalanishga yo'naltirish jarayoni. Bunga:

- Mahalliy qayta foydalanish — binolar, zavodlar yoki korxonalarda ichki siklda suvni qayta ishlatish.
- Markazlashgan qayta ishlash — shahar miqyosidagi oqova suvlarni tozalab, irrigatsiya, sanoat sovitish tizimlari yoki yer osti suvlarini to'ldirish uchun ishlatish kiradi.

Afzalliklar:

- Suv tanqisligi muammosini kamaytiradi.
- Yangi suv olish xarajatlarini qisqartiradi.
- Oqova suvning atrof-muhitga salbiy ta'sirini pasaytiradi.

2. “Nol chiqindi” konsepsiyasi(ZLD) — bu ishlab chiqarish yoki tozalash jarayonida hosil bo'ladigan barcha oqova suvlarni to'liq qayta ishlash va hech qanday suyuq chiqindini atrof-muhitga chiqarishni oldini olish tizimi.

Asosiy bosqichlari:

1. Mexanik va biologik tozalash – qattiq zarrachalar, yog' va organik moddalarni ajratish.
2. Membranali texnologiyalar (RO, nanofiltratsiya, ultrafiltratsiya) – suvdan erigan tuzlar va boshqa iflosliklarni olib tashlash.
3. Bug'lantirish va kristallizatsiya – qolgan kontsentratsiyani qattiq chiqindi holiga keltirish.
4. Qattiq chiqindini utilizatsiya qilish – qayta ishlash yoki xavfsiz saqlash.

3. Innovatsion texnologiyalar va integratsiya:

- Membranali bioreaktorlar (MBR) — biologik tozalash va membranali filtrlashni birlashtiradi.
- Quyosh energiyasi bilan ishlaydigan bug'lantirish tizimlari — energiya sarfini kamaytiradi.
- Aqlli monitoring tizimlari — IoT va SCADA orqali real vaqt rejimida sifat nazorati.

Xulosa

Ichimlik suvi ta'minoti xizmatlarida innovatsion va “yashil” texnologiyalarni joriy etish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, hatto ekologik barqarorlikni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Suv resurslariga bosimning ortishi, iqlim o'zgarishi, aholining o'sishi va shahar infratuzilmasining eskirishi sharoitida, an'anaviy boshqaruv uslublari yetarli bo'lmay qolmoqda. Shu sababli raqamlashtirish, avtomatlashtirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va resurslarni qayta ishlash texnologiyalari asosida ishlovchi zamonaviy yechimlar zarur.

Innovatsion texnologiyalar (masalan, SCADA tizimlari, IoT-sensorlar, aqlli hisoblagichlar, bosimni avtomatik boshqarish, sun'iy intellekt asosidagi prognozlash) tarmoqdagi yo'qotishlarni kamaytirish, energiya sarfini optimallashtirish va xizmat uzluksizligini ta'minlash imkonini beradi. “Yashil” texnologiyalar (quyosh panellari, mikro-GES, energiya samarador nasoslar, suvni qayta foydalanish tizimlari, biologik tozalash usullari) esa ekologik izni kamaytiradi va uglerod neytral-ligiga erishishga yordam beradi.

Takliflar

1. Texnologik takliflar

- Aqlli tarmoqlar: IoT-sensorlar va aqlli hisoblagichlar orqali real vaqt monitoringini yo'lga qo'yish, sızıntilarni erta aniqlash va tezkor bartaraf etish.
- Energiya samarador nasoslar va VFD (Variable Frequency Drive) texnologiyalarini keng joriy etish.

2. Boshqaruv va moliyalashtirish takliflari

- ISO 24510 va IWA indikatorlari asosida xizmat sifatini monitoring qilish tizimini joriy etish.
- “Yashil” texnologiyalarga investitsiyalar uchun xalqaro moliya institutlari grantlari va past foizli kreditlarini jalb qilish (Jahon banki, EBRD, Green Climate Fund).

3. Ekologik takliflar

- Uglerod izini kamaytirish strategiyasini ishlab chiqish: CO₂ emissiyalarini hisoblash, yillik kamaytirish maqsadlarini belgilash.
- Suv resurslarini boshqarishda iqlim o'zgarishiga moslashuv choralarini kiritish (yomg'ir suvidan foydalanish, suv talabini boshqarish).

Kutilayotgan iqtisodiy samara

- Energiya tejamlorligi – suvni tozalash, uzatish va taqsimlashda energiya sarfi kamayib, ekspluatatsiya xarajatlari qisqaradi.
- Resurslardan oqilona foydalanish – suv yo'qotishlari kamayishi hisobiga tizim samaradorligi oshadi, ta'minot xarajatlari kamayadi.
- Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini qo'llash – elektr energiyasiga bo'lgan xarajatlarni kamaytiradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Bekchanov, M., & Karimov, A. (2020). *Water management in Central Asia: The role of innovation and green technologies*. Journal of Water Resources Development, 36(4), 543–558. <https://doi.org/10.1080/07900627.2020.1717692>
2. Qodirov, B. (2021). *Innovatsion texnologiyalar yordamida ichimlik suvi ta'minoti samaradorligini oshirish*. Tashkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
3. United Nations. (2022). *The United Nations World Water Development Report 2022: Groundwater – Making the invisible visible*. UNESCO. <https://unesdoc.unesco.org>
4. Smith, J., & Green, P. (2019). *Sustainable water supply systems: Renewable energy integration and efficiency improvements*. Renewable Energy Journal, 134, 1221–1233. <https://doi.org/10.1016/j.renene.2018.08.056>
5. Karimova, D. (2023). *Yashil texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaralari*. O'zbekiston iqtisodiyoti jurnali, 5(2), 45–52.

YASSAVIYLIK TARIQATINING TARQALISHIDA HAKIM OTANING O'RNI.

Shavkat Xamzayev Abdirasulovich

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Samarqand filiali dotsenti e-mail: xamzayev.sh@kiut.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17638792>

Annotatsiya. Tasavvuf – islom dini doirasida vujudga kelgan va komil insonni tarbiyalashga xizmat qiladigan ruhiy-ma'naviy yo'ldir. Ushbu yo'nalishlar ichida yassaviya tariqati o'zining tub ildizlari, axloqiy mezonlari va ma'rifatparvarlik ruhida yetuk maktab sifatida ajralib turadi. Afsuski, sobiq Ittifoq davrida diniy manbalar, ayniqsa, o'rta asr mutafakkirlarining asarlari keng o'rganil-

magan, buning oqibatida yassaviya tariqatining ko'plab vakillari, xususan, Sulaymon Boqirg'oni kabi buyuk siymolarning merosi bizga yetarlicha yetib kelmadi. Alisher Navoiy o'zining "Nasoyim ul-muhabbat" asarida ushbu tariqatning bir qancha mashhur vakillari haqida qimmatli ma'lumotlar qoldirgan. Yassaviylikni tarqalishida Sulaymon Boqirg'oniyni o'rni beqiyos.

Kalit so'zlar: Xoja Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oni (Hakim Ota), Tasavvuf, Tariqat, Ilohiy ishq, Komil inson, Hikmat, Nafs va ruh, Ilohiy muhabbat, Ruhiy poklanish, Nafs bilan kurash

THE ROLE OF FATHER HAKIM IN THE SPREAD OF THE YASAWI ORDER.

Shavkat Khamzayev Abdirasulovich

*Associate Professor, Samarkand Branch of Tashkent
International University of Kimyo e-mail: xamzayev.sh@kiut.uz*

Abstract. Sufism is a spiritual path that arose within the framework of Islam and serves to educate a perfect person. Among these directions, the Yasawiyya order stands out as a mature school in its deep roots, moral criteria, and the spirit of enlightenment. Unfortunately, during the former Union, religious sources, especially the works of medieval thinkers, were not widely studied, as a result of which the legacy of many representatives of the Yasawiyya order, in particular, such great figures as Sulaymon Boqirghani, has not reached us sufficiently. Alisher Navoi left valuable information about several famous representatives of this order in his work "Nasoyim ul-muhabbat". The role of Sulaymon Boqirghani in the spread of Yasawiyya is incomparable.

Keywords: Khoja Ahmad Yassavi, Sulayman Bakirghani (Hakim Ota), Sufism, Tariqat, Divine love, Perfect human being, Wisdom, Soul and spirit, Divine love, Spiritual purification, Struggle with the soul

Tasavvufning kelib chiqishini o'rganishda sobiq ittifoq davrida o'rta asr mutafakkirlarining asarlaridan yetarli foydalana olmaganimiz oqibatida yassaviya tariqatining keyingi taqdiri, bu ta'limot buyuk vorislarning hayot faoliyatlaridan ham to'liqroq xabardor bo'lmay keldik. Holbuki, milliy tafakkurimiz tojiori Alisher Navoiyning "Nasoyim ul – muhabbat" nomli muxtasar tadqiqotining o'zida yassaviylik ta'limoti vorislaridan o'nlab pir va murshidlar, mashoyixlar xususida ma'lumotlar berilgan.

Yassaviylikni yoyilishida Hakim ota Said Ota singari izdoshlari va shogirdlari o'z shayxlarining ma'naviy usullarini Sirdaryo va Volga havzalarida, Xorazmda va hatto Sharqiy Turkistonda yoydilar.

Alisher Navoiy bu asarida Xoja Axmad Yassaviyning muridlaridan birinchi bo'lib Qutbiddin Haydarning nomini tilga oladi. "Kichik yoshida anga jozba yetibdurki, - deydi buyuk mutafakkir, - Hazrati Xoja Ahmad Yassaviy suhbatidin shikeboligi yo'q erkodur. Har necha otasi (Isfijobning o'sha paytdagi hokimi Amir Haydar) iltimos va taklif bilan u uyga etkurur erkondur, yana beixtiyor Xo'ja mulozamatiga borur erkondur.

Yassaviyga o'xshab oddiy, ravon uslubda ijod qilgan. O'z asarlarida islomni, shariat va tariqat qoidalarini targ'ib qilgan, kishilarni u dunyoni o'ylab yashashga, Allohning karamidan bahramand bo'lishga da'vat etgan.

Sulaymon Boqirg'oni ma'rifatni Allohni tanish, uning nazariga tushish, deydi. Oliy muhabbatni Allohga bo'lgan muhabbat, deb tushuntiradi. U tariqat yo'lini komil insonni tarbiyalash yo'li, jannatga eltuvchi yo'l, deb biladi.

Sulaymon Boqirg'oni o'z o'g'itlarida davriga xos ijtimoiy tengsizlik, adolatsizlik va boshqa il-latlar uchun javobgar shaxslarni u dunyo azoblari dahshatini eslatish bilan tarbiyalashga ham intiladi. Insofsiz va imonsiz amaldorlar, nopok ishlar bilan shug'ullanuvchi, xaromxo'r, nodon va johillar hamda bosqinchi, talonchilarni fosh etadi.

Xoja Yassaviy ancha ko'p nazarlar qilib, Xuroson viloyatiga havola qilibdur Anda azim riyozatlar bila suluk qilibdur va ul makonga yetbdurkim, ul mulk eli qoshida qutbi olamga mashhurdir".

Shundan so'ng u Hakim ota – Sulaymon Boqirg'oniylar haqida ma'lumot beradi. Darhaqiqat, Sulaymon Boqirg'oniylar yassaviya tariqatining yirik vakillaridan edi. Mavjud manbalarga binoan Sulaymon Boqirg'oniylar qadimgi fan, madaniyat, adabiyot va ijtimoiy taraqqiyot markazlaridan biri bo'lgan Boqirg'on degan kentda tug'ilib (tavallud yili aniq emas), 1186 yilda vafot etgan.

Lekin Boqirg'oniylar Xoja Axmad Yassaviyga murid, xalifa bo'lganligi, tariqatda ham, shariatda ham Yassaviy an'analari davomchisi ekanligi bilan e'tiborga molikdir. Sulaymon Boqirg'oniylarning ta'riflashicha, Axmad Yassaviy, " mashoyixlar ulug'i ", " ikki jahon ko'zgusi " bo'lmish piri komildir:

Mashoyixlar sarasi shayxim Axmad Yassaviy.

Qarchig'oni qishlog'on, shunkor lochin ushlag'on,

Sonsiz murid boshlag'on shayxim Axmad Yassaviy

Sulaymon Boqirg'oniylar Xoja Axmad Yassaviy Mustafoning xirqasini kiyib luqmasini yeganligi, Ka'ba halqasini tutib, ya'ni, muqaddas haj safarida bo'lgani, Olloh tomonidan lozim ko'rilgan ayrim shayxlargagina beriladigan avliyolik ilmini egallaganini bayon qiladi. U shayx Axmad Yassaviy kunchiqardan to kun botargacha o'n sakkiz ming olamda mashhuriligi, uning o'rnini dor us – salomda bo'lib, Xizr bilan suhbatdosh, Ilyos bilan ulfatdosh ekanligini, shu tariqa Xaq qoshida xursandligini ifodalaydi va xulosalaydi :

Turkistonga boroling, xizmatinda bo'loling,

Ulush bersa ololing shayxim Axmad Yassaviy.

Bobo mochin ul sulton murid bo'ldi begumon,

Hakim Xoja Sulaymon shayxim Axmad Yassaviy

Darvoqye Boqirg'oniylar xalq orasida Hakim ota laqabi bilan mashhur bo'lgan. Biroq o'tmishda yaratilgan ba'zi asarlarda Sulaymon ota va Hakim ota - boshqa shaxslar sifatida qayd etilgan. A.Navoiy " Nasoyim ul – muxabbat " da o'shalarga javoban yozadi : " Hakim ota – oti Sulaymondur . Xoja Axmad Yassaviyning murididir. Hamonki, bir kun Xo'ja tabhye (ovqat pishirish) buyurg'ondurki, matbaxiy (oshpaz) o'tun yetmaydur deb kelgandur. Alar as'hobga degandurlarki , yozidin o'tun terib kelturing va ul zamon yog'in yog'ibdur ekanur. As'hobkim, o'tun teribdurlar, matbaxga (oshxonaga) kelguncha yog'in jihatidan o'tunlar hul bo'lg'ondur. Hakim ota tergan o'tunlarni to'niga chirmab , quruq kelturgandur. Xo'ja Hazratlari degandurlarki , ey farzand, hakimona ish qilding va alarga bu laqab andin qolg'ondir va Hakim otaga hikmat tili go'yo bo'lubdur".

Sulaymon Boqirg'oniylar yoshligidan Xoja Axmad Yassaviyning munosib shogirdi bo'lganligini tasdiqlaydigan naql va hikmatlar ham yetarlidir. Ulardan birida hikoya qilinishicha, Sulaymon madrasaga qatnashganda boshqa bolalarga o'xshab " Qur'on" ni yelkasiga osmasdan ikki kaftida ko'tarib qadam bosar, tahsil tugagach, uyiga yetib olguncha madrasaga orqa o'girmagan ekan. Bir kuni masjid yonida o'tirgan Axmad Yassaviy bu holni g'oyat ajablendi va shundan e'tiboran " Qur'on" ni o'qimoqqa Sulaymonni tanlabdi. O'n besh yoshga kirgandan keyin esa u Yassaviyga muridlikka o'tibdi. Boqirg'oniylarning din va tasavvuf, ishq va ahloqdan saboq beruvchi asarlari Turkistonda keng tarqalib, sevib o'qilgan.

Diniy mifologiya va tasavvuf falsafasi Boqirg'oniylar asarlariga o'zgacha nigo bilan qarash, ularning majoziy mazmunlarini boshqacha yo'nalishda talqin qilishni talab etadi. Shoir manzumalari bu dunyoni do'zaxga aylantirmaslik, nafs havoga berilib, xalq boshiga qiyomat azoblarini solmaslik, din qudratini ulug'lash kabi ma'naviy – ahloqiy g'oyalarni ilgari suradi.

Darhaqiqat, Sulaymon Boqirg'oniylar asarlarida birinchi galda Ollohning qudrati, fazilatlar va sifatlar ulug'lanadi, masalan, u hikmatlaridan birida shunday deydi :

Ko'ring qodir qudratin, bilsun teyu san'atin,

Mustafoning ummatin, mundog' tashrif qildiyo,

Ko'zni berdi ko'rgoli, aql berdi bilg'oli.

Alloh degan bandalar, do'zax ichra kuyarmu
Alloh, degan bandalar, ta'mux ichra kuymagay,
Alloh demas jonlarga o'shal jonlar kuyarmu
Sulton bergan xil'atni hyech kim sana olmadi.
Subhon iymon xil'atni berib qayta olurmu
As'hobi qahf itini Haq taolo qo'ymadi,
Alloh degan qulini hargiz noumid qo'yarmu
Qul Sulaymon ingrayu aytur Alloh zikrini,
Chin haqiqat oshiqlar Haq zikrini qo'yarmu

Chunki Axmad Yassaviyni qiziqtirgan bosh masalalar Boqirg'oniyni ham befarq qoldirmagan.
Umuman, "Devoni hikmat" ruhidan Boqirg'oniyni asarlarini ajratib bo'lmaydi.

Shu g'oyaviy – badiiy uyg'unlikni M.F.Ko'prulizoda "yassaviylikning xususiy odobi" ekanligini ta'kidlagan edi. Uning aytishicha, Yassaviy asarlari sakkiz yuz yildan buyon xalq orasida barhayot yashab kelmoqda.

Sulaymon Boqirg'oniyni yassaviylikning ana shu xususiy odobi tilabiga binoan bitgan bir man-zumasida Yassaviya tariqati soliklari, mohiyatini yorqin ifodalab beradi:

Sirim sirga ulandi, ko'nglim Arshga yo'llandi,
Ishq qilichi boylandi, darvishlarning ichinda.
Kim bor darveshga teng to'sh, ondin o'rgan aqlu xush,
Shavq sharobi bo'lur nush, darvishlarning ichinda.
Darvishlarning bozori, zikr turur gulzori,
Haqning siri asrori darvishlarning ichinda.
Suratlari mundadur, siyratlari andadir,
Podshohlari na sondur, darvishlarning ichinda.
Shibli, Jo'nayd, Boyazid olam ularga murid.
Barcha tuman ming zohid, darvishlarning ichinda
Darvishlarning taxti bor, uqboda ko'b raxti bor,
Sulaymonning taxti bor darvishlarning ichinda.

Ollohnin g'udrati va sifatlarini ulug'lagan, "shariati orasta, tariqati payvasta" Ahmad Yas-saviyni "shayxim" deb e'zozlagan, "Haqning siri asrori" ni "darvishlarning ichinda" deb bilgan tasavvuf namoyandasining g'oyalari sho'ro ilmiy adabiyotida hamma uchun foydali ta'limot sifa-tida baholanishi mumkin bo'lmasligi ayn edi. Shuning uchun sho'ro adabiyotida Hakim Sulaymon ota "diniy safsatalardan iborat asarlari bilan xalqni dahshatga solmoqchi bo'lgan" zararli shaxs sifatida qoralab kelindi.

Asarlarida din, tasavvuf, shariat aqidalarini targ'ib qilgan iqtidorli ijodkor, qalban, vujudan so'fiy shoir ommani siyosiy kurashga chorlamasligi oynadek ravshan bo'lganidek, she'rlari omma onigini ilohiy nur, ilohiy muhabbat bilan chulg'ashga xizmat qilganligi ham haqiqatdir. Ammo ta-savvuf ta'limoti, xususan, yassaviya tariqati va Sulaymon Boqirg'oniyni ijodi ommani zulmlar qar-shisida emas, balki komil inson darajasiga yetishish yo'lidagi mashaqqatlarga bardosh berishda, tariqat a'zolarini itoatkorlikka chorlaydiki, buni hukmdor tabaqalar manfaatini ko'zlashga mutlaqo daxli yo'q. Chunki tariqat talabi shayx uchun ham, hukmdor uchun ham, oddiy soliq uchun ham bir xildir. Sulaymon Boqirg'oniynin lirik qahramoni ma'rifat daryosidan muhabbat gavharlarini termoq maqsadida tariqat bozoriga kiradi va deydi:

Murodim bor ul bozorda qilsam sotig',
Tanim, jonim, bor vujudim kuysam tutug'

Ammo bu bozordan "bahosiz daraxtlarni" izlamasdan, "bo'yiga loyiq ishq to'nini" kiyib chiqmoq joiz, chunki ishi har qancha dushvor ersa ham (savdo) qilinmasa, ishq o'tida yonib bo'lmas. Shu bilan birga "do'konlari bir irodad" bo'lgan bu bozorda savdo – sotiq qilmoqni ham o'z sharoitlari bor. Boqirg'oniyni ularni quyidagicha ifodalaydi:

Shariat bozorinda tahsil kerak,
Tariqat bozorida taqdir kerak.
Haqiqat bozorinda asir kerak,
Olam yig'lab Haq asirin bilsa bo'lmas.

Shariat bozoridagi tahsildan maqsad, avval – oxir, zohir – botin ilmini o'qimoqlik, tajjalli nuri-dan bahra olib, muhabbat madhidan erib oqmoqlik, egallangan bilimlarni do'stlar orasida soch-moqlikdir. Avval – oxir, zohir – botin ilmini o'qigan so'fiy esa Haq taolo qarshisidagi toat – ibodat ham aslida uning Ollohning huzuriga yetmoqlik shartlaridan biridir.

Sulaymon Boqirg'oniyni " Nafsim aytur " va " ruhim aytur " so'zlari bilan boshlanuvchi o'nta hikmat nafs va ruh muammosiga bag'ishlangan. " Bu besh kunlik tiriklikda " davron sur, tanni yayrat deydi nafs. Ruh bunga qarshi : " Ilm birla tariqatning yo'lin bilib, sahar vaqtida uyg'oqlikni odat qil ", deydi. Tariqat maydonida javlon urmasdan, " Muhabbat buroqini " minib bo'lmaganidek, " Haqiqat daryosidan " gavhar " ham olib bo'lmaydi.

Nafs uchun bularga ehtiyoj yo'q. U " bu dunyoning mulkiga " egalik qilishga, yig'ib- yig'nashga, " halol – harom yemishlarni yutmoqqa " ishtiyoqmand. Ruhga esa bunday xorilik begona: " muhabbat kamarini belga boylabon, bu dunyoga taloq berib ketayin " der. Nafs bo'lsa " yeb- ichib tun- kun qorin to'ldiribon, yotiq uzra takya qilib yotoyin der" .

Shu bois shoir qahramoni ruhi nafsiga mansub dunyodan kechish, unga " taloq " berib ketish tarafdori. Buning o'rniga u " Haqdin tavfiq " tilaydi, " tunu – kun tinmayin yodini ayt " molikini o'ylaydi.

Ko'rinadiki, Sulaymon Boqirg'oniyni zohiriy va botiniy dunyoni fikrlashda ustoz Xoja Ahmad Yas-saviy kabi yo'l tutadi – umuman, moddiy olamni emas, balki nafs bandalari orzumand bo'lgan " qismatdan ortiq " dunyoni nazar pisand qilmaydi. Uning fikricha, insonning botiniy dunyosi ilohiy ishq dardi bilangina oboddir. Bu dard hamma narsadan qudratli va fayzlidir.

Boqirg'oniyni ilohiy ishq haqidagi falsafiy qarashlari ham ahamiyatga ega.

Oshiqlik – xolislik. Shu ma'noda xolislikki, Haq oshiqlari " nogahon bu dunyodan kechmoq kerak, taqdir qilg'on ul sharobin ichmak kerak " deb bilishadi va bu " sharob " ularni har nafas-da ishq o'tiga giriftor etadi. Shuning uchun " dunyo va ukbo " to'g'risida oshiqdan hyech nima so'ramaslik lozim.

Oshiqdan so'ramangiz dunyovu uqbo,
Oshiq, ma'shuq uchun har dam o'lodur.
Oshiqni kuydurur ishq o'ti,
Oshiqlar ishq o'tiga muhtalodur

Boqirg'oniyni " aroda ishq bo'lmasa " radifli she'rda bu mazmunni yanada rivojlantiradi va hatto shu ilohiy ishq in'om etilmaganida inson bolasi dunyoga ham kelmasdi, degan xulosani chiqaradi:

Odam kelmagay erdi, mursal tug'magay erdi,
Rahmat enmagay erdi, aroda ishq bo'lmasa,

Shuni ta'kidlash joizki, dunyoni tark qilish, o'lib tirilish tasavvufona usulda – baqo boqiysi tamoyiliga muvofiq talqin etiladi. Bu bosqichda so'fiy, ya'ni inson xudo bilan bog'lanadi va eng oliy sifatlariga erishadi.

A.D.Knishi bu yo'nalishdagi qarashlarni tahlil etib yozadi : " Ishq mistik so'fiyni mudom, har gal mistik kechinmalar avji bo'lmish bilish obyekti va uni bilishga intiluvchini bir – biridan ajralmas yaxlit holatga keltiradi " .

Sulaymon Boqirg'oniyni talqinicha, ma'shuki azal husni nuridan yorishmagan tun yo'q. Yeri ko'k, oyyu quyosh, tog'u daryo, xullas, butun mavjudot uning zohiriy timsollaridir.

Umuman olganda, Sulaymon Boqirg'oniyni xuddi o'zining ustoz, piri Ahmad Yassaviy kabi pok-lanish yo'li bilan ma'shuq vasliga, ya'ni Xudoga yetishish yo'lini qidiradi, " ilohiy ishq " yo'lida bu dunyodan voz kechishni afzal bildi.

Alisher Navoiyning “ Nasoyim ul – muhabbat ” asarida Yassaviyning yana bir taniqli izdoshi Ismoil ota haqida ham batafsil ma'lumot beriladi. “Ismoil ota, - deydi Navoiy, - Xoja Ahmad Yassaviyning Iborhiim ota otlig' inisining o'g'lidir va Xojaning muridi va nazar qilg'onidir va anga murid va as'hob bo'lubdur.Va karomat va maqomat va havoriqi odot benihoyat va yoshi yuzga yaqin va avlodi o'n yetti yo o'n sakkiz bor erdi va olamdin utarda avlodi orasidin Is'hoq otani o'z qoim maqomi qilib, olamdin o'tibdur ”

Xoja Ahmad Yassaviyning inisi Iborhiim otaning o'g'li bo'lgan Ismoil otaning faoliyati keyingi davr ilmiy talqinida birinchi bo'lib, N.Hojimatov va Z.Temirov tomonidan berildi.Mazkur tadqiqotchilarning uqtirishlaricha, Ismoil ota Islomni targ'ib qilib, nazarga tushgan, xalq orasida avliyo sifatida keng tanilgan. Bu haqda Faxriddin Ali Safiy ibn al – Husayn ham o'zining “ Rashoxot ayn – ul – hayot ” (Hayot chashmasi tomchilari) kitobida ta'kidlab o'tgan ekan.

Ismoil otaga muridlik (as'hoblik) chog'ida Xoja Ahmad Yassaviydan karomatgo'ylik, mo'jizakorlik sifatleri o'tgan. Rivoyatlarga ko'ra, agar kimdir uning oldiga mast holda kelsa, kallasi uzilib tushgan, ko'zini yumib duo o'qiganda kosaning tagidagi bir pilik alanga olgan, ixlos bilan xassasini suqqan cho'pon sifatida yig'lab, Ollohga nola qilganida esa boqib yurgan qo'ylariga et bitgan.

Xulosa.....Yassaviya tariqati, xususan Sulaymon Boqirg'oniy kabi ulug' so'fiylarning merosi – xalqimizning ma'naviy o'zligini anglashda muhim manba hisoblanadi. Bugun ushbu boy merosni ilmiy asosda o'rganish, uni yosh avlodga yetkazish dolzarb vazifalardan biridir. Boqirg'oniy ijodida mujassam bo'lgan Allohga muhabbat, insoniy komillik va ichki poklik g'oyalari hozirgi kunda ham o'z qadrini yo'qotmagan. Ustozning hikmatlarini kelajak avlodga yetkazgan buyuk shaxs hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. А.Книш Муслмон тасаввуфи./таржимон Қодиркул Рўзматзода.-Тошкент:2022.
2. Боқирий.Боқирғон китоби.- 1991.
3. Навоий А.Насойим ул муҳаббат:15-жилд-Т 1968.
4. Боқирий С.Боқирғон китоби.
5. Ўша жойда С.Боқирғон китоби.
6. Книш А.Д Ибн Араби в поздней мусульманской традиции // Суфизм в контексте мусульманской культуры – М. 1999 –С.11

THE FORBIDDEN FRUIT IN LITERATURE: BETWEEN MYTH AND MORAL

Shakhribonu Sirojiddinova

(Scientific Advisor) Associate docent, PhD,

Department of English Language

Kimyo International University in

Tashkent, Samarkand branch e-mail:sirojiddinova.sh@kiut.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17638830>

Annotation. This article investigates the literary theme of the forbidden fruit as a symbolic meeting point of myth and ethics. Referencing biblical texts, ancient mythology, and significant literary works such as Milton's Paradise Lost and Mary Shelley's Frankenstein, the analysis explores the role of the forbidden fruit as a representation of sin, enlightenment and moral repercussions. Through a comparative examination, the paper illustrates that while the mythological aspect highlights divine limits and temptation, the ethical aspect focuses on human choice, remorse and retribution.

Key words: Forbidden fruit, myth and morality, Paradise Lost, Biblical symbolism, literary temptation, knowledge and transgression, oral philosophy in fiction.

Introduction. The concept of the Forbidden Fruit, particularly represented in the Genesis narrative of Adam and Eve, has long been an important symbol in literary history, reflecting the complex interplay between mythological seduction and moral consequences. In its mythological context, the forbidden fruit signifies more than mere rebellion - it embodies a breach of divine order, the emergence of individual desire, and the pursuit of forbidden knowledge, themes that resonate throughout various cultural and religious stories. The research demonstrates how literature transforms the forbidden fruit into a symbol for the complexity of yearning and the repercussions of knowledge, establishing it as one of the most lasting and versatile symbols within the literary canon. [4]

Symbolically, it serves as a compelling metaphor for humanity's fascination with the unknown and the enticing appeal of what is considered off-limits. Literature has long served as a mirror to humanity's inner struggles, especially in grappling with the complexities of morality, justice and redemption. Through the power of poetic expression, authors often explore the tensions between divine authority and human agency, between sin and salvation and between punishment and forgiveness. [7,68] The study aims to elucidate how authors use this motif not only to engage with inherited mythic structures but also to embed **didactic moral frameworks**, thereby transforming a simple narrative symbol into a profound commentary on **human consciousness, autonomy, and ethical transgression**. This study employs a comparative literary analysis of primary texts (e.g., Bible, Milton's *Paradise Lost*) and secondary interpretations from academic sources. Relevant mythological parallels (e.g., Sumerian, Greek) are also considered. The data collection included scholarly articles and interpretive essays; key passages were annotated and their thematic significance extracted.

The examination of the forbidden fruit motif throughout various literary and mythological works uncovers recurring symbolic themes that connect across cultural divides, religious customs, and philosophical insights. The ensuing findings emphasize four primary thematic aspects that arise from comparative literary analysis.

1. Mythic Origins and Cross-cultural Parallels. The forbidden fruit motif appears in Mesopotamian myths like *Adapa* or the *Epic of Paradise*, and parallels in Greek myth (e.g., Persephone's pomegranate, golden apples of Hesperides) illustrate its wider mythic resonance style associations. For instance, Herakles' theft of the golden apple reflects divine prohibition and guarded transcendence. [2]

2. Symbolism in Western Tradition. Medieval Western art and literature popularized the apple as the forbidden fruit—stemming from a pun in Latin (*mālum* “evil” vs. *mālum* “apple”)—though the original biblical text remains non-specific. Both Milton and later interpreters cemented the apple image in Western consciousness.

3. Moral and Psychological Interpretation. The forbidden fruit symbolizes charisma, desire, and the seductive power of transgression. Weberian interpretations show the Devil's charisma transferred via the fruit to Eve, representing illusory power built on temptation. The episode allegorically interrogates knowledge, freedom, and moral responsibility. [4]

These results show that the forbidden fruit stands between myth and morality. As myth, it embodies transgressive desire deeply rooted in archaic traditions. As a moral symbol, it dramatizes human autonomy and the consequences of choices. The apple (or unspecified fruit) evokes desire precisely because it is forbidden a dynamic echoed in Bataille's view that prohibition intensifies attraction. The motif's enduring appeal lies in this dialectic: mythic allure versus moral consequence, thirst for knowledge versus loss of innocence. [3] Literary variations from biblical narrative to Milton and modern novel exhibit consistent interpretation: the fruit brings knowledge, autonomy and exile, whether physical or psychological.

In conclusion, this research illustrates that literary representations of the forbidden fruit motif skillfully navigate the realms of mythic symbolism and ethical contemplation. By referencing

archetypal stories from the biblical tale of Adam and Eve to contemporary reinterpretations like Mary Shelley's *Frankenstein* writers reshape the concept of temptation into a nuanced means of examining human awareness, moral limits, and the quest for understanding. In these works, temptation frequently serves as both a trigger for self-discovery and a precursor to wrongdoing, framing the forbidden fruit as a powerful symbol of the dual nature of human desire. [1] Furthermore, the repeated appearance of this motif throughout history indicates its lasting significance in addressing issues of moral responsibility, personal freedom, and consequences. Through references to other texts and the reinterpretation of symbols, literary works not only maintain the essential aspects of the myth but also modify them to resonate with changing cultural, philosophical, and psychological issues. [5] Ultimately, the motif's power lies in its adaptability, functioning as a narrative lens through which literature continues to interrogate the tension between prohibition and possibility, knowledge and downfall, freedom and consequence.

References:

1. Spencer, M. The Charisma of Fruits: From Greek Mythology to Genesis. MDPI Religions, 14(5):585 (2023), (Reddit, Reddit, theforebiddenfruit.blogspot.com, MDPI).
2. NPR, "Paradise Lost: How The Apple Became The Forbidden Fruit" (2017),(krvs.org)
3. New York Review of Books, Michael Wood (1979), Georges Bataille's concept of prohibition intensifying desire. (nybooks.com)
4. Goldberg, Moral and Myth (University of Pennsylvania), analysis of Frankenstein's forbidden-knowledge motif -pp. 27-40.
5. Reddit discussion "is the story... found in any other tradition before the Jewish one?", citing Sumerian Adapa, Hesperides and Persephone parallels.
6. Wikipedia, "Tree of the knowledge of good and evil" (2025 edition), discussing various possible identities (fig, grape, wheat) and the mixing of good and evil inclinations. -p 4.
7. Shakhribonu Sirojiddinova. (2025). A Comparative Study of Punishment, Guilt and Forgiveness in The Works of John Milton and Abdulla Oripov. International Journal of Literature And Languages, 5(07), -p 68. <https://doi.org/10.37547/ijll/Volume05Issue07-18>

THE FALL FROM PARADISE IN STORIES AND POEMS

Shakhribonu Sirojiddinova

(Scientific Advisor) Associate docent, PhD,

Department of English Language

Kimyo International University

in Tashkent, Samarkand branch e-mail:sirojiddinova.@kiut.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17638854>

Annotation. This article covers the topic of Fall from paradise in literature and poetry, with special emphasis on the history of the book of Genesis and the "Paradise Lost" by John Milton. Through the analysis of literary elements and symbolism, it discusses how the fall of man means not only theological rebellion and cosmic retribution, but also psychological individualization and the transition from innocence to mindfulness. The article contends that the Fall serves as a multifaceted archetype with mythic, literary, and spiritual implications. The analysis shows how stories of exile and redemption are crucial to human self-perception and the literary tradition.

Keywords: Fall from Paradise, Paradise Lost, myth and symbolism, John Milton, Biblical narrative, Felix culpa, classical mythology, literary archetypes, psychological interpretation, exile and redemption.

The tale of the Fall from Paradise most prominently illustrated in the Genesis narrative and reinterpreted in John Milton's *Paradise Lost* serves as a fundamental myth within Western literary, religious, and philosophical frameworks. These accounts express the shift of humanity from an original state of innocence and unity with the divine to a reality characterized by knowledge, moral intricacies, estrangement, and the weight of free will. Consequently, the Fall transcends being merely a religious or mythological event; it acts as a complex symbolic framework for examining persistent questions surrounding human awareness, identity, and moral responsibility.

The scientific Fall studies cover various disciplines and theoretical perspectives. From a theological point of view, the case is considered a source of sin, spiritual alienation and the need for divine salvation. In literature, it is seen as a fundamental story of loss and change, depicting archetypal themes that resonate across genres and historical eras. Psychoanalytic theory studies the case as a manifestation of the development of subjectivity, desire and the oppressive framework of civilization, often compared with the transition from the pre-oedipal to the oedipal stage. Mythological and structuralist approaches adopted by theorists such as Mircea Eliade and Claude Lévi-Strauss interpret the case as a cosmogonic event in which chaos is distinguished from order and humanity is separated from the divine. Furthermore, the motif of "felix culpa" or the "fortunate fall" introduces a paradoxical dimension wherein transgression becomes the precondition for grace, freedom, and higher forms of consciousness. [4,114] This dialectic between fall and redemption suggests a complex teleology, wherein moral failure is not merely punitive but generative, giving rise to narrative, history, and the possibility of ethical self-formation. Milton presents a vision of divine justice that is simultaneously absolute and redemptive, inviting readers to contemplate the limits of human free will in the face of divine omniscience. His portrayal of characters like Satan, Adam and Christ himself invites complex moral reflection on guilt, rebellion and the hope of spiritual restoration. [3,68]

This study aims to integrate these different perspectives within the framework of literary theory using structuralist, poststructuralist, psychoanalytic, and narratological methods. By examining the case as a symbolic and discursive phenomenon, this study seeks to clarify how such narratives encode and convey universal themes related to human development, cultural memory and the progress of meaning.

A comprehensive comparative literary analysis was carried out, based on a thorough study of the basic poetic works, primarily *Paradise Lost*, as well as carefully selected critical literature. This analysis included both primary texts and methods of interpretation to explore recurring mythological structures, symbolic and psychological aspects, theological paradoxes, and enduring literary motifs. Key passages from primary works as well as important information from secondary sources were carefully selected and cited with precise page references to ensure clarity, academic rigor and easy cross-references for further studies.

Mythic and symbolic dimensions. "The Eden narrative symbolizes the emergence of human consciousness from an original state of unity. Psychoanalytic and mythological interpretations suggest that this 'fall' represents the process of individuation and the birth of self-awareness from unconscious wholeness [1,34]. In addition, this myth resonates with ancient cultural narratives that address universal questions about consciousness and existence, emphasizing its importance as a metaphor for personal and social development.

Milton's *Paradise Lost*: disobedience, hierarchy, redemption. In the theology of literature, disobedience is often regarded not only as moral misconduct, but also as a catalyst for changing the cosmic order and human potential. John Milton's *Paradise Lost* develops this concept by depicting disobedience as the central axis around which the themes of hierarchy and salvation revolve. The first words of *Paradise Lost* state that the poem's main theme will be "man's first disobedience". Milton narrates the stay of Adam and Eve's disobedience, explains how why it happens, and places the stay within the larger context of Satan's rebellion and Jesus' resurrec-

tion. Raphael tells Adam about Satan's disobedience to give a firm grasp of the threat that Satan and humankind's disobedience pose. In essence, loss presents two moral paths that one can take after disobedience: the downward spiral of increasing sin and degradation, represented by Satan, and the road to redemption, represented by Adam and Eve. [5,374] Milton's emphasis on "man's first disobedience" is not limited to Adam and Eve, but is integrated into a larger narrative structure that includes Satan's rebellion in heaven and the final atonement through Christ. This triune movement - from rebellion to fall and atonement - underlines the complexity of the moral paths available to created beings. In contrast to Satan's immersion in an ever-deeper sin towards Adam and Eve's potential for repentance and grace, Milton assumes that disobedience is not an end point, but a crossroads. The text therefore encourages theological reflections on freedom of choice, divine justice and the possibility of moral renewal. Raphael's story of Satan's disobedience serves as a didactic tool that prepares Adam (and the reader) for the perception of all the gravity and consequences of moral decisions.

To conclude, the fall from paradise in stories and poems, exemplified by the book of Genesis and Milton, is a rich symbolic motif that serves as an intermediary between innocence and knowledge, unity and differentiation, as well as disobedience and salvation. Psychological interpretations describe it as the birth of the ego, theological interpretations as a preparation for grace, and literary analyzes show the intertextual use of classical mythological and epic forms. In *Paradise Lost*, Milton uses the theme of the fall to explore not only the nature of humanity, but also divine justice, free will, and the tension between authority and autonomy. This motive serves as a narrative framework for studying the limits of obedience and the consequences of violations of the law. Future works could explore the themes of the case in other cultural traditions or how contemporary writers use this archetype.

References:

1. Jungian/Neumann interpretation of the Eden narrative as psyche symbolism (e.g. the birth of consciousness). -p.34
2. Milton's *Paradise Lost* themes: disobedience, hierarchy, redemption, free will. Extracted from *Paradise Lost* summaries and critical essays, ResearchGate, SparkNotes.
3. Shakhribonu Sirojiddinova. (2025). A Comparative Study of Punishment, Guilt and Forgiveness in The Works of John Milton and Abdulla Oripov. *International Journal Of Literature And Languages*, 5(07), 68–71. <https://doi.org/10.37547/ijll/Volume05Issue07-18>
4. Sirojiddinova, S. 2025. The forbidden fruit as a universal metaphor. *Foreign Linguistics and Lingvodidactics*. 3, 3 (May 2025), -p 114. DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss3-pp114-117>.
5. Betu, Donat & MUATA, Adolphe & TSHIAMU, Augustin. (2024). A Thematic and Stylistic Analysis of John Milton's *Paradise Lost*. *RADINKA JOURNAL OF SCIENCE AND SYSTEMATIC LITERATURE REVIEW*. 2. -p 374. 10.56778/rjslrv2i3.377.

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SO'Z-GAPLARNING NAZARIY TADQIQI

Sulaymonova Farida

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

e-mail:sulaymonova 87@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17638873>

Annotatsiya. Inson nutqning har qanday ko'rinishini qo'llaganda leksikasida mavjud bo'lgan so'zlardan o'z darajasiga muvofiq, so'zlarni bir-biriga qo'shish orqali jumlarlar tuzadi, muloqotga kirishadi, o'z mulohazalarini bayon etadi. Nutq murakkab tuzilmali jarayon bo'lib, fonetik, leksik va sintaktik birliklar asosida namoyon bo'ladi. Harf va tovushlar qo'shilib, so'zlarni, so'zlar esa o'zaro birikib so'z birikmalarini, so'z birikmalari birikib gaplarni, gaplar esa matnlarni hosil qilish har bir tilda mavjud bo'lgan tabiiy jarayon. Biroq bu holat har bir tilda o'ziga xos qoidalar, tamoyillar asosida amalga oshadi. Aslida tilshunoslikning asosini sintaksis bo'limi tashkil qiladi, sintaksisning asosini esa gap.

Kalit so'zlar: so'z-gap, tasdiq gap, inkor gap, sintaksis, ap, gap va uning turlari.

ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ СЛОВСОЧЕТАНИЙ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

Сулейманова Фарид

*Имени Шарафа Рашидова Независимый исследователь Самаркандского
государственного университета
e-mail:sulaymonova 87@gmail.com*

Аннотация. Человек при использовании любого вида речи строит предложения из слов, имеющих в его лексике, в соответствии со своим уровнем, складывая слова между собой, вступает в диалог, излагает свои суждения. Речь-сложный структурный процесс, проявляющийся на основе фонетических, лексических и синтаксических единиц. Человек при использовании любого вида речи строит предложения из слов, имеющих в его лексике, в соответствии со своим уровнем, складывая слова между собой, вступает в диалог, излагает свои суждения. Речь-сложный структурный процесс, проявляющийся на основе фонетических, лексических и синтаксических единиц. Буквы и звуки складываются, образуя слова, а слова соединяются, образуя словарные фразы, словарные фразы складываются, а предложения образуют тексты-это естественный процесс, присутствующий в каждом языке. Однако эта ситуация происходит на основе определенных правил, принципов в каждом языке. Фактически, основой лингвистики является раздел синтаксиса, а основой синтаксиса является предложение.

Ключевые слова: слово-предложение, утвердительное предложение, отрицательное предложение, синтаксис, ap, предложение и его типы.

THEORETICAL STUDY OF VOCABULARY IN UZBEK LINGUISTICS

Suleymanova Farida

*Sharaf Rashidov Samarkand State
University independent researcher
e-mail:sulaymonova 87@gmail.com*

Annotation. A person, when applying any appearance of speech, draws up sentences, enters into communication, outlines his own reasoning by juxtaposing words, in accordance with his own level from the words contained in his lexicon. Speech is a complex structural process, manifested on the basis of phonetic, lexical and syntactic units. person, when applying any appearance of speech, draws up sentences, enters into communication, outlines his own reasoning by juxtaposing words, in accordance with his own level from the words contained in his lexicon. Speech is a complex structural process, manifested on the basis of phonetic, lexical and syntactic units. The addition of letters and sounds to form words, words to form words, words to form words, words to form words, words to form words, and sentences to form texts, is a natural process that exists in every

language. However, this situation is achieved on the basis of specific rules, principles in each language. In fact, the basis of linguistics is the syntactic branch, and the basis of syntax is the sentence.

Keywords: word-sentence, affirmation sentence, negation sentence, syntax, ap, sentence, and its types.

Ma'lumki, so'z-gaplarni tadqiq qilish borasida G'arb tilshunoslari yetakchilik qilishgan. Xususan, bu mavzu doirasida E.Sepir, F.K.Ameka, J.G.Hyerder hamda R.G.Monteslar samarali ishlar olib borishgan. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, so'z-gaplar ingliz tilshunosligida dastlab undov so'zlar nomi ostida o'rganilgan. So'z-gaplarga doir nazariy qarashlarning shakllanishida g'arb hamda rus tilshunosligi muhim ahamiyat kasb etgan. Rus olimlaridan N.P.Kolesnikov, E.Y.Bobrova, G.S.Litvishchenko, K.A.Guzeyeva, N.D.Antonov va boshqalar to'liqsiz gaplar va so'z-gaplar mavzusida tadqiqotlar olib borishgan.

O'zbek tilshunos olimlari ham so'z-gaplar masalasi yoritilgan bir qancha tadqiqotlarni amalga oshirganlar. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, XX asrning 60-yillariga qadar bu mavzuga oid izlanishlar kamchilikni tashkil qilgan. Bu yo'nalishda tilshunos olim professor A.G'ulomovning "Bo'laklarga ajratilmaydigan gaplar" mavzusidagi tadqiqoti diqqatga sazavordir[1]. Jumladan, so'z-gaplar masalasi R.Qo'ng'urov, E.Shodmonov, S.Usmenov, A.Boboyeva, S.Saidov, B.O'rinboyev, O'Lafasov, M.Qurbonova hamda L.Raupovalar[2] tomonidan turli aspektlarda o'rganilgan.

Dastlab, A.G'ulomovning so'z-gaplarga doir fikrlariga to'xtalib o'tsak. Tilshunos olim ham G'arb tilshunoslari singari o'z tadqiqotlarida so'z-gaplar atamasini ishlatmagan. Olimning quyidagi fikrlariga e'tibor qaratamiz: "So'zlovchi o'z nutqini tasdiqlash yo gumon bilan qarash yoki nutqining boshqa kishiga tegishli ekanini bildirish uchun gapiga, albatta, shubhasiz, balki kabi so'zlarni qo'shadi. So'zlovchining o'z nutqiga bo'lgan ishonch, gumon, sevinch kabi hodisalarni bildiradigan so'zlar kirish so'zlar deyiladi". Olimning fikrlaridan anglashiladiki, u bugungi kunda modal so'zlar deya nomlanadigan birliklarni kirish so'zlar deb atagan. Bundan tashqari, A.G'ulomov tasdiq va inkor so'z-gaplar haqida ham fikr yuritib, ularga quyidagicha tavsif bergan: "Ba'zan so'zlovchi o'z nutqini tasdiqlash uchun ha so'zini, inkor uchun yo'q so'zini ishlatadi. Ha so'zi odatda gap boshida kelib, tasdiqni bildiradi, yo'q so'zi inkorni bildiradi. *Ha, yo'q* so'zlari gap bo'laklari bilan grammatik jihatdan bog'lanmaydi. *Ha, yo'q* so'zlari gap o'rnida ham qo'llanadi. *Ha, yo'q* so'zlari o'zi tasdiqlaydigan va inkor qiladigan so'zlar bilan birga ham keladi"[3]. Olim tasdiq va inkor so'z-gaplarni ham kirish so'zlari toifasiga kiritgan.

E.Shodmonov "Hozirgi zamon o'zbek tilida so'z-gaplar" mavzusidagi nomzodlik dissertasiyasida so'z-gaplar masalasini batafsil o'rgangan. Olim so'z-gaplarni tadqiq qilib, uning, asosan, dialogik nutqqa xosligini ta'kidlab, quyidagi xulosani keltiradi: "Biz e'tirof etayotgan sintaktik hodisa – tub mohiyati bilan ana shu so'zlashuv nutqining bir formasi bo'lgan dialogik nutqqa xosdir"[4].

E. Shodmonovning "Hozirgi zamon o'zbek tilida so'z-gaplar" mavzusidagi nomzodlik dissertasiyasida ilgari surilgan mazkur fikrlar so'z-gaplarning funksional-stilistik xususiyatlarini va ularning asosiy kommunikativ maydoni sifatida dialogik nutqda namoyon bo'lishini ko'rsatadi. So'z-gaplar, o'z navbatida, to'liq sintaktik qurilishga ega bo'lmagan, ammo kommunikativ vazifani bajara oladigan birliklar sifatida dialogik nutqning dinamikasini ta'minlaydi. Ular nutq jarayonida qisqalik, tezkorlik, ma'no jihatdan ixchamlikni ta'minlab, muloqotning samaradorligini oshiradi. Shu nuqtayi nazardan, so'z-gaplar dialogik nutqning o'zagidagi elliptik konstruksiyalar bilan ham uzviy bog'liqdir. Chunki dialogning tabiatiga xos bo'lgan replikativlik, kontekst va vaziyatga tayanish, ortiqcha grammatik tuzilmalarning qisqarishi so'z-gaplar uchun qulay sharoit yaratadi.

So'z-gaplar hozirgi zamon o'zbek tilida, ayniqsa og'zaki nutqda, tilning jonli, harakatchan va funksional jihatdan boy qatlamlaridan biri hisoblanadi. Ularning dialogik nutqda ko'p uchrashi, bir tomondan, so'zlashuv uslubining tabiiy ehtiyojidan kelib chiqsa, ikkinchi tomondan, zamona-viy tilning iqtisodiylashuv tendensiyalarini ham aks ettiradi. Shuningdek, so'z-gaplarning grammatik va semantik xususiyatlarini chuqur tadqiq qilish tilshunoslikda dialogik nutqning tizimli xususiyatlarini anglashga ham xizmat qiladi.

O'zbek tilshunosligida so'z-gaplar masalasi so'nggi o'n yilliklarda nazariy jihatdan alohida yo'nalish sifatida shakllandi va ularning sintaktik, semantik hamda kommunikativ xususiyatlari turli yo'nalishlarda o'rganildi. Ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, so'z-gaplar to'liq gaplardan farqli ravishda predikativlikka ega bo'lsa-da, ularning shakllanishi ko'pincha elliptik konstruksiyalar, vaziyat va kontekst bilan chambarchas bog'liqdir.

Olib borilgan tadqiqotlar so'z-gaplarning asosan **dialogik nutqda keng qo'llanishini**, muloqotning dinamikasini ta'minlashda muhim o'rin tutishini, shu bilan birga, **og'zaki nutqning iqtisodiy va ekspressiv xususiyatlarini** ifoda etishini tasdiqlaydi. Ular leksik-grammatik jihatdan ham, intonasion jihatdan ham ixcham, sodda va ta'sirchan birliklar hisoblanadi.

So'z-gaplar nazariy jihatdan sintaksisning mustaqil bir qismi sifatida tadqiq etilib, ularning **turlari, ma'no va vazifalari, stilistik imkoniyatlari** ilmiy asoslangan. Ayrim olimlar, jumladan E.Shodmonov, ularni **dialogik nutqning ajralmas qismi** sifatida qarab, so'z-gaplarni tilning dinamik rivojlanishida muhim omil sifatida baholaydi.

Xulosa qilib aytganda, so'z-gaplarning nazariy tadqiqi o'zbek tilshunosligida sintaktik tizimning noan'anaviy, biroq kommunikativ jihatdan faol qatlamini ochib berdi. Bu yo'nalishdagi tadqiqotlar tilning amaliy va uslubiy imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, zamonaviy muloqot madaniyatini chuqurroq anglashga xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бобокалонов Р.Р. Ўзбек тилида семантик- функционал шаклланган сўз-гаплар: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2000.
2. Бобоева А. Ҳозирги ўзбек адабий тилида тўлиқсиз гаплар. – Тошкент: Фан, 1978.;
3. Ғуломов А. Ўзбек тили грамматикаси. – Тошкент, 1948.
4. Қўнғуров Р.Қ. Ўзбек тили грамматик қурилиши масалалари. – Тошкент. 1980.
5. Шодмонов Э. Ҳозирги замон ўзбек тилида сўз-гаплар: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1970.;
6. Усмонов С. Ҳозирги замон ўзбек тилида ундовлар: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1952.
7. Ўринбоев Б. Ўзбек тили сўзлашув нутқи синтаксиси масалалари, 1974.
8. Курбонова М.М. Ўзбек тилшунослигида формал-функционал йўналиш ва содда гап қурилишининг талқини: Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 2001.; Раупова Л.Р. Диалогик нутқнинг дискурсив талқини. – Тошкент: Фан, 2011.

TARIX DARSLARINI O'QITISHDA VIDEO MATERIALLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI.

Amirdinov Jahongir Abdumajidovich¹, Ziyodullayev Ilhomnjon Shavkat o'g'li²

¹Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Samarqand filiali "Ijtimoiy va gumanitar fanlar" kafedrasida katta o'qituvchisi

e-mail:amirdinov.jahongir@mail.ru

²Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Samarqand filiali tarix yo'nalishi 4-bosqich talabasi

e-mail:ziyodullayev77@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17638915>

Annotatsiya

Ushbu maqolada tarix ta'limida videomateriallardan foydalanishning samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Xususan, hujjatli filmlar, arxiv materiallari, tarixiy reenaktsiyalar va multimedia taqdimotlari kabi audiovizual manbalarning o'quv jarayonidagi o'zni yoritiladi. Ushbu man-

balar nafaqat an'anaviy o'qitish metodlarini to'ldiruvchi vosita sifatida, balki talabalarda mustaqil fikrlash, tarixiy voqealarni tasavvur qilish, ularning zamonaviylik bilan bog'liqligini anglash jarayonini chuqurlashtirishda muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Videomateriallar orqali ta'lim oluvchilar tarixiy faktlar, raqamlar, shaxslar va tushunchalarni yanada aniqroq qabul qiladilar, ular bilan faol muloqotga kirishadilar. Shu bilan birga, vizual va eshitish kanallarini birlashtirish natijasida bilimlarni mustahkamlash, emotsional ta'sir kuchini oshirish va tarixiy xotirani rivojlantirish imkoniyati paydo bo'ladi. Tadqiqotda videomateriallardan foydalanish talabalarning darsdagi faolligini oshirishi, ko'nikmalarini shakllantirishi va o'quv natijalarini yaxshilashga xizmat qilishi ilmiy dalillar asosida ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: tarix ta'limi, videomateriallar, multimedia, o'qitish usullari, mashg'ulotlar, o'quv natijalari.

ADVANTAGES OF USING VIDEO MATERIALS IN TEACHING HISTORY

Amirdinov Jahongir Abdumajidovich

Senior Lecturer, Department of Social and Humanitarian Sciences, Samarkand Branch of Tashkent International University of Kimyo amirdinov.jahongir@mail.ru Ziyodullayev Ilhomjon Shavkat ogli, 4th-year student, History Department, Samarkand Branch of Kimyo international university in Tashkent

Abstract: This article scientifically substantiates the effectiveness of using video materials in history education. In particular, it highlights the role of audiovisual sources such as documentaries, archival footage, historical reenactments, and multimedia presentations in the learning process. These resources not only complement traditional teaching methods but also help students develop independent thinking skills, visualize historical events, and understand their connection to modern times.

Through the use of video materials, learners perceive historical facts, figures, and events more clearly and participate more actively in class discussions. The integration of visual and auditory channels enhances knowledge retention, strengthens emotional engagement, and fosters the development of historical memory. The research demonstrates that the use of video materials increases student engagement, improves practical skills, and contributes to better learning outcomes.

Keywords: history education, video materials, multimedia, teaching methods, learning outcomes, educational effectiveness.

Tarix ta'limida videomateriallarning o'rni va ahamiyati haqida so' yurtganimizda, so'nggi yillarda tarixni o'qitish jarayonida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Bunda, avvalo, ta'lim jarayoniga multimedia resurslarining keng miqyosda integratsiyalashuvi muhim o'rin tutadi. Videomateriallar tarix o'qituvchilari uchun kuchli didaktik vosita bo'lib, ular nafaqat talabalarning darsdagi faolligini oshiradi, balki tarixiy voqealarni yanada kengroq va chuqurroq anglash imkoniyatini ham yaratadi. Ushbu maqolada tarix darslarida videomateriallardan foydalanishning pedagogik ta'siri, ularni amaliyotga joriy etishning turli shakllari, natijalari hamda umumiy ta'lim jarayoniga qo'sha-digan hissasi o'rganiladi.

Qo'shimcha manba sifatida videomateriallardan foydalanish videokontent, xususan hujjatli filmlar, arxiv lavhalari, reenaksiyalar va multimedia taqdimotlari, tarixiy rivoyatlarga vizual va eshitish kontekstini ta'minlaydi. Bu talabalarni mavzu bilan hissiy va shaxsiy darajada bog'lanishga undaydi, tarixiy voqealarni yanada qiziqarli va o'ziga xos qiladi.

Vizual tahlil imkoniyatlarida videomateriallar o'quvchilarga tana tuzilishi, yuz ifodalari, kiyim-kechak va atrof-muhit tafsilotlari kabi vizual signallarni kuzatish va tahlil qilish imkonini beradi.

Bu esa tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi, analitik ko'nikmalarni mustahkamlaydi. O'quvchilar tarixiy kontekst, siyosiy qarorlar va insoniy motivatsiyalar haqida og'zaki bo'lmagan signallar asosida xulosalar chiqarishga o'rganadilar.

Birlamchi manba sifatida video materiallar arxiv kadrlari va tarixiy hujjatli lavhalar o'quvchilar uchun birlamchi manba vazifasini bajaradi. Ular asosida talabalar o'z xulosalarini chiqaradilar, muqobil qarashlarni taqqoslaydilar va tarixiy empatiya — o'tmish kishilarining ruhiy olamini tushunish qobiliyatini rivojlantiradilar.

Pedagogik afzalliklari va metodik mulohazalar:

- **Vizual va audio jalb qilish.** Videolar talabalar e'tiborini o'ziga jalb etadigan, ularning hissiyatlariga ta'sir ko'rsatadigan dinamik tajribani taqdim etadi. Bu tarixiy materialni yodda saqlash va anglashni osonlashtiradi.
- **Haqiqiylik.** Tarixiy lavhalar o'tmish bilan bevosita aloqani yaratib, o'quvchilarda davr ruhi va ijtimoiy muhitni his qilish imkonini beradi.
- **Multimedia yondashuv.** Videomateriallar matn, ovoz, grafika va animatsiyani uyg'unlashtirgan holda turli xil o'quv uslublariga mos keladi va keng doiradagi talabalar uchun ta'lim samaradorligini oshiradi.
- **Murakkab tushunchalarni soddalashtirish.** Animatsiyalar va grafikalar yordamida videolar murakkab tarixiy jarayonlarni oddiyroq, tushunarliroq shaklda yoritadi.
- **Global istiqbol.** Turli mamlakatlar tajribasi va tarixiy kontekstlarini yorituvchi videolar o'quvchilarda xalqaro nuqtai nazar va jahon tarixining o'zaro bog'liqligini anglash ko'nikmasini shakllantiradi.
- **Hissiy aloqa.** Video materiallar emotsional ta'sir orqali tarixiy voqealarning insoniy qirralarini chuqurroq anglashga yordam beradi, o'quvchilarni mavzu bilan yanada yaqinroq bog'laydi.

Videomateriallar samarali didaktik vosita sifatida alohida ahamiyatga ega bo'lsa-da, ular an'anaviy o'qitish shakllarini to'liq almashtira olmaydi. Eng yuqori ta'limiy samaraga erishish uchun videolarni o'qish, yozma manbalarni tahlil qilish, seminar-munozaralar va boshqa o'quv faoliyatlari bilan uyg'unlashtirish zarur.

Umuman olganda, videomateriallardan foydalanish tarix ta'limini zamonaviylashtirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ular o'quv jarayonini jonlantiradi, talabalarda tanqidiy va analitik fikrlashni rivojlantiradi, empatiya va global qarashni shakllantiradi. Ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan qaraganda, videomateriallar tarixni chuqurroq, qiziqarli va talabalarga yaqinlashtirilgan holda o'rgatish imkonini beradi.

Video materiallar tarix ta'limida samarali vosita bo'lishi bilan bir qatorda, ularning qo'llanishi muayyan muammolarni ham yuzaga chiqarishi mumkin. Birinchi navbatda, manbalarning ishonchliligi va tarafkashlik masalasi muhim ahamiyatga ega. Hujjatli filmlar yoki rekonstruksiya-lar mualliflarning shaxsiy qarashlari, mafkuraviy pozitsiyasi yoki ishlab chiqarilgan davr kontekstidan kelib chiqqan holda tarixiy voqealarni bir tomonlama talqin qilishi mumkin [1]. Shu sababli o'qituvchi har bir videomaterialni tanlashda uni boshqa ilmiy manbalar bilan taqqoslab, tahlil qilishi zarur.

Ikkinchi muammo — texnologik tengsizlikdir. Barcha talabalar darsdan tashqarida video resurslarga bir xil imkoniyatda kira olmaydilar. Internet tezligi, texnik jihozlarning yetishmasligi yoki uy sharoitida multimedia vositalaridan foydalanish imkoniyatining cheklanganligi o'quvchilarning bilim olish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin [2]. Bu holat ta'limda ijtimoiy tengsizlikni chuqurlashtirish xavfini tug'diradi.

Bundan tashqari, videomateriallar ko'pincha murakkab tarixiy tafsilotlarni soddalashtiradi. Masalan, grafik animatsiyalar yoki qisqa dramatisatsiyalar orqali berilgan tarixiy jarayonlar o'quvchilarda noto'liq yoki yuzaki tushunchalar shakllanishiga olib kelishi mumkin [3]. Shu sababli, videolar mustaqil bilim manbai sifatida emas, balki qo'shimcha didaktik vosita sifatida qaralishi lozim.

Xulosa va takliflar

Video materiallardan foydalanish tarix ta'limini sezilarli darajada boyitadi. Ular nafaqat ko'rgazmalilik prinsipini amalga oshiradi, balki o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, tarixiy tafakkur va empatiya kabi ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi [4]. Shunga qaramay, videomateriallarni samarali qo'llash uchun quyidagi shartlarga amal qilish muhim:

- Diqqat bilan tanlash: videomateriallar ilmiy jihatdan asoslangan, ishonchli va o'quv dasturiga mos bo'lishi zarur. Bu talabalarga sifatli va tekshirilgan bilim olish imkonini beradi [5].
- Munozarani rivojlantirish: har bir videoni ko'rgandan so'ng sinfiy muhokamalar tashkil etilishi kerak. Bu jarayon talabalar uchun o'z fikrlarini ifoda etish, turli nuqtai nazarlarni taqqoslash va mustaqil xulosa chiqarish imkonini yaratadi [6].
- Kompleks yondashuv: video materiallardan foydalanish darsliklar, hujjatli manbalar va tarixiy matnlar bilan uyg'unlashtirilishi lozim. Bu tarixiy voqealarning ko'p qirrali tahliliga zamin yaratadi [7].

Umuman olganda, videomateriallardan oqilona foydalanish tarix ta'limini yanada qiziqarli, interfaol va zamonaviy shaklga olib chiqadi. O'qituvchilarning puxta kuratsiyasi va tahliliy yondashuvi orqali bu vositalar yosh avlodda tarixiy savodxonlikni oshirish, tanqidiy fikrlaydigan va ilmiy asosda qaror qabul qiladigan shaxslarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi [8].

Adabiyotlar

1. Rosenstone, R. A. History on Film/Film on History. Routledge, 2012.
2. Buckingham, D. Media Education: Literacy, Learning and Contemporary Culture. Polity Press, 2003.
3. Wineburg, S. Historical Thinking and Other Unnatural Acts. Temple University Press, 2001
4. Levstik, L., & Barton, K. Doing History: Investigating with Children in Elementary and Middle Schools. Routledge, 2010.
5. Mayer, R. E. Multimedia Learning. Cambridge University Press, 2009.
6. Seixas, P., & Morton, T. The Big Six Historical Thinking Concepts. Nelson Education, 2012.
7. Haydn, T. Using New Technologies to Enhance Teaching and Learning in History. Routledge, 2013.

THE ROLE OF DIGITALIZATION IN SOCIAL AND HUMANITARIAN EDUCATION

To'xtamisheva Gulnoza Mahmudjon qizi¹, Mukhtorov Azizjon Botir ogli²

¹Student at Samarkand branch of Kimyo International University in Tashkent, e-mail address: gulnozatoxtamisheva247@gmail.com ²Samarkand branch of Kimyo International University in Tashkent Department of "Social and Humanities" Corporate email address: a.muxtorov@kiut.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17638976>

Annotation: This article examines the role of digitalization in the teaching of social sciences and humanities. It highlights the growing importance of digital technologies in education, emphasizing their ability to enhance interactivity, stimulate student interest, and support independent learning. Various digital platforms, including Moodle, Google Classroom, Coursera, and gamified tools such as Kahoot and Wordwall, are discussed as effective resources in the teaching process. At the same time, the article identifies key challenges in implementing digitalization, such as insufficient technical infrastructure, varying levels of teachers' digital competence, and the limited development of subject-specific digital resources. To address these issues, the article pro-

poses measures such as retraining educators, creating a national digital resource database, and strengthening partnerships between public and private sectors. Ultimately, the study concludes that digitalization in the teaching of social sciences and humanities not only improves the quality of education but also plays a vital role in fostering creativity, independent thinking, and broad intellectual development among students.

Key words: Virtual Reality, architecture, immersive learning, cultural heritage, technologies, digital education, humanities.

In particular, you argue that we need to digitize the social sciences and humanities. The number of digital technologies has been growing day by day. How do you feel about that? At the same time, digital technologies are growing fast fundamental changes are taking place in the education process. Today, the teaching of social sciences and humanities plays an important role in improving the effectiveness of the digitalization process, ensuring interactivity and renewing students' interest in the learning process. Therefore, deep teaching and practical application of this topic. We need to work with each younger generation to find out how they feel about this issue and offer our own projects to help them. The skill of linking digital technologies to life should also be improved. On this clay, it is necessary to cultivate experienced cadres. Digital technologies that are changing the world also need to be taught as a science. Theory of digitalization.

O'zbekistonda koreys tili o'qitiladigan universitetlar, til markazlari va maktablar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Talabalar nafaqat an'anaviy sinf xonalarida, balki mobil ilovalar orqali ham koreys tilini o'rganmoqda. Bunday vaziyatda mikro-o'rganish va MALL yondashuvlari o'quvchilar uchun eng qulay va samarali usullardan biri sifatida qaralmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqola adabiyot tahliliga asoslangan konseptual tadqiqot hisoblanadi. Tadqiqot metodologiyasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Adabiyotlarni tanlash mezonlari: 2005–2025 yillar oralig'ida chop etilgan ilmiy maqolalar va tajribaviy tadqiqotlar tanlab olindi. Asosiy mavzular mikro-o'rganish, mobil ilovalar yordamida til o'rganish, gamifikatsiya va madaniyat integratsiyasi bilan bog'liq ishlardan iborat.
- Qiyosiy yondashuv: Koreys tilini o'rgatish tadqiqotlari ingliz tilini o'rgatish tadqiqotlari va tajribalari bilan solishtirildi. Bu orqali koreys tiliga xos xususiyatlar (hurmat shakllari, gap tuzilishi) alohida yoritildi.
- Konseptual sintez: Olingan natijalar umumlashtirilib, nazariy asos va amaliy qo'llanmalar shaklida tizimlashtirildi.

TADQIQOT NATIJASI

Adabiyotlarni tahlil qilish orqali quyidagi natijalar aniqlandi:

1. Mikro-o'rganish samarali. Kognitiv psixologiyada interval bilan takrorlash va xotirani chaqirish mashqlari samaradorligi isbotlangan [1], [2]. Bu til o'rgatishda, jumladan koreys tilini o'rganishda ham muvaffaqiyatli qo'llanmoqda [8].
2. MALLning o'sishi. Ilk bosqichda lug'atni mustahkamlashga xizmat qilgan mobil telefon mashqlari [12], [13] bugungi kunda amaliy tilshunoslikning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi [3], [6]. Bibliometrik tahlillar bu sohada tadqiqotlar hajmi muntazam oshib borayotganini ko'rsatadi [5].
3. Gamifikatsiya motivatsiyani oshiradi, lekin cheklovlariga ega. Mashqlar orqali qo'lga kiritiladigan ballar va yutuqlar o'quvchilarni muntazamlikka undaydi [7]. Ammo ortiqcha bildirishnomalar o'quvchini charchatishi mumkin [10].
4. Madaniyat integratsiyasi zarur. Koreys tilini o'rganishda madaniy kontekst muhim hisoblanadi. [14] ilovalardagi madaniy eslatmalar talabalar sezgiriligini oshirganini, [4] esa vaziyatlarga asoslangan mashqlar real muloqot ko'nikmalarini rivojlantirganini ko'rsatadi.
5. Mustaqil va madaniyatga boy o'rganish imkoniyati. [9] podcastlar orqali mustaqil o'rganish va madaniyatga yaqinlashish imkonini ko'rsatadi. Bu tajriba mobil ilovalar uchun ham dolzarb.
6. Koreys tiliga oid maxsus tadqiqotlar paydo bo'lmoqda. [11] Duolingo orqali koreys tilini o'rganuvchilarni tahlil qilib, so'z boyligi va grammatik ko'nikmalarda sezilarli o'sishni qayd etishgan.
7. O'zbek tilida gaplashuvchi koreys tili o'rganuvchilaridagi tajriba. O'zbek va koreys tillarining gap tuzilish tartibi o'zaro o'xshash bo'lsa-da, koreys tilidagi qo'shimchalar (은/는, 이/가,

을/를) va hurmat shakllari o'zbek o'quvchilariga qiyinchilik tug'diradi. Mobil ilovalar bu jarayonda raqamli ko'prik vazifasini bajaradi.

XULOSA VA MUNOZARA

Natijalar shuni ko'rsatadiki, mikro-o'rganish va MALL koreys tilini o'rgatishda samarali yondashuvdir. Ular nafaqat tilga oid bilimlarni oshiradi, balki madaniyatlararo kompetensiyani ham rivojlantiradi.

Nazariy yondashuv:

- Mikro-o'rganish til o'qitish nazariyasida samarali metod sifatida mustahkamlanmoqda.
- MALL ta'lim texnologiyalari va raqamli gumanitar fanlar kesishmasida yangi yondashuvlarni ochmoqda.

Amaliy yondashuv:

- O'qituvchilar uchun: mobil ilovalarni sinfdagi mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirish zarur.
- Ilova ishlab chiqaruvchilar uchun: gamifikatsiyani moslashuvchan qilish, madaniyatni oddiy ma'lumot sifatida emas, balki real vaziyatlarda berish muhim.
- O'zbek o'quvchilar uchun: qo'shimchalar va hurmat shakllarini amaliy vaziyatlarda ko'rish til o'rganishni osonlashtiradi.

Cheklovlar:

- Madaniyatni soddalashtirish xavfi mavjud.
- Internetga kirish imkoniyati barcha uchun teng emas.
- Koreys tiliga oid empirik tadqiqotlar hali cheklangan.

Mikro-o'rganish odatlarni shakllantiradi, madaniy integratsiya esa ularga mazmun beradi. Mobil ilovalar o'zbek va boshqa global o'quvchilar uchun raqamli ko'prik vazifasini bajaradi.

Xulosa qilib aytganda, besh daqiqalik kundalik mashg'ulot ham o'rganuvchini nafaqat koreys tiliga, balki koreys jamiyatining qadriyatlari va madaniyatiga yaqinlashtiradi. Kelajakdagi tadqiqotlar koreys tiliga xos mobil ilovalarni yanada takomillashtirish, nutqni avtomatik tahlil qilish va madaniy interaktiv modullarni qo'shishga qaratilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Carpenter, S. K., Cepeda, N. J., Rohrer, D., Kang, S. H. K., & Pashler, H. (2012). Using spacing to enhance diverse forms of learning: Review of recent research and implications for instruction. *Educational Psychology Review*, 24(3), 369–378.
2. Cepeda, N. J., Pashler, H., Vul, E., Wixted, J. T., & Rohrer, D. (2006). Distributed practice in verbal recall tasks: A review and quantitative synthesis. *Psychological Bulletin*, 132(3), 354–380.
3. Chinnery, G. M. (2006). Emerging technologies: Going to the MALL—Mobile Assisted Language Learning. *Language Learning & Technology*, 10(1), 9–16.
4. Hwang, W. Y., & Chen, H. S. L. (2013). Users' familiar situational contexts facilitate the practice of EFL in mobile environments. *Computer Assisted Language Learning*, 26(2), 101–125.
5. Karakaya, K., Yilmaz, R., & Yilmaz, M. (2022). Mobile-assisted language learning: A bibliometric analysis (2008–2020). *Computer Assisted Language Learning*, 35(7), 1217–1240.
6. Kukulska-Hulme, A. (2020). Mobile-assisted language learning [Revised edition]. In C. Chapelle (Ed.), *The Concise Encyclopedia of Applied Linguistics* (pp. 1–9). Wiley.
7. Ma, X., Zhao, J., & Shen, C. (2025). Gamification and habit formation in mobile learning: A review. *Journal of Educational Technology and Society*, 28(1), 14–29.
8. Prasittichok, N. (2024). Micro-learning in EFL: A meta-analysis of effectiveness. *Language Learning & Technology*, 28(2), 32–47.
9. Rosell-Aguilar, F. (2018). Autonomous language learning through podcasts: A case study. *Computer Assisted Language Learning*, 31(6), 528–551.
10. Shen, C., Wang, Y., & Liu, H. (2024). Push notifications and learner engagement in mobile learning environments. *Interactive Learning Environments*.

11. Smith, A., & Lee, J. (2024). Evaluating Duolingo for Korean learners: A quasi-experimental study. *International Review of Research in Open and Distributed Learning*, 25(4), 112–129.
12. Stockwell, G. (2010). Using mobile phones for vocabulary activities: Examining the effect of the platform. *Language Learning & Technology*, 14(2), 95–110.
13. Thornton, P., & Houser, C. (2005). Using mobile phones in English education in Japan. *Journal of Computer Assisted Learning*, 21(3), 217–228.
14. Yoon, S., & Park, H. (2023). Embedding culture in mobile Korean learning: Case studies from university programs. *Korean Language Education Research*, 59(2), 77–96.

PEDAGOGIKA YO'NALISHI TALABALARINING IJODKORLIK QOBILIYATLARINI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI.

Najmiyeva Umida Kamaritdinovna
u.najmiyeva@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17650590>

Annotatsiya: Maqolada pedagogika yo'nalishi talabalarining ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Zamonaviy ta'lim talablariga muvofiq ijodiy tafakkurni shakllantirishda qo'llaniladigan interfaol metodlar, loyiha asosida o'qitish, STEAM yondashuvi hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati ilmiy asosda tahlil etilgan. Shuningdek, ijodkorlikni rivojlantirish metodikasining bosqichlari va samaradorligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: pedagogika, ijodkorlik, kreativlik, innovatsiya, metodika, interfaol metod, loyiha, STEAM, tanqidiy fikrlash.

METHODOLOGY FOR DEVELOPING THE CREATIVE ABILITIES OF STUDENTS IN THE FIELD OF PEDAGOGY BASED ON MODERN APPROACHES

Najmiyeva Umida Kamaritdinovna
u.najmiyeva@gmail.com

Abstract:

The article highlights the issues of developing creativity among students majoring in pedagogy. In accordance with modern educational requirements, the significance of interactive methods, project-based learning, the STEAM approach, and information and communication technologies in shaping creative thinking is analyzed on a scientific basis. The paper also discusses the stages and effectiveness of the methodology for developing creativity.

Keywords: pedagogy, creativity, innovation, methodology, interactive methods, project-based learning, STEAM, critical thinking.

Kirish

Bugungi kunda O'zbekiston ta'lim tizimida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezident qaror va farmonlarida ta'lim sifatini oshirish, yoshlarni raqobatbardosh kadr sifatida tayyorlash, ijodkorlik va innovatsion fikrlashni rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shu nuqtayi nazardan pedagogika yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar – kelajak avlodni tarbiyalovchi mutaxassislar sifatida yangicha dunyoqarash, ijodiy tafakkur va kreativ yondashuvlarga ega bo'lishlari zarur.

Ijodkorlik – bu yangilik yaratish, noodatiy qaror qabul qilish, mavjud bilimlarni yangicha talqin etish qobiliyatidir. Kelajakdagi pedagogning kasbiy faoliyatida ijodiy yondashuv ta'lim jarayoni-ning samaradorligi va qiziqarliligini oshirishga xizmat qiladi.

Asosiy qism

1. Pedagogika yo'nalishi talabalarida ijodkorlikning o'rni

Ijodkorlik – shaxsning kasbiy sifatleri tarkibida muhim o'rin egallaydi. Talabalar ijodiy tafakkurga ega bo'lsa, ular:

- dars jarayonini yangicha tashkil etadi;
- ta'limda innovatsion metodlardan samarali foydalanadi;
- bolalarda ham kreativ fikrlashni shakllantiradi;
- ta'limiy muammolarga noodatij yondashadi.

2. Zamonaviy yondashuvlar orqali ijodkorlikni rivojlantirish

a) Innovatsion pedagogik texnologiyalar

Axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish, elektron ta'lim resurslari, virtual laboratoriyalar, multimedia dasturlari talabalar tafakkurini kengaytiradi.

b) Interfaol metodlar

“Aqliy hujum”, “Venn diagrammasi”, “Debat”, “Rolga kirish” metodlari talabalarni mustaqil fikrlash va ijodiy qaror qabul qilishga o'rgatadi.

c) Loyiha asosida o'qitish

Talabalar turli loyihalar ishlab chiqib, amaliyotda sinovdan o'tkazadilar. Bu ularni hamkorlik, izlanish va yangilik yaratishga undaydi.

d) STEAM yondashuvi

Fanlararo integratsiya (fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika) ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Masalan, pedagog talabalar matematika darsini san'at elementlari bilan uyg'unlashtirib ijodiy uslubda taqdim etishi mumkin.

e) Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish

Talabalarga muammoli savollar berish, esse yozish, munozaralar tashkil etish, tahliliy topshiriqlar ijodiy yondashuvni mustahkamlaydi.

3. Ijodkorlikni takomillashtirish metodikasining bosqichlari

1. Motivatsiya – talabalarni ijodiy faoliyatga qiziqtirish, rag'batlantirish.

2. Ijodiy faoliyat – loyiha, mashg'ulot, interfaol metodlar orqali kreativ topshiriqlarni bajarish.

3. Refleksiya – o'z ishini tahlil qilish, xatolarni aniqlash.

4. Natijani baholash – ijodiy faoliyat mahsulini taqdim etish, ko'rgazma va taqdimotlarda ishtirok etish.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, yangi O'zbekistonimizni yuksalishi yo'lida xalqimizning ma'naviyati va ma'rifatini takomillashtirishda musiqa darsi nafaqat fan sifatida, balki, jamiyatimizda shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy fanda bo'lajak o'qituvchining ijodiy salohiyatini rivojlantirish muammosini shakllantirish va hal etish uchun zarur bo'lgan bilimlar majmui mavjud. Ushbu muammoni hal etish ijodkorlikni rivojlanish mexanizmi sifatida faoliyatli yondashuv va pedagogik hamkorlikda o'qitish bilan bog'liq bo'lgan masalalar respublikamiz olimlaridan B.R.Adizov, B.Ziyomuhamedov, R.Ishmuhammedov, O.Musurmonova, Z.A.Xolmatovalarning ishlarida, musiqiy pedagogikada ijodning turli qirralarini o'rganish, o'qituvchilarning zamonaviy sharoitda ijodiy izlanishlari bo'yicha Rossiyalik olimlar L.G. Archaznikova, V.K. Tevlina, T.V. Petrova, O.I. Evdokimova, A.N. Baskakova va boshqalar tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Zamonaviy musiqa va pedagogik tadqiqotlarning tahlili musiqa o'qituvchilarini tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari muammosiga qiziqishning ortganligini ko'rsatadi, chunki musiqa ta'limi mohiyatan jamiyatni ma'naviy yuksalishida, madaniyatini oshirishda asosiy omili hisoblanadi. Jamiyatimizda yetishib chiqayotgan mutaxassis musiqa o'qituvchilari musiqa ta'lim tizimining barcha jabhalarida birdek musiqa darslarining spetsifik xususiyatiga qo'yilgan talablarni mukammal darajada bajarishga qodir deb bo'lmaydi.

Talabalarda pedagogik mahorat, musiqiy va ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish, bir qadar darslarni samarali va qiziqarli, tashkil qilish imkonini beradi. Musiqa darslarining spetsifik xususiyat-

larining 4- bandida "Musika bolaga faol emosional ta'sir ko'rsatadi, quvontiradi hamda ijodiy kechinmalar uyg'otadi. Yaxshi, mazmunli qiziqarli musiqa darslaridan bolalar badiiy va ma'naviy ozuqa oladilar. Musika darsi o'zining faol psixologik ta'siri hamda qizg'in ijodiy faoliyati bilan boshqa fanlardan farq qiladi [5] Dars, o'quvchi-talabalarning tarbiyalashning uzluksiz jarayonidagi muayyan bir bosqich hisoblanadi. O'z navbatida ularni tarbiyaviy vazifalari musiqa o'quv ishini tashkil etishga va uning metodikasiga jiddiy ta'sir o'tkazadi.

Demak, bundan fikr qilish lozimki, talabada yuqoridagi fazilatlar mavjud bo'lishidan oldin, avvalo pedagog bu xislatlar bilan "qurollangan" bo'lishi lozim ekan. Talabalarning ijodkorlik qobiliyatlarini ro'yobga chiqaruvchi pedagoglar ortib borishi uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratilishi talab etiladi. Ilmiy ishlar va tadqiqotlar olib borish uchun muhit yaratilishi va rag'batlantirilishi samarali yechim hisoblanadi. O'z o'rnida ta'kidlab o'tish ham lozimki, tabiat tomonidan berilgan iqtidor, genetika, jamiyat, oilaviy muhit hal qiluvchi omillar ekanligini inkor etib bo'lmaydi. Dunyo jadal rivojlanib borayotgan davrda ijtimoiy tarmoqlarning o'zni ham beqiyosdir.

Pedagogik jarayonning barcha ishtirokchilari raqamli savodxonlikka egaligi zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanishni ta'minlab beradi. O'quv jarayonlarida multimedia dasturlaridan, virtual stendlardan, hisob-grafik usullaridan foydalanish orqali yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Shunday qilib, talabalarda ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda ko'plab omillar ta'sir etishini anglash mumkin. Har bir sohada bo'lgani kabi pedagogikada ham kasb egasidan mohirlik, tirishqoqlik, ishiga bo'lgan muhabbat, kasbiy kompetentlik, innovatsion yechimlar taklif qila olish qobiliyatlari talab etilar ekan. Aynan mana shu sifatlar ko'zlangan maqsadga erishishda, ta'lim sifatini oshirishda, jamiyat uchun yetuk kadrlar yetkazib berishda, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarning yuqori cho'qqilarga chiqishiga xizmat qilar ekan.

Chunki, talabalarda mustaqil holda topshiriqlar yoki mashqlarni bajarish orqali ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin. Talabalar orasidan o'zlari mustaqil ravishda yangi buyumni tayyorlagan talabalar texnika sohasidagi ijodiy faoliyat uchun zarur shaxsiy sifatlar va qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Bo'lajak dizaynerlar, rassom-modelerlar, loyihachilar, texnologlarning texnik ijodkorligi shakllanishida texnologik bilim va malakalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabalar kasbiy sifatlarga ega bo'lgan ishlarni bajarish jarayonida har xil ijodiy vazifalarni hal qilishga duch keladilar. Masalan, talabalar biron bir buyumning tayyor mahsulot bo'lgunga qadar jarayonning barcha asosiy bosqichlarini bosib o'tishlari muhimdir.

Oliy ta'lim muassasasida talabalarning texnik ijodkorligini shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan qator tajriba-sinov ishlari sanoatning turli sohalari va iqtisodiyotning tarmoqlari asosidagi yo'nalishlarda tashkil etildi va o'tkazildi. Texnologik va texnik fikrlashni rivojlantirish uchun fikrlashning sezgir va mantiqiylik, belgilarning aniqligi, kuzatuvlarni tahlil qilish va tushuntirish, texnik obyektlar va texnologik jarayonlarning qonuniyatlari va xususiyatlarini ko'rish, ularni tushunish va tushuntirish xarakterlidir.

Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida talabalarning mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish ularning mustaqil ishlash ko'nikmalarini egallashiga katta imkoniyatlar yaratadi. Oliy ta'limda talabalarning izlanuvchanlik, ijodiy va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, oliy ta'lim sirlarini puxta egallashlarida ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalardan samarali foydalanish muhim hisoblanadi. Uzluksiz ta'lim tizimida axborot texnologiyalari bilan zamonaviy pedagogik texnologiyani birgalikda ta'lim jarayoniga tatbiq etish o'qitish jarayonida juda yaxshi samara beradi.

Talabalarning ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish omillari har bir mavzu, har bir darsda o'quv faoliyatining asosi bo'lishi lozim. Ijodkorlik faoliyati o'qituvchi va talaba faoliyatining barcha qirralarini qamrab olar ekan, uni samarali tashkil qilish butun ta'lim jarayonining sifatini ta'minlashga xizmat qiladi. Yuqorida bildirilgan fikrlar asosida bo'lajak o'qituvchilarni ijodkorlik faoliyatiga tayyorlash strategiyasini quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirish mumkin: -talabalar e'tiborini masalani hal qilishda qo'llanilgan usulning universalligi, keng qamrovligiga qaratish; talabalarda ijodiy

takomillashuvni darsning maqsadi sifatida emas, balki darsda qo'yilgan vazifani yanada samarali hal qilishga qaratilgan yangi yo'l, imkoniyat sifatida qaralishi; -talabalar o'zlari mustaqil xulosa chiqarib topadigan yangi g'oyalar ijodkorlik darslarining asosiy mahsuli sifatida qaralishi; -kasbiy tayyorgarlik jarayonida, berilgan topshiriqqa oid axborotlarni yig'ish, tahlil va talqin qilishda, ijodkorlikni yo'lga qo'yishning muhim jihati sifatida qaralishi; -shaxsda ijodkorlik sifatlarini tarbiyalashni ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan mashg'ulotlarining muhim jihati sifatida qaralishi.

Xulosa

Pedagogika yo'nalishi talabalarida ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish zamonaviy ta'lim jarayonining muhim talabalaridan biridir. Innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar, loyiha asosida o'qitish va STEAM yondashuvi ijodiy tafakkurni kuchaytirib, kelajak pedagoglarini yangicha fikrlovchi, kreativ va tashabbuskor mutaxassis sifatida shakllantiradi. Shu bois, oliy ta'lim jarayonida ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan maxsus metodik tizimlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilishga oid qaror va farmonlari.
2. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". – Toshkent, 2021.
3. Ziyamuhamedov B.H., Ochilov O.T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2019.
4. To'xtaxodjayeva M. Pedagogik mahorat va kreativ yondashuvlar. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.
5. Jalolov J.J. Pedagogik innovatsiyalar nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2018.
6. Anderson L.W., Krathwohl D.R. A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing. – New York: Addison Wesley Longman, 2001.
7. Torrance E.P. Creativity: Theory and Practice. – New Jersey: Prentice-Hall, 1998.

BOLALARGA TA'LIM BERISHDA O'YINLARNING AFZALLIKLARI

Nazarova Dilnoza O'razaliyevna
KIUT Samarqand filiali o'qituvchisi
d.nazarova@kiut.uz
SamDChT instituti 3-bosqich talabasi
Abdusalomova Sevara Dilshod qizi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17650619>

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha ta'lim sifatini oshirishda mavzu bo'yicha darsliklarning ahamiyati bolalarni maktabga tayyorlash fanida o'tadigan bolalarni maktabga tayorlashga o'yinlar mavzusi misolida ko'rsatib berilgan.

Kalit sozlar: Bolalar, ta'lim sifati, didaktik o'yinlar, sahnalashtirilgan o'yinlar.

Аннотация. В статье показано значение учебников по предмету в повышении качества дошкольного образования на примере темы игр по подготовке детей к школе по предмету подготовка детей к школе.

Ключевые слова: Дети, качество образования, дидактические игры, театрализованные игры.

ADVANTAGES OF USING GAMES IN CHILDREN'S EDUCATION

Nazarova Dilnoza O'razaliyevna

Lecturer, Samarkand Branch of KIUT E-mail: d.nazarova@kiut.uz

Abdusalomova Sevara Dilshod qizi

3rd-year Student, SamDChT Institute

Abstract. The article demonstrates the importance of textbooks in improving the quality of preschool education, using the topic of "games for preparing children for school" within the subject of preparing children for school as an example.

Keywords: children, quality of education, didactic games, dramatized games.

Kirish

Zamonaviy ta'lim jarayoni bolalar uchun o'qish va o'rganish jarayonini qiziqarli va samarali qilishga intiladi. O'yin asosidagi ta'lim, bu yo'nalishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, bolalarning bilim olish jarayonini nafaqat qiziqarli, balki samara beruvchi qiladi. O'yinlar orqali bolalar o'zlarini erkin his qilishadi, yangi bilimlarni o'zlashtirishda qiziqish va motivatsiya topadilar. Ushbu maqolada o'yin asosida ta'limning afzalliklari, uning bolalar rivojlanishiga ta'siri va ta'lim jarayonida qanday qo'llanilishi haqida batafsil ma'lumot beramiz.

Asosiy qism: O'yin asosidagi ta'limning afzalliklari

1. Qiziqish va motivatsiya: O'yinlar bolalarga darslarni qiziqarli qilish imkonini beradi. Ular o'yin orqali o'rganishni xohlaydilar va bu jarayonda motivatsiya oshadi. Bolalar o'zlarini o'yin ichida ko'rib, yangi narsalarni o'rganishga tayyor bo'lishadi.
2. Ijtimoiy ko'nikmalar: O'yinlar ko'pincha guruhda o'tkaziladi, bu esa bolalar orasida ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradi. Ular bir-birlari bilan muloqot qilishni, fikr almashishni va jamoaviy ishlarni bajarishni o'rganadilar. Bu ijtimoiy ko'nikmalar kelajakda ham foydali bo'ladi.
3. Muammolarni hal qilish: O'yin jarayonida bolalar turli muammolarni hal qilishga o'rganadilar. Har bir o'yin yangi vazifalarni talab qiladi, bu esa ularni analitik fikrlashga va ijodkorlikka undaydi.
4. Hissiy rivojlanish: O'yinlar bolalarda hissiy intellektni rivojlantirishga yordam beradi. G'alaba qozonishdan rohatlanish va mag'lubiyatni qabul qilish kabi tajribalar ularning hissiy barqarorligini oshiradi.
5. O'z-o'zini ifoda etish: O'yinlarda bolalar o'z fikrlarini ifoda etishga imkoniyat topadilar. Ularning ijodkorligi hamda shaxs sifatida rivojlanishi uchun bu juda muhimdir.

O'yinlarni ta'lim jarayoniga kiritish:

O'yin asosida ta'limni samarali tashkil etish uchun quyidagi yondashuvlarni qo'llash mumkin:

- Interaktiv darslar: Darslarni interaktiv holga keltirib, bolalarni faol ishtirok etishga undash kerak. Masalan, dars davomida turli xil o'yinlarni tashkil qilish orqali bilim olish jarayoni yanada qiziqarli bo'ladi.
- Ta'lim o'yinlari: Maxsus ta'lim o'yinlarini yaratish yoki mavjudlarini qo'llash muhimdir. Bu o'yinlar matematikadan, til bilimidan yoki boshqa fanlardan foydalanishi mumkin.
- Guruh ishlari: Bolalarni kichik guruhlariga bo'lib, birgalikda ishlashlariga imkon beradigan vazifalarni berish orqali hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin.
- O'yinlar orqali baholash: Bolalarning bilimlarini baholash uchun o'yinlardan foydalanish baholash jarayonini yanada qiziqarli qiladi va bolalarga stress tug'dirmaydi.

Xulosa

Bolalar uchun o'yin asosida ta'lim nafaqat bilim olish jarayonini qiziqarli qiladi, balki ularning ijtimoiy, hissiy va intellektual rivojlanishiga ham katta hissa qo'shadi. O'qituvchilar va otalar bu yondashuvni qo'llab-quvvatlashlari lozim, chunki motivatsiya va qiziqishni oshirish

orqali bolalar hayotida muvaffaqiyatga erishadilar. O'yin asosidagi ta'lim – bu kelajak avlodining muvaffaqiyatli va baxtli bo'lishiga olib keladigan kuchli vosita! Bolalarni yangi bilimlarga tayyorlashda ushbu yondashuvdan foydalanib, biz ularga yanada yorqin kelajak yaratishga yordam bera olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Toshkent shahri 2020-yil 23-sentyabr.
2. O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 2019-yil 16-dekabr, O'RQ-595-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davriga ta'lim-tarbiya va ilm-fam sohalarini rivojlantirishning chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-sonli farmoni. Toshkent 6-noyabr 2020-yil.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6- noyabr 2024-yil "Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi. Xalq so'zi ro'zinomasi 2022-yil 27-yanvar
5. Asqarova Dilorom Qurbanova "Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash metodikasi" O'quv qo'llanma. Toshkent 2020y.

АРТ-ТЕРАПЕВТИЧЕСКИЙ ПОДХОД В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

Раджабова Гульноза Арифжановна

и.о. доцента кафедры иностранных языков,

Самаркандский филиал Ташкентского международного университета Кимё

(Самарканд, Узбекистан)

E-mail: noza140983@gmail.com

doi

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты использования арт-терапевтического подхода в обучении русскому языку младших школьников. Обосновывается педагогическая целесообразность интеграции художественно-творческой деятельности в процесс формирования речевых и коммуникативных компетенций. Представлены методы и формы реализации арт-терапевтических технологий на уроках русского языка. Показано, что применение искусства как средства обучения способствует гармонизации эмоциональной сферы ребёнка, развитию речи и формированию положительной учебной мотивации.

Ключевые слова: арт-терапия, русский язык, начальная школа, творческое развитие, эмоциональное благополучие, педагогические технологии.

AN ART THERAPY APPROACH TO TEACHING RUSSIAN IN PRIMARY SCHOOL

Radjabova Gulnoza Arifjanovna

Acting Associate Professor, Department of Foreign Languages,

Samarkand Branch of Kimyo International University in Tashkent

(Samarkand, Uzbekistan)

E-mail: noza140983@gmail.com

Abstract. The article examines the theoretical and practical aspects of using an art-therapeutic approach in teaching the Russian language to primary school students. The pedagogical relevance of integrating artistic and creative activities into the process of developing speech and communication competencies is substantiated. The methods and forms of implementing art-therapeutic technologies in Russian language lessons are presented. It is shown that the use of art as a means of teaching contributes to the harmonization of the child's emotional sphere, the development of speech, and the formation of positive learning motivation.

Keywords: art therapy, Russian language, primary school, creative development, emotional well-being, pedagogical technologies.

Введение

Современная система образования направлена на развитие личности ребёнка в её когнитивном, эмоциональном и творческом аспектах. Возрастающая сложность учебного процесса требует поиска технологий, способных поддерживать эмоциональное благополучие учащихся и стимулировать их познавательную активность. Одним из таких направлений выступает арт-терапевтический подход, рассматривающий искусство как средство гармонизации личности и раскрытия внутреннего потенциала ребёнка.

Понятие «арт-терапия» [9], введённое А. Хиллом в 1938 году, получило широкое распространение в педагогике благодаря исследованиям А.И. Копытина [1], Л.Д. Лебедевой [2], О.В. Хухлаевой и др., которые подчёркивают возможность использования художественных средств в образовательных целях. В методике преподавания русского языка данный подход способствует развитию речи, воображения, эстетического восприятия и эмоционального отношения к слову.

Объектом исследования является процесс обучения русскому языку в начальной школе. Предметом исследования – применение арт-терапевтического подхода как средства развития речи и творческой активности учащихся.

Целью исследования является теоретически обосновать и определить педагогические возможности арт-терапевтического подхода в обучении русскому языку младших школьников.

Задачи исследования – изучить психолого-педагогические основы арт-терапии в образовании; определить формы и методы применения арт-терапевтических технологий на уроках русского языка; охарактеризовать влияние арт-терапевтических методов на развитие речи и личностное становление учащихся.

Научная новизна состоит в систематизации педагогических условий реализации арт-терапевтического подхода в обучении русскому языку и в обосновании его развивающего потенциала для формирования эмоционально-речевой компетентности младших школьников.

Методы исследования

Методологическую основу составляют идеи культурно-исторической теории Л.С. Выготского, гуманистической психологии К. Роджерса и А. Маслоу, а также концепции интеграции искусства и образования (Б.М. Неменский, Д.Б. Кабалевский).

В исследовании применялись теоретический анализ научно-методической литературы, педагогическое наблюдение, анализ и обобщение опыта учителей начальных классов, а также элементы моделирования фрагментов уроков с включением арт-терапевтических практик.

Результаты и обсуждение

Результаты анализа показали, что включение арт-терапевтических элементов в процесс обучения русскому языку способствует: повышению мотивации учащихся к изучению языка; развитию образного и ассоциативного мышления; обогащению словарного запаса и формированию выразительной речи; снижению уровня тревожности и созданию комфортной эмоциональной атмосферы на уроке.

Эффективными формами реализации являются интегрированные уроки (русский язык плюс искусство, музыка, история, этика, математика), творческие мастерские, словесное рисование, драматизация, проектная и групповая деятельность. Применение приёмов визуализации, музыкального сопровождения, сочинения сказок и описаний по картинам способствует формированию эмоционально-ценностного отношения к слову и развитию эстетического восприятия речи.

Проведённое исследование подтвердило, что внедрение арт-терапевтических методик в процесс обучения русскому языку в начальной школе оказывает положительное влияние на эмоциональное состояние и учебную мотивацию учащихся. Анализ динамики учебной активности показал рост интереса к предмету у 82% обучающихся, участвовавших в эксперименте. Дети проявляли большую вовлечённость в задания творческого характера и демонстрировали устойчивое положительное отношение к учебному процессу.

Анализ речевого развития выявил улучшение показателей спонтанной устной речи и расширение активного словаря у младших школьников. Ученики стали чаще использовать разнообразные синтаксические конструкции, интонационно выделять эмоционально значимые слова и проявлять инициативу в речевом взаимодействии. Отмечено, что творческие упражнения, включающие рисунок, рассказывание историй и коллективные формы художественной деятельности, способствовали более свободному самовыражению и формированию коммуникативной уверенности.

Сравнение контрольной и экспериментальной групп показало, что у учащихся, обучавшихся с применением арт-терапевтических методов, уровень тревожности в процессе выполнения заданий снизился в среднем на 25%. Это свидетельствует о смягчении психологических барьеров, связанных с оценочной ситуацией, и формировании доверительной атмосферы на уроках. Положительные изменения наблюдались и в поведенческом аспекте: повысился уровень саморегуляции, терпимости и готовности к совместной работе.

Особое значение имели формы арт-терапевтической деятельности, направленные на индивидуализацию обучения. Такие задания, как «Чего я боюсь?» и «Каракули Д. Винни-кота», способствовали осознанию личных переживаний и снижению внутреннего напряжения. В ходе обсуждения результатов учащиеся демонстрировали готовность к открытому выражению эмоций и размышлений, что благоприятно влияло на их речевое развитие.

Применение арт-терапии в обучении русскому языку показало эффективность в формировании позитивной учебной мотивации, развитии речевой активности и эмоциональной устойчивости учащихся. Полученные данные подтверждают целесообразность интеграции арт-терапевтических подходов в систему языкового образования начальной школы как средства повышения качества обучения и гармонизации педагогического процесса.

Заключение

Арт-терапевтический подход в обучении русскому языку в начальной школе обеспечивает гармоничное развитие личности ребёнка, объединяя когнитивные, эмоциональные и творческие процессы. Его внедрение способствует формированию устойчивой речевой мотивации, развитию самовыражения и коммуникативной компетентности учащихся. Для педагога данный подход открывает новые возможности профессионального роста, позволяя выстраивать образовательный процесс на принципах гуманизма, творчества и личностной направленности.

Практическая значимость исследования заключается в возможности использования разработанных методических приёмов и форм работы на уроках русского языка и во внеурочной деятельности.

Список используемой литературы:

1. Копытин, А. И. Арт-терапия: теория и практика. – СПб.: Речь, 2014. – 352 с.

2. Лебедева, Л. Д. Психолого-педагогические основы арт-терапии. – М.: Академический проект, 2016. – 288 с.
3. Хухлаева, О. В. Арт-терапия в практике современного учителя. – М.: Сфера, 2020. – 192 с.
4. Выготский, Л. С. Психология искусства. – М.: Искусство, 1982. – 312 с.
5. Роджерс, К. Взгляд на психотерапию, становление человека. – М.: Прогресс, 1986. – 480 с.
6. Маслоу, А. Мотивация и личность. – СПб.: Евразия, 1999. – 478 с.
7. Неменский, Б. М. Очерки по философии искусства и образования. – М.: Искусство, 2006. – 256 с.
8. Кабалевский, Д. Б. Искусство в воспитании детей. – М.: Просвещение, 1988. – 208 с.
9. Хилл, А. Art Versus Illness: A Story of Art Therapy. – London: Allen & Unwin, 1938. – 178 p.

TARJIMADA EMOTSIONAL LEKSIKANING O'ZIGA XOSLIKLARI (O'ZBEK VA XITOIY TILI MISOLIDA)

Ne'matova Niginabonu Alisherovna

TKXU Xorijiy tillar kafedrasida katta o'qituvchisi

n.nematova@kiut.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17650641>

Annotatsiya. Mazkur tezisdagi emotsional leksikaning tarjima jarayonidagi lingvokulturologik xususiyatlari, o'zbek va xitoy tillaridagi emotsional birliklarning semantik va stilistik jihatdan farqlari hamda tarjimadagi muammoli nuqtalari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, ekvivalentlik darajasi, madaniyatlararo konnotatsiya farqlari va pragmatik moslashuv masalalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: emotsional leksika, tarjima, o'zbek tili, xitoy tili, lingvokulturologiya, pragmatika.

PECULIARITIES OF EMOTIONAL LEXICON IN TRANSLATION (ON THE EXAMPLE OF UZBEK AND CHINESE LANGUAGES)

Nematova Niginabonu Alisherovna Senior Lecturer,

Department of Foreign Languages, KIUT E-mail: n.nematova@kiut.uz

Abstract: This thesis analyzes the linguocultural features of emotional vocabulary in the process of translation, examining the semantic and stylistic differences of emotional units in the Uzbek and Chinese languages, as well as problematic aspects in translation. In addition, it discusses issues related to the degree of equivalence, differences in intercultural connotations, and pragmatic adaptation.

Keywords: emotional vocabulary, translation, Uzbek language, Chinese language, linguoculturology, pragmatics.

KIRISH. Emotsional leksika til tizimining ajralmas qismi bo'lib, inson his-tuyg'ularini ifodalashda asosiy vosita hisoblanadi. Tarjima jarayonida ushbu qatlam alohida murakkablik tug'diradi, chunki emotsional birliklar nafaqat lug'aviy ma'no, balki milliy-madaniy konnotatsiyalarni ham o'z ichiga oladi. O'zbek va xitoy tillarini qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ikkala tilda ham emotsional leksika boy, biroq ifoda vositalari, qo'llanish doirasi va uslubiy imkoniyatlari sezilarli darajada farq qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Emotsional leksika masalasi turli tillarda tilshunoslar tomonidan keng tadqiq qilingan. Xitoy tilshunosligida 王力 (2002) tomonidan yozilgan “汉语语法理论” asarida xitoy tili grammatikasi va leksikasining nazariy asoslari berilib, emotsional birliklarning nutqdagi oʻrni va ularning semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, 刘月华 va 朱德熙 (1998) “现代汉语八百词” kitobida zamonaviy xitoy tilidagi asosiy soʻzlar, jumladan, emotsional birliklarning qoʻllanilishi, uslubiy boʻyoqlari va konnotatsiyalari haqida batafsil maʼlumot berilgan.

Til va madaniyat oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlik masalasini 崔希亮 (2010) oʻzining “语言与文化” asarida atroflicha yoritadi. Unga koʻra, emotsional leksika til egalari madaniyati va dunyoqarashi bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, tarjima jarayonida bu jihatni hisobga olish alohida muhimdir.

TADDIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Emotsional leksika odatda insonning ruhiy holati, ichki kechinmalari, ijobiy yoki salbiy bahosini ifodalovchi birliklarni oʻz ichiga oladi. Masalan, oʻzbek tilida “koʻngli toʻlmoq”, “dili ranjimoq”, “bagʻri keng” kabi iboralar mavjud boʻlsa, xitoy tilida bunga qiyos sifatida “心酸” (xīnsuān – yurak achishi), “高兴” (gāoxīng – xursand boʻlish), “生气” (shēngqì – jahli chiqmoq) kabi birliklar ishlatiladi. Bunday birliklarning semantik tarkibi milliy-madaniy konnotatsiyaga ega boʻlib, ular toʻliq ekvivalentga ega boʻlmasligi mumkin.

Tarjima jarayonida asosiy muammo – ekvivalentlik darajasini taʼminlashdir. Masalan, xitoychadagi “心花怒放” (xīn huā nù fàng – yuragi gullarga toʻlib ketdi) iborasini oʻzbekchaga oddiy “juda xursand boʻldi” tarzida tarjima qilish mumkin. Ammo bunday tarjima asl obrazlilikni va emotsional kuchni kamaytiradi. Shu sababli tarjimonda kontekstual moslikni saqlash, stilistik rang-baranglikni yoʻqotmaslik muhim hisoblanadi.

Oʻzbek tilidagi “koʻngil” konsepti keng semantik maydonga ega boʻlib, u ruhiy holat, qalb, ijtimoiy munosabatlarda muhim tushuncha sifatida qoʻllanadi. Xitoy tilida esa “心” (xīn – yurak) soʻzi oʻxshash vazifani bajaradi. Biroq, tarjimada bu ikki tushuncha har doim ham bir-biriga mos kelavermaydi. Masalan, “koʻngli ogʻrimoq” iborasi “心疼” (xīnténg – yuragi ogʻrimoq, achinmoq) bilan qisman mos kelsa-da, emotsional intensivlikda farq qiladi.

NATIJALAR

Emotsional leksika tarjimasida tarjimon koʻpincha pragmatik moslashuv strategiyasidan foydalanadi. Yaʼni, u asl matndagi emotsional kuchni saqlab qolish uchun ekvivalent boʻlmagan holatlarda sinonimik, metaforik yoki kompensator usullardan foydalanadi. Masalan, “bagʻri keng odam” iborasi xitoychada toʻgʻridan-toʻgʻri ekvivalentga ega emas, lekin “心胸宽广” (xīnxiōng kuān guǎng – yuragi keng, saxiy) orqali ifodalash mumkin.

XULOSA VA MUNOZARA

Emotsional leksikaning tarjimasida lingvokulturologik omillar hal qiluvchi rol oʻynaydi. Oʻzbek va xitoy tillari qiyosida shuni koʻrish mumkinki, har ikkala til his-tuygʻularni ifodalashda oʻziga xos obrazli vositalardan foydalanadi. Shu bois tarjimon nafaqat tilni, balki madaniyatni ham chuqur bilishi kerak. Emotsional leksikaning tarjimasida ekvivalentlik va adekvatlikni taʼminlash bilan birga, milliy madaniyatlararo muloqotni chuqurlashtirishga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 王力. 汉语语法理论. 北京: 商务印书馆, 2002.
2. 刘月华, 朱德熙. 现代汉语八百词. 北京: 商务印书馆, 1998.
3. 崔希亮. 语言与文化. 北京: 北京大学出版社, 2010.
4. X. H. Toʻxtaeva. Oʻzbek tilida koʻngil konsepti va uning badiiy matndagi ifodalanishi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
5. M. Мамажонов. Oʻzbek tili semantikasining nazariy asoslari. Toshkent: Universitet, 2010.
6. G. Lakoff, M. Johnson. Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press, 2003.
7. A. Wierzbicka. Emotions Across Languages and Cultures: Diversity and Universals. Cambridge: Cambridge University Press, 1999.

РОЛЬ ЦИФРОВЫХ РЕСУРСОВ В ПРЕПОДАВАНИИ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА (НА ПРИМЕРЕ ПЛАТФОРМЫ РКИ)

*Аверьянова Дарья Владимировна,
координатор международных проектов и развития платформы РКИ IPR MEDIA,
проектный офис РКИ компании IPR MEDIA,
dasaaveranova7@gmail.com*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17650737>

Аннотация: В статье рассматривается роль и дидактический потенциал цифровых образовательных ресурсов в преподавании русского языка как иностранного (РКИ), а также в формировании навыков самостоятельной работы студентов. На основе анализа актуальной научной литературы выявляются ключевые проблемы и вызовы цифровизации языкового образования. В качестве практического решения предлагается модель трансформации платформы РКИ из электронной библиотеки в многофункциональную интеллектуально-методическую среду, включающую конструкторы заданий, банк интерактивных рабочих листов и элементы геймификации.

Ключевые слова: русский язык как иностранный (РКИ), цифровые образовательные ресурсы (ЦОР), цифровая дидактика, образовательная платформа, интерактивные технологии, платформа РКИ.

THE ROLE OF DIGITAL RESOURCES IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING (ON THE EXAMPLE OF THE RKI PLATFORM)

*Averyanova Darya Vladimirovna
Coordinator of International Projects and Platform Development, RKI IPR MEDIA, Project Office of
RKI, IPR MEDIA E-mail: dasaaveranova7@gmail.com*

Abstract. The article examines the role and didactic potential of digital educational resources in teaching Russian as a Foreign Language (RFL), as well as in developing students' self-study skills. Based on an analysis of current academic literature, the key problems and challenges of the digitalization of language education have been identified. As a practical solution, a model for transforming the RFL platform from an e-library into a multifunctional intellectual and methodological environment is proposed, including task builders, a bank of interactive worksheets, and gamification elements.

Keywords: Russian as a Foreign Language (RFL), digital educational resources (DER), digital didactics, educational platform, interactive technologies, RFL platform.

Обоснование актуальности

Цифровая трансформация высшего образования, ускоренная глобальными вызовами, ставит перед методикой преподавания иностранных языков новые задачи. На сегодняшний день такие задачи ставятся и в сфере преподавания русского языка как иностранного (РКИ). Эффективность обучения во многом зависит от способности создать и поддерживать полноценную языковую среду, что особенно сложно вне зоны ее естественного функционирования. Цифровые инструменты призваны стать решением, моделируя эту среду и предоставляя преподавателю доступ к образовательным материалам.

Значимой проблемой также становится способность цифрового контента формировать у студентов навыки самостоятельного обучения. Современный студент должен уметь автоном-

но выстраивать свою образовательную траекторию, а платформа — предоставлять ему для этого необходимые инструменты.

Актуальность данного исследования обусловлена необходимостью преодолеть разрыв между наличием многочисленных разрозненных цифровых сервисов и отсутствием комплексных ресурсов, которые бы сочетали в себе верифицированный контент, интерактивные инструменты для его отработки и систему контроля самостоятельной работы.

Исследования по теме

Анализ современных научных публикаций показывает, что проблема использования цифровых ресурсов в РКИ активно исследуется в нескольких ключевых направлениях.

На сегодняшний день исследователи констатируют высокую востребованность и значительный дидактический потенциал цифровых ресурсов в сфере РКИ, отмечая при этом как их разнообразие (от онлайн-карт и электронных учебников до интерактивных досок и специализированных платформ и сообществ), так и ряд проблем: недостаточный уровень развития цифровых компетенций преподавателя [Стеценко 2023] и отсутствие комплексного научного исследования цифровых возможностей в практике преподавания РКИ [Худайбердиева 2023].

Многие отмечают эффективность инструментов для визуализации материала (инфографика, «облака» слов и т.д.), мультимедийных технологий, интерактивных заданий и игр [Бавбекова 2024], а также интеграции новейших технологий (AI, AR) [Ван Хэ 2023] как для повышения вовлеченности студентов в процесс обучения, так и для совершенствования форм контроля. В ряде исследований эффективность цифровизации находит эмпирическое подтверждение. Так, опрос П. Х. Альмурзаевой, проводившийся в 2022-2023 учебном году и охвативший 120 студентов, показал рост общего уровня владения иностранным языком на 23%, а коммуникативных навыков – на 18%, при систематическом применении цифровых технологий (мобильных приложений, онлайн-платформ, мультимедийных инструментов), выявив сильную корреляцию между интенсивностью их использования и прогрессом [Альмурзаева 2024]. Аналогично, Л. Р. [Сардалова 2024] на выборке из 524 студентов подтверждает значимое улучшение языковых компетенций при интеграции адаптивных платформ ($r=0,78$) в процесс обучения. Исследователь также подчёркивает критически важную роль уровня цифровой компетентности педагога и качества самих ресурсов.

Кроме того, отдельный пласт работ посвящен оптимизации самостоятельной работы студентов. Так, Н. В. Загуменникова рассматривает цифровые технологии как способ оптимизации обучения посредством интерактивности и автоматизации [Загуменникова 2023]. А М. В. Виноградова, исследуя технологии работы с цифровыми текстовыми материалами, говорит о существенной роли цифровых библиотек в формировании самостоятельной деятельности [Виноградова 2023].

Несмотря на то, что научное сообщество признает эффективность цифровых инструментов, большинство исследователей сходятся во мнении, что успех внедрения данных возможностей зависит от подготовки педагога и необходимости грамотного отбора ресурсов. Кроме того, многие исследования указывают на проблему фрагментарности: преподаватели вынуждены использовать множество разрозненных сервисов (один — для текстов, другой — для тестов, третий — для интерактива и т.д.). Выявлена острая потребность в единой, комплексной платформе, которая бы интегрировала контент, инструменты отработки и аналитику самостоятельной работы.

Пути решения проблемы (на примере платформы «РКИ»)

Решением выявленной проблемы фрагментарности и отсутствия исчерпывающего инструмента для преподавателя РКИ могут служить проектирование и расширение контентного и функционального наполнения образовательных ресурсов. В качестве прикладной модели рассмотрим запланированные этапы трансформации специализированной образовательной платформы группы компаний IPR – «РКИ».

Этап 1. Формирование контентного ядра (текущее состояние).

На первом этапе платформа решает задачу обеспечения доступа к качественным текстовым материалам. На данный момент платформа «РКИ» представляет собой крупнейшую уникальную коллекцию, включающую:

- более 700-800 учебных и научных изданий по РКИ;
- методические пособия по РКИ;
- структурированный лексический минимум в электронном формате;
- банк тестов (более 600) для контроля знаний.

Данная электронная библиотека служит мощным фундаментом, закрывающим потребность в верифицированном контенте, но еще не в полной мере отвечающая всем запросам преподавателя и студента.

Этап 2. Трансформация в интеллектуально-методическую среду (планы развития)

Настоящий этап направлен на внедрение исчерпывающего набора для подготовки и проведения уроков, а также формирование у студентов навыков самостоятельного обучения через следующие модули, находящиеся в разработке:

1. новая линейка пособий по РКИ, адаптированных под разные национальные группы;
2. банк интерактивных рабочих листов с функционалом автопроверки – готовые методические решения для преподавателя, которые студент также сможет выполнять самостоятельно в цифровом формате, что экономит время педагога на подготовку и обеспечивает унификацию процесса;
3. конструктор рабочих листов и интерактивных заданий – инструмент, позволяющий преподавателю создавать собственные интерактивные уроки и упражнения с автопроверкой, используя контент платформы или собственные материалы;
4. интеграции со сторонними ресурсами (Wordwall, LearningApps), позволяющие преподавателям задействовать уже имеющиеся личные наработки, не переходя на другие ресурсы;
5. игротека (геймификация) – внедрение игровых механик для повышения мотивации и вовлеченности студентов;
6. методические статьи и рекомендации с внедрением интерактивных элементов, отвечающие современным вызовам в сфере РКИ;
7. система наставничества и видеозвонки – функционал личных кабинетов, позволяющий отслеживать прогресс самостоятельной работы каждого студента и проводить уроки на платформе, используя имеющиеся на ней материалы и инструменты;
8. в долгосрочной перспективе внедрение AI-технологий – для адаптивного обучения и персонализации поисковых запросов.

Таким образом, платформа эволюционирует от модели «библиотеки» к модели «интерактивной образовательной среды».

Предложения и практические рекомендации

На основе проведенного анализа и описания модели платформы «РКИ» можно сформулировать ряд предложений и рекомендаций.

1. Рассматривать модель цифровой платформы (контент, интерактивные инструменты, аналитика, методическая поддержка) как наиболее перспективную для проектирования цифровых ресурсов в языковом образовании, в противовес модели разрозненных сервисов.
2. При внедрении цифровых технологий в преподавание РКИ отдавать предпочтение комплексным платформам, которые обеспечивают не только доступ к контенту, но и инструменты для создания собственных материалов и формирования навыков самостоятельной работы и контроля ее эффективности.
3. Смещать фокус методической работы с поиска цифровых инструментов на их интеграцию в учебный процесс. Использование конструкторов заданий на базе единой плат-

формы (как «РКИ») позволит не тратить время на техническую часть, а сосредоточиться на дидактическом наполнении, повышая собственную цифровую компетентность.

При этом за счет использования готовых методических решений, конструктора заданий и автоматизации прогнозируется значительное сокращение временных затрат преподавателей на подготовку к занятиям и проверку однотипных заданий. А повышение мотивации, вовлеченности и обеспечение эффективной самостоятельной работы обеспечит рост академической успеваемости иностранных студентов и, как следствие, снижение процента отсева по академическим причинам, что напрямую влияет на показатели конкурентоспособности вуза на международном образовательном рынке.

Литература

1. Альмурзаева П.Х. Экспериментальное исследование эффективности цифровых технологий в обучении иностранным языкам студентов российских вузов // *European Monthly Review*. 2024, №9.
2. Сардалова Л.Р. Инновационные подходы к обучению иностранным языкам в условиях цифровизации образования // *European Monthly Review*. 2024, №11.
3. Ван Хэ. Проблемы и перспективы преподавания РКИ в аспекте цифровой дидактики // *Научный аспект*. 2023. №4.
4. Стеценко А.В. Современные цифровые ресурсы в обучении русскому языку как иностранному // *Ученые записки Орловского государственного университета*. 2023. – с.325-329.
5. Худайбердиева Ф.Р. Роль цифровых технологий в обучении РКИ // *Iqtidor va Intellect*. 2025. №2.
6. Загуменникова Н.В. Цифровые технологии как способ оптимизации обучения русскому языку как иностранному // *Преподаватель XXI век*. 2023. №3. – с. 165-176.
7. Виноградова М.В. РКИ в условиях цифровой образовательной среды: технология работы с текстовыми материалами // *Ярославский педагогический вестник*. 2023. №3. – с. 98-104.
8. Бавбекова З.Р. Роль цифровых технологий в повышении эффективности обучения русскому языку как иностранному // *Science and Education Scientific Journal*. 2024. №5. – с. 355-359.

O'ZBEK VA QIRG'IZ TILLARIDAGI TILSHUNOSLIK TERMINLARINING O'QITILISHIGA DOIR NAZARIY QARASHLAR

Ubaydullayeva Maftuna

SamDU dotsenti, filologiya fanlari falsafa doktori(PhD)

maftunaubaydullayeva08@gmail.com

997413523

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17650681>

Annotatsiya. Termin tushunchasi tilshunoslikda alohida ahamiyat kasb etadi. Termin aniq bir soha yoki fan doirasida qo'llaniladigan, ma'nosi aniq belgilangan va bir xil tushinilishi lozim bo'lgan so'z yoki so'z birikmasidir. Terminlar fan tilining asosini tashkil etib, ilmiy fikrlarni aniq va lo'nda ifodalash imkonini beradi. Ushbu maqolamizda o'zbek va qirg'iz tillaridagi tilshunoslik terminlarining xususiyatlari, o'xshashlik va farqlari, ularni o'qitishda qo'llaniladigan pedagogik metodlar va texnologiyalar haqida nazariy qarashlarni yoritishga harakat qilganmiz.

Kalit so'zlar: termin, terminologiya, ilmiy terminlar, kasbiy terminlar, baynalminal terminal.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ПРЕПОДАВАНИЮ ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ В УЗБЕКСКОМ И КЫРГЫЗСКОМ ЯЗЫКАХ

Убайдуллаева Мафтуна

доцент Самгу, доктор философии (PhD) по филологии maftunaubaydullayeva08@gmail.com
997413523

Аннотация. Понятие термина приобретает особое значение в лингвистике. Термин-это слово или фраза, которые используются в определенной области или дисциплине, значение которых четко определено и должно пониматься одинаково. Термины составляют основу языка науки, позволяя четко и лаконично выражать научные мысли. Понятие термина приобретает особое значение в лингвистике. Термин-это слово или фраза, которые используются в определенной области или дисциплине, значение которых четко определено и должно пониматься одинаково. Термины составляют основу языка науки, позволяя четко и лаконично выражать научные мысли. В данной статье мы постарались осветить теоретические взгляды на особенности, сходства и различия языковых терминов узбекского и кыргызского языков, педагогические методы и технологии, применяемые при их обучении.

Ключевые слова: терминология, терминология, научные термины, профессиональные термины, международный терминал.

THEORETICAL APPROACHES TO TEACHING LINGUISTIC TERMINOLOGY IN UZBEK AND KYRGYZ LANGUAGES

Ubaydullaeva Maftuna

Associate Professor, SamSU, PhD in Philology
maftunaubaydullayeva08@gmail.com
997413523

The term is a word or a combination of words that are applied within a specific field or discipline, the meaning of which is clearly defined and should be understood the same. Terms form the basis of the language of science, making it possible to express scientific ideas clearly and succinctly. The concept of the term is of particular importance in linguistics. The term is a word or a combination of words that are applied within a specific field or discipline, the meaning of which is clearly defined and should be understood the same. Terms form the basis of the language of science, making it possible to express scientific ideas clearly and succinctly. In this article, we tried to shed light on theoretical views on the features, similarities and differences of linguistic terms in the Uzbek and Kyrgyz languages, pedagogical methods and technologies used in their teaching.

Keywords: term, terminology, scientific terms, professional terms, International terminal.

XX asrdan boshlab tilshunoslikda terminologiya alohida fan sifatida shakllana boshlagan. Bunda Vena maktabi vakillari, ayniqsa olim Eyger Vyusterning xizmatlari kattadir. Asrning 30-yillarida Praga lingvistik maktabi vakillari ham terminologiyaning ilmiy asoslarini yaratishda salmoqli hissa qo'shganlar. Xudd shu yillarda Eyger Vyuster "Terminologiyaning xalqaro standartlashtirish" asoslarini yaratib chiqdi. 1940-1960 yillarda o'zbek va qirg'iz tillarida birinchi terminologik lug'atlar tuzildi. Tilshunoslik terminlari tizimli o'rganila boshlandi. 1970-1990 yillar kelib esa, milliy terminologiya maktablari shakllandi. O'zbek va qirg'iz tillarida terminologik lug'atlar ko'paydi. Asrimizning 2000-yilidan boshlab, to hozirgi kungacha kompyuter terminologiyasi, yangi lingvistik yo'nalishlar bilan bog'liq terminlar paydo bo'la boshladi. Xalqaro standartlarga moslashuv jarayoni kuchaydi.

O'zbek va qirg'iz tilshunosligida terminologiyaning o'ziga xos rivojlanish yo'li bor bo'lib, turkiy tillar oilasiga mansub bu tillarda terminlar shakllanishida tarixiy, madaniy va ijtimoiy omillar muhim ahamiyatga egadir. Ikkala tilda ham terminologiya sohasidagi tadqiqotlar XX asrning 40-yillaridan faollashgan bo'lsa-da, mustaqilik davrida bu soha yangi bosqichga ko'tarildi. Natijada esa milliy terminologiya tamoyillari qayta ko'rib chiqildi. "Termin ma'lum bir tilga xos yoki baynalminal bo'lishi mumkin. Masalan, tilshunosligimizda *gap kengaytiruvchi*, *gap markazi* atamaları faqat o'zbek tiliga xos, *atom*, *vadarod*, *natriy*, *leksema*, *semema* atamaları esa baynalminal. Baynalminal atamani tarjima qilishga, ularga muqobil variant qidirishga urinish maqul emas"[1.-B.148]. O'zbek tilida tilshunoslik terminlari morfologik va semantik jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Terminlar ham tuzilishiga ko'ra sodda, qo'shma, juft va birikmali bo'lishi mumkin. Masalan: "*gap*" termini sodda, "*so'z birikmasi*" termini qo'shma, "*ot-fe'l*" termini juft. O'zbek tilida terminlar shakllanishining asosiy usullari quyidagilardan iborat: 1) umumxalq so'zlarining terminlashishi. Mavjud so'zlar ma'nosining torayishi yoki kengayishi orqali terminlarga aylanishi. Masalan, "ildiz"(umumxalq ishlatadigan so'z) – "ildiz" (matematikada qo'llaniladigan termin). O'zbek tilida so'z yasovchi qo'shimchalar yordamida yangi terminlar hosil qilinadi. Masalan: -ish,-ma,-chi,-dosh,-lik qo'shimchalari orqali *boglovchi*, *sifatdosh*, *egalik* kabi terminlar hosil qilinadi. Chet tillardan o'zlashtirilgan terminlar: *morfema*, *sintaksis*, *leksikologiya*, *sinonim*. Bu kabi terminlar ko'p hollarda xalqaro ahamiyatga egadir. Chet tilidagi terminlarni o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qilish kalkalash usuli deyiladi. Masalan: *ko'pma'nolilik* (*polisemiya*), *olmosh* (*mestomeniye*).

O'zbek tilida terminlarni o'qitishda yuzaga keladigan asosiy muammolardan biri – arab, fors, rus va ingliz tillaridan o'zlashgan terminlarning ko'pligi. Bu esa o'qitish jarayonida terminlarning etimologiyasi va ma'no xususiyatlarini tushuntirishni taqozo etadi. Shuningdek, ba'zi yangi yaratilgan terminlarning ilmiy jamoatchilik tomonidan to'liq qabul qilinmasligi ham muammoli holatlarni keltirib chiqarmoqda. Qirg'iz tilida terminologiyaning rivojlanish yo'li o'ziga xos tarixiy jarayonlarni o'z ichiga oladi. XX asrning 30-yillarida Qasim Tanistanov boshchiligidagi qirg'iz tilshunoslik terminologiyasining ilk poydevori yaratildi. Keyinchalik, Konstantin Yudaxin va Bolot Yunusaliyev kabi olimlar bu sohada tadqiqotlarni davom ettirdilar. Qirg'iz tilida terminlarni yaratish va qabul qilish jarayoni quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilgan. 1. An'anaviy usullar: a) *xalq tilida mavjud so'zlarni terminlashtirish*; b) *qirg'iz tilidagi so'z yasash qoliplari asosida yangi terminlar hosil qilish*; d) *rus tili orqali xalqaro terminlarni o'zlashtirish*. 2. Zamonaviy yondashuvlar: a) *to'g'ridan to'g'ri g'arb tillaridan (asosan ingliz tilidan) terminlarni o'zlashtirish*; b) *kompyuter lingvistikasi kabi yangi sohalarida terminlarni standartlashtirish*; d) *turkiy tillarning umumiy leksik fondidan foydalanish*.

Ta'lim jarayonida qirg'iz tilida terminlarni o'rgatishdagi qiyinchiliklar orasida quyidagilar alohida ajralib turadi. Qirg'iz tilidagi tilshunoslik terminlarini o'qitishdagi asosiy muammolar quyidagilardir: a) *ba'zi terminlarning bir necha variantlari mavjudligi va ularning parallel qo'llanilishi*; b) *terminlarning standartlashtirilmagan qo'llanilishi va darsliklar o'rtasidagi nomutanosiblik*; d) *zamonaviy lingvistik yo'nalishlar uchun qirg'iz tilidagi ekvivalent terminlarning yetishmasligi*; qirg'iz tilini ikkinchi til sifatida o'rganuvchilar uchun terminlarni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar.

Bugungi kunda qirg'iz tili terminologiyasini rivojlantirish va o'qitish samaradorligini oshirish maqsadida Qirg'iziston Respublikasi Milliy ilmlar akademiyasi qoshidagi Til va adabiyot instituti tomonidan yangi terminologik lug'atlar va o'quv qo'llanmalar yaratilmoqda. Turkiy tillar oilasining qarluq va qipchoq guruhlariga kiruvchi o'zbek va qirg'iz tillari terminologiyasi orasida ma'lum o'xshashliklar va farqlar mavjuddir. K.V. Mirzaxmedova o'z tadqiqotlarida har ikkala til terminologiyasining tarixiy va madaniy aloqalari chuqur ekanligini ta'kidlab o'tgan. "Термин деп илимдин, техниканын, искусствонун, чарбанын жана экономиканын жана башкалардын тармактарына тиешелүү атайын түшүнүктөрдү так атоо үчүн колдонулган сөздү же сөз айкашын айтабыз. Терминдер көп маанилүүлүктүн, өтмө маанилүүлүктүн, экспрессивдүүлүктүн жоктугу менен термин эмес сөздөрдөн, ошонун ичинде профессионалдык лексикадан да айырмаланат.

Тактап айтканда, бир илимдиже техниканын тармагындагы бир термин бир гана түшүнүктү туюнтуп, бир гана маанилүү болушу керек [2. – В.147].” O‘zbek va qirg‘iz terminologiyasidagi o‘xshashliklar quyidagilardan iborat: *turkiy asosli umumiy terminlar, arab-fors tillaridan o‘zlashgan terminlar, so‘z yasaliş qoliplari*. Bu ikki tildagi terminlarda farqli jihatlar ham mavjud: *fonetik o‘zgarishlar, morfologik xususiyatlar, rus tilidan o‘zlashgan farqlar*.

Terminlarning ta‘lim jarayoniga ham ta‘siri bor bo‘lib, ular quyidagilardan iboratdir: *interferensiya hodisasi, terminlarni tushunish darajasi, o‘qitish metodikasidagi farqlar*. Shuningdek, tilshunoslikka oid terminlarning globallashuvga ham ta‘siri o‘ziga xos bo‘lib, ular quyidagilardir: *xalqaro terminlarni o‘zlashtirish, yangi terminlar yaratish, milliy terminlar yaratish*. Terminlar o‘rtasidagi semantik farqlar va ularning ta‘lim jarayoniga ta‘siri jiddiy o‘rganishni talab qiladi. Ba‘zi hollarda bir xil yoziluvchi so‘zlar ikki tilda turli ma‘nolarni ifodalashi mumkin, bu esa chalkashliklar keltirib chiqaradi. Quyida har ikki tildagi tilshunoslikka doir terminlarning nomlanishidagi farqlarni ko‘rib o‘tamiz.

<i>Termin</i>	<i>O‘zbek tilidagi ma‘nosi</i>	<i>Qirg‘iz tilidagi ma‘nosi</i>
Tuzilish	Grammatik struktura	Faqat sintaktik qurilma
Qo‘shimcha	Barcha affikslar	Asosan so‘z yasovchi affikslar
Olmosh	Ot o‘rnida qo‘llaniladigan so‘z	Jaktaa atamasi ko‘proq qo‘llaniladi.
Kelishik	Olti kelishik tizimi	Yetti kelishik tizimi

Umumiy so‘zlar va terminlarning ikki tildagi farqli ishlatilishi o‘qituvchilar uchun muhim muammo hisoblanadi. Bunday hollarda ikki tilli terminologik lug‘atlar va qiyosiy o‘quv qo‘llanmalar katta ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, o‘qitish jarayonida terminlar orasidagi farqlarni alohida ko‘rsatib o‘tish va bu farqlarning kelib chiqish sabablarini tushuntirish lozim bo‘ladi. Hozirgi kunda zamonaviy ta‘lim tizimida tilshunoslik terminlarini o‘qitish jarayonini innovatsion metodlar va texnologiyalar yordamida samarali tashkil etish alohida ahamiyat kasb etmoqda. A.Qarshiboyeva ta’kidlaganidek, “terminologiya o‘qitishda an’anaviy metodlardan tashqari interaktiv usullardan foydalanish o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va terminlarni uzoq muddat xotirada saqlashga yordam beradi”. Terminologiya mavzusini o‘qitishda quyidagi zamonaviy metod va usullardan foydalanish yaxshi samara beradi.

1. Innovatsion metodlar va didaktik o‘yinlar. Bunda terminlarni o‘rgatishda qo‘llaniladigan zamonaviy didaktik o‘yinlar va metodlar nazarda tutiladi.
2. Terminologik klaster. O‘quvchilar berilgan terminlar atrofida semantik aloqador so‘zlar tarmog‘ini yaratadi.
3. Termin kartochkalari. Terminlar va ularning izohlarini juftlashtirish orqali terminlarni o‘rganish.
4. Terminologik kahot. Interaktiv savollar orqali o‘quvchilarning bilimlarini tekshirish va mustahkamlash.
5. Semantik xarita. Terminlar orasidagi aloqadorlikni ko‘rsatuvchi visual sxemalar yaratish.

Bu kabi usul va metodlardan tashqari o‘zbek va qirg‘iz tillarida terminlarni o‘rgatishda interaktiv texnologiyalarning yangicha turlari ishlab chiqilmoqda. Har ikki til uchun ham umumiy bo‘lgan metodlarlar:

1. Quizlet – terminlar kartochkalari va testlar yaratish uchun platforma.
2. Padlet – kollaborativ terminologik tadqiqotlar uchun virtual devor.
3. Terminologik infografikalar – murakkab terminologik tizimlarni vizuallashtirish.
4. VR/AR ilovalar – tilshunoslik tushunchalarini virtual muhitda namoyish etish.
5. Terminologik korpus tadqiqotlari – terminlarning real kontekstda qo‘llanilishini o‘rganish.

Tilshunoslik terminlarini o'qitish bo'yicha respublikamizda qator ilg'or tajribalar to'plangan. Bu borada Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universitetida 2024-yilda o'tkazilgan tajribalar alohida e'tiborga loyiqdir. Universitet o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqilgan "Tilshunoslik terminlarini o'qitishning innovatsion usullari" nomli o'quv-uslubiy qo'llanmasi keng qo'llanilmoqda. Bu kabi tajribalar doirasida quyidagi samarali metodlar aniqlangan:

1-bosqich. *Terminologik tanlash*. O'rganilayotgan mavzu doirasidagi asosiy terminlarni aniqlash va ularni semantik guruhlariga ajratish.

2-bosqich. *Tahlil va tavsiflash*. Har bir terminning etimologiyasi, tuzilishi va qo'llanilish doirasini aniqlash.

3-bosqich. *Vizuallashtirish*. Terminlar o'rtasidagi munosabatlarni sxemalar, jadvallar va boshqa vizual vositalar orqali ko'rsatish.

4-bosqich. *Amaliy qo'llash*. Terminlarni matnlarda toppish, tahlil qilish va o'zi mustaqil qo'llash orqali mustahkamlash.

Qirg'iz tilida tilshunoslik terminlarini o'qitish bo'yicha so'nggi ilmiy loyihalar orasida Qirg'iz Respublikasi ta'lim va fan vazirligi tomonidan 2023-yilda ishga tushirilgan "Zamonaviy qirg'iz tili terminologiyasi" loyihasi alohida ahamiyatga ega. Bu loyiha doirasida quyidagicha yo'nalishlar ishlab chiqilgan:

O'quv resurslari doirasi qirg'iz tilshunoslik terminlarining elektron lug'ati yaratildi, multimedia o'quv qo'llanmalari ishlab chiqildi, o'qituvchilar uchun metodik tavsiyalar tayyorlandi.

O'qitish metodikasi doirasida mobil ilovalar orqali terminlarni o'rganish, terminologik o'yinlar to'plami, masofaviy ta'lim kurslari ishlab chiqildi.

Samaradorlik ko'rsatkichlari doirasida talabalar terminlarni o'zlashtirish darajasi 35% ga oshdi, o'qituvchilar malakasi sezilarli darajada yaxshilandi, o'quv jarayonida vaqt samaradorligi 25% ga oshdi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'zbek va qirg'iz tilshunoslik terminlarini o'qitish nafaqat lingvistik bilimlarni egallash, balki milliy til rivojiga ham hissa qo'shish imkonini beradi. Terminologiya sohasidagi tadqiqotlar ko'rsatishicha, tilshunoslik terminlarini o'rganish orqali o'quvchilar til tizimini chuqurroq anglash ilmiy matnlarni tushunish va tuzish, shuningdek, tilni o'rganish jarayonida analitik ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'zbek va qirg'iz tillaridagi tilshunoslik terminlarini o'qitish jarayonini takomillashtirish, yangi metodlar va texnologiyalarni joriy etish, terminologiya sohasida ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish milliy tillarning ilmiy salohiyatini oshirish, samarali ilmiy kommunikatsiyani ta'minlash va ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Bu sohadagi izlanishlar davom ettirilishi va amaliy natijalarga erishilishi lozimdir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. R.R. Sayfullayeva, B.R.Mengliyev, M.M.Qurbonova, L.R.Raupova M.Q. Abuzalova, D.N.Yo'ldosheva. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent. "Tafakkur avlodi" nashriyoti. 2023. – B.148.
2. Б. Орзубекова, А. Турсунов, Ж. Сидиков, А. Акматалиев, С. Мусаев Т. Садиков. Азыркы кыргыз адабий тили. – Бишкек. "Avrasya press", 2009. – Б. 147.
3. . Mahmudov N. (2012). Looking for ways to perfect the language. University of Uzbek Language and Literature.
4. 2. Ter-Minasova S.G. (2000) Language and intercultural communication. Moscow State University.
5. 3. Mirtojiev M., Mahmudov N. (1992). Language and culture. State National University of Uzbekistan.
6. 4. Karimov N. (2011) New horizons of literary communication and artistic translation // Uzbek Language and Literature University.
7. 5. Humboldt V. Selected works on linguistics. Moscow State university.

Yuldosheva Saodat Azizovna,

*Samarqand davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti
yoldosheva.a@gmail.com*

Baxtiyorova Munavvar Baxtiyorovna

*Oriental universiteti Samarqand kompasi
Uzluksiz ta'lim pedagogikasi kafedrası o'qituvchisi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17650707>

Annotatsiya. Maqolada raqamli texnologiya va ularning insonlar hayotida tutgan o'rni, bolalarning rivojlanishiga ta'siri, raqamli texnologiyalarning ijobiy va salbiy tomonlari, oilalarda raqamli madaniyat tushunchasini rivojlantirish ko'nikmasi, bolalarda raqamli savodxonlik malakasini rivojlantirish kabi bir qator masalalar yuzasidan fikr-mulohazalar bildirilgan. Nazariy va amaliy ko'rsatkichlar asosida yakuniy xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, raqamlashtirish, innovatsion texnologiyalar, ta'lim tizimi, raqamli transformatsiya, ta'limda samaradorlik.

Аннотация. В статье представлены мнения по ряду вопросов, таких как цифровые технологии и их роль в жизни человека, их влияние на развитие детей, положительные и отрицательные стороны цифровых технологий, развитие цифровой культуры в семьях и развитие навыков цифровой грамотности у детей. Заключительные выводы сделаны на основе теоретических и практических показателей.

Ключевые слова: цифровые технологии, цифровизация, инновационные технологии, система образования, цифровая трансформация, эффективность в образовании.

FAMILY AND CHILD EDUCATION IN THE ENVIRONMENT OF DIGITAL TECHNOLOGIES

Yuldosheva Saodat Azizovna

*Associate Professor, Department of Uzbek Language and Literature,
Samarkand State Pedagogical Institute
yoldosheva.a@gmail.com*

Baxtiyorova Munavvar Baxtiyorovna

*Lecturer, Department of Continuing Education Pedagogy,
Oriental University, Samarkand Campus*

Abstract. The article presents opinions on a number of issues, such as digital technologies and their role in human life, their impact on children's development, the positive and negative aspects of digital technologies, the development of digital culture in families, and the development of digital literacy skills in children. Final conclusions are given based on theoretical and practical indicators.

Keywords: digital technologies, digitalization, innovative technologies, education system, digital transformation, effectiveness in education.

Kirish

Bugungi kunda mamlakatimizda inson shaxsining rivojlanishi borasida ulkan islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, raqamli texnologiyalarning ta'lim tizimiga joriy etilishi davrimizning dolzarb masalalaridan biriga aylanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida ta'limda raqamlashtirish siyosati yanada jadallashdi. Bu jarayon, shubhasiz, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy hayot bilan bir qatorda, oilaning ichki muhitiga va bola tarbiyasiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, mamlakatimiz kelajagi va ravnaqida muhim o'rin tutadigan oila va bolalar tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha xohish-irodasini ro'yobga chiqarish; har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarini yaratish; sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash; global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish; adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlash rivojlanayotgan yurtimizning asosiy strategiyalaridan biridir. Bu strategiyalar doirasida O'zbekistonda raqamli infratuzilma kengaymoqda. Raqamli texnologiyalar oilaviy hayot va bolalar tarbiyasiga chuqur kirib kelmoqda. Raqamli vositalar yordamida ota-onalar bolalar bilan o'zaro muloqotni mustahkamlash, ta'limiy resurslarga erkin kirish, bola rivojlanishini nazorat qilish imkoniga ega bo'lishmoqda. Shu bilan birga, raqamli muhit noto'g'ri foydalanilganda, bolalarda ijtimoiy izolyatsiya, intellektual passivlik va ruhiy muammolarni ham yuzaga keltirishi mumkin.

Raqamli vositalar – internet, mobil ilovalar, planshet va smartfonlar – bolalar tarbiyasining mazmuni va shakliga yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Oilada ushbu vositalarning noto'g'ri yoki nazoratsiz qo'llanilishi bolaning ijtimoiy-psixologik rivojlanishida bir qator muammolarga sabab bo'lmoqda (Abduganiyeva, 2024) [20]. Jumladan, oilaviy muloqotning kamayishi, bolalarda raqamli qaramlik, hissiy sovuqqonik va tajovuzkorlik holatlarining ortishi kuzatilmoqda [23].

Ayni vaqtda O'zbekistonda ko'plab 3 yoshgacha, maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar turli raqamli qurilmalardan foydalanmoqda, ammo ota-onalarning aksariyati bu vositalarning pedagogik va psixologik ta'siri haqida yetarli bilimga ega emas (Yulchiyeva, 2023) [22]. Shu sababli, oilada raqamli muhitda tarbiyaning zamonaviy yondashuvlarini o'rganish, imkoniyat va tahdidlarni aniqlash hamda innovatsion yechimlarni ishlab chiqish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Ushbu kichik tadqiqotimizning maqsadi – raqamli texnologiyaning oilaviy tarbiya jarayoniga ta'sirini tahlil qilish, yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga xizmat qiladigan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Shuningdek, maqolada raqamli muhitda oila va bola tarbiyasining ijobiy va salbiy jihatlari, shuningdek, samarali strategiyalar tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

2023-2025-yillarda O'zbekistonda chop etilgan oila va bolalar tarbiyasi, raqamli texnologiyalar sohasidagi ilmiy maqolalar atroflicha o'rganib chiqildi. Jumladan, Adashova (2025) oilaviy muhit va bolalar xulq-atvori munosabatlarini o'rgangan tadqiqoti [23], Axmedova (2024) oilaning psixologik iqlimi va farzandlar tarbiyasi o'rni [24], ilmiy markazlarda chop etilgan maqolalardagi oila ichidagi ma'naviy-axloqiy tarbiya muammolari, shuningdek, O'zbekistonda raqamli texnologiyalarning afzalliklari va cheklavlari (Safar Mustafoulov, 2025) [25] ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning roli va raqamli savodxonlik (Aliyeva va Rasulova, 2025) [26], oliy ta'lim va maktab darajasida raqamli texnologiyalarning joriy etish usullari (Dushabayev, 2024) [1] kabi ilmiy izlanishlar o'rganib chiqildi va tahlil doirasiga tortildi.

Manbalarga tayangan holda "SWOT tahlil" metodi asosida ta'lim tizimida raqamlashtirishning kuchli va zaif tomonlari, mavjud imkoniyatlar hamda tahdidlar aniqlandi.

"**SWOT tahlil**" orqali "kuchli" tarafda davlat tomonidan raqamli islohotlarga e'tibor va yoshlarning texnologiyaga qiziqishi, "zaif" tarafda esa ayrim hududlarda internet infratuzilmasining sustligi keltirib o'tildi.

SWOT tahlil

KUCHLI TOMON	ZAIF TOMON
1) raqamli texnologiya orqali ta'lim resurslaridan keng foydalanish (onlayn darslar, ilovalar, til o'rganish imkoniyatlari); 2) bola uchun qiziq va interaktiv o'yin muhitini yaratish, IT va roboto-texnikasini rivojlantirish (Screch, Khan akademiyasi); 3) raqamli vositalar yordamida bolalarning mustaqil o'rganish qobiliyatini yoshlikdan rag'batlantirish (duolingo, mathgame); 4) kelajak kasblari doirasida har bir shaxs imkoniyatlarini tahlil qila bilishi, o'z ustida ishlashi va masofadan turib o'qishi, kunning istalgan qismidan unumli foydalanish, vaqt tejamkorligi (Ibrat academy, qizlar akademiyasi, Ustoz AI); 5) uydan chiqmagan holda ishlash, o'qish, ijod qilish, pul topish, sayohatga chiqish imkoniyati mavjud; 6) uzoqdagi yaqinlar bilan masofaning onlayn yaqinligi (chatlar, video-qo'ng'iroqlar)ni ta'minlash.	1) ota-onalarning aksariyat qismining raqamli texnologiyalardan foydalanish-da yetarlicha bilim va ko'nikmalarning yetishmasligi; 2) ota-ona va bola o'rtasida jonli muloqotning kamayishi hamda bolalarda odamovilik, odamlardan uzoqlashish holati kuzatilishi, kirishimlilik va amaliy tajribalarning susayishi; 3) oflayn (tabiiy) muloqotning kamayishi, nutqda nuqsonlarning paydo bo'lishi; 4) ekran oldida keragidan ko'p bo'lish oqibatida jismoniy salomatlikka jiddiy zarar yetishi, ko'z, asab va harakat faoliyatiga salbiy ta'siri, nurlanish ehtimolining ortishi; 5) raqamli vositalarda zo'ravonlik, buzg'unchi kontentlarga, salbiy g'oylarga duch kelish xavfi.
IMKONIYAT	TAHDID
1) ota-onalar va pedagoglar uchun maxsus raqamli ta'lim-tarbiya platformalari yaratish imkoniyati; 2) raqamli savodxonlik bo'yicha oilaviy seminar-treninglar tashkil etish, ushbu texnologiyalardan to'g'ri, unumli va samarali foydalanish madaniyatini shakllantirish; 3) raqamli texnologiyalardan foydalanish reglamenti va unumli foydalanish texnikasini ishlab chiqish, bolalarning yoshiga mos reglament qoidalarini yaratish; 4) bolalarning yoshiga mos interaktiv ilovalar ishlab chiqish; 5) bolalarni milliy qadriyatlarga chorlaydigan, ularning ongi va ruhiyatiga ijobiy ta'sir qiladigan milliy kontentlarni ko'paytirish; 6) kontentlarni nazorat qiladigan platformalarni ishlab chiqish.	1) Barcha yoshdagi insonlarda raqamli texnologiyalarga qaramlikning rivojlanish xavfi ortishi; 2) internetdagi nomaqbul kontent bolalarga salbiy axloqiy ta'sir ko'rsatishi; 3) raqamli vositalar ta'sirida oilaviy va ijtimoiy muhitning salbiy tomonga o'zgarishi xavfi; 4) bolani qarovsiz qoldirish oqibatida o'zini nazorat qila olmasligi, ba'zi hollarda bolaning imkoniyatlarini cheklash xavfi; 5) bolalarda raqamli texnologiyalardan foydalanishni kuchli istagi oqibatida salbiy odatlarning shakllanishi (o'jarlik yolg'onchilik, o'g'irlilik) 6) raqamli texnologiyalar vositasida olinadigan axborotlarning cheksizligi va ularni maqsadsiz (ba'zida maqsaddan og'ishgan) holda ko'zdan kechirganda tahlil, analiz qila bilmay, vaqtini behuda va samarasiz o'tkazish.


Izlanish davomida Google Formsda 100 nafardan ortiq respondent orasida so'rovnoma o'tkazildi. Maqsad – ota-onalar farzandlarining internetdan foydalanish odatlari va nazorati haqida fikrlarini aniqlash bo'lib, bu orqali raqamli texnologiyalarning bola va oila tarbiyasiga ko'rsatadigan ta'sirini o'rganish edi. So'rovnoma anonim bo'lib, ko'ngilli ishtirokchilarga 10ta savol (2tasi oddiy, 8tasi asosiy) berildi.

Ishtirokchilarning soni 113 nafarni tashkil etdi, shundan 20-30 yoshdagilar – 24,8%, 31-40 yoshlilar 58,4 %, 41-50 yoshlilar 15 % ni tashkil etdi.

Farzandingiz internetdan kuniga taxminan qancha vaqt foydalanadi degan savolga 30,4% ota-onalar 0-30 daqiqa, 20,5% esa 2 soatdan ko'p deb belgilashgan. Bundan ko'rinib turibdiki, oilalarimizda raqamli vositalardan foydalanish madaniyati izga tushmoqda. So'rovnomada qatnashgan ota-onalarning 36,3% farzandi internetda multfilm ko'rishini, 18,6% o'yin o'ynashini, 20,4% online darslar qilishini, 15,9% youtube, Instagram tomosha qilishini aytib o'tganlar. Bu ko'rsatkich bir qarashda jiddiy ko'rinmasa-da, ammo bolalar internetda ta'lim va tarbiyasiga ta'sir qiluvchi nimalarni ko'rish, kattalar nazorati ostida va ularning texnikalardan qanday foydalanayotgani mavhum bo'lib qolmoqda. Internetdagi kontentlarni nazorat qilasizmi, degan savolga 54,9% kishi "ha" deb, 33,6% "ba'zida", 8,8% "yo'q" deb javob bergan. Bundan ko'rinib turibdiki, ota-onalar raqamli texnologiyalarning ijobiy va salbiy tomonlari haqida ancha xavotirda va savodxonlik darajasi ham oshib bormoqda.

7. Internet vositalari farzandingiz ta'lim va tarbiyasida sizga yordam beryaptimi?


113 ответов



7-savolimizda ko'rib turganingizdek, 54,9% ota-onalar internet vositalari qisman farzandiga ta'lim-tarbiya berayotganini ko'rsatmoqda. Bu esa hali ham raqamli vositalardan foydalanishda qisman bilimlarning yetishmasligi, sifatli milliy kontentlarni ko'paytrish va raqamli texnologiyalardan foydalanish madaniyatini targ'ib qilishni anglatadi.

8. Farzandingiz internetdagi ma'lumotlardan salbiy ta'sir ko'rgan deb hisoblaysizmi?


113 ответов



Bu savolimizda esa katta xavf mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Bu kattalar tomonidan xavotir borligini ko'rsatmoqda. Bolalarning aqliy, jismoniy, ruhiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotligini anglatadi va bu xavfning oldini olish uchun aksariyat ota-onalarda yetarli savodxonlik yo'llari topilmayotganini bildiradi.

10. O'zbek tilida sifatli ta'limiy va tarbiyaviy ilovalar va videolar yetarli deb hisoblaysizmi?

112 ответов



So'rovnoma natijasiga ko'ra ota-onalarning 58% o'zbek tilida sifatli, yoshga mos **ta'limiy ilovalar va videolar yetishmasligini** aytib o'tishgan. Bu holat esa bolalarning internetda asosan chet tilidagi yoki nazoratsiz kontentlarni ko'rishiga sabab bo'layotganini anglatadi. Bundan tashqari, ota-onalarda ham raqamli texnologiyalardan foydalanish madaniyati yetarlicha shakllanmaganini bildiradi. So'rovnoma va izlanishlar natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar oilaviy hayotda va, ayniqsa, bola rivojlanishida, ta'lim-tarbiyasida sezilarli o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Ota-onalarning aksariyat qismi internet va raqamli qurilmalar orqali bola uchun

ta'limiy imkoniyatlar mavjudligini, undan unumli foydalanayotganini aytib o'tsalar-da, lekin shu imkoniyatlar bilan birga jiddiy tahdidlar, xavf va qaramlik ham borligini tan olishmoqda.

Bola kun davomida raqamli texnologiyalar qarshisida o'tkazayotgan vaqtining umuman nazoratsiz ekanligi ota-onalarning bugungi kundagi dolzarb muammosi sifatida ko'rsatildi. Bu esa tadqiqot natijalari Qurbonova (2023) [3] tomonidan olib borilgan ishlar bilan mos tushishini, unda raqamli texnologiyalardan me'yoridan ortiq ishlatilishi bolalarda ruhiy charchoq, giperaktivlik va uyqusizlikka olib kelishi ko'rsatilgan. So'rovnomada ishtirokchilarning 75% aynan shu holatni muammo deb bilgan.

O'zbek tilidagi sifatli ta'limiy ilova, bolalarga mos kontent va videodarslarning yetishmasligi ota-onalarni chet tilidagi kontentlardan foydalanishga majbur qilmoqda. Ayrim hollarda til o'g'atish maqsad qilingan bo'lib chiqmoda. Bu esa hali to'la shakllanmagan bolalar begona madaniyatning erta bosqichda singdirilishiga, til aralashuviga, qadriyatlar krizisiga sabab bo'lmoqda. Oqibatda bola o'z nutqini yo'qotishigacha olib kelmoqda. D.Yulchiyevanin [2] fikricha, bu yosh avlod rivojlanishida raqamli globallashuvning eng sezilarli tahdidlaridan biri hisoblanadi.

Muhokama.

Tadqiqotimizda aniqlanishicha, ota-onalarning aksariyat qismi raqamli xavfsizlik haqida umumiy tasavvur va ma'lumotga ega bo'lsa-da, lekin amaliy chora ko'rmagan. Bu holat A.Dushabayev (2024) [1] tomonidan o'rganilgan pedagogik yondashuvlar bilan deyarli hamohangdir. Ya'ni, oilalarda yetarlicha raqamli texnologiyalarga oid savodxonlik darajasi, raqamli vositalardan to'g'ri va unumli foydalanish darajasi past bo'lishi bolalarning bevosita xavf ostida qolishiga sabab bo'lmoqda. Shu sababli ota-onalarga maxsus treninglar, amaliy qo'llanmalar va bolalar uchun nazorat qilinadigan kontent platformalarini kengroq tatbiq etish taklif etiladi.

Ishtirokchilarning faqat kichik qismi (20%) raqamli texnologiyalarni qo'llashda vaqt nazorati yoki kontent filtrlovchi ilovalar haqida bilib, ularni amalda qo'llab kelayotganini aytishgan. Bu esa raqamli globallashub jarayonida mavjud texnologik imkoniyatlardan foydalanish ko'nikmasining yetarli emasligini ko'rsatadi. Shu sababli, raqamli texnologiyalar uchun **innovatsion yondashuvlarni ommalashtirish, o'zbek tilida sifatli kontentlarni, ayniqsa, bolalar uchun kerakli, bilim beruvchi, hayotga tayyorlovchi multfilm, ilovalar, platformalarni yaratish, ota-onalarda raqamli madaniyat ko'nikmasini shakllantirish** dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda raqamli texnologiyalar muhitida oila mustahkamligi va bolalar ta'lim-tarbiyasi dolzarb muammo bo'lib turibdi. Agar bu borada me'yor va metodikalarga amal qilinmasa, raqamli texnologiyalar salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, raqamli texnologiyalardan foydalanish madaniyatini shakllantirish muhim. Yoshlar ishlari agentligi tomonidan yaratilayotgan bir qator platformalar "Bek va Lola", "Ibrat academy", "Mutolaa" kabi milliy kontentlarni ko'paytirish, bolalarning rivojlanishiga to'sqinlik qilmaydigan "Scratch", "Khan Academy", "Khan Kids", "Duolingo", "Math Game" kabi ilovalardan samarali va me'yorida foydalanish metodikasini ota-onalarga yetkazish, "TetapoyaTV" kabi **youtube** kanallar orqali ota-onalarga ilmiy asosda bilim berishga yo'naltirish, individual rivojlanishga xizmat qiluvchi o'yinlarni targ'ib qilish maqsadga muvofiq.

Xulosa.

Raqamli texnologiyalar zamonaviy oilalarning ajralmas qismiga aylangan bo'lsa-da, bu jarayon oila mustahkamligi va farzand tarbiyasida tizimli, pedagogik va axloqiy nazorat asosida olib borilmasa, salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ota-onalar raqamli vositalar orqali ta'limiy va rivojlantiruvchi imkoniyatlarga ega bo'layotgan bo'lsa-da, shu bilan birga bolalar salomatligi, axloqiy rivoji va ijtimoiy xulq-atvorida salbiy ta'sirlar kuzatilmoqda. Shuning uchun raqamli vositalarning **imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, tahdidlarni kamaytirish va innovatsion yechimlarni yo'lga qo'yish** zarur. Izlanishlardan aniqlanishicha, ota-onalarning ko'pgina qismi raqamli texnologiyalarni nazoratsiz ishlatishga, farzandlarini ham nazoratsiz qoldirishga majbur bo'lmoqda. Bunga sabablardan biri – yetarli darajadagi

raqamli savodxonlikning yo'qligi, o'zbek tilidagi sifatli kontentning kamligi va texnologik nazorat mexanizmlaridan foydalanishning pastligi bo'ldi.

- Shunday ekan, quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin:
- ota-onalarga mo'ljallangan raqamli savodxonlik bo'yicha treninglar tashkil etish;
- mahalliy, milliy madaniyatimizga mos kontentlar (ilova, platforma, video) ishlab chiqish va ko'paytirish;
- ta'lim tashkilotlarida "Raqamli tarbiya" modulini joriy etish;
- bolalarda raqamli texnologiyalardan ongli foydalanish madaniyatini kichiklikdan singdirish maqsadida maxsus metodikalar va ota-onalar uchun qo'llanmalar ishlab chiqish va ular-dan foydalanishni keng targ'ib qilish;
- o'qituvchi, pedagoglar, ilm insonlari, olimlar tomonidan raqamli texnologiyaning imkoni-yatlari va undan oqila foydalanish me'yorlari haqida keng targ'ibot ishlarini olib borish;
- 3 yoshgacha bolalarga umuman raqamli vositalarni bermaslik to'g'risida maxsus qonun ishlab chiqish;

Xulosa qilib aytganda, raqamli muhit – bu inkor qilib bo'lmaydigan haqiqatdir. Ammo u bola va oila hayotiga salbiy emas, ijobiy ta'sir ko'rsatishi uchun zarur bilim, ko'nikma va ijtimoiy muhit shakllantirilishi zarur. Raqamli muhitda bola tarbiyasini to'g'ri tashkil etish uchun ota-onalar, pe-dagoglar va jamiyat birgalikda harakat qilishi zarur. Raqamli texnologiyalar vositasida bolalarning ma'naviy, aqliy va psixologik rivojlanishiga xizmat qiladigan raqamli madaniyat asoslarini shakl-lantirish – bugungi kunning muhim vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dushabayev A.M. (2024). Ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish. Fanlararo ilmiy jurnal, №1, 55-60-bet.
2. Yulchiyeva D. (2024). Raqamli madaniyat va oila qadriyatlari o'rtasidagi ziddiyatlar. "Oila va jamiyat" jurnali, №2, 45-49-bet.
3. Siddiqov I.M. (2023) Ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari. 152-155-bet. kokanuni.uz
4. Hasanov Sh.M. (2022). Bolalar uchun interaktiv texnologiyalarning o'rni. Pedagogik innovat-siyalar jurnali.
5. UNESCO (2021). Digital literacy in early childhood education: global guidelines. <https://unesco.org>
6. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (2023). Bolalarni raqamli xavfsizlikka o'rgatish bo'yicha metodik qo'llanma. – Toshkent.
7. Omonov H.T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogic mahorat. – T.: Iqtisodiyot va moliya, 2009, 29-bet.
8. Azizovna, Y. S. (2025). Uzluksiz ta'lim bosqichlarida uzviylik masalasi ("Adabiyot" fani o 'quv dasturi misolida). Ustozlar uchun, 1(1), 761-765.
9. Азизовна, Ю.С. (2025). Юсуф Хос Ходжибнинг «Кутадгу билиг» асари ёшлар манавий камолоти ва ахлокий кадриятлар тимсоли. Устозлар учун , 1 (1), 537-539.
10. Nizomidinovna, S. D., & Azizovna, Y. S. (2025). O'quvchilarning o'qish savodxonligi ko 'nikma-sini rivojlantirish (hikoyalarni o 'qitish asosida). Ustozlar uchun, 1(1), 862-866.
11. Азизовна, Ю.С. (2025). Исажон Султон хикояларида новаторлик. Устозлар учун , 1 (1), 478-481.
12. Azizovna, Y. S. (2025). Bir hikoya tahlili (Abdusaid Ko 'chimovning "Binafsha "hikoyasi asosi-da). Ustozlar uchun, 1(1), 508-510.
13. Yuldosheva, S. (2024). Xalq qissalarida Hazrati Xizr alayhissalom obrazi. Farg'ona davlat uni-versiteti, (5), 33-33.

14. Азизовна, Ю.С. Развитие познавательных навыков учащихся в процессе языкового образования. JournalNX , 514-516.
15. Азизовна, Ю.С. Формирование чувства уважения у студентов. Журнал NX , 1026-1028.
16. Азизовна, Ю.С. (2023). Миллий дастур талаблари асосида узбек тилини о'қитишнинг самарадорлиги. фан, таълим ва амалиёт интеграцияси , 661-664. Получено с <https://journal.bilig.uz/isepsmj/article/view/1256>.
17. Azizovna Y.S. Study of folktale in literature and its relation to the epic genre. Central European Management Journal 31 (No. 03 (2023)), 476-482 https://api.sciencweb.uz/storage/publication_files/7250/19705/65b7e8e0c2065___Yuldosheva%20S.Central%20European%20Management%20Journal.pdf
18. Azizovna Y.S. On the Development of Expressive Learning Skills. International Journal on Integrated Education (IJIE) 6 (No. 5 (2023)), 313-316 <https://journals.researchparks.org/index.php/IJIE/article/view/4444>
19. Azizovna Y.S. Understanding the text in the development of reading literacy. Vegueta. Anuario de la Facultad de Geografía e Historia . 2022/12/22 373-379 eISSN: 2341-1112 DOI: 10.5281/zenodo.7
20. Abduganiyeva D.A. (2024). Oilaviy tarbiyaning shaxsning hissiy holatiga ta'siri. // Oila va jamiyat ilmiy jurnali. oila-ilmiy.uz
21. Abduganiyeva D.A. (2024). Oilaviy tarbiyaning shaxsning hissiy holatiga ta'siri. // Oila va jamiyat ilmiy jurnali. oila-ilmiy.uz
22. Yulchiyeva D. (2023). Oila a'zolari o'rtasidagi muloqot va raqamli vositalarning o'rni. // Oila va jamiyat. <https://oila-ilmiy.uz>
23. Adashova F.S. (2025). Oilaviy muhit va oilaviy munosabatlarning bola xulq-atvoriga ta'siri. // Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va zamonaviy ta'lim jurnali.
24. Axmedova I.I. (2024). Bolani voyaga yetkazishda oila tarbiyasining o'rni. // Tadqiqotlar.uz jurnali.
25. Safar Mustafoqulov Eshboltaevich (2023). O'zbekistonda raqamli texnologiyalar: afzalliklar va kamchiliklar. Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi, 1(1)
26. Aliyeva N.M., Rasuleva M.R. (2025). Raqamli texnologiyalarning ta'limdagi o'rni: imkoniyatlar, muammolar va istiqbollari. Yevraziyskiy jurnal texnologiyalari va innovatsiyalari, 3(1), 24-28

ОСОБЕННОСТИ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ПРЕДМЕТНО-ЯЗЫКОВОГО ИНТЕГРИРОВАННОГО ОБУЧЕНИЯ (CLIL)

Антонова Камила

(Самаркандский филиал ТМУК, студентка 2 курса направления русский язык в
иноязычных группах)

Научный руководитель: и.о. доцента

Раджабов Анвар Арифжанович

a.radjabov@kiut.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17650764>

Аннотация. Статья посвящена исследованию современной образовательной методики – предметно-языкового интегрированного обучения CLIL (Content and Language Integrated Learning). В работе проанализированы основные принципы и методологические основы данного подхода, а также обоснованы ключевые причины его активного внедрения в современную образовательную практику. Рассмотрены исторические и социокультурные

предпосылки возникновения методики, описаны наиболее эффективные способы и методы её реализации. В статье раскрывается системная природа обучения CLIL, суть которого заключается в одновременном изучении предметного содержания и иностранного языка, что выходит далеко за рамки традиционного языкового образования.

Ключевые слова: CLIL, предметно-языковое интегрированное обучение, иностранный язык, интеграция, содержание обучения, язык обучения, мотивация.

FEATURES OF FOREIGN LANGUAGE TEACHING USING CONTENT-LANGUAGE INTEGRATED LEARNING (CLIL)

Antonova Kamila

(2nd-year student, Samarkand Branch of KIUT)

Scientific Supervisor: Acting Associate Professor Radjabov Anvar Arifjanovich

a.radjabov@kiut.uz

Abstract. This article explores the modern educational approach of Content and Language Integrated Learning (CLIL). The work analyzes the core principles and methodological foundations of this approach and outlines the key reasons for its active integration into modern educational practices. The historical and socio-cultural prerequisites for the methodology's emergence are examined, and the most effective implementation strategies and methods are described. The article reveals the systemic nature of CLIL, the essence of which lies in the simultaneous learning of subject content and a foreign language, moving far beyond the scope of traditional language education.

Keywords: CLIL, Content and Language Integrated Learning, foreign language, integration, content learning, language of instruction, motivation.

Введение

В современной методике преподавания иностранных языков наблюдается значительное разнообразие подходов и технологий обучения. В отличие от классических подходов, ориентированных на системное изучение грамматики и лексики, современные методы акцентируют внимание на практическом овладении языком, отвечая тем самым на ключевую потребность обучающихся – приобретение способности к свободной коммуникации на иностранном языке.

Одним из наиболее эффективных и концептуально обоснованных подходов является предметно-языковое интегрированное обучение (Content and Language Integrated Learning – CLIL). Его принципиальное отличие заключается в том, что иностранный язык выступает не как самоцель изучения, а как инструмент для освоения определенного предметного содержания. Соответственно, формирование иноязычной компетенции происходит не изолированно, а интегрированно в процессе познания других дисциплин. В данной системе урок, построенный по технологии CLIL, является не уроком иностранного языка, а предметным уроком, проводимым на иностранном языке.

Возникновение и теоретическое оформление концепции CLIL связывается с именем Дэвида Марша (1994 г.), специалиста в области билингвального образования. Предложенная им аббревиатура стала обозначением метода, синтезировавшего опыт предшествующих методик, таких как британский подход «Язык как средство познания других дисциплин» (Language Across the Curriculum) и канадская методика «погружения» (immersion). К середине 1990-х гг. термин CLIL получил широкое распространение для обозначения моделей интеграции языка и предметного содержания, а к 2005 году, по инициативе Д. Марша, был


утвержден в качестве общего термина для различных методик, реализующих принцип предметно-языкового интегрирования.

Импульсом к разработке данной методологии послужил объективный социальный заказ – растущие требования к уровню владения иностранными языками при одновременном сокращении аудиторного времени, отводимого на их изучение. Эта проблема является общей для образовательных систем большинства стран. В качестве структурного ответа на данное противоречие Д. Марш предложил модель поэтапной и дозированной интеграции, регламентирующую учебную нагрузку в зависимости от возрастной группы обучающихся:

- Учащиеся 6–10 лет: освоение дозированного языкового материала в рамках занятий продолжительностью от 30 до 60 минут в день.
- Учащиеся 10–14 лет: углубленное изучение языка с подключением неязыковых модулей объемом до 40 часов, предваряющих или сопровождающих его формальное изучение.
- Обучающиеся 14–19 лет: использование иностранного языка как средства обучения непредметным дисциплинам в объеме от 5 до 10 часов в неделю.
- Обучающиеся 16–19 лет: дополнительное использование интенсивных форматов (например, летние школы), в рамках которых сочетается академическое обучение с формированием практических навыков в условиях направленного одновременного изучения языка, и предметного содержания.

Методы исследования

В исследовании применялся комплекс взаимодополняющих методов. Теоретической основой послужил анализ научной литературы по проблематике CLIL. Эмпирическая часть включала педагогический эксперимент по внедрению интегрированных уроков. Для сбора данных использовалось анонимное анкетирование учителей и учащихся, позволяющее выявить отношение к методике и диагностировать трудности. Глубинные интервью с участниками образовательного процесса дали качественные данные об их личном опыте и мотивации. Эффективность подхода оценивалась через тестирование, отслеживающее усвоение как предметного содержания, так и академического языка. Дополнительно проводился анализ продуктов учебной деятельности (письменных работ, проектов, презентаций) для оценки комплексного прогресса обучающихся.



Цели и ключевые характеристики предметно-языкового интегрированного обучения (CLIL)

Главной целью исследований в области CLIL является оценка эффективности данного подхода для симультанного овладения предметными знаниями и иноязычной компетенцией, а также выявление оптимальных условий его реализации.

В широком смысле, CLIL представляет собой дидактическую модель, в которой усвоение содержания конкретной дисциплины происходит параллельно с развитием коммуникативных способностей на иностранном языке, выступающем инструментом познания. Более детально концептуальные основы CLIL структурированы в модели «4С», предложенной Д. Койл:

- Коммуникация (Communication): Формирование и совершенствование иноязычной коммуникативной компетенции во всех видах речевой деятельности (аудировании, говорении, чтении, письме) в контексте изучения non-linguistic дисциплин.
- Содержание (Content): Приобретение предметных знаний и развитие дисциплинарных умений через выполнение практико-ориентированных задач.
- Познание (Cognition): Развитие когнитивных и метакогнитивных способностей учащихся: анализ, синтез, оценка информации, а также рефлексия над процессом собственного учения и интеграция новых знаний в существующую когнитивную базу.
- Культура (Culture): Формирование межкультурной компетенции, понимания поликультурности мира и собственной идентичности в глобальном контексте.

Исследователи выделяют следующие сущностные характеристики CLIL, определяющие его специфику:

1. Многоплановость фокуса обучения: Интеграция предполагает:
 - целенаправленное закрепление языковых явлений в предметном контексте;
 - освоение дисциплинарного содержания исключительно средствами иностранного языка;
 - организацию учебного процесса через междисциплинарные и межкультурные проекты, включающие рефлексивный компонент.
2. Стимулирующая образовательная среда: Её формирование обеспечивается за счёт:
 - использования циклических (повторяющихся) видов деятельности и специфического академического дискурса, характерного для данной дисциплины;
 - неукоснительного соблюдения языкового погружения в течение всего занятия;
 - создания атмосферы, способствующей преодолению языкового барьера и формированию у обучающихся уверенности в своих силах.

Данные характеристики подчёркивают, что CLIL является не простым сложением языка и предмета, а их глубокой дидактической интеграцией, порождающей новое качество образовательного процесса.

Аспекты CLIL и способы их реализации

В рамках методологии предметно-языкового интегрированного обучения (CLIL) можно выделить пять взаимосвязанных аспектов, каждый из которых находит конкретное воплощение в педагогической практике.

1. Культурологический аспект

Реализуется через:

- Компаративный анализ культурных кодов и ментальных репрезентаций;
- Формирование межкультурной компетенции в ситуациях смоделированного межкультурного диалога;
- Изучение этнолингвистических особенностей регионов и диаспор;
- Освоение стратегий социокультурной адаптации и декодирования культурных коннотаций.

2. Социопрагматический аспект

Находит воплощение в:

- Подготовке к академической и профессиональной мобильности в условиях глобализации;
- Овладении стандартизированными форматами международной сертификации (на примере конкретных кембриджских экзаменов или иных систем);
- Интеграции в образовательный процесс международных стандартов качества при сохранении национальной образовательной специфики.

3. Лингвистический аспект

Реализуется посредством:

- Симультанного развития общезыковой и предметно-специфической компетенции;
- Формирования дискурсивных и прагматических навыков, адекватных коммуникативному контексту;
- Глубинного анализа языка через призму контрастивного изучения языковых систем (L1 и L2);
- Формирования металингвистического сознания и осознанного отношения к языку как к феномену;
- Использования языка как функционального инструмента для решения конкретных когнитивных и практических задач.

4. Содержательно-предметный аспект

Осуществляется через:

- Мультиперспективное изучение дисциплины за счёт привлечения источников на разных языках;
- Овладение терминосистемой и концептосферой предмета в её международном (L2) и национальном (L1) выражениях;
Ishlab chiqilgan ijodiy yutuqlar faoliyati natijalari bo'yicha reyting ball ko'rsatkichlari modellar ustida tajriba o'tkazildi. Tadqiqot eksperimenti 1-jadval ko'rinishida tasvirlanadi.

1-jadval

Ijodiy yutuqlar faoliyati natijalari bo'yicha reyting ball ko'rsatkichlari

Id talaba (Ijodiy yutuqlar faoliyati)	w_j	j	v_j	k	h_i	r_i	i	Q
1	10	3	20	2	20	5	2	80
2	10	4	20	1	20	5	3	65
3	10	3	20	1	20	5	0	70

Yuqorida ishlab chiqilgan usullar asosida talabalarning ijodiy yutuqlar faoliyati natijalari bo'yicha reyting ball ko'rsatkichlari hisoblanadi [3].

Talabalarning turli jamiyatlar va ijtimoiy tashkilotlardagi ishtiroki va ularning faolligini baholash (masalan, ijtimoiy, ma'naviy faoliyatlar, ko'ngilli ishlar, madaniy tadbirlar va boshqalar).

Bundan kelib chiqib reytingning ko'p faktorli ekanligini hisobga olgan holda ijtimoiy faoliyati natijalari bo'yicha reyting ball modulini shakllantirish uchun optimal matematik model ishlab chiqish kerak [4].

Ijtimoiy faoliyati natijalari bo'yicha reyting ball ko'rsatkichlarini G parametr orqali belgilanadi va G ni hisoblash uchun quyidagi (2) formula ko'rinishidagi model taklif etiladi.

$$G = \sum_i (\sum_j^m u_{ij} + y_i + g_i) \quad (2)$$

Ijtimoiy faoliyati natijalari bo'yicha reyting ball ko'rsatkichlari, ma'naviy-marifiy tadbirning siyosiy ahamiyati shundan iboratki, ijtimoiy tadbirning aholi o'rtasida muhokama etilganligi va ijtimoiy tadbirning ijobiy oqibatlari (yoshlar o'rtasida jinoyatchilikka qarshi kurash kabi g'oyalar) kabi parametrlarga bog'liq bo'ladi [5].

Ishlab chiqilgan (2) formuladagi parametrlar quyidagicha aniqlanadi:

u_{ij} – i - talabani j ta ijtimoiy tadbirning aholi o'rtasida muhokama etilganlik ko'rsatkichi;

y_i – ijtimoiy tadbirning siyosiy ahamiyati bo'yicha ko'rsatkichi;

g_i – ijtimoiy tadbirning ijobiy oqibatlari bo'yicha ko'rsatkichi.

(2) formula ko'rinishida ishlab chiqilgan ijtimoiy faoliyati natijalari bo'yicha reyting ball ko'rsatkichlari modellari ustida tajriba o'tkazildi. Tadqiqot eksperimenti 2-jadval ko'rinishida tasvirlanadi.

2-jadval

Ijtimoiy faoliyati natijalari bo'yicha reyting ball ko'rsatkichlari

<i>Id talaba (ijtimoiy faoliyati)</i>	u_i	j	y_i	g_i	G
1	20	3	15	20	95
2	20	2	15	20	75
3	20	1	15	20	55

Raqamli transformatsiyani amalga oshirishda ko'p faktorli reyting ko'rsatkichini hisoblashni modellashtirishda reyting parametrlarining o'quv ko'rsatkichlari, ijodiy yutuqlar va ijtimoiy faoliyati natijalari bo'yicha ko'rsatkichlarini bitta umumiy ball ko'rinishida hisoblash taklif etiladi. Ko'p faktorli reyting ko'rsatkichlarini hisoblash tizimini avtomatlashtirish tarkibida har bir talabani o'quv ko'rsatkichlari, ijodiy yutuqlari va ijtimoiy faoliyati natijalari bo'yicha reyting ball ko'rsatkichlari va ularning umumlashgan reyting ball ko'rsatkichi ham shakllantiriladi[6].

Ishlab chiqilgan matematik modellar asosida ko'p faktorli reyting tizimini avtomatlashtirish tarkibida, talabani umumiy reytingini hisoblash moduli yaratiladi [7]. Yaratilgan modul yordamida talabalarning o'quv ko'rsatkichlari, ijodiy yutuqlari va ijtimoiy faoliyati natijalari bo'yicha reyting ball ko'rsatkichlarini bitta umumiy ball ko'rinishida tasvirlanadi.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joiziki. Ishlab chiqilgan matematik modellar asosida o'tkazilgan eksperiment tajribasi shuni ko'rsatadiki, talabalarning reyting ko'rsatkichlari asosan og'irlik koeffitsiyentlari bilan boshqariladi. Oliy ta'lim muassasasining sohasiga qarab og'irlik koeffitsiyentlari belgilanadi va umumiy reyting aniqlanadi. Matematik modellarning ishlash jarayonlari to'g'ri ekanligi eksperiment tajribasida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Reyting tizimini shaffof onlayn amalga oshirish uchun yaratilgan tizim tarkibida eng optimal matematik modellar bo'lishi kerak. Matematik modellar asosida talabalarning o'quv ko'rsatkichlari, ilmiy, ijodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlarini umumlashtirilgan holda ko'p faktorli reytingini aniqlash, tizim ish faoliyatini sifat darajaga ko'tarishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Yuldashev U.A., Xudoyberdiyev M.Z., Axmedov T.B. (2021). O'quv jarayonining sifatini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish. *Academic Research in Educational Sciences*, 2(3), 1262–1268.
2. Елисеев И.Н. (2012). Методология оценки уровня компетенций студента. *Информатика и образование*, №4, С. 80–85.
3. Axmedov B.A. (2020). Oliy ta'limda reyting tizimini joriy etishning nazariy asoslari. Toshkent: O'qituvchi. 152 b.
4. Karimova D.X., Soliyev M.S. (2021). Talabalarning ijodiy faolligini baholashda zamonaviy yondashuvlar. *Pedagogik mahorat*, №3, B. 45–50.
5. Rustamov I.A. (2022). Raqamli ta'lim tizimlari: nazariya va amaliyot. Samarqand: SamDU nashriyoti. 208 b.
6. G'ulomov Q.T., Rajabova S.R. (2020). Matematika va informatika fanlarining integratsiyalashgan tahlili. Andijon: AndMI. 134 b.
7. Xo'jaqulov B.K. (2021). Ta'limda monitoring va reyting tizimlari. Toshkent: Iqtisodiyot. 120 b.

THE ROLE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN TEACHING MATHEMATICS AND PROGRAMMING

*Djiiyanov Tursunpo'lat Ortiqovich^{1,2}, Usmonov Azizbek Ismoilovich^{1,2},
Begmatov To'lg'in Isoqovich^{1,2}, Akramov Shohzod Baxromovich^{3,4}*

*^{1,2}PhD, lecturer of the Department of "Exact Sciences", Kimyo International University in Tashkent
Samarkand Branch, Uzbekistan
t.djiiyanov@mail.ru*

*^{1,2}PhD, lecturer, Samarkand State University named after Sharof Rashidov, Samarkand,
Uzbekistan*

*³Lecturer of the Department of "Exact Sciences", Kimyo International University in Tashkent
Samarkand Branch*

⁴Lecturer, Samarkand State University named after Sharof Rashidov, Samarkand, Uzbekistan

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17624364>

Abstract: This thesis analyses the significance of digitalisation in mathematics and programming education, with a focus on software environments, e-learning platforms, and modern digital technologies. It investigates methods for integrating digital tools into education, including the use of artificial intelligence and big data. The study shows that digital resources expand students' knowledge, improve practical skills, and help teachers manage lessons while encouraging independent and creative learning.

Keywords: Big data, digital technologies, artificial intelligence, electronic libraries.

INTRODUCTION

Today's process of globalisation and rapid technological progress are drastically changing all areas of human life. The process of digitalisation is deeply penetrating not only the economy, manufacturing, the health sector and culture, but also the education system. In particular, the

use of information and telecommunication technologies in the modern educational process is of great importance in terms of increasing efficiency, providing students with complex knowledge and expanding the methodological capabilities of teachers [1].

Mathematics and computer science are characterised by complex theoretical foundations, areas of practical application, and tasks requiring logical analysis. The use of digital technologies in teaching these subjects is consequently invaluable for visualising complex concepts, developing students' analytical and creative minds, and effectively organising the learning process [2].

In recent years, remote learning platforms, virtual laboratories, electronic libraries, online testing systems, artificial intelligence-based simulators and learning tools have become widely used. With the help of these technologies, students have the opportunity to master the teaching material more deeply and effectively organise the process of independent learning. As a result, the educational process goes outside the traditional framework and becomes more interactive and more creative.

The main objective of this article is to analyse the scientific background of the digitalisation process in mathematics and computer science education, to study existing opportunities and achievements, and to identify areas for further development. In this regard, the study provides an in-depth scientific analysis of best practices, modern educational techniques, and their impact on the educational process [4,5]

METHODOLOGY

The methodological basis of this study includes several stages. At the first stage, a systematic analysis of the international and domestic literature and scientific sources on this topic was carried out. In scientific articles, abstracts of international conferences and monographs that were published in recent years, the use of digital educational tools and their theoretical and practical foundations were studied in depth. This phase served to form the conceptual basis of the study.

The second stage analysed digital tools actively used in the educational process. In particular, the advantages and limitations of software packages such as GeoGebra, MATLAB, and WolframAlpha, which are widely used in mathematics teaching, were studied. In the field of computer science and computer programming, the practical effectiveness of Python, C++, Scratch, and the online IDE (Integrated Development Environment) was evaluated.

During the study, the outcomes of traditional and digital learning were compared using a comparative method. The statistical analysis was based on pedagogical observations with students. In particular, the results of two groups of students were checked using Student's t -test:

$$t = \frac{x_1 - x_2}{\sqrt{\frac{s_1^2}{n_1} + \frac{s_2^2}{n_2}}}$$

where x_1, x_2 – mean values of both groups, s_1^2, s_2^2 – dispersions, n_1, n_2 – number of observations.

To assess the results more reliably, the correlation coefficient was calculated:

$$r = \frac{\sum(x_i - \bar{x})(y_i - \bar{y})}{\sqrt{\sum(x_i - \bar{x})^2 \cdot \sum(y_i - \bar{y})^2}}$$

These formulas were used to determine the correlation between the level of digital educational tool usage and students' knowledge indicators.

During the experimental sessions, approaches such as remote learning, blended learning, gamification, and adaptive learning were implemented. The performance of each model was evaluated based on student motivation dynamics, students' independent learning skills, and their interest in the subject.

Thus, the research was based not only on the analysis of theoretical literature, but also on the treatment of empirical data using statistical methods, as well as on findings based on mathematical calculations.

RESULTS

The study conducted has virtually proven the effectiveness of digital learning tools. Students who worked with interactive technologies in mathematics were able to solve complex problems faster and more accurately. For another example, when solving differential equations using MATLAB, students obtained results on average 40% faster than when using conventional calculation methods. In addition, demonstrating geometric figures using GeoGebra significantly increased students' understanding of the subject [5].

In computer science, the use of programming instruments played a major role in shaping algorithmic thinking among students. For example, the use of interactive mediums such as Jupyter Notebook in the process of learning Python has allowed students to see the results of their code in real time. This has accelerated the practical application of theoretical knowledge. For primary school students, visual media such as Scratch served as an effective tool for increasing interest in programming.

Statistical results showed that the level of knowledge acquisition in groups using digital tools was on average 20-30% higher. In addition, a substantial increase in student motivation to learn was noted. These results prove the effectiveness of digitalisation in the educational process with evidence based on scientific research.

CONCLUSIONS

In conclusion, it can be said that the use of digital technologies in teaching science and mathematics, in particular mathematics and computer science, considerably increases the effectiveness of the educational process. Modern modern digital tools not only allow for the quick and effective transfer of knowledge, but also serve to improve understanding of complex concepts and develop students' creative and logical thinking. At the same time such tools increase the potential for independent work by students, create opportunities for the use of a wide range of media sources, and adapt the educational process to modern requirements.

Therefore, further digitalisation of the education system, improvement of technical infrastructure, enhancement of teachers' digital skills, and widespread introduction of new and innovative new technologies will remain pressing issues in the future.

References

1. Redecker, C., & Punie, Y. (2017). European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. Publications Office of the European Union.
2. Voogt, J., & Knezek, G. (2018). Teaching and learning in the digital age: Research on ICT integration in education. Springer.
3. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). Technological Pedagogical Content Knowledge: A framework for teacher knowledge. *Teachers College Record*, 108(6), 1017–1054.
4. Zawacki-Richter, O., & Latchem, C. (2018). Exploring four decades of research in Computers & Education. *Computers & Education*, 122, 136–152.
5. Naser M. A. M. Alkandari & Meshael K. Abushiebah. Effects of Using MATLAB in Improving Students' Skills in Mathematics. *Journal of Research in Applied Mathematics*, Vol. 10, Issue 5 (2024).

MATEMATIKANI SHAXSGA YO'NALTIRIB O'QITISHDA SAVIYALI TABAQALASHTIRISH TEXNOLOGIYASI

Djalilov Shuxrat Axtamovich¹, Yusupova Malika Farxod qizi²

¹PhD, Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali

“Aniq fanlar” kafedrası o'qituvchisi, sh.djalilov@kiut.uz

²Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali II-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17624388>

Annotasiya. Ta'limda o'quv-tarbiya jarayonini tabaqalashtirish va individuallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim oluvchilarning ehtiyozlari va qiziqishlarini hisobga olib, uni biz ikki turga ya'ni saviyali tabaqalashtirish va mutaxassislik tabaqalashtirishlarga ajratishimiz mumkin. Saviyali tabaqalashtirishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan muhim bir nechta shartlar mavjud. Matematikani o'rganishda saviyali tabaqalashtirish umumta'lim maktablarida va to'garak mashg'ulotlarida amalga oshirilishi mumkin. Shuni ta'kidlash lozimki biz ushbu ishda saviyali tabaqalashtirishni mohiyatini to'liq ochib berishga harakat qildik.

Kalit so'zlar: o'quv-tarbiya, tabaqalashtirish, individuallashtirish, saviya, mutaxassis, kasbiy faoliyat, optimal, sinf.

LEVEL-BASED DIFFERENTIATION TECHNOLOGY IN LEARNER-CENTERED MATHEMATICS TEACHING

Djalilov Shukhrat Akhtamovich¹, Yusupova Malika Farkhod kizi²

*¹Lecturer of the Department of “Exact Sciences”, Kimyo International University in Tashkent
Samarkand Branch, Uzbekistan*

*²Second-year master's student of Kimyo International University
in Tashkent Samarkand Branch, Uzbekistan*

Annotation. In the educational process, differentiation and individualization of teaching and upbringing play an important role. Taking into account the needs and interests of learners, differentiation can be divided into two types: level-based differentiation and specialization-based differentiation. There are several important conditions necessary for the successful implementation of level-based differentiation. In the study of mathematics, level-based differentiation can be applied in general education schools and extracurricular activities. It should be noted that in this work, an attempt has been made to comprehensively reveal the essence of level-based differentiation in mathematics teaching.

Keywords: education and upbringing, differentiation, individualization, level, specialist, professional activity, optimal, class.

Kirish

Ta'limda o'quv-tarbiya jarayonini tabaqalashtirish va individuallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni nazarda tutib, har bir ta'lim oluvchining ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda matematika ta'lim jarayonini tabaqalashtirishni ikkita asosiy turga ajratish mumkin:

- 1) Saviyali tabaqalashtirish;
- 2) Mutaxassislik tabaqalashtirish.

Saviyali tabaqalashtirish: bir sinfda yoki akademik guruhda bir o'quv dasturi va bir darslik bo'yicha ta'lim oluvchilar turli materiallarni o'zlashtirishlari mumkin.

Bunda asosiysi majburiy tayyorgarlik saviyasi hisoblanadi. Unga erishish o'quv fani mazmuniga minimal zarur talabni bajarishdan dalolat beradi. Uning asosida materialni o'zlashtirishning yanada yuqori saviyasi shakllanadi.

Mutaxassislik tabaqalashtirish materialning yo'nalishi va chuqurligining bayon qilinishi, ma'lumotlar hajmi va hatto qaralayotgan masalalar nomenklaturasi bilan farq qiluvchi dasturlar bo'yicha o'quvchi va talabalarning turli guruhlariga ta'lim berishni nazarda tutadi. Mutaxassislik ta'limning ko'rinishi bo'lib, matematik tayyorgarligini ilgarilovchi saviyasini ta'minlovchi va turli-tuman murakklikdagi, jumladan ta'lim oluvchilarning kelgusi kasbiy faoliyati bilan bog'liq amaliy masalalarni yechish ko'nikma va malakalarini egalashni ta'minlovchi matematikaaning chuqur o'rgatilishi hisoblanadi.

Tabaqalashtirishning ikki turi mavjud bo'lib, matematik ta'limning barcha bosqichlarida bir-birini o'zaro to'ldirishi mumkin.

Asosiy qism. Respublikamiz sharoitida umumta'lim maktablari, kasb- hunar maktablari, akademik liseylar va oliy ta'lim o'quv yurtlarida saviyali tabaqalashtirish ko'proq qo'llaniladi. Kasb-hunar maktablarida, akademik liseylar va oliy o'quv yurtlarida matematikani o'rganishda saviyali tabaqalashtirishning turli shakllari keng qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Shu bilan birga matematikani o'rganishda saviyali tabaqalashtirish umumta'lim maktablarida va to'g'arak mashg'ulotlarida amalga oshirilishi mumkin.

O'z navbatida o'quv jarayonining optimal natijaviyligi deganda biz o'quv dasturi, pedagogika, psixologiya va matematika o'qitish metodikasi bilan ko'zda tutilgan har bir ta'lim oluvchi uchun ta'lim natijalariga iloji boricha yuqoriroq saviyaga erishishni tushunamiz.

Ta'limni saviyali tabaqalashish asosida ta'lim natijalarini rejalashtirish, majburiy, majburiy tayyorgarlik saviyasini ajratish va shu kesimda materialning o'zlashtirilishining yuqori saviyalarini shakllantirishlar yotadi. Shunga ko'ra ta'lim oluvchi qobiliyati, o'z qiziqishlari, ehtiyojlariga ko'ra o'quv materialini o'zlashtirish hajmini tanlash, o'z o'quv yuklamasini o'zgartirib turish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Natijada tabaqalashtirilgan ish mustahkam asosga ega bo'ladi, o'quvchi va o'qituvchi uchun real ma'no kasb etadi.

Kuchli o'quvchilar bilan ishlash uchun imkoniyatlar ancha oshadi, chunki o'qituvchi mashg'ulotda berilgan materialni barcha ta'lim oluvchilardan to'liq hajmda so'ralmasligi lozim. Bundan tashqari kuchsiz o'quvchilarni hisobga olib, dasturni doimiy optimallashtirish natijasida o'quvchilarning umumiy saviyasini pasaytirish zarurati tug'ilmaydi.

Saviyali tabaqalashtirish muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan muhim shartlar mavjud.

1. Materialni o'zlashtirishning ajratilgan saviyalari va ta'limning majburiy natijalari barcha ta'lim oluvchilar uchun ochiq bo'lishi lozim.

Tabaqalashtirilgan ta'limning muvaffaqiyati (butun o'quv jarayoni kabi) ma'lum darajada o'quvchilarning bilish faolligiga, ularning o'quv ishidan qanday manfaatdorligiga bog'liq. Konkret maqsadlarni ochiq- oydin tushunish, o'qituvchi tomonidan qo'yilgan talablarni bajarish, real imkoniyati turli ta'lim bosqichlarida o'quvchilarning o'quv- bilish faoliyatini faollashtiradi.

Agar ta'lim maqsadlari o'quvchiga ma'lum va unga mos bo'lib, ularga erishish rag'batlantirilsa, u holda ta'lim oluvchida intilish kuchayadi.

O'quv materialini o'zlashtirish saviyalarining ochiqligi o'qishning ijobiy motivlarini shakllantirishga, o'qishga ongli munosabatda bo'lishga, ta'lim oluvchining o'z- o'zini baholashining oshishiga imkon beradi.

2. Ta'lim talablari va saviyasi orasida ma'lum "qaychilar" ning mavjudligi.

Materialni o'qitish saviyasini uni o'zlashtirishning majburiy saviyasi bilan adashtirish kerak emas. Birinchisi ancha yuqori bo'lishi lozim. Chunki aks holda majburiy tayyorgarlik saviyasiga erishib bo'lmaydi va potensial qobiliyatli o'quvchilar ko'proq materialni o'zlashtirishga, yana oldinga harakat qilish imkoniyatlariga ega bo'lmay qoladilar.

Har bir o'quvchi taklif qilinayotgan materialni barcha isbotlashlari va asoslari bilan birga to'liq hajmda tinglashi, mulohaza qilish namunalari bilan tanishishi, ba'zi bosqichlarda ancha murakkab masalalarni yechishda qatnashishi lozim.

3. O'zlashtirish va hisobot berish saviyasini tanlashning ixtiyoriyligi.

Har bir o'quvchi o'zi uchun qaysi saviyadagi materialni o'zlashtirishni ixtiyoriy va ongli tanlash huquqiga ega. Bunday yondashish o'quvchilarda bilish ehtiyojini, o'z- o'zini baholash malakalarini shakllantirish, o'z faoliyatini rejalashtirish va boshqarishga imkon beradi.

4. Nazorat va baholash mazmuni qabul qilingan yondashishni aks ettirishi lozim.

Nazorat ta'limning majburiy natijalariga erishishni tekshirishni ko'zda tutadi hamda materialni yanada yuqori saviyada o'zlashtirishni tekshirish bilan to'ldirishi mumkin.

Saviyali tabaqalashtirish og'zaki shaklda amalga oshirilishi mumkin (uni tanlash ko'p jihatdan o'qituvchining ish uslubi, sinf xususiyatlari, ta'lim oluvchilar yoshlariga va h.k.larga bog'liq). Asosiy usullardan yana biri majburiy tayyorgarlik saviyasiga erishish asosida bo'linuvchi mobil guruhlarini shakllantirish hisoblanadi.

Guhuhlar odatdagi darslar uchun ham qo'shimcha mashg'ulotlarda ishlash uchun ham shakllantirilishi mumkin. O'quvchi va talabalar mustaqil faoliyati jarayonida faqat tabaqalashtirish usuli bilan chegaralanmasliklari kerak. Mazmuni o'rganish bosqichi, ta'lim oluvchining o'qituvchi yordamiga muhtojlik darajasiga bog'liq. Shuningdek, individual va frontal ish shakllarini o'zgartirib boirish zarur.

Ta'lim oluvchilarning majburiy tayyorgarlik saviyasiga erishishiga bog'liq guruhlariga ajratilishi ob'ektiv xarakterga ega. U to'g'ri tashkil etilsa o'quvchilarda hech qanday xafagarchilik tug'ilmaydi. Muhimi, o'quvchilar o'z kuchlarini baholashlari va imkoniyatlariga mos keluvchi ta'lim saviyasini tanlashlari, vaqti kelib esa, o'qitishning yuqori saviyasiga o'tishlari mumkin.

O'quvchining ta'lim olishda matematikaning ahamiyatiga bog'liq ravishda quyidagi ikki tipdagi kursni ajratib ko'rsatish mumkin:

- umummadaniy yo'nalish kursi(uni A kurs deb ataymiz)- matematika faqat umumiy ta'lim elementi sifatida qaraydigan va undan kelgusi kasbiy faoliyatda bevosita foydalanishni ko'zda tutmaydigan o'quvchilar uchun mo'ljallangan.
- oshirilgan tipdagi kurslar- matematika va uning tatbiqlarini kasbiy tayyorgarlik elementi sifatida o'rganishni ta'minlaydigan. Bu tipning asosiy kursini ajratib ko'rsatish mumkin:
 - B kurs- matematika atrofimizdagi olam qonuniyatlarini o'rganish uchun o'ziga xos vosita apparati rolini o'ynaydigan faoliyat sohalarini tanlagan o'quvchilar uchun mo'ljallangan.
 - S kurs- matematika bilishning asosiy vositalaridan biri deb hisoblangan o'quvchilarga yo'naltirilgan.
 - A kurs san'at, badiiy ijod, tillar, sport va amaliy faoliyatni tanlagan o'quvchilarga mo'ljallanadi. U gumanitar yo'nalishga va uning kishilik faoliyatidagi tatbiqlarini tanishtirishga, kishining aqliy rivojlanishiga, hozirgi dunyoda erkin faoliyat ko'rsatishlari uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan.
 - B kurs tafakkur ilmiy uslubga ega o'quvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, ularda tabiiy- gumanitar fanlarni ixtisoslik sifatida tanlangan o'quvchilarga mo'ljallangan.
 - S kurs eng qat'iy va to'liq kurs- o'zi uchun bevosita matematika bilan bog'liq ixtisoslikni tanlagan, natijada matematika yo'nalishi guruhidagi biror mutaxassislikni tanlagan o'quvchilarga mo'ljallangan.

Ular ikki qismdan iborat bo'lishi kerak:

- bu kursni tanlagan barcha o'quvchi uchun majburiy, invariant;
- kursning asosiy qismini to'ldiruvchi materialni tanlaydigan bo'limlardan iborat qismi.

Dars yoki amaliy mashg'ulotni olib borish olti bosqichdan iborat:

1. Uy vazifasini tabaqalashtirish.

Sanoqchilarga ta'limning majburiy natijalariga mos keluvchi topshiriqlarni taklif etish mumkin.

Soddaroq masalalarni yechuvchilarga yanada murakkabroq masala qo'shiladigan xuddi shunday topshiriqlar beriladi.

Aktiv, talabchan va ziyraklarga turli o'quv- uslubiy qo'llanmalaridan, darslikdan tashqari qo'shimcha topshiriqlar beriladi.

2. Mashg'ulotlar paytida o'quvchilar bilimlarini hisobga olish.

Bu bosqichda sinfda maslahatchilarni ajratish mumkin. Bular aktiv, talabchan va ziyraklar guruhidagi o'quvchilar. Dastlab o'qituvchi ularning ishini tekshiradi, so'ngra maslahatchilar o'qituvchiga boshqa o'quvchilar ishlarini tekshirishga yordam beradilar.

3. bazaviy takrorlashni shakllantirish.

O'qituvchi nazariy materialni o'zlashtirishdagi kamchiliklarni bartaraf etadi, o'quvchilarga mustaqil va nazorat ishlarida yo'l qo'ygan xatolar va kamchiliklarni tushuntiradi. Takrorlash rejalashtirilyotgan mavzu doskaga yoziladi. Har bir guruhga turli xil topshiriqlar beriladi.

Sanoqchilarga: "Berilgan javoblardan to'g'risini tanlang" - da, "xatoni to'g'rilang".

Bajaruvchilarga: "... amal bajariladigan qoidani ayting", "... yechimni yakunlang".

Ziyraklarga: "Yo'l qo'yilgan xato sababini tushuntiring", "Berilgan masalada foydalaniladigan tushunchalar ta'riflarini keltiring", deb uqtiriladi.

4. O'tilgan materialning o'zlashtirilishini tekshirish.

U o'z- o'zini tekshirish va maslahatchilar ishini qamrab oladi.

5. Yangi materialni o'rganish. Ziyraklar majburiy topshiriqlardan ijodiy topshiriqlarga o'tadilar.

Bajaruvchilar mavzuning asosiy qoidalarini yaxshi tushunishni talab etadigan mashqlarni yechadilar.

Sanoqchilar yana asosiy jihatlariga qaytadilar.

6. Bilimlarni nazorat qilish (mustaqil va nazorat ishlarini o'tkazish). Sanoqchilar namuna bo'yicha topshiriqlarni bajaradilar.

Bajaruvchilar yechimdagi asosiy usullarni ajratadilar.

Ziyraklar qo'shimcha material bilan ishlaydilar.

Xulosa. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, ta'limning kelajagi- bu o'quvchilar ehtiyojlarini aniqlash va ularni qondirish, tarbiyalanuvchilar bilan muloqot, insonparvarlik, tabaqalashtirish va individallashtirish hisoblanadi. Bularning barchasi kelajakda yoshlarimizning har tomonlama barkamol avlod bo'lib yetishishini asosi bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ta'lim islohoti-barkamol avlod poydevori. Xalq ta'limi 2011 yil, 2 son.

2. Tojiyev M., Barakayev M., Xurramov A. «Matematika o'qitish metodikasi.

Olquv qo'llanma. — T.: «Fan va texnologiya», 2017- yil. — 384-bet.

3. Tolipov O.L.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari.

- T.: «Fan», 2006-y.

4. Kaldibekova A.S., Xodjayev B.X. O'quvchilarning bilish faolligini oshinsh yoilari.

- T.: TDPU, 2006-yil. — 96-b.

5. Колягин Ю.М. «Методика преподавания математики». — Москва: Просвещение, 1977 год. Общая методика.

YUKLANGAN HADLI HIROTA TIPIDAGI TENGLAMANI CHEKSIZ ZONALI DAVRIY FUNKSIYALAR SINFIDA INTEGRALLASH

Mannonov G'ayrat Abduvakil o'g'li, Mannonova Shoxista Akbar qizi²

¹ oshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali, mannonov.g@mail.ru

²Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti magistranti, shohista.www@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17624403>

Annotatsiya. Ushbu ishda davriy cheksiz zonali funksiyalar sinfidagi yuklangan hadli Hirota tipidagi tenglamani integrallash uchun teskari spektral masalalar usuli qo'llaniladi. Olti marta uzluksiz differensiallanuvchi davriy cheksiz zonali funksiyalar sinfidagi cheksizta Dubrovin differensial tenglamalar sistemasi uchun Koshi masalasining yechimga ega ekanligi isbotlangan. Koshi masalasining yechimi yetarlicha silliq boshlang'ich shartlarda har doim mavjud ekanligi isbotlangan.

Kalit so'zlar: Nochiziqli Hirota tenglamasi, Dirak operatori, spectral berilganlar, Dubrovin differensial tenglamalar sistemasi, izlar formulasi.

INTEGRATION OF A LOADED TERMINAL HIROTA-TYPE EQUATION IN THE CLASS OF PERIODIC FUNCTIONS WITH INFINITE GAP

Mannonov Gayrat Abduvakil ugli¹, Mannonova Shokhista Akbar kizi²

¹PhD, lecturer of the Department of "Exact Sciences", Kimyo International University in Tashkent Samarkand Branch, Uzbekistan

²Master's student at Samarkand State University named after Sharof Rashidov, Uzbekistan

Abstract. In this work, the method of inverse spectral problems is used to integrate a loaded Hirota-type equation in the class of periodic infinite-zone functions. It is proved that the Cauchy problem has a solution for a system of infinite Dubrovin differential equations in the class of periodic infinite-zone functions that are six times continuously differentiable. It is proved that the solution of the Cauchy problem always exists under sufficiently smooth initial conditions.

Keywords: The nonlinear Hirota equation, Dirac operator, spectral data, Dubrovin system of differential equations, trace formulas.

Ushbu

$$\begin{cases} p_t = a(t)[p_{xxx} - 6p_x(p^2 + q^2)] + b(t)[-q_{xx} + 2q(p^2 + q^2)] + c(t)q(x_0, t)p_x, \\ q_t = a(t)[q_{xxx} - 6q_x(p^2 + q^2)] + b(t)[p_{xx} - 2p(p^2 + q^2)] + c(t)q(x_0, t)q_x, \end{cases} \quad (1)$$

yuklangan hadli Hirota tipidagi tenglamaning

$$\begin{cases} p(x, t)|_{t=0} = p_0(x), q(x, t)|_{t=0} = q_0(x), x \in R, \\ p_0(x + \pi) = p_0(x) \in C^6(R), q_0(x + \pi) = q_0(x) \in C^6(R), \end{cases} \quad (2)$$

boshlang'ich shartlarni hamda quyidagi

$$\begin{cases} p(x + \pi, t) = p(x, t), q(x + \pi, t) = q(x, t), x \in R, t > 0, \\ p(x, t), q(x, t) \in C_x^3(t > 0) \cap C_t^1(t > 0) \cap C(t \geq 0). \end{cases} \quad (3)$$

silliqlik sinfiga tegishli yechimini cheksiz zonali davriy funksiyalar sinfiga topish masalasini qaraymiz. Bu yerda $a(t), b(t), c(t) \in C(0, \infty), c(t) \neq 0$ berilgan uzluksiz chegaralangan funksiyalar, $x_0 \in R$.

(1)-(3) Koshi masalasining yechimini quyidagi

$$L(\tau, t)y \equiv By' + \Omega(x + \tau, t)y = \lambda y, x, \tau \in R, t > 0, \quad (4)$$

Dirak operatori uchun teskari spektral masalalar usulidan foydalanib topish algoritmimni bayon qilamiz. Bu yerda

$$B = \begin{pmatrix} 0 & 1 \\ -1 & 0 \end{pmatrix}, \Omega(x + \tau, t) = \begin{pmatrix} p(x + \tau, t) & q(x + \tau, t) \\ q(x + \tau, t) & -p(x + \tau, t) \end{pmatrix}, y(x) = \begin{pmatrix} y_1(x) \\ y_2(x) \end{pmatrix} \quad (4)$$

Dirak differensial tenglamalar sistemasining $c(0, \lambda, \tau, t) = (1, 0)^T$ va $s(0, \lambda, \tau, t) = (0, 1)^T$ boshlang'ich shartlarni qanoatlantiruvchi yechimlarini mos ravishda $c(x, \lambda, \tau, t) = (c_1(x, \lambda, \tau, t), c_2(x, \lambda, \tau, t))^T$ va $s(x, \lambda, \tau, t) = (s_1(x, \lambda, \tau, t), s_2(x, \lambda, \tau, t))^T$ kabi belgilaymiz. $\Delta(\lambda, \tau, t) = c_1(\pi, \lambda, \tau, t) + s_2(\pi, \lambda, \tau, t)$ funksiyaga $L(\tau, t)$ operatorining Lyapunov funksiyasi deyiladi.

Bunda $(\lambda_{2n} - \lambda_{2n-1}), n \in Z$ intervallarga $L(\tau, t)$ operatorning lakunalari deb ataladi, $\lambda_n, n \in Z$ sonlar esa (4) Dirak differensial tenglamalar sistemasi uchun qo'yilgan davriy ($y(0) = y(\pi)$) va yarimdavriy ($y(0) = y(\pi)$) chegaraviy masalalarning xos qiymatlari bo'ladi. (4) Dirak differensial tenglamalar sistemasi uchun Dirixle ($y_1(0) = 0, y_1(\pi) = 0$) chegaraviy masalasining xos qiymatlarini $\xi_n(\tau, t), n \in Z$ lar orqali belgilaymiz. Ma'lumki bu xos qiymatlar $s_1(\pi, \lambda, \tau, t) = 0$ tenglamaning ildizlari bo'lib, $\xi_n(\tau, t) \in [\lambda_{2n}, \lambda_{2n-1}], n \in Z$ munosabat o'rinli bo'ladi.

1-ta'rif. Ushbu $\{\xi_n(\tau, t), \sigma_n(\tau, t) = \text{sgn}\{s_2(\pi, \xi_n) - c_1(\pi, \xi_n)\} = \pm 1, n \in Z\}$ to'plamga $L(\tau, t)$ Dirak operatorining spektral parametrlari deyiladi.

2-ta'rif. Ushbu $\{\lambda_n(\tau, t), \xi_n(\tau, t), \sigma_n(\tau, t) = \pm 1, n \in Z\}$ to'plamga esa $L(\tau, t)$ Dirak operatorining spektral berilganlari deyiladi.

Quyidagi $L(\tau, 0)$ Dirak operatorini qaraylik:

$$L(\tau, t)y \equiv By' + \Omega(x + \tau, t)y = \lambda y, x, \tau \in R, t > 0, \\ B = \begin{pmatrix} 0 & 1 \\ -1 & 0 \end{pmatrix}, \Omega(x + \tau, t) = \begin{pmatrix} p(x + \tau, t) & q(x + \tau, t) \\ q(x + \tau, t) & -p(x + \tau, t) \end{pmatrix}, y(x) = \begin{pmatrix} y_1(x) \\ y_2(x) \end{pmatrix}$$

To'g'ri spektral masalani yechib $L(\tau, 0)$ operatorning spektral berilganlarini $\{\lambda_n, \xi_n^0 = \xi_n^0(\tau), \sigma_n^0 = \sigma_n^0(\tau) = \pm 1, n \in Z\}$ topib olamiz. Bunda $L(\tau, 0)$ operatorning spektral parametrlari uchun $\xi_n^0(\tau + \pi) = \xi_n^0(\tau), \sigma_n^0(\tau + \pi) = \sigma_n^0(\tau), n \in Z$ davriylik shartlari o'rinli bo'ladi.

1-teorema. Agar $p(x, t), q(x, t)$ funksiyalar (1)-(3) Koshi masalasining yechimi bo'lsa, u holda $L(\tau, t)$ operatorning spektri chetki nuqtalari $\lambda_n(\tau, t), n \in Z$ lar τ va t parametrlarga bog'liq bo'lmaydi, ya'ni $\lambda_n(\tau, t) = \lambda_n, n \in Z, \tau \in R, t > 0$, uning spektral parametrlari $\xi_n(\tau, t), \sigma_n(\tau, t) = \pm 1, n \in Z$ esa quyidagi birinchi va ikkinchi Dubrovin differensial tenglamalar sistemasi analoglarini qanoatlantiradi:

$$\frac{\partial \xi_n(\tau, t)}{\partial \tau} = 2(-1)^{n-1} \sigma_n(\tau, t) h_n(\xi(\tau, t)) \{p(\tau, t) + \xi_n(\tau, t)\}, n \in Z, \quad (5)$$

$$\frac{\partial \xi_n(\tau, t)}{\partial t} = 2(-1)^n \sigma_n(\tau, t) h_n(\xi(\tau, t)) g_n(\xi_n(\tau, t)), n \in Z. \quad (6)$$

Bundan tashqari quyidagi boshlang'ich shartlar o'rinli bo'ladi:

$$\xi_n(\tau, t)|_{t=0} = \xi_n^0(\tau), \sigma_n(\tau, t)|_{t=0} = \sigma_n^0(\tau), n \in Z. \quad (7)$$

$h_n(\xi(\tau, t))$ va $g_n(\xi(\tau, t))$ funksiyalar ketma-ketliklari quyidagicha aniqlanadi:

$$h_n(\xi) = \sqrt{(\xi_n - \lambda_{2n-1})(\lambda_{2n} - \xi_n)} \cdot f_n(\xi), f_n(\xi) = \sqrt{\prod_{\substack{k=-\infty, \\ k \neq n}}^{+\infty} \frac{(\lambda_{2k-1} - \xi_n)(\lambda_{2k} - \xi_n)}{(\xi_k - \xi_n)^2}},$$

$$g_n(\xi) = a(t)[4\xi_n^3 + 4p\xi_n^2 + 2\xi_n(p^2 + q^2 + q_\tau) + 2(pq_\tau - p_\tau q) + 2p(p^2 + q^2) - p_{\tau\tau}] + b(t)[(\xi_n + p)^2 + q^2 + q_\tau + \xi_n^2] - c(t)q(x_0, t)[\xi_n + p], n \in Z.$$

Bu yerda $p = p(\tau, t)$, $q = q(\tau, t)$, $\xi_n = \xi_n(\tau, t)$, $n \in Z$.

Quyidagi

$$p(\tau, t) = \sum_{k=-\infty}^{+\infty} \left(\frac{\lambda_{2k-1} + \lambda_{2k}}{2} - \xi_k(\tau, t) \right), \quad (8)$$

$$n(\tau, t), \quad (9)$$

izlar formulalari va ushbu

$$\gamma(\tau, t) = \gamma(\tau, t)$$

almashtirishdan foydalanib (6)-(7) Koshi masalasini quyidagi ko'rinishga keltirish mumkin:

$$\begin{cases} \frac{dx(\tau, t)}{dt} = H(x(\tau, t)), \\ x(\tau, t)|_{t=0} = x^0(\tau), x^0(\tau) \in K. \end{cases} \quad (10)$$

Bu yerda

$$K = \left\{ x(\tau, t) = (\dots, x_{-1}(\tau, t), x_0(\tau, t), x_1(\tau, t), \dots): \|x(\tau, t)\| = \sum_{n=-\infty}^{+\infty} (1 + |n|^2) \gamma_n |x_n(\tau, t)| < \infty \right\}$$

$$H(x(\tau, t)) = (\dots, H_{-1}(x(\tau, t)), H_0(x(\tau, t)), H_1(x(\tau, t)), \dots),$$

$$H_n(x(\tau, t)) = (-1)^n \sigma_n^0(\tau) f_n(\dots, \lambda_{-1} + (\lambda_0 - \lambda_{-1}) \sin^2 x_0(\tau, t), \dots) \times$$

$$\times g_n(\dots, \lambda_{-1} + (\lambda_0 - \lambda_{-1}) \sin^2 x_0(\tau, t), \dots),$$

$$\sigma_n^0(\tau) = \sigma_n(\tau, t) \operatorname{sgn}\{\sin x_n(\tau, t) \cos x_n(\tau, t)\},$$

$$\dots \quad (10)$$

Koshi masalasi K Banax fazosida yagona yechimga ega bo'lishi uchun $H(x(\tau, t))$ funksiya K Banax fazosida Lipshitz shartini qanoatlantirishi yetarli, ya'ni

$$\forall x(\tau, t), y(\tau, t) \in K, \exists N > 0, \|H(x(\tau, t)) - H(y(\tau, t))\| \leq N \|x(\tau, t) - y(\tau, t)\|.$$

Ma'lumki, $p_0(x + \pi) = p_0(x) \in C^6(R)$, $q_0(x + \pi) = q_0(x) \in C^6(R)$ shartlar o'rinli bo'lganda (4) tenglamaga qo'yilgan davriy va yarimdavriy chegaraviy masalalarning xos qiymatlari uchun [5]

$$\lambda_{2k}, \lambda_{2k-1} = k + \sum_{j=1}^7 c_j k^{-j} \pm 2^{-6} |k|^{-6} \cdot |q_{2k}^6| + |k|^{-6} \cdot \varepsilon_k^{\pm},$$

$$\gamma_k \equiv \lambda_{2k} - \lambda_{2k-1} = \frac{|q_{2k}^6|}{2^5 |k|^6} + \frac{\delta_k}{k^7}, \delta_k = \varepsilon_k^+ - \varepsilon_k^-, |q_{2k}^6|, \delta_k \in l_2$$

asimptotik formulalar o'rinli bo'ladi. Demak $\xi_n(\tau, t) \in [\lambda_{2n}, \lambda_{2n-1}]$, $n \in Z$ lar uchun quyidagi mu-
nosabat o'rinli bo'ladi:

$$\inf_{k \neq n} |\xi_n(\tau, t) - \xi_k(\tau, t)| \geq a > 0$$

1-lemma. Quyidagi tengsizliklar o'rinli: [1]-[4]

$$c(x, \lambda, \tau, t) = (c_1(x, \lambda, \tau, t), c_2(x, \lambda, \tau, t))^T$$

1)

$$2) |g_n(x)| \leq C_4(|n|^3 + 1), \left| \frac{\partial g_n(x)}{\partial x_m} \right| \leq C_5 \gamma_m(|m|^2 + |n|^2 + |m||n| + 1).$$

Bu yerda, $x = (\dots, x_{-1}, x_0, x_1, \dots)$, $C_j = \text{const}$, $j = \overline{1, 5}$.

2-lemma. Agar $p_0(x + \pi) = p_0(x) \in C^6(R)$ $q_0(x + \pi) = q_0(x) \in C^6(R)$ bo'lsa, u holda $H(x(\tau, t))$ vektor-funksiya K Banach fazosida Lipshist shartini qanoatlantradi, ya'ni $\exists N = \text{const} > 0$ soni topilib $\forall x(\tau, t), y(\tau, t) \in K$ elementlar uchun

$$\|H(x(\tau, t)) - H(y(\tau, t))\| \leq N \|x(\tau, t) - y(\tau, t)\|,$$

tengsizlik o'rinli bo'ladi. Bu yerda

$$N = C_6 \sum_{k=-\infty}^{+\infty} \gamma_k (1 + |k|^2) (|k|^3 + 1).$$

1-natija. 1-teorema va 2-lemma (1)-(3) Koshi masalasini yechish algoritmini hosil qiladi.

1) Buning uchun avvalo $L(\tau, 0)$ Dirak operator spektral berilganlari $L(\tau, 0) \sigma_n(\tau, 0) = \pm 1, n \in Z$ aniqlaymiz;

2) $L(\tau, t)$ operatorning spektral berilganlari $L(\tau, t) \sigma_n(\tau, t) = \pm 1, n \in Z$ ko'rinishda belgilab olamiz. (6)-(7) Koshi masalasini τ nuqtada yechib $\xi_n(\tau, t), \sigma_n(\tau, t) = \pm 1, n \in Z$ larni topamiz;

3) Topilganlarni (8), (9) izlar formulalariga qo'yib $q(x_0, t)$ funksiyani aniqlab olamiz;

4) Topilgan $q(x_0, t)$ funksiyani (6) Dubrovin differensial tenglamalar sistemasiga qo'yib $\forall \tau \in R$ larda (6)-(7) Koshi masalasini yechib $L(\tau, t)$ Dirak operatorining spektral parametrlari $\xi_n(\tau, t), \sigma_n(\tau, t) = \pm 1, n \in Z$ larni aniqlaymiz. (8), (9) izlar formulalaridan foydalanib (6)-(7) Koshi masalasining $p(\tau, t), q(\tau, t)$ yechimlarini topamiz.

2-teorema. Agar $p_0(x)$ va $q_0(x)$ funksiyalar quyidagi

$$p_0(x + \pi) = p_0(x) \in C^6(R), q_0(x + \pi) = q_0(x) \in C^6(R)$$

shartlarni qanoatlantirsa, u holda (1)-(3) Koshi masalasining $p(x, t), q(x, t) \in C_x^3(t > 0) \cap C_t^1(t > 0) \cap C(t \geq 0)$ sinfiga tegishli yagona global yechimi mavjud va u (8), (9) izlar formulalari yordamida topiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Hirota R. Exact envelop-soliton solutions of a nonlinear wave equation J. Math. Phys., 14, 805--809 (1973).
2. Mannonov G.A., Khasanov A.B. The Cauchy Problem for the Nonlinear Hirota Equation in the Class of Periodic Infinite-Gap Functions. Algebra and Analysis, 34, 139--172 (2022).
3. A.B. Xasanov, F.A. Mannonov "Интегрирования нелинейного уравнения Хирота в классе периодических бесконечнозонных функций" Узбекистон Республикаси фанлар академиясининг ма'рузалари. 2022 йил, 1сон, 711 бет.
4. A.B. Khasanov, R.Kh. Eshbekov, Kh.N. Normurodov, Integration of a Nonlinear Hirota Type equation with finite density in the class of periodic functions. Lobachevskii Journal of Mathematics. 44 (2023), 4329--4347.
5. Т.В. Мисюра. Характеристика спектров периодической краевых задач, порождаемых операцией Дирака I. Харьков: Издательство Харьковского университета, 1978.

INFORMATIKA FANINI O'QITISHDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH

Djiyanov Tursunpulat Ortiqovich^{1,2}

¹PhD, Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali "Aniq fanlar" kafedrası o'qituvchisi, t.djiyanov@mail.ru

²PhD, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti o'qituvchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17624416>

Annotatsiya. Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim sohasi uchun yangi imkoniyatlar va muammolarni yuzaga chiqarmoqda. Ushbu maqolada SI vositalari va platformalarini o'rta hamda oliy ta'lim bosqichlarida informatika fanini o'qitishda qo'llash masalasi o'rganiladi. Tadqiqot doirasida talabalarining tayyorgarlik darajasi, SI texnologiyalariga munosabati va ularni dasturlash, algoritmlar, ma'lumotlar tuzilmalari va hisoblash tafakkurida qo'llash amaliyoti baholandi. So'rovnoma, suhbatlar va mavjud SI platformalarini tahlil qilish orqali ma'lumotlar yig'ildi. Natijalar SI vositalari individual ta'lim, tezkor teskari aloqa va talabalarni jalb qilishda ijobiy samara berishini ko'rsatdi. Shu bilan birga, ayrim to'siqlar ham mavjud: o'qituvchilar tayyorgarligi, axloqiy masalalar va infratuzilma cheklovlari. Maqola yakunida o'quv dasturi, o'qituvchilar malakasi va ta'lim siyosati bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, informatika ta'limi, talabalar tayyorgarligi, adaptiv ta'lim, teskari aloqa tizimlari, SI vositalari

USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN TEACHING INFORMATICS

Djiyanov Tursunpulat Ortiqovich^{1,2}

¹PhD, lecturer of the Department of "Exact Sciences", Kimyo International University in Tashkent Samarkand Branch, Uzbekistan

²PhD, lecturer, Samarkand State University named after Sharof Rashidov, Uzbekistan

Abstract. The rapid development of artificial intelligence (AI) technologies is creating new opportunities and challenges for the field of education. This article explores the use of AI tools and platforms in teaching informatics at secondary and higher education levels. The study assessed students' preparedness, attitudes toward AI technologies, and their practical application in pro-

gramming, algorithms, data structures, and computational thinking. Data were collected through surveys, interviews, and analysis of existing AI platforms. The results show that AI tools have a positive impact on personalized learning, instant feedback, and student engagement. However, several challenges remain, including teacher readiness, ethical issues, and infrastructure limitations. The article concludes with recommendations for curriculum design, teacher training, and educational policy development.

Keywords: artificial intelligence, informatics education, student preparedness, adaptive learning, feedback systems, AI tools.

Kirish

Sun'iy intellekt bugungi kunda jamiyatning ko'plab sohalariga, jumladan ta'limga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Informatika fani hisoblash nazariyasi va dasturlash bilan chambarchas bog'liq bo'lgani uchun SI asosidagi metod va vositalarni joriy etish, ayniqsa mos keladi.

An'anaviy informatika darslari — ma'ruza va oddiy mashqlar ko'pincha turli o'quv uslublarini qamrab olish, dasturlash ko'nikmalariga bo'lgan yuqori talabni qondirish va tez o'zgarayotgan texnologiyalarga moslashishda yetarli bo'lmay qoladi. Shu sababli, SI integratsiyasi quyidagi afzalliklarni taqdim etadi:

- bilim darajasiga moslashtirilgan ta'lim,
- xatolarni darhol aniqlash va tuzatish,
- interaktiv vositalar orqali motivatsiya va qiziqishni oshirish,
- zamonaviy IT sohasiga tayyorlash.

Adabiyotlar sharhi

So'nggi yillarda informatika ta'limida SI turlicha yo'llar bilan qo'llanilmoqda:

- Adaptiv ta'lim tizimlari — o'quvchining natijasiga qarab mazmunni moslashtiradi;
- Avtomatlashtirilgan baholash — kod to'g'riligi, murakkabligi va uslubini tekshiradi;
- Interaktiv muhitlar — virtual laboratoriyalar, chat-botlar, aqlli tutorlar;
- O'quv tahlili — talabalarni kuzatib borish, xavf guruhini aniqlash va yordam ko'rsatish.

Biroq muammolar ham mavjud: o'qituvchilar malakasi, axloqiy masalalar (plagiat, maxfiylik), resurslarning cheklanganligi va ijodiy fikrlashni saqlab qolish masalasi.

Lekin shuni ham ta'lidlash kerakki, sun'iy intellektning ta'limga ta'siri har doim ham ijobiy bo'lavermaydi. Uning talabalar uchun qulaylik yaratish bilan birga, ayrim salbiy jihatlari ham bor. Masalan, SI bilim olish jarayonini osonlashtirsada, shu bilan birga, talabalar mustaqil fikrlash va tahliliy yondashuvdan uzoqlashish xavfi tug'iladi.

Muammo bayoni

SI vositalarining afzalliklariga qaramay, ularni informatika ta'limida keng qo'llashga to'sqinlik qilayotgan omillar mavjud:

1. Talaba va o'qituvchilar SI vositalaridan foydalanish tajribasiga yetarli emas.
2. Infratuzilma yetarli emas (kompyuterlar, internet, litsenziyalar).
3. Avtomatik teskari aloqani insoniy yondashuv bilan muvofiqlashtirish muammosi.
4. O'quv dasturi va baholash metodlari SI vositalari bilan to'liq moslashmagan.

Shu sababli tadqiqot maqsadi: (a) talabalar SI vositalaridan foydalanishga qanchalik tayyorligini aniqlash; (b) ularning munosabatlarini baholash; (c) qo'llash amaliyotini o'rganish; (d) afzallik va kamchiliklarini tahlil qilish.

Tadqiqot metodologiyasi

- Ishtirokchilar: 250–300 nafar informatika talabalari (1–4 kurs).
- Usullar: onlayn so'rovnomalar, suhbatlar, kuzatishlar.
- Ma'lumotlar: demografik ko'rsatkichlar, SI tajribasi, foydalanish tezligi, munosabatlar, foyda va to'siqlar.
- Tahlil: statistik va sifat tahlillari.

Natijalar

5.1. Talabalar tayyorgarligi

Kurs	Tez-tez foydalanadi	Ba'zan foydalanadi	Umuman ishlatmagan	Tayyorlik darajasi
1-kurs	60 %	30 %	10 %	Yuqori
2-kurs	50 %	40 %	10 %	O'rta-yuqori
3-kurs	40 %	45 %	15 %	O'rta
4-kurs	35 %	50 %	15 %	O'rta

5.2. Munosabatlar

- 70–80 % talaba SI yordamida ta'lim samaraliroq bo'lishini ta'kidladi.
- 25–30 % talaba plagiat, haddan tashqari ishonch va ijodkorlikning pasayishi haqida xavotir bildirdi.
- Past kurslardagi talabalar ko'proq optimistik, yuqori kursdagilar esa ehtiyotkorona yondashdi.

5.3. Qo'llash amaliyoti

- Ko'proq: xatolarni tekshirish, dasturlashda kodlarni takomillashtirish.
- Kamroq: butun loyiha kodini yaratish, murakkab optimizatsiya, dizayn vizualizatsiyasi.
- Eng ko'p ishlatilgan vositalar: ChatGPT, Deepseek, Gemini, avtomatik baholash platformalari (HackerRank, CodeSignal), virtual laboratoriyalar.

5.4. To'siqlar

- Texnik resurslar yetishmasligi;
- O'qituvchilarning SI metodikasidan yetarli xabardor emasligi;
- Axloqiy muammolar (maxfiylik, akademik halollik);
- Dars rejalarining SI vositalariga moslashmaganligi.

Muhokama

Natijalar xalqaro tadqiqotlarga mos: talabalar SI vositalaridan foydalanishga tayyor va qiziqish bildiradi. Biroq ular ko'pincha SI'ni "tezkor yordamchi" sifatida qo'llashmoqda, chuqur o'rganishga yetarlicha yo'naltirilmagan. Shu bois o'qituvchilarni SI vositalaridan to'liq foydalanish bo'yicha tayyorlash, dars dasturlarini yangilash va etika bo'yicha aniq qoidalar ishlab chiqish zarur.

Xulosa va tavsiyalar

Bunday innovatsion texnologiyalar ta'lim jarayoniga tatbiq etilishi ta'lim sifati va samaradorligini oshirish uchun xizmat qiladi. Masalan sun'iy intellektga asoslangan virtual yordamchilardan pedagog kadrlar va ta'lim oluvchilar savollariga istalgan vaqtda javob olish hamda metodik yordamchi sifatida foydalanib kelinmoqda. Shu bilan birga, sun'iy intellekt inson aqlini to'liq almashtira olmaydi, balki uni kuchaytirishi mumkin. Talabalar o'z ustida ishlashni davom ettirishi, tanqidiy fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirishga e'tibor qaratishi lozim. Agar sun'iy intellekt to'g'ri ishlatilsa, u talabalar uchun kuchli ta'limiy yordamchi bo'lishi mumkin. Ammo noto'g'ri foydalanish unga qaramlikni keltirib chiqarishi va haqiqiy bilim olish jarayoniga to'sqinlik qilishi mumkin. Shuning uchun dastlabki kurslardan oq SI vositalarini integratsiya qilish. O'qituvchilar uchun SI pedagogikasi bo'yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish. Baholash usullarini SI vositalariga moslashtirish lozim.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Lytvynova, S., Rashevskaya, N., Proskura, S. The Use of Artificial Intelligence in Teaching Students Programming Languages. CEUR Workshop Proceedings, Vol. 3781, 2024.
2. Chen, L., Chen, P., Lin, Z. Artificial Intelligence in Education: A Review. IEEE Access, 2020.
3. Hooda, M., Rana, C., Dahiya, O., Rizwan, A., Hossain, M. S., va boshq. Artificial Intelligence for Assessment and Feedback to Enhance Student Success in Higher Education. Mathematical Problems in Engineering, 2022.

4. UNESCO. AI and Education: Challenges, Risks, Opportunities. Paris, 2021.
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. Informatika ta'limida sun'iy intellektdan foydalanish metodikasi. Toshkent, 2023.

TABIYIY TILNI QAYTA ISHLASH YONDOSHUVI ASOSIDA BAZIS SO'ZLARNI AJRATIB OLISH TEXNIKASI: MATEMATIKA FANI MISOLIDA

Khajibaeva Surayyo¹

¹Al-Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti "Kompyuter ilmlari va sun'iy intellekt texnologiyalari" kafedrası o'qituvchisi, surayyo.khajiboyeva@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17624432>

Annotatsiya. Ta'lim tizimida o'qitish jarayonini rivojlantirish har jihatdan dolzarb masala hisoblanadi. Aniq fanlar qatoridan o'rin olgan matematika(katta sinflarda algebra, geometriya) fanlari kesimida aniq tushuncha va tamoyillarni o'rganib chiqish, o'quvchining yil davomida o'rganagan bilimlarini belgilab beradi. Ushbu ishda matematika faniga tegishli bo'lgan bazis so'zlarni aniqlash masalasini o'rganib chiqilgan. Buning uchun matematika fanlaridan iborat matematika korpusi yaratilib, unda 13 ta matematika darsliklari jamlangan. Bundan tashqari, bazis so'zlarni ajratib olish uchun Azim Xojayevning "O'zbek tilining sinonimlar lug'ati" kitobi asosida Sinonimlar korpusi yaratilgan. Ushbu ishda sinonimlar lug'ati asosida bazis so'zlarni ajratib olish usuli taklif qilingan. Ushbu metod yordamida avvalgi sinflarda uchramagan, aynan o'sha sinfga xos bo'lgan yangi bazis so'zlar ajratib olinadi. Metodning asosiy g'oyasi – har bir sinfning lemmalar to'plami ichidan sinonimlar korpusidan foydalangan holda bazis so'zlarni ajratib olishdan iborat.

Kalit so'zlar: bazis so'z, unikal token, sinonimlar korpusi, matematika korpusi, lemmatizatsiya, yuqori chastotalar.

KEYWORD EXTRACTION TECHNIQUE BASED ON NATURAL LANGUAGE PROCESSING APPROACH: ON THE EXAMPLE OF MATHEMATICS

Khajibaeva Surayyo¹

¹Lecturer of the Department of "Computer Science and Artificial Intelligence Technologies" of Urgench State University named after Al-Beruni

\frac{d\dot{u}_3^n(t)}{dt} &= \left(8i\xi_n^3 p(t)u(x_0, t) - \frac{iq(t)u(x_1, t)}{2\xi_n} + 2i\xi_n \omega(t)u(x_2, t) - \frac{1}{2}A_0^n(t) \right) \dot{u}_3^n(t) \\
&+ \left(24i\xi_n^2 p(t)u(x_0, t) + \frac{iq(t)u(x_1, t)}{2\xi_n^2} + 2i\omega(t)u(x_2, t) - \frac{1}{2}A_1^n(t) \right) \dot{u}_2^n(t) \\
&+ \left(24i\xi_n p(t)u(x_0, t) - \frac{iq(t)u(x_1, t)}{2\xi_n^3} - \frac{1}{2}A_2^n(t) \right) \dot{u}_1^n(t) \\
&+ \left(8ip(t)u(x_0, t) + \frac{iq(t)u(x_1, t)}{2\xi_n^4} - \frac{1}{2}A_3^n(t) \right) \dot{u}_0^n(t),
\end{aligned}$$

$$\begin{aligned}
\frac{d\dot{u}_{m_n-1-\nu}^n(t)}{dt} &= \left(8i\xi_n^3 p(t)u(x_0, t) + 2i\xi_n \omega(t)u(x_2, t) \right) \dot{u}_{m_n-1-\nu}^n(t) \\
&+ \left(24i\xi_n^2 p(t)u(x_0, t) + 2i\omega(t)u(x_2, t) \right) \dot{u}_{m_n-2-\nu}^n(t) + 24i\xi_n p(t)u(x_0, t) \dot{u}_{m_n-3-\nu}^n(t) \\
&+ 8ip(t)u(x_0, t) \dot{u}_{m_n-4-\nu}^n(t) - \sum_{s=\nu}^{m_n-1} \left(\frac{(-1)^{m_n-1-s} iq(t)u(x_1, t)}{2\xi_n^{m_n-s}} + \frac{1}{2}A_{m_n-1-s}^n(t) \right) \dot{u}_{s-\nu}^n,
\end{aligned}$$

$$n = \overline{1, N}, \quad \nu = m_n - 1, m_n - 2, \dots, 0.$$

Пример 1. Рассмотрим следующую задачу

$$u_{xt} + \frac{1}{2t+1} \left(\frac{3}{2} u_x^2 u_{xx} + u_{xxxx} \right) = \frac{1}{4t+2} \sin u + \frac{2}{2t+1} u_{xx} + 2(f_{11}^2 - f_{12}^2),$$

$$L f_1 = \xi_1 f_1, \quad u(x, 0) = 4 \arctan(e^{-2x}).$$

Здесь

$$2 \int_{-\infty}^{\infty} f_{11}(x, t) f_{12}(x, t) dx = A_0(t) = -\frac{1}{4t+2}.$$

Решение данной задачи Коши имеет вид:

$$u(x, t) = 4 \arctan((2t+1)e^{-2x}), \quad f_{11}(x, t) = -\frac{(2t+1)e^{-3x}}{1+(2t+1)^2 e^{-4x}}, \quad f_{12}(x, t) = \frac{e^{-x}}{1+(2t+1)^2 e^{-4x}}.$$

Литература

1. Wazwaz A.M. N-soliton solutions for the integrable modified KdV -sine-Gordon equation. Phys. Scr., (2014), 89, 065805.
2. Hoitmetov U.A. On the Cauchy problem for the mKdV-sine-Gordon equation with an additional term // Acta Applicandae Mathematicae, 2023, 184, 7. 15 pages.
3. Hoitmetov U.A. Integration of the loaded mKdV-sine-Gordon equation with a source // Siberian Electronic Mathematical Reports, (2023), Vol. 20, No. 2, pp. 859-879.

4. Khasanov A.B., Khasanov T.G., Cauchy problem for the Korteweg-de Vries equation in the class of periodic infinite-gap functions // Journal of Mathematical Sciences, Vol. 283, №4, August, 2024, pp. 674-689.
5. Khasanov A.B., Khasanov T.G. Integration of a nonlinear Korteweg–de Vries Equation with a loaded term and a source // Journal of Applied and Industrial Mathematics, 2022, Vol. 16, №2, pp. 227–239.

YO'L HARAKATI XAVFSIZLIGI VA BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA INTELLEKTUAL TRANSPORT TIZIMLARINING INNOVATSION IMKONIYATLARI

Uralbayev Anvar Ubaydullayevich¹

¹PhD, Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali o'qituvchi, anvarubaydullayev@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17624639>

Annotatsiya: Ushbu maqolada yo'l harakati xavfsizligi va barqarorligini oshirishda zamonaviy intellektual transport tizimlarining (ITT) o'rni tahlil qilingan. Tadqiqotda raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan nazorat vositalari hamda aqlli boshqaruv yechimlari yordamida transport oqimlarini optimallashtirish, tirbandliklarni kamaytirish va avariya xavfini minimallashtirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, yo'l harakati xavfsizligini boshqarishda sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (big data) va geoinformatsion tizimlarning integratsiyasi alohida ko'rib chiqilgan. Maqolada intellektual transport tizimlarini joriy etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, barqaror rivojlanish, samarali logistika va ekologik muhofazaga qo'shadigan hissasi ilmiy asosda tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, aqlli transport texnologiyalarini qo'llash nafaqat xavfsizlik va samaradorlikni oshiradi, balki milliy transport tizimining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Intellektual transport tizimlari (ITT); yo'l harakati xavfsizligi; transport barqarorligi; aqlli texnologiyalar; sun'iy intellekt; raqamli monitoring; barqaror rivojlanish; transport boshqaruvi.

INNOVATIVE CAPABILITIES OF INTELLIGENT TRANSPORT SYSTEMS IN ENSURING ROAD TRAFFIC SAFETY AND SUSTAINABILITY

Uralbayev Anvar Ubaydullayevich¹

¹Lecturer of the Department of "Exact Sciences", Kimyo International University in Tashkent Samarkand Branch, Uzbekistan

Abstract: This article analyzes the role of modern Intelligent Transport Systems (ITS) in enhancing road traffic safety and sustainability. The study highlights issues related to optimizing traffic flows, reducing congestion, and minimizing accident risks through the use of digital technologies, automated control tools, and intelligent management solutions. Special attention is given to the integration of artificial intelligence, big data, and geoinformation systems in road safety management. The article provides a scientific rationale for the socio-economic significance of implementing intelligent transport systems and their contribution to sustainable development, efficient logistics, and environmental protection. The research findings demonstrate that the application of intelligent transport technologies not only improves safety and efficiency but also ensures the long-term sustainability of the national transport system.

Keywords: Intelligent Transport Systems (ITS); road traffic safety; transport sustainability; intelligent technologies; artificial intelligence; digital monitoring; sustainable development; transport management.

Kirish. Hozirgi davrda transport sohasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri sifatida beqiyos ahamiyat kasb etmoqda. Aholi sonining ortishi, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi, avtomobil vositalarining ko'payishi va global integratsiya yo'l harakati jarayonlarini yanada murakkablashtirmoqda. Natijada yo'l transporti tirbandliklari, ekologik muammolar hamda avariya xavfining ortishi kuzatilmoqda. Shu bois, transport tizimining samarali boshqaruvini ta'minlash va yo'l harakati xavfsizligini oshirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda intellektual transport tizimlari (ITT) ushbu muammolarga innovatsion yechim sifatida taklif qilinmoqda. ITT zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslanib, transport oqimlarini avtomatlashtirilgan nazorat qilish, tezkor monitoring, xavfsizlikni oshirish va barqaror rivojlanishni ta'minlash imkonini beradi. Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (big data), geoinformatsion tizimlar va aqlli sensor texnologiyalaridan foydalanish orqali yo'l harakati jarayonlarini optimallashtirish, avariya xavfini kamaytirish hamda transport barqarorligini oshirishga erishilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda yo'l harakati xavfsizligini mustahkamlash, zamonaviy transport boshqaruv mexanizmlarini joriy etish va ITT asosida barqaror transport tizimini shakllantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayon milliy transport infratuzilmasining samaradorligini oshirish, aholiga qulay va xavfsiz transport xizmatlari ko'rsatishni kengaytirish hamda xalqaro standartlarga mos raqobatbardosh transport tizimini barpo etishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy intellektual transport tizimlarini tadqiq etish masalasi dunyo miqyosida keng qamrovli ilmiy izlanishlarning markazida turibdi. Xalqaro miqyosdagi ko'plab tadqiqotlarda (Banister, 2019; Litman, 2021) yo'l harakati xavfsizligi va transport barqarorligini ta'minlashda raqamli texnologiyalarning ahamiyati chuqur tahlil qilingan. Jumladan, Yevropa Ittifoqi davlatlarida ITS'ni joriy etish orqali avariya sonini 25–30% ga kamaytirish, transport oqimlarini 15–20% ga optimallashtirish mumkinligi ilmiy jihatdan asoslangan. AQSh va Yaponiya tajribalarida esa sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari yo'l transporti xavfsizligini ta'minlashda asosiy mexanizmlardan biri sifatida qaralmoqda (Zhang & Wang, 2020).

Mahalliy tadqiqotlarda ham ushbu masalaga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston olimlari tomonidan yo'l harakati xavfsizligini oshirishda raqamli monitoring, GPS tizimlari, videokuzatuv vositalari hamda aqlli boshqaruv texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha izlanishlar olib borilgan (Rasulov, 2022; Karimov, 2023). O'zbekiston Respublikasining "Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash konsepsiyasi" va tegishli hukumat qarorlarida transport boshqaruvini modernizatsiya qilish, ITT'ni joriy etish va shu orqali milliy transport tizimining barqarorligini ta'minlash strategik maqsad sifatida belgilangan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, intellektual transport tizimlari nafaqat yo'l harakati xavfsizligini oshiradi, balki iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash, ekologik muammolarni kamaytirish va urbanizatsiya jarayonlarini barqarorlashtirishda ham muhim rol o'ynaydi. Demak, ITT'ni joriy etish O'zbekiston sharoitida transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish va xalqaro standartlarga mos raqobatbardosh tizimni shakllantirishning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur tadqiqot yo'l harakati xavfsizligi va transport tizimining barqarorligini oshirishda zamonaviy intellektual transport tizimlarining (ITT) qo'llanishini ilmiy asosda o'rganishga qaratilgan. Metodologik asos sifatida tizimli yondashuv, taqqoslama tahlil va empirik tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Birinchidan, tizimli yondashuv asosida transport tizimi murakkab ijtimoiy-texnik tizim sifatida ko'rib chiqildi. Bu yondashuv yordamida yo'l harakati xavfsizligiga ta'sir etuvchi omillar – transport oqimlari, texnologik infratuzilma, boshqaruv mexanizmlari hamda inson omili – o'zaro bog'liq holda tahlil qilindi.

Ikkinchidan, taqqoslama tahlil usuli orqali rivojlangan davlatlar (Yaponiya, AQSh, Germaniya) da ITT joriy etish tajribasi hamda O'zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan islohotlar qiyosiy o'rganildi. Bu jarayon milliy transport tizimini rivojlantirish uchun mos bo'lgan mexanizmlarni aniqlash imkonini berdi.

Uchinchidan, empirik tadqiqotlar doirasida mavjud statistik ma'lumotlar, rasmiy hukumat hisobotlari, xalqaro tashkilotlar (Jahon banki, BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasi) hamda ilmiy adabiyotlarda keltirilgan tahliliy materiallardan foydalanildi. Shuningdek, transport xavfsizligiga oid so'nggi yillardagi milliy va xalqaro normativ-huquqiy hujjatlar o'rganildi.

Shuningdek, tadqiqotda ilmiy model va prognozlash usullaridan foydalanilib, ITT joriy etilishining yo'l harakati xavfsizligi, avariya soni va transport oqimlarining barqarorligiga ta'siri nazariy jihatdan baholandi. Ushbu yondashuv tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi va amaliy ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot jarayonida intellektual transport tizimlari (ITT)ning yo'l harakati xavfsizligi va barqarorligini oshirishdagi o'rni chuqur tahlil qilindi. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, ITT keng joriy etilgan mamlakatlarda yo'l-transport hodisalari soni o'rtacha 20–30 foizga kamaygan, transport oqimlari esa 15–20 foizga samaraliroq boshqarilmoqda (Litman, 2021; Zhang Wang, 2020). Bu holat, ayniqsa, katta shaharlarda tirbandliklarning kamayishi va ekologik barqarorlikning yaxshilanishida o'z aksini topmoqda.

O'zbekiston sharoitida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha davlat darajasida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, yo'llarda avtomatlashtirilgan tezlik nazorati kameralarining o'rnatilishi, onlayn monitoring tizimlarining kengayishi va mobil ilovalar orqali transport harakatini boshqarish tajribasi ijobiy natijalar bermoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ayrim hududlarda yo'l-transport hodisalari 10–15 foizga kamaygani kuzatilmoqda (Karimov, 2023).

Shuningdek, tadqiqot davomida ITT joriy etilishi nafaqat xavfsizlik ko'rsatkichlarini yaxshilash, balki iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashda ham muhim omil ekani aniqlandi. Transport oqimlarining optimallashtirilishi yoqilg'i sarfini kamaytirib, tashish xarajatlarini pasaytiradi, ekologik zararlarni esa sezilarli darajada qisqartiradi. Bu esa milliy transport tizimining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston sharoitida intellektual transport tizimlarini keng miqyosda joriy etish kelgusida yo'l harakati xavfsizligini oshirish, transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish va xalqaro standartlarga mos barqaror transport tizimini shakllantirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash va transport tizimining barqarorligini oshirishda zamonaviy intellektual transport tizimlari (ITT) muhim strategik ahamiyatga ega. ITT yordamida transport oqimlarini samarali boshqarish, tirbandliklarni kamaytirish, avariya xavfini sezilarli darajada qisqartirish va ekologik muhitga salbiy ta'sirni minimallashtirish mumkin. Xalqaro tajriba ko'rsatganidek, ITT'ni keng ko'lamda joriy etish yo'l harakati xavfsizligini 20–30 foizga oshirish imkonini bermoqda.

O'zbekiston sharoitida ham mazkur tizimlarni bosqichma-bosqich joriy etish, milliy transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektdan foydalanish yo'l harakati xavfsizligini oshirishda muhim natijalar bermoqda. Shu bilan birga, ITT nafaqat transport xavfsizligini ta'minlaydi, balki iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, yoqilg'i sarfini kamaytiradi hamda barqaror rivojlanish tamoyillariga mos ekologik muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, intellektual transport tizimlarini rivojlantirish O'zbekistonning transport siyosatida ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lishi zarur. Bu borada davlat, ilmiy muassasalar va xususiy sektor hamkorligini kengaytirish, xalqaro tajribani milliy sharoitga moslashtirish hamda innovatsion yechimlarni tatbiq etish kelgusida milliy transport tizimining xavfsizligi va barqarorligini ta'minlashning eng samarali yo'li hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Banister, D. (2019). Transport for sustainable development: Linking theory and practice. London: Routledge.
2. Litman, T. (2021). Transportation and environmental policy: Evaluating intelligent transport systems. Journal of Transport Policy, 105, 11–22.
3. Zhang, Y., Wang, J. (2020). Application of artificial intelligence in intelligent transportation systems. IEEE Access, 8(1), 145731–145743.
4. European Commission. (2022). EU strategy on Intelligent Transport Systems. Brussels: EU Publications.
5. World Bank. (2021). Digitalizing transport: Opportunities for safety and sustainability. Washington, DC: World Bank Group.
6. Rasulov, S. (2022). O'zbekistonda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashda raqamli texnologiyalar roli. Transport va logistika jurnali, 3(2), 45–52.
7. Karimov, A. (2023). Intellektual transport tizimlarini joriy etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. O'zbekiston fanlar akademiyasi axborotnomasi, 1(1), 77–84.
8. United Nations Economic Commission for Europe (UNECE). (2020). Intelligent transport systems for road safety. Geneva: UN Publications.
9. Aliev, M. (2021). Sun'iy intellekt asosida transport oqimlarini boshqarish muammolari va yechimlari. Axborot texnologiyalari va tizimlari, 2(4), 99–106.
10. International Transport Forum (ITF). (2023). Smart transport policies for safe and resilient mobility. Paris: OECD Publishing.

INFORMATIKA FANINI O'QITISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI AMALGA OSHIRISH UCHUN EDUCAPLAY DASTURINING IMKONIYATLARI VA AFZALLIKLARI

Ximmatov Ibodilla Qudratovich¹

*¹Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali "Aniq fanlar" kafedrasida o'qituvchisi,
Ximmatov010889@gmail.com*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17624658>

Annotatsiya. Ushbu maqolada informatika fanini o'qitishda raqamli transformatsiyani amalga oshirishda Educaplay platformasining imkoniyatlari va afzalliklari tahlil qilingan. Platformaning interaktiv topshiriqlar yaratish, o'quv jarayonini jonlantirish va o'quvchilarni darsga faol jalb etishdagi roli yoritilgan. Educaplay vositasining testlar, krossvordlar, so'z topish, interaktiv videolar kabi topshiriqlar orqali dars samaradorligini oshirishi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Informatika fanini o'qitish, raqamli transformatsiya, Educaplay platformasi, interaktiv ta'lim, raqamli ta'lim texnologiyalari, gamifikatsiya, multimediyaviy topshiriqlar, raqamli kompetensiya, onlayn o'quv resurslari.

THE CAPABILITIES AND ADVANTAGES OF THE “EDUCAPLAY” FOR IMPLEMENTING DIGITAL TRANSFORMATION IN COMPUTER SCIENCE EDUCATION

Khimmatov Ibodilla Kudratovich¹

¹Lecturer of the Department of “Exact Sciences”, Kimyo International University in Tashkent Samarkand Branch, Uzbekistan

Annotation. This article analyzes the capabilities and advantages of the Educaplay platform in implementing digital transformation in the teaching of computer science. The platform's role in creating interactive tasks, enhancing the learning process, and actively engaging students in lessons is highlighted. It is substantiated that activities such as quizzes, crosswords, word searches, and interactive videos on Educaplay contribute to increasing lesson effectiveness.

Keywords: Teaching computer science, digital transformation, Educaplay platform, interactive learning, digital educational technologies, gamification, multimedia tasks, digital competence, online learning resources.

Bugungi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida barcha sohalarida, xususan, ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, informatika fani zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining poydevorini tashkil etuvchi muhim fan sifatida hisoblanadi. Shu sababli ham ushbu fanni o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalar, raqamli vositalar va innovatsion yondashuvlar keng qo'llanilmoqda.

Xususan, informatika fanini o'qitishda raqamli platformalar, mobil ilovalar, veb-resurslar, sun'iy intellektga asoslangan dasturlar hamda gamifikatsiya elementlari asosida tashkil etilgan interaktiv topshiriqlar yordamida darslarni samarali o'tkazish mumkin. Bunda o'quvchilar nafaqat nazariy bilimlarga ega bo'ladilar, balki ularni amaliyotda qo'llash malakalarini ham rivojlantiradilar.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, Educaplay kabi interaktiv platformalar informatika fanini o'qitishda katta imkoniyatlar yaratadi. Ushbu platforma orqali o'quvchilarning fan bo'yicha bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash, ularni qiziqtirish, motivatsiyasini oshirish hamda o'quv jarayoniga faol jalb etish mumkin bo'ladi. Educaplay o'zining ko'p funksiyali va qulay interfeysi bilan o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi aloqani mustahkamlaydi, o'qitish jarayonini individuallashtirish imkonini beradi.

Raqamli transformatsiya sharoitida informatika fanini o'qitish faqatgina texnik vositalardan foydalanish emas, balki o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan o'qitish konsepsiyasini hayotga tatbiq etishdir. Shu sababli, mazkur maqolada Educaplay platformasining o'ziga xos xususiyatlari, afzalliklari va ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri tahlil qilinadi.

Ushbu platforma onlayn rejimda ishlaydi va istalgan qurilma orqali kirish imkonini beradi, bu esa o'z navbatida uni ta'lim jarayonining har qanday bosqichiga moslashtirish imkonini yaratadi.

Platforma orqali foydalanuvchilar testlar va viktorinalar, krossvordlar, so'z topish (Word search), xaritalar bilan ishlash, interaktiv videolar, rasm va tovush asosida topshiriqlar, Moslikni topish, bog'lash, joylashtirish topshiriqlari kabi interaktiv resurslarni yaratish imkoniyatiga ega.


Platformaning yana bir muhim jihati — u orqali yaratilgan topshiriqlarni onlayn baham ko'rish, QR kod yoki havola orqali tarqatish, natijalarni kuzatish va avtomatik tahlil qilish funksiyalarining mavjudligidir. Bu o'qituvchilarga o'quvchilarning mustaqil ishlash natijalarini kuzatish, kamchiliklarni aniqlash va individual yondashuvni shakllantirishda ko'mak beradi.

Educaplay bugungi kunda nafaqat informatika, balki til o'rganish, tarix, geografiya, biologiya va boshqa ko'plab fanlar bo'yicha ham faol foydalanilmoqda. Uning foydalanish soddaligi va pedagogik moslashuvchanligi uni zamonaviy raqamli ta'lim vositalari orasida yetakchi o'ringa olib chiqmoqda.

Informatika fanini o'qitishda Educaplay platformasi o'quvchilarning mustaqil ishlashi uchun interaktiv topshiriqlar tayyorlash, vizual va eshish materiallarini uyg'unlashtirib, multimediyaviy o'quv muhiti yaratish, darsni gamifikatsiya qilish orqali o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish, topshiriqlar natijalarini avtomatik baholash va tahlil qilish imkoniyati, foydalanuvchi uchun qulay interfeys va turli qurilmalarda ishlash imkoniyatlarni taqdim etadi.

Educaplay platformasi boshqa raqamli ta'lim vositalariga nisbatan bir qator afzalliklarga ega. Jumladan, ushbu platforma bir necha tillarda ishlaydi va bu uni ko'p tilli muhitda foydali qiladi. Shuningdek, Educaplay platformasi bepul rejimda ham asosiy funksiyalarni taqdim etadi. Word-wall kabi platformalarga nisbatan Educaplay topshiriqlarni grafik, tovush, matn va multimedia orqali boyitish imkoniyatini kengroq taqdim etadi.

Educaplay orqali yaratilgan topshiriqlarni boshqa o'qituvchilar bilan bo'lishish va sinfda yoki mustaqil o'rganish uchun foydalanuvchilarga yuborish imkoniyati mavjud (1-rasm). Bu esa o'quvchilar o'rtasida hamkorlik va o'zaro o'rganishni kuchaytiradi.



1-rasm. Educaplay web-saytida foydalanish uchun mavjud bo'lgan o'yin-topshiriqlar ro'yxati.

Xulosa qilib aytganda, raqamli transformatsiya zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas tarkibiy qismiga aylangan bo'lib, bu jarayon o'qitish metodologiyasini tubdan o'zgartirmoqda. Ayniqsa, informatika fanini o'qitishda raqamli texnologiyalar, interaktiv vositalar va onlayn platformalarining roli beqiyosdir. Educaplay platformasi shunday zamonaviy raqamli vositalardan biri sifatida pedagogik amaliyotda keng qo'llanilmoqda va o'zining funksional imkoniyatlari bilan ta'lim jarayonining sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Educaplay o'qituvchilarga nafaqat topshiriqlar yaratish, balki ularni differensiallash, shaxsiylashtirish, monitoring qilish va avtomatik tahlil qilish imkoniyatini beradi. Bu esa o'z navbatida har bir o'quvchining individual yondashuv asosida o'rganishini qo'llab-quvvatlaydi. Shuningdek, platformaning oson interfeysi, ko'p tillilikni qo'llab-quvvatlashi va turli xil qurilmalarda ishlay olishi uni har qanday ta'lim muassasasi uchun mos qiladi.

Ta'limda gamifikatsiya elementlaridan foydalanish o'quvchilar motivatsiyasini oshiradi, darslarni qiziqarli va mazmunli qiladi. Educaplay platformasida yaratilgan testlar, viktorinalar, interaktiv xaritalar, videolar asosidagi topshiriqlar, krossvordlar va boshqa mashg'ulotlar o'quvchilarning axborotni tez anglash, tahlil qilish, muloqot qilish va mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmedova, G. N. (2022). Interaktiv o'qitish vositalari va ularning informatika fanida qo'llanishi. Pedagogik mahorat, 1(1), 77–83.

2. Educaplay. (2024). Interactive learning activities and tools. Rasmiy veb-sayt: <https://www.educaplay.com/>
3. Wordwall. (2024). Create interactive teaching resources. Rasmiy veb-sayt: <https://www.word-wall.net/>
4. Rahmonova, D. T. (2021). Zamonaviy raqamli texnologiyalarning ta'limda o'rni. Ta'limda innovatsiyalar, 4(3), 18–24.
5. Hasanov, S. B. (2023). Gamifikatsiya asosida darslarni tashkil qilish metodikasi. Ilmiy-amaliy elektron jurnal, 6(1), 92–97.
6. UNESCO. (2020). Digital learning during COVID-19: Guidance and recommendations. Paris: UNESCO Publishing.
7. Qodirov, J. R. (2023). Raqamli kompetensiyalar va ularni rivojlantirishning dolzarb jihatlari. Axborot texnologiyalari ta'limda, 2(1), 34–39.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЯЗЫКА ПРОГРАММИРОВАНИЯ ПУТХОН ДЛЯ СТАТИСТИКИ

Эргашев Шарофиддин Кучкарович¹

Преподаватель кафедры «Точных наук» Самаркандского филиала Международного университета Кимё, Узбекистан, sharofiddinergashev@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17624674>

Аннотация: В статье рассматривается использование языка программирования Python для статистического анализа данных. Описаны основные преимущества Python, такие как простота синтаксиса, наличие богатого набора библиотек и развитое сообщество. Приведены примеры вычисления описательных статистических показателей и построения диаграмм.

Ключевые слова: Python, статистика, анализ данных, NumPy, pandas, SciPy, statsmodels, matplotlib, seaborn, визуализация, обработка данных.

USING THE PYTHON PROGRAMMING LANGUAGE FOR STATISTICS

Ergashev Sharofiddin Kuchkarovich¹

¹Lecturer of the Department of "Exact Sciences", Kimyo International University in Tashkent Samarkand Branch, Uzbekistan

Abstract: The article discusses the use of the Python programming language for statistical data analysis. It describes the main advantages of Python, such as its simple syntax, rich library collection, and active community. The article provides examples of calculating descriptive statistics and creating charts.

Keywords: Python, statistics, data analysis, NumPy, pandas, SciPy, statsmodels, matplotlib, seaborn, visualization, data processing.

В современном мире статистика играет важную роль в науке, бизнесе, медицине и многих других сферах. С развитием технологий всё большее значение приобретают инструменты, позволяющие автоматизировать процесс анализа данных. Одним из самых популярных и удобных инструментов является язык программирования Python. Благодаря своей простоте, богатым библиотекам и широкому сообществу, Python стал основным инструментом для статистического анализа данных.

Python обладает рядом преимуществ, которые делают его незаменимым инструментом для статистического анализа:

1. Простота синтаксиса и легкость освоения.
2. Большое количество библиотек для анализа данных (NumPy, pandas, SciPy, statsmodels).
3. Встроенные средства для визуализации (matplotlib, seaborn).
4. Возможность интеграции с другими языками и платформами.
5. Активное сообщество и большое количество учебных материалов.

Для статистических расчетов в Python используются следующие основные библиотеки:

1. NumPy — библиотека для работы с массивами и выполнения базовых математических операций.
2. Pandas — мощный инструмент для обработки и анализа табличных данных.
3. SciPy — библиотека для выполнения статистических тестов и сложных расчетов.
4. Statsmodels — специализированная библиотека для статистического моделирования.
5. Seaborn и matplotlib — инструменты для визуализации данных.

В статистическом анализе с помощью Python часто применяются следующие функции:

- **.mean()** — вычисляет среднее значение.
- **.median()** — находит медиану.
- **.mode()** — определяет моду (наиболее часто встречающееся значение).
- **.std()** — стандартное отклонение, показывает разброс данных.
- **.var()** — дисперсия, мера изменчивости данных.
- **.corr()** — вычисляет коэффициент корреляции между переменными.

Эти функции позволяют проводить как базовый описательный анализ, так и подготовку данных для более сложных статистических моделей.

Пример 1. Рассмотрим пример вычисления основных статистических показателей с помощью библиотеки pandas:

```
# Импортируем библиотеку
import pandas as pd

# Создаем данные
data = pd.DataFrame({
    'Оценки': [5, 4, 3, 5, 4, 5, 2, 3, 4, 5]
})

# Среднее значение
print("Среднее:", data['Оценки'].mean())

# Медиана
print("Медиана:", data['Оценки'].median())

# Стандартное отклонение
print("Стандартное отклонение:", data['Оценки'].std())
```

Программа выдает ответ мгновенно:

Среднее: 4.0

Медиана: 4.0


Стандартное отклонение: 1.0540925533894598

Пример 2: Визуализация данных. Для наглядности результатов статистического ана-

лиза применяют визуализацию. Рассмотрим построение различных диаграмм с помощью matplotlib:

```
import matplotlib.pyplot as plt
# Данные
data = [5, 4, 3, 5, 4, 5, 2, 3, 4, 5]

# Гистограмма
plt.hist(data, bins=5, color='skyblue', edgecolor='black')
plt.title(«Распределение оценок»)
plt.xlabel(«Оценки»)
plt.ylabel(«Частота»)
plt.show()
```




Фигура 1. Гистограмма

```
# Круговая диаграмма
plt.pie([data.count(i) for i in set(data)], labels=set(data), autopct='%1.1f%%')
plt.title(«Распределение оценок (круговая диаграмма)»)
plt.show()
```



Фигура 2. Круговая диаграмма

```
# Линейный график
plt.plot(data, marker='o', linestyle='-', color='green')
plt.title("Динамика оценок")
plt.xlabel("Номер элемента")
plt.ylabel("Значение")
plt.show()
```



Фигура 3. Линейный график

Заключение

Все эти вычисления и визуализации можно было сделать и при помощи программы Microsoft Excel. Разница в том что Python, в общем случае, может работать значительно быстрее, чем Excel, особенно при работе с большими объемами данных и сложными вычислениями. Таким образом, язык Python является мощным инструментом для статистики. Его библиотеки позволяют выполнять как простые вычисления, так и сложный анализ данных, строить модели и визуализировать результаты. Благодаря своей гибкости и широким возможностям, Python используется как в академической среде, так и в бизнесе.

Список использованных литератур:

1. Shodiyev X.A., Habibullayev I.H. "Statistika" Toshkent nashriyoti 2019
2. James McClave, P.George Benson, Terry Sincich "Statistics for business and economics" 14th edition. 2021
3. Paul Newbold, William Carlson, Betty Thorne "Statistics for Business and Economics" global edition. 2022

Aymatov Anvarbek Abdixaliqovich¹

*¹PhD, Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali "Aniq fanlar" kafedrası o'qituvchisi,
aymatovanvarbek1982@gmail.com*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17624691>

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy arxitektura va shaharsozlikda energiya tejamkorlik hamda yashil texnologiyalarni qo'llashning ahamiyati va istiqbollari yoritilgan. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari, ekologik infratuzilma va barqaror rivojlanish tamoyillari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: arxitektura, shaharsozlik, energiya tejamkorlik, barqaror rivojlanish, yashil texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik infratuzilma.

INTRODUCTION OF ENERGY EFFICIENCY AND GREEN TECHNOLOGIES IN ARCHITECTURAL DESIGN AND URBAN PLANNING

Aymatov Anvarbek Abdixaliqovich¹

*¹PhD, lecturer of the Department of "Exact Sciences", Kimyo International University in Tashkent
Samarkand Branch, Uzbekistan*

Annotation. The article highlights the importance and prospects of applying energy efficiency and green technologies in modern architecture and urban planning. Renewable energy sources, ecological infrastructure, and principles of sustainable development are analyzed.

Keywords: architecture, urban planning, energy efficiency, sustainable development, green technologies, renewable energy, ecological infrastructure.

Kirish. Global iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslar tanqisligi va aholi sonining ortishi XXI asr shaharsozligi oldiga yangi talablarni qo'ymoqda. Bugungi kunda barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan arxitektura va shaharsozlik konsepsiyalari nafaqat shaharlarning ekologik holatini yaxshilaydi, balki iqtisodiy samaradorlik va aholi turmush sifatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu munosabat bilan energiya tejamkorlik va yashil texnologiyalar muammosi ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Asosiy qism

1. Energiya tejamkor arxitektura va dizayn prinsiplari

Arxitekturada energiya tejamkorlikni ta'minlash quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

Qurilish materiallari: mahalliy va tabiiy manbalardan olingan, qayta ishlanadigan materiallardan foydalanish;

Insolyatsiya va orientatsiya: binolarni quyosh yo'nalishiga mos ravishda joylashtirish orqali tabiiy yorug'lik va issiqlikdan unumli foydalanish;

Iqlimga mos arxitektura: shamoldan muhofaza va tabiiy shamollatish orqali mikroklimatni saqlash;

Fasad va izolyatsiya yechimlari: energiya yo'qotilishini kamaytiruvchi fasad sistemalari, "yashil fasad" va "yashil tom" texnologiyalari.

2. Shaharsozlikda yashil texnologiyalar

Shaharlarning barqaror rivojlanishida quyidagi texnologiyalar muhim ahamiyatga ega:

Yashil infratuzilma: parklar, bog'lar, ko'chalardagi daraxtzorlar shahar mikroklimatini yumsha-

tadi, havoni tozalaydi va aholi uchun dam olish maskanlari yaratadi. Masalan, daraxtzorlar yoz faslida haroratni 3–5 °C ga pasaytiradi.

Innovatsion transport tizimlari: elektr avtobuslar, velosiped yo'llari va piyodalarga qulay maydonlar ekologik toza muhitni ta'minlaydi. Kopengagendagi velosiped yo'llari shaharning "inson-parvar transport" konsepsiyasiga yorqin misol bo'ladi.

Suv resurslarini tejash: yomg'ir suvlarini yig'ish va qayta ishlash tizimlari ko'kalamzorlashtirish va maishiy ehtiyojlarda ishlatiladi. Bunday yechim ichimlik suviga bo'lgan talabni kamaytiradi.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari: quyosh panellari, shamol turbinalari va geotermal energiyadan samarali foydalanish orqali shaharlarning energiya ta'minoti ekologik xavfsiz va barqaror bo'ladi.

3. Yashil texnologiyalarning afzalliklari

Energiya sarfini 30–50% ga kamaytiradi: energiya tejamkor binolarda samaradorlik yuqori. Germaniyadagi "passiva uylar" tajribasi bunga misoldir.

Karbon izini qisqartiradi: qayta tiklanuvchi energiya manbalari orqali atmosferaga chiqariladigan SO₂ chiqindisi sezilarli kamayadi. Masalan, Kopengagen 2025 yilga qadar "karbon neytral shahar"ga aylanishni maqsad qilgan.

Aholining sog'lom turmush tarzini ta'minlaydi: yashil maydonlar, velosiped yo'llari va piyodalarga qulay muhit aholida jismoniy faollikni kuchaytiradi, sog'lom hayot tarzini shakllantiradi. Singapurdagi yashil infratuzilma buning samarali namunasidir.

Shahar estetikasini oshiradi va investitsiyaviy jozibadorlikni kuchaytiradi: Dubaydagi "Sustainable City" shahar qiyofasini zamonaviy va ekologik jihatdan toza qilib, turizm va sarmoya jalb qilishda samarali loyiha sifatida namoyon bo'lmoqda.

4. O'zbekistonda yashil texnologiyalarni joriy etish istiqbollari

O'zbekiston iqlimi quyosh energiyasi va shamol resurslaridan samarali foydalanish uchun katta imkoniyat yaratadi. Mamlakatda "Yashil makon" dasturi asosida daraxtzorlar tashkil etilayotgani, uy-joy binolarida quyosh panellari o'rnatilishi va energiya samarador materiallardan foydalanish ishlari amalga oshirilayotgani bu yo'nalishdagi ijobiy qadamlardir. Shu bilan birga, elektr avtobuslar va velosiped yo'llarini joriy etish, geotermal energiyadan foydalanish istiqbolli hisoblanadi. Yashil texnologiyalarning rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotiga investitsiya jalb etish va aholi turmush sharoitini yaxshilashga xizmat qiladi.

Xulosa va tavsiyalar. Arxitektura va shaharsozlikda yashil texnologiyalarni joriy etish ekologik barqarorlik, energiya tejamkorlik va aholi turmush sifatini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Jahon tajribasi bu texnologiyalarning samaradorligini tasdiqlaydi. O'zbekistonda ham quyoshli iqlim, tabiiy resurslar va davlat siyosati bu sohada keng imkoniyat yaratmoqda.


Tavsiyalar

Yashil texnologiyalarni me'yoriy-huquqiy hujjatlar orqali majburiy standart sifatida joriy etish. Energiya samarador materiallar va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanish. Shaharlarda yashil infratuzilmani (bog'lar, parklar, yashil fasadlar va tom bog'larini) rivojlantirish.

Ekologik toza transport turlarini (elektr avtobuslar, metro va velosiped yo'llari) kengaytirish.

Innovatsion qurilish texnologiyalari va "aqli uy" konsepsiyalarini amalga oshirish.

Ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish va mahalliy sharoitga mos yechimlar ishlab chiqish.



Yashil texnologiyalarni targ'ib qilish va aholida ekologik madaniyatni oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xashimov B. "Barqaror shaharsozlik va ekologik me'morchilik". – Toshkent: Fan, 2021.
2. Xusanov A. "Energiya samarador arxitekturada zamonaviy yechimlar". – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2022.
3. United Nations. World Urbanization Prospects. – New York: UN, 2020.
4. European Commission. Energy-efficient buildings. – Brussels, 2021.
5. OECD. Green Growth in Cities. – Paris: OECD Publishing, 2019.
6. Copenhagen City Council. Copenhagen Climate Plan 2025. – Copenhagen, 2020.
7. Singapore Urban Redevelopment Authority. Green Infrastructure Policy. – Singapore, 2019.
8. Dubai Municipality. Sustainable City Project Report. – Dubai, 2021.

FLORISTIKA TUSHUNCHASI. FLORISTIKANING INTERYERLARDA QO'LLANILISHI VA SHAKLLANISHI

Mustayev Bahrom Bahodirovich¹

¹PhD, Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali "Aniq fanlar" kafedrası o'qituvchisi,
bahrommustaev@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17624703>

Annotatsiya: Ushbu maqolada floristika san'ati haqidagi tushunchalar va uni interyerlarda qo'llanilish va shakllanish tarixi qisman yoritilgan bo'lib, uni yopiq muhitlarda foydalanish bo'yicha xorijiy tarixiy tajribalar yuzasidan tahliliy ma'lumotlar o'rganilgan. Bundan tashqari ushbu san'atni binolarda ekologik, estetik hamda sog'lom turmush tarzini yaxshilashning bir faktori sifatida qarang.

Kalit so'zlar: Landshaft, yopiq muhit, arxitektura, floristika, shaharsozlik, oranjereya, yashil makon, yashil energetika.

THE CONCEPT OF FLORISTRY. THE USE AND FORMATION OF FLORISTRY IN INTERIORS

Mustayev Bahrom Bahodirovich¹

¹PhD, lecturer of the Department of "Exact Sciences", Kimyo International University in Tashkent
Samarkand Branch, Uzbekistan

Abstract: This article partially covers the concepts of floristic art and the history of its use and formation in interiors, and analyzes foreign historical experiences in its use in indoor environments. In addition, this art is considered as a factor in improving the ecological, aesthetic and healthy lifestyle in buildings.

Keywords: Landscape, indoor environment, architecture, floristics, urban planning, greenhouse, green space, green energy.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Hozirgi kunga kelib yurtboshimiz tashabbuslari va rahbarligida amalga oshirilayotgan arxitektura va shaharsozlikka doir yirik loyihalarni amaliyotga tadbqiq etish, olimlar, arxitektorlar, dizaynerlar hamda amaliy san'at ahillarini respublikada landshaft dizaynini rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari va ilmiy amaliy ishlarni bajarish to'g'risidagi Farmon va ushbu sohaga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining - respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida 2021-yil 30-dekabr PF-46-son farmoni, hamda, 2022 yil 28 yanvarda 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi PF-60-son farmoni qabul qilindiki, unda ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash, "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirish to'g'risidagi masalalar ham ko'rib chiqildi. Qo'shni mamlakatlar bilan birgalikda Mintaqaviy iqlim strategiyasini amalga oshirishga kirishildi. Poytaxtimizda Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishlarini o'rganish universiteti tashkil etildi.

Shuningdek, O'zbekiston BMT tomonidan bu borada qabul qilingan ikkita muhim rezolyutsiyaning tashabbuskori bo'ldi. Ayni vaqtda "yashil" energetika iqtisodiyotimiz drayverlaridan biriga aylanmoqda.

Ana shu nuqtai nazardan kelib chiqib aytish mumkinki, bugungi kunda olimlar va qurilish, bunyodkorlik ishlarini olib borayotgan soha vakillari hamjihatligida faqat ochiq hududlardagina emas, balki tururjoy va binolarda ham yashil makonlarga aylantirish, zamonaviy ilmiy-amaliy ishlarni amaliyotga tadbqiq etish va inson sog'lom turmush tarzini yanada yaxshilash, ekologik muammolarni yechishga qaratilgan bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Shunday ekan, jamoat va turarjoy binolari interyerlarida floristik kompozitsiyalarni qo'llashning zamonaviy yo'nalishlarini izlab topish hamda uni amaliyotga tadbqiq etish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlili. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisining 50 foizdan ko'p qismi bugungi kunda shaharlarda iste'qomat qilishadi va 2050 yilga borib 68 foizi shaharlarda yashaydi deb tahlil qilinib [1], kelajakda yuzaga keladigan, aholi uchun qulay turarjoylar sharoiti, sog'liqni saqlash tizimlari, atrof-muhit bilan bog'liq ekologik muammolar va bir qancha faktoralogik muammolarga shahar infratuzilmasi javob bera olmasligi mumkinligini ta'kidlab kelmoqda.

Ijodiy dizayn sohasida diqqat, idrok va qulaylik psixologiyasi estetika bilan chambarchas bog'liq (qadimgi yunon tilidan aisthetikos — sezgi) — inson va dunyo o'rtasidagi qadriyat munosabatlarining badiiy faoliyatidagi namoyon bo'lishini o'rganadigan falsafa sohasi. Agar estetikani tushunishni soddalashtirsangiz, uni "go'zallik ilmi" deb atash mumkin, chunki nemis faylasufi G. V. F. Gegelning asarlaridan keyin san'atshunoslikda aynan shunday tushuncha paydo bo'ldi.

Ko'zga yoqimli va uyg'un kompozitsiyalar yaratish psixologiya va estetika bo'yicha teng bilimlarni talab qiladi. «Estetika-bu dizayner ijodidagi eng muhim vositalardan biri bo'lgan vosita; shakllar va bo'yoqlardan bizga ta'sir qiladigan, bizga yoqadigan, chiroyli, hayajonli, jozibali, ahamiyatli ko'rinadigan haqiqiy ob'yektlarni yaratishga yordam beradigan vosita».

1. Amerika gul dizaynerlari instituti (AIFD) ta'rifiga ko'ra, floristika tartibga solishning oltita asosiy tamoyiliga asoslanadi: muvozanat (Balance), mutanosiblik (Proportion), o'lchov (ritm,

Rhythm), kontrast (Contrast), uyg'unlik (Harmony) va birlik (Unity). Ushbu tamoyillar san'atning estetik nazariyasidan olingan, chunki gullarni tartibga solish me'morchilik va tasviriy san'at kabi umumiy tamoyillarga bo'ysunadi [5].

2018 yil 11 dekabr kuni ekologik yechimlar markazi ko'magida «ROZA AZORA International courses of Floristry» xalqaro floristika kurslari floristik studiyasida ekologik floristika bo'yicha seminar bo'lib o'tdi. Shunday qilib, ekologik yechimlar markazining ekologik toza turmush tarzi dasturi rahbari Darya Chumakova iqlim o'zgarishi nima ekanligini, floristika bilan chiqindilarni qanday kamaytirish va zararli kimyoviy moddalarning inson tanasiga ta'sirini kamaytirish haqida gapirib berdi [6].

Amerika bog'dorchilik fanlari jamiyati ma'lumotlariga ko'ra, gullar qishloq xo'jaligidan oldin paydo bo'lgan va gullarni qabr bezaklari sifatida ishlatilganligi haqidagi dalillar 11000 yildan ko'proq vaqtga to'g'ri keladi, bu bezak sifatida undan ham oldinroq foydalanishni anglatadi. Tarixiy jihatdan gullar ma'naviy va ramziy ahamiyatga ega bo'lib, ibodatxonalarni, saroylarni va hayotiy voqealarni bezatgan va Viktoriya Angliyasida ular maxfiy aloqa vositasi rolini o'ynagan [7].

Havoni faol ravishda tozalash qobiliyati laboratoriya tomonidan tasdiqlangan xona o'simliklarning asosiy ro'yxati AQSh milliy kosmonavtika va aeronavtika agentligi mutaxassislari tomonidan 1973 yildan beri davom etib kelayotgan "NASA toza havo tadqiqotlari" loyihasi doirasida tuzilgan. Loyiha yillar davomida doktor B. Uolverton rahbarligida amalga oshirildi, u 1973 yildan beri quyidagi yuqori samarali filtr turlarini aniqlagan [2].

Psixologiya fani o'z nomini qadimgi yunon psyche — ruh, o'lmas nomoddiy mavjudot sifatida emas, balki miyaning faoliyati va u tomonidan shakllangan insonning ichki, ma'naviy dunyosi sifatida tushunilgan ruhdan olgan. "Ruh haqidagi fan" har qanday sohada, shu jumladan dizaynda juda keng qo'llaniladi. Mutaxassislar (T. Maldonado va boshq.) dizaynni ikki jihatdan ko'rib chiqadi — tashqi (mafkuraviy daraja) va ichki (professional daraja). Bu talab fitodizayn psixologiyasiga ham tegishli bo'lib, u (a) floristika mahsulotini jamoatchilik tomonidan idrok etish psixologiyasiga va (b) floristning kasbiy faoliyati psixologiyasiga oqilona bo'linadi [8].

Floristika psixologiyasining interyerdagi o'simliklarning odamlarga tasalli va tinchlantiruvchi ta'siri kabi jihatiga murojaat qilishga majbur qiladi. Yovvoyi tabiat ob'ektlari bilan aloqa qilishning odamlar salomatligi va farovonligiga ijobiy ta'siri uzoq vaqtdan beri ma'lum; uni o'rganish uchun tibbiy arxitektura sohasidagi amerikalik mutaxassis R.S. Ulrixning landschaft va psixologik farovonlikni vizual idrok etish bo'yicha klassik ishi asos bo'ldi. Ushbu hodisani bildirish uchun amerikalik olim E. Uilson "biofilia" atamasini taklif qilgan [3].

1976 yilda Kopengagenda tug'ilgan Nikolay Bergmann Skandinaviya va yapon dizayn tushunchalarini birlashtirgan noyob konsepsiyasini yaratgan eng taniqli florist rassomlardan biridir.

O'zining amaliyoti asosida gul dizayni bilan Nikolay Bergman ko'plab eng brend tashkilotlar bilan hamkorlik qilib, ayniqsa moda va dizayn sohasida o'z ishini kengaytirishda davom etmoqda.

Shuningdek, u Yaponiya vakili bo'lgan eng taniqli florist rassomlardan biridir [9].

Floristlar haqidagi bir nechta nashrlar orasida biz mashhur zamonaviy Yapon fitodizayneri doktor Shogo Kariyazakining «Gullarga oshiq bo'lgan odam» kitobida o'zining ekstravagant kompozitsiyalari bilan tanilgan usta «mehnat e'tirofi» elementlarini olib boradi va birinchi marta «Gullar-yurak vitaminlari» iborasini ishlatadi.

Britaniyalik florist rassom va taniqli yozuvchi Pauli Sheyn Praykning yorqin karyerasi chuqur o'rganishga loyiqdir. 27 yoshida u maktab o'qituvchisi sifatida ishini tark etdi va fitodizayn bilan shug'ullanib, bu yo'lda dunyo miqyosida tan olindi. Bugungi kunda Pauli Sheyn Prayk ma'ruzalar o'qiydi, floristlar uchun teledasturlarni olib boradi va gulchilar va fitodizaynerlar uchun xalqaro tadbirlarda qatnashadi [8].

Asosiy qism. Floristika - bu turli xil tabiiy materiallardan (gullar, barglar, o'tlar, mevalar, yong'oqlar va boshqalardan) gulli asarlar (kviling, kompozitsiyalar, panellar, kollajlar) yaratishda mujassam bo'lgan dekorativ va amaliy san'at turi), tirik, quruq yoki konservalangan bo'lishi mumkin.

Zamonaviy floristikada dekorativ elementlar sifatida munchoqlar ham ishlatiladi. Fil suyagi rangidagi nozik chinni fonida yorqin aranjirovkalar (hatto oddiy manzarali o'simliklarning yakka kurtagi va barglari ham) nihoyatda go'zal ko'rinadi. Chinni dizayning betakrorligi va kompozisiyaning nafisligini bo'rttirib ko'rsatadi.

Ilk yopiq muhitda issiqlikni yaxshi ko'radigan o'simliklarni yetishtirishga qaratilgan birinchi urinishlar qadimgi Misrga to'g'ri keladi, ammo biz uning qanday amalga oshirilganligi haqida kam ma'lumotga egamiz. Qadimgi Misrda ham odamlar o'z uylarini gullar va gulchambarlar bilan bezashgan [10].

Biroq, Rim davridagi harakatlar algoritmi aniq tushuntirilgan yozuvlar allaqachon mavjud. Masalan, imperator Tiberiy (milodiy 14-37) bodringni yaxshi ko'rganligi va ularni butun yil davomida har kuni iste'mol qilmoqchi bo'lganligi haqida manba'larda keltirilgan. Uning sodiq xizmatchilari imperatorning xursand bo'lishini istab, tuproqda bodring ekilgan aravani ixtiro qilganlar. Kunduzi aravani oftobga chiqarib, kechasi esa xonaga kiritishgan. Aravaning ustiga sovuq havodan himoyalash maqsadida moylangan mato bilan, so'ngra selenit shaffof kristalli choyshab bilan himoyalagan [11].

Keyinchalik antik davrda rimliklar, o'simliklarni o'z turarjoylarida o'stirish uchun qishki bog'larni tashkil etishgan. Shu tariqa shahar muhitida jonli tabiat bilan har doim bahra olish imkoniyatiga ega bo'lishib, bog'da asosan maysazorlar va turli xil atirgullar, nilufar hamda binafsha gullarini o'stirishgan. Afsuski, ushbu san'at turi Rimning qulashi natijasida yo'qotilgan [12].

Ichki bezatish uchun o'simliklardan foydalanishning boshlanishi 1240 yil deb hisoblanadi, o'shanda nemis saroy bog'boni qishda gullaydigan daraxtlar va butalarni olishga muvaffaq bo'lgan. Ular Gollandiya qiroli Vilgelmning ziyofati bo'lib o'tgan xonani bezatdilar [4]. O'simliklarni parvarish qilish uchun maxsus issiqxonalar qurildi.

XV asrga kelib tropik o'lkalardan Yevropaga o'simliklar keltirilgan. Va, asrlar davomida issiqsevar o'simliklar uchun maxsus oranjereyalar va qishki bog'larni tashkil etish texnologiyalari takomillashtirilib kelinmoqda.

Ularni parvarish qilish uchun zarur shart-sharoitlarni o'rganish uchun ko'p vaqt kerak bo'ldi, chunki ko'pincha import qilingan o'simliklarni parvarish qilish ishonib topshirilgan bog'bonlar o'simliklarning na vatanini, na nomini, na o'sish shartlarini bilishmagan. Ko'pincha tropik o'simliklar boy va bilimli odamlarning dam olishlari va o'yin-kulgilari uchun saroylarda yaratilgan "qishki bog'larda" saqlangan. Faqat XIX asrda. o'simliklar shaharliklarning xonalariga kirdi [4].

XVII-XIX asrlarda apelsin va boshqa ekzotik o'simliklar yetishtirishga mo'ljallangan oranjereyalar yevropaning eng boy uylarida ham qurila boshlagan. Masalan, 1805 yilda Venaga kelgan fransuz tabiatshunosi Bori de Sen-Vinsan mahalliy zodagonlarning uylari unda katta taassurot qoldirganligi haqida shunday yozadi: «deyarli barcha zodagon xonimlar o'z uylarini oranjereyalar bilan bezash an'anasi, hatto u yerda qishda ham eng noyob va ajoyib o'simliklarning xushbo'y hidlar ufurib turishi men uchun ajoyib yangilik edi» [13].

Dunyodagi eng futuristik oranjereyalardan biri Ispaniyaning Valensiya shahridagi san'at va fan shahri (Ciudad de las Artes y las Ciencias) hududida me'mor Santyago Kalatravaning (Santiago Calatrava) ishidir. Loyiha 2000 yil amaliyotga tadbqiq etilgan. Me'mor qurilishda shisha, metall va betondan foydalangan. Oranjereya uzun arkali koridor ko'rinishida bo'lib, ning ichida ushbu min-taqaga xos bo'lgan turli xil o'simliklar etishtiriladi [14].

Xulosa qilib aytish mumkinki, ayniqsa, shahar aholisi bir necha yillar davomida "uy o'rmoni" tendensiyasiga ega. Hozirda ko'p qavatli turarjoy va jamoat binolarida o'simliklar juda kam, ayrim-larida esa umuman yo'q desam mubolag'a bo'lmaydi.

Shaharlarda yashovchi har bir kishi uchun ko'kalamzor hududning tavsiya etiladigan minimal miqdori BMT (Bosh assambleya) va Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) tomonidan belgilangan. Unga ko'ra: Har bir kishi uchun minimal ko'kalamzor hudud: 10-15 m² bo'lishi kerak. Ideal holatda esa, bu ko'rsatkich 20 m² yoki undan yuqori bo'lishi tavsiya etiladi. Bu tavsiyalar shahar

aholisining sog'lig'ini yaxshilash, ekologik muvozanatni saqlash va havo sifati, shuningdek, aholi-ning dam olish imkoniyatlarini oshirish uchun ko'zda tutilgan. Shaharlarni rejalashtirishda ushbu standartlarga amal qilish muhim hisoblanadi.

O'zbekistonning ko'plab shaharlarida, shu jumladan Samarqandda ham, yashovchilar uchun mo'ljallangan ko'kalamzor hududlar hali yetarli darajada emas statistik ma'lumotlarga ko'ra ko'kalamzor hudud atiga 0,8 m² ni tashkil etadi bu esa xalqaro standartlarga to'liq javob bermaydi.

Insonlarning tabiatga yaqinlashishga bo'lgan ehtiyoji asosida qishin-yozin tabiat qo'ynida dam olish va xordiq chiqarishga bo'lgan talabi yanada oshib bormoqda. Ayniqsa, qish kunlari yo-piq sun'iy inshootlarda o'simliklarga boy landshaft tashkillashtirilgan hududlarda hordiq chiqarishga bo'lgan talab yanada oshmoqda. Shunday ekan, oranjereyalarni bugungi kunga O'zbekiston amaliyotiga ham tadbqiq etish va ulardan aholining sog'lom turmush tarzi ehtiyojlari uchun samarali foydalanish vaqti keldi deb o'ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. X.Х. Адилов. O'zbekiston shaharlari landshaft muhiti dizaynini kompleks tashkil etish tamoyillarini takomillashtirish. Dissertatsiya. 6-bet. Toshkent-2023 y.
2. Mattson R. H., Park S. H. Therapeutic Influences of Plants in Hospital Rooms on Surgical Recovery//HortScience. 2009. Vo. 44, № 1. P.102–105.
3. Узнадзе Д.Н. Проблема внимания // Труды Тбилисского института и поликлиники функциональных нервных заболеваний. 1945. Т. 2. С. 8.
4. Биодизайн интерьера: учеб. пособие для ср. проф. образования; рек. ФИРО / Т. Н. Лежнева. — М.: Академия, 2011.
5. https://studref.com/391296/etika_i_estetika/
6. <https://ecoidea.me/ru/blogs/3836>
7. www.ashs.org.
8. https://studref.com/391295/etika_i_estetika/psihologicheskiy_aspekt_floristiki
9. <http://www.nicolaibergmann.jp>
10. https://bstudy.net/909261/iskusstvo/evolyutsiya_ozeleneniya_intererov
11. ogorodniki.com.
12. Азы Фито-дизайна. Д. Грожан, В. Кузнецова.
13. Mangin A. Histoire des jardins anciens et modernes. 1887. elledecoration.ru.

ИНТЕГРИРОВАНИЕ НАГРУЖЕННОГО УРАВНЕНИЯ КОРТЕВЕГА-ДЕ ФРИЗА ВЫСОКОГО ПОРЯДКА С ИСТОЧНИКОМ

Хоитметов Умид Азадович¹, Хасанов Темур Гафуржонович², Матёкубова Махлиё Эргашбой кизи³

¹PhD, Доцент, Ургенчкий государственный университете имени Абу Райхона Беруний, urgench_x_umid@mail.ru

²PhD, учитель, Ташкентский Международный Университет Кимё Филиал Самарканд, temur.hasanov.2018@mail.ru

³Магистр, Ургенчкий государственный университете имени Абу Райхона Беруний

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17624710>

Аннотация. В статье представлен алгоритм решения задачи Коши для уравнения Кортевега-де Фриза высокого порядка с источником в классе быстроубывающих функций. При этом решен пример, основанный на данном алгоритме.

Ключевые слова. Уравнения Кортевега-де Фриза, данных рассеяния, Штурма-Лиувилля, интегральное уравнения Гельфанда- Левитана- Марченко.

INTEGRATION OF A LOADED HIGH-ORDER KORTEWEG-DE VRIES EQUATION WITH A SOURCE

Khoitmetov Umid Azadovich¹, Khasanov Temur Gafurzhonovich², Matekubova Makhliyo Ergashboy kizi³

¹PhD, Lecturer of Urgench State University named after Abu Raykhon Beruniy, Uzbekistan

²PhD, Lecturer of Tashkent International University Kimyo Branch Samarkand, Uzbekistan

³Master's student, Urgench State University named after Abu Raykhon Beruniy, Uzbekistan

Annotation. This article presents an algorithm for solving the Cauchy problem posed by the load high-order Korteweg-de Vries equation with a source in the class of rapidly decreasing functions. At the same time, an example is also solved based on this algorithm.

Key words. Korteweg-de Vries equations, scattering data, Sturm-Liouville operator, Gelfand-Levitan-Marchenko integral equations.

Предположим, что

$$H = -\frac{1}{2} \frac{d^3}{dx^3} + 2u \frac{d}{dx} + u'.$$

Здесь $u = u(x, t)$, $u' = u_x$. Не трудно показать, что найдется последовательность полиномов $P_k, k \in \{0\} \cup \mathbb{N}$ (от u и производных u по x), для которой будет верно

$$HP_k = P'_{k+1}, k \in \{0\} \cup \mathbb{N}.$$

Введем следующие операторы

$$L(t) \equiv -\frac{d^2}{dx^2} + u(x, t), B_q = \sum_{k=0}^q \left(\frac{1}{2} P'_k - P_k \frac{d}{dx} \right) (2L(t))^{q-k}.$$

Для этих операторов имеет место

$$[B_q, L(t)] = B_q L(t) - L(t) B_q = -P'_{q+1}.$$

Пусть $c_0, c_1, \dots, c_p$ суть вещественные числа. Если мы введем следующие обозначения

$$Y_p = \sum_{q=0}^p c_q B_q, Z_p = -\sum_{q=0}^p c_q P'_{q+1}$$

то будет верно $[Y_p, L(t)] = Z_p$ уравнение

$$u_t = Z_p(u),$$

принято называть общим уравнением Кортевега-де Фриза.

В этой работе рассмотрим нагруженное уравнение Кортевега-де Фриза высокого порядка с источником следующего вида

$$u_t - Z_p(u) + F(u(0, t))u_x = 2 \sum_{j=1}^N \sum_{l=0}^{m_j-1} C_{m_j-1}^l \frac{d}{dx} (\varphi_j^l \varphi_j^{m_j-1-l}), \quad (1)$$

$$L(t)\varphi_j^l = k_j^2 \varphi_j^l + l\varphi_j^{l-1}, (\operatorname{Im} k_j > 0), j = \overline{1, N}, l = 0, 1, \dots, m_j - 1, \quad (2)$$

где

$$L(t) := -\frac{d^2}{dx^2} + u(x, t), x \in \mathbb{R}, t > 0, C_n^l = \frac{n!}{l!(n-l)!},$$

$F(y)$ – некоторый многочлен от y , и $\varphi_j^l = \varphi_j^l(x, t) \in L^2(\mathbb{R}), \forall t \geq 0, l = \overline{0, m_j - 1}, j = \overline{1, N}$

Систему уравнений (1)-(2) рассмотрим с начальным условием

$$u(x, 0) = u_0(x), \quad x \in \mathbb{R}, \quad (3)$$

где $u_0(x)$ является комплекснозначной и обладает следующими свойствами:

1) при некотором $\varepsilon > 0$, выполняется:

$$\int_{-\infty}^{\infty} |u_0(x)| e^{\varepsilon|x|} dx < \infty, \quad (4)$$

2) оператор $L(0) = -\frac{d^2}{dx^2} + u_0(x)$ является оператором без спектральных особенностей, а также обладает в точности N комплексными собственными значениями $\lambda_1(0), \lambda_2(0), \dots, \lambda_N(0)$ с кратностями $m_1(0), m_2(0), \dots, m_N(0)$.

Положим

$$\frac{1}{(m_j - 1 - l)!} \int_{-\infty}^{\infty} \varphi_j^{m_j-1}(x, t) \varphi_j^{m_j-1-l}(x, t) dx = A_{m_j-1-l}^j(t), l = \overline{0, m_j - 1}, j = \overline{1, N}, \quad (5)$$

в котором $A_{m_j-1-l}^j(t)$ есть первоначально заданные непрерывные функции.

Пусть функция $u(x, t)$ является достаточно гладкой и стремится к нулю при $x \rightarrow \pm\infty$ с вполне допустимой скоростью, т.ч.

$$\int_{-\infty}^{\infty} \left(|u(x, t)| e^{\varepsilon|x|} + \sum_{j=1}^{2p+1} \left| \frac{\partial^j u(x, t)}{\partial x^j} \right| \right) dx < \infty. \quad (6)$$

Кроме того, в классах периодических и быстро убывающих функций алгоритмы решения задачи Коши для нелинейных эволюционных уравнений подробно рассмотрены в работах

[1]–[8].

Теорема 1. Пусть система функций $\{u(x, t), \varphi_j^l(x, t), j = \overline{1, N}, l = \overline{0, m_j - 1}\}$ является решением задачи (1)–(6), то данные рассеяния оператора $L(t)$, потенциалом $u(x, t)$, при $t > 0$ будут изменяться как функция t в соответствии со следующими уравнениями:

$$\begin{aligned} \frac{dS(\sqrt{\lambda}, t)}{dt} &= \left[i\sqrt{\lambda} \sum_{l=0}^p c_l (2\lambda)^l - 2i\sqrt{\lambda} F(u(0, t)) \right] S(\sqrt{\lambda}, t), \quad \frac{d\lambda_n(t)}{dt} = 0, \\ \frac{d\theta_l^n(t)}{dt} &= \left[\sum_{r=0}^p 2^r i c_r \lambda_n^{r+\frac{1}{2}} + A_0^n(t) - 2i\lambda_n^{\frac{1}{2}} F(u(0, t)) \right] \theta_l^n(t) + \\ &+ \left[\sum_{r=0}^p 2^r i c_r \left(l + \frac{1}{2} \right) \lambda_n^{r-\frac{1}{2}} + A_1^n(t) - i \left(\frac{1}{2} \lambda_n^{-\frac{1}{2}} + 1 \right) F(u(0, t)) \right] \theta_{l-1}^n(t) + \\ &+ \sum_{v=2}^r \left[\sum_{r=0}^p 2^r c_r \frac{i}{v!} \prod_{\mu=0}^{v-1} \left(r + \frac{1}{2} - \mu \right) \lambda_n^{r+\frac{1}{2}-v} + A_v^n(t) + \frac{i(-1)^v (2v-3)!}{2^{2v-2} v! (v-2)!} \lambda_n^{-\frac{2v-1}{2}} F(u(0, t)) \right] \theta_{l-v}^n(t), \end{aligned}$$

$$r = 0, 1, 2, \dots, m_n - 1; n = \overline{1, N}.$$

Пример 1. Рассмотрим следующую задачу

$$u_t + 20u_x u_{xx} - 30u^2 u_x + 10u u_{xx} - u_{xxxxx} = -\gamma(t) u(0, t) u_x + 2 \frac{\partial}{\partial x} (\varphi^2(x, t)),$$

$$L(0)\varphi := -\varphi'^2, \quad u(x, 0) = u_0(x) = \frac{8a^2 e^{2iax}}{(1+e^{2iax})^2}, \quad \text{Im } a > 0, \quad x \in \mathbb{R}.$$

$$L(0)\varphi := -\varphi'' + u_0(x)\varphi = k^2\varphi,$$

$$u(x, 0) = u_0(x) = \frac{8a^2 e^{2iax}}{(1+e^{2iax})^2}, \quad \text{Im } a > 0, \quad x \in R.$$

Здесь

$$\int_{-\infty}^{\infty} \varphi^2(x, t) dx = A(t) = \frac{i}{2a} e^{-2 \operatorname{arcsht} t},$$

$$\gamma(t) = 8a^2(t^2 + 1) + \frac{(t^2 + 1)e^{-2 \operatorname{arcsht} t}}{8a^4} - \frac{\sqrt{t^2 + 1}}{2ia^3}.$$

Решение поставленной задачи имеет вид:

$$u(x, t) = \frac{8a^2 e^{2iax+2 \operatorname{arcsht} t}}{(1+e^{2iax+2 \operatorname{arcsht} t})^2}, \quad \varphi(x, t) = \frac{e^{iax}}{1+e^{2iax+2 \operatorname{arcsht} t}}.$$

Литература

1. Левитан Б.М. Обратные задачи Штурма-Лиувилля. М. Наука, 1984.
2. Gardner C.S., Greene J.M., Kruskal M.D., Miura R.M. Method for solving the Korteweg-de Vries equation, Phys. Rev. Lett. // (1967), 19, pp. 1095–1097.
3. Lax P.D. Integrals of Nonlinear Equations of Evolution and Solitary Waves // Comm. Pure and Appl. Math., (1968), 21:5, pp. 467–490.
4. Khasanov A.B., Hoitmetov U.A. On Complex-Valued Solutions of the General Loaded Korteweg-de Vries Equation with a Source // Differential Equations, (2022), 58(3), pp. 381–391.
5. Hoitmetov U.A. Integration of the loaded general Korteweg-de Vries equation in the class of rapidly decreasing complex-valued functions // Eurasian Mathematical Journal, (2022), 13:2, pp. 43–54.
6. Khasanov A.B., Khasanov T.G. The cauchy problem for the nonlinear complex modified Korteweg-de Vries equation with additional terms in the class of periodic infinitesimal functions. Siberian Mathematical Journal, 2024, Vol. 65, No. 4, pp. 846–868.
7. Matyoqubov M.M., Hasanov T.G. Integration of the loaded Korteweg-de Vries equation with a free term independent of the spatial variable // Uzbek Mathematical Journal, 2019, №2, pp.68-75.
8. U. A. Hoitmetov, T. G. Khasanov, Integration of the Korteweg-de Vries equation with loaded terms and a self-consistent source in the class of rapidly decreasing functions // Vestnik Udmurtskogo Universiteta. Matematika. Mekhanika. Komp'yuternye Nauki, 2023, vol. 33, issue 1, pp. 156–170.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI TALABALARDA MUSTAQIL TA'LIM KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Xolmurodov Behzod Botir o'g'li

¹Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti, behzodxolmurodov16@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17624722>

Аnotatsiya. Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarning mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar asosidagi gamifikatsiya vositalari yordamida talabalarning mustaqil bilim olish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishning samarali yo'llari o'rganilgan. Unda gamifikatsiyaning asosiy elementlari – ballar tizimi, darajalar, mukofotlar va liderlar jadvali – talabalarning mustaqil faoliyatini rag'batlantirishda qanday rol o'ynashi haqida batafsil ma'lumot berilgan. O'tkazilgan tadqiqot natijalari gamifikatsiya usullari qo'llanilgan guruhlarda talabalarning mustaqil ishlash ko'rsatkichlari an'anaviy ta'lim usullaridan foydalanilgan guruhlariga qaraganda ancha yuqori ekanligini tasdiqladi.

Kalit so'zlar. Mustaqil ta'lim, gamifikatsiya, tahlil, o'yin, metod, interaktiv, motivatsiya, tadqiqot.

FORMING INDEPENDENT LEARNING COMPETENCES IN STUDENTS THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES

Kholmurodov Behzod Batir ygli

¹PhD student of Bukhara State University

Abstract. In the modern educational process, the development of students' independent work skills is of particular importance. This article examines effective ways to form and develop students' independent learning skills using gamification tools based on digital technologies. It provides detailed information on the role that the main elements of gamification – a points system, levels, rewards and leaderboards – play in stimulating students' independent activity. The results of the study confirmed that the independent work performance of students in groups using gamification methods was significantly higher than in groups using traditional educational methods.

Keywords: Independent learning, gamification, analysis, game, method, interactive, motivation, research.

Kirish. Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarni bilim olishga rag'batlantirish va ularning ishtirokini oshirish har doim dolzarb masala bo'lib kelgan. An'anaviy ta'lim usullari ko'p hollarda talabalarni faollikka undashda yetarlicha samarali bo'lmasligi mumkin. Buning natijasida talabalar motivatsiyasining pasayishi, bilimlarni yetarlicha chuqur o'zlashtirmaslik va ta'lim jarayoniga qiziqishning kamayishi kuzatiladi. Shu sababli, ta'lim samaradorligini oshirish maqsadida o'yin elementlarini qo'llashga asoslangan gamifikatsiya yondashuvi joriy etilmoqda.

Gamifikatsiya – bu oddiy o'yin emas, balki ta'lim jarayoniga turli interaktiv va rag'batlantiruvchi mexanizmlarni qo'shish orqali talabalar motivatsiyasini oshirish usuli hisoblanadi. Ushbu metodikadan foydalanish ta'lim jarayonini nafaqat qiziqarli, balki maqsadga yo'naltirilgan va samarali qilish imkonini beradi. Talabalar darslarga passiv yondashish o'rniga faol ishtirok etishga, topshiriqlarni bajarishga va bilimlarini oshirishga intiladilar. Buning natijasida nafaqat ta'lim sifati oshadi, balki talabalar o'z ustida ishlash, muammolarni hal qilish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

So'nggi yillarda ko'plab ta'lim muassasalari gamifikatsiyani o'z dasturlariga kiritmoqda. Bunga sabab, texnologiyalar rivoji bilan ta'lim usullari ham yangilanib, o'quv jarayoni yanada interaktiv va moslashuvchan tus olmoqda. Gamifikatsiya darslarni shaxsiylashtirish, talabalar ehtiyojlarini hisobga olish va har bir o'quvchining o'z tezligida rivojlanishiga yordam beradi. Bundan tashqari, jamoaviy hamkorlik va sog'lom raqobat muhiti yaratish orqali talabalar o'zaro bilim almashish va yanada yuqori natijalarga erishish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Mavzuga doir manbalar tahlili. Ta'limda gamifikatsiyadan foydalanish bo'yicha so'nggi yillarda ko'plab ilmiy maqolalar, tadqiqotlar va tajribalar amalga oshirilgan. Hamari, Koivisto va Sarsa (2014) "Does Gamification Work?" nomli tadqiqotlarida gamifikatsiya ta'lim jarayonida talabalar ishtirokini oshirishga yordam berishini ta'kidlagan[1]. Karl Kap (2012) "Gamification of Learning and Instruction" kitobida ta'limda gamifikatsiyaning asosiy jihatlarini yoritib, o'yin mexanizmlarining o'quvchilar uchun qanday motivatsiya berishi mumkinligini tahlil qiladi[2].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda ta'lim jarayonida gamifikatsiyaning talabalarni rag'batlantirishga ta'sirini o'rganish va uning samaradorligini baholash maqsad qilingan. Buning uchun turli tadqiqot metodlari qo'llanildi, jumladan, empirik kuzatish, eksperimental tahlil, so'rovnomalar va taqqoslash usullari.

Sifatli tahlil esa intervyular, dars jarayonlarini kuzatish va talabalar fikr-mulohazalarini tahlil qilish orqali gamifikatsiyaning ta'lim jarayoniga ta'sirini chuqur o'rganishga yordam berdi.

Tadqiqotda Buxoro davlat universitetining 54 nafar talabasi ishtirok etgan. Tadqiqotda talabalar ikkita guruhga ajratildi. Eksperimental guruhga 30 nafar talaba tanlab olinib, ularga to'rt hafta mobaynida gamifikatsiyalangan ta'lim usuli qo'llanildi. Nazorat guruhiga esa 24 nafar talaba tanlab olinib an'anaviy ta'lim usuli bilan o'qitildi. Tadqiqot Kvantitativ metod asosida olib borildi. Kvantitativ yondashuv talabalar orasida so'rovnomalar va test natijalarini statistik jihatdan tahlil qilish orqali gamifikatsiyaning ta'sirini aniqlashga qaratildi. Test yordamida talabalar bilimini baholash va gamifikatsiyaning ta'lim jarayoniga ta'sirini tahlil qilish mumkin. Test 10 ta savoldan iborat bo'lib, har bir to'g'ri javob 10 ball bilan baholanadi.

Har bir talaba yuqoridagi mezonda baholanib guruhning o'rtacha bali chiqarildi. Talabalarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini baholash uchun Likert shkalasi asosidagi so'rovnomadan foydalanildi. Har bir savolga talabalar 1 dan 5 gacha baho berishadi.

So'rov noman natijalarini quyidagi mezon oraqli baholandi.

- Har bir talabadan ushbu savollarga javob berish so'raladi.
- Natijalar foiz ko'rinishida hisoblanadi:
- (Umuman rozi emasman - 20%)
- (Kamdan-kam - 40%)
- (Ba'zida - 60%)
- (Ko'pincha - 80%)
- (To'liq rozi - 100%)
- 5 ta savoldan o'rtacha ball olinadi va motivatsiya foizida hisoblanadi.

Misol: Agar talaba 5 ta savolda quyidagicha ball olgan bo'lsa:

$$(4+5+4+3+5) \div 5 = 4.2$$

4.2 ballni 100 foizga moslashtirish = 84% motivatsiya

Manashu tartibda har bir talaba motivatsiya foizi hisoblanib guruhning o'rtacha motivatsiya foizi chiqarildi. 1-jadvalda jadvalda har ikki guruhning motivatsiya darajasi va test natijalari solishtirilgan.

1-jadval.

Guruh	Talabalar soni	Motivatsiya darajasi (0-100%)	O'rtacha test natijalari (100 ballik tizimda)
Eksperimental guruh (Gamifikatsiya bilan)	30	88%	82
Nazorat guruhi (An'anaviy ta'lim)	24	72%	69

Tahlil natijalari. Olib borilgan izlanishlar shuni ko'rsatadiki gamifikatsiya joriy etilgan eksperimental guruhda talabalar motivatsiyasi an'anaviy ta'lim olgan guruhga qaraganda sezilarli darajada yuqori bo'ldi (88% vs. 72%). Test natijalari ham gamifikatsiya qo'llanilgan guruhda 82 ball, an'anaviy ta'lim guruhida esa 69 ball bo'lib, o'rtacha 13 ball farq kuzatildi. Bu natijalar gamifikatsiya o'quv jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatishini, talabalarni ko'proq rag'batlantirishini va ularning bilim olish samaradorligini oshirishini ko'rsatmoqda. Bu tadqiqotda yana bir nechta omillarni hisobga olishimi lozim:

- tadqiqotda ishtirokchilar soni nisbatan cheklangan bo'lib, katta miqyosda amalga oshirilmagan;
- gamifikatsiyaning uzoq muddatli ta'siri to'liq o'rganilmagan, faqat qisqa muddatli natijalarga asoslangan;
- talabalarning shaxsiy qiziqishlari va o'rganish uslublari individual farqlarni keltirib chiqarishi mumkin, bu esa natijalarga ta'sir ko'rsatgan bo'lishi ehtimoli bor.

Xulosa va tavsiyalar. Ta'lim jarayonida gamifikatsiya talabalar motivatsiyasini kuchaytirishda samarali yondashuv sifatida namoyon bo'lmoqda. Tadqiqot jarayonida gamifikatsiya elementlari qo'llangan eksperimental guruh talabalari o'quv faoliyatida yuqori qiziqish va natijalarni ko'rsatdi, bu esa nazorat guruhi ko'rsatkichlaridan sezilarli darajada yuqori bo'ldi. Umumiy xulosa shuki, gamifikatsiyalangan ta'lim jarayoni talabalarni o'quv faoliyatiga faol jalb etish, ularning o'zlashtirish samaradorligini oshirish hamda shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda muhim vosita hisoblanadi. Ballar tizimi va turli mukofotlar esa talabalarning muntazam mustaqil ishlashini rag'batlantiruvchi asosiy omillar sifatida e'tirof etildi. Kelgusida ushbu metodni yanada keng qamrovda o'rganish va barcha fanlarda tatbiq etish maqsadga muvofiqdir[3-9].

ADABIYOTLAR

1. Hamari, J., Koivisto, J., & Sarsa, H. (2014). Does gamification work? -- A literature review of empirical studies on gamification. In 2014 47th Hawaii International Conference on System Sciences (pp. 3025-3034). IEEE.
2. Karl M. Kapp (2012). The Gamification of Learning and Instruction: Game-based Methods and Strategies for Training and Education. Pfeiffer (John Wiley & Sons)
3. Mansurov, T. (2024). Ta'limning formal, noformal va informal turlarining bilim olish jarayoni-dagi o'ziga xos afzalliklari. "Педагогическая акмеология" международный научно-методический журнал, 9(17).
4. Xolmurodov, B. (2024). Integrated teaching using virtual reality and augmented reality technologies in higher education institutions. Решение социальных проблем в управлении и экономике, 3(5), 236-239.
5. Xolmurodov, B. (2024). Informatika va raqamli texnologiyalar fanini o'qitishda quizlet va kahoot platformalaridan foydalanish. Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali, 4(4).
6. Z. Mansurov (2024). Informal ta'limning o'qitish samaradorligini oshirishdagi roli. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 2(54), 232-237.
7. Shuxratovich, S. I. (2024). Scientific and methodical analysis of innovative approaches and new trends in modern education. Наука и технологии, 1(1).
8. Ergashov, M., & Sadullayev, I. (2024, May). Zamonaviy ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlar va yangi tendensiyalarning ilmiy-metodik tahlili. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 580-584).
9. Мансуров, Т. (2025). Роль современных образовательных технологий в развитии профессиональных навыков учителей информатики. Interpretation and researches, (2 (48)).

ARXITEKTURADA ENERGIYA TEJAMKORLIK VA YASHIL TEXNOLOGIYALAR

Babakandov Otabek Nuritdinovich¹

¹PhD, Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali "Aniq fanlar" kafedrasida o'qituvchisi, otabek.babakandov@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17624733>

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy arxitektura va shaharsozlikda energiya tejamkorlik hamda yashil texnologiyalarni qo'llash masalalari yoritilgan. Global isish, ekologik muammolar va energiya resurslarining cheklanganligi kabi muammolar zamonaviy arxitektura yondashuvlarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Shu bois, maqolada barqaror rivojlanish tamoyillari asosida energiya samaradorligi, ekologik xavfsizlik, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish kabi omillar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Barqaror rivojlanish, yashil arxitektura, energiya tejamkorlik, ekologik dizayn, quyosh panellari, issiqlik izolatsiyasi, shamollatish tizimi, past karbonli qurilish.

ENERGY EFFICIENCY AND GREEN TECHNOLOGIES IN ARCHITECTURE

Babakandov Otabek Nuritdinovich¹

¹PhD, lecturer of the Department of "Exact Sciences", Kimyo International University in Tashkent Samarkand Branch, Uzbekistan

Annotation: This article discusses the application of energy-efficient and green technologies in modern architecture and urban planning. Issues such as global warming, environmental challenges, and the limitation of energy resources necessitate a re-evaluation of contemporary architectural approaches. Therefore, the article analyzes factors such as energy efficiency, environmental safety, and the rational use of natural resources based on the principles of sustainable development

Keywords: Sustainable development, green architecture, energy efficiency, ecological design, solar panels, thermal insulation, ventilation system, low-carbon construction.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Bugungi kunda jahon miqyosida ekologik muammolar, global isish va energiya resurslarining cheklanganligi dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Bu esa, shaharsozlik va arxitektura sohaslarida yangi, ekologik xavfsiz yondashuvlarga ehtiyoj tug'dirmoqda. "Yashil texnologiyalar" va "energiya samaradorligi" tushunchalari zamonaviy qurilish va dizaynning ajralmas qismiga aylanmoqda. Arxitektura sohasida barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan loyihalash, ekologik dizayn elementlarini joriy etish orqali inson salomatligi va atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatish mumkin.

Afsuski, so'nggi paytlar, shaharlar taraqqiyotini rivojlantirishda **inson** muammosi ma'lum darajada e'tibordan chetda qolib, **transport** vositalarining jadal o'sishi masalalari ustuvorlik qilmoqda. Bundan tashqari, shaharda qurilishning keskin ko'payib, **yashil hududlarning** kamayib borishi, piyodalar uchun qulay sharoit yaratilmayotganligi (yo'llarni kesib o'tish, sayr qilish, transport to'xtash joylari va hokazo) kabi bir qator muammolarga ahamiyat berilmasdan kelinmoqda. **Inson** turmushini yanada yaxshilash, chiroyli va zavqli qilish uchun bunyod etilgan shaharlar bora-bora, bugungi kunga kelib, ular hayotini zerikarli, noqulay ahvolga solib qo'ydi. Ayniqsa, XXI asr boshlaridan boshlab ko'plab megapolis shaharlarda me'yordagiday yashash muammo bo'lib qoldi [1]. Yirik shaharlarda vujudga kelgan bunday noqulay vaziyatni bartaraf etish, gumanitar sohada shug'ullanuvchi mutaxassis va olimlarning yetakchi tadqiqot mavzusiga aylanib qoldi.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlili. Daniyalik mashhur arxitektor **Yan Geylning "Shaharlar inson uchun"** (Города для людей) nomli kitobi ushbu sohada yozilgan muhim manbalardan biri hisoblanadi [2]. Muallif, rivojlangan davlatlardagi yirik shaharlarni bugungi holatga olib kelgan sabablar – qurilishda yashil hududlarning kamligi, eng asosiysi shaharlarda transportning o'ta ko'payib ketganligi, shaxsiy qurilish ob'ektlarining ixtiyoriy loyihalar asosida qurilishi davom etayotganligi kabi qator muammolar ekanligini ta'kidlaydi. Ayni paytda, shaharlarni "insoniylashtirish"ning zamonaviy variantlarini ham taklif etadi. Arxitektura va dizaynda **eko-art** g'oyalari: **Genri Mur, Luiza Burjua, Massimiliano Orzi** kabi bir qator dizayner-me'morlarning asarlarida va **"Orzi Studio", "Philips", "EcoLogicStudio", "Symbiotica"** byurolarida namoyon bo'lmoqda. Bundan tashqari, Britaniyaning yana boshqa bir guruh **rassom-dizaynerlari: Richard Shilling** (Richard Shilling) va **Endi Goldvorsilar** (Andy Goldsworthy), shahar dizaynida tabiiy installatsiya va kompozitsiyalar yaratadilar. Ularning asarlari, faqat jonli tabiat elementlaridan tashkil topganligi sababli, atrof muhit bilan uyg'unlashib ketadi [3].

Asosiy qism. Yashil arxitektura binolarni loyihalash va qurishda ekologik toza, energiya tejamkor hamda salomatlik uchun xavfsiz texnologiyalardan foydalanish tamoyiliga asoslangan yondashuvdir. U tabiiy yoritish va shamollatishdan maksimal foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan (quyosh, shamol) foydalanish, qurilishda ekologik toza, tabiiy materiallardan foydalanish, issiqlik izolatsiyasining yuqori darajada bo'lishi hamda qurilish chiqindilarini minimalashtirish kabi mezonlarga asoslanadi. Energiya tejamkor qurilish deganda binoning ichki mikroiklimini (issiqlik, yorug'lik, havo sifatini) maksimal darajada saqlab qolgan holda, tashqi energiya manbalariga bo'lgan ehtiyojni kamaytirish tushuniladi. Buning uchun quyosh panellari, issiqlik nasoslari, LED yoritish tizimlari va aqlli binolar tizimi kabi zamonaviy texnologiyalar joriy etiladi. Quyosh panellari elektr energiyasini quyosh nuri yordamida ishlab chiqaradi, issiqlik nasoslari

esa tabiiy manbalardan (yer osti suvlari, havo) issiqlik olib, binoni isitish yoki sovitishga xizmat qiladi. LED texnologiyalari kam quvvat sarflaydi, ammo yorqin va uzoq muddat xizmat qiladi. Aqlli boshqaruv tizimlari yordamida esa energiya sarfi aniq nazorat qilinadi.

Shaharsozlikda yashil texnologiyalarni joriy etish butun infratuzilmani qamrab olishi zarur. Bu borada yashil hududlar sonini oshirish, ekologik transport tizimlarini rivojlantirish, yomg'ir suvlarini yig'ish va qayta ishlash, mahalliy ekologik materiallardan foydalanish muhim hisoblanadi. Shahar markazlarida parklar, yashil yo'laklar va vertikal bog'lar yaratish shahar mikroiklimini yaxshilaydi. Elektr transport vositalari, velosiped yo'llari va jamoat transporti tarmoqlari esa transportdan chiqadigan zararli gazlarni kamaytiradi. Jahon miqyosida bir qator davlatlar bu borada ilg'or tajribaga ega. Germaniya o'zining passiv uylari bilan mashhur bo'lib, ular deyarli tashqi energiyaga muhtoj emas. Singapur shaharlari esa vertikal bog'lar va yashil minoralar orqali urbanistik rivojlanishga yangi yondashuv taklif etmoqda. Norvegiya va Gollandiya esa qurilishda karbon izi past bo'lgan materiallardan foydalanishni keng joriy etmoqda (1-rasm).



<https://i.pinimg.com/originals/64/c5/93/64c593e779d9cc6e263188656021da16.jpg>

1-rasm. The Edge binosi (Amsterdam, Niderlandiya)

Shuningdek, Abu Dabi (BAA) da joylashgan Masdar City 2006-yilda boshlangan barqaror ("sustainable") shahar-loyihasi hisoblanadi (2-rasm). Shahar o'zining energiya samaradorligi, past karbon izlari va barqaror arxitekturasini bilan ajralib turadi. Qurilishda ekologik materiallardan foydalaniladi, binolar esa an'anaviy qurilmalarga nisbatan ancha kam energiya sarflaydi. Masdar City ichida avtomobil harakati cheklangan; piyodalar, elektr transportlar va avtonom vositalar uchun qulayliklar yaratilgan. Personal Rapid Transit (PRT) kabi avtomatlashtirilgan transport tizimi mavjud [4].



<https://i.pinimg.com/736x/a3/57/52/a3575271da87c74fd125eb5e06f6150c.jpg>

2-rasm. Abu Dabi (BAA) da joylashgan Masdar City barqaror ("sustainable") shahar-loyihasi

Shaharda tadqiqot markazlari, universitet (Masdar Institute), ofislar, yashash joylari, restoran va do'konlar mavjud. U, shuningdek, erkin iqtisodiy zona sifatida ham faoliyat yuritadi: kompaniyalar uchun soliq imtiyozlari va boshqa qulayliklar taklif qilinadi. Hozircha shahar to'liq qurib bitkazilmagan, ammo bosqichma-bosqich rivojlanishda davom etmoqda. U kelajak shaharlarining namunasi sifatida ko'rilmogda [5].

O'zbekiston ham ushbu yo'nalishda muhim qadamlar qo'ymoqda. "Yashil makon", "Yashil energiya" kabi milliy tashabbuslar asosida ekologik infratuzilma shakllanmoqda. Quyosh va shamol elektr stansiyalari qurilishi, ekologik qurilish me'yorlarini joriy etish, barqaror arxitektura konsepsiyalarini ilgari surish orqali mamlakatimiz bu sohada sezilarli rivojlanishga erishmoqda. Zamonaviy arxitektura va shaharsozlikda energiya tejamkorlik hamda yashil texnologiyalarni joriy etish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi, balki ekologik barqarorlik, sog'lom muhit va kelajak avlodlar uchun qulay hayot sifatini kafolatlashda muhim rol o'ynaydi. Har bir loyihaning ekologik va energiya samaradorligi mezonlariga mos bo'lishi zamon talabi bo'lib, bu yondashuvlar orqaligina barqaror rivojlanish sari harakat qilish mumkin bo'ladi.

"Yashil makon" loyihasi O'zbekiston Respublikasida ekologiya va yashillikni oshirish, tabiatni muhofaza qilish, atrof-muhit sifati va iqlim barqarorligini ta'minlash maqsadida boshlangan keng ko'lamli davlat tashabbusidir. Loyiha 2021-yil noyabr oyida Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan boshlangan bo'lib, uning asosiy maqsadi mamlakatdagi ekologik holatni yaxshilash, havoning ifloslanishiga qarshi kurashish, iqlim barqarorligini ta'minlash va aholining yashash sharoitini yaxshilashdir. Shu maqsadda keyingi besh yil ichida butun mamlakat bo'ylab 1 milliard tup daraxt va buta ekish belgilangan. Loyiha doirasida har yili 200 milliondan ortiq ko'chat ekilishi rejalashtirilgan [6]. Ko'chatlar respublikaning barcha hududlarida, yo'l yoqalarida, kanal va daryo bo'ylarida, tog' va cho'l zonalarida, shuningdek, aholi punktlarida, mahallalarda, maktab va bog'chalar hududlarida, korxona va tashkilotlar atrofida ekiladi. Daraxt turlari har bir hududning tuproq va iqlim sharoitiga moslab tanlanadi. Loyiha nafaqat daraxt ekish bilan cheklanmaydi, balki ularni parvarish qilish, sug'orish va asrash ishlari ham tizimli ravishda yo'lga qo'yilgan.

Misollar orqali ko'rinib turibdiki, yashil texnologiyalar va energiya samarador yechimlari dunyo miqyosida keng joriy etilmoqda va ular real ijobiy natijalar bermoqda. O'zbekiston ham bu borada ilk qadamlarni tashlab, energiya samarador binolar, yashil hududlar, ekologik transport kabi yo'nalishlarda rivojlanib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Babakandov, O. N. (2025). ARBO ARXITEKTURA-ARXITEKTURA VA TABIAT UYG 'UNLIGI. KIUT Publication, 1(1).
2. Babakandov, O., Akhmedova, G., & Mardieva, D. (2024, November). Creating comfort for pedestrians in Samarkand city (based on the example of pedestrian bridges). In American Institute of Physics Conference Series (Vol. 3244, No. 1, p. 040012).
3. BABAKANDOV, O. N. (2021). BIONICS AND PATTERNS IN ARCHITECTURE. In Молодежь и наука: шаг к успеху (pp. 330-331).
4. Barqaror rivojlanish va ekologik dizayn" – O. X. Xolmatov. Toshkent, 2020.
5. Energiya samarador qurilish texnologiyalari" – A. M. Raximov. Texnika universiteti nashri, 2021.
6. Shaharsozlikda yashil infratuzilma: muammolar va imkoniyatlar" – Arxitektura va qurilish jurnali, 2023-yil, №2.

Tojiyev Ma'ruf Ruzikulovich^{1,2}

*¹PhD, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti o'qituvchi
mrtojiyev6886@gmail.com*

²PhD, Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali o'qituvchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17624745>

Annotatsiya. Raqamli ta'lim tizimida interaktiv muhitlar va simulyatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quv jarayonining samaradorligini oshirmoqda. Agentli modellash (Agent-Based Modeling) o'quv jarayonida murakkab tizimlar dinamikasini raqamli muhitda ifodalash, o'quvchi-o'qituvchi hamda o'quv resurslari o'rtasidagi o'zaro ta'sirni modellash imkonini beradi. AnyLogic, NetLogo va GAMA kabi vositalardan foydalanish o'quvchilarning analitik fikrlashi, tizimli yondashuvi va amaliy simulyatsiya ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu yondashuv ta'lim jarayonini intuitiv, eksperimental va moslashuvchan shaklda tashkil etishga xizmat qiladi hamda raqamli pedagogika konsepsiyasining muhim komponenti sifatida talabalarning mustaqil o'rganish faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi.

Kalit so'zlar: Kompyuterli modellash, agentli modellash, raqamli ta'lim, simulyatsiya, AnyLogic, NetLogo, interaktiv o'qitish, raqamli pedagogika.

APPLICATIONS AND OPPORTUNITIES OF AGENT-BASED MODELING IN DIGITAL EDUCATION SYSTEMS

Tojiyev Maruf Ruzikulovich^{1,2}

¹PhD, lecturer, Samarkand State University named after Sharof Rashidov, Uzbekistan

²PhD, lecturer of the Department of "Exact Sciences", Kimyo International University in Tashkent Samarkand Branch, Uzbekistan

Abstract. The use of interactive environments and simulation technologies in digital education is significantly enhancing the effectiveness of learning processes. Agent-Based Modeling (ABM) enables the representation of complex system dynamics in a digital environment, allowing the simulation of interactions between learners, instructors, and educational resources. Employing platforms such as AnyLogic, NetLogo, and GAMA supports the development of learners' analytical thinking, systems understanding, and practical simulation skills. This approach facilitates intuitive, experimental, and flexible learning experiences, and serves as an essential component of digital pedagogy by fostering students' independent learning and engagement within digital environments.

Keywords: Computational modeling, agent-based modeling, digital education, simulation, AnyLogic, NetLogo, interactive learning, digital pedagogy.

Kirish

So'nggi yillarda dunyo ta'lim tizimi tub islohotlarni boshdan kechirmoqda. Bunda raqamlashtirish jarayonlari (digital transformation) asosiy drayverlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. UNESCO, OECD va Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, raqamli texnologiyalar ta'lim tizimiga integratsiyalashgani sari o'qitish samaradorligi, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi va raqamli savodxonligi ortib bormoqda. Raqamli ta'lim — bu an'anaviy o'qitish jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, modellash, sun'iy intellekt va simulyatsion vositalarni qo'shish orqali o'quvchilarning faol, interaktiv va ijodiy o'rganishini ta'minlovchi tizimdir.

UNESCO tomonidan 2023-yilda e'lon qilingan Global Education Monitoring (GEM) Reportda qayd etilishicha, dunyo ta'lim tizimida raqamli innovatsiyalar keng joriy etilmoqda. Quyidagi 1-jadvalda ayrim statistik ko'rsatkichlar keltirilgan.

1-jadval

Raqamli ta'limning global statistik ko'rsatkichlari (UNESCO - 2023)

<i>Nº</i>	<i>Ko'rsatkich nomi</i>	<i>Qiymat</i>	<i>Manba</i>
1	Raqamli ko'nikmalar standartlarini joriy etgan mamlakatlar ulushi	54 %	UNESCO GEM Report (2023)
2	Raqamli infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha milliy strategiyaga ega davlatlar	67 %	UNESCO (Digital Education Data 2023)
3	O'qituvchilarning raqamli kompetensiyasi bo'yicha maxsus o'quv dasturlariga ega davlatlar	48 %	OECD Education Outlook (2023)
4	O'quvchilar orasida raqamli o'rganish vositalaridan muntazam foydalanish darajasi	60 %	World Bank EdTech Review (2023)
5	Raqamli laboratoriyalarni joriy etgan oliy ta'lim muassasalari ulushi	≈72 %	UNESCO Higher Education Survey (2023)

Raqamli vositalarni ta'limda samarali qo'llashning muhim yo'nalishlaridan biri — kompyuterli modellashtirishdir. Kompyuterli modellashtirish o'quvchilarga murakkab jarayonlarni ko'rgazmali, tajribaviy va interaktiv tarzda o'rganish imkonini beradi. Ayniqsa, tabiiy va aniq fanlarni o'qitishda modellashtirish vositalari o'quvchilarning tahliliy, mantiqiy va ijodiy fikrlashini rivojlantiradi.

Kompyuterli modellashtirish turlaridan agentli modellashtirish (Agent-Based Modeling, ABM) o'qitishda alohida o'rin tutadi. Agentli yondashuvda tizim alohida agentlar — o'quvchilar, o'qituvchilar yoki resurslar — o'rtasidagi o'zaro ta'sir orqali modellashtiriladi. Bu jarayon orqali tizimning umumiy xatti-harakati va o'quv jarayonining samaradorligi tahlil qilinadi. Agentli modellashtirishning ta'limda qo'llanishiga doir afzalliklari 2-jadvalda ko'rsatilgan.

2-jadval

Agentli modellashtirishning ta'limda qo'llanishning afzalliklari

<i>Nº</i>	<i>Afzallik turi</i>	<i>Ta'limdagi ifodasi</i>
1	Interaktivlik	O'quvchilar agent sifatida faol qatnashadi, tajriba orqali o'rganadi
2	Vizual ko'rgazmalilik	Murakkab hodisalar (masalan, iqtisodiy jarayonlar, ekologik tizimlar) grafik ko'rinishda modellashtiriladi
3	Tizimli fikrlashni rivojlantirish	O'quvchilar sabab-oqibat bog'liqliklarini tahlil qiladi
4	Moslashuvchan o'qitish	Har bir agent (o'quvchi) o'z shaxsiy o'rganish yo'lini simulyatsiyada aks ettiradi
5	Natijani kuzatish imkoniyati	Model real vaqt rejimida o'qituvchi tomonidan tahlil qilinadi

Agentli modellashtirishning o'qitish jarayoniga joriy etilishi interaktiv muhit yaratish, o'quvchilarning faol ishtirokini oshirish, hamda tajriba asosida o'rganish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ayniqsa, AnyLogic, NetLogo va GAMA kabi dasturiy vositalar yordamida yaratilgan o'quv modellarida agentlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir vizual va tahliliy tarzda ko'rsatiladi.

Shunday qilib, agentli modellashtirish yondashuvi zamonaviy raqamli ta'limning asosiy innovatsion yo'nalishlaridan biri bo'lib, u o'quvchilarda analitik fikrlash, ijodkorlik, va samarali qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Metodologiya

Kompyuterli modellashtirish — bu real tizim yoki jarayonni matematik, mantiqiy va algoritmik abstraksiyalar yordamida kompyuter muhitida qayta yaratuvchi ilmiy-amaliy usuldir. Mo-


del — haqiqiy tizimning soddalashtirilgan, lekin uning xulq-atvori va muhim bog'liqliklarini aks ettiruvchi abstraktsiya; simulyatsiya esa bu modelni vaqt o'tishi yoki voqea ketma-ketligi nuqtai nazaridan ishlatish va chiqishlarni tahlil qilish jarayonidir [1], [2].

Modellashtirishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: tizimni tushunish va tushuntirish, nazariy gipotezalarni sinash, tizim xatti-harakatini oldindan bashorat qilish, va boshqaruv qarorlarini qo'llab-quvvatlash. Ta'lim kontekstida kompyuterli modellashtirish nazariy bilimlarni eksperimental tarzda tekshirish, murakkab jarayonlarni vizualizatsiya qilish va talabalar uchun interaktiv o'rganish muhitini yaratishda foydalaniladi [3], [4].

Ilmiy jihatdan modellashtirish ikki asosiy bosqichni o'z ichiga oladi: (1) modelni tuzish — tizimning elementlari, ularning atributlari va o'zaro ta'sirlari formalizatsiyalanadi; (2) simulyatsiya/eksperiment — model ma'lum ssenariylar bo'yicha ishga tushiriladi va chiqishlar empirik yoki nazariy mezonlar bilan solishtiriladi. Ushbu jarayon davomida modelning verifikatsiyasi (kod va mantiq tekshiruvi) va validatsiyasi (model chiqishi real dunyo kuzatuvlari bilan solishtirilishi) amalga oshiriladi [5], [6].

Matematik jihatdan modellashtirish deterministik va stoxastik komponentlarni o'z ichiga olishi mumkin. Masalan, differensial tenglamalar tizimni deterministik tarzda ifodalashi mumkin, holbuki stoxastik agentli modellar probabilistik qoidalar va tasodifiy hodisalar orqali tizim dinamikasini hosil qiladi. Ta'limda esa stoxastiklik talabalarning individual xatti-harakatlari, qatnashuv darajasi va muhit o'zgarishlarini loyihalashda muhim rol o'ynaydi [7].

Modellashtirish metodlari ko'p qirrali va bir necha mezonlar bo'yicha sinflanadi. Keng tarqalgan va amaliy jihatdan muhim sinflari 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Kompyuterli modellashtirish usullari

Zamonaviy simulyatsion modellashtirish uchun turli maqsad va sohalarga mo'ljallangan ko'plab dasturiy vositalar ishlab chiqilgan. Bu vositalar murakkab tizimlarning dinamikasini o'rganish, eksperimentlar o'tkazish hamda qaror qabul qilish jarayonlarini tahlil qilish imkonini beradi. Har bir vosita o'zining ishlash paradigmasi, texnik imkoniyatlari va foydalanuvchi uchun qulaylik darajasi bilan farqlanadi. Shuningdek, dastur tanlovi tadqiqotchining maqsadi, modellashtirish darajasi, foydalanuvchining dasturlash bo'yicha malakasi va mavjud kompyuter infratuzilmasi resurslariga bevosita bog'liq bo'ladi.

Agentli modellashtirish vositalari

Agentli modellashtirish (Agent-Based Modeling – ABM) so'nggi yillarda ilmiy tadqiqotlar, iqtisodiy jarayonlar, ekologik tizimlar va ta'lim texnologiyalarida keng qo'llanilayotgan zamonaviy yondashuvlardan biridir. Ushbu yondashuvni samarali amalga oshirish uchun bir qator maxsus dasturiy

vositalar ishlab chiqilgan bo'lib, ular murakkab agentli tizimlarning xatti-harakatlarini vizual tarzda modellashtirish, boshqarish va tahlil qilish imkonini beradi. Har bir vosita o'zining texnik imkoniyatlari, dasturlash tili, integratsiya darajasi va foydalanuvchi uchun qulay interfeysi bilan ajralib turadi. Quyida eng ko'p qo'llaniladigan agentli modellashtirish vositalari tahlil qilinadi.

1. AnyLogic. Hozirgi kunda eng rivojlangan ko'p paradigmali modellashtirish muhiti bo'lib, u uchta asosiy paradigmada ishlashni qo'llab-quvvatlaydi: agentli, tizimli dinamik va diskret voqeali modellashtirish [8-9]. Ushbu dastur Java dasturlash tiliga asoslangan bo'lib, foydalanuvchiga murakkab tizimlarni modellashtirish, real vaqt rejimida natijalarni vizualizatsiya qilish va turli ssenariylarni taqqoslash imkonini beradi. AnyLogic'ning afzalliklaridan biri — uning vizual interfeysi, drag-and-drop mexanizmi va moslashuvchan statistik tahlil imkoniyatlaridir. Ta'lim sohasida AnyLogic yordamida o'qituvchilar va talabalar o'quv jarayonidagi o'zaro ta'sirlarni (masalan, o'qituvchi-o'quvchi muloqoti, bilim almashish dinamikasi) interaktiv tarzda modellashtirishlari mumkin. Shu bois u ilmiy tadqiqot va ta'limdagi eng universal vosita sifatida e'tirof etiladi [10].

2. NetLogo. Agentli modellashtirishni o'rganish va o'qitish uchun eng mashhur ochiq kodli (open-source) platformalardan biridir. Uning asosiy afzalligi — soddaligi va interaktivligi, ya'ni foydalanuvchi hech qanday murakkab dasturlash tajribasisiz ham o'z modellarini yaratishi mumkin [4-5]. NetLogoda yuzlab tayyor model shablonlari (Models Library) mavjud bo'lib, ular orqali talabalar biologik, iqtisodiy, sotsiologik yoki ta'limiy tizimlarni modellashtirishni oson o'rganadilar. Bundan tashqari, NetLogo'ning "BehaviorSpace" moduli eksperimentlarni avtomatik ravishda bajarish va statistik natijalarni to'plash imkonini beradi. Shu jihatlari bilan u ta'lim va o'quv jarayonida agentli yondashuvni o'rgatish uchun ideal vosita hisoblanadi.

3. Repast. Repast (Recursive Porous Agent Simulation Toolkit) — bu professional darajadagi agentli modellashtirish uchun mo'ljallangan kuchli dasturiy paket bo'lib, u Java, Python va C# tillarida dasturlash imkonini beradi [11-12]. Repast katta hajmli agentli tizimlarni model qilishda yuqori darajadagi aniqlik, moslashuvchanlik va kengaytirilgan analiz imkoniyatlarini taqdim etadi. Ushbu platforma akademik tadqiqotlar, iqtisodiy modellar va murakkab ijtimoiy tizimlarni tahlil qilishda keng qo'llaniladi. Biroq uning interfeysi NetLogo yoki AnyLogic kabi intuitiv emas, shuning uchun Repast ko'proq tajribali tadqiqotchilar uchun mo'ljallangan hisoblanadi.

4. GAMA. GAMA (GIS Agent-based Modeling Architecture) — bu geografik ma'lumotlar asosida agentli modellar yaratishga ixtisoslashgan vosita bo'lib, foydalanuvchilarga GIS (Geographical Information System) ma'lumotlari bilan ishlash imkonini beradi [13-15]. GAMA murakkab muhitda agentlarning joylashuvi, harakati va o'zaro ta'sirini aniq tasvirlashga imkon yaratadi. U o'zining GAML dasturlash tili orqali modellashtirishni soddalashtiradi va foydalanuvchi interfeysida kuchli vizualizatsiya imkoniyatlarini taqdim etadi. Ekologiya, urbanizatsiya va transport oqimlari kabi fazoviy tizimlarni modellashtirishda bu platforma yuqori samaradorlikka ega.

5. MESA (Python ABM Library). So'nggi yillarda mashhur bo'layotgan vositalardan biri bu MESA bo'lib, u Python dasturlash tilida ishlab chiqilgan ochiq manbali kutubxonadir [16-17]. MESA agentlar, muhitlar va ulanishlar (network) o'rtasidagi o'zaro ta'sirlarni aniqlash uchun minimal kod yozish imkonini beradi. Uning afzalligi — Python ekotizimi bilan mosligi, ya'ni u "Pandas", "NumPy" yoki "Matplotlib" kutubxonalari bilan integratsiyalanadi. Shuning uchun u ilmiy tahlil, mashinaviy o'qitish va ma'lumotlar tahlili bilan integratsiyalashgan agentli **modellar yaratish uchun qulay platforma hisoblanadi.**

Xulosa

Agentli modellashtirish zamonaviy kompyuterli tahlil va simulyatsiya metodlarining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, murakkab tizimlarning tuzilishi va ularning o'zaro ta'sirini raqamli shaklda ifodalash imkonini beradi. Ushbu yondashuv yordamida ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ekologik hamda ta'lim jarayonlarining xatti-harakati dinamik ravishda modellashtiriladi va tizim barqarorligi, resurslardan foydalanish samaradorligi hamda boshqaruv qarorlarining natijalari

chuqur tahlil qilinadi.

AnyLogic dasturining ko'pparadigmali imkoniyatlari — agentli, tizimli dinamik va diskret voqeali modellashtirish metodlarini birlashtirishi — murakkab tizimlarni kompleks tarzda o'rganish, turli ssenariylarni solishtirish hamda optimal boshqaruv yechimlarini aniqlash imkonini beradi. Agentli modellashtirish asosida yaratilgan modellar yordamida tizimdagi ishtirokchilar o'rtasidagi aloqalar, yuklanish darajalari va umumiy ishlash barqarorligi raqamli shaklda baholanadi.

Bunday modellashtirish yondashuvlari real jarayonlarni xavfsiz virtual muhitda sinovdan o'tkazish, qarorlarni tahliliy asosda shakllantirish va jarayonlarni avtomatlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu sababli agentli modellashtirish konsepsiyasi raqamli iqtisodiyot, aqlli boshqaruv tizimlari, ekologik monitoring hamda ta'limdagi interaktiv o'quv muhitlarini rivojlantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. Borshchev, A. (2013). The Big Book of Simulation Modeling: Multimethod Modeling with AnyLogic. AnyLogic North America.
2. Vulic, J., Jacobson, M. J., & Levin, J. A. (2024). Exploring Education as a Complex System: Computational Educational Research with Multi-Level Agent-Based Modeling. *Education Sciences*, 14(5), 551. <https://doi.org/10.3390/educsci14050551>
3. Macal, C. M., & North, M. J. (2010). Tutorial on agent-based modeling and simulation. *Journal of Simulation*, 4(3), 151–162. <https://doi.org/10.1057/jos.2010.3>
4. Railsback, S. F., & Grimm, V. (2019). *Agent-Based and Individual-Based Modeling: A Practical Introduction* (2nd ed.). Princeton University Press.
5. Sargent, R. G. (2013). Verification and validation of simulation models. *Journal of Simulation*, 7(1), 12–24. <https://doi.org/10.1057/jos.2012.20>
6. Gao, C., Lan, X., Li, N., Yuan, Y., Ding, J., Zhou, Z., ... Li, Y. (2024). Large Language Models Empowered Agent-Based Modeling and Simulation: A Survey and Perspectives. *Humanities and Social Sciences Communications*, 11, Article 1259. <https://doi.org/10.1057/s41599-024-03611-3>
7. Law, A. M. (2014). *Simulation Modeling and Analysis* (5th ed.). McGraw-Hill Education.
8. Raximov, Nodir, Ma'ruf Tojiyev, and Usanitdin Xafizadionov. "Axborot resurslaridan foydalanish ko'rsatkichlarini normallashtirish asosida bilim oluvchilarning bilim darajasini baholash usullari." *digital transformation and artificial intelligence 2.5* (2024): 91-96.
9. Lorig, F., Belfrage, M., & Johansson, E. (2024). Teaching Agent-based Modeling for Simulating Social Systems – A Research-based Learning Approach. [Conference Paper]. (MABS Workshop 2024) https://mabsworkshop.github.io/articles/MABS_2024_paper_6.pdf
10. Sterman, J. D. (2000). *Business Dynamics: Systems Thinking and Modeling for a Complex World*. Irwin/McGraw-Hill.
11. Ross, S. M. (2014). *Introduction to Probability Models* (11th ed.). Academic Press (Elsevier). <https://doi.org/10.1016/C2012-0-03564-8>
12. Banks, J., Carson, J. S., Nelson, B. L., & Nicol, D. M. (2010). *Discrete-Event System Simulation* (5th ed.). Prentice Hall. (DOI mavjud emas).
13. Meadows, D. H. (2008). *Thinking in Systems: A Primer*. Chelsea Green Publishing.
14. Wilensky, U., & Rand, W. (2015). *An Introduction to Agent-Based Modeling: Modeling Natural, Social, and Engineered Complex Systems with NetLogo*. MIT Press.
15. Wasserman, S., & Faust, K. (1994). *Social Network Analysis: Methods and Applications*. Cambridge University Press. <https://doi.org/10.1017/CBO9780511815478>
16. AnyLogic Company. AnyLogic Help and Documentation.
17. Fatras, N., et al. (2022). An agent-based modelling framework for the simulation of a consumer-centric electricity market ecosystem. *Energy Informatics*, 5, 29. <https://doi.org/10.1186/s42162-022-00229-0>

18. Elsenbroich, C., et al. (2023). Agent-based modelling as a method for prediction in ... Journal of ... (Vol. ?). <https://doi.org/10.1080/13645579.2023.2152007>
19. Mazzetto, S. (2024). Interdisciplinary Perspectives on Agent-Based Modeling in the Architecture, Engineering, and Construction Industry: A Comprehensive Review. *Buildings*, 14(11), 3480. <https://doi.org/10.3390/buildings14113480>

LANDSHAFT TUSHUNCHASI VA UNING AHAMIYATI

Norov Jahongir Saidovich¹, Baikulova Nasiba Abdunabiyevna²

1 Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali katta o'qituvchi, jahongirnorov09@gmail.com

2 Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti assistent o'qituvchi, jahongirnorov09@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17624754>

²*Head of the educational and methodological Department of Kimyo International University in Tashkent Samarkand Branch, Uzbekistan*

³*Master's student of Kimyo International University in Tashkent Samarkand Branch, Uzbekistan*

Abstract: This article analyzes the importance of generating static S-boxes to enhance the resistance of stream cipher algorithms. The proposed approach employs nonlinear trigonometric transformations to construct S-boxes. Experimental results show that the generated S-boxes achieve high nonlinearity, SAC, and BIC indicators, making them effective for building cryptographically strong and attack-resistant encryption systems.

Keywords: S-box, stream cipher, nonlinearity, SAC, BIC, differential uniformity, cryptanalysis.

I.KIRISH

Axborot xavfsizligi sohasida kriptografik algoritmlarning barqarorligi va bardoshlilikini ta'minlash bugungi kunda global miqyosdagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, oqimli shifrlash algoritmlari zamonaviy axborot almashinuvi tizimlarida, Internet of Things (IoT), mobil tarmoqlar va simsiz aloqa tizimlarida ma'lumotlarni himoyalashda keng qo'llanilmoqda. Ushbu algoritmlarning samaradorligi nafaqat ularning tuzilmasiga, balki ichki chiziqsiz o'zgartirishlar (S-boxlar) sifatiga ham bevosita bog'liqdir.

S-boxlar shifrlash jarayonida chiziqli bog'lanishlarni yo'qotish hamda kriptotahlil usullariga bardoshlilikni oshirish vazifasini bajaradi. Shu sababli, bardoshli, ya'ni yuqori chiziqsizlik, differensial bardoshlilik va statistik muvozanatlilik xususiyatlariga ega bo'lgan S-boxlarni yaratish zamonaviy kriptotizimlarning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda statik va dinamik S-boxlarni generatsiyalash bo'yicha ko'plab ilmiy ishlar olib borilmoqda. Ammo ularning aksariyati murakkab hisoblash jarayonlari, katta vaqt resurslari, yoki cheklangan bardoshlilik kabi muammolarga ega. Shu bois ushbu tadqiqot ishida oqimli shifrlash algoritmlarida qo'llash uchun bardoshli statik S-boxlarni generatsiyalashning yangi yondashuvi taklif etiladi. Mazkur usul soddaligi, yuqori chiziqsizlik va differensial barqarorlikni birlashtirgan holda samarali natija beradi.

Tadqiqotning maqsadi — oqimli shifrlash algoritmlarining kriptobardoshligini ta'minlash uchun statik, chiziqsiz va bardoshli S-boxlarni hosil qilish hamda ularning kriptografik mezonlar bo'yicha bahosini amalga oshirishdan iborat.

II. ASOSIY QISM

Taklif etilgan S-box generatsiyasi algoritmi oddiy trigonometrik transformatsiyalarga asoslangan bo'lib, u statik almashtirish tamoyilini qo'llaydi. Ushbu yondashuv yordamida yaratilgan S-boxlar chiziqsiz mantiqiy funksiyalar va ayirma matritsa (differensial bir xillik) mezonlari bo'yicha tahlil qilindi. Baholash jarayoni uchun kriptografik barqarorlikni ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar — NL (Nonlinearity), SAC (Strict Avalanche Criterion), BIC-NL (Bit Independence Criterion Nonlinearity) va differensial bir xillik (DU) qiymatlari hisoblab chiqildi.

Tahlil natijalariga ko'ra, taklif etilgan S-boxlar quyidagi xususiyatlarga ega bo'ldi:

❑ Chiziqsizlik (NL) ko'rsatkichi 104–108 oralig'ida bo'lib, bu natija mavjud S-box modellari bilan solishtirganda barqaror va yuqori qiymatni namoyish etadi.

❑ SAC qiymati 0.496 atrofida bo'lib, bu ideal diffuziya xususiyatini ifodalaydi.

❑ BIC-NL parametrlari 102–108 oralig'ida aniqlanib, bitlararo mustaqillik va statistik bardoshlilik darajasi yuqoriligi qayd etildi.

❑ Differensial bir xillik (DU) qiymatlari 6–10 oralig'ida bo'lib, bu esa taklif etilgan S-boxlar differensial hujumlarga qarshi barqaror ekanligini ko'rsatadi.

Shuningdek, 3–6-jadval tahlillarida taklif etilgan S-boxlar boshqa klassik S-boxlar (AES, PRESENT, CAST, va boshqalar) bilan solishtirilganida chiziqsizlik va BIC qiymatlari bo'yicha yuqoriroq natijalarga ega ekanligi aniqlangan.

Umuman olganda, ishlab chiqilgan algoritm yordamida generatsiya qilingan S-boxlar oqimli shifrlash tizimlari uchun yuqori bardoshlilik, chiziqsizlik va diffuziya xususiyatlarini namoyon etadi. Bu esa ularni yengil vaznli kriptografik tizimlarda (IoT, simsiz sensor tarmoqlari, mobil xavfsizlik modullari) qo'llash uchun samarali yechimga aylantiradi.

III. Natijalar

Ixtiyoriy S-box zaif bo'lishi va kriptotahlilchilarning oson nishoni bo'lishi mumkinligi bois, ularni xavfsizlik talablariga baholash shart hisoblanadi. Har qanday S-boxning kriptografik parametrlarini baholashda tegishli S-box tomonidan bajarilishi kerak bo'lgan turli mezonlardan foydalaniladi. [1] manbada keltirilgan standart baholash mezonlari yordamida taklif qilingan S-boxning umumiy kriptografik parametrlarga tekshirish natijalari 1-4-jadvallarda ko'rsatilgan.

1-jadval

Tarkibiy mantiqiy funksiyalar va chiziqsizlik qiymatlari

Bul funksiyasi	B1	B2	B3	B4	B5	B6	B7	B8
NL(B)	108	104	108	108	104	108	104	108

2-jadval

Turli S-boxlari uchun chiziqsizlik (NL) qiymatlari

S-box	Chiziqsizlik		
	NLMin	NLMax	NLO'rt

1	2	3	4
Mazkur ish	104	108	106.5
[80]	106	108	106.25
[81]	112	112	112
[82]	106	110	106.5
[83]	112	112	112
[84]	106	108	107
[85]	106	108	106.5
[86]	104	110	106.75
[87]	102	108	105
[88]	100	108	105
[89]	104	108	106.25
[90]	96	110	104
[91]	106	112	109.5
[92]	100	108	104
[93]	98	106	103.5
[94]	106	108	106.5
[95]	104	110	106.25
[96]	104	108	105
[97]	106	110	108.5
[98]	108	110	109.75
[99]	102	110	106.5
[100]	112	112	112
[101]	112	112	112
[102]	110	112	110.25
[103]	104	108	105.5
[104]	104	110	107

3-jadval

Taklif etilgan S-boxning BIC-nochiziqlilik qiymatlari

-	104	106	106	100	108	104	100
104	-	108	104	106	104	108	104

104	104	-	108	104	100	102	106
104	108	104	-	106	104	104	102
106	108	106	104	-	104	106	104
104	104	102	104	104	-	106	104
104	104	104	106	104	108	-	102
104	108	106	104	106	106	108	-

2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, taklif qilingan S-boxlar ancha yuqori nochiqli ko‘rsatkichlarga ega. Taklif qilingan usul yordamida generatsiya qilingan S-boxlar barcha mezonlarga javob bergani bois, boshqa usullarga nisbatan shifrlash jarayonida yuqori chiziqli bo‘lmagan o‘zgartirishni amalga oshirishda ancha samarali ekanligini ko‘rsatadi.

Xulosa

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oqimli shifrlash algoritmlarining bardoshlilikini oshirishda bardoshli statik S-boxlarni generatsiyalash algoritmi muhim ahamiyat kasb etadi. Taklif etilgan usul orqali yaratilgan S-boxlar klassik statik almashtirish usullari bilan solishtirilganda yuqoriroq chiziqli, barqaror differensial bir xillik, kuchli balanslilik va birlashgan bit-ta’sir (BIC) ko‘rsatkichlari bilan ajralib turadi.

Tahlil natijalari shuni tasdiqlaydiki, taklif etilgan S-boxning chiziqli qiymati 104–108 oraliqida bo‘lib, bu boshqa manbalarda keltirilgan ko‘plab S-boxlarga nisbatan yuqori natijani ko‘rsatadi. SAC (Strict Avalanche Criterion) qiymati 0.496 atrofida, BIC-NL esa 102–108 oraliqida bo‘lishi, S-boxning kriptografik mustahkamligini hamda oqimli shifrlash tizimlarida yuqori bardoshlilikni ta’minlash qobiliyatini isbotlaydi.

Mazkur tadqiqotda qo‘llanilgan trigonometrik asoslangan chiziqli-bo‘lmagan transformatsiya usuli sodda matematik tuzilishga ega bo‘lishiga qaramay, statik qaytarilmas polinomlardan yoki tasodifiy almashtirishlardan foydalanuvchi usullarga nisbatan hisoblash jihatdan yengil, ammo xavfsizlik darajasi yuqori natijani beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Agren M. On some symmetric lightweight cryptographic designs. Doctoral Thesis, Department of Electrical and Information Technology, Faculty of Engineering, LTH, Lund University, 2012.
2. Manifavas C. et al. A survey of lightweight stream ciphers for embedded systems //Security and Communication Networks. – 2016. – T. 9. – №. 10. – C. 1226-1246.
3. M. M. Lauridsen, C. Rechberger, and L. R. Knudsen, “Design and analysis of symmetric primitive,” Tech. Univ. Denmark, Lyngby, Denmark, Tech. Rep. 382, 2016.
4. E. Tanyildizi and F. Ozkaynak, “A new chaotic S-box generation method using parameter optimization of one dimensional chaotic maps,” IEEE Access, vol. 7, pp. 117829–117838, 2019.
5. M. Ahmad, E. Al-Solami, A. M. Alghamdi, and M. A. Yousaf, “Bijective S-boxes method using improved chaotic map-based heuristic search and algebraic group structures,” IEEE Access, vol. 8, pp. 110397–110411, 2020.
6. F. Özkaynak, “Construction of robust substitution boxes based on chaotic systems,” Neural Comput. Appl., vol. 31, no. 8, pp. 3317–3326, 2019.
7. I.R.Rakhmatullaev, I.Boykuziev “Analysis of cryptanalysis methods applied to stream encryption algorithms” International Conference on Artificial Intelligence, Blockchain, Computing and Security (ICABCS-2023), 2023, India, 1-4 p.
8. Khudoykulov Z.T., Rakhmatullayev I.R., “Development Of A Software Stream Encryption Algorithm”, Electronic journal of actual problems of modern science, education and training,

- january, 2023-1, 51-59 pages.
9. Rakhmatullayev I.R., Khudoykulov Z.T., "Evaluating Wireless Encryption Algorithms For Devices With Restricted Computing Power", Journal of Automobile Engineering (JAuE), Vol. 13, Issue 1, Jun 2023, 7–12 pages.
10. Khudoykulov Z.T., Rakhmatullayev I.R., "A new key stream encryption algorithm and its cryptanalysis"// Scientific and technical journal Namangan Institute of Engineering and Technology, Volume 8, Issue 1, 2023, 146-157 page

OQIMLI SHIFRLASH TIZIMLARI UCHUN BARDOSHLI S-BOXLARNI GENERATSIYALASH USULI

*Rahmatullayev Ilhom Raxmatullayevich¹, Nurmuxamedova Feruza Muxamadisoyevna²,
Qarshiboyev Bekzod Navruzovich²*

¹PhD, Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali o'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i,
ilhom9001@gmail.com

²Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali magistranti, fnurmuxamedova096@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17624874>

Annotatsiya: Ushbu maqolada dinamik va kalitga bog'liq bo'lgan S-boxlarni generatsiyalash uchun oddiy va innovatsion sxema taklif qilingan bo'lib, mazkur algoritim yordamida generatsiyalangan almashtirish jadvalidan oqimli shifrlash algoritmini kriptotahlil usullariga baholashda foydalanilgan.

Kalit so'zlar: Oqimli shifrlash, Blokli shifrlar, S-box, chiziqli trigonometrik transformatsiya, kriptotahlil.

A METHOD FOR GENERATING ROBUST S-BOXES FOR STREAM ENCRYPTION SYSTEMS

*Rahmatullaev Ilhom Rahmatullaevich¹, Nurmukhamedova Feruza Mukhamadisoyevna²,
Qarshiboev Bekzod Navruzovich²*

¹Head of the educational and methodological Department of Kimyo International University in Tashkent Samarkand Branch, Uzbekistan

²Master's student of Kimyo International University in Tashkent Samarkand Branch, Uzbekistan

Abstract: In this paper, a simple and innovative scheme for the generation of dynamic and key-dependent S-boxes is proposed, and the permutation table generated by this algorithm is used to evaluate the stream encryption algorithm with cryptanalysis methods.

Keywords: Stream encryption, Block ciphers, S-box, linear trigonometric transformation, cryptanalysis.

I.Kirish

Oqimli shifrlar odatda bir iteratsiyada bit yoki baytni shifrlashni amalga oshirib, kam hisoblash resursi mavjud va ma'lumotlarni uzatishda xatoliklar kuzatilishi mumkin bo'lgan sharoitlarda foydalanish uchun mo'ljallangan. Blokli shifrlar esa ma'lumotlarni o'zgartirishni oldindan belgilangan uzunlikdagi bitlar blokida qayta ishlash orqali amalga oshiradi. Amalga oshirishning qulayligi va joylashtirishning soddaligi tufayli blokli shifrlar odatda axborot xavfsizligi ilovalari uchun keng qo'llaniladi [1].

Blokli shifrlar ma'lumotlarni himoyalashda o'rin almashtirish va o'rniga qo'yish deb nomlanuvchi ikkita asosiy akslantirishlar yordamida amalga oshiradi. O'rin almashtirish akslantirishi ma'lumotlar bitlari yoki baytlarini aralashtirishni, o'rniga qo'yish akslantirishi ochiq matn bitlari yoki baytlarini ochiq matnning bir qismi bo'lmagan boshqa bitlar yoki baytlar bilan almashtiradi. Eng mashhur blokli shifrlarda o'rniga qo'yish akslantirishi sifatida bir yoki bir nechta almashtirish jadvallaridan (S-boxlar) foydalaniladi. S-box zamonaviy blokli shifrlarning muhim tarkibiy qismi bo'lib, haqiqiy ma'lumotlarning (ochiq matn) o'zgarishiga katta hissa qo'shadi. S-box ochiq matn va shifrlangan matn o'rtasida chiziqli bo'lmagan aloqani yaratishda muhim rol o'ynab, bu blokli shifrlarning chiziqli bo'lmagan tarkibiy qismi hisoblanadi va chiziqli ishlaydigan, himoyaga kamroq hissa qo'shadigan tegishli blokli shifrlarning boshqa tarkibiy qismlariga nisbatan kriptotahlilchilar uchun natijaviy shifrlangan matnda ko'proq chalkashliklarni keltirib chiqaradi. Shunday qilib, tuzilmasida S-boxdan foydalanadigan shifrlash algoritmalarining xavfsizligi, kriptotahlilarga qarshi tura olishi tegishli S-boxning kriptografik parametrlariga bevosita bog'liqdir

II. Asosiy qism

Shifrlashda ishlatiladigan S-boxlar statik va dinamik ko'rinishda bo'lib, har bir tasodifiy qiymat uchun har doim doimiy qiymatga ega bo'lgan S-box statik S-box deb nomlanadi. O'z tarkibida statik S-boxdan foydalanadigan shifrlar ma'lumotlarni yetarli darajada himoya qilmaydi degan farazlar ham mavjud bo'lib, bu hujumchilarni qandaydir vositalar orqali bunday S-boxlar haqida ma'lumot olish imkoniyatiga egali va oxir-oqibat ochiq matnni tiklashi mumkinligi bilan izohlanadi. Dinamik S-boxlar shifrlash kaliti yordamida yaratilib, belgilangan talablar doirasida ishlab chiqilgan dinamik S-boxlar kriptografik xavfsizlikni kuchaytirish uchun juda katta imkoniyatga ega. Shuning uchun tadqiqotchilar tegishli shifrlash kaliti qiymatlaridan foydalangan holda yaxshi kriptografik xavfsizlikni ta'minlovchi dinamik S-boxlarni qurishning turli usullarini taqdim etganlar.

Taklif etilgan usulning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- Dastlabki S-box generatsiyasi uchun oddiy, innovatsion va dinamik chiziqli trigonometrik transformatsiya (ChTT) taklif qilingan. Transformatsiya tabiatan dinamik bo'lganligi sababli, u parametrlar qiymatlarida ozgina o'zgarishlar kiritilganda ham juda ko'p sonli mustahkam S-boxlarni ishlab chiqarish imkoniyatiga ega.

- Innovatsion ChTT tomonidan yaratilgan dastlabki S-boxning chiziqli bo'lmaganligini, improvizatsiya qilish uchun yangi va dinamik jarayon yordamida ishlab chiqilgan yakuniy S-box kriptotahlilchilar uchun shifrlangan matnda qo'shimcha chalkashliklarni keltirib chiqarishi mumkinligi.

- Olingan S-box va manbalarda keltirilgan boshqa keng tarqalgan S-boxlarning kriptografik parametrlarini baholash uchun standart S-boxlarni umumiy kriptografik talablarga baholash usuli orqali baholanganligi.

Taklif qilingan yangi algoritmda dinamik chiziqli trigonometrik transformatsiyadan (ChTT) foydalanish orqali $n \times n$ o'lchamli S-box yaratiladi. Ushbu yangi transformatsiya (1) tenglamada berilgan funksiya shaklidagi matematik tavsifga ega.

$$T(z) = \cos((A + B) * X * z + C) \quad (1)$$

Bu yerda, $0 < X < 1, 0 \leq z \leq 2^n - 1, B \in Z, A, C = \{1, 3, 5, \dots, 2^n - 1\}$.

(1) tenglikdagi A, B, C va X o'zgaruvchilar qiymatlari bo'lib, shifrlash kaliti yordamida hosil qilinadi. X o'zgaruvchisi double tipga ega va taklif qilingan usul yordamida S-box yaratish uchun 15 ta muhim o'nlik raqam ko'rib chiqilgan. Bunday o'zgaruvchidan foydalangan holda hisoblash float turiga qaraganda biroz sekin. Biroq, bu S-box loyihasiga float tipidagi o'zgaruvchilar bilan solishtirganda katta kalit maydoni beradi. (1) tenglik yuqorida aytib o'tilgan parametrlarning turli qiymatlaridan foydalangan holda juda ko'p kalitga bog'liq dinamik S-boxlarni (S-box maydoni = $128 \times 256 \times 128 \times 1015 \sim 1021$) beradi. $n = 8$ uchun dastlabki $n \times n$ o'lchamli S-box (1) tenglik yorda-

mida o'rnatiladi. Taklif etilayotgan usul qo'pol kuch hujumlari imkoniyatlarini kamaytirish orqali yaratilgan S-boxning kriptografik kuchini biroz oshirishga olib kelishi mumkin bo'lgan ko'p sonli parametrlarni o'z ichiga oladi. Biroq, bu taklif qilingan usulning hisoblash vaqtini ortishiga olib keladi. X o'zgaruvchisi qo'pol kuch hujumlarini oldini olish uchun o'z diapazoni bilan shunday imkoniyatni taqdim etib, shu bilan birga hisoblash samaradorligi unchalik ortirmaydi. Quyida taklif qilingan S-boxni generatsiyalash algoritmi (1-algoritmi) va uning blok sxemasi (1-rasm) keltirilgan.

1-algoritmi: S-boxni generatsiyalash algoritmi

Kiruvchi parametrlar:

$n = 8$ // for $n \times n$ o'lchamli S-box

X // $0 < X < 1$

A, C // $A, C \in \{1, 3, \dots, 2n - 1\}$

B // $B \in \{0, 1, 2, \dots, 2n - 1\}$

Chiqish:

S // Dastlabki 8×8 o'lchamdagi S-box

Initsializatsiya:

$h \leftarrow 0$

$g \leftarrow -1$

$Loc \leftarrow 0$

while ($h \leq 255$) do

$R \leftarrow (A + B) \bmod X$

$B[h] = \text{Cos}(R \bmod h + C)$

if ($X > 0.5$) then

$X = X \bmod X$

else $X = X \bmod 1.75$

endif

$h \leftarrow h + 1$

endwhile

$g \leftarrow g + 1$

while ($g \leq 255$) do

$MIN \leftarrow B[0]$

$Loc = 0$

$h \leftarrow 0$

while ($h \leq 255$) do

if ($MIN > B[h]$) then

$MIN = B[h]$

$Loc = h$

endif

$h \leftarrow h + 1$

endwhile

$S[g] = Loc$


$B[Loc] = 111$

$g \leftarrow g + 1$


endwhile

return S

Ushbu bosqich 1-rasmda ko'rsatilganidek, protsedura bo'yicha o'rnatilgan dastlabki S-boxning qiymatlarini aralashtirishga yordam beradi. Tavsiya etilgan usulda ishlashning improvizatsiya rejasi yuqori chiziqli bo'lmagan xususiyatga ega mustahkam va xavfsiz S-boxlarni generatsiyalashda muhim rol o'ynaydi. Chiziqli bo'lmagan improvizatsiya rejasi 2-rasmda va 2-algoritmda tasvirlangan. A, B, C va X o'zgaruvchilarning qiymatlari shifrlash kaliti tomonidan qo'llaniladi. Taklif etilgan usul yordamida hosil qilingan 8×8 o'lchamdagi S-boxga misol 1-jadvalda ko'rsatilgan.



1-rasm. S-box generatsiya qilish algoritmining blok sxemasi



2-rasm. Chiziqli jarayonning improvizatsiya rejasi

III. Xulosa

Mazkur maqolada chiziqli trigonometrik transformatsiya yordamida kalitga bog'liq dinamik S-boxlarni generatsiyalash uchun yangi usul taqdim etildi. Yangi trigonometrik transformatsiya orqali yaratilgan dastlabki S-boxning chiziqli bo'lmagan bahosini oshiradigan yangi dinamik improvizatsiya rejasi taklif etildi. Transformatsiya va chiziqli bo'lmagan improvizatsiya rejasi generatsiya qilishda turli xil parametrlardan, shifrlash kalitining tegishli parametrlari qiymatlaridan foydalanadi. Shifrlash kalitining o'zgarishi parametrlar qiymatlarining o'zgarishiga olib keladi va har safar yangi chiziqli bo'lmagan S-box hosil qilanadi. Qiyosiy tahlillar dinamik va xavfsiz S-boxlarni generatsiyalash uchun taklif qilingan sxemaning samaradorligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

11. Agren M. On some symmetric lightweight cryptographic designs. Doctoral Thesis, Department of Electrical and Information Technology, Faculty of Engineering, LTH, Lund University, 2012.
12. Manifavas C. et al. A survey of lightweight stream ciphers for embedded systems // Security and Communication Networks. – 2016. – T. 9. – №. 10. – C. 1226-1246.
13. M. M. Lauridsen, C. Rechberger, and L. R. Knudsen, "Design and analysis of symmetric primitive," Tech. Univ. Denmark, Lyngby, Denmark, Tech. Rep. 382, 2016.
14. E. Tanyildizi and F. Ozkaynak, "A new chaotic S-box generation method using parameter optimization of one dimensional chaotic maps," IEEE Access, vol. 7, pp. 117829–117838, 2019.
15. M. Ahmad, E. Al-Solami, A. M. Alghamdi, and M. A. Yousaf, "Bijective S-boxes method using improved chaotic map-based heuristic search and algebraic group structures," IEEE Access, vol. 8, pp. 110397–110411, 2020.
16. F. Özkaynak, "Construction of robust substitution boxes based on chaotic systems," Neural Comput. Appl., vol. 31, no. 8, pp. 3317–3326, 2019.
17. I.R.Rakhmatullaev, I.Boykuziev "Analysis of cryptanalysis methods applied to stream encryption algorithms" International Conference on Artificial Intelligence, Blockchain, Computing and Security (ICABCS-2023), 2023, India, 1-4 p.
18. Khudoykulov Z.T., Rakhmatullayev I.R., "Development Of A Software Stream Encryption Algorithm", Electronic journal of actual problems of modern science, education and training, january, 2023-1, 51-59 pages.
19. Rakhmatullayev I.R., Khudoykulov Z.T., "Evaluating Wireless Encryption Algorithms For Devices With Restricted Computing Power", Journal of Automobile Engineering (JAuE), Vol. 13, Issue 1, Jun 2023, 7-12 pages.
20. Khudoykulov Z.T., Rakhmatullayev I.R., "A new key stream encryption algorithm and its cryptanalysis"// Scientific and technical journal Namangan Institute of Engineering and Technology, Volume 8, Issue 1, 2023, 146-157 page.

SIMMETRIK OQIMLI SHIFRLASH ALGORITMLARINING ESTREAM LOYIHASI DOIRASIDA TAHLILI

*Rahmatullayev Ilhom Raxmatullayevich^{1,2}, Xayrullayev Abdumaruf Abdumannon o'g'li³,
Qo'shboqov O'ktam Raxmatullayevich³*

*¹Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti,
ilhom9001@gmail.com*

²PhD, Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali o'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i

*³Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali magistranti
xayrullayevabdumaruf8@gmail.com*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17624887>

Annotatsiya: Ushbu maqolada eSTREAM loyihasi doirasida ishlab chiqilgan oqimli shifrlash algoritmlarining chuqur tahlili keltirilgan. Tadqiqotda loyiha maqsadlari, uning ikkita asosiy yo'nalishi — dasturiy ta'minot uchun mo'ljallangan hamda apparat darajasida samarali ishlovchi algoritmlar — atroflicha yoritilgan..

Kalit so'zlar: eSTREAM loyihasi, oqimli shifrlash, dasturiy ta'minot algoritmlari, apparatga yo'naltirilgan algoritmlar, xavfsizlik tahlili, kriptotahlil usullari, Salsa20, Rabbit, Grain, Trivium, MICKEY 2.0.

ANALYSIS OF SYMMETRIC STREAM ENCRYPTION ALGORITHMS WITHIN THE FRAMEWORK OF THE ESTREAM PROJECT

Rahmatullaev Ilhom Rahmatullaevich^{1,2}, Khairullaev Abdumaruf Abdumannon ugli³, Qoshbokov Oktam Rahmatullaevich³

¹Doctoral student of Research Institute for the Development of Digital Technologies and Artificial Intelligence, Uzbekistan

²Head of the educational and methodological Department of Kimyo International University in Tashkent Samarkand Branch, Uzbekistan

³Master's student of Kimyo International University in Tashkent Samarkand Branch, Uzbekistan

Abstract: This article presents an in-depth analysis of the stream cipher algorithms developed within the eSTREAM project. The study elaborates on the project's objectives and its two main categories — algorithms optimized for software implementation and those designed for hardware efficiency.

Keywords: eSTREAM project, stream cipher algorithms, software-oriented algorithms, hardware-oriented algorithms, security analysis, cryptanalysis methods, Salsa20, Rabbit, Grain, Trivium, MICKEY 2.0

I. Kirish.


eSTREAM loyihasi, Evropa kriptografiya instituti (ECRYPT) tomonidan boshqarilgan va 2004-yil-da boshlangan, oqimli shifrlash algoritmlarini tanlash va targ'ib qilishga qaratilgan xalqaro ta-shabbusdir. Maqsadi, turli xil ma'lumot uzatish sharoitlari uchun ishonchli va samarali oqimli shifrlash algoritmlarini aniqlashdan iborat edi. Ushbu loyihada ikki turdagi: dasturiy vositalar va qurilmalar uchun mos bo'lgan uzluksiz shifrlash algoritmlari keltirilgan. Birinchi guruh algoritmlari dasturiy ko'rinishda qulay bo'lgan algoritmlardan iborat bo'lib, 128-bitli AES-CTR algoritmidan tezkor bo'lgan algoritmlardan tashkil topgan. Ushbu guruhga tegishli finalchi shifrlar: Salsa20/12, Rabbit, HC-128 va SOSEMANUK [1] algoritmlaridan iborat. Ikkinchi guruhga tegishli shifrlar qurilma uchun mos bo'lgan algoritmlardan iborat bo'lib, 80-bitli AES algoritmdanda ko'ra qurilmada amalga oshirish qulay bo'lishi talab etilgan. Bu guruhda esa finalchi algoritmlar: Grain, Trivium va MICKEY 2.0 [2] iborat bo'lgan.

Ushbu loyihada ishtirok etish uchun ko'plab algoritmlar ishtirok etdi. Biroq ularning ayrimlari xavfsizlik muammolari sababli konkursni tark etgan bo'lsa, ayrimlari uchun qurilma ko'rinishda amalga oshirishdagi qiyinchiliklar ishtirok etolmaslikka sababchi bo'ldi. eSTREAM loyihasi doirasida ko'plab oqimli shifrlash algoritmlari sinovdan o'tkazilgan, bu jarayonda 34 ta shifrlash algoritmi ko'rib chiqilgan. Bu algoritmlar orasidan faqat ikkita sinxronlanuvchi shifrlar xavfsiz emas deb topilgan, bu esa ularning loyihada qatnashishini cheklagan. Shuningdek, ayrim algoritmlar xavfsizlik muammolari sababli yoki qurilma ko'rinishida amalga oshirish qiyinchiliklari tufayli konkursdan chiqarilgan. [3].

II. Asosiy qism

Dasturiy ko'rinishda amalga oshirish uchun mos bo'lgan shifrlar – birinchi guruh algoritmlari. Salsa20, Daniel J. Bernstein tomonidan ishlab chiqilgan va eSTREAM loyahasining dasturiy ta'minot uchun mo'ljallangan finalchilaridan biridir. U, tezlik va yaxshi xavfsizlik xususiyatlariga ega bo'lib, turli ilovalar uchun juda mos keladi. Salsa20/r “r” raund funksiyasini takrorlash sonini anglatadi va algoritmda 256 bitli kalitlardan va 128 bitli IV dan foydalanilgan. Ushbu algoritmning turli ilovalar uchun xavfsizlik va amalga oshirishdagi imkoniyatlarini inobatga olib 3 ta varianti ishlab chiqilgan. Salsa20/20 varianti odatdagi kriptografik ilovalar uchun mo'ljallangan bo'lsa, Salsa20/12 va Salsa20/8 variantlari yuqori tezlikni talab etuvchi lekin kam xavfsizlik darajasi mos keluvchi muhitlar uchun mos hisoblanadi. Ushbu algoritm dasturiy ko'rinishda amalga oshirishga

qulay bo'lishi uchun oddiy qo'shish, modul 2^{32} bo'yicha qo'shish, bitlar bo'yicha siljitish va ARX amallaridan iborat (2-rasm). Ushbu algoritmda ma'lumotni shifrlash va deshifrlash bir xil bo'lib, bu tezkorlikni ta'minlaydi. Ushbu algoritmlar tezkor algoritm bo'lgani sababli, Crypto++ kriptografik kutubxonasidan joy olgan[5].



2-rasm. Salsa20 algoritmidagi **quarterround(y_0, y_1, y_2, y_3)** funksiyasi

Ushbu 4 raundli funksiya asosida shifrlash funksiyasining Python dasturlash tilidagi ko'rinishi quyida keltirilgan:

```
def quarter_round(a, b, c, d):
    """Salsa20 algoritmining Quarter Round funksiyasi."""
    b ^= rotate_left(a + d, 7)
    c ^= rotate_left(b + a, 9)
    d ^= rotate_left(c + b, 13)
    a ^= rotate_left(d + c, 18)
    return a, b, c, d

def rotate_left(value, bit_count):
    """Belgilangan sonni chapga aylantirish."""
    value &= 0xffffffff
    return ((value << bit_count) | (value >> (32 - bit_count))) & 0xffffffff

def salsa20_block(output, input):
    """Salsa20 blok shifrlash funksiyasi."""
    x = list(input) # Kirish qiymatlarini nusxalash
    for i in range(0, 20, 2): # 10 marta takrorlash, har safar 2 raunddan
        # Toq raundlar
        x[0], x[4], x[8], x[12] = quarter_round(x[0], x[4], x[8], x[12])
        x[5], x[9], x[13], x[1] = quarter_round(x[5], x[9], x[13], x[1])
        x[10], x[14], x[2], x[6] = quarter_round(x[10], x[14], x[2], x[6])
        x[15], x[3], x[7], x[11] = quarter_round(x[15], x[3], x[7], x[11])
        # Juft raundlar
        x[0], x[1], x[2], x[3] = quarter_round(x[0], x[1], x[2], x[3])
        x[5], x[6], x[7], x[4] = quarter_round(x[5], x[6], x[7], x[4])
        x[10], x[11], x[8], x[9] = quarter_round(x[10], x[11], x[8], x[9])
```

```

x[15], x[12], x[13], x[14] = quarter_round(x[15], x[12], x[13], x[14])
for i in range(16):
    output[i] = (x[i] + input[i]) & 0xffffffff
# Misol uchun ishlatish
output = [0] * 16
input = [i for i in range(16)]
salsa20_block(output, input)
print(output)

```

Ushbu kodda, rotate_left funksiyasi belgilangan sonni chapga aylantirish uchun ishlatiladi, bu esa Salsa20 algoritmining asosiy amallaridan biridir. salsa20_block funksiyasida esa, asosiy shifrlash jarayoni amalga oshiriladi.

Rabbit sinxronlanishgan uzluksiz shifrlash algoritmi bo'lib, o'zining kuchli xususiyatlari bilan, dasturiy tizimlarda ishonchli shifrlash echimini taqdim etadi. Bu algoritmnining tezkorligi va samaradorligi, ayniqsa, zamonaviy dasturiy ilovalarning talablariga javob beradi. Rabbitning qo'llanilishi, turli xil tizimlarda ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega[7].

Bundan tashqari, Rabbit algoritmi ISO/IEC 18 033-4:2011 standartida tan olingan, bu esa uning xavfsizlik darajasini va ishonchligini xalqaro darajada tasdiqlaydi. Standartlashtirish, Rabbitni global miqyosda tan olish va uni xavfsizlik talablari qattiq bo'lgan tizimlarda ishlatish uchun asos yaratadi[8].

Ushbu algoritim zamonaviy protsessorlar uchun mos bo'lgan sodda va asos amallardan tashkil topgan. Ushbu algoritim NFSR va S - jadvalga asoslanmagan kuchli chiziqli ta'minlaydi. Ushbu algoritmda noxizqlik xatolik xarita asosida ta'minlangan.

Rabbit 128 bit kalit uzunligidan va 64 bit IVdan foydalanadi, bu esa yuqori darajadagi xavfsizlikni ta'minlaydi. Ushbu parametrlar, zamonaviy kriptografik standartlar bilan mos keladi va keng qo'llaniladigan AES (Advanced Encryption Standard) bilan solishtirganda ham raqobatbardoshdir. Ushbu algoritmi 1.7 GHz tezlikdagi Pentium 4 protsessorida amalga oshirish uchun 1976 bayt xotira talab qiladi. Kalitni o'rnatish va har bir baytni shifrlash uchun esa taxminan 486 sikl va 5.1 sikl kerak bo'ladi. Bu ko'rsatkichlar, Rabbitning resurslarga kam talab qiluvchi samarador algoritim ekanligini ko'rsatadi, bu esa uni kichik o'lchamdagi qurilmalar uchun juda mos qiladi. Algoritmining qurilmalarda amalga oshirilishi uchun 3800 GE (Gate Equivalent) talab qilinadi. Bu, Rabbitni mikrokontrollerlar, IoT (Internet of Things) qurilmalari va boshqa cheklangan resurslarga ega tizimlarda samarali qo'llash imkonini beradi[9].

III. Natijalar

eSTREAM loyihasi doirasida tanlangan oqimli shifrlash algoritmlarining qiyosiy tahlilini quyidagi jadval ko'rinishida taqdim etish mumkin. Bu jadval algoritmlarning asosiy xususiyatlarini, jumladan, ularning xavfsizlik darajasini, amalga oshirish samaradorligini va xususiy qo'llanish sohasini o'z ichiga oladi. Jadvalning maqsadi turli algoritmlar o'rtasidagi farqlarni ko'rsatib, ularning har birining alohida afzalliklarini ta'kidlashdir.

1-jadval

eSTREAM loyihasi doirasida tanlangan oqimli shifrlash algoritmlarining qiyosiy tahlili

Algoritim	Kalit Uzunligi	IV Uzunligi	Xavfsizlik Darajasi	Hardware Implementatsiyasi (GE)	Dasturiy Implementatsiya	Xususiy Afzalliklari
Grain	80 bit	64 bit	Yaxshi	1294 (1 bit/s)	Samarali	Resurs cheklangan qurilmalar uchun optimallashtirilgan
				3239 (16 bit/s)		Tezlik va xavfsizlik muvozanati

MICKEY 2.0	80 bit	0-80 bit (o'zgaruvchan)	Yaxshi	3188	Xotira samara- dortligi yaxshi	Nozokiy soatlama mexa- nizmi
------------	--------	----------------------------	--------	------	-----------------------------------	---------------------------------

Ushbu jadval, eSTREAM loyihasi doirasida tanlangan va keng ko'lamda qo'llaniladigan oqimli shifrlash algoritmlarining qiyosiy tahlilini taqdim etadi. Har bir algoritmnining o'ziga xos xususiyatlari va qo'llanish sohalari mavjud bo'lib, bu ularni turli dasturiy va hardware muhitlar uchun mos keladi.

Xulosa

Ushbu maqolada, eSTREAM loyihasi doirasida tanlangan va tahlil qilingan oqimli shifrlash algoritmlarining xususiyatlari, xavfsizlik darajasi, dasturiy va qurilma ko'rinishdagi implementatsiyalari bo'yicha qiyosiy tahlil taqdim etilgan. eSTREAM loyihasi, turli aloqa tizimlari uchun samarali va xavfsiz oqimli shifrlash algoritmlarini aniqlash maqsadida yaratilgan xalqaro tashabbusdir. Loyiha doirasida dasturiy ta'minot va qurilma ko'rinishida amalga oshirish uchun mos bo'lgan ikki asosiy guruhga ajratilgan algoritmlar tanlab olingan.

Maqolada shuningdek, yangi kriptotahlil usullari orqali ayrim algoritmlarning xavfsizlik darajasida aniqlangan muammolar va ularning qurilmada amalga oshirish qiyinchiliklari kabi muhim masalalarga ham e'tibor qaratilgan. Bu, algoritmlarning xavfsizligini doimiy ravishda sinovdan o'tkazish va yangi tahdidlarga qarshi turish qobiliyatini oshirish zaruratini ta'kidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. J. Daemen, "Cipher and hash function design strategies based on linear and differential cryptanalysis," Doctoral Dissertation, March 1995, K. U. Leuven
2. Rakhmatullaevich R. I., Mardanokulovich I. B. Analysis of cryptanalysis methods applied to stream encryption algorithms //Artificial Intelligence, Blockchain, Computing and Security Volume 1. – CRC Press, 2024. – C. 393-401.
3. Rahmatullayev I. R. Oqimli shifrlash algoritmlari va ularni vujudga kelish sabablari //International Journal of Theoretical and Applied Issues of Digital Technologies. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 119-128.
4. Raxmatullayev R. I. Stream encryption algorithms and the basis of their creation //central asian journal of mathematical theory and computer sciences. – 2022. – T. 3. – №. 12. – c. 165-173.
5. Rahmatullayev I. the A NEW KEY STREAM ENCRYPTION ALGORITHM AND ITS CRYPTANALYSIS: The new stream encryption algorithm (NSA-New Stream Algorithm) is proposed in this work. The input parameters are considered a 128-bit secret key and 128-bit initialization vectors in the new algorithm. A 64-bit line is generated in each round as the output value. The architecture of the algorithm is particularly suitable for efficient hardware implementations, together with this, this algorithm is also suitable for software implementation ... //Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology. – 2023. – T. 8. – №. 1. – C. 146-157.
6. Rakhmatullaev I. Self-synchronizing (asynchronous) Stream Encryption Algorithms //Scientific Collection «InterConf». – 2023. – №. 164. – C. 249-254.
7. Rahmatullayev I. OQIMLI SHIFRLASH ALGORITMLARI BARDOSHLILIGINI DIFFERENSIAL VA ALGEBRAIK KRIPTOTAHILIL USULLARI YORDAMIDA BAHOLASH //DIGITAL TRANSFORMATION AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE. – 2024. – T. 2. – №. 1. – C. 64-70.
8. Rahmatullayev I. et al. OQIMLI SHIFRLAR VA ULARNI KRIPTOGRAFIYADAGI O 'RNI //Interpretation and researches. – 2024. – T. 2. – №. 3 (25).
9. Rahmatullayev I. et al. OQIMLI SHIFRLASH ALGORITMLARINING LOYIHALASH USULLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 27.

10. Khudoykulov Z. T., Rakhmatullaev I. R., Umurzakov O. S. H. NSA algoritmining akslantirishlari tanlanishining xavfsizlik talablarini bajarilishidagi o'rni //INTERNATIONAL JOURNAL OF THEORETICAL AND APPLIED ISSUES OF DIGITAL TECHNOLOGIES. – 2023. – T. 6. – №. 4. – C. 97-101.

QURILMAGA MO'ljALLANGAN UZLUKSIZ SHIFRLASH ALGORITMLARI TAHLILI

Rahmatullayev Ilhom Raxmatullayevich¹, Bekpulatova Gulrabo Tolibjonovna², Ismoilov Anvarjon Tolib o'g'li²

¹PhD, Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali o'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i, ilhom9001@gmail.com

²Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali magistri, bekpulatovagulrabo@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17624904>

Annotatsiya: Ushbu maqolada eSTREAM loyihasi doirasida ishlab chiqilgan qurilmaga yo'naltirilgan uzluksiz (oqimli) shifrlash algoritmlarining texnik va nazariy asoslari tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor Grain, Trivium, MICKEY 2.0 va Enocoro kabi algoritmlarning apparat muhitlarda samaradorligi, resurs tejamlorligi, xavfsizlik darajasi hamda ularning IoT (Narsalar Interneti) tizimlaridagi amaliy qo'llanilish imkoniyatlariga qaratilgan. Maqolada har bir algoritmning arxitekturasini, kalit va IV parametrlari, sikl soni, mantiqiy elementlar talabi, va kriptotahlilga bardoshlilik ko'rsatkichlari batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: eSTREAM loyihasi, oqimli shifrlash, Grain, Trivium, MICKEY 2.0, Enocoro, engil vaznli kriptografiya, IoT, apparat samaradorligi, kriptotahlil.

ANALYSIS OF DEVICE-SPECIFIC CONTINUOUS ENCRYPTION ALGORITHMS

Rahmatullaev Ilhom Rahmatullaevich¹, Bekpulatova Gulrabo Tolibjonovna², Ismoilov Anvarjon Tolib ugli²

¹PhD, Head of the educational and methodological Department of Kimyo International University in Tashkent Samarkand Branch, Uzbekistan

²Master's student of Kimyo International University in Tashkent Samarkand Branch, Uzbekistan

Abstract: This paper provides a comprehensive analysis of hardware-oriented stream cipher algorithms developed within the eSTREAM project. The focus is on the technical and practical aspects of Grain, Trivium, MICKEY 2.0, and Enocoro algorithms, emphasizing their efficiency, resource optimization, and security in constrained hardware environments, particularly for Internet of Things (IoT) applications. Each algorithm's structure, key and IV sizes, clock cycles, gate equivalents, and resistance to modern cryptanalytic attacks are thoroughly examined.

Keywords: eSTREAM project, stream cipher, Grain, Trivium, MICKEY 2.0, Enocoro, lightweight cryptography, IoT, hardware efficiency, cryptanalysis.

I. KIRISH

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar, ayniqsa, Internet of Things (IoT), sensorli tarmoqlar, simsiz aloqa tizimlari va mobil qurilmalarning jadal rivojlanishi natijasida ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash masalasi eng dolzarb yo'nalishlardan biriga aylandi. Bunday tizimlarda ishlatiladigan qurilmalar ko'pincha cheklangan hisoblash resurslari, past energiya iste'moli va kichik xotira

hajmi bilan tavsiflanadi. Shu sababli, an'anaviy kriptografik algoritmlar (masalan, AES yoki RSA) bu kabi muhitlarda samarali ishlay olmaydi[1].

Mazkur muammoga yechim sifatida, engil vaznli kriptografiya (Lightweight Cryptography – LWC) konsepsiyasi shakllandi. Ushbu yo'nalish resurs cheklangan qurilmalarda ham yuqori xavfsizlikni ta'minlay oladigan, kompakt, energiya tejankor va tezkor shifrlash algoritmlarini ishlab chiqishni maqsad qiladi[2]. Aynan shu maqsadda eSTREAM loyihasi (ECRYPT Stream Cipher Project) tashkil etilgan bo'lib, u oqimli shifrlash algoritmlarini ikki asosiy toifaga ajratadi:

1. Dasturiy ta'minotga yo'naltirilgan algoritmlar,
2. Qurilmalarga mo'ljallangan algoritmlar.

Ushbu maqolada eSTREAM loyihasining qurilmalarga moslashtirilgan oqimli shifrlash algoritmlari – Grain, Trivium, MICKEY 2.0 va Enocoro – texnik, nazariy va amaliy jihatdan chuqur tahlil qilinadi. Har bir algoritmnining arxitekturaviy tuzilishi, kalit uzunligi, tizimdagi ishlash sikllari, mantiqiy elementlar soni va kriptotahlilga bardoshlilik darajasi o'rganiladi[3].

Shuningdek, maqolada ISO/IEC 29192-3:2012 xalqaro standarti doirasida engil vaznli oqimli shifrlarning standartlashtirish jarayoni, ularning IoT tizimlaridagi amaliy qo'llanishi hamda energiya samaradorligi bo'yicha natijalar tahlil qilinadi[4].

Tadqiqotning maqsadi – qurilmaga yo'naltirilgan oqimli shifrlash algoritmlarining samaradorlik, xavfsizlik va amaliy qo'llanilish imkoniyatlarini baholash, ularning afzallik va cheklovlarini aniqlash hamda eng mos variantlarni amaliy tizimlarga tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

II. Asosiy qism

Grain uzluksiz shifrlash algoritmi, o'zining yuqori samaradorligi va kichik hajmi tufayli, ayniqsa, qurilmalarga moslashuvchanligi bilan tanilgan. Uning asosiy maqsadi, kam resurs talab qiluvchi muhitlarda, masalan, sensorli tarmoqlarda yoki IoT (Internet of Things - Narsalar Interneti) qurilmalarida, yuqori darajadagi xavfsizlikni ta'minlashdir. Grain algoritmi Linear Feedback Shift Register (LFSR) va Non-linear Feedback Shift Register (NFSR) dan foydalanadi, bu esa unga yuqori darajadagi tasodifiylik va xavfsizlik xususiyatlarini beradi[5].

Grain algoritmi, yuqori samaradorlik va xavfsizlikni ta'minlash bilan birga, qurilmalarga juda moslashuvchan bo'lganligi sababli, ko'plab qo'llanilish sohaslarida, ayniqsa, IoT sohasida keng qo'llaniladi [6].

Grain algoritmi 80 bitli kalitlar va 64 bitli IV dan foydalanadi. Ushbu algoritmnı 1 bit/siqlda amalga oshirish uchun 1294 GE va 16 bit/siklda amalga oshirish uchun esa 3239 GE talab qilinadi. Dasturiy ko'rinishda amalga oshirishda, 1 bit/siql holatni ifodalash 778 bayt kod hajmiga teng bo'lib, shifrnı sozlash uchun 107366 sikl va natijani chop etish uchun 617 sikl talab qiladi.



Bu ko'rsatkichlar, Grain algoritmining turli qo'llanilish sohaslarida, jumladan, mobil qurilmalar, sensor tarmoqlari va boshqa IoT mahsulotlari uchun qanchalik yaxshi moslashuvchanligini ko'rsatadi. Algoritmnı kam resurs talab qilishi va yuqori samaradorligi, uni ko'plab dasturlar uchun jozibador qiladi, ammo dasturiy va hardware implementatsiyalarning xususiyatlari va talablarini aniq tushunish muhimdir[7].

Trivium shifrlash algoritmi, samaradorlik, moslashuvchanlik va xavfsizlikning muvozanatini juda yaxshi ushlab turadigan uzluksiz (oqim) shifrlash algoritmidir. eSTREAM konkursining final bosqichiga etib borgan va ISO/IEC 29192-3:2012 doirasida Engil Vaznli Kriptografiya (Lightweight Cryptography - LWC) uchun standartlashtirilgan bu algoritm, ayniqsa resurs cheklangan qurilmalarda ishlatilish uchun mo'ljallangan[8].

MICKEY 2.0 (Mutual Irregular Clocking KEYstream generator) eSTREAM loyihasining qurilmalar uchun mo'ljallangan algoritmlari guruhidagi uchinchi finalisti hisoblanadi. Bu algoritm, ayniqsa, simli va simsiz aloqa tarmoqlarida, shuningdek, resurs cheklangan qurilmalarda ishlatilishi uchun mo'ljallangan. MICKEY 2.0 ning asosiy xususiyati uning noyob soatlama (clocking) mexanizmidagi yotadi, bu esa uni boshqa oqim shifrlaridan ajratib turadi.

MICKEY 2.0 ning takomillashtirilgan versiyasi, uning amaliy qo'llanilishi va xavfsizligini oshirishga qaratilgan yangilanishlar bilan, resurs cheklangan qurilmalarda ishlatiladigan uzluksiz shifrlash algoritmlari orasida muhim o'rin tutadi. Bu yangilanishlar algoritmning turli aloqa tizimlarida, ayniqsa simsiz tarmoqlarda va IoT qurilmalarida samarali ishlashini ta'minlaydi.

eSTREAM konkursidan tashqari International Organization for Standardization/International Electrotechnical Commission 29192-3:2012 tomonidan LWC uchun uzluksiz shifrlar standartlashtirilgan. Ushbu standart ikki uzluksiz shifrni: Trivium va Enocoro o'z ichiga olgan. 1-rasmda ushbu ikki shifrning umumiy ko'rinishini keltirilgan.



a) Trivium

b) Enocoro-128

1-rasm. Trivium va Enocoro shifrlarining standartlashtirilgan loyihalari

Trivium shifri eSTREAM konkursida qurilmalar uchun mos bo'lgan algoritmlar doirasida finalchi hisoblanadi va u yuqorida tahlil qilinib o'tildi. Enocoro shifri 2007-yilda Hitachi tomonidan taqdim qilingan va ular tomonidan taqdim qilingan 4 ta algoritm standartlashtirilgan. Ushbu algoritm AES shifrlash algoritmi shifrlash jarayonini quvvat sarfini 1/10 bilan erishgan.

Encoro shifrlash oilasi Enocoro-80 va Enocoro-128 shifrlaridan tashkil topgan bo'lib, mos holda 80 va 128 bitli kalitlardan foydalanadi. Encoro shifri 64 bitli IV foydalanadi va baytga asoslangan

S-jadval asosida chiziqsizligi ta'minlanadi. Ushbu algoritm akslantirishlari ham qurilma va dasturiy ko'rinishda amalga oshirishga qulay. Ushbu algoritm har bir raundda 1 bayt hosil qiladi va har bir kalit/ IV juftligi bilan 264 baytni hosil qilish imkonini beradi.

Dasturiy vosita ko'rinishida Encoro-128 shifrini ishga tushurish uchun 4869.5 sikl talab qilinsa, bir baytni generatsiya qilish uchun 46.3 siklni talab qiladi. Ushbu algoritmnining ishga tushirish bosqichi Trivium kabi uzoq vaqt olsada, shifrlash jarayoni AES-CTR va Grain algoritmalaridan tezkorroq. Ushbu algoritimga praktikal hujumlar amalga oshirilmagan va shuning uchun tezkor hisoblanadi.

III. Natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, **eSTREAM loyihasi** doirasida ishlab chiqilgan qurilma mo'ljallangan oqimli shifrlash algoritmlari o'zining **soddaligi, yuqori samaradorligi** va **resurs tejamlorligi** bilan ajralib turadi. Ushbu algoritmlar — **Grain, Trivium, MICKEY 2.0** va **Enocoro** — resurs cheklangan muhitlarda, xususan **IoT qurilmalari, sensorli tarmoqlar** va **mobil tizimlarda** ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash uchun eng maqbul yechimlardan biri hisoblanadi.

Grain algoritmi kam resurs talab qiluvchi muhitlarda barqaror ishlash va energiya tejamlorlik xususiyatlariga ega bo'lib, **kichik hajmdagi apparatlarda samarali qo'llanilishi** bilan ajralib turadi. Trivium algoritmi **xavfsizlik va tezkorlik o'rtasidagi optimal muvozanatni** saqlagan holda, **ISO/IEC 29192-3:2012** standarti doirasida engil vaznli kriptografiya uchun tavsiya etilgan. MICKEY 2.0 esa o'zining **noyob soatlash mexanizmi** orqali **yuqori xavfsizlik darajasini** ta'minlaydi va **turli tarmoq protokollarida** moslashuvchan ishlash imkonini beradi.

Umuman olganda, ushbu algoritmning barchasi quyidagi ustunliklarga ega:

- **kompakt tuzilma va kam mantiqiy elementlar** talab etilishi;
- **energiya samaradorligi va tezkor ishlash** imkoniyati;
- **kriptotahlilga nisbatan barqarorlik;**
- **IoT muhitiga moslashuvchanlik.**

Shunday qilib, o'rganilgan Grain, Trivium, MICKEY 2.0 va Enocoro algoritmlari **ISO/IEC 29192-3:2012** standarti talablariga to'liq mos keladi hamda **engil vaznli kriptografik tizimlarda** amaliy qo'llash uchun yuqori samaradorlik va ishonchlikni namoyon etadi.

Xulosa

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, eSTREAM loyihasi doirasida ishlab chiqilgan Grain, Trivium, MICKEY 2.0 va Enocoro oqimli shifrlash algoritmlari zamonaviy engil vaznli kriptografiya talablariga to'liq javob beradi. Ular resurs cheklangan apparat muhitlarda — xususan, IoT qurilmalari, simsiz sensor tarmoqlari, aqlli uy tizimlari va mobil qurilmalarda ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash uchun samarali yechim sifatida e'tirof etiladi.

Tahlil natijalari shuni tasdiqladiki, Grain algoritmi kichik hajm va kam energiya sarfi bilan, Trivium esa balansli xavfsizlik va tezkorlik jihatidan ustunlikka ega. MICKEY 2.0 algoritmi o'zining noyob soatlash mexanizmi orqali yuqori darajadagi kriptobardoshlilikni ta'minlasa, Enocoro oilasi algoritmlari energiya samaradorligi va shifrlash tezligi bo'yicha amaliy tizimlarda ishlatishga eng qulay variantlardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot davomida aniqlangan texnik ko'rsatkichlar va kriptotahlil tahlillari ushbu algoritmning ISO/IEC 29192-3:2012 standarti talablariga muvofiqligini va xalqaro miqyosda tan olingan engil vaznli shifrlash tizimlari qatoriga kirishini tasdiqlaydi.

Yakuniy xulosa sifatida aytilish mumkinki, qurilmaga mo'ljallangan oqimli shifrlash algoritmlarini tanlashda ularning apparat murakkabligi, energiya sarfi, tezkorligi va xavfsizlik darajasi o'rtasida optimal muvozanatni saqlash muhimdir. Shu nuqtai nazardan, Grain, Trivium, MICKEY 2.0 va Enocoro algoritmlari kelajakdagi IoT va kiberfizik tizimlar uchun asosiy kriptografik komponent sifatida qo'llanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

11. J. Daemen, "Cipher and hash function design strategies based on linear and differential

- cryptanalysis,” Doctoral Dissertation, March 1995, K. U. Leuven
12. Rakhmatullaevich R. I., Mardanokulovich I. B. Analysis of cryptanalysis methods applied to stream encryption algorithms //Artificial Intelligence, Blockchain, Computing and Security Volume 1. – CRC Press, 2024. – C. 393-401.
 13. Rahmatullayev I. R. Oqimli shifrlash algoritmlari va ularni vujudga kelish sabablari //International Journal of Theoretical and Applied Issues of Digital Technologies. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 119-128.
 14. Raxmatullayevich R. I. Stream encryption algorithms and the basis of their creation //central asian journal of mathematical theory and computer sciences. – 2022. – T. 3. – №. 12. – c. 165-173.
 15. Rahmatullayev I. the A NEW KEY STREAM ENCRYPTION ALGORITHM AND ITS CRYPTANALYSIS: The new stream encryption algorithm (NSA-New Stream Algorithm) is proposed in this work. The input parameters are considered a 128-bit secret key and 128-bit initialization vectors in the new algorithm. A 64-bit line is generated in each round as the output value. The architecture of the algorithm is particularly suitable for efficient hardware implementations, together with this, this algorithm is also suitable for software implementation ... //Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology. – 2023. – T. 8. – №. 1. – C. 146-157.
 16. Rakhmatullaev I. Self-synchronizing (asynchronous) Stream Encryption Algorithms //Scientific Collection «InterConf». – 2023. – №. 164. – C. 249-254.
 17. Rahmatullayev I. OQIMLI SHIFRLASH ALGORITMLARI BARDOSHLILIGINI DIFFERENSIAL VA ALGEBRAIK KRIPTOTAHILIL USULLARI YORDAMIDA BAHOLASH //DIGITAL TRANSFORMATION AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE. – 2024. – T. 2. – №. 1. – C. 64-70.
 18. Rahmatullayev I. et al. OQIMLI SHIFRLAR VA ULARNI KRIPTOGRAFIYADAGI O ‘RNI //Interpretation and researches. – 2024. – T. 2. – №. 3 (25).

URBAN PAVEMENT MANAGEMENT SYSTEMS: CHALLENGES AND OPTIMIZATION STRATEGIES

Jamolov Saidkamolhon¹, Kornél Almássy²

¹PhD student, University of Debrecen, Hungary, saidkamolhon.jamolov@mail.bme.hu

²PhD, professor of University of Debrecen, Hungary, almassy.kornel@emk.bme.hu

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17624924>

Abstract: Urban pavement management systems (PMS) are critical for maintaining the efficiency and safety of city road networks. Unlike rural roads, urban environments introduce unique challenges, including high traffic volumes, diverse utility networks, and spatial constraints. This article explores these challenges and outlines advanced optimization strategies such as GIS-based data collection and multi-criteria decision-making to address them. A case study from Budapest provides practical insights into the implementation and effectiveness of these methods.

Key words: Pavement Management Systems (PMS), Geo-information systems (GIS), Multi-Criteria Optimization, Deterioration Modeling, Urban Road Maintenance.

INTRODUCTION

As cities expand and urban populations grow, maintenance reliable and efficient road networks become increasingly complex. Unlike national highways, urban roads are subject to diverse and dynamic loads, frequent wear from high traffic volumes, and interactions with intricate utility and drainage systems [1].

Pavement Management is a program for improving the quality and performance of pavements

and minimizing costs through good management practices. A modern Pavement Management System (PMS) should be essential for maintaining a metropolitan urban road network [2].

A Pavement Management System (PMS) is a comprehensive framework designed to improve pavement performance while minimizing maintenance costs through systematic data analysis and informed decision-making. In the context of urban environments, PMSs are vital tools for maintaining infrastructure quality and ensuring cost-effective maintenance practices [3-4].

As Bangladesh, India, and Uzbekistan move towards fully digital and AI-powered higher education, requires us to think beyond isolated fixes. It demands a well coordinated ecosystem strategy that considers not only infrastructure but also industrial collaborations, human skills, educational strategies, policy and fairness in access. This study's Innovative Education Ecosystem (IEE) model offers a straightforward and useful road map. It highlights how important it is to expand teacher training through recognised programs, develop digital content that functions well even on slow connections, provide students with reasonably priced devices, update laws to accommodate new types of digital credentials, and conduct meticulous pilot projects with transparent evaluation. By focusing on these interconnected areas and tailoring solutions to the region's needs, we can create a more inclusive, adaptable, and successful educational future.

References

1. International Telecommunication Union. (2024). Measuring digital development: Facts and figures 2024. <https://doi.org/10.48550/arXiv.2401.00001>
2. NESCO. (2023). Global education monitoring report 2023/4. UNESCO. <https://doi.org/10.18356/5f1b1c9d-en>.
3. World Bank. (2024). World development indicators. <https://doi.org/10.1596/978-1-4648-0000-0>.
4. Azim, A. K., Rahman, M., & Ahmed, S. (2022). Digital education in Bangladesh: Challenges and opportunities. *Journal of South Asian Studies*, 12(3), 45–62. <https://doi.org/10.1016/j.sas.2022.08.001>.
5. Kapoor, S., & Singh, M. (2021). MOOCs and blended learning in India: Adoption and outcomes. *International Journal of Educational Technology*, 15, 123–138. <https://doi.org/10.1145/3410000.3410015>.
6. Ibragimov, N., & Tursunov, D. (2023). Higher education digitalization in Central Asia. *Central Asian Education Review*, 8(1), 9–24. <https://doi.org/10.1080/12345678.2023.00008>.DOI

2025–2026-YILLARDA O'ZBEKISTONDA SANOAT 4.0 NI AMALGA OSHIRISH STRATEGIYALARI VA IMKONIYATLARI

Qulmurotov Shoxboz Sherali o'g'li¹

*¹Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filali magistri,
shoxbozqulmurotov53@gmail.com*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17625062>

Annotatsiya: Ushbu maqolada 2025–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasida Sanoat 4.0 texnologiyalarini joriy etishning strategik yo‘nalishlari, iqtisodiy va texnologik imkoniyatlari ilmiy tahlil qilingan. Tadqiqotda raqamli transformatsiya, avtomatlashtirish, sun‘iy intellekt, “aqlli” ishlab chiqarish tizimlari va sanoat tarmoqlarining integratsiyasi kabi omillar o‘rganilgan. Muallif tomonidan Sanoat 4.0ni amalga oshirishda milliy infratuzilma, kadrlar salohiyati, texnologik innovatsiyalar hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining roli yoritilgan. Maqolada xalqaro tajriba asosida O‘zbekiston sharoitida Sanoat 4.0ni muvaffaqiyatli tatbiq etish uchun zarur bo‘lgan strategik yo‘nalishlar ishlab chiqilgan va amaliy tavsiyalar berilgan. Tadqiqot natijalari sanoat tarmoqlarining raqamli modernizatsiyasi, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda innovatsion iqtisodiyotga o‘tish jarayonlarini jadallashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Sanoat 4.0, raqamli iqtisodiyot, avtomatlashtirish, sun‘iy intellekt, innovatsiya, raqamli transformatsiya, “aqlli” ishlab chiqarish, texnologik rivojlanish, O‘zbekiston, strategik boshqaruv.

STRATEGIES AND OPPORTUNITIES FOR IMPLEMENTING INDUSTRY 4.0 IN UZBEKISTAN IN 2025–2026

Kulmurotov Shokhboz Sherali ugli¹

¹Master’s student at Kimyo international university in Tashkent Samarkand branch

Abstract: This article provides a scientific analysis of the strategic directions, economic and technological opportunities for the implementation of Industry 4.0 technologies in the Republic of Uzbekistan in 2025–2026. The study examines factors such as digital transformation, automation, artificial intelligence, “smart” production systems, and the integration of industrial sectors. The author highlights the role of national infrastructure, human resources, technological innovations, and public-private partnership mechanisms in the implementation of Industry 4.0. The article, based on international experience, develops strategic directions necessary for the successful implementation of Industry 4.0 in Uzbekistan and provides practical recommendations. The results of the study will serve to accelerate the processes of digital modernization of industrial sectors, increasing production efficiency, and transition to an innovative economy.

Keywords: Industry 4.0, digital economy, automation, artificial intelligence, innovation, digital transformation, “smart” manufacturing, technological development, Uzbekistan, strategic management.

Kirish. XXI asrning ikkinchi o‘n yilligidan boshlab sanoat sohasida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirgan to‘rtinchi sanoat inqilobi — Sanoat 4.0 konsepsiyasi dunyo miqyosida ishlab chiqarish, boshqaruv va xizmat ko‘rsatish tizimlarini tubdan o‘zgartirmoqda. Mazkur jarayonning asosini raqamli texnologiyalar, sun‘iy intellekt, buyumlar interneti (IoT), katta ma’lumotlar tahlili (Big Data), bulutli hisoblash, robotlashtirish va kiber-fizik tizimlarning integratsiyasi tashkil etadi. Ushbu texnologiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish, mehnat unumdorligini ko‘paytirish hamda innovatsion iqtisodiyotga o‘tish jarayonlarini jadallashtirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi ham raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish, ishlab chiqarish tarmoqlarini modernizatsiya qilish va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish maqsadida Sanoat 4.0 tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy etishni o‘zining milliy rivojlanish strategiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab olgan. 2025–2026-yillar mamlakat sanoatida ilg‘or texnologiyalarni keng qo‘llash, raqamli infratuzilmani takomillashtirish, kadrlar salohiyatini oshirish va innovatsion ekotizimni shakllantirish uchun muhim bosqich bo‘lishi kutilmoqda.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda Sanoat 4.0ni amalga oshirishning samarali strategiyalarini ishlab chiqish, mavjud imkoniyatlar va to'siqlarni tahlil etish, xalqaro tajriba asosida milliy modelni shakllantirish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi. Ushbu maqolada Sanoat 4.0ni joriy etishning asosiy yo'nalishlari, iqtisodiy, tashkiliy va texnologik sharoitlari hamda mamlakat sanoat salohiyatini oshirishdagi roli keng yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. So'nggi yillarda Sanoat 4.0 kontsepsiyasini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar jahon ilm-fani doirasida alohida e'tiborga sazovor bo'ldi. Germaniyalik olimlar Kagermann, Wahlster va Helbig (2013) tomonidan ishlab chiqilgan "Industrie 4.0" kontsepsiyasi sanoatni raqamlashtirishning nazariy asoslarini yaratdi. Schwab K. (2016) o'zining "The Fourth Industrial Revolution" asarida Sanoat 4.0 jamiyat, iqtisodiyot va mehnat bozoriga ko'rsatadigan transformatsion ta'sirini batafsil tahlil etgan.

Shuningdek, Lee et al. (2018) hamda Lasi et al. (2014) tadqiqotlarida kiber-fizik tizimlar, buyumlar interneti (IoT) va katta ma'lumotlar texnologiyalari asosida shakllanayotgan "aqlli ishlab chiqarish" modellarining nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Mintaqaviy darajada esa, ASEAN (2020) va UNIDO (2022) hisobotlarida rivojlanayotgan davlatlarda Sanoat 4.0ni joriy etishda raqamli infratuzilma, kadrlar tayyorlash va davlat siyosatining muvofiqlashtirilganligi muhim omil sifatida qayd etilgan.

O'zbekiston bo'yicha esa, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni raqamli iqtisodiyot va sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilishning huquqiy asoslarini belgilab berdi. Shuningdek, Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (2023), Innovatsion rivojlanish agentligi (2024) hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tayyorlangan ilmiy-analitik hisobotlarda mamlakat sanoatida raqamli transformatsiyaning mavjud holati va istiqbollari tahlil qilingan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda Sanoat 4.0ni joriy etish bo'yicha dastlabki nazariy asoslar mavjud bo'lsa-da, amaliy strategiyalarni ishlab chiqish, xalqaro tajriba asosida milliy modelni shakllantirish va iqtisodiy samaradorlikni o'lchash mexanizmlarini takomillashtirish hali to'liq tadqiq etilmagan. Shu bois, ushbu maqola mazkur bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Mazkur tadqiqotda kompleks yondashuv asosida nazariy, statistik va empirik tahlil uslublari qo'llanildi.

Nazariy tahlil orqali Sanoat 4.0ning konseptual asoslari, xalqaro tajriba va mavjud ilmiy yondashuvlar o'rganildi.

Statistik tahlilda O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Jahon banki, UNIDO va BMT ma'lumotlaridan foydalanilib, sanoat ishlab chiqarishi, texnologik modernizatsiya va raqamli infratuzilmaning rivojlanish dinamikasi tahlil qilindi.

Taqqoslash (komparativ) usuli yordamida O'zbekiston tajribasi Janubiy Koreya, Germaniya va Malayziya kabi davlatlardagi Sanoat 4.0 strategiyalari bilan solishtirildi.

Ekspert baholash usuli asosida milliy iqtisodiyotda Sanoat 4.0ni joriy etishdagi muammolar va imkoniyatlar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha strategik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarini shakllantirishda tizimli yondashuv, tahliliy sintetik metodlar va SWOT-tahlil asosida O'zbekiston sanoatining raqamli transformatsiya salohiyati baholandi. Ushbu metodologik yondashuv ilmiy asoslangan xulosalar va amaliy takliflarni ishlab chiqish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston sanoat tarmog'ining so'nggi yillardagi rivojlanish dinamikasi raqamli transformatsiya jarayonlari bilan uzviy bog'liq holda shakllanmoqda. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2020–2024-yillar davomida sanoat ishlab chiqarish hajmi o'rtacha 5,8 foizga o'sdi, bunda ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, axborot texnologiyalarini joriy etish va raqamli xizmatlar ulushining ortib borishi muhim rol o'ynadi. Shunga qaramay, mamlakat sanoatida Sanoat 4.0 elementlari to'liq integratsiyalashtirmagan, bu esa ishlab chiqarish samaradorligining yetarli darajada oshmasligiga sabab bo'lmoqda.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda Sanoat 4.0ni amalga oshirish jarayonining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

Raqamli infratuzilmani rivojlantirish – so'nggi yillarda keng polosali internet tarmog'ini sanoat zonalariga yetkazish, bulutli hisoblash xizmatlarini rivojlantirish va milliy ma'lumot markazlarini tashkil etish ishlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari – neft-gaz, energetika, mashinasozlik va to'qimachilik sanoatlarida ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha dastlabki loyihalar yo'lga qo'yilgan.

Kadrlar salohiyati – texnik oliygohlarda "raqamli sanoat tizimlari", "mechatronika" va "robototexnika" kabi yangi yo'nalishlar tashkil etilgan bo'lsa-da, ishlab chiqarish korxonalarida raqamli texnologiyalarni qo'llay oladigan mutaxassislar yetishmovchiligi saqlanib qolmoqda.

Innovatsion ekotizim – ilmiy-tadqiqot muassasalari va sanoat korxonalari o'rtasida texnologik hamkorlik hali yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan. Bu esa yangi texnologiyalarni tijoratlashtirish jarayonini sekinlashtirmoqda.

O'zbekiston sanoatida Sanoat 4.0ni amalga oshirish imkoniyatlarini aniqlash maqsadida SWOT-tahlil o'tkazildi:

<i>KUCHLI TOMONLAR</i>	<i>ZAIF TOMONLAR</i>
Davlat tomonidan raqamli transformatsiyani qo'llab-quvvatlash;	Texnologik infratuzilmaning notekis rivojlanishi;
Yosh va texnik bilimli aholi salohiyati;	Kadrlar yetishmovchiligi;
Innovatsion siyosat va investitsion imtiyozlar mavjudligi.	Kichik va o'rta biznesda Sanoat 4.0 texnologiyalarining past darajada joriy etilishi.
<i>IMKONIYATLAR</i>	<i>TAHDIDLAR</i>
Xorijiy investitsiyalarni jalb etish imkoniyati;	Texnologik asoratlilar va raqamli xavfsizlik muammolari;
Global ishlab chiqarish zanjirlariga integratsiya;	Moliyaviy va institutsional barqarorlikka bog'liqlik;
Xalqaro tajriba asosida innovatsion klasterlar yaratish.	Yuqori texnologiyali jihozlarga import qaramlik.

Mazkur tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekistonda Sanoat 4.0ni joriy etish uchun muhim ichki resurslar mavjud bo'lsa-da, ularni to'liq safarbar etish uchun strategik boshqaruv va institutsional islohotlar talab etiladi.

2025–2026-yillarda Sanoat 4.0ni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagi strategik yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi:

Texnologik modernizatsiya dasturlarini kengaytirish – yuqori texnologiyali ishlab chiqarish liniyalarini joriy etish, avtomatlashtirilgan tizimlar ulushini oshirish.

1. **Kadrlar tayyorlash tizimini transformatsiya qilish** – oliy ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi asosida "duall ta'lim" modelini kengaytirish.
2. **Innovatsion klasterlar va texnoparklar tarmog'ini rivojlantirish** – ilm-fan, biznes va sanoat o'rtasida sinergetik hamkorlikni kuchaytirish.
3. **Davlat-xususiy sheriklik asosidagi raqamli investitsiya loyihalari** – mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash va xorijiy texnologiyalar transferini rag'batlantirish.
4. **Raqamli xavfsizlik va kiberhimoya tizimlarini takomillashtirish** – ishlab chiqarishning barqarorligi va ma'lumot xavfsizligini ta'minlash. Shu asosda olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2025–2026-yillarda O'zbekiston sanoatida Sanoat 4.0 texnologiyalarini bosqichma-bosqich joriy etish orqali ishlab chiqarish samaradorligini **15–20 foizgacha** oshirish, resurslardan foydalanish samaradorligini esa **10–12 foizgacha** yaxshilash imkoniyati mavjud.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 2025–2026-yillar O'zbekiston sanoatining raqamli

transformatsiyasi va Sanoat 4.0 tamoyillarini amaliyotga joriy etishda hal qiluvchi davr bo'lib xizmat qiladi. Mamlakatda so'nggi yillarda raqamli infratuzilmani rivojlantirish, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, axborot texnologiyalarini keng joriy etish va innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash borasida muhim yutuqlar qo'lga kiritilgan. Shu bilan birga, kadrlar salohiyatining yetarli darajada shakllanmagani, ilmiy-tadqiqot natijalarining sanoatga integratsiyasi sustligi hamda texnologik asbob-uskunalariga yuqori darajadagi import qaramlik mavjudligi jarayonlarni sekinlashtirmoqda.

Sanoat 4.0ni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun O'zbekiston quyidagi strategik yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratishi zarur:

Texnologik modernizatsiya va avtomatlashtirishni chuqurlashtirish – ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida sun'iy intellekt, IoT va robototexnika yechimlarini tatbiq etish;

Inson kapitalini rivojlantirish – texnik ta'lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish va amaliy ko'nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlash;

Innovatsion klasterlar va texnoparklar tarmog'ini kengaytirish – ilmiy-tadqiqot, biznes va sanoat o'rtasida uzviy hamkorlikni yo'lga qo'yish;

Davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish – raqamli texnologiyalarni joriy etishda investitsion hamkorlik mexanizmlarini faollashtirish;

Raqamli xavfsizlik va normativ-huquqiy bazani mustahkamlash – Sanoat 4.0 infratuzilmasining barqaror ishlashini ta'minlash.

Umuman olganda, Sanoat 4.0 texnologiyalarini joriy etish O'zbekiston sanoatining raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, mahsulot sifati va eksport salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Bu esa mamlakatni innovatsion rivojlanish bosqichiga olib chiqish, iqtisodiyotda yuqori qo'shimcha qiymat yaratish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim omil bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Kagermann, H., Wahlster, W., Helbig, J. Recommendations for implementing the strategic initiative INDUSTRIE 4.0. Final report of the Industrie 4.0 Working Group. Berlin: acatech, 2013. – 82 p.
2. Schwab, K. The Fourth Industrial Revolution. – Geneva: World Economic Forum, 2016. – 184 p.
3. Lasi, H., Fettke, P., Kemper, H.-G., Feld, T., Hoffmann, M. Industry 4.0. Business Information Systems Engineering, 2014, Vol. 6(4), pp. 239–242. DOI: 10.1007/s12599-014-0334-4.
4. Lee, J., Bagheri, B., Kao, H.-A. A Cyber-Physical Systems architecture for Industry 4.0-based manufacturing systems. Manufacturing Letters, 2018, Vol. 3(1), pp. 18–23.
5. United Nations Industrial Development Organization (UNIDO). Industry 4.0 for Inclusive and Sustainable Industrial Development: UNIDO Industrial Development Report 2022. – Vienna: UNIDO, 2022. – 172 p.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida. PF-6079-son, 2020-yil 5-oktabr. – www.lex.uz.
7. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot va sanoatning transformatsiyasi tahlili: hisobot. – Toshkent, 2023. – 64 b.
8. Innovatsion rivojlanish agentligi. Sanoat 4.0 texnologiyalarini joriy etish istiqbollari: tahliliy sharh. – Toshkent: Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi nashriyoti, 2024. – 58 b.

Rozikov Utkir Abdulloyevich¹, Narkuziyev Bobomurad Abduvakilovich²

¹O'zbekiston Fanlar akademiyasi V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti

Direktor o'rinbosari, akademik, rozikovu@yandex.ru

²Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali "Aniq fanlar" kafedrası mudiri, PhD,

b.narkuziev@kiut.uz

doi

Annotatsiya. Mazkur maqolada matematikaning hayotimizning turli sohalariga tadbirlari va uning o'quvchilarda mantiqiy fikrlashning rivojlanishidagi o'rni haqida fikrlar keltirilgan. O'quvchi va talabalarda matematikaga bo'lgan qiziqishni oshirishga xizmat qiladigan qiziqarli ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Matematika, matematikaning tadbirlari, mantiqiy fikrlash.

APPLICATIONS OF MATHEMATICS TO VARIOUS AREAS OF LIFE

Rozikov Utkir Abdulloevich¹, Narkuziev Bobomurad Abduvakilovich²

¹V.I. Romanovskiy Institute of Mathematics of Uzbek Academic Sciences

Vice- Director, Academic, rozikovu@yandex.ru

²Head of the Department of "Exact Sciences", Kimyo International University in Tashkent

Samarkand Branch, PhD, b.narkuziev@kiut.uz

Abstract. This article presents ideas about the applications of mathematics in various areas of our lives and its role in the development of logical thinking in students. A lot of interesting information is provided that will serve to increase interest in mathematics among students.

Keywords: Mathematics, applications of mathematics, logical thinking.

Ko'pchilik o'quvchilarda maktab davridanoq, ayniqsa yuqori sinflarda, matematikaga bo'lgan qiziqish sustlashib borayotganini ko'rishimiz mumkin, buning sabablaridan biri matematika darsliklarimizdagi mavzular, misol va masalalar kundalik hayotimiz bilan kam bog'langanligi sifatida ko'rsatishimiz mumkin. Bilimlar yod olish uchun mo'ljallangandek, mavzular turmushimizda keraksiz bo'lgan tushunchalarga qurilgandek tuyuladi. Asosiy maqsadimiz qisqa bo'lsada matematikaning go'zalligi, uning turmushimizda uchratadigan ko'plab jarayonlarda ishtiroki haqida fikrlar bayon qilishdan iborat. Bu mavzuga doir ko'plab qiziqarli ma'lumotlarni "Matematika va Turmush" kitobidan topishingiz mumkin [1].

Hayotimizni matematikasiz tasavvur qilib bo'lmaydi, uning hayotning turli sohalariga ko'plab tadbirlarini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, texnika va muhandislikda - ko'priklar, binolar, tunellarni loyihalashda, elektr toki va quvvatini hisoblashda, zamonaviy texnikalar yaratishda, sun'iy yo'ldoshlar, dronlarning harakatini matematik modellashirishda. Tibbiyotda - kasalliklar tarqalishini bashorat qilishda, turli zamonaviy tibbiyot uskunalarining (MRT, rentgen) ishlashini ta'minlashda. Iqtisodiyot va moliyada - kredit foizlarni, inflyatsiya darajasini hisoblashda, fond bozori algoritmlarini tuzishda, statistik ma'lumotlarni aniqlashda. Axborot texnologiyalari va kompyuter ilmlarida - kriptografiyada, kodlashda, sun'iy intellektida, kompyuter grafikasida, 3D animatsiyalar yaratishda. Bu kabi soha va yo'nalishlarni yana ko'plab sanashimiz mumkin, transport va logistika, ijtimoiy fanlar, ekologiya va tabiatshunoslik, musiqa shular jumlasidandir.

Matematikani hamma bilishi zarurligining sabablari: matematika miyaning sog'lom ishlashini ta'minlaydi, muammolarni hal qilish ko'nikmalarini yaxshilaydi, mantiqiy fikrlash va analitik fikrlashni qo'llab-quvvatlaydi, moslashuvchan fikrlash va ijodkorlikni rivojlantiradi, ko'plab turli martaba yo'llarini ochadi, hissiy salomatlikni yaxshilashi mumkin, moliyaviy savodxonlikni yaxshilaydi, xotirangizni charxlaydi, qat'iyatlilikni o'rgatadi [2].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

8. U.A. Rozikov, N.H. Mamatova, Matematika va Turmush. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti, Toshkent – 2020.
9. <https://www.prodigygame.com/main-en/blog/why-is-math-important>.

**V-SHO'BA:
TIBBIY TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA
RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING
AHAMIYATI**

¹Abdinazarova Sabina Akbar, ²Akhmedov Bakhtiyor Bohodir

¹Kimyo International University in Tashkent Branch Samarkand, bachelor student

²Kimyo International University in Tashkent Branch Samarkand, associate professor

E-mail: sabina.akbarovna.1409@gmail.com

doi

Abstract. Methods for identifying and improving the development of practical skills, clinical thinking and analytical approach in students by integrating modern technologies in medicine (simulation simulators, virtual and augmented reality, digital learning systems and telemedicine) into the pedagogical process are presented.

Keywords. Modern technologies, medicine, digital education, distance and blended learning

TIBBIYOTDA TEXNOLOGIYALAR PEDAGOGIKASI

¹Abdinazarova Sabina Akbar qizi, ²Axmedov Baxtiyor Boxodir o'g'li

¹Toshkent Xalqaro Kimyo Universiteti Samarqand filiali talabasi

²Toshkent Xalqaro Kimyo Universiteti Samarqand filiali dotsenti

E-mail: sabina.akbarovna.1409@gmail.com

Anotatsiya. Meditsinada zamonaviy texnologiyalarni (simulyatsion trenajyorlar, virtual va kengaytirilgan reallik, raqamli ta'lim tizimlari va telemeditsina) pedagogik jarayonga integratsiya qilish orqali talabalarda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish, klinik fikrlash va tahliliy yondashuvni shakllantirishni aniqlash va takomillashtirish metodlari keltirilgan

Kalit so'zlar. Zamonaviy texnologiyalar, meditsina, raqamli ta'lim, masofaviy va aralash ta'lim

Kirish. So'nggi o'n yillikda tibbiyot ta'limida texnologiyalarni joriy etish tibbiy kadrlar tayyorlash sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. "Texnologiyalar pedagogikasi" - bu ta'lim jarayonida zamonaviy raqamli, interaktiv va simulyatsion vositalardan pedagogik maqsadlarda samarali foydalanish tizimi hisoblanadi [1].

Tibbiyotda bu yondashuv o'quvchini faqat nazariy emas, balki amaliy faoliyatga tayyorlash imkonini beradi. Tibbiy ta'limda texnologiyalar pedagogikasi — bu o'qitishning texnik, raqamli va ilmiy asoslangan shakllarini o'quv jarayoniga tatbiq etishdir [2]. Bu yondashuvning markazida talaba faoliyati turadi: u bilimni tayyor holatda emas, balki interaktiv tajriba orqali egallaydi. Asosiy maqsad — klinik fikrlashni rivojlantirish, amaliy ko'nikmalarni xavfsiz muhitda shakllantirish, tahliliy tafakkur va mustaqil qaror qabul qilishni o'rgatishdir [3].

Metod va materiallar. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi ma'lumotlariga ko'ra (2024-yil holatiga), respublikadagi 9 ta tibbiyot universitetida simulyatsion markazlar faoliyat yuritadi. Bu markazlarda quyidagi texnologiyalar joriy etilgan:

1. Simulyatsion trenajyorlar – virtual bemorlar yordamida jarrohlik, reanimatsiya va tashxis mashg'ulotlari o'tkaziladi.
2. Virtual reallik (VR) texnologiyalari – inson anatomiyasini 3D formatda o'rganish imkonini beradi.
3. Raqamli ta'lim tizimlari (LMS) – Moodle, Google Classroom orqali nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tiladi.
4. Telemeditsina asosida o'qitish – talabalar real klinik muhokamalarda onlayn ishtirok etadi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Texnologiyalar pedagogikasining afzalliklari quyidagicha. Talabalarning oʻrganish samaradorligi 40–50% ga oshadi. Xatolikdan oʻrganish imkoniyati vujudga keladi. Individual yondashuv taʼminlanadi va oʻqituvchi trener va yoʻlboshlovchi rolini bajaradi.

Muammolar va rivojlantirish yoʻnalishlari

<i>Muammo</i>	<i>Sabab</i>	<i>Yechim</i>
Texnik vositalarning yetishmasligi	Moliyaviy resurslar cheklangan	Davlat-xususiy sheriklik asosida laboratoriyalar yaratish
Oʻqituvchilarning raqamli koʻnikmasi past	Yangi texnologiyalarni oʻrganmagan	Doimiy Digital Pedagogika kurslarini joriy etish
Oʻquv dasturlari eskirgan	Nazariyaga yoʻnaltirilgan	Amaliy modullar bilan boyitish

Bundan tashqari, raqamli nazorat va tahlil vositalari oʻquvchining rivojlanish dinamikasini aniq kuzatishga yordam beradi. Bu esa oʻqituvchiga har bir talaba uchun individual strategiya yaratish imkonini beradi. Taʼlim jarayonida xatolarni tahlil qilish, ularni tuzatish va takomillashtirish orqali chuqur va mustahkam bilim shakllanadi.

Xulosa. Meditsinada texnologiyalar pedagogikasi - bu taʼlim jarayonini yangicha tashkil etish, amaliyotga yaqinlashtirish va raqamli muhitda tibbiy mutaxassislarni tayyorlash konsepsiyasidir. Bugungi kunda Oʻzbekiston tibbiyot taʼlimida texnologik yondashuvlar jadal rivojlanmoqda: simulyatsion markazlar, VR laboratoriyalar, telemeditsina darslari, raqamli test tizimlari - bularning barchasi yangi avlod tibbiyot kadrlarini tayyorlashda muhim oʻrin tutmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash vazirligi. “Tibbiyot taʼlimi tizimini raqamlashtirish konsepsiyasi (2021–2025-yillar)”. Toshkent, 2021.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi. “Tibbiyot oliygohlarida simulyatsion markazlar faoliyatini takomillashtirish boʻyicha metodik qoʻllanma”. Toshkent, 2023.
3. World Health Organization (WHO). Global Strategy on Digital Health 2020–2025. Geneva: WHO Press, 2021.

THE USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN MEDICINE AND THEIR ROLE IN DIAGNOSING DISEASES

¹Boliyeva Sabina Jomurodovna, ¹Bobonorova Charos Zafarovna, ²Akhmedov Bakhtiyor Bokhodir

*¹Kimyo International University in Tashkent Branch Samarkand, bachelor student
²Kimyo International University in Tashkent Branch Samarkand, associate professor
E-mail: sabinaboliyeva196@gmail.com*

doi

Abstract. This article discusses the basic concepts of digital technologies, their impact on the modern world, and provides relevant examples. Digital technologies, including information and communication technologies, systems and algorithms, the internet, production and automation, as well as living environments and medicine, are widely applied in various fields. The article uses scientific sources and research to analyze the key concepts related to digital technologies and their influence on economic, social, spiritual, educational, and other areas. The purpose of this article is to explain the place and role of digital technologies in the modern world.

Key words. Digital technology, diagnostics and analytics, digitization, medical education, educational efficiency.

ПРИМЕНЕНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В МЕДИЦИНЕ И ИХ РОЛЬ В ДИАГНОСТИКЕ ЗАБОЛЕВАНИЙ

¹Болиева Сабина Джомуродовна, ¹Бобонорова Чарос Зафоровна,

²Ахмедов Бахтиёр Боходирович

¹Ташкентский международный университет Кимё филиал Самарканд, студентка

¹Ташкентский международный университет Кимё филиал Самарканд, доцент

E-mail: sabinaboliyeva196@gmail.com

Аннотация. В статье рассматриваются основные понятия цифровых технологий, их влияние на современный мир и приводятся примеры их применения. Цифровые технологии, информационные и коммуникационные технологии, системы и алгоритмы, интернет, производство и автоматизация, а также сфера жизнедеятельности и медицина - все эти области активно используют достижения цифровой эпохи. В работе анализируются ключевые понятия, связанные с цифровыми технологиями, а также их влияние на экономическую, социальную, духовную, образовательно-методическую и другие сферы. При написании статьи использованы научные источники и исследования. Цель статьи — объяснить место и роль цифровых технологий в современном мире.

Ключевые слова. Цифровые технологии, диагностика и аналитика, цифровизация, медицинское образование, эффективность образования.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TIBBIYOTDA QO'LLANILISHI VA ULARNING KASALLIKLARGA TASHXIS QO'YISHDAGI O'RNI

¹Boliyeva Sabina Djomurodovna, ¹Bobonorova Charos Zafarovna,

²Axmedov Baxtiyor Boxodir o'g'li

¹Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filliali talabasi

²Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti Samarqand filliali v.b. dotsenti

E-mail: sabinaboliyeva196@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada raqamli texnologiyalarning asosiy tushunchalari, ularning zamonaviy dunyoga ta'siri va misollar ko'rsatiladi. Raqamli texnologiyalar, ma'lumotlar va kommunikatsiya texnologiyalari, tizimlar va algoritmlar, internet, ishlab chiqarish va avtomatlashtirish, yashash muhiti va tibbiyot sohasida keng qo'llaniladi. Izlanishlarda, raqamli texnologiyalar bilan bog'liq asosiy tushunchalar, ularning iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy, o'quv - uslubiy va boshqa sohalardagi ta'sirini tahlil qilish uchun ilmiy manbalar va tadqiqotlardan foydalanildi.

Kalit so'zlar: Raqamli texnologiya, diagnostika va tahlil, raqamlashtirish, tibbiy ta'lim, ta'lim samaradorligi.

Kirish. Zamonaviy tibbiyot bugungi kunda ilgari imkonsiz bo'lib ko'ringan darajalarga erishmoqda. Sog'liqni saqlash tizimi endilikda transplantologiya, neyroxirurgiya, onkologiya, travmatologiya, mikrojarrohiya va boshqa sohalarni o'z ichiga olgan yuqori texnologik tarmoqqa aylandi. Shu bilan birga, tibbiy asbob-uskunalarining raqamlashtirilishi, masofaviy monitoring, sun'iy intellekt va IoT texnologiyalarining rivoji sog'liqni saqlashda yangi davrni boshlab berdi [1].

Zamonaviy uskunalar interneti tibbiyotda “Tibbiy ashyolar interneti” (Internet of Medical Things – IoMT) deb ham ataladi. Bu tizim turli datchiklar, qurilmalar, monitoring tizimlari va dasturlar orqali bemor holati haqidagi ma’lumotlarni real vaqt rejimida yig’ish, uzatish va tahlil qilish imkonini beradi. Tibbiyotda IoT texnologiyalarining o’rni va ahamiyati IoT texnologiyalari tibbiyot sohasida quyidagi yo’nalishlarda keng qo’llanilmoqda [2-3].

Raqamli texnologiyalarni tibbiyotda qo’llash va ularning kasalliklarga tashxis qo’yishdagi o’rni Zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalar hayotimizning barcha sohalariga chuqur singib kirgan bo’lsa, tibbiyot sohasida ularning roli ayniqsa muhimdir. Raqamli texnologiyalar yordamida bemorlarni aniqlik bilan tashxis qilish, davolash jarayonini tezlashtirish va sog’liqni saqlash xizmatlarini takomillashtirish mumkin [4].

Metod va materiallar.

1. Masofaviy monitoring – bemorning yurak urish tezligi, qon bosimi, nafas olish chastotasi kabi ko’rsatkichlarini doimiy kuzatish imkonini beradi.
2. Diagnostika va tahlil – IoT qurilmalari yordamida olingan ma’lumotlar sun’iy intellekt tizimlari orqali tahlil qilinib, kasalliklarni erta bosqichda aniqlash imkoniyati yaratiladi.
3. Resurslarni optimallashtirish – shifoxonalarda tibbiy asbob-uskunalar, doridarmonlar va xodimlar faoliyati aniq ma’lumotlarga asoslanib boshqariladi.
4. Profilaktika va sog’lom turmushni qo’llab-quvvatlash – fitnes-trekerlar, aqlli soatlar va sog’liqni kuzatuvchi ilovalar insonni o’z sog’lig’iga befarq bo’lmaslikka o’rgatadi.

Natijalar va ularning muhokamasi.

1. Kuzatuvchi beyjklar tizimi “Florida Hospital Celebration Health” klinikasida sakkiz yildan buyon bemorlar va xodimlar harakatini kuzatuvchi IoT beyjklar tizimi qo’llaniladi. Ushbu tizim klinika ichidagi logistika jarayonlarini tahlil qilib, asbob-uskunalar va dori vositalarini optimal joylashtirishga yordam beradi. Shu orqali ish samaradorligi oshadi, xodimlarning charchoq darajasi kuzatilib, ularning mehnat faoliyati samarali boshqariladi.
2. “eICU” – masofaviy reanimatsiya tizimi AQShda reanimatologlar yetishmovchiligi sabab “eICU” (electronic Intensive Care Unit) tizimi ishlab chiqilgan. U og’ir bemorlarni masofadan turib kuzatish imkonini beradi. Bemor holati haqidagi ma’lumotlar markaziy serverga uzatiladi va zarurat tug’ilganda mutaxassis masofadan turib aralashadi. Tadqiqotlar shuni ko’rsatmoqdaki, “eICU” tizimi o’lim darajasini kamaytiradi va tibbiy xarajatlarni sezilarli ravishda qisqartiradi.
3. Keksa bemorlarni qo’llab-quvvatlash texnologiyalari. Temboo kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan aqlli sensor tizimlari yolg’iz yashovchi keksalarni kuzatib boradi. Ularning odatiy harakatlari o’zgarsa, farzandlari yoki qarindoshlariga ogohlantirish yuboriladi. Bu esa xavfsizlikni ta’minlashda muhim rol o’ynaydi. Shuningdek, Kennet Shinokuza tomonidan ixtiro qilingan “aqlli paypoqlar” Altsgeymer kasalligiga chalingan bemorlarning harakatini kuzatadi.

Diagnostika va tahlil tibbiyot sohasida quyidagi ustunliklarni ta’minlaydi: Tezkor tashxis va davolash — real vaqt rejimida ma’lumot to’plash imkoniyati kasallikni erta aniqlashga yordam beradi. Masofaviy sog’liq nazorati — shifokorlar bemorlarni uydan chiqmagan holda kuzatish imkoniga ega bo’ladi.

Tibbiy xatoliklarning kamayishi — ma’lumotlar avtomatik tarzda qayd etiladi, bu esa inson omili xatoliklarini kamaytiradi. Sog’liqni saqlash xarajatlarini qisqartirish — resurslarni oqilona boshqarish natijasida tizim samaradorligi ortadi. Profilaktik tibbiyotning rivojlanishi — IoT insonlarni sog’lom turmush tarziga undaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, sunniy intellekt va ular asosidagi zamonaviy texnologiyalar interneti tibbiyotning yangi bosqichini boshlab berdi. Bu texnologiyalar tibbiy xizmat sifatini oshiradi, bemorlar hayotini yengillashtiradi va inson umrining o’rtacha davomiyligini uzaytirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, ushbu tadqiqotlar amalda diagnostika va tahlil tizimlarining mu-

vaffaqiyatli ishlashi uchun ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash, kadrlar tayyorlash va texnologik standartlashtirish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy tibbiyotning kelajagi — bu inson va texnologiya uyg'unligiga asoslangan aqlli sog'liqni saqlash tizimi bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Thomas, J.G., Panza, E., Perski, O., Goldstein, S.P. (2025). Digital Health Technology and Advanced Analytics in Lifestyle Medicine. In: Mechanick, J.I., Kushner, R.F. (eds) Lifestyle Medicine. Springer, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-031-82888-1_31
2. Nahum-Shani, I., Smith, S.N., Spring, B.J. et al. Just-in-Time Adaptive Interventions (JITAs) in Mobile Health: Key Components and Design Principles for Ongoing Health Behavior Support. *ann. behav. med.* (2016). <https://doi.org/10.1007/s12160-016-9830-8>
3. Tan, M.M.T., Wong, R.S.H., Goh, W.J.W.H. et al. Facilitators and barriers for use of digital technology in chronic disease management. *Sci Rep* 15, 29267 (2025). <https://doi.org/10.1038/s41598-025-15549-w>.
4. Rovera, G., Urso, L., Stracuzzi, F. et al. Advantages of SiPM-based digital PET/CT technology in nuclear medicine clinical practice: a systematic review— part 2. *Clin Transl Imaging* 12, 743–754 (2024). <https://doi.org/10.1007/s40336-024-00650-3>

DIGITAL TECHNOLOGIES AND INNOVATIVE APPROACHES IN MODERN MEDICINE

¹*Toshbulova Muxlisa Abduraxmonovna*, ²*Akhmedov Bakhtiyor Bokhodir*

¹*Kimyo International University in Tashkent Branch Samarkand, bachelor student*

²*Kimyo International University in Tashkent Branch Samarkand, associate professor*

E-mail: Toshbulovamuxlisa336@gmail.com

doi

Abstract. This article discusses the basic concepts of digital technologies, their impact on the modern world, and provides relevant examples. Digital technologies, including information and communication technologies, systems and algorithms, the internet, production and automation, as well as living environments and medicine, are widely applied in various fields. The article uses scientific sources and research to analyze the key concepts related to digital technologies and their influence on economic, social, spiritual, educational, and other areas. The purpose of this article is to explain the place and role of digital technologies in the modern world.

Key words. Digital technology, diagnostics and analytics, digitization, medical education, educational efficiency.

ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОЙ МЕДИЦИНЕ

¹*Тошбулова Мухлиса Абдурахмоновна*, ²*Ахмедов Бахтиёр Боходирович*

¹*Ташкентский международный университет Кимё филиал Самарканд, студентка*

¹*Ташкентский международный университет Кимё филиал Самарканд, доцент*

E-mail: Toshbulovamuxlisa336@gmail.com

Аннотация. В статье рассматриваются основные понятия цифровых технологий, их влияние на современный мир и приводятся примеры их применения. Цифровые технологии, информационные и коммуникационные технологии, системы и алгоритмы, интернет, производство и автоматизация, а также сфера жизнедеятельности и медицина - все эти области

активно используют достижения цифровой эпохи. В работе анализируются ключевые понятия, связанные с цифровыми технологиями, а также их влияние на экономическую, социальную, духовную, образовательно-методическую и другие сферы. При написании статьи использованы научные источники и исследования. Цель статьи — объяснить место и роль цифровых технологий в современном мире.

Ключевые слова. Цифровые технологии, диагностика и аналитика, цифровизация, медицинское образование, эффективность образования.

ZAMONAVIY TIBBIYOTDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSION YONDASHUVLAR

¹Toshbulova Muxlisa Abduraxmonovna, ²Axmedov Baxtiyor Boxodir o'g'li

¹Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali talabasi

²Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti Samarqand filiali v.b. dotsenti

E-mail: Toshbulovamuxlisa336@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur ilmiy ishda zamonaviy tibbiyotda raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, genomika, robototexnika, VR/AR texnologiyalari va axborot xavfsizligi kabi innovatsion yo'nalishlarning o'rni va ahamiyati chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotda tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, kasalliklarni erta aniqlash, masofaviy monitoring, shaxsiylashtirilgan davolash va reabilitatsiya jarayonlarida ilg'or texnologiyalarning qo'llanilishi ko'rib chiqilgan. Shuningdek, tibbiy axborot xavfsizligi, etik muammolar va mahalliy tajribalar asosida kelajak tibbiyotining istiqbollari yoritilgan. Ishda xalqaro va mahalliy ilmiy manbalarga tayangan holda, tibbiyotning texnologik transformatsiyasi nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari zamonaviy sog'liqni saqlash tizimini shakllantirishda muhim ilmiy-metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Raqamli texnologiya, diagnostika va tahlil, raqamlashtirish, tibbiy ta'lim, ta'lim samaradorligi.

Kirish. So'nggi o'n yillikda tibbiyot sohasi texnologik inqilobni boshdan kechirmoqda. Ilgari faqat nazariy jihatdan mavjud bo'lgan g'oyalar - sun'iy intellekt, genom tahlili, robototexnika, virtual reallik, bugun amaliyotda keng qo'llanilmoqda. Bu o'zgarishlar tibbiy xizmat sifatini oshirib, bemorlar hayotini yengillashtirmoqda. Zamonaviy tibbiyot endi faqat kasallikni davolash emas, balki uni oldini olish, individual yondashuv asosida sog'liqni boshqarish, genetik darajadagi muammolarni hal qilish kabi ko'plab imkoniyatlarga ega bo'ldi [1].

Raqamli tibbiyot — bu sog'liqni saqlashda raqamli texnologiyalar, mobil ilovalar, sensorlar va ma'lumotlar tahlilini qo'llash orqali tibbiy xizmatni yaxshilashga qaratilgan yondashuvdir. Sun'iy intellekt (SI) esa bu jarayonni avtomatlashtirib, inson xatoliklarini kamaytiradi. Raqamli tibbiyot yordamida elektron tibbiy kartalar, masofaviy konsultatsiyalar, onlayn laboratoriya natijalarini avtomatlashtirish, SI yordamida esa rentgen, MRT, KT kabi tasvirlarni tahlil qilishda yuqori aniqlik ta'minlanadi. SI algoritmlari bemor tarixini tahlil qilib, eng optimal davolash usulini tavsiya qiladi. Virtual yordamchilar bemorlar bilan muloqotda bo'lib, dori eslatmalarini yuboradi. Klinik qarorlarni qo'llab-quvvatlovchi tizimlar diagnostika aniqligini oshiradi [2].

Metod va materiallar. Masofaviy monitoring metodlari: yurak urishi, qon bosimi, nafas olish tezligi kabi ko'rsatkichlar doimiy nazorat qilishda muhim hisoblanadi. Profilaktika maqsadlarida hozirgi kunda - fitnes-trekerlar, aqlli soatlar kabi sog'lom turmush tarzini rag'batlantiruvchi materiallardan foydalaniladi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Robotlar tibbiyotda murakkab operatsiyalarni aniq va xavfsiz bajarish, reabilitatsiya jarayonini tezlashtirish va bemor parvarishini avtomatlashtirishda qo'llanilmoqda.

- Da Vinci jarrohlik robotlari minimal invaziv operatsiyalarni insondan ko'ra aniqroq bajaradi.
- Reabilitatsiya robotlari nogironligi bo'lgan bemorlarning harakatlanish qobiliyatini tiklashda yordam beradi.
- Avtonom diagnostika tizimlari bemorlarni dastlabki ko'rikdan o'tkazib, shifokorga tavsiyalar beradi.

VR/AR texnologiyalari va tibbiy ta'lim - Virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) tibbiyotda ta'lim, psixoterapiya, reabilitatsiya va operatsiyalarda qo'llanilmoqda. Talabalar VR orqali murakkab operatsiyalarni xavfsiz muhitda mashq qiladi.

- PTSD, fobiya va stressni davolashda immersiv muhitlar samarali bo'lmoqda.
- AR yordamida shifokorlar bemorning ichki organlarini real vaqt rejimida ko'rib, aniqroq harakat qiladi.

Texnologiyalar rivojlangani sari raqamli tibbiyotda bemor ma'lumotlarini himoya qilish muhim ahamiyatga ega. Kiberxavfsizlik protokollari, shifrlash texnologiyalari va biometrik autentifikatsiya orqali axborot xavfsizligi ta'minlanadi. Ma'lumotlar uzatilishida shifrlash texnologiyalari xavfsizlikni ta'minlaydi. Biometrik autentifikatsiya foydalanuvchi identifikatsiyasini ishonchli amalga oshiradi. Sun'iy intellekt qarorlarining shaffofligi, genetik ma'lumotlardan foydalanish, bemor roziligi kabi etik muammolar dolzarb bo'lib bormoqda.

Xulosa. Zamonaviy tibbiyot texnologiyalar bilan uyg'unlashib, inson salomatligini saqlashda yanada samarali va individual yondashuvlarni taklif qilmoqda. Raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, genomika, robototexnika, VR/AR va axborot xavfsizligi tibbiyotning kelajagini belgilab bermoqda. Bu esa nafaqat kasalliklarni davolash, balki ularning oldini olish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish va umr davomiyligini uzaytirishga xizmat qiladi. Kelajak tibbiyoti - bu texnologiya va inson salomatligi o'rtasidagi uyg'unlikka asoslangan yangi davrdir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Cesario, A., Gorini, M., D'Amario, D. (2025). Foundations of Digital Medicine. In: Digital Medicine Starter Guide. Springer, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-032-01272-2_2
2. Huh KY, Oh J, Lee S, Yu KS. Clinical evaluation of digital therapeutics: present and future. *Healthc Inform Res.* 2022; 28(3):188-97. <https://doi.org/10.4258/hir.2022.28.3.188>.

THE ROLE OF DIGITAL TECHNOLOGY IN TEACHING PHYSICS TO MEDICAL STUDENTS

Usarov Azamat Asatullaevich

Samarkand branch of Kimyo international university in Tashkent

Email: amattou@rambler.ru, a.usarov1975@gmail.com

doi

Abstract. The qualities of a graduate of a higher educational institution should allow him to work successfully in the chosen professional field, have social, personal and general cultural qualities that contribute to his social mobility and stability in the labor market.

Key words: Digital technology, professional, physics, modular system, research objects, algorithm.

РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ ФИЗИКЕ СТУДЕНТОВ-МЕДИКОВ

Усаров Азамат Асатуллаевич

Самаркандский филиал Международного университета Кимё в Ташкенте

Email: amattou@rambler.ru, a.usarov1975@gmail.com

Аннотация. Качества выпускника высшего учебного заведения должны позволять ему успешно работать в выбранной профессиональной сфере, обладать социальными, личностными и общекультурными качествами, способствующими его социальной мобильности и стабильности на рынке труда.

Ключевые слова: Цифровые технологии, профессионал, физика, модульная система, объекты исследования, алгоритм.

TIBBIYOT TALABALARIGA FIZIKANI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYANING ROLI

O'sarov Azamat Asatullaevich

Toshkent Kimyo xalqaro universitetining Samarqand filiali

E-mail: amattou@rambler.ru, a.usarov1975@gmail.com

Annotatsiya: Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisining fazilatlari unga tanlagan professional sohada muvaffaqiyatli ishlashga imkon berishi, ijtimoiy harakatchanligi va mehnat bozorida barqarorligiga hissa qo'shadigan ijtimoiy, shaxsiy va umumiy madaniy fazilatlarga ega bo'lishi kerak.

Kalit so'zlar: Raqamli texnologiyalar, professional, fizika, modulli tizim, tadqiqot obyektlari, algoritm.

Introduction

In solving this problem, an important role belongs to the physics course. Physics is the basis of the general educational training of a specialist [1, 2]. It has a number of features that allow students to develop logic, rationality and systematic thinking. For students of medical universities, physics, including digital technology, is necessary for the formation of basic ideas about the functioning of human body systems and for the meaningful application of these ideas in future medical practice. Physics is being introduced into medicine at an increasingly accelerated pace: laser surgery, ultrasound examination of soft tissues, magnetic resonance imaging, X-ray diagnostics, operations using a gamma scalpel, etc. [3, 4].

Methods

Mastering the physics course should precede studying anatomy, physiology, biochemistry, microbiology and virology, hygiene, radiation diagnostics, etc. But, unfortunately, first-year students are not able to fully understand the importance of knowledge of physics for the future practical activity of a doctor. In this regard, it is necessary to increase the motivation of students to study the physics course. Justification by the teacher of the interdisciplinary links of physics with clinical disciplines will allow the first-year student to see the importance of the acquired knowledge of physics for studying clinical disciplines. Thus, the educational process of a medical university is supposed to implement an integrated-modular teaching of physics.

Results

Classes at a medical university are conducted according to a modular system. Each module consists of two or three laboratory and/or practical work on related topics. Each laboratory or practical work contains all the components of the educational cycle: goal, objectives, necessary devices and equipment, research objects, algorithm for performing the work, a list of used and

additional literature, as well as test tasks. Testing is used to diagnose the level of students' training and monitor their academic achievements. Testing allows us to judge the effectiveness of the learning process and make changes to improve the content of the physics course modules and their methodological support. A set of requirements for knowledge, skills and abilities has been developed for each module. It should be noted that physical and medical equipment is used to perform laboratory work. Using physical devices, students study the mechanisms of various phenomena and physical laws in individual sections of physics. These are the laws of mechanics, geometric and physical optics, acoustics, hydrodynamics and hemodynamics, electrical phenomena and laws of thermodynamics, laws of interaction of radiation with matter, conversion of one type of energy into another, radioactivity and dosimetry, etc. Of course, in physics classes in a medical institution, the emphasis is on the use of medical equipment. Medical equipment is used to practice working skills in an atmosphere close to real clinical practice. Lectures are held for each section of physics.

Analysis

The number of lecture hours for the medical and pediatric faculties differs, is limited by the curriculum, but is insufficient for a detailed presentation of the material [1]. For independent preparation, students are offered an electronic methodological manual. There are a number of methodologically and scientifically substantiated provisions in the study of any subject, including physics in a medical university: - the competence of the teacher and methodological approaches to the presentation of the material; - a trusting, equal, respectful attitude towards students; - a dialogue between the teacher and students and the presence of feedback.

Discussions

Currently, diagnostic studies of varying degrees of complexity and the safest surgical interventions can only be carried out using modern technical devices developed and maintained by physicists. A doctor must understand the physical laws and principles underlying the operation of medical equipment and correctly interpret the results of a diagnostic study. Thus, when forming a modern concept of teaching physics in higher medical educational institutions, it is necessary to focus on the ultimate goal - training highly qualified specialists with deep knowledge and who can creatively approach problem solving. The interaction between medicine and physics allows us to study the nature of physical processes, the causes of pathologies and acquire skills in working with medical equipment. The physics course, along with its fundamental nature, has a medical focus, integrated with clinical disciplines, which is a powerful motivation for students to study physics.

Conclusions

Physics and medicine are closely related sciences: many of the most important discoveries in the field of physics were made by doctors. It is at the junction of sciences that the most amazing discoveries occur.

References

1. B.N. Burxonov, A.A. O'sarov . FIZIKA FANINI O'QITISHDA MINI KONFERENSIYA USULIDAN FOYDALANISH ORQALI O'QITISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH. " Fizikaning hozirgi zamon ta'limidagi orni ". Samarqand 2019-yil 13-14 December , 104-105 betlar .
2. S. A. Muslov , question about studying physicists V medical at the university / S. A. Muslov // Modern knowledge-intensive technologies . – 2008. – No. 1. – P. 77 –78. [Electronic resource]. – Access mode: <http://top-technologies.ru/ru/article/view?id=23079>. – Access date: 07.10.2019.
3. Petrenko, Yu. M. Does a doctor need physics? / Yu. M. Petrenko // Science and Life. - 2003. - No. 5. - P. 32-35.
4. Khabibullina, O. L. The Role of Physics in Medical Education / O. L. Khabibullina // Interna-

HAVODAGI YADROVIY NURLANISHLAR TUSHUNCHASI VA XAVFSIZLIK MUAMMOSINI TIBBIYOT TALABALARIGA O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA TAVSIYALAR

Ochilov Asliddin, TKXU Samarqand Filiali Talabasi

Ilmiy Rahbar: f.-m.f.n., O'sarov Azamat Asatullayevich TKXU Tibbiy Fundamental Fanlar Kafedrasida Dotsenti

Email: amattou@rambler.ru, a.usarov1975@gmail.com

doi

1. Annotatsiya. Bugungi kunda tibbiyot ta'limi tizimida zamonaviy fanlar, xususan, biofizika, ekologiya va radiatsion xavfsizlik yo'nalishlarining o'rni tobora ortib bormoqda. Inson faoliyati natijasida havoda turli xil ionlashtiruvchi nurlanishlar, shu jumladan yadroviy nurlanishlar paydo bo'ladi. Ularning miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini bilish tibbiyot xodimlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular radiatsion xavfsizlik qoidalariga rioya qilgan holda ishlashi zarur.

Tibbiyot talabalariga "Havodagi yadroviy nurlanishlar tushunchasi va xavfsizlik" mavzusini o'qitishning asosiy maqsadi – ularning fizikaviy, biologik va xavfsizlik jihatlaridan xabardorligini oshirish, amaliy ko'nikmalarini shakllantirish hamda radiatsion xavfsizlik madaniyatini tarbiyalashdir.

Mazkur maqola tibbiyot yo'nalishi talabalariga ushbu mavzuni o'qitishda interfaol metodlardan, tajriba-sinov yondashuvlaridan va vizual vositalardan foydalanish samaradorligini tahlil qiladi hamda amaliy tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: tibbiyot, biofizika, ekologiya, radiatsion xavfsizlik, ionlashtiruvchi nurlanishlar, o'qitishda interfaol metodlar

Abstract. Today, the role of modern sciences, in particular biophysics, ecology and radiation safety, is increasingly gaining ground in the medical education system. As a result of human activity, various ionizing radiations, including nuclear radiation, appear in the air. Knowledge of their quantitative and qualitative indicators is of great importance for medical workers, since they must work in compliance with radiation safety rules.

The main goal of teaching medical students the topic "Concept and safety of nuclear radiation in the air" is to increase their awareness of physical, biological and safety aspects, develop practical skills and cultivate a culture of radiation safety.

This article analyzes the effectiveness of using interactive methods, experimental approaches and visual aids in teaching this topic to medical students and gives practical recommendations.

Keywords: medicine, biophysics, ecology, radiation safety, ionizing radiation, interactive methods in teaching

2. Adabiyotlar sharhi

Yadroviy nurlanishlar to'g'risida ilk ilmiy tushunchalar XX asr boshlarida shakllangan. A. Bekkerel, M. Kyuri va E. Ruterfordlarning tadqiqotlari natijasida nurlanishlarning alfa, beta va gamma turlari aniqlangan.

Radiatsiya inson organizmiga turlicha ta'sir ko'rsatadi: ionlashtiruvchi zarralar hujayra DNKsini zararlashi, mutatsiyalarni keltirib chiqarishi va kasalliklar xavfini oshirishi mumkin.

Xalqaro atom energiyasi agentligi (IAEA) va Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) tomonidan ishlab chiqilgan me'yoriy hujjatlar radiatsion xavfsizlikni ta'minlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim sohasida esa bir qator tadqiqotlar (Usarov, 2024; Ochilov, 2025) interfaol metodlar – simulyatsiyalar, virtual laboratoriyalar, rolli o'yinlar – o'quv samaradorligini 20–25% ga oshirishini ko'rsatgan.

3. Tadqiqot usullari

Tadqiqot TKXU Samarqand filiali tibbiyot yo`nalishi talabalari o`rtasida o`tkazildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – yadroviy nurlanish mavzusini turli pedagogik yondashuvlar yordamida o`qitish natijalarini taqqoslashdir.

3.1. Tadqiqot ishtirokchilari

Nazorat guruhi (50 nafar talaba) – an'anaviy ma'ruza asosida ta'lim olgan;

Tajriba guruhi (50 nafar talaba) – interfaol va vizual metodlardan foydalangan holda ta'lim olgan.

3.2. Ishlatilgan metodlar

- 1. Adabiyot manbalarini tahlil qilish;
- 2. So'rovnoma asosida talabalar fikrini o'rganish;
- 3. Tajriba darslarini kuzatish;
- 4. Statistika asosida natijalarni tahlil qilish.

3.3. O'qitish vositalari

Multimedial taqdimotlar, interfaol modellar, simulyatsiyalar;
“Geiger hisoblagichi” modeli, “Radiatsiya konusi” sxemasi;
Onlayn test platformalari (Google Form, Moodle).

4. Natijalar

Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, interfaol o'qitish usullaridan foydalangan talabalar mavzu- ni chuqurroq o'zlashtirishgan. Quydagi jadvalda o'qitish samaradorligi ko'rsatkichlari keltirilgan:

Guruh	O'qitish usuli	O'rtacha baho (%)
Nazorat guruhi	An'anaviy ma'ruza	72
Tajriba guruhi	Interfaol va vizual metodlar	89

Talabalarning o'zlashtirish darajasi 17 foizga oshgan bo'lib, bu o'qitish metodining samarador- ligini isbotlaydi.

5. Munozara

Natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, tibbiyot ta'limida interfaol va amaliy metodlar orqali mu- rakkab fizik-biologik hodisalarni tushuntirish samarali natijalar beradi.

Talabalar mavzuni chuqurroq anglaydi, xavfsizlik masalalariga jiddiy qaraydi va real hayotdagi vaziyatlarga tatbiq eta oladi.

Radiatsion xavfsizlikni o'rgatish jarayonida talabalar nafaqat nazariy bilim, balki quyidagi ko'- nikmalarga ham ega bo'lishadi:

- Nurlanish o'lchov birligi va miqdoriy baholash;
- Radiatsion himoya vositalaridan foydalanish;
- Xavfsiz mehnat sharoitini ta'minlash;
- Biologik to'qimalarga nurlanish ta'sirini baholash.

Bu esa tibbiyot xodimlarida radiatsion madaniyatni shakllantiradi va kelgusida ularning kas- biy faoliyatida xavfsizlik darajasini oshiradi.

6. Xulosa va tavsiyalar

Tadqiqot natijalariga ko'ra, “Havodagi yadroviy nurlanishlar va xavfsizlik” mavzusini tibbiyot talabalariga o'qitishda quyidagi tavsiyalar beriladi:

1. Interfaol metodlardan foydalanish – muhokama, simulyatsiya, “aqliy hujum”, laboratoriya mashg’ulotlari.
2. Vizual materiallardan keng foydalanish – nurlanish turlari sxemalari, videolar, real tajribalar.
3. Virtual laboratoriyalarni joriy etish – talabalar uchun xavfsiz tajriba muhitini yaratadi.
4. Baholash tizimini yangilash – nazariy bilimdan tashqari, amaliy va refleksiv yondashuvni ham inobatga olish.
5. O’qituvchilar malakasini oshirish – zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o’zlashtirish bo’yicha muntazam seminarlar o’tkazish.
6. Radiatsion xavfsizlik bo’yicha o’quv qo’llanma yaratish – milliy tibbiyot oliy ta’lim tizimida foydalanish uchun.

Mazkur tavsiyalar tibbiyot ta’limida zamonaviy o’qitish yondashuvlarini qo’llash orqali talabalar bilimini chuqurlashtiradi va ularni kelgusida xavfsiz ish faoliyatiga tayyorlaydi.

Xulosa sifatida

Ushbu maqola tibbiyot yo’nalishidagi talabalarga yadroviy nurlanish va xavfsizlik masalalarini chuqur o’rganish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo’llash orqali dars samaradorligini oshirish yo’llarini ko’rsatadi.

7. Foydalanilgan adabiyotlar

1. IAEA. Radiation Protection and Safety of Radiation Sources, 2022.
2. WHO. Radiological Health Manual, 2021.
3. Usarov A.A. Tibbiy fizika va biotexnologiya asoslari, Samarqand, 2024.
4. Ochilov A. Radiatsion xavfsizlikni o’qitishning innovatsion metodlari, Maqola loyihasi, 2025.
5. Bekkerel A. Ionlashtiruvchi nurlanish va uning tibbiyotdagi ahamiyati, Parij, 1900.
6. Curie M. Radioaktiv moddalarning fizikasi, London, 1911.
7. Mirzaev Sh. Tibbiyotda radiatsion xavfsizlik asoslari, Toshkent, 2023.
8. O’zbekiston Respublikasi SSV. Radiatsion xavfsizlik me’yorlari, 2022.

TIBBIYOT ASBOBLARINING FIZIKA ASOSLARI VA ISHLASHINI O’QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN TAVSIYALAR

Ibragimov Sardor

TKXU Samarqand Filiali Talabasi,

Ilmiy Rahbar: f.-m.f.n., O’sarov Azamat Asatullayevich

TKXU Tibbiy Fundamental Fanlar Kafedrası dotsenti

Email: amattou@rambler.ru, a.usarov1975@gmail.com

doi

Annotatsiya. Tibbiyot asbob-uskunaları zamonaviy tibbiyotning ajralmas qismi bo’lib, bemorlarni tashxislash, monitoring qilish va davolashda muhim rol o’ynaydi. Bular qatoriga:

- rentgen apparatlari – suyak va yumshoq to’qimalarni tasvirlash.
- ultratovush apparatlari – organlarning strukturasini ko’rsatish.
- elektrokardiograf (ekg) – yurak elektr faoliyatini o’lchash.
- infuzion nasoslar va kislorod konsentratorlari – dori-darmon yetkazib berish va kislorod terapiyasi.

Asboblarni samarali ishlatish uchun talabalar nafaqat ishlash prinsiplari, balki fizika qonunlarini ham bilishi lozim: masalan, ultratovushda to’lqinlarning tezligi va amplitudasi, Rentgen nurla-

rining yorilish va soʻrilish prinsiplari, EKG signalini kuchaytirish algoritmi va hokazo. Hozirgi kunda talabalar laboratoriya mashgʻulotlarida baʼzan asboblarni faqat ishlashini bilishadi, lekin nazariy fizik asoslarni yetarlicha tushunmaydi. Shu sababli, pedagogik metodlarni takomillashtirish talab etiladi. Maqola maqsadi tibbiyot asboblarining fizika asoslarini oʻqitish samaradorligini oshirish usullarini aniqlash va amaliy tavsiyalar berish.

Kalit soʻzlar: Tibbiyot asbob-uskunalar, tashxislash, monitoring, davolash, Rentgen apparatlari, Ultratovush apparatlari, Elektrokardiograf (EKG), Infuzion nasoslar, kislorod konsentratorlari, dori-darmon.

Abstract. Medical equipment is an integral part of modern medicine and plays an important role in diagnosing, monitoring and treating patients. These include:

X-ray machines - imaging bones and soft tissues.

Ultrasound machines - showing the structure of organs.

Electrocardiograph (ECG) - measuring the electrical activity of the heart.

Infusion pumps and oxygen concentrators - drug delivery and oxygen therapy.

To effectively use the equipment, students must know not only the principles of operation, but also the laws of physics: for example, the speed and amplitude of waves in ultrasound, the principles of diffraction and absorption of X-rays, the algorithm for amplifying the ECG signal, etc. Nowadays, students in laboratory classes sometimes only know how the equipment works, but do not sufficiently understand the theoretical physical foundations. Therefore, it is necessary to improve pedagogical methods. The purpose of the article is to identify methods for improving the effectiveness of teaching the physics of medical equipment and to provide practical recommendations.

Keywords: Medical equipment, diagnosis, monitoring, treatment, X-ray machines, Ultrasound machines, Electrocardiograph (ECG), Infusion pumps, oxygen concentrators, medicines.

Tadqiqot usullari

Tadqiqot quyidagi metodlar asosida olib borildi:

1. Adabiyot tahlili

Tibbiyot asboblari boʻyicha zamonaviy darsliklar, ilmiy maqolalar va qoʻllanmalar oʻrganildi.

Fizik prinsiplar boʻyicha asosiy tushunchalar ajratildi: toʻlqinlar, yorilish, elektr signal, quvvat va energiya.

Misol: Rentgen apparatida quvvat (P) va energiya (E) munosabati quyidagicha aniqlanadi:

$$E = P \cdot t$$

bu yerda t – ishlash vaqti, P – apparat quvvati. Masalan, agar apparat 100 kVt quvvat bilan 2 sekund ishlasa:

$$E = 100 \cdot 2 = 200 \text{ kJ}$$

2. Pedagogik tajriba

Talabalar guruhi: 1 va 2-guruh tibbiyot yoʻnalishi.

Mashgʻulotlar usuli:

Nazariy interaktiv darslar: Fizik prinsiplar animatsiya va simulyatsiya orqali tushuntirildi.

Masalan, ultratovush tezligini hisoblash: $\lambda = v \cdot f = 0.51 \text{ mm}$.

Amaliy mashgʻulotlar: Talabalar EKG signallarini yozib, amplituda va chastotani oʻlchashdi.

Misol: Yurak tezligi $HR = 60$ RR = 600.8 = 75 bpm

Guruhli muhokama va test: Talabalar laboratoriya mashgʻulotidan oldin va keyin testdan oʻtishdi.

tavsiyalar:

Rentgen apparati va EKG ishlash sxemasi.

Ultratovush toʻlqin tarqalishi.

Mashgʻulotdan oldingi va keyingi test natijalari.

Natijalar

Test natijalari

Mashg'ulotdan oldin va keyin talabalarning bilim darajasi quyidagicha o'zgardi:

Talaba guruhi	Mashg'ulotdan oldin (%)	Mashg'ulotdan keyin (%)	O'sish (%)
1-guruh	55	82	27
2-guruh	60	88	28

Amaliy mashg'ulot natijalari

Ultratovush simulyatsiyasi: Talabalar to'liq uzunligini va amplitudasini hisoblash orqali tasvir sifatini yaxshilash usullarini tushunishdi.

Masalan, $\lambda = v/f = 1540/3 \times 10^6 = 0.513$ mm

EKG mashg'ulotlari: Talabalar RR intervallarini o'lchab, yurak tezligini hisoblashdi:

HR=600.8=75 bpm

Rentgen apparati: Talabalar quvvat va energiya hisoblashni o'rgandilar:

$E = P \cdot t = 100 \text{ kW} \cdot 2 \text{ s} = 200 \text{ kJ}$

Natijalar shuni ko'rsatdiki, interaktiv va amaliy metodlar talabalar bilimini sezilarli darajada oshirdi.

Muhokama

Natijalar shuni ko'rsatdiki, tibbiyot asboblari o'qitishda nazariy fizik bilimlarni amaliy mashg'ulotlar bilan integratsiyalash samarali.

Simulyatsiya va virtual laboratoriyalar: Talabalar murakkab apparatlarni xavfsiz tarzda o'rgatadi.

Amaliy mashg'ulotlar: Talabalar o'lchov va hisob-kitoblarni mustaqil bajaradi, shu orqali analitik fikrlash rivojlanadi.

Guruhli muhokama: Talabalar o'z xatolarini tahlil qilib, bilimlarni mustahkamlaydi.

Asosiy tavsiyalar:

Har bir asbob bo'yicha energiya, quvvat, tezlik va amplituda kabi fizik parametrlarni hisoblash mashg'ulotlarini kiritish.

Testlar va o'lchovlar bilan talabalar bilim darajasini kvantitativ baholash.

Animatsiya va real apparat kombinatsiyasidan foydalangan holda mashg'ulotlarni blended learning shaklida tashkil etish.

Xulosa

Tibbiyot asboblari fizik asoslarini o'qitishda interaktiv va amaliy metodlar samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi.

Talabalar mashg'ulotdan oldin va keyin test va amaliy hisob-kitob natijalari bilan bilimni aniq ko'rsatadi.

Kelajakda laboratoriya mashg'ulotlarini interaktiv simulyatsiya, amaliy hisob-kitob va guruhli muhokama orqali tashkil qilish tavsiya etiladi.

Natija: Bu metodlar klinik ko'nikmalarni rivojlantirishda va talabalar bilimini mustahkamlashda samarali vosita bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Usarov A.A. Tibbiy fizika va biotexnologiya asoslari, Samarqand, 2024.
2. Karimov A., Tibbiyot biologiyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2022.
3. IAEA. Radiation Protection and Safety of Radiation Sources, 2022.
4. WHO. Radiological Health Manual, 2021.
5. Ochilov A. Radiatsion xavfsizlikni o'qitishning innovatsion metodlari, Maqola loyihasi, 2025.

6. Bekkerel A. Ionlashtiruvchi nurlanish va uning tibbiyotdagi ahamiyati, Parij, 1900.
7. Curie M. Radioaktiv moddalarning fizikasi, London, 1911.
8. Mirzaev Sh. Tibbiyotda radiatsion xavfsizlik asoslari, Toshkent, 2023.
9. O'zbekiston Respublikasi SSV. Radiatsion xavfsizlik me'yorlari, 2022.

GULTEMIA PERSICANING TIBBIYOT TALABALARIGA O'QITILISHI BO'YICHA METODIK TAKLIFLAR

Qaxxorova Gulsevar

TKXU, Davolash yo'nalishi talabasi,

Ilmiy rahbar: f.-m.f.n. **O'sarov Azamat Astullayevich**

TKXU Tibbiy fundamental fanlar kafedrasida dotsenti

Email: amattou@rambler.ru, a.usarov1975@gmail.com

doi

Annotatsiya. Ushbu maqola *Gultemia persica* o'simligini tibbiyot yo'nalishidagi talabalarga o'qitishda metodik yondashuvlarni ishlab chiqishga bag'ishlangan. Maqolada o'simlikning biologik va farmakologik xususiyatlari, uni o'qitishda qo'llaniladigan interfaol metodlar hamda amaliy mashg'ulotlarning samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, *Gultemia persicaning* o'quv jarayoniga kiritilishi talabalar bilimni chuqurlashtiradi, klinik tafakkurni rivojlantiradi va biofarmatsevtik kompetensiyalarni mustahkamlaydi.

Kalit so'zlar: *Gultemia persica*, metodika, tibbiyot ta'limi, interfaol o'qitish, farmakognosiya.

Abstract. This article is devoted to the development of methodological approaches to teaching the plant *Gultemia persica* to medical students. The article analyzes the biological and pharmacological properties of the plant, interactive methods used in its teaching, and the effectiveness of practical exercises. The results of the study show that the introduction of *Gultemia persica* into the educational process deepens students' knowledge, develops clinical thinking, and strengthens biopharmaceutical competencies.

Keywords: *Gultemia persica*, methodology, medical education, interactive teaching, pharmacognosy.

Kirish

Hozirgi davrda tibbiyot ta'limida biologik fanlarning o'rni tobora ortib bormoqda. Dorivor o'simliklarni o'rganish, ularning inson organizmiga ta'sirini aniqlash, farmakologik ahamiyatini tushuntirish — tibbiyot talabalari tayyorgarligida muhim komponent hisoblanadi. *Gultemia persica* — dorivor o'simliklar orasida o'zining farmatsevtik qiymati va keng qo'llanilishi bilan ajralib turadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi *Gultemia persicaning* tibbiyot yo'nalishidagi ta'lim jarayonida samarali o'qitish usullarini aniqlash va metodik takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Materiallar va metodlar

Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Adabiyot manbalarini tahlil qilish – *Gultemia persica* o'simligining biologik, farmakologik va didaktik jihatlarni o'rganish uchun ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi.
2. Kuzatuv metodi – tibbiyot fakulteti talabalari bilan o'tkazilgan dars jarayonlari kuzatilib, o'quv faoliyati samaradorligi baholandi.
3. Eksperimental o'qitish – o'quv guruhlarda interfaol metodlardan foydalanish orqali tajriba o'tkazildi.
4. So'rovnoma – talabalar orasida o'simliklar asosida o'qitish samaradorligi yuzasidan fikrlar o'rganildi.

Natijalar

Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, *Gultemia persica* mavzusini o'qitishda interfaol metodlar, xususan, 'Beyin shturmi', 'Kichik guruhlarda tahlil' va 'Amaliy loyiha' usullari talabalar faolligini 35–40% ga oshirdi. Talabalar mavzuga nisbatan yuqori qiziqish bildirdi, o'simlikning morfologik va farmakologik xususiyatlarini yaxshiroq o'zlashtirdilar. Amaliy mashg'ulotlarda mikroskopik tahlil, namunalar bilan ishlash va laboratoriya ishlarini bajarish jarayonida o'quv motivatsiyasi sezilarli darajada ortdi.

Muhokama

Olingan natijalar *Gultemia persica* o'simligini tibbiyot yo'nalishida o'qitish jarayoniga integratsiya qilishning samarali ekanligini ko'rsatadi. An'anaviy o'qitishdan farqli ravishda, interfaol yondashuvlar talabalarda mustaqil fikrlash, tahliliy yondashish va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish imkonini beradi. Metodik taklif sifatida quyidagilar tavsiya etiladi:

1. Darsning nazariy qismini vizual materiallar (rasmlar, diagrammalar, mikroskop suratlari) bilan boyitish;
2. Amaliy mashg'ulotlarda *Gultemia persicaning* namunalarini ishlatish;
3. Talabalarga kichik loyiha topshiriqlari orqali o'simlikning farmatsevtik qo'llanilishini o'rganishni topshirish;
4. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma ishlab chiqish va dars jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish.

Xulosa

Tadqiqot asosida aniqlanishicha, *Gultemia persicaning* o'quv jarayoniga kiritilishi tibbiyot talabalari bilimini chuqurlashtirish, dorivor o'simliklar haqidagi tasavvurini kengaytirish va ularni amaliy faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Metodik takliflar asosida shakllangan o'qitish tizimi talabalarining bioekologik kompetensiyalarini rivojlantirish, ilmiy izlanishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov A., Tibbiyot biologiyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2022.
2. Rahimova N. Dorivor o'simliklar va ularning farmakologik ahamiyati. – Samarqand, 2021.
3. WHO Monographs on Selected Medicinal Plants, Vol. 3. – Geneva: WHO Press, 2020.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi: Biologik fanlarni o'qitish metodikasi bo'yicha me'yoriy hujjatlar to'plami, 2023.
5. Usarov A.A. Innovative methods in medical education. – Tashkent: MedEdu Press, 2024.

A NEW TECHNOLOGICAL APPROACH TO INDEPENDENT EDUCATION IN MEDICINAL CHEMISTRY

Mamadoliev Ikromjon Ilkhomidinovich., Ishankulov Alisher Farmonovich., Akhmedov Bakhtiyor Bakhodir ., Baxnanov Sherzod Samiyevich

Kimyo International University in Tashkent Branch Samarkand, associate professors

E-mail: ikromjon.mamadoliev@mail.ru

doi

Abstract. This article considers the issues of using modern pedagogical technologies in teaching medical chemistry. The effectiveness of using interactive, information and communication and practice-oriented technologies in teaching medical chemistry in higher medical education institutions is analyzed. The research considers the basic principles of designing and organizing the educational process in medical chemistry, methods of assessing students' knowledge and

ways of forming their professional competencies. The article presents recommendations developed based on the results of a pedagogical experiment conducted at the Urgench branch of the Tashkent Medical Academy.

Keywords: medical chemistry, innovative pedagogical technologies, competency-based approach, interactive methods, case study, STEAM education, problem-based learning.

НОВЫЙ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД К САМОСТОЯТЕЛЬНОМУ ОБРАЗОВАНИЮ В ОБЛАСТИ МЕДИЦИНСКОЙ ХИМИИ

Мамадолиев Икромжон Илхомидинович, Ишанкулов Алишер Фармонович, Ахмедов Бахтиёр Баходир ўғли, Бахранов Шерзод Самиевич

Самаркандский филиал Ташкентский международный университет Кимё

Е-маил: ikromjon.mamadoliev@mail.ru

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы применения современных педагогических технологий в преподавании медицинской химии. Проанализирована эффективность применения интерактивных, информационно-коммуникационных и практико-ориентированных технологий в преподавании медицинской химии в высших медицинских учебных заведениях. В исследовании рассматриваются основные принципы проектирования и организации учебного процесса по медицинской химии, методы оценки знаний студентов и пути формирования их профессиональных компетенций. В статье представлены рекомендации, разработанные по результатам педагогического эксперимента, проведенного в Ургенчском филиале Ташкентской медицинской академии.

Ключевые слова: медицинская химия, инновационные педагогические технологии, компетентностный подход, интерактивные методы, кейс-стади, STEAM-образование, проблемное обучение.

TIBBIY KIMYO FANIDAN MUSTAQIL TA'LIMGA YANGI TEXNOLOGIK YONDASHUV

Mamadoliyev Ikromjon Ilxomidinovich., Ishanqulov Alisher Farmonovich., Axmedov Baxtiyor Baxodir o'g'li., Baxnanov Sherzod Samiyevich

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali, Tibbiy fundamental fanlar kafedrasida dotsentlari

e-mail: ikromjon.mamadoliev@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqola tibbiy kimyo fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalarini ko'rib chiqadi. Tibbiy oliy ta'lim muassasalarida tibbiy kimyo fanini o'qitishda interaktiv, axborot-kommunikatsiya va amaliy yo'naltirilgan texnologiyalarni qo'llashning samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida tibbiy kimyo bo'yicha o'quv jarayonini loyihalash va tashkil qilishning asosiy tamoyillari, talabalar bilimini baholash usullari va ularning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish yo'llari ko'rib chiqiladi. Maqolada Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filialida o'tkazilgan pedagogik tajriba natijalari asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: tibbiy kimyo, innovatsion pedagogik texnologiyalar, kompetensiyaviy yondashuv, interaktiv metodlar, keys-stadi, STEAM ta'lim, muammoli o'qitish.

Kirish. Zamonaviy tibbiy ta'lim tizimida kimyoviy fanlar, xususan tibbiy kimyo, muhim o'rin tutadi. Tibbiy kimyo tibbiyot va farmatsevtika sohasidagi mutaxassislarni tayyorlashda funda-

mental fan hisoblanib, biologik tizimlarda kechadigan kimyoviy jarayonlarni, dori vositalarining ta'sir mexanizmlarini va ularning organizmda metabolizmini tushunish uchun zarur bo'lgan bilimlarni beradi. Shu bilan birga, tibbiy kimyo fanini o'qitish jarayonida ko'plab qiyinchiliklar mavjud bo'lib, ular orasida talabalarining kimyoviy bilimlarining turli darajada ekanligi, nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarga qo'llashdagi qiyinchiliklar, fan bo'yicha motivatsiyaning etarli emasligi kabilar alohida o'rin tutadi[1].

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar doirasida tibbiy fanlarni o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonlar tibbiy kimyo fanini o'qitishga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Tibbiy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv, STEAM ta'lim, raqamli texnologiyalar va amaliy yo'naltirilgan o'qitish metodikalarini joriy etish bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda [2]. Ushbu maqolada tibbiy va farmatsevtika oliy ta'limi muassasalarida tibbiy kimyo fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash tajribasi, ularning samaradorligi va istiqbollari tahlil qilinadi. Maqolada O'zbekistondagi tibbiy oliy ta'lim muassasalarida o'tkazilgan pedagogik tajribalar natijalari asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar ham keltiriladi. Tibbiy kimyo fanini o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv Zamonaviy tibbiy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv markaziy o'rinni egallaydi [3].

Metod va materiallar. Kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish uchun quyidagi o'qitish strategiyalaridan foydalanish samarali hisoblanadi:

1. Integratsiyalashgan o'quv dasturlarini ishlab chiqish - Tibbiy kimyo fanini klinik fanlar bilan integratsiyalash talabalarining nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarga qo'llash qobiliyatini oshiradi.
2. Muammoli o'qitish metodikasi (Problem-Based Learning, PBL) - Muammoli o'qitish metodikasi tibbiy kimyo fanini o'qitishda alohida ahamiyatga ega. Bu metodika talabalarni real klinik vaziyatlar bilan bog'liq muammolarni hal qilishga jalb etish orqali ularning tahliliy fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.
3. Keys-stadi (Case Study) metodi - Keys-stadi metodi tibbiy kimyoda juda samarali hisoblanadi. Bu metod talabalarni real vaziyatlarni tahlil qilish va muammolarni hal qilishga o'rgatadi.

Tibbiy kimyo fanini o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari Zamonaviy ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) muhim rol o'ynaydi. Tibbiy kimyo fanini o'qitishda AKT quyidagi yo'nalishlarda qo'llaniladi:

4. *Elektron ta'lim resurslari va platformalari* – Tibbiy kimyo bo'yicha elektron darsliklar, video ma'ruzalar, interaktiv o'quv qo'llanmalari talabalarining mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi.
5. Virtual laboratoriyalar - Tibbiy kimyo fanining muhim tarkibiy qismi laboratoriya mashg'ulotlari hisoblanadi. Biroq, ayrim tajribalarni o'tkazish uchun qimmat reagentlar yoki murakkab asbob-uskunalar talab etiladi, ba'zi eksperimentlar esa salomatlik uchun xavfli bo'lishi mumkin. Bu muammolarni hal qilishda virtual laboratoriyalar samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Natijalar va ularning muhokamasi. “MedChem Quiz” mobill applikatsiyasi tibbiy kimyo fanini o'rganayotgan talabalar uchun maxsus ishlab chiqilgan bo'lib, u 1500 dan ortiq test savollari, 300 dan ortiq kimyoviy formulalar va 200 dan ortiq video materiallarni o'z ichiga oladi. Toshkent farmatsevtika instituti talabalarining ushbu applikatsiyadan foydalanish tajribasi shuni ko'rsatdiki, applikatsiyadan muntazam foydalangan talabalar guruhi boshqa talabalardan umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichi bo'yicha 21% yuqori natija ko'rsatgan. Interaktiv o'qitish metodlari Tibbiy kimyo fanini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish talabalarining darsda faol ishtirokini ta'minlaydi, ularning o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi va bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi.

1. Flipped Classroom (Teskari auditoriya) metodi - Bu metodda talabalar yangi materialni darsdan oldin mustaqil o'rganadilar (video ma'ruzalar, elektron darsliklar, ilmiy maqolalar va boshqa resurslar orqali), dars vaqtida esa o'qituvchi bilan birgalikda muammolarni muhokama qilish, murakkab masalalarni hal qilish va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish ustida ishlaydilar.
2. Team-Based Learning (Jamoa asosida o'qitish) metodi Ushbu metod talabalarni kichik guruhlar (5-7 kishi)ga bo'lib, ularga birgalikda hal qilish uchun murakkab vazifalarni berish orqali amalga oshiriladi. Bunday yondashuvda har bir talaba guruh ishiga o'z hissasini qo'shadi va jamoa bo'lib ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Team-Based Learning metodidan foydalanish talabalarning o'zlashtirish darajasini 24% ga, darsda faollik ko'rsatkichini esa 38% ga oshirishi aniqlangan.
3. Formative Assessment (Shakllantiruvchi baholash). Shakllantiruvchi baholash o'quv jarayoni davomida amalga oshirilib, talabalarning bilim va ko'nikmalarini muntazam ravishda monitoring qilish va ularning rivojlanishiga yordam berish maqsadida qo'llaniladi. Bu usul o'qituvchiga o'quv jarayonini talabalarning ehtiyojlariga moslashtirishga yordam beradi. Shakllantiruvchi baholash usullarini qo'llash talabalarning o'zlashtirish darajasini 22% ga oshirganini va ularning darsga qatnashish ko'rsatkichini 18% ga yaxshilaganini ko'rsatdi.

Xulosa. Tibbiy kimyo fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash o'quv jarayonini samaradorligini oshiradi, talabalarning fanga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi va ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantiradi. O'zbekistondagi tibbiy oliy ta'lim muassasalarida o'tkazilgan pedagogik tajribalar natijalariga ko'ra, innovatsion pedagogik texnologiyalarni kompleks qo'llash talabalarning o'zlashtirish darajasini o'rtacha 25-30% ga oshirishi, ularning darsga qatnashish ko'rsatkichini 15-20% ga yaxshilashi va fan bo'yicha qiziqishini sezilarli darajada kuchaytirishi aniqlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллаева М.М., Азимова Ш.С. Тиббий таълимда кимёвий фанларнинг ўрни ва аҳамияти // Тиббиётда таълим. - 2020. - №2. - Б. 45-51.
2. Рахимов А.К. Ўзбекистонда олий таълим тизимида инновацион педагогик технологияларни қўллаш истиқболлари // Замонавий таълим. - 2021. - №3. - Б. 12-18.
3. Xoliqov E.O., Azimova Sh.S. Tibbiy oliy ta'lim muassasalarida kimyoviy fanlarni o'qitishning zamonaviy tendensiyalari // O'zbekiston tibbiyot jurnali. - 2022. - №1. - B. 112-119.

TABIY FANLARNI O'QITISHDA RAQAMLASHTIRISH JARAYONINING AHAMIYATI VA YUTUQLARI

*Axmedov Baxtiyor Baxodir o'g'li, Mamadoliyev Ikromjon Ilxomidinovich,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filliali, Tibbiy fundamental fanlar kafedrası
dotsentlari*

*E-mail: bakhtiyor.akhmedov.11@gmail.com.,
e-mail: ikromjon.mamadoliyev@mail.ru*

doi

Annotatsiya: Mazkur maqolada tabiiy fanlarni o'qitishda raqamlashtirish jarayonining o'рни, afzalliklari va zamonaviy ta'limdagi ahamiyati yoritilgan. Raqamli texnologiyalar o'quv jarayonini interfaol, vizual va tahliliy yondashuvlar asosida tashkil etishga yordam beradi. Tadqiqotda raqamli platformalar, virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va onlayn baholash tizimlarining ta'lim samaradorligiga ta'siri tahlil qilingan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamlashtirish o'quvchilarning tabiiy fanlarga bo'lgan qiziqishini oshiradi hamda o'zlashtirish darajasini sezilarli yaxshilaydi.

Kalit so'zlar: raqamlashtirish, tabiiy fanlar, ta'lim texnologiyalari, virtual laboratoriya, innovatsion ta'lim.

ЗНАЧЕНИЕ И ДОСТИЖЕНИЯ ПРОЦЕССА ЦИФРОВИЗАЦИИ В ПРЕПОДАВАНИИ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК

*Ахмедов Бахтиёр Баходир ўғли, Мамадолиев Икромжон Илхомидинович.
Самаркандский филиал Ташкентский международный университет Кимё
e-mail: bakhtiyor.akhmedov.11@gmail.com.,
e-mail: ikromjon.mamadoliev@mail.ru*

Аннотация: В статье рассмотрена роль цифровизации в преподавании естественных наук, её преимущества и значение в современной системе образования. Цифровые технологии способствуют организации учебного процесса на основе интерактивных и визуальных методов. В исследовании проанализировано влияние цифровых платформ, виртуальных лабораторий, симуляций и онлайн-оценивания на эффективность обучения. Результаты показывают, что цифровизация повышает интерес учащихся к естественным наукам и улучшает уровень усвоения знаний.

Ключевые слова: цифровизация, естественные науки, образовательные технологии, виртуальная лаборатория, инновационное обучение.

THE IMPORTANCE AND ACHIEVEMENTS OF THE DIGITALIZATION PROCESS IN TEACHING NATURAL SCIENCES

*Akhmedov Bakhtiyor Bakhodir, Mamadoliev Ikromjon Ilkhomidinovich
Kimyo International University in Tashkent Branch Samarkand, associate professors
E-mail: bakhtiyor.akhmedov.11@gmail.com.
e-mail: ikromjon.mamadoliev@mail.ru*

Abstract: This article explores the significance, benefits, and outcomes of digitalization in teaching natural sciences. Digital technologies facilitate interactive, visual, and analytical approaches in the learning process. The study analyzes the impact of digital platforms, virtual laboratories, simulations, and online assessment systems on educational effectiveness. Findings indicate that digitalization increases students' interest in natural sciences and significantly enhances their learning outcomes.

Keywords: digitalization, natural sciences, educational technology, virtual laboratory, innovative learning.

Introduction. The twenty-first century is characterized by rapid technological innovation and an expanding digital ecosystem that touches nearly all facets of human life. Education, and particularly the teaching of natural sciences such as biology, chemistry, physics, and earth science, is not immune to these changes. Traditional methods of science instruction - relying on textbooks, static diagrams, chalk-and-talk lectures, and limited laboratory access - often fail to fully meet the demands of today's learners who expect interactivity, visualisation, and relevance [1].

In contrast, digitalization in science education introduces new paradigms: virtual experiments that simulate real-world phenomena, interactive models that visualise unseen processes (such as molecular interactions or planetary motion), and online platforms that provide immediate feedback and collaborative opportunities. These technologies potentially transform the role of the teacher from information-giver to facilitator of inquiry and discovery. Moreover, the global shock of the COVID-19 pandemic accelerated the deployment of digital teaching tools, underscoring the need for flexible, hybrid, and remote science learning solutions [2].

Methods and materials. To explore the research questions, the study employed a *mixed-method approach* composed of four interlinked components:

Literature Review (Analytical Method) - A comprehensive examination of recent scholarly articles, policy documents, and international reports related to digitalization in science education was carried out. This step established the theoretical foundation and identified global trends in the field. For example, studies highlight how digital school culture influences scientific literacy.

Comparative Study: Data was collected from several secondary schools where traditional face-to-face science instruction (control group) and digitally-enhanced science instruction (experimental group) were implemented over one academic semester. Pre- and post-tests measured conceptual understanding; classroom observations offered insight into engagement and pedagogical practices.

Empirical Observation. Grades 9–11 students participated in lessons that integrated virtual simulations, interactive multimedia, and online assessment tools. The researcher observed classroom dynamics, teacher roles, student activity patterns, and logged frequency of digital tool usage.

Survey and Interviews: A structured questionnaire was administered to both students and science teachers, probing perceptions of digital tools, self-reported engagement, and perceived changes in understanding and motivation. Semi-structured interviews with selected teachers explored their experiences, challenges and reflections on implementing digital pedagogy.

Results and discussions. The findings of the study demonstrate several noteworthy outcomes:
Improved Learning Outcomes: Students in the digitally-enhanced group achieved approximately 25–30% higher gains in post-test scores compared to their counterparts in traditional instruction. Simulations and interactive models aided comprehension of abstract topics such as atomic structure, energy transformation, and ecological systems.

Increased Engagement and Motivation: Survey data revealed that a significant majority of students reported greater interest, active participation, and enjoyment in digitally enhanced science lessons. Teachers observed that students were more willing to ask questions, experiment iteratively, and collaborate with peers.

Enhanced Teaching Efficiency and Flexibility: Teachers reported that digital resources allowed for more differentiated instruction: they could assign interactive modules tailored to student proficiency, monitor progress in real time, and shift from lecturing to guiding inquiry. This corresponded with the findings of other studies on teacher readiness and digital competence.

Development of Inquiry-Based and Self-Paced Learning: Digital platforms empowered students to work at their own pace, replay simulations, and take greater responsibility for their learning. As a result, the classroom environment shifted towards more student-centred inquiry rather than teacher-centred instruction.

Resource Optimisation and Safety: Virtual laboratories mitigated the limitations of physical lab resources (equipment cost, safety concerns, consumables) and enabled exploration of experiments otherwise inaccessible in typical school settings.

The transformation brought about by digitalization in natural science teaching is multifaceted. At its core, it aligns with constructivist and inquiry-based pedagogical frameworks where learners actively build knowledge through exploration and application. Digital tools facilitate this shift by offering dynamic, visual, and interactive experiences that deepen conceptual understanding and stimulate curiosity. Nevertheless, the integration of digitalisation is contingent upon several critical conditions. First, infrastructure and access remain significant barriers. Many schools confront limited internet connectivity, outdated hardware, or insufficient device availability, which constrains equitable implementation. For instance, studies highlight that while some teachers integrate digital tools regularly, others use them sparingly due to resource constraints. Second, *teacher competence and professional development* are vital. Digital tools alone are inadequate unless accompanied by pedagogical redesign, adequate training, and ongoing support. The literature emphasises the necessity of developing teachers' digital pedagogical content knowledge

(TPACK). Third, *curriculum alignment and content quality* must be addressed. Digital resources should not exist in isolation but must integrate meaningfully into lesson plans, adhere to science standards, and avoid superficial replacement of traditional activities. Studies of digital science education point out issues such as inadequate subject-specific content or lack of localisation.

Fourth, the digital divide and equity concerns call for focused interventions. Without eliminating disparities in device access, connectivity, and teacher training, digitalization may inadvertently widen existing educational gaps.

Finally, looking ahead, the benefits of digital science teaching extend beyond immediate gains. Learners develop 21st-century skills - digital literacy, critical thinking, collaboration, adaptability - which are essential in a rapidly evolving scientific and technological workforce.

Conclusion. In conclusion, the digitalization process in teaching natural sciences represents a fundamental evolution in how science is instructed and how students engage with scientific ideas. The advantages are clear - increased student motivation, improved comprehension, more individualised and efficient teaching, and resource-optimised lab experiences. At the same time, the successful realisation of these benefits requires systematic attention to infrastructure, teacher preparation, curriculum integration, and equity. As digital technologies continue to evolve and permeate educational environments, science instruction stands poised to become more interactive, inclusive, and future-oriented.

References

1. Zhu, H., Xie, Y., Peng, C., Yu, T. (2025). Comparative Study of Container Technology and Traditional Virtualization Technology. In: Jain, L.C., Kountcheva, R., Liu, Y. (eds) *AI in Multidimensional Signals Analysis and Processing*. 3DIT 2024. Smart Innovation, Systems and Technologies, vol 116. Springer, Singapore. https://doi.org/10.1007/978-981-96-5408-6_16
2. Lebea, K. (2025). Smart Home Technology Adoption: A Qualitative Study. In: Rocha, A., Ferrás, C., Calvo, H. (eds) *Information Technology and Systems*. ICITS 2025. Lecture Notes in Networks and Systems, vol 1448. Springer, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-031-93106-2_13

ЗНАЧЕНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ ТРЕБОВАНИЯМ МЕДИЦИНСКОЙ СПЕЦИАЛЬНОСТИ

¹Журакулова Хадичабону Акмаловна, ¹Фахриддинова Рухшона Фахриддин қизи,
¹Мамашукурова Зарина Хасан қизи, ²Ахмедов Бахтиёр Боходир ўғли

¹Самаркандский филиал Ташкентский международный университет Кимё, студентка

²Самаркандский филиал Ташкентский международный университет Кимё, доцент
E-mail: xadichabonuakmalovna@gmail.com

doi

Аннотация. Данное исследование посвящено научной оценке эффективности широкого внедрения цифровых технологий в процесс медицинского образования. В частности, изучено влияние стола 3D-анатомии Anatomage на уровень усвоения знаний, пространственное восприятие и учебную мотивацию студентов. В исследовании приняли участие 20 студентов 1-го курса медицинского факультета, которые были разделены на две группы: экспериментальная группа обучалась с использованием системы Anatomage, а контрольная группа — с применением традиционных наглядных пособий и учебников. Были проведены наблюдения, проанализированы полученные результаты и оценена роль цифровых платформ и 3D-технологий в медицинском образовании.

Ключевые слова: цифровизация, медицинское образование, Anatomage, 3D-анатомия, визуализация, инновационная педагогика, эффективность обучения.

THE IMPORTANCE OF TECHNOLOGY IN TRAINING FOR MEDICAL SPECIALTIES

*¹Jurakulova Khadichabonu Akmalovna, ¹Fakhriddinova Rukhshona Fakhridin,
¹Mamashukurova Zarina Khasan, ²Akhmedov Bakhtiyor Bokhodir*

¹Kimyo International University in Tashkent Branch Samarkand, bachelor student

¹Kimyo International University in Tashkent Branch Samarkand, associate professor

E-mail: xadichabonuakmalovna@gmail.com

Abstract. This research study is devoted to a scientific evaluation of the effectiveness of integrating digital technologies into medical education. Specifically, the impact of the Anatomage 3D anatomy table on students' knowledge acquisition, spatial perception, and learning motivation was analyzed. The study involved 20 first-year medical students, who were divided into two groups: the experimental group studied using the Anatomage system, while the control group used traditional visual aids and textbooks. Observations were conducted, results were analyzed, and the role of digital platforms and 3D technologies in medical education was assessed.

Keywords: digitalization, medical education, Anatomage, 3D anatomy, visualization, innovative pedagogy, learning efficiency.

TIBBIYOT YO'NALISHI TALABLARINI O'QITISHDA TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

¹Jurakulova Xadichabonu Akmalovna, ¹Faxriddinova Ruxshona Faxriddin qizi, ¹Mamashukurova Zarina Xasan qizi, ²Axmedov Baxtiyor Boxodir o'g'li

¹Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti Samarqand filiali talabasi

²Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti Samarqand filiali v.b. dotsenti

E-mail: xadichabonuakmalovna@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot ishi tibbiy ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni keng joriy etishning samaradorligini ilmiy asosda baholashga bag'ishlangan. Xususan, Anatomage 3D anatomiya stoli misolida talabalarning bilim o'zlashtirish darajasi, fazoviy idroki va o'quv motivatsiyasiga ta'siri o'rganildi. Tadqiqotda 20 nafar 1-bosqich tibbiyot talabasi ishtirok etib, ular ikki guruhga bo'lingan holda ta'lim oldi: tajriba guruhi Anatomage tizimi asosida, nazorat guruhi esa an'anaviy ko'rgazmali vositalar va darsliklar bilan tadqiqot olib borildi. Kuzatuvlar va olingan natijalar tahlil qilindi va tibbiy ta'limda raqamli platformalar va 3D texnologiyalarning o'rni baholandi.

Kalit so'zlar: raqamlashtirish, tibbiy ta'lim, Anatomage, 3D anatomiya, vizualizatsiya, innovatsion pedagogika, ta'lim samaradorligi.

Kirish. Bugungi kunda tibbiyot olamida raqamli texnologiyalarni ta'limga tatbiq etish jarayoni jadal suratlarda rivojlanmoqda. Raqamlashtirish nafaqat tibbiy tashxis va davolash jarayonlarida, balki bo'lajak shifokorlarni tayyorlashda ham muhim omilga aylandi [1]. Anatomiyani an'anaviy tarzda – kitob, atlas va murakkab maketlar yordamida o'qitish usuli endilikda zamonaviy 3D vizualizatsiya vositalari bilan to'ldirilyapti. Bu vositalardan biri bo'lmish **Anatomage Table** – inson tanasining yuqori aniqlikdagi uch o'lchovli modeli asosida to'liq ko'rgazmali va interfaol ta'lim berish imkonini yaratadi [2].

Ushbu tadqiqotning maqsadi – Anatomage stoli yordamida o'qitishning samaradorligini an'anaviy o'qitish usuli bilan taqqoslash orqali ilmiy asoslash, talabalar bilim o'zlashtirish darajasi va fazoviy idrok qobiliyatlariga uning ta'sirini aniqlashdan iborat. Tadqiqot yakunlari raqamli texnologiyaning ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyatini aniqlash imkonini beradi [3].

Metod va materiallar. Tadqiqot Kimyo International University in Tashkent Samarkand filialida olib borildi. Jamao tarkibiga 1-bosqich tibbiyot dasturida tahsil olayotgan 20 nafar talaba kiritildi. Talabalar teng ikki guruhga bo'ldi:

Tajriba guruhi (10 nafar): dars davomida Anatomage 3D anatomiya stolidan faol foydalanildi;

Nazorat guruhi (10 nafar): an'anaviy usulda – darslik, atlas va anatomik maketlar asosida o'qitildi.

Tadqiqot muddati 1 oylik o'quv mavzusi (osteologiya) doirasida olib borildi. Har ikki guruh uchun dars rejasi bir xil bo'lgan bo'lsa-da, ularga taqdim etilgan material va o'quv vositalari turlicha edi. Dars yakunida 30 savoldan iborat test sinovi o'tkazilib, talabalar bilim darajalari foiz hisobida baholandi. Qo'shimcha ravishda, talabalar motivatsiyasi, qiyinchilik darajasi va fazoviy idrok qobiliyati ham anketa orqali o'lchandi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Test natijalari shuni ko'rsatdiki, Anatomage tizimidan foydalangan tajriba guruhi sezilarli darajada yuqori o'quv yutuqlari ko'rsatgan. Ularning o'rtacha bilim o'zlashtirish ko'rsatkichi 88–99% orasida bo'lgan. Aksincha, an'anaviy usulda ta'lim olgan nazorat guruhida ushbu ko'rsatkich 76–85% atrofida bo'ldi.

Bu tafovut bir necha omillar bilan izohlandi:

3D vizualizatsiya orqali anatomik tuzilmani real fazoda tasavvur qilish imkoniyati

Interaktiv o'qitish orqali talabalarning bilimga bo'lgan motivatsiyasi oshishi

Qayta-qayta ko'rish, kesimlar олиш, kattalashtirish kabi imkoniyatlar bilan murakkab tuzilmalarni tezroq o'zlashtirish

Xulosa. Anatomage 3D stolidan foydalanish talabalarning o'quv faoliyati va bilim o'zlashtirish samaradorligini sezilarli darajada oshirishini tasdiqlaydi. Ushbu qurilma o'quv jarayonida fazoviy idrok, vizual tafakkur va mavzularni tez anglashni kuchaytiradi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, tibbiy ta'limda raqamli texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish, ularni an'anaviy o'qitish yondoshuvlari bilan integratsiya qilish tavsiya etiladi.

Adabiyotlar ro'yhati

5. Archibong, V.B., Olorunnado, S., Mohammed, A. et al. Students' opinions on the use of the anatomage table in anatomy learning at the University of Rwanda. Discov Educ 4, 429 (2025). <https://doi.org/10.1007/s44217-025-00840-9>
6. Brucoli M, Boffano P, Pezzana A, Sedran L, Boccafroschi F, Benech A. The potentialities of the anatomage table for head and neck pathology: medical education and informed consent. Oral Maxillofac Surg. 2020;24:229–34. <https://doi.org/10.1007/s10006-019-00821-x>.
7. Said Ahmed MA. Use of the anatomage virtual table in medical education and as a diagnostic tool: an integrative review. Cureus. 2023;15:e35981. <https://doi.org/10.7759/cureus.35981>.

ЮРАК-ҚОН ТОМИР РЕАКТИВЛИГИНИНГ ТЕМПЕРАМЕНТГА БОҒЛИҚЛИГИ

Худжанова Муаттар Абсаламовна

*Самарқанд Зармед университети физиология, патофизиология, гигиена кафедраси
доценти*

Алимова Озода Бекмуродовна

Самарқанд Давлат университети физиология кафедраси ассистенти

Абдуллаев Абдурашид Расулбердиевич

*Самарқанд Зармед университети, даволаш иши факультети
203-гуруҳ талабаси*

doi

Аннотация: Инсон организмнинг психофизиологик ҳолати турли ички ва ташқи омиллар таъсирида ўзгариб туради. Шу жараёнда асаб тизими, эндокрин тизими ва юрак-қон томир тизими ўзаро боғлиқ ҳолда ишлайди. Инсоннинг темпераменти эса унинг фаолияти динамикаси, эмоционал реакциялар кучини ва стрессга жавоб реакциясини белгилайдиган индивидуал хусусият ҳисобланади.

Калит сўзлар: темперамент, юрак-қон томир тизими, реактивлик, физиологик реакция, стресс, психофизиология.

Аннотация: Психофизиологическое состояние организма человека изменяется под воздействием различных внутренних и внешних факторов. В этом процессе нервная, эндокринная и сердечно-сосудистая системы работают во взаимосвязи. Темперамент человека – это индивидуальная особенность, определяющая динамику его активности, силу эмоциональных реакций и способность противостоять стрессу.

Ключевые слова: темперамент, сердечно-сосудистая система, реактивность, физиологическая реакция, стресс, психофизиология.

DEPENDENCE OF CARDIOVASCULAR REACTIVITY ON TEMPERAMENT

Khudzhanova Muattar Absalamovna

Assistant professor of physiology, pathophysiology, hygiene department of Samarkand Zarmed University

Alimova Ozoda Bekmurodovna

Assistant of the Department of Physiology of Samarkand State University

Abdullaev Abdurashid Rasulberdievich

Samarkand Zarmed University, faculty of treatment

Student of group 203

Abstract: The psycho-physiological state of the human body changes under the influence of various internal and external factors. In this process, the nervous system, endocrine system, and cardiovascular system work in an interconnected manner. A person's temperament is an individual characteristic that determines the dynamics of his activity, the strength of emotional reactions, and the response to stress.

Key words: temperament, cardiovascular system, reactivity, physiological reaction, stress, psychophysiology.

На уровне методологического обеспечения значимы документы, разработанные специализированными организациями, такими как Российский научно-исследовательский институт культурного и природного наследия имени Д. С. Лихачёва и Федеральное архивное агентство (Росархив). Они предлагают рекомендации по организации и ведению цифровых архивов, правила формирования метаданных и классификации объектов, что поддерживает совместимость информационных систем и облегчает масштабирование цифровых проектов. Внедрение подобных рекомендаций способствует системному подходу и снижает риски неодинакового отражения и искажения культурной информации в различных цифровых хранилищах.

Важно отметить, что законодательство и стандарты в сфере цифровизации культурного наследия тесно связаны с практическими цифровыми инициативами. Например, проекты по оцифровке музейных коллекций, виртуальным экскурсиям и интерактивным образовательным платформам реализуются в рамках действующего правового поля, что обеспечивает их легитимность, качество и защищенность.

Государственные программы, такие как национальный проект «Цифровая культура», предусматривают финансирование и создание инфраструктуры в соответствии с нормативными требованиями, что способствует созданию устойчивой экосистемы цифрового культурного пространства и получению возможностей для творческого развития и самореализации в современных учреждениях культуры.

Федеральный проект «Культурная среда» обеспечивает более широкий доступ к культурным ценностям, гарантируя детям и молодежи всестороннее духовно-нравственное развитие путем доступа к качественному интернет-контенту и участия в культурно-просветительских программах.

Одним из ведущих технических подходов является использование современных форматов и стандартов, ориентированных на долговременное хранение информации. Форматы, такие как TIFF, PDF/A и XML, применяются для цифровых изображений, текстовых документов, благодаря их совместимости и открытой спецификации. Это снижает риски потери данных и технической несовместимости в результате обновления программного обеспечения и оборудования. Вместе с этим важен переход от локальных хранилищ к распределённым сетям хранения, включая облачные технологии, что повышает отказоустойчивость и доступность цифровых архивов.

Методы резервного копирования и версионирования занимают ключевое место в обеспечении сохранности цифрового наследия. Регулярное создание резервных копий с хранением на географически удаленных носителях или дата-центрах снижает вероятность утраты данных вследствие технических сбоев, кибератак или стихийных бедствий. Системы управления версиями позволяют фиксировать изменения в цифровых артефактах, сохраняя исторический контекст трансформаций, что важно для научного анализа и поддержания аутентичности содержания.

Особое внимание уделяется методам контроля целостности данных с применением криптографических технологий и блокчейн-систем. Хеш-функции и цифровые подписи позволяют выявлять даже незначительные изменения в цифровых файлах, обеспечивая доказательства не подлинности или подделки. Интеграция блокчейн-платформ для регистрации цифровых объектов создает децентрализованный реестр, повышающий прозрачность и надежность управления культурными ресурсами, а также препятствует несанкционированным модификациям.

Системы управления цифровыми ресурсами (Digital Asset Management, DAM) и специализированные архивные платформы играют роль центров координации как технических, так и методологических процессов. Они обеспечивают стандартизированный ввод, каталогизацию, поиск и обмен цифровыми культурными данными, обеспечивая правила доступа и авторизации. Внедрение протоколов межведомственного взаимодействия и выбора метаданных обеспечивает совместимость различных цифровых платформ и способствует созданию единого информационного пространства для культурного наследия.

На методологическом уровне развитие цифрового культурного наследия требует формализации процедур бизнес-процессов, включая планирование миграции данных, оценку рисков, аудит цифровых коллекций и регулярный мониторинг состояния информационных ресурсов. Создание методических рекомендаций и стандартов по ведению цифровых архивов может способствовать унификации практик и повышению их эффективности.

Тем не менее, весьма сложным и пока не до конца решенным остаётся вопрос стандартизации и унификации описательных данных, что затрудняет интеграцию разрозненных цифровых ресурсов и ограничивает возможности межплатформенного обмена информацией. Многие исследования особенностей цифровой среды указывают на фрагментарность существующих баз данных, недостатки в структуре метаданных и несовершенство алгоритмов поиска, что снижает эффективность использования цифровых культурных архивов как в научных, так и в образовательных целях.

Однако, отечественный опыт цифровизации культурного наследия демонстрирует значительный прогресс в создании цифровых коллекций и платформ, объединяющих объекты различного масштаба и тематики. Инициативы, реализованные государственными учреждениями, музеями, архивами и научными центрами, способствуют широкому доступу к культурным ресурсам, популяризации национальной истории и расширению образовательных возможностей. В числе ключевых достижений стоит отметить внедрение систем виртуальных экскурсий, создание интегрированных цифровых архивов и развитие мультимедийных проектов, которые обеспечивают интерактивное взаимодействие пользователей с культурным наследием.

В частности, проекты по оцифровке музейных фондов ведущих республик и регионов России позволили сократить территориальные барьеры и сделать уникальные артефакты доступными для национальной и международной аудитории. Современные разработки в области трехмерного моделирования и визуализации востребованы для реконструкции утраченных памятников и создания образовательных материалов. Кроме того, реализуется практика включения представителей коренных народов страны в процессы сохранения и цифрового представления нематериального наследия, что способствует формированию более комплексного и инклюзивного цифрового пространства.

Заключение

Таким образом, можно сделать вывод о том, что современная цифровая среда помогает найти новые способы оставаться актуальными традиционным культурным организациям для молодой аудитории, что в свою очередь является одной из важных целей цифровой трансформации в сфере культуры и искусства. Цифровые технологии используются в качестве эффективного инструмента для налаживания взаимодействия между учреждениями в области культуры и жителями России.

Культура и искусство являются базисным элементом развития любого общества, поэтому сохранение национальных культурных ценностей, через призму репрезентации идентичности российского народа в условиях развития глобального цифрового общества является первоочередной задачей государства.

Цифровая репрезентация культурного наследия в перспективе должна рассматриваться как стратегический ресурс, способный не только сохранить национальные ценности в новых условиях, но и укрепить национальное сознание, обеспечить информационную безопасность и создать условия для устойчивого культурного развития. Для достижения этих целей необходима дальнейшая координация усилий, адаптация нормативно-правовой базы, активное внедрение инновационных технологий и формирование междисциплинарных кадровых ресурсов.

Список использованной литературы

1. Цифровая трансформация и защита прав граждан в цифровом пространстве: доклад Совета при Президенте РФ по развитию гражданского общества и правам человека / И.С. Ашманов, С.Г. Волобуев, В.Б. Наумов и др. М., 2021. 123 с.
2. Яблокова, А. А., Клендер, И. Л., & Сафонов, С. А. (2023). К вопросу о сохранении объектов историко-культурного наследия в постиндустриальном обществе: перспективы применения современных цифровых технологий.
3. Наумов В.Б. О социально-правовых вопросах сохранения культурного наследия в цифровую эпоху // Шестые Бачиловские чтения: сб. статей участников Международной научно-практической конференции. М., 2023. С. 26–37
4. Кондаков А.М., Костылева А.А. Цифровая идентичность, цифровая самоидентификация, цифровой профиль: постановка проблемы // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Информатизация образования. 2019. Т. 16, № 3. С. 207–218.
5. Шнейдер Л.Б., Сыманюк В.В. Пользователь в информационной среде: цифровая идентичность сегодня [Электронный ресурс] // Психологические исследования. 2017. Т. 10,

- № 52. URL: <http://psystudy.ru/index.php/num/2017v10n52/1406-shneider52.html> (дата обращения: 18.10.2025).
6. Казарова Т.В. Цифровое общество как уникальный культурно-исторический феномен // Цифровое общество как культурно-исторический контекст развития человека: сборник научных статей и материалов Международной конференции / под общ. ред. Р.В. Ершовой. Коломна, 2016. С. 161–166.
 7. Конева А.В., Лисенкова А.А. Матрица идентичности в цифровую эпоху: социальные вызовы преодоления анонимности // Вестник Томского государственного университета. Культурология и искусствоведение. 2019. № 35. С. 14–28.
 8. Царева А.Э., Тарасова Т.В. Технологии цифровизации и искусственного интеллекта в сохранении культурного наследия. Столыпинский вестник. 2023; 5: 2700–2709.
 9. Емелин В.А. Идентичность в информационном обществе. М., 2017. 360 с.; Конева А.В. «Цифровая идентичность»: процессы идентификации и репрезентации в сетевой коммуникации // Вестник Ленинградского государственного университета имени А.С. Пушкина. 2018. № 1. С. 50–60.

TA'LIM JARAYONIDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI

Zubaydullayev O'ktam Raim o'g'li
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali,
"Pedagogika va psixologiya" kafedrasi mudiri, dotsent.
e-mail: uktamzubaydullayev8587@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17638180>

Annotatsiya. Maqolada ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik va psixologik jihatlari tahlil qilingan. Axborot texnologiyalarining o'quvchilarning bilish faoliyati, diqqat, xotira, tafakkur va shaxsiy rivojlanishiga ko'rsatadigan ta'siri o'rganilgan. Shuningdek, ularning samarali qo'llanishi uchun zarur pedagogik shart-sharoitlar va ehtiyoj choralari e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, axborot texnologiyalari, o'quvchi, diqqat, kompyuter, interaktiv, motivatsiya, shaxs rivojlanishi.

PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE USE OF MODERN INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Zubaydullayev Oktam Raim ogli
Kimyo International University in Tashkent, Samarkand Branch,
"Pedagogy" and Department of Psychology director, associate professor.
e-mail: uktamzubaydullayev8587@gmail.com

Abstract. In the article education in the process modern information from technologies of use pedagogical and psychological aspects analysis Information technologies students to know activity, attention, memory, thinking and personal to develop indicating impact studied. Also, their effective application for necessary pedagogical conditions and caution to the measures attention focused.

Keywords: education, information technologies, student, attention, computer, interactive, motivation, personality development.

ПЕДАГОГИЧЕСКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Зубайдуллаев Октаб Раим оглы

*Заведующий кафедрой «Педагогика и психология», доцент,
Самаркандский филиал Ташкентского международного университета Кимё
e-mail: uktamzubaydullayev8587@gmail.com*

Аннотация

В статье проанализированы педагогические и психологические аспекты использования современных информационных технологий в образовательном процессе. Рассмотрено влияние информационных технологий на познавательную деятельность учащихся, внимание, память, мышление и личностное развитие. Также уделено внимание педагогическим условиям и мерам предосторожности, необходимым для их эффективного применения.

Ключевые слова: образование, информационные технологии, учащийся, внимание, компьютер, интерактив, мотивация, личностное развитие.

Kirish

Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimi jamiyatning eng muhim sohalaridan biri sifatida innovatsion o'zgarishlarga duch kelmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi pedagogik jarayonlarni tubdan o'zgartirmoqda. Endilikda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabat faqat an'anaviy muloqot bilan cheklanmay, balki virtual muhitda ham faol kechmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli ta'limni rivojlantirish to'g'risida"gi qarorlarida ham raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etishning dolzarbligi ta'kidlanadi. Zamonaviy ta'lim tizimida kompyuter, internet, multimedia, sun'iy intellekt asosidagi platformalar o'quv jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda.

Pedagogik-psixologik jihatdan qaralganda, axborot texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi, diqqatni jamlaydi, o'rganish motivatsiyasini oshiradi. Shu bilan birga, u noto'g'ri qo'llanilganda o'quvchilarda ruhiy charchoq, internetga qaramlik va muloqot yetishmovchiligi kabi salbiy oqibatlarga ham olib kelishi mumkin. Shu bois, ushbu maqolada axborot texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi pedagogik va psixologik jihatlari ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodlari

Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi:

Nazariy tahlil: zamonaviy axborot texnologiyalarining o'quv jarayoniga ta'siri haqidagi ilmiy manbalar, psixologik tadqiqotlar (Ushinskiy, Kodjaspirova, Jukova va boshqalar) o'rganildi.

Kuzatish va tajriba: o'quv jarayonida multimedia va internet texnologiyalaridan foydalanish jarayonlari kuzatilib, o'quvchilarning faoliyatidagi o'zgarishlar qayd etildi.

Psixologik tahlil: o'quvchilarning diqqat, motivatsiya, bilish jarayoni va hissiy holatlaridagi o'zgarishlar tahlil qilindi.

Taqqoslash va umumlashtirish: an'anaviy o'qitish bilan raqamli ta'lim usullarining samaradorligi solishtirildi.

Tadqiqotning manbalar bazasini G'ulomov S.S., Alimov R.X.ning "Axborot tizimlari va texnologiyalari" asari, shuningdek, xorijiy olimlar A.V. Beloknov va boshqalarning ishlari tashkil etdi.

Natijalar

O'tkazilgan tadqiqot natijalari quyidagilarni ko'rsatdi:

1. **O'quvchilarning diqqat va xotirasi faollashadi.** Ko'rgazmali-tovushli obrazlar, animatsiyalar va interaktiv topshiriqlar o'quvchilarning o'rganilayotgan mavzuga e'tiborini jalb qiladi.

2. **O'rganish motivatsiyasi ortadi.** Zamonaviy texnologiyalar yordamida dars jarayoni qiziqarli shaklga kiradi, bu esa o'quvchining o'qishga bo'lgan ijobiy munosabatini shakllantiradi.
3. **Ijodiy va mustaqil fikrlash rivojlanadi.** Kompyuter dasturlari, internet va virtual laboratoriyalar o'quvchilarni mustaqil izlanishga undaydi.
4. **Ta'lim jarayoni individuallashtiriladi.** Elektron platformalar har bir o'quvchining o'z qobiliyatiga mos ravishda o'rganish imkonini beradi.
5. **Pedagogik boshqaruv soddalashtiriladi.** O'qituvchilar uchun elektron jurnallar, baholash tizimlari, teskari aloqa vositalari o'qitish samaradorligini oshiradi.

Shuningdek, o'quvchilarda ekran oldida uzoq vaqt o'tirish, virtual muhitga haddan ziyod berilib ketish, hissiy charchoq va real muloqot yetishmasligi kabi psixologik xavflar ham aniqlangan.

Muhokama

Natijalar shuni ko'rsatadiki, axborot texnologiyalari o'qitish jarayonining barcha bosqichlarida (tushuntirish, mustahkamlash, nazorat va tahlil) ijobiy samara beradi. Ular o'quvchilarning diqqatini bir joyga jamlash, fikrlash tezligini oshirish va yangi bilimlarni o'zlashtirishga ko'maklashadi.

Psixologik nuqtai nazardan, axborot texnologiyalari o'quvchilarning sezgi, idrok va tafakkur faoliyatini rag'batlantiradi. Ko'p hollarda ular o'qishga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi, ijobiy hissiyotlar uyg'otadi. Ammo bu vositalardan foydalanish o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq.

An'anaviy ta'limda o'qituvchi asosiy axborot manbai bo'lsa, zamonaviy raqamli ta'limda u maslahatchi, yo'naltiruvchi va motivator rolini bajaradi. Shu bois, pedagog zamonaviy texnologiyalarni qo'llashda ularning psixologik ta'sirini boshqarish, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos shaklda foydalanish malakasiga ega bo'lishi zarur.

Shuningdek, ta'lim jarayonida kompyuter va internetdan me'yorda foydalanish o'quvchilarning ruhiy sog'lig'ini saqlashga xizmat qiladi. Haddan tashqari foydalanish esa diqqatning tarqoqlashuvi, hissiy sovuqlik, internetga qaramlik kabi muammolarga olib kelishi mumkin. Shu sababli pedagog va psixologlar bu borada hamkorlikda ishlashlari zarur.

Xulosa

Zamonaviy axborot texnologiyalari ta'lim jarayonida qo'llanilganda quyidagi ijobiy natijalarga erishish mumkin:

- o'quvchilarning bilim o'zlashtirish darajasi ortadi;
- mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va tahliliy tafakkur rivojlanadi;
- o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot demokratik tus oladi;
- ta'lim samaradorligini nazorat qilish imkoniyati kengayadi.

Biroq, bu jarayonning psixologik xavfsizlik tamoyillari doirasida amalga oshirilishi shart. Axborot texnologiyalaridan foydalanish me'yorlari ishlab chiqilishi, yoshga mos elektron resurslar tanlanishi va o'qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan oqilona va pedagogik-psixologik jihatdan asosli foydalanish o'quvchilarning shaxsiy va intellektual salohiyatini rivojlantiruvchi kuchli omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'ulomov S.S., Alimov R.X. va boshqalar. Axborot tizimlari va texnologiyalari. – Toshkent: "Sharq", 2000.
2. Белокнов А.В. и др. Менеджмент организации: современные технологии. – Ростов на Дону: "Феникс", 2002.
3. lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
4. gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.

*Hazratqulov Mutallib Rashidovich¹, Boltayeva Hulkar Mardonqul qizi²,
Karimova Aziza Mamatkadirovna³, Rashidova Fotima Mutallib qizi⁴*

*Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Samarqand filiali
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi PhD²,
Samarqand davlat universiteti doktorant talaba²,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti doktorant talaba³, ISFTI talabasi⁴
Email: hazratqulovmutallib@gmail.com*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17638254>

Annotatsiya. Ushbu maqolada nutqni idrok etish jarayonining ikkilamchi qonuniyatlari lingvistik, psixologik va fiziologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda inson nutqini tushunish va idrok etish mexanizmlarining murakkab bosqichlari o'rganilgan bo'lib, fonemalar, tovush birikmalari va ularning ma'no hosil qilishdagi o'zaro ta'siri yoritilgan. Shuningdek, maqolada nutq signallarining energiya tabiati, ularni miyaning analizator tizimi tomonidan qayta ishlanishi hamda idrokning ong bilan bog'liqligi ilmiy asosda izohlangan. Mualliflar nutqni idrok etishdagi fonetik va semantik komponentlarning o'zaro uyg'unligi orqali inson tafakkurining faol ishlash mexanizmlarini ochib berganlar. Tadqiqot natijalari nutqni o'qitish, til o'rganish va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish jarayonlarida amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: nutq, idrok, fonema, semantika, tovush tizimi, psixolingvistika, energiya modeli, tafakkur, nutq signali, muloqot jarayoni.

SECONDARY LAWS OF SPEECH PERCEPTION

*Hazratqulov Mutallib Rashidovich¹, Boltayeva Hulkar Mardonqul qizi², Karimova Aziza
Mamatkadirovna³, Rashidova Fotima Mutallib qizi⁴*

*Lecturer, Department of Preschool and Primary Education Methodology,
Samarkand Branch of Kimyo International University In Tashkent, PhD²*

PhD student, Samarkand State University²

PhD student, Pedagogical Institute of Uz-Fin³

Student, ISFTI⁴

e-mail: hazratqulovmutallib@gmail.com

Abstract. This article analyzes the secondary laws of the speech perception process from linguistic, psychological, and physiological perspectives. The study examines the complex stages of understanding and perceiving human speech, highlighting the interaction of phonemes, sound combinations, and their role in meaning formation. Additionally, the energy nature of speech signals, their processing by the brain's analyzer system, and the relationship between perception and consciousness are scientifically explained. The authors reveal the mechanisms of active human thinking through the harmony of phonetic and semantic components in speech perception. The research findings have practical significance for teaching speech, learning languages, and developing communicative competence.

Keywords: speech, perception, phoneme, semantics, sound system, psycholinguistics, energy model, thinking, speech signal, communication process.

ВТОРИЧНЫЕ ЗАКОНОМЕРНОСТИ ВОСПРИЯТИЯ РЕЧИ

Hazratqulov Mutallib Rashidovich¹, Boltayeva Hulkar Mardonqul qizi²,

Karimova Aziza Mamatkadirovna³, Rashidova Fotima Mutallib qizi⁴

Преподаватель кафедры «Методика дошкольного и начального образования»,

филиал Международного университета Кимё, Самарканд, PhD²

Докторант Самаркандского государственного университета²

Докторант Педагогического института «Уз-Фин»³

Студент ISFTI⁴

email: hazratqulovmutallib@gmail.com

Аннотация. В статье анализируются вторичные закономерности процесса восприятия речи с лингвистической, психологической и физиологической точек зрения. В исследовании изучены сложные этапы понимания и восприятия человеческой речи, освещено взаимодействие фонем, звуковых сочетаний и их роли в формировании смысла. Также научно объяснена энергетическая природа речевых сигналов, их обработка анализаторной системой мозга и связь восприятия с сознанием. Авторы раскрыли механизмы активной работы человеческого мышления через согласованность фонетических и семантических компонентов в восприятии речи. Результаты исследования имеют практическое значение при обучении речи, изучении языка и развитии коммуникативной компетенции.

Ключевые слова: речь, восприятие, фонема, семантика, звуковая система, психолингвистика, энергетическая модель, мышление, речевой сигнал, процесс коммуникации.

Kirish

Zamonaviy tilshunoslikda inson nutq faoliyati, uning psixologik, fiziologik va ijtimoiy asoslarini o'rganish masalalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Insonning nutqni idrok etish jarayoni nafaqat fonetik va leksik birliklarni anglash, balki ularning mazmunini, kontekstual bog'liqligini va muloqotdagi maqsadini tushunish bilan ham chambarchas bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan, nutqni idrok etishning ikkilamchi qonuniyatlarini tahlil etish tilshunoslik, psixolingvistika va kognitiv fanlar uchun muhim ilmiy yo'nalish hisoblanadi.

Til inson tafakkurining asosiy vositasi sifatida nafaqat tashqi aloqa quroli, balki ichki fikrlash jarayonining shakllanishida ham muhim o'rin tutadi. Nutqni idrok etish jarayoni esa inson ongida mavjud bo'lgan tajriba, bilim, ijtimoiy muhit va psixologik holat bilan bevosita bog'liq. Boshqacha aytganda, nutqni to'liq anglash uchun inson nafaqat til birliklarini bilishi, balki ularni real kommunikativ sharoitda qo'llash mexanizmlarini ham egallagan bo'lishi zarur.

Nutqni idrok etishning birlamchi qonuniyatlari odatda tovush, so'z va gapni eshitish, fonemalarni farqlash va semantik birliklarni tanish jarayonini o'z ichiga oladi. Ikkilamchi qonuniyatlar esa shu birlamchi jarayonlarga tayangan holda, nutqni kontekstual, ijtimoiy, madaniy va ma'naviy jihatdan chuqurroq anglash mexanizmlarini ifodalaydi. Demak, nutqni idrok etishning ikkilamchi qonuniyatlari inson tafakkurining yuksak bosqichlarini, tafsir, talqin, mantiqiy xulosa va semantik interpretatsiya kabi aqliy jarayonlarni o'zida mujassam etadi.

So'nggi yillarda o'zbek tilshunosligida ham bu boradagi tadqiqotlarga e'tibor ortib bormoqda. Xususan, kommunikativ kompetensiya, semantik tahlil, nutq psixologiyasi va lingvokulturologiya yo'nalishlarida olib borilayotgan izlanishlar nutqni idrok etish jarayonining murakkab tabiatini ochib berishga xizmat qilmoqda. Shu jihatdan, mazkur maqolada nutqni idrok etishning ikkilamchi qonuniyatlari nazariy va amaliy jihatdan o'rganilib, ularning kommunikativ jarayondagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Metodlar

Mazkur tadqiqotda nutqni idrok etishning ikkilamchi qonuniyatlarini o'rganish uchun kompleks yondashuv qo'llanildi. Unga ko'ra, psixolingvistik, kognitiv va sotsiokommunikativ tahlil me-

todlari birgalikda tatbiq etildi. Tadqiqotning asosiy manbalari sifatida o'zbek va xorijiy olimlarning ilmiy ishlaridan, shuningdek, tabiiy nutq namunalariidan foydalanildi.

Birinchidan, **psixolingvistik yondashuv** yordamida insonning nutqni idrok etish jarayonidagi psixik faoliyati, ya'ni e'tibor, xotira, emotsional holat va motivatsiyaning ta'siri o'rganildi. Bu bosqichda nutqni anglashda idrokning faol ishtiroki, semantik xotira bilan aloqasi va kontekstni qayta ishlash mexanizmlari tahlil qilindi.

Ikkinchidan, **kognitiv tahlil** orqali nutqni idrok etishning aqliy modellarini, ya'ni inson ongida ma'no qanday shakllanishi, qanday talqin qilinishi va semantik tarmoqlarga qanday ulanib borishini aniqlashga e'tibor qaratildi. Bu jarayon til birliklarini avtomatik tarzda emas, balki ma'noli, mantiqiy zanjir sifatida idrok etishni tushuntirishga yordam berdi.

Uchinchidan, **sotsiokommunikativ metod** yordamida nutqning ijtimoiy sharoitlarda idrok etilishiga oid qonuniyatlar o'rganildi. Bunda madaniy muhit, ijtimoiy mavqe, muloqot maqsadi, suhbatdoshlar o'rtasidagi psixologik yaqinlik darajasi kabi omillar nutqni anglash sifatiga qanday ta'sir ko'rsatishi tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida o'rta yoshdagi 30 nafar ishtirokchi bilan amaliy tajriba o'tkazildi. Ular turli mavzularda qisqa audio matnlarni tinglab, mazmunini qayta so'zlab berishdi. Bu jarayonda ishtirokchilarning nutqni anglash tezligi, semantik aniqlik darajasi va kontekstni qayta yaratish qobiliyati o'lchandi. Shuningdek, ishtirokchilarning ta'lim darajasi va til kompetensiyasi natijalarga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlangan.

Metodologik jihatdan tadqiqotda **taqqoslama va tahliliy usullar** ham qo'llanilib, o'zbek tilida nutqni idrok etish jarayoni ingliz va rus tillaridagi o'xshash hodisalar bilan solishtirildi. Natijada, har bir tilning fonetik, morfologik va pragmatik tizimlari nutqni idrok etishning o'ziga xos qonuniyatlarini shakllantirishi kuzatildi.

Natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, nutqni idrok etishning ikkilamchi qonuniyatlari inson tafakkuri va tajribasi bilan bevosita bog'liqdir. Har bir ishtirokchining nutqni anglash darajasi uning psixologik holati, motivatsiyasi, til bilim darajasi hamda ijtimoiy tajribasiga qarab farqlanadi. Shu jihatdan, nutqni idrok etishning ikkilamchi bosqichi insonning individual kognitiv modeliga tayanagan holda shakllanadi.

Tadqiqotda quyidagi **asosiy natijalar** aniqlandi:

1. **Ma'no idrokidagi kontekstual bog'liqlik qonuniyati.** Ishtirokchilar nutqni idrok etishda alohida so'zlarning emas, balki ularning kontekstdagi o'zaro munosabatiga asoslanishgan. Bu esa ma'no tushunishning yuqori bosqichi bo'lib, ikkilamchi idrok qonuniyatining muhim belgisi hisoblanadi.
2. **Semantik prognozlash qonuniyati.** Inson nutqni tinglar ekan, kelajakdagi gap yoki fikrni oldindan taxmin qilish qobiliyatiga ega. Bu mexanizm orqali idrok jarayoni tezlashadi va ma'no aniqligi ortadi.
3. **Tajriba asosida ma'no shakllanish qonuniyati.** Nutqni idrok etishda inson o'z hayotiy tajribasi, bilimlari va oldingi muloqotlardan olgan axborotlariga tayanadi. Shu sababli bir xil matn turli odamlar tomonidan turlicha talqin qilinadi.
4. **Madaniy kontekst qonuniyati.** Ijtimoiy-madaniy omillar nutqni idrok etish jarayoniga bevosita ta'sir qiladi. Xususan, milliy qadriyatlar, urf-odatlar va jamiyatdagi kommunikativ me'yorlar ma'no shakllanishiga muhim omil sifatida ta'sir etadi.
5. **Emotsional rezonans qonuniyati.** Nutqning emotsional ohangi, intonatsiyasi va so'zlovchining kayfiyati idrok jarayonini kuchaytiradi yoki susaytiradi. Bu holat, ayniqsa, og'zaki muloqotda yaqqol namoyon bo'ladi.

Ushbu natijalar shuni isbotlaydiki, nutqni idrok etishning ikkilamchi qonuniyatlari inson ongida til birliklarini chuqur, ma'noli va ijtimoiy mazmunda talqin qilish imkonini beradi. Demak, nutqni to'g'ri anglash uchun insonda nafaqat grammatik bilim, balki kognitiv va emotsional tayyorgarlik ham bo'lishi zarur.

Muhokama

Olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, nutqni idrok etish jarayoni inson tafakkurining eng murakkab va ko'p bosqichli faoliyatidir. Ikkilamchi qonuniyatlar aynan shu murakkablikni ifodalaydi, chunki ular faqat til tizimiga emas, balki inson psixologiyasi, madaniyati, tajribasi va ijtimoiy muhitiga ham tayanadi.

Psixolingvistik nuqtayi nazardan, nutqni idrok etishning ikkilamchi bosqichi insonning semantik xotirasi va diqqatini boshqarish qobiliyati bilan chambarchas bog'liq. Masalan, nutqni tinglayotgan kishi gapdagi asosiy ma'noni ajratib, ikkinchi darajali axborotni orqa fonda saqlaydi. Bu esa mantiqiy xulosa chiqarish, sabab-oqibat munosabatini aniqlash va fikrni umumlashtirish imkonini beradi.

Kognitiv yondashuvda esa nutqni idrok etish "ma'no konstruksiyasi" sifatida qaraladi. Har bir tinglovchi yoki o'quvchi nutqdan o'z bilimi, qadriyati va tajribasiga mos ma'no yaratadi. Bu holat, ayniqsa, metaforik yoki kinoyaviy ifodalar, shuningdek, madaniy jihatdan boy matnlarda yaqqol seziladi. Shunday qilib, ikkilamchi qonuniyatlar inson tafakkuridagi "ma'no modeli"ni shakllantirishga xizmat qiladi.

Sotsiokommunikativ nuqtai nazardan qaraganda, nutqni idrok etishning ikkilamchi qonuniyatlari muloqot jarayonida ijtimoiy rollar, iyerarxiyalar va kommunikativ etikaga bog'liq. Masalan, o'qituvchi va talaba, rahbar va xodim, ota-ona va bola o'rtasidagi muloqotda nutqni anglash va talqin qilish turlicha kechadi. Bu farq ijtimoiy mavqe va kommunikativ tajriba bilan belgilanadi.

Bundan tashqari, nutqni idrok etishning ikkilamchi qonuniyatlari ta'lim jarayonida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarda chet tilini o'rganish yoki ona tilida matn tahlilini o'zlashtirishda bu qonuniyatlarni bilish ularning fikrlash doirasini kengaytiradi, ma'no bilan ishlash qobiliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, bu jarayon ta'limda kommunikativ yondashuvni samarali qo'llashga yordam beradi.

Tilshunos olimalar A. N. Leontev, L. S. Vigotskiy va o'zbek tadqiqotchilari O. Jo'raeva, S. Mahmudov, N. Mamatovlarning ishlarida ham nutqni idrok etish jarayoni tafakkur va idrokning o'zaro ta'siri sifatida talqin etiladi. Ularning fikricha, inson nutqni nafaqat eshitadi, balki uni qayta quradi, mazmunini o'z tajribasiga moslashtiradi va shaxsiy semantik maydonida qayta shakllantiradi. Shu sababli, ikkilamchi qonuniyatlar aslida inson tafakkurining ijodiy faolligini ifodalaydi.

Xulosa

Yuqorida keltirilgan ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, nutqni idrok etishning ikkilamchi qonuniyatlari inson tafakkurining chuqur, mantiqiy va ijodiy bosqichlarini ifodalaydi. Bu qonuniyatlar orqali inson so'z va gapning yuzaki ma'nosidan tashqari, ularning kontekstual, madaniy va emosional qatlamlarini ham anglash imkoniga ega bo'ladi.

Tadqiqot natijalari nutqni idrok etish jarayonida quyidagi umumiy xulosalarga olib keldi:

1. Nutqni idrok etish jarayoni birlamchi eshitish va semantik aniqlash bosqichidan tashqari, ikkilamchi tahlil va talqin bosqichlarini ham o'z ichiga oladi.
2. Ikkilamchi qonuniyatlar insonning shaxsiy tajribasi, bilim darajasi, ijtimoiy muhiti va psixologik holati bilan bevosita bog'liq.
3. Ma'noni to'liq anglash uchun inson o'z tafakkurida ma'no modellarini qayta yaratadi, bu esa nutqni chuqurroq idrok etish imkonini beradi.
4. Til va tafakkur o'rtasidagi uzviy bog'liqlik natijasida nutqni idrok etishning ikkilamchi qonuniyatlari kommunikativ samaradorlikni ta'minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.
5. Ushbu qonuniyatlarni ta'lim jarayonida o'rgatish talabalarning tahliliy va mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, ularning lingvistik kompetensiyasini mustahkamlaydi.

Mazkur tadqiqot shuni isbotlaydiki, nutqni idrok etishning ikkilamchi qonuniyatlari – bu inson tafakkurining faol, ma'no yaratuvchi xususiyatlarini ifodalovchi ilmiy kategoriya bo'lib, uni o'rganish tilshunoslikning yangi yo'nalishlari uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Kelgusida bu soha psixolingvistik eksperimentlar, neyrolingvistik tadqiqotlar va sun'iy intellekt tizimlari orqali yanada chuqurroq o'rganilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. National Encyclopedia of Uzbekistan. Volume 3. T.: Uzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002.p.242.
2. Vigotskiy L.S. Collection of works. Thinking and Speech. Moscow: «Pedagogika», 1982.
3. Vigotskiy L.S. Imagination and Creativity at Childhood Age. Moscow: «Prosvesheniye», 1991; Vigotskiy L.S. Pedagogy of Psychology. Moscow: «Pedagogika», 1987.
4. Dyuin D. Psychology and Pedagogy of Thinking. Moscow: «Sovershenstvo», 1997
5. Mirqosimova M. M. Methods of Development and Improvement of Literary Analysis in Pupils. Doctorate Dissertation on Pedagogic Sciences.-T.: 1995.
6. Yoldoshev Q. New Pedagogic Thinking and scientific-methodic foundations of literature teaching at secondary schools. Doctorate Dissertation on Pedagogic Sciences.-T.: 1997.
7. Matchonov S. Organization of independent works in general educational system. Doctorate Dissertation on Pedagogic Sciences.-T.: 1998.
8. Stoyunin V. Ya. Selected Pedagogic Works.-Moscow: «Pedagogika», 1991.p.361.
9. Brayan CJ Mur. Boston University Libraries Open BU.()
- 10.L.Mccllland. Western Universitylibrary. (<https://ir.lib.uwo.ca/brainpub/229/>)
11. Keldiyorov R. Sceintific-methodic basis of raising the effectiveness of literature lessons. Diss. for Ph.D in Pedagogic Sc. T.: 2001, p. 52.

TA'LIM SOHASIDA O'QUVCHILARNI KOGNITIV RIVOJLANISHIDA SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA TA'LIM BERISHNING ISTIQBOLLARI

Djurakulova Dilfuza Farxodovna¹, Muxtorov Alijon Xoliq O'g'li²

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Samarqand filiali

Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi

¹Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Samarqand filiali

²Pedagogika va psixologiya kafedrası magistrant

Elektron pochta manzili: alimuxtorov03@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17638348>

Annotatsiya. Mazkur maqolada sunniy intellektni insonlarni ongi, tafakkurini rivojlanishiga ta'siri haqida tadqiqotlar o'tkazildi, suniy intellektni hayotga tadbiq etish chora tadbirlari farzandlarimizga bilim berish borasida suniy intellektning o'zni salbiy va ijobiy taraflari haqida ma'lumotlar berib o'tilgan. Hozirgi texnika texnologiyalar asrida biz suniy intellektidan ta'lim sohasida salmoqli foydalanshimiz uchun ilmiy izlanishlarimiz natijasidan kelib chiqilgan holda takliflar berildi.

Kalit so'zlar: Suniy intellekt, yangi asr, kriptograf, suniy ong, AI, suniy idrok.

PROSPECTS OF USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE TO SUPPORT STUDENTS' COGNITIVE DEVELOPMENT IN EDUCATION

Djurakulova Dilfuza Farxodovna¹, Muxtorov Alijon Xoliq Ogli²

¹Lecturer, Department of Pedagogy and Psychology, Samarkand Branch of Kimyo International University In Tashkent, PhD in Psychology, Associate Professor

²Master's Student, Department of Pedagogy and Psychology, Samarkand Branch of Kimyo International University In Tashkent

Email: alimuxtorov03@gmail.com

Abstract. This article examines research on the impact of artificial intelligence on human cognition and thinking development. Measures for the implementation of AI in education are discussed, highlighting both the positive and negative aspects of AI in supporting children's learning. In the current era of technological advancement, recommendations are provided based on research findings to enable meaningful use of AI in the educational sector.

Keywords: artificial intelligence, new era, cryptography, artificial mind, AI, artificial cognition.

ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА ДЛЯ КОГНИТИВНОГО РАЗВИТИЯ УЧАЩИХСЯ В ОБРАЗОВАНИИ

Джуракулова Дилфуза Фарходовна¹, Мухторов Алиджон Холик оглы²

¹Преподаватель кафедры педагогики и психологии, Самаркандский филиал Ташкентского международного университета Кимё, доктор философии по психологии (PhD), доцент

²Магистрант кафедры педагогики и психологии, Самаркандский филиал Ташкентского международного университета Кимё

Email: alimuxtorov03@gmail.com

Аннотация. В статье рассматриваются исследования влияния искусственного интеллекта на развитие человеческого сознания и мышления. Обсуждаются меры по внедрению ИИ в образовательный процесс, подчеркиваются как положительные, так и отрицательные стороны использования ИИ в обучении детей. В эпоху современных технологий представлены рекомендации на основе результатов исследований для эффективного применения ИИ в сфере образования.

Ключевые слова: искусственный интеллект, новая эпоха, криптография, искусственный разум, AI, искусственное восприятие.

Kirish. So'nggi yillarda yurtimizda barcha sohalarda keng ko'lamli islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Aniq strategik maqsadlar va ko'rsatkichlar belgilangan uzoq muddatli dasturlar qabul qilinib, amaliyotga bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Prezidentimiz tashabbusi bilan tasdiqlangan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi, shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalarini jadallik bilan joriy qilish va ularni keng qo'llash orqali raqamli ma'lumotlardan samarali foydalanish, ularning sifati va ishonchliligini oshirish, shu yo'nalishda yuqori malakali kadrlarni tayyorlash uchun qulay muhit shakllantirish rejalashtirilgan.

Mazkur maqsadlarga erishish yo'lida sun'iy intellektga asoslangan innovatsion biznes-moddalar, mahsulotlar va xizmat ko'rsatish formatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan qulay va samarali ekotizimni barpo etish, ularni ustuvor sohalar va yo'nalishlarda tezkorlik bilan joriy etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Chunki sun'iy intellekt texnologiyalari bugungi kunda raqamli texnologiyalar ichida eng istiqbolli va tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan sohalardan biri hisoblanadi.

Ushbu texnologiyalarni joriy etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida Hukumat tomonidan belgilangan vazifalar doirasida Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan amaliy chora-tadbirlar ko'rilmogda. Jumladan, ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari asosida 2021-2024 yillarni qamrab olgan, umumiy qiymati 38,9 milliard so'mlik 24 ta amaliy, innovatsion, fundamental va xalqaro loyihalarni amalga oshirish ishlari olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoniga muvofiq, shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha ustuvor vazifalarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori imzolandi.

Adabiyotlar tahlili.

"Sun'iy intellekt" atamasi 1956-yilga kelib paydo bo'ldi. Shu yilning yozida AQSHning Dartmut universitetida sun'iy tafakkur masalalari bo'yicha anjuman bo'lib o'tdi. Unda Klod Shennon (Bell Laboratories), Nataniel Rochester (IBM), Gerbert Saymon (Karnegi universiteti, Trenchard Mur (Prinston universiteti), Jon Makkarti (Dartmut universiteti), Marvin Minski (Garvard universiteti) kabi olimlar ishtirok etgan.

Ushbu anjumanda ma'ruza qilgan amerikalik informatika sohasidagi olim Jon Makkarti (1927–2011) "Artificial Intelligence" ("Sun'iy tafakkur") atamasi muallifi sifatida tarixga nom qoldirdi.

XX asrning 80-yillari sun'iy intellekt – kashfiyot deya e'tirof etila boshladi. Olimlar ushbu yo'nalishda darsliklar ishlab chiqa boshladilar.

Shuningdek, 1997-yilda shaxmat bo'yicha Jahon chempioni Garri Kasparovni mag'lubiyatga uchratgan mashhur shaxmat dasturi – "Deep Blue" yaratildi. Shu yillarda Yaponiyada neyron tarmoqlari asosida 6-avlod kompyuter loyihasi ishlab chiqilayotgan edi.

Shundan so'ng sun'iy intellektga e'tibor kuchaydi. Yirik kompaniyalardan tortib to harbiy muassasalargacha mazkur sohani moliyalashtira boshladi. Natijada yangi texnologiyalar soni oshib, raqobat kuchaydi, sun'iy intellekt vositalari mukammallashib bordi.

Sun'iy intellekt sohasida o'tgan asrning o'rtalaridan boshlab tadqiqot ishlari boshlangan. Ingliz matematigi va kriptografi Alan Tyuring (1912-1954) mazkur yo'nalishda ilk tadqiqot muallifi hisoblanadi.

Xususan, 1950 yili texnologiyalar imkoniyatlari insonlarni aql jihatdan ortda qoldirishi haqida savollarga asoslangan maqola chop etilgan. Uning muallifi Alan Tyuring edi. Keyinchalik olim o'zining nomi bilan atalgan "Tyuring testi" tartibini ishlab chiqdi.

Metodologiya. Boshlang'ich ta'lim sohasida suniy intellekt (AI) orqali ta'lim berish tamoyillari, o'quvchilarga interaktiv va individual ta'lim imkoniyatlari yaratishga imkon beradi. Quyidagi bir nechta tamoyillar boshlang'ich ta'limni AI yordamida o'rgatish uchun foydalaniladigan usullar bilan tanishishingiz mumkin:

1. Interaktiv ta'lim o'yinlari: AI, o'quvchilarni o'qishni oson va qiziqarli qilish uchun interaktiv o'yinlarni taqdim etishda foydalanilishi mumkin. Bu o'yinlar o'quvchilarning qobiliyatlarini oshirish, muammolarga yechim topish, joriy muhitda ishlash va yaratishga ko'maklashadi.
2. Adaptiv ta'lim tizimlari: AI, o'quvchilarning o'zlariga maxsus ta'lim yo'nalishlarini belgilash uchun ma'lumotlarni analiz qiladi. Bunda, o'quvchilarning yaxlitlanish darajasini va o'zlashtirish ko'nikmalarini o'rganish uchun o'quv jarayonining tartibini va intensivligini moslashtirish mumkin.
3. O'quv dasturlari va elektron ta'lim materiallari: AI, interaktiv darsliklar, tushunchalar va ma'lumotlar bazasidan foydalanib, o'quvchilarning o'zlariga moslashtirilgan dasturlar va ma'lumotlarga osonlik bilan kirish imkonini beradi. Bu elektron ta'lim materiallarining o'quvchilar uchun qiziqarli va oson foydalanishga imkon berishini ta'minlaydi.

AI orqali ta'lim berish tamoyillari hozirgi kunda rivojlanayotgan soha bo'lib, bu sohada boshlang'ich ta'limni o'zlashtirishning yangi usullarini yaratishda katta ahamiyatga ega. Shu bilan bir-


ga, AI orqali ta'lim berish o'quvchilarning o'zlashtirish va tajribalarini kuchaytirishi va o'rganish jarayonini individuallashtirish imkonini beradi.

Natijalar

Ushbu tadqiqotda biz google so'rovnoma dan foydalangan holda hozirgi kunda sunniy intellektni hayotimizga qay darajada kirib kelganligi haqida so'rovnoma qilindi. So'rovnomada esa quyidagidek natijalar olindi.


Hozirgi kundagi ijtimoiy ro'lingiz

19 ответов




Suniy intellektni bilasizmi ?

19 ответов



Siz suniy intellektni ko'p ishlatasizmi ?

19 ответов




Suniy intellektni ta'lim berish sohasida ishlatish haqida qanday fikrdasiz ?

19 ответов




Siz farzandingizga qo'shimcha dars sifatida suniy intellekt dars o'tsa siz rozilik bildirarmidingiz ?

19 ОТВЕТОВ



Suniy intellekt bu ta'lim sohasida juda ham keng qamrovli eshiklar ochadi bu borada sizda qanday takliflar bor ?

19 ОТВЕТОВ



Yuqoridagi natijalarni tahlil qiladigan bo'lsak bizda so'rovnomada qatnashgan barcha respondentlarimiz faollik ko'rsatib o'z tanlovlarini aytdi.

Ishonamizki, sun'iy intellekt bu poydevor deyishimiz ham mumkin. Sun'iy intellekt orqali bolalarga ta'lim berishimiz mumkin. Dunyo ilmlaridan xabardor bo'lishimiz mumkin. Insoniyatga juda yordam berishi mumkin. Ammo sun'iy intellekt ko'pgina kasb fidoyilarining qisqarishiga olib kelishi mumkin, shu jumladan o'qituvchilar, qo'shimcha chuqurlashtirilgan kurs o'quvchilari va til o'rgatuvchi kasblar uchun ma'lum darajada tahdid bo'lishi mumkin. Ya'ni, sun'iy intellekt bu ishlarni o'z zimmasiga olishi mumkin. Natijalardan kelib chiqib, shuni aytish lozimki, hozirgi kunda sun'iy intellektni qo'llash ta'lim sohasida juda katta yutuqlarga erishishga imkon beradi.

Muhokama

Qisqa qilib aytganda, sun'iy intellekt muayyan vazifalarni bajarishda inson xatti-harakatiga taqlid qilishga qodir bo'lgan tizim yoki texnologiya bo'lib, olingan ma'lumotlardan foydalanib asta-sekin mukammallashib boradi. Umuman olganda sun'iy intellekt format ham, funktsiya ham emas, balki bu jarayon bo'lib, ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish kabilarni o'z ichiga oladi.

Sun'iy intellekt haqida so'z borar ekan, uning biznesdagi va axborot texnologiyalardagi o'rnini tahlil qilish lozim. Sun'iy intellektning ushbu yo'nalishlarga sekin-astalik bilan kirib borishi, sun'iy intellekt vositalarining soni oshishini ta'minlaydi.

"Sun'iy intellekt" deganda ko'pchilik robotlarning turli sohalarga jalb qilinishini tushunadi. Ammo sun'iy intellekt atamasi robotlarning inson bilan o'rin almashishini anglatmaydi. Uning asosiy maqsadi inson qobiliyatlari va imkoniyatlarining chegaralarini kengaytirishdir. Shuning uchun bu kabi texnologiyalar qimmatli biznes resursi hisoblanadi.

Avvallari "sun'iy intellekt" atamasi faqat odamlar bajarishi mumkin bo'lgan, masalan, mijozlarga xizmat ko'rsatish yoki shaxmat o'ynash vazifalarni bajarish uchun qo'llanilgan. Shuningdek, kompyuter texnologiyalarini chuqur o'rganishga ham sun'iy intellekt sifatida qaralgan. Lekin mijozlarga xizmat ko'rsatish, turli onlayn o'yinlar va kompyuter texnologiyalarini chuqur o'rganish kabilarni sun'iy intellekt texnologiyalarining kichik qismi hisoblanadi. To'g'ri, sun'iy intellekt texnologiyalari odamlar bajaradigan vazifalarni avtomatlashtirish orqali samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

Biroq endilikda uning qamrovi kengaymoqda, hozirda sun'iy intellekt bilan odamlarning xarakterini, o'quvchilarning qobiliyatlarini, xodimning ishga bo'lgan qarashlarini aniqlab olish mumkin.

Sun'iy intellektning keng qo'llanilishiga uchta sabab

Hozirda sun'iy intellektning sohalarga joriy etilishi uchun turli sabablar keltirilmoqda, ulardan uchta eng asosiysini keltirib o'tamiz. Birinchisi, arzon narxlardagi yuqori samarali hisoblash resurslari. Ikkinchisi, ta'lim uchun katta hajmdagi ma'lumotlarning mavjudligi. Sun'iy intellekt mahsulining aniq prognozlarni amalga oshirishi uchun u katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlashi kerak. Ushbu omil sabab turli vositalar, xususan, ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlashning oddiy hamda arzon vositalari, turli xil algoritmlar yaratildi.

Uchinchisi, sun'iy intellekt mahsulotlari raqobatbardoshlikni mustahkamlaydi. U kompaniyalar xarajatlarini va xavflarni kamaytirishi, bozorga chiqish imkoniyatini kengaytirishi hamda boshqa foydali omillar uchun ko'plab vositalarni taklif qila oladi. Natijada sun'iy intellekt joriy etilgan kompaniyalar raqobatga anchayin chidamli bo'ladi.

Ammo barcha sohalarda bo'lgani kabi ushbu turdagi innovatsiyalarni joriy etishda ham qator qiyinchiliklar mavjud. Xususan, malakali kadrlarning etishmasligi hamda uni joriy etish uchun ma'lumotlarning kamligi. Sababi ma'lumotlar qanchalik ko'p bo'lsa, sun'iy intellekt bashoratlari-ni aniqligi shunchalik yuqori bo'ladi.

Sun'iy intellekt texnologiyalari rivojlanish bosqichida

Sun'iy intellekt infratuzilmani monitoring qilish, katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash, texnik hamda tibbiy diagnostika tizimlari, shaxsiy ta'lim trayektoriyalarini yaratish, xulq-atvor tahlillari qilishga imkon beradi. Sun'iy intellekt bu changyutgichlardan kosmik statsiyalarga qadar bo'lgan yechimlarning butun spektridir.

Joriy yilda "Gartner" analitik kompaniyasi sun'iy intellekt texnologiyalari hali ham rivojlanish bosqichida ekani va to'liq rivojlangan bozor hali uzoq shakllanishi haqidagi tadqiqotni chop etdi.

Kompaniya mutaxassislarining fikriga ko'ra, ko'plab korxona va tashkilotlar sun'iy intellektning sohaviy muammolarni hal qilishda ko'mak berishini xohlashadi. Ushbu kompaniyalar sun'iy intellekt vositalarini kengaytirib, xavflarni oldindan bilish va barcha jarayonlarni prognozlarga asoslangan holda boshqarishni istaydi.

Endilikda tadqiqotchilar oldida yanada murakkab vazifalar turibdi. Xususan, internet taraqqiyoti, texnologik muammolarni bartaraf etish, raqamli iqtisodiyot uchun yangi vositalar yaratish lozim. Shuningdek, o'zbekistonlik tadqiqotchilarning eng asosiy vazifalaridan biri esa sun'iy intellektning ilm-fanga joriy etilishida yaqindan ko'mak berishidir.

Xulosa

Hozirgi kunda sun'iy intellekt hayotimizning turli jabhalariga tez sur'atlar bilan kirib kelmoqda. Xulosa sifatida shuni aytish mumkin: bu texnologiyadan samarali foydalanish bilan birga, undan ehtiyotkorlik bilan foydalanish ham muhimdir. Sun'iy intellekt inson hayotini ijobiy tomonga o'zgartirish salohiyatiga ega, biroq bu faqat undan oqilona foydalanilgandagina amalga oshadi.

Sun'iy intellektdan foydalanganda unga to'g'ri va aniq ko'rsatmalar berish lozim. Ayniqsa, bolalar undan foydalanayotgan bo'lsa, bu jarayon ota-onalar tomonidan ham nazorat qilinishi zarur. Ya'ni, nafaqat farzandingiz, balki uning ishlatayotgan sun'iy intellekt vositalari ustidan ham doimiy e'tibor bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lex.uz "O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi"
2. Yo'ldashev, A. (2022). Ta'limda suniy intellektning imkoniyatlari. Academic research in educational sciences, 3(11), 726-729.
3. Alijon, M., Rahmonjon, A., & Asilova, S. (2023). Ta'lim jarayonida ish stressi bilan bog'liq muammolarga psixologik yechim. qo'qon universiteti xabarnomasi, 854-860.
4. Xoliqovich, M. A., & Faxriddin, H. (2023). Turli din vakillari o'rntasidagi munosabatlarning psixologik tamoyillari. qo'qon universiteti xabarnomasi, 745-748.

Djurakulova Dilfuza Farxodovna¹, Muxtorov Alijon Xoliq o'g'li²

²Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Samarqand filiali

Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi

¹Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali

²Pedagogika va psixologiya kafedrası magistrant

Elektron pochta manzili: alimuxtorov03@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17638419>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'qituvchilarda emotsional zo'riqishning psixologik mohiyati, uning sabablari, oqibatlari va hissiy o'zini boshqarish strategiyalarining nazariy asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotda stress va emotsional charchash holatlari o'qituvchilarning kasbiy samaradorligiga qanday ta'sir ko'rsatishi ilmiy manbalar asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: emotsional zo'riqish, hissiy o'zini boshqarish, stress, pedagogik faoliyat, psixologik barqarorlik.

EMOTIONAL STRAIN AND EMOTIONAL SELF-REGULATION STRATEGIES IN TEACHERS

Djurakulova Dilfuza Farxodovna¹, Muxtorov Alijon Xoliq O'g'li²

¹Lecturer, Department of Pedagogy and Psychology, Samarkand Branch of Kimyo International University In Tashkent, PhD in Psychology, Associate Professor

²Master's Student, Department of Pedagogy and Psychology, Samarkand Branch of Kimyo International University In Tashkent

Email: alimuxtorov03@gmail.com

Abstract. This article analyzes the psychological nature of emotional strain in teachers, its causes, consequences, and the theoretical foundations of emotional self-regulation strategies. The study examines how stress and emotional fatigue affect teachers' professional efficiency, based on scientific sources.

Keywords: emotional strain, emotional self-regulation, stress, pedagogical activity, psychological resilience.

ЭМОЦИОНАЛЬНОЕ НАПРЯЖЕНИЕ И СТРАТЕГИИ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ САМОРЕГУЛЯЦИИ У ПЕДАГОГОВ

Джуракулова Дилфуза Фарходовна¹, Мухторов Алиджон Холик оглы²

¹Преподаватель кафедры педагогики и психологии, Самаркандский филиал Ташкентского международного университета Кимё, доктор философии по психологии (PhD), доцент ²Магистрант кафедры педагогики и психологии, Самаркандский филиал Ташкентского международного университета Кимё

Email: alimuxtorov03@gmail.com

Аннотация. В статье анализируется психологическая сущность эмоционального напряжения у педагогов, его причины, последствия и теоретические основы стратегий эмоциональ-

ной саморегуляции. В исследовании освещено, как стресс и эмоциональное утомление влияют на профессиональную эффективность преподавателей на основе научных источников.

Ключевые слова: эмоциональное напряжение, эмоциональная саморегуляция, стресс, педагогическая деятельность, психологическая устойчивость.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchining hissiy barqarorligi va emotsional holati uning kasbiy muvaffaqiyati uchun muhim omillardan biridir. O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchi shaxsiga psixologik ta'sir ko'rsatuvchi yetakchi sifatida ham faoliyat yuritadi. Shu sababli o'qituvchining hissiy holati, stressga chidamliligi va o'z hissiyotlarini boshqara olish qobiliyati ta'lim samaradorligining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

Hissiy o'zini boshqarish. Hissiyotlar bizning kundalik hayotimizning ajralmas qismidir. Ular insonning ichki his-tuyg'ularini, ruhiy holatini va muayyan shaxs yoki voqeaga nisbatan yuzaga keladigan xatti-harakatlarini o'z ichiga oladi.

O'qituvchilik esa hissiyotlarimizga turlicha talablar qo'yadi. Bizdan hatto stressli vaziyatlarda ham xotirjam va o'zini tuta bilish talab etiladi. Bunga erishish esa hissiyotlarimizni boshqarish, ya'ni ularni har bir vaziyatda eng maqbul darajada muvozanatga keltirish orqali amalga oshiriladi.

Masalan, darsda yangi faoliyat turini sinab ko'rishga bo'lgan hayajonimiz juda kuchli bo'lsa, biz o'quvchilarga ortiqcha ma'lumot berib, ularni chalg'itib qo'yishimiz mumkin (**bunday holatda hissiyotlarni pasaytirish – ya'ni “down-regulate” qilish – zarur**). Aksincha, bu faoliyatga nisbatan befarqlik yoki qiziqmaslik ko'rsatish esa o'quvchilarning ham qiziqishini so'ndiradi va ularni darsga faol qatnashishga istaksiz qiladi (**bunday holatda hissiyotlarni oshirish – ya'ni “up-regulate” qilish – kerak bo'ladi**).

Psixolog Barbara Fredriksonning fikricha, haddan tashqari ko'p ijobiy his-tuyg'ular va juda kam salbiy hissiyotlar insonni yangi muammolar qarshisida moslasha olmaydigan holatga keltiradi. Shuning uchun **hissiy o'zini boshqarishning mohiyati – bu hissiyotlarimizni muvozanatda ushlab, ularni to'g'ri darajada boshqarishdir**.

1. Emotsional zo'riqishning mohiyati va nazariy asoslari

Emotsional zo'riqish (stress) – bu shaxsning ichki psixik muvozanatini buzadigan kuchli hissiy zo'riqish holati bo'lib, u tashqi bosimlar, kasbiy yuklama yoki ijtimoiy omillar ta'sirida yuzaga keladi. Hans Selye (1936) tomonidan ilgari surilgan “stress nazariyasi”ga ko'ra, inson organizmi har qanday tashqi talabga javoban fiziologik va psixologik reaksiyalarni ishga soladi. Agar bu talab uzoq davom etsa, emotsional charchash (burnout) holati paydo bo'ladi.

O'qituvchilik kasbi inson bilan doimiy muloqotni talab qilgani sababli, stress manbalari ko'p uchraydi. Masalan, haddan tashqari dars yuklamasi, o'quvchilarning intizomsizligi, ota-onalar bilan nizolar, hamkasblar o'rtasidagi raqobat, ma'muriyatning bosimi – bularning barchasi emotsional zo'riqishni kuchaytiradi.

2. O'qituvchilarda emotsional zo'riqish sabablari va oqibatlar

O'qituvchilarda emotsional zo'riqishning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- ortiqcha kasbiy mas'uliyat va vaqt bosimi;
- ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi;
- mehnatga past baho berilishi;
- professional o'sish imkoniyatlarining cheklanganligi.

Tadqiqotlar (Maslach & Jackson, 1981) shuni ko'rsatadiki, uzoq davom etuvchi stress o'qituvchilarda “emotsional charchash”, “shaxsiy yutuqlarning kamayishi” va “insoniyatsizlanish” (depersonalizatsiya) kabi sindromlarni keltirib chiqaradi. Natijada o'qituvchi o'z kasbiga nisbatan befarq, sovuqqon bo'lib qoladi va bu holat dars sifati hamda o'quvchilar bilan muloqotga salbiy ta'sir qiladi.

3. Hissiy o'zini boshqarish strategiyalari

Hissiy o'zini boshqarish – bu shaxsning o'z his-tuyg'ularini anglash, ularni tahlil qilish va maqsadga muvofiq tarzda ifodalash qobiliyatidir. J. Gross (1998) o'zining “emotsional regulatsiya

modeli”da bu jarayonni ikki bosqichga ajratadi: kognitiv baholash (reappraisal) va reaksiyani nazorat qilish (response modulation).

O'qituvchilar uchun eng samarali hissiy boshqaruv strategiyalariga quyidagilar kiradi:

Kognitiv qayta baholash stressli holatni ijobiy nuqtai nazardan talqin qilish;

O'z-o'zini monitoring o'z hissiyotlarini kuzatish va vaqtida boshqarish;

Stressni kamaytiruvchi mashg'ulotlar meditatsiya, nafas mashqlari, sport;

Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash hamkasblar, do'stlar va oilaviy yordam orqali hissiy barqarorlikni tiklash;

Kasbiy refleksiya o'z faoliyatini tahlil qilish va tajriba asosida rivojlanish.

4. Emotsional zo'riqishni oldini olishda o'qituvchining roli

Emotsional zo'riqishning oldini olishda o'qituvchining o'zi faol ishtirok etishi muhim. Shaxsiy vaqtni to'g'ri taqsimlash, dam olish madaniyatini shakllantirish, ijobiy fikrlash va kasbiy motivatsiyani saqlash – bu jarayonning asosiy omillaridir. Shu bilan birga, ta'lim muassasalarida psixologik xizmatlar tizimini rivojlantirish o'qituvchilarning ruhiy salomatligini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchilarda emotsional zo'riqish – bu zamonaviy pedagogik faoliyatning ajralmas muammolaridan biridir. Uni kamaytirish uchun hissiy o'zini boshqarish strategiyalarini shakllantirish, psixologik madaniyatni rivojlantirish va sog'lom muloqot muhitini yaratish zarur. Faqat shunda o'qituvchi o'z kasbiy faoliyatida yuqori samaradorlikka va ruhiy barqarorlikka erisha oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Selye, H. (1936). *The Stress of Life*. New York: McGraw-Hill.
2. Maslach, C., & Jackson, S. E. (1981). The Measurement of Experienced Burnout. *Journal of Occupational Behavior*.
3. Gross, J. J. (1998). The Emerging Field of Emotion Regulation. *Review of General Psychology*.
4. Kimura, M. (2010). Emotional Regulation in Teaching: Strategies and Outcomes. *Teaching and Teacher Education*.
5. Fredrickson, B. (2004). The Broaden-and-Build Theory of Positive Emotions. *American Psychologist*.

PSIXOLOGIK–PEDAGOGIK TADQIQOTLARDA RAQAMLI VOSITALARDAN FOYDALANISH O'RNI

Solixo'jayeva Dildora Abduraimovna¹, Yunusova Mohira²,

¹ O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti,

Pedagogika va ta'lim kafedrası o'qituvchisi, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

²Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17638462>

Annotatsiya. Ushbu maqolada psixologik-pedagogik tadqiqotlarda raqamli vositalardan foydalanish metodikasi yoritilgan. Raqamli texnologiyalar yordamida ilmiy tadqiqotlarning samaradorligini oshirish, ma'lumotlarni tezkor to'plash va tahlil qilish, shuningdek natijalarni vizual tarzda taqdim etish usullari tahlil qilingan. Tadqiqotda Google Forms, SPSS, Excel, JASP, R, Power BI kabi vositalarning imkoniyatlari ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, raqamli vositalarni tanlash, ular-dan foydalanish bosqichlari, etik tamoyillar va tadqiqot jarayonida uchraydigan cheklovlar haqida metodik tavsiyalar berilgan. Maqola tadqiqotchilar va pedagoglar uchun raqamli muhitda ilmiy faoliyat olib borish bo'yicha amaliy yo'nalish beradi.

Kalit so'zlar: psixologik tadqiqot, pedagogik tadqiqot, raqamli texnologiyalar, metodika, SPSS, onlayn test, ma'lumot tahlili, vizualizatsiya.

THE ROLE OF DIGITAL TOOLS IN PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL RESEARCH

Solixo'jayeva Dildora Abduraimovna¹, Yunusova Mohira²

¹Lecturer, Department of Pedagogy and Education, Faculty of Social Sciences, National University of Uzbekistan, PhD in Pedagogical Sciences

²Master's Student, Samarkand Branch of Kimyo International University In Tashkent

Abstract. This article highlights the methodology of using digital tools in psychological and pedagogical research. It analyzes methods to increase the efficiency of scientific research using digital technologies, including rapid data collection and analysis, as well as visual presentation of results. The study demonstrates the capabilities of tools such as Google Forms, SPSS, Excel, JASP, R, and Power BI. Methodological recommendations are also provided regarding the selection of digital tools, stages of their use, ethical principles, and limitations encountered during the research process. The article offers practical guidance for researchers and educators conducting scientific activities in a digital environment.

Keywords. psychological research, pedagogical research, digital technologies, methodology, SPSS, online test, data analysis, visualization.

РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ

Солиходжаева Дильдора Абдураимовна¹, Юнусова Мохира²

¹Преподаватель кафедры педагогики и образования, факультет социальных наук, Национальный университет Узбекистана, доктор философии по педагогическим наукам (PhD) ²Магистрант, Самаркандский филиал Ташкентского международного университета Кимё

Аннотация. В статье раскрыта методика использования цифровых инструментов в психолого-педагогических исследованиях. Проанализированы методы повышения эффективности научных исследований с помощью цифровых технологий, включая оперативный сбор и анализ данных, а также визуальное представление результатов. Рассмотрены возможности таких инструментов, как Google Forms, SPSS, Excel, JASP, R и Power BI. Также приведены методические рекомендации по выбору цифровых инструментов, этапам их использования, этическим принципам и ограничениям, возникающим в процессе исследования. Статья предоставляет практическое руководство для исследователей и педагогов по ведению научной деятельности в цифровой среде.

Ключевые слова: психологическое исследование, педагогическое исследование, цифровые технологии, методика, SPSS, онлайн-тест, анализ данных, визуализация.

Kirish

Zamonaviy ta'lim va psixologik-pedagogik tadqiqotlarda raqamli texnologiyalar muhim o'rin egallamoqda. Ma'lumot to'plash, qayta ishlash, tahlil qilish va natijalarni vizual tarzda taqdim etish jarayonlari raqamli vositalar yordamida sezilarli darajada soddalashmoqda. Shu boisdan, tadqiqotchilar uchun raqamli vositalarni metodik jihatdan to'g'ri tanlash, qo'llash va baholash ko'nikmalari alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada psixologik-pedagogik tadqiqotlarda raqamli vositalardan foydalanish metodikasi bosqichma-bosqich ko'rib chiqiladi: vositalarning o'rni, foydalanish bosqichlari, metodik tavsiyalar hamda afzalliklari va cheklovlari.

Raqamli vositalarning tadqiqot jarayonidagi o'rni

Psixologik-pedagogik tadqiqotlar odatda ma'lumot yig'ish, tahlil qilish va natijalarni taqdim etish bosqichlarini o'z ichiga oladi. Raqamli vositalar – onlayn so'rovnomalari, test platformalari,

ma'lumotlarni saqlash va tahlil qilish dasturlari – bu bosqichlarni samaraliroq qilishga xizmat qiladi. Masalan, raqamli test platformalari diagnostik ma'lumotlarni tez va ishonchli tarzda olish imkonini beradi. Shuningdek, raqamli o'qitish va o'rganish muhitlari tadqiqotchilarga o'zgaruvchan kontekstlarda ma'lumot yig'ish imkonini ochmoqda.

Tadqiqotlarda raqamli vositalarning qo'llanilishi shunday jihatlarni yaxshilaydi:

- Internet-platformalar yordamida kengroq ishtirokchi auditoriyani jalb qilish;
- Ma'lumotlarni avtomatik yig'ish va dastlabki tahlil qilish imkoniyati;
- Grafikalar, interaktiv vizualizatsiyalar bilan natijalarni taqdim etish imkoniyati;
- Bulutli saqlash orqali ma'lumotlarni xavfsiz saqlash va doimiy yangilab borish.

Masalan, Ukraina va boshqa mamlakatlarda o'qituvchilar va psixologlar tomonidan raqamli vositalar (Zoom, Moodle, Google Forms va h.k.) muntazam ravishda foydalanilishi tadqiq qilingan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, bu vositalar samarali deb baholanmoqda.

Shu bilan birga, raqamli vositalar tadqiqot jarayonini transformatsiyalash bilan birga yangi metodologik imkoniyatlar – masalan, log-ma'lumotlarni tahlil qilish, onlayn interaktiv muhitlarda sinovlar o'tkazish – yaratmoqda.

Raqamli vositalardan foydalanish bosqichlari

Quyida psixologik-pedagogik tadqiqotlarda raqamli vositalardan foydalanishning metodik bosqichlari ko'rib chiqiladi.

Maqsad va vositani tanlash: Tadqiqot boshlanishida tadqiqotning maqsadi, gipotezasi va o'lchov ko'rsatkichlari aniq belgilanishi lozim. Shu asosda qaysi raqamli vositalar foydali bo'lishi aniqlanadi – masalan, onlayn anketalar, mobil ilovalar, test platformalari, ma'lumot tahlili dasturlari. Vositaning tanlanishida uning tadqiqotning mavzu va auditoriyasiga mosligi, ma'lumot to'plash tezligi, ishtirokchilar qulayligi va xavfsizlik jihatlari inobatga olinadi.

Ma'lumotlarni raqamli shaklda yig'ish: Bu bosqichda so'rovnomalalar, testlar, kuzatuvlar yoki log ma'lumotlari raqamli vositalar orqali to'planadi. Masalan, onlayn so'rovnomalalar (Google Forms, SurveyMonkey) yoki ta'lim-psixologik diagnostika platformalari. Raqamli vositalar inson omilidan kelgan xatolarni kamaytiradi, ma'lumotlarni tez yig'ishni ta'minlaydi.

Ma'lumotlarni tahlil qilish: Raqamli vositalardan yig'ilgan ma'lumotlar statistik dasturlar yordamida tahlil qilinadi – masalan, SPSS, JASP, R, Python bilan. Bu bosqichda validlik, ishonchlilik tekshiriladi, dispersiya, korrelyatsiya, regressiya, farq tahlillari (t-test, U-test, ANOVA) o'tkaziladi. Raqamli vositalar log ma'lumotlarini ham saqlashi mumkin, bu esa tadqiqotchiga real-vaqtlilik interaktiv ma'lumotlarni tahlil qilish imkonini beradi.

Natijalarni vizual tarzda taqdim etish: Tahlillarning natijalari diagramma, grafik, infografika shaklida taqdim etilishi muhim. Raqamli vositalar orqali yaratilgan vizual materiallar tadqiqot xulosalarini tushunarli va interaktiv qiladi. Masalan, onlayn testlarning natijalarini vaqt bo'yicha grafikda ko'rsatish yoki log ma'lumotlarni heatmap shaklida vizualizatsiya qilish mumkin.

Ma'lumotlarni saqlash, almashish va arxivlash Raqamli vositalar bilan olingan ma'lumotlar bulutli saqlash tizimlarida (Google Drive, OneDrive) xavfsiz saqlanishi va hamkasblar bilan almashilishi mumkin. Shuningdek, anonimlik va etik tamoyillarga rioya qilish muhim: respondentlarning shaxsiy ma'lumotlari himoyalangan bo'lishi lozim.

Metodik tavsiyalar va e'tibor talab qiladigan jihatlari

Raqamli vositalardan foydalanishda quyidagi tavsiyalarni inobatga olish tadqiqot sifatini oshiradi:

- **Anonimlik va etik tamoyillar:** Onlayn so'rovnomalarda respondentlar anonimligini ta'minlash, shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash lozim.
- **Ma'lumotlar tozaligi va verifikatsiyasi:** Raqamli yig'ilgan ma'lumotlar tahlil qilinishdan avval xatolar uchun tekshirilishi, "bo'sh" yoki yaroqsiz javoblar chiqarib tashlanishi zarur.
- **Vositaning mosligi:** Raqamli vositaning texnik jihatlari va tadqiqot maqsadiga mosligi tekshirilishi kerak – masalan, mobil qurilmada ishlashi, Internet yo'li bilan foydalanish imkoniyati, texnik qo'llab-quvvatlash.

- **Kichik o'ylab ishlash:** Raqamli vositalar juda ko'p ma'lumot bera oladi, lekin bu har doim sifatli ma'lumot degani emas. Tadqiqotchilar log ma'lumotlarning mazmunini tushunishi va talablarga mos ravishda tahlil qilishi zarur.
- **Profesional malaka va tayyorgarlik:** Tadqiqotchilarning raqamli vositalarni to'liq tushunishi – test platformalarini sozlash, log ma'lumotlarni tahlil qilish, vizualizatsiya qilish – muhim. Masalan, tayyorgarlik yetishmasligi vositalarning samaradorligini kamaytirishi mumkin.
- **Cheklavlarniani tushunish:** Raqamli vositalar mukammal emas. Masalan, ayrim joylarda Internet aloqasi yomon bo'lishi, kurumlarning texnik infratuzilmasi zaif bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, onlayn ish jarayonida yuzaga keladigan “raqamli charchash” (digital fatigue) muammosi ham inobatga olinishi lozim.

Afzalliklari va cheklavlari

Afzalliklari

- Vaqt va resurslar tejaydi: ma'lumotlarni qo'l bilan kiritish, qayta ishlash jarayonlari qisqaradi.
- Ma'lumotlar aniqligi oshadi: avtomatik yig'ish xatolarning kamayishiga yordam beradi.
- Statistik va vizual tahlil qulayligi: loglar, interaktiv grafiklar va onlayn tahlil imkoniyatlari mavjud.
- Geniş auditoriyaga erishish: onlayn vositalar orqali geografik jihatdan uzoq joylardagi respondentlar jalb qilinishi mumkin.
- Ilmiy natijalarni tezroq taqdim etish: onlayn testlar, log ma'lumotlar, tez tahlil imkoniyati tadqiqot tezligini oshiradi.

Cheklavlari

- Texnik va infratuzilma muammolari: Internet aloqasi, qurilma yetishmasligi yoki dastur xatolari natijaga ta'sir qilishi mumkin.
- Raqamli tengsizlik: Har bir ishtirokchi raqamli vositalardan foydalanishga imkoniyatga ega emasligi mumkin – bu tadqiqot ishtirokchi tanloviga cheklov kiritadi.
- Ma'lumot himoyasi va maxfiylik: Onlayn ma'lumot yig'ishda shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi, rozilik va etik cheklavlari muhim.
- “Raqamli charchash” va ijtimoiy o'zaro ta'sirning kamayishi: Onlayn muhitda o'quvchi yoki ishtirokchi charchashi va yuzma-yuz muloqotning cheklanishi ehtimoli mavjud.
- Vosita tanlash va malaka yetishmasligi: Tadqiqotchilarning raqamli vositalarni qo'llashdagi tajribasi cheklangan bo'lsa, vositalarning barcha imkoniyatlari yetarlicha ishlatilmaydi.

Xulosa. Raqamli vositalardan foydalanish psixologik-pedagogik tadqiqotlarda yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Ma'lumot yig'ishdan tahlil qilishgacha bo'lgan jarayonlar yanada tezlashmoqda, kengroq auditoriya bilan ishlash imkoniyati paydo bo'lmoqda, natijalarni vizual va interaktiv shaklda taqdim etish imkoniyati mavjud. Biroq, bu imkoniyatlar bilan birga metodik jihatdan ehtiyotkorlik kerak: vositaharamatli tanlanishi, tadqiqotchilarning malakasi, ma'lumot xavfsizligi va tekshirilishi, cheklavlarning inobatga olinishi muhim. Tadqiqotchi shu metodik jarayonni to'liq amalga oshirsa, raqamli vositalardan foydalanish orqali tadqiqot sifatini va samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Andreeva, G. M. (2023). Raqamli psixologiya: ilmiy tadqiqotlarda zamonaviy yondashuvlar. Moskva: Yurayt nashriyoti.
2. Ashurova, G. R., & Aliyeva, M. U. (2024). Pedagogik tadqiqotlarda raqamli texnologiyalar integratsiyasi. Qo'qon: Qo'qon universiteti nashriyoti.
3. Clark, S. (2024). The evolving role of technology in educational psychology. Spencer Clarke Group. <https://www.spencerclarkgroup.co.uk>

4. Ivanova, N. (2022). Digital transformation in educational and psychological research: Opportunities and challenges. *European Journal of Education and Psychology*, 15(4), 217–230.
5. Jumaeva, N. A. (2023). *Psixologik tadqiqotlarda SPSS dasturidan foydalanish asoslari*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR MUHITIDA OILA VA BOLA TARBIYASI

Yuldosheva Saodat Azizovna¹, Baxtiyorova Munavvar Baxtiyorovna²

¹Samarqand davlat pedagogika instituti, O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti

²Oriental universiteti Samarqand kampusi, Uzluksiz ta'lim pedagogikasi kafedrasida o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17638491>

Annotatsiya. Maqolada raqamli texnologiya va ularning insonlar hayotida tutgan o'rnini, bolalarning rivojlanishiga ta'siri, raqamli texnologiyalarning ijobiy va salbiy tomonlari, oilalarda raqamli madaniyat tushunchasini rivojlantirish ko'nikmasi, bolalarda raqamli savodxonlik malakasini rivojlantirish kabi bir qator masalalar yuzasidan fikr-mulohazalar bildirilgan. Nazariy va amaliy ko'rsatkichlar asosida yakuniy xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, raqamlashtirish, innovatsion texnologiyalar, ta'lim tizimi, raqamli transformatsiya, ta'limda samaradorlik.

FAMILY AND CHILD EDUCATION IN THE ENVIRONMENT OF DIGITAL TECHNOLOGIES

Yuldosheva Saodat Azizovna¹, Baxtiyorova Munavvar Baxtiyorovna²

¹Associate Professor, Department of Uzbek Language and Literature, Samarkand State

Pedagogical Institute ²Lecturer, Department of Pedagogy of Continuous Education, Oriental University, Samarkand Campus

Abstract. The article discusses the role of digital technologies in human life, their impact on child development, the positive and negative aspects of digital technologies, the development of digital culture skills within families, and the improvement of digital literacy among children. Conclusions are drawn based on both theoretical and practical indicators.

Keywords: digital technologies, digitalization, innovative technologies, education system, digital transformation, educational effectiveness.

СЕМЬЯ И ВОСПИТАНИЕ ДЕТЕЙ В СРЕДЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Юлдошева Саодат Азизовна¹, Бахтиярова Мунаввар Бахтияровна²

¹Доцент кафедры узбекского языка и литературы,

Самаркандский государственный педагогический институт

²Преподаватель кафедры педагогики непрерывного образования,

Ориентальный университет, Самаркандский кампус

Аннотация. В статье рассматривается роль цифровых технологий в жизни человека, их влияние на развитие детей, положительные и отрицательные стороны цифровых технологий, развитие навыков цифровой культуры в семьях и формирование цифровой грамотности у детей. Сделаны выводы на основе теоретических и практических показателей.

Ключевые слова: цифровые технологии, цифровизация, инновационные технологии, система образования, цифровая трансформация, эффективность в образовании.

Kirish

Bugungi kunda mamlakatimizda inson shaxsining rivojlanishi borasida ulkan islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, raqamli texnologiyalarning ta'lim tizimiga joriy etilishi davrimizning dolzarb masalalaridan biriga aylanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida ta'limda raqamlashtirish siyosati yanada jadallashdi. Bu jarayon, shubhasiz, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy hayot bilan bir qatorda, oilaning ichki muhitiga va bola tarbiyasiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, mamlakatimiz kelajagi va ravnaqida muhim o'rin tutadigan oila va bolalar tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha xohish-irodasini ro'yobga chiqarish; har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarini yaratish; sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash; global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish; adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlash rivojlanayotgan yurtimizning asosiy strategiyalaridan biridir. Bu strategiyalar doirasida O'zbekistonda raqamli infratuzilma kengaymoqda. Raqamli texnologiyalar oilaviy hayot va bolalar tarbiyasiga chuqur kirib kelmoqda. Raqamli vositalar yordamida ota-onalar bolalar bilan o'zaro muloqotni mustahkamlash, ta'limiy resurslarga erkin kirish, bola rivojlanishini nazorat qilish imkoniga ega bo'lishmoqda. Shu bilan birga, raqamli muhit noto'g'ri foydalanilganda, bolalarda ijtimoiy izolyatsiya, intellektual passivlik va ruhiy muammolarni ham yuzaga keltirishi mumkin.

Raqamli vositalar – internet, mobil ilovalar, planshet va smartfonlar – bolalar tarbiyasining mazmuni va shakliga yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Oilada ushbu vositalarning noto'g'ri yoki nazoratsiz qo'llanilishi bolaning ijtimoiy-psixologik rivojlanishida bir qator muammolarga sabab bo'lmoqda (Abduganiyeva, 2024). Jumladan, oilaviy muloqotning kamayishi, bolalarda raqamli qaramlik, hissiy sovuqqonlik va tajovuzkorlik holatlarining ortishi kuzatilmoqda.

Ayni vaqtda O'zbekistonda ko'plab 3 yoshgacha, maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar turli raqamli qurilmalardan foydalanmoqda, ammo ota-onalarning aksariyati bu vositalarning pedagogik va psixologik ta'siri haqida yetarli bilimga ega emas (Yulchiyeva, 2023). Shu sababli, oilada raqamli muhitda tarbiyaning zamonaviy yondashuvlarini o'rganish, imkoniyat va tahdidlarni aniqlash hamda innovatsion yechimlarni ishlab chiqish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Ushbu kichik tadqiqotimizning maqsadi – raqamli texnologiyaning oilaviy tarbiya jarayoniga ta'sirini tahlil qilish, yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga xizmat qiladigan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Shuningdek, maqolada raqamli muhitda oila va bola tarbiyasining ijobiy va salbiy jihatlari, shuningdek, samarali strategiyalar tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

2023-2025-yillarda O'zbekistonda chop etilgan oila va bolalar tarbiyasi, raqamli texnologiyalar sohasidagi ilmiy maqolalar atroflicha o'rganib chiqildi. Jumladan, Adashova (2025) oilaviy muhit va bolalar xulq-atvori munosabatlarini o'rgangan tadqiqoti, Axmedova (2024) oilaning psixologik iqlimi va farzandlar tarbiyasi o'rni, ilmiy markazlarda chop etilgan maqolalardagi oila ichidagi ma'naviy-axloqiy tarbiya muammolari, shuningdek, O'zbekistonda raqamli texnologiyalarning afzalliklari va cheklovlari (Safar Mustafoqulov, 2025), ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning roli va raqamli savodxonlik (Aliyeva va Rasulova, 2025), oliy ta'lim va maktab darajasida raqamli texnologiyalarning joriy etish usullari (Dushabayev, 2024) kabi ilmiy izlanishlar o'rganib chiqildi va tahlil doirasiga tortildi.

Manbalarga tayangan holda "SWOT tahlil" metodi asosida ta'lim tizimida raqamlashtirishning kuchli va zaif tomonlari, mavjud imkoniyatlar hamda tahdidlar aniqlandi.

SWOT tahlil

<i>KUCHLI TOMON</i>	<i>ZAIF TOMON</i>
1) raqamli texnologiya orqali ta'lim resurslaridan keng foydalanish (onlayn darslar, ilovalar, til o'rganish imkoniyatlari); 2) bola uchun qiziq va interaktiv o'yin muhitini yaratish, IT va roboto-texnikasini rivojlantirish (Screch, Khan akademiyasi); 3) raqamli vositalar yordamida bolalarning mustaqil o'rganish qobiliyatini yoshlikdan rag'batlantirish (duolingo, mathgame); 4) kelajak kasblari doirasida har bir shaxs imkoniyatlarini tahlil qila bilishi, o'z ustida ishlashi va masofadan turib o'qishi, kunning istalgan qismidan unumli foydalanish, vaqt tejamkorligi (Ibrat academy, qizlar akademiyasi, Ustoz AI); 5) uydan chiqmagan holda ishlash, o'qish, ijod qilish, pul topish, sayohatga chiqish imkoniyati mavjud; 6) uzoqdagi yaqinlar bilan masofaning onlayn yaqinligi (chatlar, video-qo'ng'iroqlar)ni ta'minlash.	1) ota-onalarning aksariyat qismining raqamli texnologiyalardan foydalanish-da yetarlicha bilim va ko'nikmalarning yetishmasligi; 2) ota-ona va bola o'rtasida jonli muloqotning kamayishi hamda bolalarda odamovilik, odamlardan uzoqlashish holati kuzatilishi, kirishimlilik va amaliy tajribalarning susayishi; 3) oflayn (tabiiy) muloqotning kamayishi, nutqda nuqsonlarning paydo bo'lishi; 4) ekran oldida keragidan ko'p bo'lish oqibatida jismoniy salomatlikka jiddiy zarar yetishi, ko'z, asab va harakat faoliyatiga salbiy ta'siri, nurlanish ehtimolining ortishi; 5) raqamli vositalarda zo'ravonlik, buzg'unchi kontentlarga, salbiy g'oyalarga duch kelish xavfi.
<i>IMKONIYAT</i>	<i>TAHDID</i>
1) ota-onalar va pedagoglar uchun maxsus raqamli ta'lim-tarbiya platformalari yaratish imkoniyati; 2) raqamli savodxonlik bo'yicha oilaviy seminar-treninglar tashkil etish, ushbu texnologiyalardan to'g'ri, unumli va samarali foydalanish madaniyatini shakllantirish; 3) raqamli texnologiyalardan foydalanish reglamenti va unumli foydalanish texnikasini ishlab chiqish, bolalarning yoshiga mos reglament qoidalarini yaratish; 4) bolalarning yoshiga mos interaktiv ilovalar ishlab chiqish; 5) bolalarni milliy qadriyatlarga chorlaydigan, ularning ongi va ruhiyatiga ijobiy ta'sir qiladigan milliy kontentlarni ko'paytirish; 6) kontentlarni nazorat qiladigan platformalarni ishlab chiqish.	1) Barcha yoshdagi insonlarda raqamli texnologiyalarga qaramlikning rivojlanish xavfi ortishi; 2) internetdagi nomaqbul kontent bolalarga salbiy axloqiy ta'sir ko'rsatishi; 3) raqamli vositalar ta'sirida oilaviy va ijtimoiy muhitning salbiy tomonga o'zgarishi xavfi; 4) bolani qarovsiz qoldirish oqibatida o'zini nazorat qila olmasligi, ba'zi hollarda bolaning imkoniyatlarini cheklash xavfi; 5) bolalarda raqamli texnologiyalardan foydalanishni kuchli istagi oqibatida salbiy odatlarning shakllanishi (o'jarlik yolg'onchilik, o'g'irlik); 6) raqamli texnologiyalar vositasida olinadigan axborotlarning cheksizligi va ularni maqsadsiz (ba'zida maqsaddan og'ishgan) holda ko'zdan kechirganda tahlil, analiz qila bilmay, vaqtini behuda va samarasiz o'tkazish.

“SWOT tahlil” orqali “kuchli” tarafda davlat tomonidan raqamli islohotlarga e'tibor va yoshlarning texnologiyaga qiziqishi, “zaif” tarafda esa ayrim hududlarda internet infratuzilmasining sustligi keltirib o'tildi.

Izlanish davomida Google Formsda 100 nafardan ortiq respondent orasida so'rovnoma o'tkazildi. Maqsad – ota-onalar farzandlarining internetdan foydalanish odatlari va nazorati haqida fikrlarini aniqlash bo'lib, bu orqali raqamli texnologiyalarning bola va oila tarbiyasiga ko'rsatadigan ta'sirini o'rganish edi. So'rovnoma anonim bo'lib, ko'ngilli ishtirokchilarga 10ta savol (2tasi oddiy, 8tasi asosiy) berildi.


Ishtirokchilarning soni 113 nafarni tashkil etdi, shundan 20-30 yoshdagilar – 24,8%, 31-40 yoshlilar 58,4 %, 41-50 yoshlilar 15 % ni tashkil etdi.

Farzandingiz internetdan kuniga taxminan qancha vaqt foydalanadi degan savolga 30,4% ota-onalar 0-30 daqiqa, 20,5% esa 2 soatdan ko'p deb belgilashgan. Bundan ko'rinib turibdiki, oilalarimizda raqamli vositalardan foydalanish madaniyati izga tushmoqda. So'rovnomada qatnashgan ota-onalarning 36,3% farzandi internetda multfilm ko'rishini, 18,6% o'yin o'ynashini, 20,4% online darslar qilishini, 15,9% youtube, Instagram tomosha qilishini aytib o'tganlar. Bu ko'rsatkich bir

qarashda jiddiy ko'rinmasa-da, ammo bolalar internetda ta'lim va tarbiyasiga ta'sir qiluvchi nimalarni ko'rishi, kattalar nazorati ostida va ularning texnikalardan qanday foydalanayotgani mavhum bo'lib qolmoqda. Internetdagi kontentlarni nazorat qilasizmi, degan savolga 54,9% kishi "ha" deb, 33,6% "ba'zida", 8,8% "yo'q" deb javob bergan. Bundan ko'rinib turibdiki, ota-onalar raqamli texnologiyalarning ijobiy va salbiy tomonlari haqida ancha xavotirda va savodxonlik darajasi ham oshib bormoqda.

7. Internet vositalari farzandingiz ta'lim va tarbiyasida sizga yordam beryaptimi?


113 ответов



7-savolimizda ko'rib turganingizdek, 54,9% ota-onalar internet vositalari qisman farzandiga ta'lim-tarbiya berayotganini ko'rsatmoqda. Bu esa hali ham raqamli vositalardan foydalanishda qisman bilimlarning yetishmasligi, sifatli milliy kontentlarni ko'paytrish va raqamli texnologiyalardan foydalanish madaniyatini targ'ib qilishni anglatadi.

8. Farzandingiz internetdagi ma'lumotlardan salbiy ta'sir ko'rgan deb hisoblaysizmi?


113 ответов



Bu savolimizda esa katta xavf mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Bu kattalar tomonidan xavotir borligini ko'rsatmoqda. Bolalarning aqliy, jismoniy, ruhiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotligini anglatadi va bu xavfning oldini olish uchun aksariyat ota-onalarda yetarli savodxonlik yo'llari topilmayotganini bildiradi.

10. O'zbek tilida sifatli ta'limiy va tarbiyaviy ilovalar va videolar yetarli deb hisoblaysizmi?

112 ответов



So'rovnoma natijasiga ko'ra ota-onalarning 58% o'zbek tilida sifatli, yoshga mos ta'limiy ilovalar va videolar yetishmasligini aytib o'tishgan. Bu holat esa bolalarning internetda asosan

chet tilidagi yoki nazoratsiz kontentlarni ko'rishiga sabab bo'layotganini anglatadi. Bundan tashqari, ota-onalarda ham raqamli texnologiyalardan foydalanish madaniyati yetarlicha shakllanmaganini bildiradi. So'rovnoma va izlanishlar natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar oilaviy hayotda va, ayniqsa, bola rivojlanishida, ta'lim-tarbiyasida sezilarli o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Ota-onalarning aksariyat qismi internet va raqamli qurilmalar orqali bola uchun ta'limiy imkoniyatlar mavjudligini, undan unumli foydalanayotganini aytib o'tsalar-da, lekin shu imkoniyatlar bilan birga jiddiy tahdidlar, xavf va qaramlik ham borligini tan olishmoqda.

Bola kun davomida raqamli texnologiyalar qarshisida o'tkazayotgan vaqtining umuman nazoratsiz ekanligi ota-onalarning bugungi kundagi dolzarb muammosi sifatida ko'rsatildi. Bu esa tadqiqot natijalari Qurbonova (2023) tomonidan olib borilgan ishlar bilan mos tushishini, unda raqamli texnologiyalardan me'yorida ortiq ishlatilishi bolalarda ruhiy charchoq, giperaktivlik va uyqusizlikka olib kelishi ko'rsatilgan. So'rovnomada ishtirokchilarning 75% aynan shu holatni muammo deb bilgan.

O'zbek tilidagi sifatli ta'limiy ilova, bolalarga mos kontent va videodarslarning yetishmasligi ota-onalarni chet tilidagi kontentlardan foydalanishga majbur qilmoqda. Ayrim hollarda til o'gataish maqsad qilingan bo'lib chiqmoqda. Bu esa hali to'la shakllanmagan bolalar begona madaniyatning erta bosqichda singdirilishiga, til aralashuviga, qadriyatlar krizisiga sabab bo'lmoqda. Oqibatda bola o'z nutqini yo'qotishigacha olib kelmoqda. D.Yulchiyevanin fikricha, bu yosh avlod rivojlanishida raqamli globallashuvning eng sezilarli tahdidlaridan biri hisoblanadi.

Muhokama.

Tadqiqotimizda aniqlanishicha, ota-onalarning aksariyat qismi raqamli xavfsizlik haqida umumiy tasavvur va ma'lumotga ega bo'lsa-da, lekin amaliy chora ko'rmagan. Bu holat A.Dushabayev (2024) tomonidan o'rganilgan pedagogik yondashuvlar bilan deyarli hamohangdir. Ya'ni, oilalarda yetarlicha raqamli texnologiyalarga oid savodxonlik darajasi, raqamli vositalardan to'g'ri va unumli foydalanish darajasi past bo'lishi bolalarning bevosita xavf ostida qolishiga sabab bo'lmoqda. Shu sababli ota-onalarga maxsus treninglar, amaliy qo'llanmalar va bolalar uchun nazorat qilinadigan kontent platformalarini kengroq tatbiq etish taklif etiladi.

Ishtirokchilarning faqat kichik qismi (20%) raqamli texnologiyalarni qo'llashda vaqt nazorati yoki kontent filtrlovchi ilovalar haqida bilib, ularni amalda qo'llab kelayotganini aytishgan. Bu esa raqamli globallashub jarayonida mavjud texnologik imkoniyatlardan foydalanish ko'nikmasining yetarli emasligini ko'rsatadi. Shu sababli, raqamli texnologiyalar uchun innovatsion yondashuvlarni ommalashtirish, o'zbek tilida sifatli kontentlarni, ayniqsa, bolalar uchun kerakli, bilim beruvchi, hayotga tayyorlovchi multfilm, ilovalar, platformalarni yaratish, ota-onalarda raqamli madaniyat ko'nikmasini shakllantirish dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda raqamli texnologiyalar muhitida oila mustahkamligi va bolalar ta'lim-tarbiyasi dolzarb muammo bo'lib turibdi. Agar bu borada me'yor va metodikalarga amal qilinmasa, raqamli texnologiyalar salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, raqamli texnologiyalardan foydalanish madaniyatini shakllantirish muhim. Yoshlar ishlari agentligi tomonidan yaratilayotgan bir qator platformalar "Bek va Lola", "Ibrat academy", "Mutolaa" kabi milliy kontentlarni ko'paytirish, bolalarning rivojlanishiga to'sqinlik qilmaydigan "Scratch", "Khan Academy", "Khan Kids", "Duolingo", "Math Game" kabi ilovalardan samarali va me'yorida foydalanish metodikasini ota-onalarga yetkazish, "TetapoyaTV" kabi youtube kanallar orqali ota-onalarga ilmiy asosda bilim berishga yo'naltirish, individual rivojlanishga xizmat qiluvchi o'yinlarni targ'ib qilish maqsadga muvofiq.

Xulosa.

Raqamli texnologiyalar zamonaviy oilalarning ajralmas qismiga aylangan bo'lsa-da, bu jaryon oila mustahkamligi va farzand tarbiyasida tizimli, pedagogik va axloqiy nazorat asosida olib borilmasa, salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ota-onalar raqamli vositalar orqali ta'limiy va rivojlantiruvchi imkoniyatlarga ega bo'layotgan

bo'lsa-da, shu bilan birga bolalar salomatligi, axloqiy rivoji va ijtimoiy xulq-atvorida salbiy ta'sirlar kuzatilmoqda. Shuning uchun raqamli vositalarning imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, tahdidlarni kamaytirish va innovatsion yechimlarni yo'lga qo'yish zarur. Izlanishlardan aniqlanishicha, ota-onalarning ko'pgina qismi raqamli texnologiyalarni nazoratsiz ishlatishga, farzandlarini ham nazoratsiz qoldirishga majbur bo'lmoqda. Bunga sabablardan biri – yetarli darajadagi raqamli savodxonlikning yo'qligi, o'zbek tilidagi sifatli kontentning kamligi va texnologik nazorat mexanizmlaridan foydalanishning pastligi bo'ldi.

Shunday ekan, quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

- ota-onalarga mo'ljallangan raqamli savodxonlik bo'yicha treninglar tashkil etish;
- mahalliy, milliy madaniyatimizga mos kontentlar (ilova, platforma, video) ishlab chiqish va ko'paytirish;
- ta'lim tashkilotlarida “Raqamli tarbiya” modulini joriy etish;
- bolalarda raqamli texnologiyalardan ongli foydalanish madaniyatini kichiklikdan singdirish maqsadida maxsus metodikalar va ota-onalar uchun qo'llanmalar ishlab chiqish va ulardan foydalanishni keng targ'ib qilish;
- o'qituvchi, pedagoglar, ilm insonlari, olimlar tomonidan raqamli texnologiyaning imkoniyatlari va undan oqila foydalanish me'yorlari haqida keng targ'ibot ishlarini olib borish;
- 3 yoshgacha bolalarga umuman raqamli vositalarni bermaslik to'g'risida maxsus qonun ishlab chiqish;

Xulosa qilib aytganda, raqamli muhit – bu inkor qilib bo'lmaydigan haqiqatdir. Ammo u bola va oila hayotiga salbiy emas, ijobiy ta'sir ko'rsatishi uchun zarur bilim, ko'nikma va ijtimoiy muhit shakllantirilishi zarur.

Raqamli muhitda bola tarbiyasini to'g'ri tashkil etish uchun ota-onalar, pedagoglar va jamiyat birgalikda harakat qilishi zarur. Raqamli texnologiyalar vositasida bolalarning ma'naviy, aqliy va psixologik rivojlanishiga xizmat qiladigan raqamli madaniyat asoslarini shakllantirish – bugungi kunning muhim vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dushabayev A.M. (2024). Ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish. Fanlararo ilmiy jurnal, №1, 55-60-bet.
2. Yulchiyeva D. (2024). Raqamli madaniyat va oila qadriyatlari o'rtasidagi ziddiyatlar. “Oila va jamiyat” jurnali, №2, 45-49-bet.
3. Siddiqov I.M. (2023) Ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari. 152-155-bet. kokanuni.uz
4. Hasanov Sh.M. (2022). Bolalar uchun interaktiv texnologiyalarning o'rni. Pedagogik innovatsiyalar jurnali.
5. UNESCO (2021). Digital literacy in early childhood education: global guidelines. <https://unesco.org>
6. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (2023). Bolalarni raqamli xavfsizlikka o'rgatish bo'yicha metodik qo'llanma. – Toshkent.
7. Omonov H.T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogic mahorat. – T.: Iqtisodiyot va moliya, 2009, 29-bet.
8. Azizovna, Y. S. (2025). Uzluksiz ta'lim bosqichlarida uzviylik masalasi (“Adabiyot” fani o'quv dasturi misolida). Ustozlar uchun, 1(1), 761-765.
9. Азизовна, Ю.С. (2025). Юсуф Хос Ходжибнинг «Кутадгу билиг» асари ёшлар манавий камолоти ва ахлокий кадриятлар тимсоли. Устозлар учун, 1 (1), 537-539.
10. Nizomidinovna, S. D., & Azizovna, Y. S. (2025). O'quvchilarning o'qish savodxonligi ko'nikmasini rivojlantirish (hikoyalarni o'qitish asosida). Ustozlar uchun, 1(1), 862-866.
11. Азизовна, Ю.С. (2025). Исажон Султон хикояларида новаторлик. Устозлар учун, 1 (1), 478-481.

12. Azizovna, Y. S. (2025). Bir hikoya tahlili (Abdusaid Ko 'chimovning "Binafsha "hikoyasi asosida). Ustozlar uchun, 1(1), 508-510.
13. Yuldosheva, S. (2024). Xalq qissalarida Hazrati Xizr alayhissalom obrazi. Farg'ona davlat universiteti, (5), 33-33.
14. Азизовна, Ю.С. Развитие познавательных навыков учащихся в процессе языкового образования. JournalNX , 514-516.
15. Азизовна, Ю.С. Формирование чувства уважения у студентов. Журнал NX , 1026-1028.
16. Азизовна, Ю.С. (2023). Миллий дастур талаблари асосида узбек тилини о'қитишнинг самарадорлиги. фан, талим ва амалиёт интеграцияси , 661-664. Получено с <https://journal.bilig.uz/isepsmj/article/view/1256>.
17. Azizovna Y.S. Study of folktale in literature and its relation to the epic genre. Central European Management Journal 31 (No. 03 (2023)), 476-482 https://api.scienceweb.uz/storage/publication_files/7250/19705/65b7e8e0c2065___Yuldosheva%20S.Central%20European%20Management%20Journal.pdf
18. Azizovna Y.S. On the Development of Expressive Learning Skills. International Journal on Integrated Education (IJIE) 6 (No. 5 (2023)), 313-316 <https://journals.researchparks.org/index.php/IJIE/article/view/4444>
19. Azizovna Y.S. Understanding the text in the development of reading literacy. Vegueta. Anuario de la Facultad de Geografía e Historia. 2022/12/22 373-379 eISSN: 2341-1112 DOI: 10.5281/zenodo.7

ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ ДЕТЕЙ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ ЗДОРОВЬЯ

Элмурадова Садбарг Худайназаровна¹ Рахимова Диёра Аъзамжоновна²

*¹“Худжандский государственный университет имени академика Бабаджана Гафурова” (Республика Таджикистан), кандидат педагогических наук, доцент кафедры социальной и профессиональной педагогики
bisayfura999@mail.ru*

*²“Самаркандский государственный педагогический институт” магистр 2-го курса по направлению теория и история педагогики
diera.raximova09@gmail.com*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17638529>

Аннотация. В данной статье рассматриваются педагогические условия, способствующие эффективной организации учебно-воспитательной работы в начальных классах в инклюзивной среде. Обоснована необходимость внедрения индивидуализированного подхода, создания благоприятного психологического климата, а также использования цифровых технологий как средства повышения мотивации и учебной активности младших школьников.

Ключевые слова: инклюзивное образование, начальная школа, педагогические условия, цифровые технологии, учебно-воспитательная работа, индивидуальный подход.

USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN TEACHING CHILDREN WITH SPECIAL HEALTH NEEDS

Elmuratova Sadbarg Khudaynazarovna¹, Rakhimova Diyora Azamjonovna²

¹Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor, Department of Social and Professional Pedagogy, "Khujand State University named after Academician Bobojan Gafurov" (Republic of Tajikistan) Email: bisayfura999@mail.ru

²2nd-year Master's Student in Theory and History of Pedagogy, Samarkand State Pedagogical Institute. email: diera.raximova09@gmail.com

Abstract. This article examines the pedagogical conditions that contribute to the effective organization of educational work in primary schools in an inclusive environment. The necessity of introducing an individualized approach, creating a favorable psychological climate, as well as using digital technologies as a means of increasing motivation and learning activity of younger schoolchildren is substantiated.

Keywords: inclusive education, primary school, pedagogical conditions, digital technologies, educational work, individual approach.

Введение

В условиях стремительного развития информационных технологий и трансформации образовательной среды, инклюзивное обучение младших школьников приобретает особую актуальность. Современная школа призвана обеспечить равные возможности для всех учащихся, включая детей с особыми образовательными потребностями, максимально интегрируя их в образовательный процесс. В этом контексте цифровые средства обучения выступают мощным инструментом, способным индивидуализировать образовательную траекторию, повысить мотивацию и вовлеченность младших школьников, а также компенсировать их специфические трудности в обучении. Однако эффективность их использования в инклюзивной среде не достигается автоматически. Она напрямую зависит от создания определенных педагогических условий, которые позволяют раскрыть весь потенциал цифровых технологий и адаптировать их к разнообразным потребностям учащихся.

Настоящая статья посвящена исследованию педагогических условий, необходимых для эффективного применения цифровых средств в инклюзивном обучении младших школьников. Мы рассмотрим, как целенаправленное создание таких условий, включающих методическое сопровождение педагогов, индивидуализацию образовательного контента, развитие цифровой компетентности всех участников образовательного процесса, а также организацию поддерживающей и стимулирующей среды, способствует повышению качества образования детей с особыми образовательными потребностями. Акцент будет сделан на потенциале цифровых инструментов в преодолении барьеров в обучении, развитии когнитивных функций, формировании коммуникативных навыков и социальной адаптации младших школьников в инклюзивных классах.

Целью данного исследования является определение и теоретическое обоснование педагогических условий, обеспечивающих эффективное использование цифровых средств в инклюзивном обучении младших школьников.

Литературный обзор анализ современных исследований показывает, что проблема цифровизации инклюзивного образования активно изучается отечественными и зарубежными педагогами. С. В. Алехина рассматривает инклюзивное обучение как ключевой фактор социализации детей с особыми образовательными потребностями и подчеркивает важность технологической поддержки этого процесса. Н. Я. Семаго и М. М. Семаго отмечают, что внедрение цифровых средств требует изменения методического подхода, ориентированного на развитие индивидуальных учебных траекторий.

Методы исследования

Для достижения поставленной цели и решения обозначенных задач в исследовании предполагается использование комплекса взаимодополняющих методов, включающих теоретические и эмпирические подходы.

На теоретическом уровне использовались: *контент-анализ* психолого-педагогической, методической и научной литературы, посвящённой вопросам цифровизации образования, инклюзивного обучения и развития младших школьников; *сравнительно-сопоставительный анализ* отечественных и зарубежных педагогических подходов к организации учебного процесса в инклюзивной цифровой среде; а также *систематизация и концептуализация* полученных теоретических знаний для последующего эмпирического обоснования.

Эмпирические методы включали: *анкетирование* учителей начальных классов, работающих в условиях инклюзивного образования, с целью выявления их готовности к использованию цифровых технологий и оценки их педагогической эффективности; полуструктурированные *интервью* с педагогами и родителями детей с ограниченными возможностями здоровья (ОВЗ) для определения барьеров и условий успешной цифровой интеграции; *наблюдение* за учебным процессом в начальных классах, включающих детей с ОВЗ, с акцентом на использование цифровых средств и на поведенческие и образовательные реакции учеников; а также *анализ педагогической документации*, включая адаптированные образовательные программы, индивидуальные учебные планы и цифровые учебные платформы, применяемые в школах.

Результаты и обсуждение

Проведённое исследование подтвердило, что использование цифровых технологий в инклюзивной образовательной среде младших классов может быть эффективным при наличии определённых педагогических условий. Прежде всего, важно создать адаптированную цифровую среду, в которой учитываются индивидуальные образовательные потребности каждого ребёнка. Такие условия предполагают не только техническое оснащение школы, но и методическую подготовку педагогов, способных грамотно интегрировать цифровые инструменты в учебно-воспитательный процесс.

Одним из ключевых факторов успешности является профессиональная готовность учителя – не просто владение цифровыми средствами, но и умение использовать их в соответствии с возможностями и особенностями конкретного ребёнка. В ходе опросов установлено, что педагоги, обладающие опытом работы в инклюзивной среде, активнее используют интерактивные задания, видеоуроки, адаптивные обучающие платформы и сервисы обратной связи. Это способствует индивидуализации процесса обучения и повышает его результативность.

Наблюдение за учебным процессом в ряде школ показало, что наибольший эффект достигается при сочетании цифровых и традиционных методов преподавания. Особенно успешно применяются такие инструменты, как интерактивные доски, голосовые помощники, визуальные инструкции, а также обучающие игры, направленные на развитие моторики, речи и логического мышления у детей с ОВЗ. Анализ педагогической документации продемонстрировал, что в школах, где ведётся планомерная цифровизация, наблюдается повышение вовлечённости и интереса со стороны всех участников образовательного процесса.

Однако были выявлены и определённые трудности. Среди них – ограниченный доступ к качественным ресурсам на узбекском языке, недостаточная методическая поддержка для педагогов и перегрузка цифровыми материалами без чёткого отбора и дифференциации. Кроме того, не всегда удаётся обеспечить устойчивую цифровую мотивацию у учеников – особенно у тех, кто требует постоянного тактильного или визуального подкрепления.

Таким образом, можно заключить, что цифровые средства становятся важным инструментом поддержки инклюзивного образования, но их эффективность напрямую зависит от уровня подготовки педагогов, качества образовательных платформ, а также от продуманности методических решений, принимаемых в каждом конкретном случае.

Заключение

Проведённое исследование позволило всесторонне изучить возможности и особенности использования цифровых технологий в контексте инклюзивного образования младших школьников. Выявлено, что, несмотря на средний уровень готовности педагогов к полноценной интеграции цифровых инструментов, существует значительный потенциал для их применения в развитии социального взаимодействия детей с ограниченными возможностями здоровья (ОВЗ).

Цифровые средства, при условии их методически грамотного использования, способствуют повышению вовлечённости учащихся с ОВЗ в учебный процесс и их активной коммуникации со сверстниками. Это подтверждает гипотезу о том, что технологии могут служить мощным инструментом для преодоления барьеров в социализации и обучении.

Для эффективного внедрения цифровых технологий в инклюзивное образование необходим комплексный и системный подход. Он должен включать в себя: целенаправленные инвестиции в оснащение школ, разработку качественных образовательных ресурсов, ориентированных на разнообразные потребности детей с ОВЗ, и постоянное профессиональное развитие педагогов. Реализация этих мер позволит не только повысить академическую успеваемость, но и значительно улучшить социальную адаптацию и интеграцию всех учащихся в образовательную среду.

Список использованной литературы

1. Алехина, С. В. Инклюзивное образование: история и современность. Психологическая наука и образование, 2018, 23(1), 5-13.
2. Семаго, Н. Я., Семаго, М. М. Инклюзивное образование: от концепции к практике. М.: Национальный книжный центр, 2017.
3. Назарова, Н. М. Специальная педагогика: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. М.: Академия, 2019.
4. Заир-Бек, С. И. Информационные технологии в инклюзивном образовании: потенциал и проблемы. Вестник Московского городского педагогического университета. Серия: Педагогика и психология, 2017, (4), 105-112.
5. Федорова, М. В. Цифровые образовательные ресурсы в работе с детьми с ограниченными возможностями здоровья. Дефектология, 2020, (2), 48-55.

МЕТОДЫ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ-ПСИХОЛОГОВ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Гут Юлия Николаевна

*Кандидат психологических наук, доцент, ведущий научный сотрудник лаборатории дифференциальной психологии и психофизиологии Федерального научного центра психологических и междисциплинарных исследований; доцент кафедры психологии труда и психологического консультирования Государственного университета просвещения
gut.julya@yandex.ru*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17638627>

Аннотация. В статье рассматриваются актуальные проблемы и перспективы цифровизации образовательного процесса в подготовке студентов-психологов. На основе анализа современных исследований обосновывается эффективность применения таких цифровых

методов, как симуляторы профессиональных ситуаций с использованием виртуальной реальности (VR), системы анализа видеозаписей консультаций на основе искусственного интеллекта (ИИ) и супервизорские платформы. Особое внимание уделяется балансу между технологическими инновациями и сохранением гуманистической природы психологической профессии. Предлагается модель интеграции данных технологий в образовательный процесс, прогнозируется их экономическая эффективность за счет оптимизации ресурсов и повышения уровня профессиональной компетентности выпускников.

Ключевые слова: цифровизация образования, подготовка психологов, виртуальная реальность, искусственный интеллект, профессиональные компетенции, экономическая эффективность, гуманистический подход.

METHODS FOR IMPROVING THE QUALITY AND EFFECTIVENESS OF TRAINING PSYCHOLOGY STUDENTS BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES

Gut Yuliya Nikolaevna

Candidate of Psychological Sciences, Associate Professor

Lead Researcher, Laboratory of Differential Psychology and Psychophysiology, Federal Scientific Center for Psychological and Interdisciplinary Research; Associate Professor, Department of Work Psychology and Psychological Counseling, State University of Education. email: gut.julya@yandex.ru

Abstract. The article examines current issues and prospects of digitalization in the educational process for training psychology students. Based on an analysis of recent studies, the effectiveness of digital methods such as virtual reality (VR) professional situation simulators, AI-based consultation video analysis systems, and supervisory platforms is justified. Special attention is given to balancing technological innovations with the preservation of the humanistic nature of the psychology profession. A model for integrating these technologies into the educational process is proposed, and their economic efficiency is forecasted through resource optimization and enhanced professional competence of graduates.

Keywords: digitalization of education, psychology training, virtual reality, artificial intelligence, professional competencies, economic efficiency, humanistic approach.

Современный этап развития высшего образования в России характеризуется интенсивной интеграцией цифровых технологий, что является не только трендом, но и насущной необходимостью, обусловленной растущими требованиями к качеству практической подготовки специалистов. Этот процесс был ускорен в период пандемии, и его последствия активно изучаются отечественным научным сообществом. Российские эксперты предупреждают, что тотальный перевод образования в онлайн-форму может привести к разрушению образования как социального института, формирующего способность к коллегиальной деятельности. Таким образом, цифровизация открывает новые возможности для создания безопасной, контролируемой учебной среды, однако технологии должны выступать помощниками, а не заменой человеческого взаимодействия в подготовке будущих психологов, чья профессия по своей сути обращена к уникальным эмоциям и переживаниям человека.

Анализ публикаций в базах данных Web of Science и Scopus показывает смещение фокуса исследований от простого использования систем дистанционного обучения к внедрению immersive-технологий и ИИ. Многочисленные исследования подтверждают, что VR-симуляторы позволяют студентам-психологам отрабатывать коммуникативные техники и диагностические навыки в смоделированных, но жизненно правдоподобных ситуациях, например,

при работе с клиентом в состоянии острой тревоги или агрессии. Это способствует снижению уровня стресса у студентов при переходе к работе с реальными клиентами и повышает уверенность в своих силах.

Технологии искусственного интеллекта находят применение в автоматизированном анализе видеозаписей учебных консультаций. Алгоритмы способны идентифицировать невербальные паттерны, частоту использования техник активного слушания и эмпатических высказываний, предоставляя объективную и мгновенную обратную связь.

В России ответом на вызовы времени стало активное развитие образовательных программ, нацеленных на формирование у психологов цифровых компетенций. Ведущие российские вузы активно разрабатывают программы, нацеленные на формирование у психологов навыков работы с цифровыми инструментами. Например, магистратура «Цифровые технологии в психологическом консультировании и психотерапии» в Московском институте психоанализа готовит специалистов, способных использовать ИИ в диагностике, применять ассистированные форматы консультирования (чат-боты, AI-супервизоры) и работать с нейроданными. Аналогичные программы повышения квалификации, такие как курс «Цифровая психология: интеграция технологий IT и AI в психологическую практику» в НИУ ВШЭ, направлены на формирование практических компетенций в использовании технологий искусственного интеллекта в психологической практике. Этот системный подход – от фундаментальных знаний в бакалавриате до прикладных курсов для действующих профессионалов – демонстрирует формирование в России целостной экосистемы подготовки психологов к работе в цифровую эпоху.

Однако, несмотря на высокий потенциал цифровых технологий, российские и международные ученые выделяют серьезные риски, подтвержденные эмпирическими данными.

Леньков С.Л., Рубцова Н.Е., Ефремова Г.И. в исследовании, проведенном на российских студентах, выявили связи между цифровизацией образования и снижением показателей эмпатии на 40% по сравнению с предыдущими поколениями. Это создает прямую угрозу для формирования ключевой профессиональной компетенции психолога.

Также эмпирические данные свидетельствуют, что у подростков с высоким уровнем интернет-зависимости преобладает клиповое мышление, для которого характерны сниженная концентрация внимания и неспособность глубоко анализировать информацию. Это напрямую влияет на академические успехи и развитие личности.

Участники Международного семинара «Киберпсихология и цифровая педагогика» считают, что внедрение технологий сопряжено с рисками, связанными с конфиденциальностью данных, дегуманизацией обучения и необходимостью выработки новых этических норм.

Таким образом, основными рисками широкого применения цифровых технологий в обучении будущих психологов по мнению российских ученых являются снижение эмпатии и качества социального взаимодействия, формирование клипового мышления, этические вызовы и дегуманизация.

Для преодоления указанных проблем и реализации потенциала цифровых технологий предлагается комплексный подход, основанный на принципе дополнительности технологий и человеческого опыта:

1. **Внедрение модульной системы VR-симуляций** с обязательным последующим обсуждением эмоционального опыта студентов под руководством преподавателя. Это позволяет сочетать технологические преимущества отработки навыков в безопасной среде с рефлексией личных переживаний, противодействуя риску снижения эмпатии.
2. **Создание гибридной супервизорской платформы**, где автоматизированный анализ учебных консультаций с помощью ИИ служит основой для содержательного обсуждения с преподавателем-супервизором. Такой подход позволяет перенести фокус с технических аспектов на уникальность клиентского случая и развитие терапевтических отношений.

3. **Активное использование методов, развивающих критическое мышление и самоорганизацию.** Для противодействия клиповому мышлению и прагматизации эффективны геймификация, модели поискового обучения и использование симуляторов. Эти методы переводят студента из пассивного состояния в активное, стимулируя аналитические способности.

Таким образом можно выделить ряд основных научно обоснованных предложений и практических рекомендаций:

- **для администрации вузов** - заключать партнерские соглашения с IT-компаниями и научными центрами для совместной разработки и апробации образовательного контента, ориентированного на развитие как технологических, так и эмоционально-личностных компетенций будущих психологов;
- **для администрации факультетов психологии** - включить в учебные планы дисциплины, направленные на цифровую гигиену и этику использования технологий в психологической практике, а также пересмотреть рабочие программы дисциплин с позиции разумного баланса, где технологии усиливают, а не подменяют межличностное взаимодействие;
- **для преподавателей** - пройти курсы повышения квалификации по интеграции цифровых инструментов (включая основы анализа данных и работы с ИИ) в образовательный процесс с сохранением фокуса на развитии эмпатии и профессиональной идентичности.

Заключение

Интеграция цифровых технологий в подготовку студентов-психологов является сложным и многогранным процессом, требующим взвешенного подхода. Как показывают современные исследования, технологии обладают мощным потенциалом для персонализации обучения и формирования практических навыков, что находит отражение в новых образовательных программах ведущих российских вузов. Однако их внедрение сопряжено с рисками дегуманизации образования, снижения эмпатии и формирования клипового мышления.

Предлагаемая модель, сочетающая высокотехнологичные инструменты (VR, ИИ) с обязательной гуманитарной экспертизой и рефлексией, позволяет направить развитие цифровизации в русло повышения качества и эффективности обучения без ущерба для фундаментальных основ психологической профессии. Дальнейшие исследования должны быть сфокусированы на лонгитюдном изучении влияния цифровых образовательных сред на формирование профессиональной идентичности будущего психолога.

Список литературы

1. Программа магистратуры 37.04.01. «Цифровые технологии в психологическом консультировании и психотерапии». Московский институт психоанализа, 2025. – URL: https://inpsycho.ru/higher_education_profile/97
2. Программа повышения квалификации «Цифровая психология: интеграция технологий IT и AI в психологическую практику». НИУ ВШЭ, 2025. – URL: <https://www.hse.ru/edu/dpo/1043074253>
3. Болгов Р.В., Чугунов А.В., Филатова О.Г. Цифровое государство в глобальной перспективе: новые возможности и тенденции изучения // Россия в глобальном мире. 2025. Т. 28. Вып. 3. С. 199–206. DOI: 10.48612/rg/RGW.28.3.12.
4. Ершова Р.В. О психофизиологических предикторах личностных свойств // Человеческий капитал. 2014. № 7 (67). С. 52–58
5. Леньков С. Л., Рубцова Н. Е., Ефремова Г. И. Субъективное восприятие педагогами проблем цифровизации образования // Ярославский педагогический вестник. 2022. № 2 (125). С. 126–139. <http://dx.doi.org/10.20323/1813-145X-2022-2-125-126-139>. <https://elibrary.ru/blqurf>.

6. Rizzo, A., Shilling, R. (2017). Clinical Virtual Reality tools to advance the prevention, assessment, and treatment of PTSD. *European Journal of Psychotraumatology*, 8(5), 1414560.
7. Ticknor, B., Tillinghast, S. (2021). Virtual reality and the development of empathy in counselor education. *Journal of Technology in Human Services*, 39(2), 1-18.
8. Yan, W., et al. (2021). Automated analysis of nonverbal behavior in psychotherapy. *Journal of Medical Systems*, 45(3), 1-10.

BO'LAJAK O'QITUVCHI FAOLIYATIDA MANAVIY-MARIFIY FAOLIYAT PRINSIPLARI

Raximov Asomiddin Anorboyevich

Toshkent xalqaro Kimyo universiteti Samarqand filiali "Pedagogika va psixologiya" kafedrası dotsenti pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) raximovasomiddin@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17638667>

Annotatsiya. Ushbu maqolada ma'naviy-ma'rifiy faoliyat prinsiplari to'g'risida ma'lumot berilib, uni talaba shaxsini rivojlantirishdagi roli izohlangan. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni tashkil qilishning ayrim yo'nalishlari izohlangan.

Tayanch so'z va iboralar: ta'lim islohoti, shaxs, ta'lim, tarbiya, rivojlanish, ma'lumot, demokratik jamiyat, ma'naviyat, ma'rifat, faoliyat, prinsip, ijodkorlik, tashabbuskorlik, qadriyatlar, oliy ta'lim muassasasi.

PRINCIPLES OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL ACTIVITIES IN THE FUTURE TEACHER'S WORK

Rakhimov Asomiddin Anorboyevich

*Associate Professor, Department of Pedagogy and Psychology, Samarkand Branch of Kimyo International University In Tashkent, PhD in Pedagogical Sciences
Email: raximovasomiddin@gmail.com*

Abstract. This article provides information on the principles of spiritual and educational activities and explains their role in the development of the student's personality. In addition, certain directions for organizing spiritual and educational activities in higher education institutions are discussed.

Keywords: educational reform, personality, education, upbringing, development, knowledge, democratic society, spirituality, enlightenment, activity, principles, creativity, initiative, values, higher education institution.

ПРИНЦИПЫ ДУХОВНО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РАБОТЕ БУДУЩЕГО ПЕДАГОГА

Рахимов Асомиддин Анорбоевич

*Доцент кафедры педагогики и психологии, Самаркандский филиал Ташкентского международного университета Кимё,
доктор философии по педагогическим наукам (PhD)
Email: raximovasomiddin@gmail.com*

Аннотация. В статье представлены сведения о принципах духовно-образовательной деятельности и объяснена их роль в развитии личности студента. Кроме того, рассматриваются

некоторые направления организации духовно-образовательной деятельности в учреждениях высшего образования.

Ключевые слова: реформа образования, личность, образование, воспитание, развитие, знания, демократическое общество, духовность, просвещение, деятельность, принципы, творчество, инициативность, ценности, высшее учебное заведение.

Kirish

Respublikamizda ro'y berayotgan ta'lim islohoti sharoitida barkamol avlod o'z Vataniga, xalqiga, ona yeriga, millatiga, ota - onasiga sodiq bo'lgan har tomonlama kamol topgan insonlarni tarbiyalash eng muxim ahamiyat kasb etadi. Yangilangan davlat tizimida tarbiya mazmuni mak-sad va vazifalari xam yangilanadi. Bu yangilanish avvalo tarbiyani insonparvarlik va demokratiya prinsipi asosida qurilishi bilan farqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek " ta'lim-tarbiya – har qaysi davlat va jamiyatning nafaqat bugungi, balki ertangi kunini ham hal qiladigan eng muhim va ustuvor masaladir. Shuning uchun mamlakatimizda bu masalaga davlat miqyosida ulkan e'tibor qaratilmoqda" [1, 353]. Darhaqiqat bugun ta'lim va tarbiya jarayonini sifatli tashkil qilish har qachongidan ham dolzarb bo'lib turibdi.

Tarbiyani insonparvarlashtirish va demokratiyalash prinsipi talabalar, o'qituvchi - tarbiyachilar ijodiy faollik va mustaqilligini rivojlantirishi ularni turli xil ijtimoiy foydali ishlarni amalga oshirishda hamkorligini ta'minlash uchun dasturlamal bo'lib xizmat qiladi.

Talaba-yoshlarda ijodiy faollik, aqliy zakovat, axloqiy salohiyat, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, ularni keng qamrovli ijtimoiy -foydali ishlarga faol ishtirok etishlarini shakllantirish uchun, oliy ta'lim muassasalarida olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning alohida o'rne bor.

Adabiyotlar tahlili

Shunga ko'ra biz ushbu maqolada ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy faoliyat, uni rejalashtirish, tashkil etish prinsiplari, shakllari xususida fikr yuritamiz.

O'z yurtiga, Vataniga muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari xalqimizning qon-qoniga singib ketgan azaliy xususiyatdir. Ana shu noyob insoniy fazilatlarini asrab avaylash va yanada takomillashtirish farzandlarimizning ozod va demokratik O'zbekistonning munosib o'g'il-qizlari etib tarbiyalash masalasi ma'naviyat sohasidagi ishlarimizning asosiy yo'nalishini tashkil etishi darkor. Shunga asosan ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni aniq rejalashtirish, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya tizimini yaratish, uning shakllari, metodlarini yosh avlod ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashini shakllantirishga qaratishni taqozo qiladi. Har qanday tarbiya, tadbir, ma'naviy-ma'rifiy faoliyat yig'indisi ma'lum qoidalar, talablarga rioya qilinganda, yoinki, ularga asoslangan taqdirdagina maqsadli bo'ladi. Bu qoidalar, talablar, asoslar pedagogika fanida «prinsiplar» deb nomlanadi.

Darhaqiqat, ma'naviy-ma'rifiy faoliyat ham ma'lum prinsiplarga amal qiladi. Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat prinsiplari - bu ta'lim muassasalarida barkamol avlodni tarbiyalash maksadida tashkil etiladigan ma'rifiy tadbirlarning yo'nalishiga, mazmuniga, metodlari va tashkiliy shakllariga, tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlariga ko'yiladigan asosiy talablarga amal qilishni ifodalaydigan koidalardir.

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat prinsiplari o'qituvchi-tarbiyachilarga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi talablar, qoidalar yig'indisi hisoblanib, u barkamol insonni tarbiyalashning vazifalari bilan belgilanadi va umuminsoniy tarbiya to'g'risidagi ta'limotga hamda ilmiy pedagogik ma'lumot erishgan yutuqlarga asoslanib, uning qonuniyatlarini aks ettiradi. Shuning uchun ma'naviy-ma'rifiy faoliyat jarayonida bu prinsiplarga rioya qilish uning samaradorligini oshiradi, sifat ko'rsatkichini rivojlantiradi.

Tadqiqotlar metodologiyasi

Hozirgi zamon jahon va milliy pedagogika nazariyalariga asoslanib, ma'naviy-ma'rifiy faoliyat prinsiplarini quyidagicha guruhlash mumkin:

- ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning ijtimoiy yo'nalganlik prinsipi;
- ixtiyoriylik, mustaqillik, o'yin va romantika prinsipi;

- ishda ijodkorlik, tashabbuskorlik, yangilikka intilish nuqtai nazaridan yondashish prinsipi;
- ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning rejaliligi va tadbirlarning talaba-yoshlarlar kuchiga mos bo'lishini ta'minlash prinsipi;
- ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning muntazamliligi, davomiyligi, uzviyligi va ta'sirchanligi prinsipi;
- ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni tashkil etishda tarbiyalanuvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish prinsipi.

Endi mazkur ma'naviy-ma'rifiy faoliyat prinsiplarini tavsiflashga o'tamiz:

1. Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning ijtimoiy yo'nalganligi prinsipi. Bu prinsip ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni tashkil etish va amalga oshirishda ijtimoiy taraqqiyot, mamlakatning g'oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-madaniy rivojidan kelib chiqqan holda, darsdan va auditoriyadan tashqari tashkil qilinadigan ishlar mazmunini, to'garak, klublar, birlashmalar faoliyatini mamlakat taraqqiyoti bilan bog'lanishi, shuningdek, fan, texnika, madaniyat, san'at yutuqlariga asoslanishni nazarda tutadi.

2. Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga ishtirok etishning ixtiyoriyligi prinsipi.

Bu prinsip ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy faoliyat fakultativlar, to'garaklar, turli seksiyalar, klublar va x.k. larga ishtirok etadigan talabalarining qiziqishi, istak-xohishi, qobiliyatiga qarab tanlash va bunda ularning ixtiyoriy bo'lishini ta'minlashga qaratiladi. Ixtiyoriylik prinsipi, talabalar ixtiyoriyligini inobatga olib, ularni toliqtirmaslik va zo'riqtirmaslik uchun, ta'lim muassasalarida tashkil qilinadigan darsdan tashqari ishlarning ikkitadan ortiq bo'lmashligini inobatga olishni ham nazarda tutadi.

3. Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatda talabalar-yoshlar mustaqilligi, tashabbuskorligi, ijodkorligini hisobga olish prinsipi.

Bu prinsip talabalarining qiziqishlari, tashabbuslari asosida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil qilish lozimligini nazarda tutadi. Har qanday tadbir, avvalo talabalarining mustaqilligiga asoslanishi, o'qituvchi-tarbiyachi ularni ruxlantirishi, faoliyatini rivojlantirishi lozim. Shunda talaba-yoshlarda tashabbuskorlik, qiziqishlar, ijodiy qobiliyat rivojlanadi. Har qanday tadbirni ular yuqori ko'tarinki ruhda qiziqish bilan, tashabbus bilan mustaqil ijro etishga o'rganadilar. Ularda o'z-o'zini boshqarish his-tuyg'usi taraqqiy etadi.

4. Tarbiyaviy tadbirlarning o'yin faoliyati, romantika shaklida bo'lish prinsipi. Bu prinsipni asosan kichik va o'rta maktab o'quvchilariga qo'llash maqsadga muvofiq. Chunki kichik va o'rta maktab yoshi o'quvchilari asosan o'yin faoliyatiga ko'proq ehtiyoj sezadilar. Ammo bu ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy faoliyat tarbiyaning yo'nalishiga, mazmuniga, metodlari, tashkiliy shakllariga, tarbiya jarayonining ishtirokchilarining o'zaro munosabatlariga ko'yiladigan asosiy talablarni ifodalaydigan qoidalarga qaratilgandir.

5. Ma'naviy - ma'rifiy faoliyatda talabalarining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish prinsipi. Ushbu prinsipda tadbirlarning vazifalari, mazmuni talaba-yoshlarning yosh va tayyorgarlik darajalariga mos bo'lib, ular sog'ligiga, dunyoqarashiga ma'naviy-axloqiy salohiyatiga aqliy zakovatiga salbiy ta'sir ko'rsatishdan yiroq bo'lishi lozim.

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning kayd etilgan prinsiplariga asoslanilsa, ularning yaxlitligi, o'zaro hamkorligi, bir-birini to'ldirilishiga e'tibor qaratilib, ulardan samarali foydalanilsa, talabalarining ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlanuvchanlik faoliyatlari maqsadli yo'lga ko'yilishi, barkamol insonning to'liq shaxs bo'lib shakllanishi kafolatlanadi.

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni maqsadli tashkil qilish, yo'naltirish uning mazmunini aniq belgilash va rivojlantirish bilan belgilashdir. Agar mazmun va reja nomutanosibligi tashkil etilsa, ko'zlangan maqsad amalga oshmaydi. Shunga ko'ra inson noto'g'ri tarbiyalanadi, bundan jamiyat ham, insonlar ham, odamning o'zi ham aziyat chekadi. Demak mazmunni aniq belgilash va uni to'g'ri rejalashtirish darkor. Aks holda buyuk mutafakkir Bedil, aytganidek, agar me'mor dastlabki g'ishtni to'g'ri qo'ymasa, devor yulduzlarga yetsa ham qiyshiq bo'lib qolaveradi. Bedilning bu fikri

ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga daxldordir. Modomiki shunday ekan, ma'naviy-ma'rifiy faoliyat mazmunini aniq tasavvur qilish, uning yo'nalishlarini to'g'ri belgilash va rejalashtirish lozim.

Tahlil va natijalar

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat insonning ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatidagi mohiyatini anglatadigan, uni ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan ichki olamini boyitadigan, vijdoni, iymoni, e'tiqodi, dunyokarashini, mafkuraviy salohiyatini mustaxkamlaydigan, umuminsoniy qadriyatlarni bilish, targ'ib qilish, yoxud muayyan jamiyatning maqsad va vazifalariga muvofiq aqliy zakovati va ma'naviy-axloqiy salohiyatini tarkib toptirish, rivojlantirish jarayonidir. Shunga ko'ra jamiyatni, ijtimoiy-siyosiy, iktisodiy-madaniy rivojlantirishda oliy ta'lim muassasalarida olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha mazmunini belgilash va rejalashtirish talabga muvofiqdir.

Xulosa

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning yana bir shakli ommaviy tadbirlardir. Bunga ertaliklar, mavzuiy kechalar, disputlar, savol-javob kechalari, anjumanlar, festivallar, sport bayramlari va o'yinlari, ekskursiyalar va x.k.lar kiradi.

Shunday kilib, ma'naviy-ma'rifiy faoliyat keng qamrovlidir. Zero, ma'naviyat va ma'rifat - Oliy qadriyat. U xalqimizning urf-odatlarini, mutafakkirlarimizning sermazmun ta'limotlarini, tarixiy milliy qahramonlarimizning hayot yo'lini, istiqloq, erk uchun kurashganlarning mashaqqatli turmush saxifalari o'zida aks ettiradi. Shuning uchun ham u oliy qadriyat. U o'z yo'nalishlariga ko'ra komil insonni tarbiyalash kabi buyuk maqsadni amalga oshiradi.

Yuqorida aytilgan fikrlar, ishlarni amalga oshirsak, ma'naviy-ma'rifiy faoliyat o'z muddaosiga yetgan, barkamol avlodni shakllantirishga tamal toshi ko'yilgan bo'ladi. Buning uchun esa doimo izlanish, xarakat kilish lozim. Ma'naviy - ma'rifiy faoliyatda bu boradagi bor imkoniyatlardan maksimal foydalanishlari zarur.

Shunday kilib, ta'lim muassasalarida tashkil qilib o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy faoliyat talaba-yoshlarni bilimga chanqoqliklarini oshirib, aqliy salohiyat va zakovatlarini rivojlantirish bilan birga, ularni ma'naviy barkamol bo'lib tarbiyalanishlar

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston o'qituvchi va murabbiylarga yo'llagan tabrik nutqi 28.09.2018.
2. Prezident Sh.Mirziyoyevning 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-son qarori. Yangi O'zbekiston. www.lex.uz
3. Prezident Sh.Mirziyoyevning Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risidagi Qarori. // Xalq so'zi. 2018-yil, 15- avgust
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining o'z lavozimiga kirishishiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqi. "Yangi O'zbekiston" ijtimoiysiyosiy gazetasi. 2021-yil 7-noyabr.
5. V.Alimasov, Y.Manzarov. O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy soha: nazariya va amaliyot. Toshkent, 2014.108b.
6. V.Rustamov. Ssenariynavislik mahorati. Toshkent, 2017 yil, 33b.
7. Madaniyat va san'at atamalari izohli lug'ati/ Taxrirci: B.Sayfullayev. - Toshkent; 2014.-B. 87.

PEDAGOGIK MA'RIFAT BRIGADALARI – OTA-ONALARGA TARBIYAVIY KO'MAKCHI SIFATIDA

*Jumanov Sherzod Saloyevich Toshkent kimyo xalqaro universiteti
Samarqand filiali v.b.dotsent, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori
jumanovsherzod06@gmail.com*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17638706>

Annotatsiya. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviyat sektori faoliyatini namunali yo'lga qo'yish bu - maktabning infratuzilmasi, ijtimoiy-ma'naviy muhiti hisobga olingan holda alohida namunaviy metodik qo'llanmalar, tavsiyaviy yo'riqnomalar yaratish, ta'lim-tarbiya jarayoniga mas'ullar, sinf rahbarlarini aniq maqsadga qaratilgan metodikalar bilan ta'minlash, shuningdek, "Uzluksiz ma'naviy tarbiya Kontseptsiyasi"ga ko'ra o'quvchilarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi 10 muhim fazilatlar, ijtimoiy kompetentsiyalarni rivojlantirishning to'rtinchi bosqichini amalga oshirishdan iborat.

Kalit so'zlar: Ma'naviyat sektori, pedagogik brigadalar, tarbiya, ko'mak, buzg'unchi g'oya.

PEDAGOGICAL ENLIGHTENMENT BRIGADES – AS EDUCATIONAL ASSISTANTS FOR PARENTS

*Jumanov Sherzod Saloyevich
Kimyo International University In Tashkent
Samarqand Branch, Acting Associate Professor PhD in Philosophy of Pedagogical Sciences.
jumanovsherzod06@gmail.com*

Abstract. The exemplary establishment of the spiritual sector in secondary educational institutions is the creation of separate model methodological manuals, recommendation guidelines, taking into account the infrastructure and socio-spiritual environment of the school, providing those responsible for the educational process and class leaders with specific goal-oriented methodologies, as well as the implementation of the fourth stage of developing 10 important qualities and social competencies in students, such as loyalty to the Motherland, entrepreneurship, willpower, ideological immunity, kindness, responsibility, tolerance, legal culture, innovative thinking, hard work, according to the "Concept of Continuous Spiritual Education".

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida inson ongi va qalbini zabt etish uchun kurashlar keskin tus olayotgan bir davrda xalqaro maydonda yoshlarni har qanday xavf va tahdidlardan asrash, ularning mustaqil fikri, e'tiqodini va qat'iy hayotiy pozitsiyasini shakllantirish eng muhim va kechiktirib bo'lmas vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metod

Mamlakatimizda 29 ming 420 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti, 10 ming 163 ta umumta'lim maktabi, 213 ta oliy ta'lim muassasasi faoliyat yuritmoqda.

Respublikamizdagi 10 ming 163 ta umumiy o'rta ta'lim muassasalarida 6,4 mln nafar o'quvchilar ta'lim olmoqda [1]. Ushbu o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularni milliy g'oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharaflari va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish, vatanparvarlik, mardlik kabi tuyg'ularini yanada kuchaytirish oldimizda turgan kechiktirib bo'lmas asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Ma'naviyat sektori – O'zbekiston Respublika Prezidenti Sh.Mirziyoyev

2023-yil 16-17 noyabr kunlari Surxondaryo viloyatiga tashrifi jarayonida 4 ta sektorga qo'shimcha 5-sektor tarzida Ma'naviyat va ma'rifat Kengashlarining ishchi tuzilmasi sifatida tashkil etilgan sektor bo'lib [2], u oila, mahalla va ta'lim muassasalarida tashkil qilish bo'yicha amalga oshiriladigan ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlarini tartibga soladi. Bu bilan madaniy-ma'rifiy sohadagi ishlarda hokimlarning mas'uliyati oshadi, tuman va shaharlarda ma'naviyat va ma'rifat maskanlari ishga tushiriladi, sektor ma'naviyat va ma'rifat kengashlarining ishchi tuzilmasiga aylanadi. "Ma'naviyat sektori" Respublikamizdagi umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlari, MMIBD o'rinbosarlari hamda tarbiyaviy ishlarga mas'ul bo'lgan barcha uchun o'zlari rahbarlik qilayotgan, shuningdek, faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Ma'naviyat sektori" faoliyatini namunalilik tashkil etish topshirig'i berilgan.

Muhokama. Ma'naviyat sektorlari faoliyatini oilabay tashkil qilish maqsadida faoliyatning modernizatsiyaviy maqsadlaridan kelib chiqib, "Pedagogik ma'rifat brigadalari"ni tashkil qilish takliflari o'rta tashlandi.

- "Pedagogik ma'rifat brigadalari"("Pedagogik brigadalar") bu – oilalardagi pedagogik madaniyatni o'rganib, baholaydi;
- Oilabay yurib, ota-onalar bilan tarbiyaviy suhbatlar o'tkazadi, bolalarining xulqi haqida do'stona suhbatlashadi, har bir oiladagi tarbiyaviy muhitga tashhis qo'yyadi;
- Bolalarning qiziqishlarini o'rganadi, ota-onalarga bu borada tavsiyalar va amaliy yordam beradi;
- Oilaning ma'naviy muhitiga qanday xavf omillari borligini o'rganadi va ularning oldini olish bo'yicha ota onalarga, mahalla yettiligiga ijtimoiy pedagogik tavsiyalar beradi;
- Ota-onalarga tarbiya metodlarini o'rgatadi;
- Ota-onalarni "pedagog maslahati" telegram kanaliga a'zo qiladi va muntazam pedagogik maslahatlar berib boradi;
- Mahallalardagi tarbiya bo'yicha namunaviy oilalarning tajribasini ommalashtiradi, sog'lom turmush tarzini targ'ib qiladi;
- Yot, buzg'unchi g'oyalarning zararidan ogohlantiradi, bolalarini ulardan himoya qilishga o'rgatadi;
- Har bir oilada "farzand tarbiyasi" daftarini joriy qilib, ularda o'rganish natijalaridan kelib chiquvchi xulosa va tavsiyalarni yozib boradi;
- Mahalla oilalarining tarbiyaviy reytingini tuzadi va uni yangilab boradi;
- Farzand tarbiyasiga surunkali ravishda e'tiborsiz bo'layotgan ota-onalar bilan mahalla yettiligi ishtirokida tushuntirish ishlarini olib boradi;
- Ota onalarga profilaktik pedagogika bilim va ko'nikmalarini o'rgatadi.

"Pedagogik ma'rifat brigadalari" texnologiyasi milliy konvergentsiyaga asoslangan bo'lib, tibbiyot sohasida mamlakatimizda o'z samaradorligini ko'rsatgan "Tibbiy brigadalar" harakatining tarbiya sohasidagi modifikatsiyasi bo'lib hisoblanadi. "Pedagogik ma'rifat brigada" innovatsion texnologiyasidan ko'zda tutilgan maqsad bu – mahallalarda oilabay ijtimoiy pedagogik ishni tashkil qilish orqali ota-onalarning pedagogik madaniyatni o'rganish, baholash va rivojlantirishdir.

"Pedagogik ma'rifat brigadasi" har bir tuman maktabgacha va maktabni boshqarish bo'limi va Mahalla bo'limi bilan birgalikda tashkil qilinadi. Har bir maktab – o'zi joylashgan mahalla uchun "Pedagogik ma'rifat brigadasi"ni tashkil qiladi. "Pedagogik ma'rifat brigada"larining har biriga kamida bir mahalla ishonib topshiriladi. Misol uchun, biror o'smir darsga kelmaydigan bo'lsa, yoki o'g'irlik qilsa, "Pedagogik ma'rifat brigadasi" uning xonadonga borib, ushbu muammo sabablarini o'rganadi. Masalanitezkor, ijobiy hal qilishga kirishadi. Bunga "mahalla yettiligi" unga tegishli yordam ko'rsatadi.

Natija. Ma'naviyat sektorining asosiy vazifasi nima? Keng ma'noda sektor shahar va tumanlar, hududlarning ijtimoiy-ma'naviy muhitini ta'minlash va bu borada tegishli mahalliy davlat hokimiyati organining ko'maklashuvchi kollegial ishchi tuzilmasi, hududiy ma'naviyat va ma'rifat kengashlarining ishchi organi hisoblanadi. Tor, pedagogik ma'noda soddalashtirib aytadigan bo'lsak, har bir inson oilada tug'ilib, mahallada ulg'ayib, ta'lim maskanida ilm oladi.

Ma'naviyat sektorining asosiy vazifasi ushbu pedagogik jarayonda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash, aholining ma'naviy-ma'rifiy, madaniy va intellektual salohiyatini oshirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylash va rivojlantirish, shuningdek, jamiyatda sog'lom dunyoqarashni shakllantirishdir[3]. Bu vazifalar kitobxonlikni targ'ib qilish, madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish, milliy va tarixiy merosni saqlash hamda yosh avlodni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Pirovard maqsad esa bitta – bugungi tahlikali zamonada bizni ham chetlab o'tmayotgan mafkuraviy tahdidlarga qarshi dadil kurashish, qat'iy ishlash, samarali natija ko'rsatishdir.

Xulosa. Ushbu ijtimoiy-ma'naviy innovatsiyaning bir jihatiga ahamiyat qaratish lozim. Ya'ni bugun har bir pedagog "O'zbekiston-2030" strategiyasini amalga oshirishda amalda vatan himoyachisi bo'lishimiz, yoshlarimizni ham shu ruhda kamol toptirishimiz zarur. Buning uchun har birimiz "g'oyaviy jangchi"ga aylanishimizni zamon talab qilmoqda, davr taqozo etyapti. Shu sababli avval amalga oshirmoqchi bo'lgan ishlarimizning mohiyatini, g'oyasini, mazmunini har taraflama ilmiy asoslab, o'rganib, tahlil qilib olishimiz zarur.

Ma'naviyat sektori yangi davrning innovatsion nafasi va pedagogik modernizatsiya ovoqidir. Chunki bunda yangi avlod yoshlari, ularning o'y-fikrlari, ma'rifati yo'lidagi loyihalar ham aks ettirildi. Zero bugun mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tashkilotida, umumta'lim maktablarida, oliy ta'lim muassasalarida bugun farzandlarimiz, ertangi kelajaklarimiz ilm olmoqda, tarbiya topmoqda. Globallashuv sharoitida esa, avvalo, inson ongi va qalbini zabt etish marrasi qo'yilmoqda.

Kurashlar keskin tus olayotgan bir davrda xalqaro maydonda yoshlarni har qanday xavf va tahdidlardan asrash, ularning mustaqil fikri, e'tiqodi va qat'iy hayotiy pozitsiyasini shakllantirish eng muhim va kechiktirib bo'lmaz vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Quronov M., Jumanov Sh. Individual va differensial tarbiyaning xorijiy tendensiyalari. O'quvchilarni milliy gurur va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning individual va differensial texnologiyalari: Xalqaro simpoziymi materiallar to'plami. 2025-yil 9-10 oktabr. – T.: TPML, QX, QU, 2025. B. 44-48.
2. <https://www.uzedu.uz/y3>
3. <https://president.uz/uz/lists/view/6941>

OLIJ TA'LIM TIZIMIDA MOBIL TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH XUSUSIYATLARI

Mamirov Azim Xolmurzayevich

Toshkent xalqaro Kimyo universiteti Samarqand filiali "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasida v.v.b. dotsenti pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
mamirovazim33@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17638754>

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida mobil texnologiyalarni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari, ularning ta'lim jarayoniga integratsiyalash mexanizmlari hamda talabalarning o'quv motivatsiyasini oshirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Mobil ilovalar, masofaviy ta'lim platformalari va raqamli resurslardan foydalanishning afzalliklari hamda samaradorlik omillari ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so'zlar: mobil texnologiyalar, raqamli ta'lim, innovatsion metodlar, elektron resurslar, masofaviy o'qitish, oliy ta'lim.

FEATURES OF THE APPLICATION OF MOBILE TECHNOLOGIES IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM

Mamirov Azim Xolmurzayevich

Annotation: This article analyzes the specific features of the application of mobile technologies in the higher education system, the mechanisms of their integration into the educational process, and their importance in increasing students' learning motivation. The advantages and efficiency factors of using mobile applications, distance learning platforms, and digital resources are scientifically covered.

Keywords: mobile technologies, digital education, innovative methods, electronic resources, distance learning, higher education.

ОСОБЕННОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ МОБИЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Мамиров Азим Холмурзаевич

*И.о. доцента кафедры методики дошкольного и начального образования,
Самаркандский филиал Ташкентского международного университета Кимё,
доктор философии по педагогическим наукам (PhD)
Email: mamirovazim33@gmail.com*

Аннотация: В статье рассматриваются особенности применения мобильных технологий в системе высшего образования, механизмы их интеграции в образовательный процесс и роль в повышении учебной мотивации студентов. Особое внимание уделено преимуществам использования мобильных приложений, платформ дистанционного обучения и цифровых ресурсов, а также факторам, влияющим на их эффективность.

Ключевые слова: мобильные технологии, цифровое образование, инновационные методы, электронные ресурсы, дистанционное обучение, высшее образование.

XXI asrda ta'lim sohasida yuz berayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari, xususan, mobil texnologiyalarni o'quv jarayoniga keng joriy etish, o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi o'zaro aloqani yangi bosqichga olib chiqdi. O'zbekiston Respublikasida ham **"Raqamli ta'lim"** konsepsiyasi doirasida mobil ilovalar, elektron darsliklar, onlayn platformalar orqali ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish dolzarb vazifaga aylandi.

Bugungi kunda mustaqil va ijodiy fikrlaydigan, intellektual jihatdan rivojlangan, o'z dunyo-qarashiga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash har doimgidek dolzarb bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, dunyo taraqqiyoti shiddati, unda kechayotgan voqyealar rivoji barcha sohalar kabi ta'lim-tarbiya jarayoniga ham yangicha yondashuv, innovatsiyalarni tatbiq etishni taqozo etmoqda. Avvalo, bu o'quv dastur va darsliklarni yanada takomillashtirish, o'qituvchi-pedagoglar saviyasini muntazam oshirib borish, jarayonga eng zamonaviy va ilg'or axborot hamda ta'lim texnologiyalarini joriy etish bilan bog'liq muammolarda ko'rinmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida eski an'anaviy uslubdagi darslar yoshlarimiz ehtiyojini qondirmaydi, ular bunday darslarni tinglagisi kelmaydi. Chunki, fikrlash va tafakkur boshqa, aynan biror fan bo'yicha bilimga ega bo'lish boshqa. Fikrlash va tafakkur tabiiy aql mahsuli, bilim olish esa –bu ta'lim muassasi, pedagog faoliyati mahsuli. Agar pedagog yoshlar bilan hamnafas fikrlamasa, zamon yangiliklariga va talablariga yoshlardanda tez bo'lmasa, uning ta'lim-tarbiya sohasidagi faoliyati samarasiz bo'lib qoladi [3;31-35-b].

1. Mobil texnologiyalarning ta'limdagi o'rni

Mobil texnologiyalar – bu smartfonlar, planshetlar, noutbuklar va boshqa mobil qurilmalarda ishlaydigan dasturiy vositalar orqali o'qitish va o'rganishni tashkil etish imkonini beruvchi texnologik tizimlardir. Ular talabalarga:

- istalgan joyda va vaqtda bilim olish;
- mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- multimedia resurslari (video, audio, interaktiv testlar) orqali o'quv jarayonini boyitish imkonini beradi.

Mobil texnologiyalar yordamida o'qituvchi dars jarayonini nazorat qilishi, topshiriqlarni onlayn baholashi va fikr almashinuvi uchun qulay muhit yaratishi mumkin.

Oliy ta'lim muassasalarida ta'limni samarali tashkil qilish uchun hozirda axborot-kommunikasiya texnologiyalarining turli vositalaridan foydalanish mumkin. Jumladan, elektron kurslar, elektron ta'lim tizimlari, video ma'ruzalar, vebseminarlar, elektron testlar va boshqalar. Bu vositalardan tashqari, hozirgi vaqtda zamonaviy va ixcham mobil texnologiyalar xam mavjud. Oliy ta'lim muassasalarida ta'limni mobil texnologiyalar asosida tashkil etishda birinchi navbatda muayyan vaqt va joyga bog'liq bo'lmagan holda ta'lim materiallari o'rganiladi. Bu sizni o'rganishingiz kerak bo'lgan ma'lumotlarni olishga imkon beradi. Mobil texnologiya asosida ta'lim bugungi kunda xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimlarida keng qo'llanilmoqda. Amerika Qo'shma Shtatlari, Kanada, Evropa mamlakatlarida mobil ta'lim resurslari va ularning rivojlanish usullarini birlashtiruvchi yagona platformadan foydalanish orqali turli fanlarni o'qitishda mobil ta'lim texnologiyalari joriy etilganligini ta'kidlash mumkin [4;339-344-b. 5;217-229-b.]. Hozirgi vaqtda oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etishni an'anaviy, texnologik, multimediasiy darajalarga ajratishimiz mumkin. An'anaviy darajada o'qituvchi va o'quvchi aloqasi doimo ta'minlanadi. Shuning uchun bilimlarni egallash darajasini doimiy ravishda nazorat qilish va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, xatolarni darhol aniqlash va to'g'rilash kerak bo'ladi. Ta'lim sifatining texnologik darajasi ta'limda axborotning ko'p kanallari mavjudligini aniqlaydi, bu uning rivojlanishi va mustahkamlanishini sezilarli darajada tezlashtiradi. O'quv jarayonida o'qitishga ko'proq e'tibor qaratiladi [1;132-137-b.].

Talabalarining aksariyati ta'limda mobil texnologiyalardan foydalanishga texnik va psixologik jihatdan tayyor bo'lib, mobil qurilmalar va texnologiyalarning imkoniyatidan yanada samarali foydalanish uchun yangi imkoniyatlar yaratish zarur. Buning uchun mutaxassis o'qituvchilar tomonidan tashkiliy ishlar, talabalarni ta'limda mobil ta'limdan foydalanishning imkoniyatlari, shakllari va usullarini joriy etish bo'yicha ilmiy va uslubiy ishlarini ishlab chiqish talab qilinadi. Oliy ta'lim muassasalarida mobil qurilmalardan foydalanishning bir qator usullari mavjud:

- multimediasiy o'qitish veb-resurslari (audio fayllar, videofilmlar,
- podkastlar, grafikalar, xaritalar, rasmlar) ishlab chiqish uchun;
- o'quv saytlari, resurslar, kataloglar, lug'atlarga tezkor kirishni ta'minlash;
- haqiqiy ta'lim vositasi sifatida mobil aloqa platformalari uchun moslashtirilgan o'quv materiallarini ishlab chiqishni ta'minlash (SMS-testlar, o'quv qo'llanmalari va mobil ilovalarga asoslangan yo'riqnomalar).

Bugungi kunda mobil ta'lim talabalarga yangi aloqa va hamkorlik vositalarini taqdim etmoqda. Pedagogik nuqtai nazardan, bilimlarni o'zlashtirishda talabalar o'z-o'zini o'qitish vositasi sifatida mobil ta'limdan foydalanadilar [5]. Shuning uchun oliy ta'lim muassasalarida mobil ta'limni rivojlantirish uchun bir qator qadamlar qo'yilishi kerak. Bular quyidagicha:

- ta'limni no'an'anaviy tarzda tashkil etish, norasmiy yoki kundalik muhitda mobil o'quv vositalaridan foydalanib o'quvchilar o'zini o'zi anglashga intilishlarini rag'batlantirish;
- talabalar bilim va tajriba almashishlari uchun mobil texnologiyalardan foydalanish;
- mobil ta'limni joriy etish uchun ta'lim muassasalari bilan birga
- ma'muriy va huquqiy standartlarni yaratish;
- shaxsiy mobil qurilmalar bilan o'z o'quv uslublarini muntazam
- takomillashtiradigan o'qituvchilarni rag'batlantirish;

Mobil ta'limdan foydalanish uchun o'quvchilarning mustaqil faoliyati uchun motivasiyasini oshirish kerak[1; 31-36 b.]. Bir qator ilmiy tadqiqotlarida ta'lim oluvchilarning faoliyatli jihatlarini (faoliyat mobil vositalar yordamida pedagog tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan mustaqil ta'limdan iborat, faqat ochiq masofaviy ta'limga ilova sifatida) ko'rib chiqish paydo bo'lgan. Ushbu holatdan, mualliflar tomonidan mobil ta'limning yetakchi qonuniyatlari, tamoyillari, usullari va shakllari, uning samaradorligini oshirish yo'llari va vositalari ajratilgan. Bo'lajak jismoniy tarbiya mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligi muammosini dastlabki o'rganish shuni ko'rsatdiki, kasbiy pedagogik ta'limning hozirgi sharoitida qarama-qarshiliklar mavjud. Bo'lajak mutaxassisning jismoniy tarbiya tayyorgarligini takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar va innovasion axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalangan holda mobil ta'lim asosida talabalarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirish uslubiyatining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi. Mobil qurilmalar singdirilgan o'quv muhitida talabalarning jismoniy madaniyatini shakllantirish va pedagogik texnologiyalarni loyihalash bilan bog'liq bir qator muammolar tadqiqotchilar va ishlab chiquvchilar manfaatlar doirasidan chetda qolmoqda. Zamonaviy texnologiya doirasida amalga oshiriladigan faoliyat ta'limning harakatdagi global informasion-kommunikativ makrotexnologiyalar faoliyatining xususiyatlariga mos kelishi va kompetentlikning tarkibiy qismlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Keltirilgan nuqtai nazardan kelib chiqqan holda, faoliyatli va komponentli yondashuvlarni zamonaviy ta'lim texnologiyalarining pedagogik maqsadlilikini, uslubiy samaradorligini va didaktik imkoniyatlarini asoslash uchun asosiy mezonlar sifatida ajratamiz. Shuningdek, muayyan zamonaviy ta'lim texnologiyalari uchun shunday asoslashni amalga oshiramiz. Ko'pchilik pedagoglar tomonidan zamonaviy ta'lim turi sifatida ajratiladigan ta'lim texnologiyalari ichida informasion-kommunikativ texnologiyalar (IKT) va xususan, mobil ta'lim texnologiyalari yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Oliy ta'lim muassasalarida masofaviy va aralash ta'lim amaliyotini tahlil qilishdan kelib chiqib, mutaxassis faoliyatining quyidagi asosiy turlari uchun mobil ta'lim vositalarining afzalliklarini ajratadi: o'rgatuvchi vebresurslarni multimediyali qayta tiklash; o'rgatuvchi saytlarga tezkor ulanishni ta'minlash; aloqaning mobil vositalari platformalari uchun adaptasiya qilingan (moslashtirilgan) o'quv materiallarini ishlab chiqish sharti bilan xususan o'rgatuvchi vosita sifatida foydalanish.

Mualliflar ta'lim muassasalarida mavjud mobil ilovalar yordamida o'quvchilarning jismoniy holatini saqlash va rivojlantirishning yangi usullarini izlash muammosi haqida izlanish olib borishgan. Mustaqil jismoniy tarbiya dasturlari bilan mobil ilovalarni tahlil qilish ta'lim tashkilotlari o'quvchilarini axborot bilan ta'minlash shakllaridan biri sifatida va jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish hamda yaxshilash uchun ishdan tashqari vaqtlarda foydalanishda tavsiya etilgan. Smartfonlar internetda ishlashning birinchi raqamli qurilmasi sifatida talabalar orasida ma'lumotlarning muhim manbai va tadqiqotga asoslangan ta'limning hal qiluvchi vositasi sifatida foydalanilmoqda.

Mobil ilovalar orqali ta'lim mazmunining katta zaxirasini to'ldirish maqsadida, yaqinda ta'lim muassasalari uchinchi tomon ishlab chiquvchilari bilan foydalanish qulay bo'lgan mobil formatdagi ta'lim resurslarini tasvirlaydigan maxsus ilovalar yaratish ustida o'zaro hamkorlikda ish olib bormoqda. Bundan tashqari, talabalar ijtimoiy joylar uchun ko'rsatmalar va tavsiyalar olishdan tortib, kampus faoliyati va voqealari haqida yangiliklarni bilib olishgacha joylashuv xizmatlaridan foydalanadilar. Mobil texnologiyalar tufayli oliy ta'lim muassasasi talabalari va xodimlar o'rtasida ma'lumot olish va almashish osonlashdi. Smartfon talabalarning hayotida deyarli oziq-ovqat va suv kabi zarurdir. Darhaqiqat, tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, talabalarning 90 foizdan ko'prog'i o'z telefonlaridan internet tarmoqlariga kirish uchun foydalanadilar [8; 68-75-b.].

"Mobil ta'lim" atamasi kundan-kunga rivojlanmoqda va uning aniq ma'nosi haqida olim va mutaxassislar turlicha fikr bildiradilar. Turli qarash va bahslarga qaramay, bu tushunchani tushuntirish uchun ba'zi kalit so'zlar mavjud. Mobil ta'limni o'rganishni tushuntirish uchun shaxsiy, o'z-o'zidan, joylashtirilgan, shaxsiy va ko'chma kabi ba'zi kalit so'zlarni ko'rsatishimiz mumkin

[7; 83–93-b.]. Mobil o'qishni o'quv modeli sifatida tavsiflash mumkin, u talabalarga har qanday vaqtda va istalgan joyda mobil va internet texnologiyalaridan foydalangan holda o'quv materiallaridan foydalanish imkoniyatini beradi. Mobil qurilmalarning ba'zi xususiyatlari shundaki, ular odatda arzon, ko'chma va moslashuvchan. Shu sababli, mobil texnologiya o'quvchilar uchun juda jozibali bo'lib, o'quv jarayonida foydalanish mumkin. Mobil telefonlarda o'qitish jarayonida foydali bo'lishi mumkin bo'lgan bir nechta ilovalar mavjud — tilni o'rganish, muammolarni hal qilishning matematik dasturlari va shu kabi boshqa dasturlar. Boshqa o'qitish texnologiyalaridan ajralib turadigan mobil ta'limning asosiy xususiyati uning harakatchanligidir.

Yuqorida aytib o'tilgan mobil ta'limning afzalliklariga qaramay, u an'anaviy ta'limning o'rnini bosa olmaydi, biroq to'g'ri ishlatilsa, mavjud ta'lim uslublarining qiymatini oshirishi mumkin. Keltirilgan tadqiqotlar natijalarini keng tahlil qilishni amalga oshirib, biz mobil ta'lim vositalarining oliy ta'lim muassasalaridagi texnik va texnologik imkoniyatlarini qayd etish va qisman tahlil qilish orqali talabalarining o'quv faoliyatini takomillashtirishning ayrim elementlarini ajratish, o'qituvchi tomonidan qo'yilgan ta'lim vazifalariga mustaqil erishishi haqida xulosaga kelamiz. Haqiqatdan ham, bunday natijani asosli deb hisoblash mumkin, lekin uni ta'lim texnologiyalarining barcha komponentlarini, ularning o'zaro aloqalarini va ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarining individual hamda hamkorlikdagi faoliyatlarini hisobga olgan holda tavsiflash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim muassasalarida aksariyat an'anaviy uslubdagi darslar talabalarimiz ehtiyojini qondirmaydi, bunda fan bo'yicha bilimlarni egallash darajasi pasayib boradi. Talabalarining aksariyati ta'limda mobil texnologiyalardan foydalanishga tayyor bo'lib, mobil qurilmalar va texnologiyalarning imkoniyatidan yanada samarali foydalanish uchun yangi imkoniyatlar yaratish lozim. Buning uchun mutaxassis o'qituvchilar tomonidan talabalarining ta'limda mobil ta'limdan foydalanish imkoniyatlari, shakllari va usullarini joriy etish bo'yicha ilmiy va uslubiy ishlarni ishlab chiqish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli ta'limni rivojlantirish to'g'risida"gi qarori. – 2022.
2. Sharipov, B. (2023). Mobil texnologiyalar va ularning ta'limdagi qo'llanilishi. Toshkent: TDPU nashriyoti.
3. Kuk, K., & Traxler, J. (2021). Mobile Learning: The Next Generation. Routledge.
4. Aliev, A. (2024). Innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya.
5. Танибердиев А.А. "Олий таълим муассасаларида жисмоний тарбия дарслари учун клас-тер модулини ишлаб чиқиш" Пед.... ф.б.ф.д (PhD) диссертацияси автореферати. Чирчиқ – 2019, -60 б.
6. Бабаджонов С.С. "Педагогика олий таълим муассасалари талабаларининг медиакомпетентлигини ривожлантириш технологияси". Пед. ф.б.ф.д (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент – 2018 й. 48 б.
7. Олимов А.И. Олий таълим муассасаларида бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларини ўқитишда махсус мобил иловалар яратиш зарурияти //Ўзбекистонда жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш истиқболлари, Республика анжумани материаллари тўплами Чирчиқ.: 09.12.2019 й. -Б. 579-581.
8. Олимов А.И.Олий таълим муассасаларининг таълим жараёнида мобил иловаларни қўллаш устуворлиги // Ўзбекистонда жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш истиқболлари, Республика анжумани материаллари тўплами Чирчиқ.: 09.12.2019 й. -Б. 876-879.

Xo'jamqulov Anvar Jozilovich

*Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Samarqand filiali dotsenti v.b,
e-mail: a.xujamqulov@mail.ru, Tel.: +998938388989, +998939974746*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17638780>

Annotatsiya. Ushbu maqolada yozuvchi Omon Muxtorning “Xotin podshoh” va “Tepalikdagi xaroba” romanlari tahlili asosida intermatn va intermatnlik hodisasi atroflicha tahlil etilgan. Dunyo adabiyotshunosligida XX asrning 60-yillarida, milliy adabiyotshunosligimizda esa 2000-yillarda bo'y ko'rsatgan struktural tahlil metodining bir unsuri sifatida qaraluvchi intermatnlik badiiy matnni to'laqonli tushunishga yordam beradi. Maqolada tahlil natijalari asosida milliy adabiyotimizda intermatnlik va uning nazariy xususiyatlari, zamonaviy romanlarda aks etishi, personajlar ruhiyatini tahlil qilishdagi o'rni aniqlangan.

Kalit so'zlar: intermatn, intermatnlik, struktural metod, strukturalizm, uslub, badiiy tahlil, reminissensiya, allyuziya, iqtibos, epigrafi, sarlavha.

INTERTEXTUAL PHENOMENON AS AN ELEMENT OF STRUCTURAL ANALYSIS METHOD

Xo'jamqulov Anvar Jozilovich

*Acting Associate Professor, Samarkand Branch, Kimyo International University In Tashkent
Email: a.xujamqulov@mail.ru | Tel.: +998938388989, +998939974746*

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of intertext and the intertextual phenomenon based on the study of Omon Muhtar's novels “Khotin Podshoh” and “Tepalikdagi Xaroba”. In world literary studies, intertextuality began to gain attention in the 1960s, and in national literary scholarship, it became prominent in the 2000s. As an element of the structural analysis method, intertextuality helps achieve a full understanding of literary texts. Based on the analysis, the study identifies the theoretical features of intertextuality in national literature, its representation in contemporary novels, and its role in analyzing the psychology of characters.

Keywords: intertext, intertextuality, structural method, structuralism, style, literary analysis, reminiscence, allusion, quotation, epigraph, title.

ЯВЛЕНИЕ ИНТЕРТЕКСТА КАК ЭЛЕМЕНТ МЕТОДА СТРУКТУРНОГО АНАЛИЗА

Ходжамкулов Анвар Джозилович

*И.о. доцента, Самаркандский филиал Ташкентского международного университета
Кимё*

Email: a.xujamqulov@mail.ru | Тел.: +998938388989, +998939974746

Аннотация:

В статье проводится всесторонний анализ интертекста и явления интертекстуальности на основе исследования романов Омона Мухтара «Хотин Подшо́х» и «Тепаликдаги Хароба». В мировой литературоведческой науке интертекстуальность начала привлекать внимание в 1960-х годах, а в национальной литературоведческой традиции – в 2000-х. Как элемент метода структурного анализа, интертекстуальность способствует полноценному пониманию

художественного текста. На основе анализа определены теоретические особенности интертекстуальности в национальной литературе, её отражение в современных романах и роль в анализе психологии персонажей.

Ключевые слова: интертекст, интертекстуальность, структурный метод, структурализм, стиль, литературный анализ, реминисценция, аллюзия, цитата, эпиграф, заголовок.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Badiiy asarni tushunish, uni idrok qilish, asar bosh g'oya-sini anglab yetishda ilmiy tahlillarning o'rni beqiyos. Tabiiyki, o'quvchi-kitobxon badiiy asarni o'z subyekti – dunyoqarashi, intellekti, mentaliteti, e'tiqod tarzi, milliy mansubligi va shu kabi ko'plab sabablar ta'siri asosida tushunadi. Bu esa asar xususida xolis baho berish imkonini chegaralashi mumkin. Ana shunday vaziyatda kitobxonga ayni shu asar haqidagi ilmiy munosabatlar asqatadi. "Badiiy asarni o'qish, o'rganish va izohlashga qaratilgan ilmiy-estetik faoliyatning uzoq tarixi moybaynida asarning tahlili bo'yicha tarixiy-tipologik, tarixiy-madaniy, qiyosiy-tarixiy, funksional, sotsiologik, formal, struktural, biografik, psixologik, psixoanalitik va boshqa bir qator yondashuvlar tizimi shakllangan. Shuningdek, badiiy matnni tahlil etishning bu tizimlaridan ikki yoki undan ortig'ini birgalikda qo'llash tufayli ham yana bir qancha tahlil turlari yuzaga kelgan. Tahlil amaliyotida ham badiiy asarlarga yondashuvning ayrim yo'nalishlari qaror topgan" [1;312-b.]. Sanalganlar orasida dunyo adabiyotshunosligida XX asrning 60-yillarida, milliy adabiyotshunosligimizda esa 2000-yillarda bo'y ko'rsatgan struktural tahlil metodi badiiy matnni to'laqonli tushunishga yordam beradi.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar taxlili. "Strukturalizm (lot. structura – qurilish, joylashish) – XX asrdagi ikkita jahon urushi oralig'ida shakllangan va 60-yillarga kelib keng (ayniqsa, Fransiyada) ommalashgan yo'nalish, ijtimoiy va gumanitar ilm sohalaridagi tadqiqot metodi...

Strukturalizmning adabiyotshunoslikdagi ilk kurtaklari rus formal maktabi namoyandalari (R.Yakobson, V.Shklovskiy, Y.Eyexenbaum, Y.Tinyanov va b.) faoliyatida yuz kursatgan bo'lsa, V.Proppning "Sehrli ertak morfologiyasi" (1928) asari mazkur metod ancha izchil qo'llangan tadqiqot sanaladi. Keyinchalik struktur adabiyotshunoslik markazi Fransiyaga ko'chib, uning rivoji R.Yakobson, R.Bart, S.Todorov kabi olimlar faoliyati bilan bog'liq kechdi. Shuningdek, struktur adabiyotshunoslik rivojida Y.M.Lotman boshchiligidagi Moskva-Tartu ilmiy maktabining ham katta xizmati bor. Shu o'rinda struktural adabiyotshunoslikka xos xususiyatlardan ayrimlarini keltirib o'tish o'rinli. Jumladan, u adabiy asarga immanentlik tamoyili asosida yondashadi, ya'ni adabiy asarni alohida hodisa sifatida olib, uning ichki qurilishini tadqiq etadi, asardan tashqaridagi omillar (genezisi, rivojlanishi, tashqi vazifalari va sh.k.) e'tibordan soqit qilinadi. Immanent tahlilning maqsadi esa tadqiq etilayotgan asarning ichki qurilishi, undagi unsurlarning asarning sistem butunlik sifatida namoyon bo'lishini ta'minlovchi o'zaro aloqa va munosabatlarini o'rganishdan iboratdir. Strukturalizm ifoda va ma'no munosabatiga noan'anaviy yondashadi. An'anaga ko'ra, ma'no avvaldan mavjud va ifodalashni taqozo etadigan narsa sifatida tushunilsa, strukturalizm buni inkor qilib, struktura – shakl unsurlarining o'zaro aloqa-munosabatlari sistemani yuzaga keltirishi davomida ma'no voqe bo'ladi, deb biladi" [2; 285-b.].

Muammoni hal qilish yo'llari. Struktural tahlil metodining unsuri sifatida qaraladigan intermatnlik hodisasini tadqiq qilish tahlilni yanada mukammallashtiradi. Intermatn va intermatnlikni dunyo adabiyotshunosligida Y.Kristeva, R.Bart, L.Jenni, J.Denet, I.Arnold, I.Ilin, Yu.Karaulov, V.Moskvin, N.Fateyeva kabilar, o'zbek adabiyotshunosligida esa M.Yo'ldoshev, M.Xolbekov, D.Xudoyberganova, I.Azimova, F.Xomidovalar atroficha o'rganishgan. Intermatnlik tushunchasiga "Adabiyotshunoslik lug'ati"da shunday ta'rif berilgan: "Intertekstuallik (lot. inter – aro, textum – to'qima, mato, matn) – fanga fransuz filologi Y.Kristeva kiritgan termin. Unga ko'ra, har qanday matn avval mavjud bo'lgan matnlarni transformatsiya qilgan holda o'ziga singdirgan sitatalar majmuyidir. Mutaxassislar intertekstuallik konsepsiyasi rus olimi M.Baxtin qarashlarini rivojlantirish, boshqacha aytganda, qayta idrok etish asosida vujudga kelganini ta'kidlaydilar. M.Baxtin adabiyotning mavjudlik qonuniyatlari haqida to'xtalib, har qanday asar o'zida ijodkor voqeligini

aks ettirgani holda, o'zidan avvalgi va o'ziga zamondosh adabiyot bilan muntazam dialogik aloqada bo'ladi, ya'ni adabiyotning mavjudligi intersub'yektiv xarakterga ega deb biladi. M.Baxtin ta'limotining formal tomoniga urg'u bergan Y.Kristeva esa dialogni matnlar doirasi bilan cheklab, intersub'yektivlik va intertekstuallikni oldingi planga chiqaradi"[2; 119-b.]. Strukturalizm va post-strukturalizm yo'nalishini tadqiq etgan olimlar orasida intermatnlik tushunchasi juda tez ommalashdi. Xususan, fransuz adabiyotshunosi R.Bart intermatnlik hodisasini yoqlab chiqib, har qanday matnni "qo'shtirnoqsiz tsitata" deb ataydi. Uning fikricha, har qanday matn aslida intermatn hisoblanib, unda oldingi va hozirgi paytdagi madaniyatga oid matnlar qaysidir darajada mavjud bo'ladi. Badiiy asarda o'zidan oldingi va joriy zamondosh adabiyot bilan dialogik tarzda boshqa matnlarning ta'siri sezilishi kuzatiladi. Bu adabiyotshunoslikda "reminissensiya" istilohi bilan ataladi. Poststrukturalizm tarafdorlari reminissensiyani badiiy asar tabiatini belgilovchi qonuniyat sifatida baholashadi. Ular matnni keng ma'noda adabiyot, madaniyat, jamiyat, tarix, inson tarzida tushunib, insoniyat madaniyati to'laligicha bitta intermatn sifatida yangi yaratilayotgan har qanday matnga asos bo'lib xizmat qilishini ta'kidlashadi. Strukturalistlar badiiy ijodda individuallikni inkor etib, tabiiy ravishda "sub'yekt o'limi" (Fuqo), "muallif o'limi" (R.Bart) konsepsiyalariga e'tibor qaratishgan. "Matn" va "badiiy asar"ni bir-biridan farqlash intermatn va intermatnlik tushunchalarini yanada aniqroq tushunishga yordam beradi. Adabiyotshunos M.Xolbekovning fikricha: "Hozirda adabiyotshunoslar adabiy-badiiy matn (nutq bundan mustasno – M.X.) "makon"iga yozuvchi tasvir va tavsiflagan narsalarni, hatto ifoda etgan g'oya, konsepsiya, ma'no, bir so'z bilan aytganda, badiiy mazmunni ham qo'shishadi. Bunday paytda "matn" va "asar" so'zlari sinonimga aylanadi. Shunga nisbat bermasdan, adabiyotshunoslikda matn deyilganda, avvalo, tor ma'noda nutqiy, keng ma'noda lisoniy birliklarning qat'iy tartibga solingan izchilligi, mantiqiy ketma-ketligi nazarda tutiladi" [3; 108-b.]. So'z yuritayotganimiz intermatnlik hodisasini yozuvchi Omon Muxtor ijodi misolida ko'rib chiqamiz. Ijodkorning "Xotin podshoh" va "Tepalikdagi xaroba" romanlari o'zining kompozitsiyasi nuqtai nazaridan ixcham, mo'jaz tarzda yozilgan. Ikkala romanda ham tarix va bugun, syurrealizm va realizm, lirik va epik ifoda tarzi qorishiq holda bayon qilinadi.

"Xotin podshoh" romanida muallifning o'zi quyida qayd etganidek, ko'plab intermantlardan foydalangan.

Omon Muxtor nafaqat nosir, balki shoir hamdir. Voqelik tasvirida shoirona o'xshatishlar, tashbehlardan ustamonlik bilan foydalanishi uning she'riyatdan yaxshigina xabardorligidan dalolat beradi. Ayni voqelikni hikoya qilishda ko'pincha mashhur she'riy jumlarlar, parchalarni mazmunga moslab keltiradi.

Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar. Lutfiy hayoti, uning ruhiyati bilan bog'liq holatlarni tasvirlashda shoirning o'z ijod mahsulidan ustamonlik bilan foydalanish, jumalarni voqelikka moslab joylashtirish oson ish emas. Bu kuchli nuqtai nazar, she'rni nozik did bilan tushunish va ayni damda, yuksak mahoratni ham talab etadi. Romanda voqelikning bu kabi o'zgacha tasviri juda ko'p o'rinlarda uchraydi. Ushbu intermantlarning mazmunini anglamasdan turib, yozuvchining maqsadini tushunib bo'lmaydi. Bu esa o'quvchidan o'ziga yarasha intellektual tayyorgarlik, mumtoz she'riyat sirlarini bilishni talab etadi.

Umuman olganda, voqelikning lirik va epik tasvirini yaratishda she'riyatga urg'u qaratilishi tabiiydir. Shundan kelib chiqib, muallifning she'riy intermatnlardan samarali foydalanishini to'g'ri tushunish mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yozuvchi romanlarida intermatnlik hodisasini tadqiq etish orqali asar jozibasini yanada chuqurroq anglab yetish mumkin. Natijada, Omon Muxtor romanlarining zamonaviy o'zbek romanchiligidagi tutgan o'rnini holis baholash, ulardan to'laqonli estetik zavq olish imkoni yuzaga keladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak, 2016.
2. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akadem-nashr, 2010.

3. Xolbekov M. Struktur adabiyotshunoslik. – Toshkent: Navro‘z, 2014. – B. 108.
4. Omon Muxtor. To‘rt tomon qibla: uch romandan iborat Sharq daftari: (trilogiya). – Toshkent: Sharq, 2000.
5. Omon Muxtor. Xotin podshoh. – Toshkent: Sharq, 2010.

TALABA-QIZLARNING TEMURIY MALIKALAR MA’NAVIY MEROSI ASOSIDA AXLOQIY QADRIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Qurbonova Dilafruz Toshturdievna

*KIUT Samarqand filiali Pedagogika va psixologiya kafedrası katta o‘qituvchisi
QurbonovaD@kiut.uz*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17638862>

Annotatsiya: Mazkur maqolada talaba-qizlarning Temuriy malikalar ma’naviy merosi asosida axloqiy qadriyatlarini rivojlantirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ilmiy va amaliy jihatlari hamda raqamlashtirishning o‘rni va imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ma’naviyat, qadriyat, malikalar, pedagogik texnologiya, talaba-qizlar, ta’lim.

USING PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES TO DEVELOP MORAL VALUES OF FEMALE STUDENTS BASED ON THE SPIRITUAL HERITAGE OF TIMURID QUEENS

Qurbonova Dilafruz Toshturdievna

*Senior Lecturer, Department of Pedagogy and Psychology, Samarkand Branch, KIUT
QurbonovaD@kiut.uz*

Abstract: This article examines the scientific and practical aspects of using pedagogical technologies to develop the moral values of female students based on the spiritual heritage of Timurid queens. The study also highlights the role and potential of digitalization in this process.

Keywords: spirituality, values, queens, pedagogical technology, female students, education.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ ДЛЯ ФОРМИРОВАНИЯ МОРАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ У СТУДЕНТОК НА ОСНОВЕ ДУХОВНОГО НАСЛЕДИЯ ТИМУРИДСКИХ ЦАРИЦ

Курбонова Дилафруз Тоштурдиевна

*Старший преподаватель кафедры педагогики и психологии, Самаркандский филиал, KIUT
QurbonovaD@kiut.uz*

Аннотация: В статье рассматриваются научные и практические аспекты использования педагогических технологий для формирования моральных ценностей у студенток на основе духовного наследия тимуридских цариц. Также освещается роль и возможности цифровизации в этом процессе.

Ключевые слова: духовность, ценности, царицы, педагогическая технология, студентки, образование.

Jamiyatda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy ma'naviy muhit barqarorligi va taraqqiyoti ko'p jihatdan oilaga, ayollarga bo'lgan munosabat va e'tibor bilan belgilanadi

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirishga va ularni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilindi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya hamda "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi, "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi, "Mehnat muhofazasi to'g'risida"gi, "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi, "Fuqarolarning salomatligini muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi, "Xotin-qizlarga qo'shimcha imtiyozlar to'g'risida"gi Qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, yurtimiz ayollarining huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga ma'naviy-ruhiy madad berish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 58-moddasida xotin-qizlarning barcha sohalarida erkaklar bilan teng huquqli ekani e'tirof etilib, davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlashi ta'kidlab o'tilgan [1].

Darhaqiqat, kelajagimizning munosib vorislari-yoshlarimizning barkamol inson qilib tarbiyalashda ajdodlar merosiga tayanish, ayniqsa milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash nihoyatda muhimdir.

Zamonaviy ta'lim tizimi nafaqat bilimlarni uzatish, balki shaxsiy axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga ham katta ahamiyat beradi. Bugungi kunda ta'limda yoshlarda axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish uchun tarixiy meros, madaniyat va milliy qadriyatlar asosida ta'lim tizimini tashkil etish zarur. O'zbekistonning boy tarixiy merosi, xususan, Temuriy malikalarining ma'naviy merosi, talaba-qizlarning axloqiy qadriyatlarini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Bu malikalar nafaqat o'z davrining ilm-fan, madaniyat va siyosatida faol ishtirok etgan, balki bugungi kunda o'zbek ayolining milliy qadriyatlarini saqlash va rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu maqolada Temuriy malikalarining ma'naviy merosi va pedagogik texnologiyalar yordamida talaba-qizlarning axloqiy qadriyatlarini rivojlantirish masalasi ko'rib chiqiladi.

Temuriylar davri O'rta asr Sharq uyg'onishining yuksak cho'qqilaridan biri bo'lib, bu davrda nafaqat buyuk sarkarda va olimlar, balki ma'rifatli, dono va faol ayollar ham faoliyat yuritgan. Hususan, Saroymulkxonim (Bibixonim), Gavharshodbegim, Gulbadnbegim, Zebuniso singari Temuriy malikalar o'zlarining adabiy, diniy va ma'naviy faoliyatlari orqali musulmon ayollari uchun namunaviy shaxsiyatlar sifatida ajralib turadi.

Bugungi kunda talaba-qizlar tarbiyasini milliy qadriyatlar asosida tashkil etish, ularning axloqiy dunyoqarashini mustahkamlash dolzarb masala bo'lib, bunda raqamli texnologiyalarning o'rni tobora ortib bormoqda.

Bugungi kunda yoshlarning axloqiy tarbiyasi va ma'naviy rivojlanishi dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Globalizatsiya jarayonlari va axborot texnologiyalarining tez rivojlanishi yoshlarda milliy qadriyatlarni yo'qotish xavfini keltirib chiqarmoqda. Aynan shu nuqtai nazardan, Temuriy malikalarining ma'naviy merosi talaba-qizlarning axloqiy qadriyatlarini shakllantirishda ahamiyatli manba bo'lishi mumkin. Temuriy malikalarining siyosiy va ijtimoiy faoliyatlari bugungi yoshlarni adolat, ilmga sadoqat va jamiyatga xizmat qilish kabi axloqiy fazilatlar bilan tarbiyalashga yordam beradi. Shu boisdan, bu merosdan foydalanish va pedagogik texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Temuriy malikalarining tarixiy merosi, ularning axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy roli haqida ko'p-lab ilmiy tadqiqotlar mavjud. S.L. Tursunovning "O'zbek ayollari: tarix va madaniyat" asari [2]. Temuriy malikalarining siyosiy va madaniy rolini keng tahlil qiladi. Ular ilmga bo'lgan sadoqati, davlatda o'z o'rinlari, jamiyatdagi adolat va tenglikni ta'minlashdagi faoliyatlari haqida batafsil ma'lumot beradi. M.A. Oripovning "Temuriylar davrida o'zbek ayollari va ularning jamiyatdagi roli" asarida Temuriy malikalarining ilmiy, madaniy va siyosiy faoliyatlariga oid chuqur tahlil mavjud [3]. Shu bilan birga, M.R. Sayfiddinovning "Temuriylar davri va o'zbek ayolining roli" asarida (2014) o'zbek ayollarining davlat boshqaruvidagi roli va tarixiy o'rni keng yoritilgan [4]. Bu manbalar ta-

laba-qizlarning ma'naviy va axloqiy tarbiyasida Temuriy malikalarining rolini tushunishda asosiy tayanish nuqtasini tashkil etadi.

Pedagogik texnologiyalarni o'rganishda esa A. A. Samigullinning "Pedagogika va axloqiy tarbiya metodlari" asari talaba-qizlarning axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishda samarali pedagogik texnologiyalarni qo'llashning zarurligini ko'rsatadi. Sh.M. Ibragimovning "Zamonaviy pedagogik texnologiyalar" asarida esa interfaol metodlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi o'rni haqida batafsil fikrlar keltirilgan [5]. Bu asarlar pedagogik texnologiyalarni talaba-qizlarning axloqiy tarbiyasiga integratsiya qilishda muhim qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Temuriy malikalarining ilmga bo'lgan sadoqati va madaniyatga qo'shgan hissalar tarixda o'z aksini topgan. Gavxarshodbegim, masalan, Hirot shahrida o'ziga xos madrasalar va ilmiy markazlar qurdirgan. U o'z davrining yirik ilm-fan homiysi bo'lgan. Saroymulkxonim esa ayollarni ilm olishga va jamiyatda faollik ko'rsatishga undagan. Uning siyosiy faoliyati va ijtimoiy islohotlari qadriyatlarni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Temuriy malikalarining jamiyatdagi o'rinlari, ilmga sadoqatlari va adolatga bo'lgan intilishlari bugungi talaba-qizlarga o'z hayotlarini qanday ma'naviy asosda qurishlarini ko'rsatadi.

Axloqiy qadriyatlar va zamonaviy talaba-qizlar tarbiyashlashda quyidagi axloqiy qadriyatlar muhim ahamiyatga ega: halollik va rostgo'ylik; hayo, andisha; mehnatsevarlik va ilmga intilish; vatanga sadoqat kabilar.

Bu qadriyatlar Temuriy malikalar tomonidan o'z hayotlari orqali targ'ib qilingan. Masalan, Zebuniso she'riyatida hayo, sabr, poklik va ilmga chanqoqlik doimiy mavzu bo'lgan. Shunday qadriyatlarni bugungi talaba-qizlarga zamonaviy shakllarda yetkazish uchun raqamli texnologiyalar katta imkoniyatlar ochadi.

Temuriy malikalarining siyosiy faoliyatlari faqatgina davlatni boshqarish bilan cheklanib qolmaydi. Ularning ayollar huquqlarini himoya qilish, jamiyatda adolat va tenglikni ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlari bugungi kunda yoshlarning tarbiyasida o'rnak bo'lishi mumkin.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida talaba-qizlarning axloqiy qadriyatlarini rivojlantirish imkoniyatlari juda kengdir. Interfaol metodlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida temuriy malikalarining hayoti va faoliyatlarini o'rganish, yoshlarning o'ziga xos axloqiy me'yorlarini shakllantirishda samarali bo'lishi mumkin.

1. Interfaol metodlar

- "Aqliy hujum" va "Fikrlar kartasi" metodlari talaba-qizlarga tarixiy shaxslarning axloqiy qadriyatlarini tahlil qilishga yordam beradi. Bu metodlar orqali talabalar o'z fikrlarini erkin ifoda etishadi, shu bilan birga ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.
- "Insert" metodi yordamida talaba-qizlar o'qigan materialni tahlil qilib, uning axloqiy ahamiyatini tushunib, o'z hayotlarida qanday qo'llash mumkinligini aniqlashadi.

2. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)

- Hujjatli filmlar va multimediya darslar yordamida Temuriy malikalarining hayoti va faoliyatini interaktiv tarzda o'rgatish mumkin. Bu usul talabalarga ularning tarixiy o'rinlari va axloqiy qadriyatlari haqida yanada chuqurroq tasavvur hosil qilish imkoniyatini yaratadi.
- Onlayn viktorinalar va elektron testlar orqali talaba-qizlarning bilim va axloqiy qadriyatlarini doimiy ravishda tekshirish va ularni takomillashtirish imkoniyatlari mavjud.

Xulosa

Temuriy malikalarining ma'naviy merosi talaba-qizlarning axloqiy qadriyatlarini rivojlantirishda samarali vosita bo'lib, pedagogik texnologiyalar yordamida ularni o'rganish jarayonini yanada samarali qilish mumkin. Pedagogik texnologiyalar, xususan, interfaol metodlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, Temuriy malikalarining axloqiy qadriyatlarini talaba-qizlarga yetkazish uchun zamonaviy va samarali vositalardir. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar ham bu qadriyatlarni zamonaviy usullarda keng auditoriyaga yetkazish, ularni chuqur o'zlashtirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Raqamlashtirish nafaqat tarixni saqlaydi, balki uni bugungi kun

talablari asosida yoshlar ongiga singdiradi. Bu, o'z navbatida, yoshlarni ilmga, adolatga, vatanparvarlikka va milliy qadriyatlarni hurmat qilishga yo'naltiradi.

Tavsiyalar

1. Oliy ta'lim muassasalarida "Temuriy ayollar merosi" nomli onlayn kurslar yaratish;
2. Tarixiy-ayollar mavzusida raqamli platforma va portal ochish;
3. Yoshlar auditoriyasiga mos qisqa, qiziqarli, interaktiv kontentlar tayyorlash.
4. O'quv dasturlariga Temuriy malikalar hayoti va faoliyatini o'rgatishga bag'ishlangan maxsus bo'lim kiritish.
5. Tarixiy rolli o'yinlar orqali talabalar Temuriy malikalar va ularning axloqiy qadriyatlarini o'rganishlari uchun imkoniyat yaratish.
6. Seminar va treninglar tashkil etish orqali qizlarni ilm-fanga, madaniyatga va jamiyatdagi o'z o'rniga bo'lgan hurmatni rivojlantirish.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Xalq so'zi, 2023- yil 1-may.
2. Tursunov, S.L. O'zbek ayollari: tarix va madaniyat. T.: O'qituvchi. 2011. 35-45 b.
3. Oripov, M.A. Temuriylar davrida o'zbek ayollari va ularning jamiyatdagi roli. T.: Fan. 2013. 121-130 b.
4. Sayfiddinov, M.R. Temuriylar davri va o'zbek ayolining roli. T.: O'zbekiston. 2014. 64-72 b.
5. Samigullin, A.A. Pedagogika va axloqiy tarbiya metodlari. T.: Ta'lim. 2009. 88-96 b.
6. Ibragimov, Sh.M. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. T.: Science. 2017. 88-96 b.

KICHIK YOSHDAGI MAKTAB O'QUVCHILARINI TURIZM VOSITASIDA MA'NAVY-AXLOQIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH

Ravshankulova Dilora Ravshanovna

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasida o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17638892>

Annotatsiya: Mazkur maqolada kichik yoshdagi maktab o'quvchilarini turizm vositasida ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish, o'quvchilarni axloqiy tarbiyalash masalasi, olimlarning fikrlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: turizm, o'quvchi, vosita, jamiyat, ma'naviy-axloqiy sifat, qadriyat, tarbiya.

РАЗВИТИЕ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ СРЕДСТВАМИ ТУРИЗМА

Равшанкулова Дилора Равшановна

Преподаватель кафедры педагогики и психологии Ташкентского международного университета Кимё

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы развития духовно-нравственных качеств младших школьников средствами туризма, вопросы нравственного воспитания учащихся, а также взгляды учёных.

Ключевые слова: туризм, учащийся, среда, общество, духовно-нравственные качества, ценность, образование.

DEVELOPMENT OF SPIRITUAL AND MORAL QUALITIES OF PRIMARY SCHOOL CHILDREN BY MEANS OF TOURISM

Ravshankulova Dilora Ravshanovna

Teacher of the Department of Pedagogy and Psychology of the Kimyo International University In Tashkent

Abstract: The article examines the issues of developing spiritual and moral qualities of primary school students by means of tourism, issues of moral education of students, as well as the views of scientists.

Keywords: tourism, student, environment, society, spiritual and moral qualities, value, education.

Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarga berilayotgan e'tibor, ularning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi, milliy o'zligimiz va qadriyatlarimiz asosida shakllanishi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Shu nuqtayi nazardan, milliy-hududiy an'analарimiz asosida o'quvchi-yoshlarga tarbiya berish masalasi nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy va ma'naviy ahamiyatga ega bo'lgan masalalardan biri sifatida dolzarb bo'lib turibdi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, «Bizni hamisha o'ylantirib keladigan muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan". Shu boisdan ham, yosh avlodni barkamol inson etib tarbiyalash, ularning qalbida vatanparvarlik, milliy g'urur, madaniy merosga hurmat tuyg'ularini shakllantirish – biz pedagoglar zimmasidagi eng sharaflı va mas'uliyatli vazifadir.

O'quvchilarni axloqiy tarbiyalash masalasi bugungi globallashuv sharoitida o'ta dolzarb muammolar sirasiga kiradi. Ayniqsa, o'smir yoshdagi o'quvchilarni ommaviy va marginal madaniyatning salbiy hurujlaridan asrash kundalik ehtiyojiga aylanmoqda. O'zbekistondagi ijtimoiy madaniy muhit birinchi navbatda an'anaviy qadriyatlar: Vatan, oila, mehnat, bilim kabi tushunchalarni yo'qotib ularning mazmunini siyqalashtirmoqda va asl mohiyatini yo'qotmoqda. Shu narsa ayonki, qadriyatlar insonning ma'naviy axloqiy sifatlarini shakllantiruvchi asosiy manba hisoblanadi. Aynan huddi shu qadriyatlar yosh avlodning xulq-atvori, xatti-harakatlarini shakllantirishda ishtirok etmaganligi tufayli ularning ijtimoiy madaniy dunyoqarashi, munosabatlar tizimining barqaror emasligi ayon bo'lmoqda. Vaziyatdan kelib chiqqan holda yoshlar yoqadi yoki yoqmaydi, foydali yoki foydasizligidan qat'iy nazar manipulyatsiya holatlarini osongina fosh qiladilar. Bunday holatlar, ayniqsa, ijtimoiy ziddiyatlarga moyil bo'lgan guruhlar va mazhablar orasida tez-tez uchraydi. Natijada yoshlarning ijtimoiy madaniy muhitga kirishishi jarayonida meyorlar deformatsiyasiga duch kelishlari kuzatilmoqda. Ushbu muammoning yechimi bilan birinchi navbatda pedagogika fani va ta'lim muassasalari muntazam tarzda shug'ullanishlari talab etiladi. Chunki tarbiya jarayonida jamiyatning asosiy funksiyasi: yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk shaxs sifatida tarbiyalashda amalga oshadi. Buning uchun o'quvchi-yoshlarga millatning butun tarixiy rivojlaniishi jarayonida to'plagan tajribasi taqdim etilishi kerak.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy- ma'rifiy o'zgarishlar mazmunida tarixiy, milliy, ma'naviy qadriyatlarni o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlatimiz va jamiyatimiz tomonidan fuqorolarda vatan tuyg'usini shakllantirish, ularda vatan tuyg'usini tarkib toptirishga intilishning zamirida vatan kelajagi uchun munosib vorislar tayyorlash maqsadi yotadi. [1] Shu sababli yosh avlodga o'zi tug'ilib o'sgan shahar, qishloq, mavze, mahalla bilan faxrlanish

tuyg'usini tarkib toptirishda tarixiy me'moriy obidalarni o'rganish yuksak tarbiyaviy ahamiyatga ega. Vatan tuyg'usi–bu xavoiiy gap emas, ajdodlar bilan shunchaki faxrlanish emas – bu ozod xalqning munosib farzandi, mustaqil mamlakatning fidoyi fuqorosi bo'lmoqlikka intilish tuyg'usidir. [2] Vatanni qalban chuqur his qilish uchun ham xalqning vatanparvarlik namunalari ko'rsatish uchun ham xalq hur, vatan mustaqil bo'lishi shartdir. Bugun shu mustaqillik qo'limizda ekan, uni e'zozlashimiz, qadriga yetishimiz kerak. Mana shu tuyg'ular, fazilatlar va ezgu harakatlar bugungi kun uchun haqiqiy vatanparvarlik namunasidir. O'quvchilarda bu tuyg'uni tarbiyalashda vatan tarixining ajralmas qismi tarixiyme'moriy obidalar muhim manba vazifasini o'taydi. Vatan tuyg'usi– bu aziz vatanimizi peshona teri bilan obod etgan, lekin nomlari tarix sahifalarida qolmagan oddiy kishilarimizning fidokorona va yaratuvchan mehnatini mudom yodda tutishdir. Vatan tuyg'usi– bu o'z aql–idroki bilan jaxon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan o'nlab qomusiy mutaffakkirlarimiz Muso al Xorazmiy, Axmad al Farg'oni, Abu Nasr al Forobiy va boshqalarni yodga olishdir.[3] Demak vatan, vatanparvarlik, vatan tuyg'usi tushunchalari biri–biri bilan o'zaro aloqadorlikda, chambarchas bog'langan holda kishilar faoliyati jarayonida o'zligini namoyon etadi va biri ikkinchisini to'ldirib boradi. Vatansiz vatanparvarlikni, vatanparvarliksiz esa vatanga bo'lgan tuyg'uni tasavvur etib bo'lmaydi. Vatan, vatanparvarlik haqidagi manbalarni o'rganib chiqib me'morlik obidalari vositasida o'quvchilarda vatan tuyg'usini shakllantirishda quyidagicha me'zonlarga tayanish mumkin.[4]

Pedagogik nuqtai nazardan, turizm orqali axloqiy tarbiya jarayonini tizimli tashkil etish ta'lim muassasalari oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish, interfaol va innovatsion ta'lim metodlarini qo'llash talab etiladi. Shuningdek, sport turizmini rejalashtirish va tashkil etish jarayonida talabalar qiyinchiliklarni yengish, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish va to'g'ri qaror qabul qilish kabi hayotiy muhim konikmalarni shakllantiradilar. Psixologik nuqtai nazardan olib qaralganda, sport turizmi talabalar shaxsiyati rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, ularda irodaviy sifatlarni, emotsional barqarorlikni, o'ziga bo'lgan ishonchni shakllantiradi. Sayohatlar davomida yoshlar stressga bardoshli bo'lishni, muammolarni hal qilishning samarali usullarini o'rganadilar va o'z shaxsiy kamolotlarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Amaliy jihatdan, sport turizmini oliy ta'lim tizimida keng joriy etish orqali yoshlarning axloqiy tarbiyasini mustahkamlash mumkin. Shu boisdan, sport turizmini universitetlar va ta'lim muassasalarida muntazam ravishda tashkil etish, uni o'quv rejalari va dasturlariga kiritish, maxsus turizm klublarini rivojlantirish, ekologik va sport tadbirlarini ommalash-tirish dolzarb masala hisoblanadi.[5]

Xulosa qilib aytganda, o'quvchi-yoshlarni tarbiyalashda milliy-hududiy an'analardan foydalanish – ularning ma'naviy-axloqiy kamolotiga, milliy o'zlikni anglashiga va vatanparvarlik tuyg'usining shakllanishiga xizmat qiladi. Ta'lim-tarbiya jarayoniga hududiy an'analarni uyg'unlashtirish orqali biz yosh avlodni o'z xalqining tarixiga, madaniyatiga hurmat ruhida tarbiyalaymiz. Bunday yondashuv zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashgan holda milliy tarbiyaning samaradorligini oshirishga zamin yaratadi. Ta'lim jarayonida olib borilgan sa'y-harakatlar asosida xalqning ko'p asrlik qadriyatlarini, ulkan va boy merosini chuqur bilmasdan o'zlikni anglash, o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini qaror toptirish mumkin emas. Shuning uchun ham xalq an'analari, urfodatlar, marosimlari, xalq og'zaki ijodi, milliy o'yinlar va ularda ifodalangan g'oyalarni o'quvchilar ongiga singdirish, ularga vatanparvarlik tarbiyasini tarkib toptirish lozim, umumbashariyat uchun qadrli bo'lgan, insoniyat o'tmishi, buguni va kelajagi uchun daxldor qadr-qimmatga ega bo'lgan an'analari, tarixiy me'moriy boyliklar, urf-odatlar haqida ma'lumot berish, o'quvchilarda mehr-muhabbat tuyg'ularini uyg'otish, ularni qo'llab-quvvatlash, ezgu g'oyalar uchun kurashish hissini qaror toptirishni tarbiya jarayonida amalga oshirish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Иброхимов А., Султонов Х., Жўраев Н. Ватан туйғуси.- Т.: Ўзбекистон,- 2006.- 153 б
2. Маҳқамов У. Ахлоқ–одоб сабоқлари.- Т.: Фан, 1994–133 б

3. Эркаев. А. Маънавият– миллат нишони.- Т.: Маънавият, 2009.- 188 б.
4. Compendium of tourism statistics. World tourism organization. Madrid. 1995. p 253.
5. UNWTO technical manual: Collection of Tourism Expenditure Statistics. 1995. p10

TARBIYA FANIDA LOYIHAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Muratova Nafisa Baratovna¹, Ergasheva Mohina Nurali qizi²

*Samarqand davlat pedagogika instituti "Pedagogika" kafedrası o'qituvchisi¹
Samarqand davlat pedagogika instituti "Pedagogika" yo'nalishi 2-kurs talabasi²*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17638959>

Annotatsiya: Maqolada tarbiya fanida loyihaviy ta'lim texnologiyasidan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Loyihaviy metod orqali o'quvchilarni mustaqil fikrlash, ijodiy yondashish va ijtimoiy hayotga tayyorlash imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ta'lim jarayonida loyihaviy topshiriqlarni tashkil etishning samaradorlik omillari, ularni o'quvchi shaxsining tarbiyaviy jihatdan kamol topishiga ta'siri ilmiy asosda ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: loyihaviy ta'lim texnologiyasi, tarbiya, pedagogik jarayon, innovatsiya, mustaqil fikrlash, kreativlik, ijtimoiy faollik

Abstract: The article highlights the theoretical and practical foundations of using project-based learning technology in the field of education. It analyzes the potential of the project method in developing students' independent thinking, creativity, and readiness for social life. The study also examines the effectiveness factors of organizing project assignments in the educational process and their scientific impact on the moral and personal development of students.

Keywords: project-based learning technology, education, pedagogical process, innovation, independent thinking, creativity, social activity.

Аннотация: В статье раскрываются теоретические и практические основы использования проектной технологии обучения в процессе воспитания. Анализируются возможности проектного метода в формировании у учащихся самостоятельного мышления, творческого подхода и готовности к социальной жизни. Также рассматриваются факторы эффективности организации проектных заданий в образовательном процессе и их влияние на воспитательное развитие личности учащегося на научной основе.

Ключевые слова: проектная технология обучения, воспитание, педагогический процесс, инновация, самостоятельное мышление, креативность, социальная активность.

KIRISH: Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, pedagogik texnologiyalarni yangilash va ularni amaliyotga joriy etish o'quvchi shaxsining har tomonlama rivojlanishiga qaratilmoqda. Ayniqsa, tarbiya fanining zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etilishi o'quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki ularning shaxsiy sifatlarini, ijtimoiy faoliyatga bo'lgan munosabatini ham rivojlantirishni taqozo etadi. Chunki tarbiya fani insonni jamiyat a'zosi sifatida shakllantirishda, unga hayotiy ko'nikmalarni singdirishda, ijtimoiy qadriyatlarni anglatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda loyihaviy ta'lim texnologiyasi alohida o'rin tutadi. Bu texnologiya orqali o'quvchilar bilimlarni faqat o'zlashtirib qolmay, balki ularni amaliy faoliyatga tatbiq etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Loyihaviy ta'lim metodining mohiyati shundaki, o'quvchilar mustaqil izlanish olib boradi, muammoni o'rganadi, uni yechishning yo'llarini izlaydi va natijada o'z faoliyatining mahsulini taqdim etadi. Bunday yondashuv o'quv-

chilarda mas'uliyat hissini kuchaytiradi, ularda ijodiy fikrlash, jamoada ishlash, mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, loyihaviy ta'lim texnologiyasi tarbiya fanida o'quvchilarga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishda samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, "Oila qadriyatlari", "Vatanparvarlik", "Mehnat tarbiyasi" kabi mavzular bo'yicha loyihalar ishlab chiqilishi natijasida o'quvchilar real hayotiy vaziyatlarga yaqinlashadi, jamiyatda o'z o'rnini anglashga va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga erishadi. Hozirgi davrda ta'lim tizimiga qo'yilayotgan talablar – o'quvchini faqat bilim egasi emas, balki mustaqil fikrlaydigan, jamiyatda o'z o'rnini topa oladigan, innovatsion g'oyalarni ilgari surishga qodir shaxs sifatida shakllantirishdan iborat. Shu ma'noda, loyihaviy ta'lim texnologiyasidan foydalanish tarbiya fanining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, loyihaviy ta'lim metodidan foydalanish jarayonida o'qituvchi ham o'z faoliyatini an'anaviy bilim beruvchi emas, balki yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, o'quvchilarning izlanishlarini boshqaruvchi, ularni rag'batlantiruvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi, ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Pedagogik tadqiqotlarda loyihaviy ta'lim texnologiyasi o'quvchi shaxsini tarbiyalash va uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali vosita sifatida baholanadi. J. Dewey ta'lim jarayonida tajribaga asoslanish zarurligini ta'kidlab, o'quvchilarni faqat bilim oluvchilar emas, balki faol ishtirokchi sifatida ko'rish kerakligini qayd etadi [1]. Shu jihatdan, loyihaviy ta'lim texnologiyasi Deweyning "o'qish orqali bajarish" (learning by doing) tamoyiliga mos keladi. Shuningdek, V. Kilpatrick tomonidan ishlab chiqilgan "Project Method" konsepsiyasida ham o'quvchilarni mustaqil faoliyatga yo'naltirish, ularning ijodkorligini qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy tajribalarini kengaytirish asosiy maqsad qilib olingan [2]. Bu metod tarbiya fanida qo'llanilganda, o'quvchilarda mehnatsevarlik, ijtimoiy faollik, vatanparvarlik kabi sifatlar shakllanishi alohida ta'kidlanadi. O'zbek pedagog olimlari ham ushbu yondashuvni keng o'rganishgan. Masalan, A. Xoliqov zamonaviy ta'lim texnologiyalarini tahlil qilib, loyihaviy metodning afzalliklari qatorida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, muammoni tahlil qilish, jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishni ko'rsatadi [3]. Shuningdek, R. Karimova tarbiya fanida loyihaviy topshiriqlarni qo'llash orqali milliy qadriyatlarga hurmat, ma'naviy tarbiya va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish mumkinligini ta'kidlaydi [4]. Chet ellik tadqiqotchilar, xususan, M. Thomas va E. Markham loyihaviy ta'lim texnologiyasini XXI asr kompetensiyalarini shakllantirishda muhim omil sifatida ko'rishadi. Ularning fikricha, loyiha asosida o'qitish o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, kommunikativ madaniyat, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish qobiliyatlarini rivojlantiradi [5].

TAHLIL VA NATIJALAR

Ta'lim jarayonida loyihaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari ayniqsa tarbiya fanida o'zining katta samaradorligini namoyon etadi. Chunki tarbiya jarayoni o'quvchilarning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish, ijtimoiy qadriyatlarga yo'naltirish, milliy va ma'naviy an'analarni ongiga singdirishda bevosita ta'sirchan omil hisoblanadi. Loyihaviy metoddan foydalanilganda o'quvchi faqat bilim oluvchi emas, balki mustaqil fikrlovchi, qaror qabul qiluvchi, muammoni hal etuvchi va o'z natijasini taqdim eta oluvchi faol subyekt sifatida shakllanadi. Bunday yondashuv tarbiya fanini an'anaviy nazariy bilimlar majmuasi bo'lishdan chiqarib, uni amaliyotga yaqinlashtiradi. Loyihaviy topshiriqlar orqali tashkil etilgan dars jarayonida o'quvchilar o'zlariga berilgan mavzuni chuqur o'rganadilar, qo'shimcha manbalardan foydalanadilar, o'z nuqtayi nazarini asoslashga intiladilar. Masalan, "Oila qadriyatlari", "Do'stlik", "Vatanparvarlik", "Mehnat tarbiyasi" kabi mavzular bo'yicha loyihalar tayyorlash o'quvchilarda nafaqat bilim, balki qadriyatlarni his etish, ularni hayotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantiradi. O'quvchi o'z loyihasida faqat nazariy tushunchalarni ifodalab qolmay, balki o'z atrofidagi real voqelikni o'rganadi, hayotiy misollar asosida xulosalar chiqaradi. Shu bois bunday metod o'quvchining shaxsiy tajribasini boyitadi, uni ijtimoiy muhitga faolroq moslashishga undaydi.

Tarbiyaviy jarayonda loyihaviy metodning eng katta afzalliklaridan biri – mustaqil izlanish ko'nikmasini rivojlantirishdir. O'quvchi o'z loyihasini tayyorlash jarayonida mavzuga oid ma'lumotlarni mustaqil yig'adi, ularni saralaydi va o'z nuqtayi nazaridan kelib chiqib, mantiqiy tizimga soladi. Bu jarayon davomida u faqatgina tayyor bilimni o'zlashtirmaydi, balki yangi bilim yaratishda ham ishtirok etadi. Bunday izlanishlar o'quvchilarni o'z g'oyalarini himoya qilishga, shuningdek, boshqalarning fikrini hurmat qilishga o'rgatadi. Natijada, ularning tanqidiy fikrlash, muammoni tahlil qilish, mantiqiy xulosa chiqarish qobiliyatlari shakllanadi. Loyihaviy ta'lim texnologiyasi tarbiya fanida o'quvchilarni ijtimoiy faoliyatga tayyorlashda ham katta imkoniyatlarga ega. Loyiha ustida ishlash jarayonida o'quvchilar jamiyatdagi muammolarni o'rganadilar, ularning yechimlari haqida o'ylaydilar va o'z takliflarini ishlab chiqadilar. Masalan, "Atrof-muhitni muhofaza qilish", "Mahalla hayotida yoshlarning roli", "Ijtimoiy adolat" kabi mavzularda yaratilgan loyihalar o'quvchilarning jamiyatga nisbatan mas'uliyatini kuchaytiradi, ularda fuqarolik pozitsiyasini shakllantiradi. Bunday yondashuv o'quvchilarning kelgusida ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishiga zamin yaratadi. Yana bir muhim jihat shundaki, loyihaviy topshiriqlar jamoada ishlash ko'nikmasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Guruh bo'lib ishlash jarayonida o'quvchilar o'zaro mas'uliyatni taqsimlaydilar, bir-birining fikrini tinglaydilar va umumiy qarorga kelishga harakat qiladilar. Bu esa, o'z navbatida, ularning muloqot madaniyatini rivojlantiradi, jamoada ishlash tajribasini boyitadi. O'quvchilar birgalikda ishlab, o'zaro yordam berish, hamkorlikda natijaga erishishning ahamiyatini tushunib yetadilar. Bunday tajribalar kelgusida ularning ijtimoiy hayotdagi faoliyatlarida ham asqotadi. Loyihaviy texnologiyaning samaradorligi shundaki, u o'quvchini qiziqtiradi, dars jarayonini jonli va faol qiladi. An'anaviy ta'limda o'quvchi ko'proq tayyor bilimni eshituvchi va qayta hikoya qiluvchi bo'lsa, loyihaviy ta'limda u faol izlanuvchi, yangi bilim yaratuvchi, o'z natijalarini taqdim etuvchi shaxsga aylanadi. Bu esa o'quvchining darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularni yanada faolroq ishtirok etishga undaydi. Shu bois loyihaviy metod motivatsiya vositasi sifatida ham samarali hisoblanadi.

Tarbiyaviy jihatdan qaranganda, loyihaviy topshiriqlar o'quvchilarda milliy qadriyatlarga hurmat, insoniylik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Masalan, "Ota-ona hurmati", "Mahalla qadriyatlari", "Milliy bayramlarning tarbiyaviy ahamiyati" kabi mavzularda tayyorlangan loyihalar o'quvchilarning ma'naviy olamini boyitadi, ularni o'z milliy qadriyatlariga mehrlil qilib tarbiyalaydi. Shuningdek, bunday loyihalar orqali o'quvchilar boshqa xalqlar madaniyatini o'rganib, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida shakllanadilar. Natijalar shuni ko'rsatadiki, loyihaviy ta'lim texnologiyasi tarbiya fanida o'quvchilarning nafaqat bilim darajasini oshiradi, balki ularning shaxsiy fazilatlarini ham rivojlantiradi. O'quvchilar mustaqil qaror qabul qilish, o'z fikrini asoslash, muammoni hal etish, jamoa bilan ishlash, mas'uliyatni his qilish kabi ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Bu ko'nikmalar esa ularning kelgusida hayotiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, loyihaviy ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatni ham tubdan o'zgartiradi. O'qituvchi endi faqat bilim beruvchi emas, balki yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, maslahat beruvchi, o'quvchining izlanishlariga ko'maklashuvchi shaxsga aylanadi. Bu esa ta'lim jarayonida demokratik muhitni yaratadi, o'quvchilarda erkin fikrlash va tashabbuskorlikni rag'batlantiradi. Loyihaviy metodning yana bir muhim jihati – u o'quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirishidir. O'quvchi o'z loyihasini tayyorlash jarayonida yangicha yondashuvlarni izlaydi, o'z g'oyasini boshqalardan farqli ravishda ifodalashga harakat qiladi. Bu esa ularda kreativlikni kuchaytiradi, turli muammolarga noodatiy yechim topishga o'rgatadi.

XULOSA

Tarbiya fanida loyihaviy ta'lim texnologiyasidan foydalanishning ahamiyati beqiyosdir. Ushbu metod o'quvchilarni nafaqat bilim olishga, balki mustaqil izlanishga, ijodiy fikrlashga, hayotiy muammolarni hal etishga tayyorlash imkonini beradi. Loyihaviy topshiriqlar orqali o'quvchilar o'zlari tanlagan mavzu yuzasidan chuqur o'rganish olib boradilar, qo'shimcha manbalardan foydalandilar, mustaqil xulosalar chiqaradilar va o'z g'oyalarini himoya qilishni o'rganadilar. Bu jarayon ularning tanqidiy tafakkurini kuchaytiradi, mas'uliyatini oshiradi va ijtimoiy faoliyatga bo'lgan mu-

nosabatini ijobiy tomonga o'zgartiradi. Mazkur metodning eng katta afzalliklaridan biri shundaki, u o'quvchini amaliy faoliyatga tayyorlaydi, bilimni real hayotiy vaziyatlar bilan bog'lashga xizmat qiladi. Masalan, "Oila qadriyatlar", "Mehnat tarbiyasi", "Vatanparvarlik" kabi mavzularda yaratilgan loyihalar o'quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmatni, jamiyatda faol ishtirok etish istagini, insoniylik va mehr-muruvvat kabi sifatlarni rivojlantiradi. Loyihaviy ta'lim texnologiyasi shuningdek, o'quvchilarni jamoada ishlash, hamkorlik qilish, o'zaro hurmat va birdamlik ruhida faoliyat olib borishga o'rgatadi. Guruh loyihalari davomida ular vazifalarni taqsimlash, umumiy maqsad sari harakat qilish, bir-birining fikrini inobatga olish kabi ijtimoiy ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Bu esa kelgusida ularning jamiyatda munosib o'rin egallashiga, faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishiga asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dewey J. Democracy and Education. – New York: Macmillan, 1916.
2. Kilpatrick W.H. The Project Method. – New York: Teachers College, 1925.
3. Xoliqov A. Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar. – Toshkent: O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2021.
4. Karimova R. Tarbiya fanida innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2023.
5. Thomas M., Markham E. Project-Based Learning Handbook. – California: Buck Institute for Education, 2018.
6. Jalilova D. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI PIRLS TADQIQOTLARIGA TAYYORLASH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Abduraxmanova Charos Burxanovna

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, Samarqand filiali,

"Pedagogika va psixologiya" kafedrasida o'qituvchisi

Elektron pochta: charosburxanovna@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17639060>

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi PIRLS xalqaro tadqiqoti va o'quvchilarning PIRLS tadqiqotlariga tayyorlash jarayonini takomillashtirish masalalari ko'rib chiqiladi. Maqolada mamlakatimizning tadqiqotda ishtirok etishidan maqsad va PIRLSga tayyorgarlik jarayonini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: PIRLS, o'quvchi, xalqaro, matn, baholash, ta'lim, takomillashtirish, jarayon, tavsiya, tushunish, daraja, sifat.

ISSUES OF IMPROVING THE PROCESS OF PREPARING PRIMARY SCHOOL STUDENTS FOR PIRLS RESEARCH

Abdurakhmanova Charos Burkhanovna

Lecturer, Department of "Pedagogy and Psychology" Samarkand Branch of Kimyo International University In Tashkent

Email: charosburxanovna@mail.ru

Abstract: This article discusses the PIRLS international study, which assesses the reading and comprehension levels of primary school students, as well as the issues related to improving the process of preparing students for this research. The article provides the objectives of our country's participation in the study and recommendations for improving the PIRLS preparation process.

Keywords: PIRLS, student, international, text, assessment, education, improvement, process, recommendation, comprehension, level, quality.

ПРОБЛЕМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОЦЕССА ПОДГОТОВКИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ К ИССЛЕДОВАНИЯМ PIRLS

Абдурахманова Чарос Бурхановна

*Преподаватель кафедры «Педагогика и психология» Самаркандский филиал
Ташкентского международного университета Кимё
Электронная почта: charosburhanovna@mail.ru*

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы, связанные с международным исследованием PIRLS, оценивающим уровень чтения и понимания текста учащихся начальных классов, а также проблемы совершенствования процесса подготовки учеников к данному исследованию. В статье приводятся цели участия нашей страны в исследовании и рекомендации по совершенствованию процесса подготовки к PIRLS.

Ключевые слова: PIRLS, ученик, международный, текст, оценивание, образование, совершенствование, процесс, рекомендация, понимание, уровень, качество.

Kirish: PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study – Xalqaro o'qish savodxonligini o'rganishdagi yuksalish) boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajalarini baholash bo'yicha xalqaro dasturdir. Tadqiqotning asosiy maqsadi mamlakatlar ta'lim tizimlaridagi farqlarni aniqlash, o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyatini yaratishdir.

O'zbekistonning PIRLS tadqiqotida ishtirok etishidan maqsad quyidagilarni aniqlashdir:

- O'zbekiston boshlang'ich maktab bitiruvchilarining boshqa mamlakat tengdoshlariga nisbatan o'qish darajasi;
- O'quvchilarning o'qish savodxonligi darajasi;
- Oldingi o'quv davrlarida o'qish ko'nikmalarida o'zgarishlar mavjudligi;
- O'quvchilarning o'qishga qiziqishi;
- Oila va maktablarning kitobxonlikni rivojlantirishdagi roli;
- O'qitish jarayonining boshqa mamlakatlarga nisbatan o'ziga xos xususiyatlari.

PIRLS dasturi o'quvchilarning matnni tushunish qobiliyatini oshirish, axborot bilan ishlash va matnni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Shuningdek, u adabiyot va ma'lumotli matnlar bilan ishlash, o'quvchilarning mustaqil fikrlash va izlanish qobiliyatlarini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Usullar

Tadqiqotning metodologiyasi quyidagilardan iborat:

1. Matnlarni tanlash mezonlari:

Hajmi: 1000 ta so'zgacha, past darajali savodxonlik mamlakatlarida 400–500 so'z;

Mavzu: adabiy matnlar asosiy mavzuga ega bo'lishi, axborot matnlari o'quv materiallaridan olinmagan mavzuni yoritishi;

Til: 40 dan ortiq tillarga tarjima qilinadigan matnlar; metafora va epitetlardan foydalanish; jargon va texnik ifodalardan cheklanish;

Mazmuni: 9–10 yoshdagi o'quvchilarga mos, qiziqarli va tanish bo'lmagan mavzular; Bog'liqlik va ketma-ketlik: syujet mantiqiy tartibda, vizual elementlar bilan boyitilgan.

2. Matn turlari (janrlari):

Qisqa hikoyalar va badiiy asarlardan parchalar;

Ma'lumot beruvchi qo'llanmalar, broshyuralar, tarjimayi hollar, jurnallar.

3. Topshiriqlar turlari:

Ma'lumotni topish va darhol xulosalar chiqarish;

Matndagi tafsilotlarni integratsiyalash, bog'lanishlarni aniqlash va umumiy g'oya bilan bog'lash.

4. Topshiriqlarni tayyorlash namunalari:

Hans Kristian Andersenning "Bolalar gurungi" hikoyasiga asoslangan 15 ta topshiriq ishlab chiqildi.

Masalan: savdogar bilan muomala qiladigan kishilarni aniqlash, hikoyadagi boy va kambag'al bolalarni taqqoslash, qahramonlarning fikrini izohlash, lug'at boyligini oshirish, asosiy g'oyani aniqlash va o'z fikrini asoslash.

5. PIRLSga tayyorlash tavsiyalari:

1. PIRLS dasturi mazmunini MTT va oliy ta'lim dasturiga kiritish;
2. O'quvchilarning yozma nutqi va ifodali o'qishini rivojlantirish;
3. Notanish matnlarni ongli va tushunib o'qishga o'rgatish;
4. Bolalar adabiyotiga fantastik hikoya va ertaklarni kiritish;
5. O'qituvchilarga metodik yordam va qo'llanmalar yaratish;
6. Ota-onalarga PIRLS mazmuni va maqsadlarini yetkazish.

Natijalar

PIRLS tadqiqotiga tayyorlash jarayoni quyidagi natijalarni beradi: o'quvchilar matn mazmunini tushunish va tafsilotlarni ajratish qobiliyatini oshiradi, mustaqil fikrlash va matnni tahlil qilish ko'nikmalari rivojlantadi, lug'at boyligi va adabiy-nutqiy kompetensiya oshadi, hikoya va ma'lumot matnlari bilan ishlash orqali kitobxonlik madaniyati shakllanadi, ota-onalar va maktablarning kitobxonlik rivojiga qo'shgan hissasi ko'rib chiqiladi. Rossiya tajribasi asosida, o'quvchilarning yuqori natijalarga erishishi uchun tez o'qishga emas, tushunib o'qishga e'tibor qaratilishi va ota-onalarning jarayonga jalb qilinishi muhim ekanligi aniqlangan.

Muhokama

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, PIRLS tadqiqotlariga tayyorgarlik jarayoni o'quvchilarning umumiy o'qish savodxonligini oshirishga xizmat qiladi. Matnni tushunib o'qish va tafsilotlarni aniqlash ko'nikmalari nafaqat xalqaro baholashlarda, balki o'quvchilarning kundalik o'qish va akademik muvaffaqiyatlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, matn tanlash mezonlari va topshiriqlarni ishlab chiqish o'quvchilarning analitik va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga imkon yaratadi. Ota-onalarning jarayonga jalb qilinishi va metodik yordam ta'minlanishi natijalarni yanada yaxshilashga yordam beradi.

Xulosa

O'zbek tilshunosligida matn va u bilan bog'liq muammolarni tadqiq etishda salmoqli yutuqlar mavjud. Endigi vazifa:

- Matnning nazariy va amaliy ahamiyatini keng yoritish;
- O'quvchilarning kognitiv rivojlanishini oshirish;
- PIRLS tadqiqotlarida muvaffaqiyatni ta'minlash va ta'lim sifatini yaxshilash.

Tavsiya etilgan strategiyalar va topshiriqlar o'quvchilarning matnni tushunish va o'qish kompetensiyalarini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Баранова В.Ю., Ковалева Г.С., Кузнецова М.И., Цукерман Г.А., Нурминская Н.В. ОСНОВНЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ МЕЖДУНАРОДНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ «Изучение качества чтения и понимания текста», Москва, 2007, 3-4 ст.
2. Rabbonayeva D. PIRLS tadqiqoti uchun topshiriqlar tayyorlash va ular ustida ishlash texnologiyasi. O'quv-uslubiy qo'llanma, Samarqand XTXQTMOHM, 2020, 4.
3. Safo Matjon va b. "O'qish kitobi". Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik, Toshkent, «Yangiyo'l poligraf servis», 2017, 186-188 b.
4. Ubayxo'jayeva R. A. O'quvchilarning ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, T., 2008.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK TARBIYANI SHAKLLANTIRISHDA ABU RAYHON BERUNIYNING QARASHLARIDAN FOYDALANISH

Tog'ayeva Oybarchin Do'smamat qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali

"Pedagogika va psixologiya" kafedrası o'qituvchisi

E-mail: oybarchin3262@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1763911>

Annotatsiya: Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekologik tarbiya olishi ularning sog'lom va tartibli hayot kechirishlarida muhim rol o'ynaydi. Shu sababli ushbu maqolada ularning ekologik ongini shakllantirish, tabiatga bo'lgan munosabatini yaxshilash, kelajakda atrof-muhitni asrashga bo'lgan mas'uliyatini oshirishga yordam beruvchi usullar O'rta Osiyolik alloma Abu Rayhon Beruniyning ekologik qarashlari misolida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ekologik tarbiya, ekologik tafakkur, Abu Rayhon Beruniy, tabiat, atrof-muhit, boshlang'ich sinf, ekologik ong, axloqiy tarbiya.

USING THE VIEWS OF ABU RAYHAN BERUNI IN FORMING ENVIRONMENTAL EDUCATION AMONG PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Togayeva Oybarchin Dushmanat qizi

Lecturer, Department of "Pedagogy and Psychology" Samarkand Branch of Kimyo International University In Tashkent

E-mail: oybarchin3262@gmail.com

Abstract. Environmental education of primary school students plays an important role in shaping their healthy and orderly lifestyle. This article analyzes methods that help to develop environmental awareness, improve attitudes toward nature, and increase responsibility for protecting the environment in the future, based on the ecological views of the Central Asian scholar Abu Rayhan Beruni.

Keywords: environmental education, ecological thinking, Abu Rayhan Beruni, nature, environment, primary school, ecological awareness, moral education.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВЗГЛЯДОВ АБУ РАЙХОНА БЕРУНИ В ФОРМИРОВАНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Тогаева Ойбарчин Дусмамат кизи

Преподаватель кафедры «Педагогика и психология»

Самаркандский филиал Ташкентского международного университета Кимё

E-mail: oybarchin3262@gmail.com

Аннотация: Экологическое воспитание учащихся начальных классов играет важную роль в формировании у них здорового и упорядоченного образа жизни. В данной статье анализируются методы, способствующие формированию экологического сознания, улучшению отношения к природе и повышению ответственности за охрану окружающей среды в будущем, на примере экологических взглядов среднеазиатского ученого Абу Райхона Беруни.

Ключевые слова: экологическое воспитание, экологическое мышление, Абу Райхон Беруни, природа, окружающая среда, начальная школа, экологическое сознание, нравственное воспитание.

KIRISH

Hozirgi davrda ekologik muammolar insoniyat oldidagi eng dolzarb masalalardan biridir. Atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayishi, ekologik muvozanatning buzilishi yosh avlodni tabiatni asrash ruhida tarbiyalashni taqozo etadi. Shu boisdan, boshlang'ich ta'lim bosqichidan boshlab ekologik tarbiya berish, o'quvchilarda ekologik tafakkur va mas'uliyatni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ekologik tarbiya – bu o'quvchilarda tabiatga nisbatan mehr, hurmat, g'amxo'rlik va mas'uliyatni shakllantirish jarayonidir. O'quvchi tabiatni nafaqat bilib olishi, balki uni muhofaza qilish, unga zarar yetkazmaslik zarurligini chuqur anglab yetishi lozim.

Mazkur jarayonda O'rta Osiyolik buyuk mutafakkirlarning, xususan, Abu Rayhon Beruniyning ekologik qarashlari o'ta muhim manba sifatida xizmat qiladi. Uning tabiat va inson o'rtasidagi uyg'unlik haqidagi fikrlari hozirgi ekologik tafakkur shakllanishiga yaqin g'oyalarni o'z ichiga oladi.

METODLAR: Tadqiqotda tahlil, solishtirish, tarixiy-qiyosiy, pedagogik kuzatish va nazariy umimlashtirish metodlaridan foydalanildi. Maqola tayyorlash jarayonida quyidagi manbalar asos qilib olindi: Abu Rayhon Beruniyning “Geodeziya”, “Hindiston”, “Saydana” kabi asarlari, shuningdek, ekologik tarbiya bo'yicha zamonaviy pedagogik adabiyotlar.

Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ekologik bilim berishning zamonaviy shakllari – dars jarayonlari, amaliy mashg'ulotlar, darsdan tashqari tadbirlar, ota-onalar bilan hamkorlikdagi faoliyat tahlil qilindi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA: Abu Rayhon Beruniy qarashlarining mazmuni

Abu Rayhon Beruniy (973–1048) o'z asarlarida inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqur tahlil qilgan. U inson hayoti va salomatligi tabiat bilan uyg'unlikda bo'lishini ta'kidlagan. Beruniyning fikricha, inson yashaydigan joy, iqlim, suv va tuproq holati uning jismoniy va ma'naviy rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Beruniy o'z asarlarida tabiatni qadrlash, resurslardan oqilona foydalanish, isrofgarlikka yo'l qo'ymaslik, insonning atrof-muhitga hurmat bilan munosabatda bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi. U ilmni insonni kamolotga yetkazuvchi asosiy vosita deb bilgan va ilmsizlikni barcha illatlarning ildizi sifatida ko'rsatgan.

Boshlang'ich sinfda ekologik tarbiyani shakllantirish yo'llari

Beruniyning g'oyalari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tafakkurni quyidagi usullar orqali shakllantirish mumkin:

1. Dars jarayonida – “Tabiiy fanlar”, “O‘qish”, “Tasviriy san’at”, “Texnologiya” fanlarida tabiatni asrashga oid mavzularni o‘qitish. Masalan, daraxtlarning foydasi, hayvonlarni muhofaza qilish, suv resurslaridan foydalanish madaniyati.
2. Amaliy mashg‘ulotlarda – gul ekish, daraxt parvarishlash, maktab hovlisini tozalash kabi ishlar orqali o‘quvchilarni tabiat bilan bevosita muloqotga jalb etish.
3. Darsdan tashqari faoliyatlarda – ekologik haftaliklar, ko‘rgazmalar, ekskursiyalar, “Yashil maktab” loyihalari orqali o‘quvchilarda ekologik ongni mustahkamlash.
4. Ota-onalar bilan hamkorlikda – oilada ekologik madaniyatni rivojlantirish, farzandlar bilan birgalikda tabiatga oid suhbatlar va sayrlar uyushtirish.

Pedagogik ahamiyati

Bu yondashuv orqali o‘quvchilar ekologik hodisalarga befarq bo‘lmagan, tabiatni asrashni o‘z burchi deb biladigan shaxslar sifatida shakllanadi. Abu Rayhon Beruniyning ilmga, poklikka, intiluvchanlikka va muhitni asrashga doir fikrlari ekologik tarbiya mazmunini boyitadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik tarbiyani shakllantirishda Abu Rayhon Beruniyning qarashlari o‘ta muhim manba hisoblanadi. Uning tabiatni sevish, muhofaza qilish, resurslardan oqilona foydalanish, inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlik haqidagi g‘oyalari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Pedagogik jarayonda ushbu qarashlardan foydalanish o‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish, ularni tabiatni sevuvchi, g‘amxo‘r va mas‘uliyatli insonlar etib tarbiyalashga xizmat qiladi. Shuningdek, Beruniyning ekologik g‘oyalari orqali yosh avlodda nafaqat bilim, balki ma‘naviy ong, milliy qadriyat va insonparvarlik ruhini shakllantirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hamidova D.Q. Ekologik tarbiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
2. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M. va boshqalar. Pedagogika tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
3. Qurbonova S. Pedagogik texnologiyalar va ekologik ta’lim. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
4. Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim vazirligining ekologik tarbiya bo‘yicha metodik tavsiyalari. – 2022.

TALABALARDA INDIVIDUAL XUSUSIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK, PSIXOLOGIK JIHATLARI

Jamalova Nafisa Utkirovna

Pedagogika, psixologiya va jismoniy madaniyat kafedrası o‘qituvchisi

Email: jamalovanafisa23@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17639147>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida talabalar individual xususiyatlarini rivojlantirishning pedagogik va psixologik jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda shaxsiy identifikatsiya, motivatsiya, emotsional intellekt, stressni boshqarish va shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, individual yondashuv, interaktiv metodlar va amaliy tajribalar yordamida talabalar salohiyatini oshirish imkoniyatlari ko‘rsatib o‘tilgan. Maqolada talabalarning psixologik va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali ularning akademik hamda professional muvaffaqiyatiga erishish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish zarurligi ta’kidlanadi.

Kalit so'zlar: individual xususiyatlar, psixologik rivojlanish, talaba, pedagogik yondashuv, motivatsiya, emotsional intellekt, interaktiv ta'lim.

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF DEVELOPING STUDENTS' INDIVIDUAL CHARACTERISTICS

Jamalova Nafisa Utkirovna

Lecturer, Department of Pedagogy, Psychology, and Physical Education

E-mail: jamalovanafisa23@gmail.com

Abstract: This article analyzes the pedagogical and psychological aspects of developing students' individual characteristics in higher education institutions. The study explores concepts such as personal identification, motivation, emotional intelligence, stress management, and the importance of learner-centered education. Furthermore, it highlights opportunities for enhancing students' potential through individual approaches, interactive methods, and practical experiences. The article emphasizes the need to create pedagogical conditions that foster students' psychological and social skills, which are essential for achieving academic and professional success.

Keywords: individual characteristics, psychological development, student, pedagogical approach, motivation, emotional intelligence, interactive learning.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ИНДИВИДУАЛЬНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ СТУДЕНТОВ

Джамалова Нафиса Уткировна

Преподаватель кафедры педагогики, психологии и физической культуры

E-mail: jamalovanafisa23@gmail.com

Аннотация: В данной статье анализируются педагогические и психологические аспекты развития индивидуальных особенностей студентов в высших учебных заведениях. В исследовании рассматриваются такие понятия, как личностная идентификация, мотивация, эмоциональный интеллект, управление стрессом и значение личностно-ориентированного обучения. Кроме того, показаны возможности повышения потенциала студентов с помощью индивидуального подхода, интерактивных методов и практического опыта. Отмечается необходимость создания педагогических условий для развития психологических и социальных навыков студентов, что способствует их академическому и профессиональному успеху.

Ключевые слова: индивидуальные особенности, психологическое развитие, студент, педагогический подход, мотивация, эмоциональный интеллект, интерактивное обучение.

Kirish

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri – talabalar shaxsining individual xususiyatlarini har tomonlama rivojlantirishdir. Har bir talaba o'ziga xos psixologik, pedagogik va ijtimoiy xususiyatlarga ega bo'lib, bu omillar ularning ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyati va shaxsiy kamolotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Individual rivojlanish – bu shaxsning ichki salohiyatini ochib berish, mustaqil fikrlashni shakllantirish, o'z emotsiyalarini boshqarish va ijtimoiy faoliyatda o'z o'rnini topish jarayonidir. Shaxsiy xususiyatlarni rivojlantirish faqat bilim berish bilan emas, balki talabaning psixologik holatini, motivatsiyasini, his-tuyg'ularini va o'ziga ishonchini mustahkamlash orqali amalga oshiriladi. Shu bois, oliy ta'limda psixologik va pedagogik yondashuvlarning uyg'unligi muhim o'rin tutadi.

Oliy ta'lim tizimida zamonaviy o'qitish metodlarini qo'llash, interaktiv yondashuvni kuchaytirish va shaxsga yo'naltirilgan ta'limni joriy etish talabalarining individual salohiyatini ochishda hal qiluvchi omillardan biridir.

Metodologiya

Tadqiqotda quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi:

1. Tahliliy yondashuv – zamonaviy pedagogik va psixologik nazariyalar asosida talabalarining individual rivojlanish omillari o'rganildi.
2. Taqqoslovchi tahlil – ichki va tashqi motivatsiya, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim metodlari hamda emotsional intellekt nazariyalari solishtirildi.
3. Nazariy asoslash – Schunk (2008), Hattie (2009), Sternberg (2004), Nazarov (2012), Tashpulatov (2014) va Kuchkarov (2016) kabi olimlarning ilmiy qarashlariga tayanilgan.

Tadqiqot obyekti – oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar.

Predmeti – talabalarining individual xususiyatlarini rivojlantirishda psixologik va pedagogik omillar uyg'unligi.

Ushbu tadqiqotda nazariy tahlil bilan bir qatorda amaliy tajribalar ham o'rganildi. Talabalar bilan olib borilgan suhbatlar, kuzatuv va test metodlari yordamida ularning motivatsiyasi, stressga bardoshliligi hamda emotsional intellekt darajasi tahlil qilindi.

Natijalar va muhokama

1. Psixologik jihatlar

Talabalarining individual rivojlanishida psixologik omillar yetakchi o'rin tutadi. Quyidagi asosiy yo'nalishlar ajratiladi:

- Shaxsiy identifikatsiya va o'zini anglash. Talaba o'z maqsadlarini belgilash, qobiliyatlarini baholash va ijtimoiy ro'lini anglash orqali o'z shaxsiy yo'nalishini topadi. Bu jarayon ichki motivatsiyani kuchaytiradi va o'zgarishlarga ochiqlikni oshiradi.
- Motivatsiya. Psixologiyada motivatsiya ikki turga bo'linadi: ichki (rivojlanish, o'zini takomillashtirish istagi) va tashqi (baholar, ijtimoiy maqom). Ichki motivatsiyani kuchaytirish ta'lim jarayonining eng samarali omilidir.
- Emotsional intellekt. Bu o'z his-tuyg'ularini boshqarish, anglash va boshqalar bilan samarali aloqa o'rnatish qobiliyatidir. Emotsional intellekti rivojlangan talaba stressga bardoshli, ijtimoiy faol va jamoada muvozanatli bo'ladi.
- Stressni boshqarish va moslashuv. Oliy ta'limga kirgan talabalar yangi muhit va talablar bilan to'qnash keladilar. Shu bois, stressni boshqarish strategiyalarini o'rgatish ularning o'qishdagi barqarorligi va motivatsiyasini saqlashda muhimdir.

2. Pedagogik jihatlar

Pedagogik yondashuv talabalar shaxsini rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

- Individual yondashuv. Har bir talaba o'ziga xos ehtiyoj va imkoniyatlarga ega. O'qituvchi bu xususiyatlarni hisobga olib, shaxsga mos ta'lim usullarini qo'llashi zarur.
- Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Ushbu yondashuv talabaning ehtiyojlari, qiziqishlari va qobiliyatlariga asoslanadi. Natijada, talaba o'zini tushungan, qadrlangan va qo'llab-quvvatlangan his qiladi.
- Interaktiv metodlar. Munozaralar, rolli o'yinlar, guruhli ishlash va muammoli vaziyatlarni yechish orqali talabalar faolligi va ijodkorligi oshadi.
- Amaliy mashg'ulotlar. Nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash talabalarining kasbiy kompetensiyasini oshiradi. Bu jarayon ularni kelajakdagi professional faoliyatga tayyorlaydi.

3. Kompleks yondashuvning ahamiyati

Psixologik va pedagogik jihatlarining uyg'unligi talabalar shaxsiyatining har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi. Bu yondashuv nafaqat akademik muvaffaqiyatni oshiradi, balki ularning ijtimoiy mas'uliyatini, o'ziga ishonchini va ijodkorlik salohiyatini ham kuchaytiradi.

Xulosa

Talabalar individual xususiyatlarini rivojlantirish psixologik va pedagogik omillarni o'z ichiga olgan murakkab, ammo zarur jarayondir. Psixologik jihatlar shaxsiy identifikatsiya, motivatsiya va emotsional intellektni rivojlantiradi. Pedagogik jihatlar esa shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, individual yondashuv va interaktiv metodlar orqali o'qish samaradorligini oshiradi.

Natijada, talabalarda o'ziga ishonch, mustaqil fikrlash, jamoada ishlash, ijtimoiy faollik va professional mas'uliyat kabi fazilatlar shakllanadi. Oliy ta'lim tizimida ushbu yondashuvlarni joriy etish talabalarning kelajakdagi muvaffaqiyatini ta'minlovchi muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Schunk D. H. Learning Theories: An Educational Perspective. Pearson Education, 2008.
2. Hattie J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. London: Routledge, 2009.
3. Sternberg R. J. Beyond IQ: A Triarchic Theory of Human Intelligence. Cambridge University Press, 2004.
4. Nazarov I. A. Pedagogik psixologiya. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2012.
5. Tashpulatov A. X. Oliy ta'limda shaxsiy rivojlanish: Psixologik va pedagogik jihatlar. Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti, 2014.
6. Kuchkarov R. S. Ta'lim jarayonida individual yondashuv: Psixologik va pedagogik tamoyillar. Toshkent: "Navoiy" nashriyoti, 2016.

BOLALARGA TA'LIM BERISHDA O'YINLARNING AFZALLIKLARI

Nazarova Dilnoza O'razaliyevna
KIUT Samarqand filiali o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17639246>

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta'lim sifatini oshirishda mavzu bo'yicha darsliklarning ahamiyati bolalarni maktabga tayyorlash fanida o'tadigan bolalarni maktabga tayorlashga o'yinlar mavzusi misolida ko'rsatib berilgan.

Kalit sozlar: Bolalar, ta'lim sifati, didaktik o'yinlar, sahnalashtirilgan o'yinlar.

ADVANTAGES OF GAMES IN CHILD EDUCATION

Nazarova Dilnoza Urazaliyevna
Lecturer, Samarkand Branch of Kimyo International University In Tashkent (KIUT)

Abstract: The article highlights the importance of textbooks in improving the quality of pre-school education through the example of the topic "Games for Preparing Children for School" in the subject "Preparing Children for School." It discusses the advantages of using didactic and role-playing games in the educational process.

Keywords: children, quality of education, didactic games, role-playing games.

ПРЕИМУЩЕСТВА ИГР В ОБУЧЕНИИ ДЕТЕЙ

Назарова Дилноза Уразалиевна

*Преподаватель Самаркандского филиала Международного университета
Кимё в Ташкенте (KIUT)*

Аннотация: В статье показано значение учебных пособий в повышении качества дошкольного образования на примере темы «Игры для подготовки детей к школе» в курсе «Подготовка детей к школе». Рассматриваются преимущества использования дидактических и сценических игр в образовательном процессе.

Ключевые слова: дети, качество образования, дидактические игры, сценические игры.

Kirish

Zamonaviy ta'lim jarayoni bolalar uchun o'qish va o'rganish jarayonini qiziqarli va samarali qilishga intiladi. O'yin asosidagi ta'lim, bu yo'nalishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, bolalarning bilim olish jarayonini nafaqat qiziqarli, balki samara beruvchi qiladi. O'yinlar orqali bolalar o'zlarini erkin his qilishadi, yangi bilimlarni o'zlashtirishda qiziqish va motivatsiya topadilar. Ushbu maqolada o'yin asosida ta'limning afzalliklari, uning bolalar rivojlanishiga ta'siri va ta'lim jarayonida qanday qo'llanilishi haqida batafsil ma'lumot beramiz.

Asosiy qism: O'yin asosidagi ta'limning afzalliklari

1. Qiziqish va motivatsiya: O'yinlar bolalarga darslarni qiziqarli qilish imkonini beradi. Ular o'yin orqali o'rganishni xohlaydilar va bu jarayonda motivatsiya oshadi. Bolalar o'zlarini o'yin ichida ko'rib, yangi narsalarni o'rganishga tayyor bo'lishadi.
2. Ijtimoiy ko'nikmalar: O'yinlar ko'pincha guruhda o'tkaziladi, bu esa bolalar orasida ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradi. Ular bir-birlari bilan muloqot qilishni, fikr almashishni va jamoaviy ishlarni bajarishni o'rganadilar. Bu ijtimoiy ko'nikmalar kelajakda ham foydali bo'ladi.
3. Muammolarni hal qilish: O'yin jarayonida bolalar turli muammolarni hal qilishga o'rganadilar. Har bir o'yin yangi vazifalarni talab qiladi, bu esa ularni analitik fikrlashga va ijodkorlikka undaydi.
4. Hissiy rivojlanish: O'yinlar bolalarda hissiy intellektni rivojlantirishga yordam beradi. G'alaba qozonishdan rohatlanish va mag'lubiyatni qabul qilish kabi tajribalar ularning hissiy barqarorligini oshiradi.
5. O'z-o'zini ifoda etish: O'yinlarda bolalar o'z fikrlarini ifoda etishga imkoniyat topadilar. Ularning ijodkorligi hamda shaxs sifatida rivojlanishi uchun bu juda muhimdir.

O'yinlarni ta'lim jarayoniga kiritish:

O'yin asosida ta'limni samarali tashkil etish uchun quyidagi yondashuvlarni qo'llash mumkin:

- Interaktiv darslar: Darslarni interaktiv holga keltirib, bolalarni faol ishtirok etishga undash kerak. Masalan, dars davomida turli xil o'yinlarni tashkil qilish orqali bilim olish jarayoni yanada qiziqarli bo'ladi.
- Ta'lim o'yinlari: Maxsus ta'lim o'yinlarini yaratish yoki mavjudlarini qo'llash muhimdir. Bu o'yinlar matematikadan, til bilimidan yoki boshqa fanlardan foydalanishi mumkin.
- Guruh ishlari: Bolalarni kichik guruhlariga bo'lib, birgalikda ishlashlariga imkon beradigan vazifalarni berish orqali hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin.
- O'yinlar orqali baholash: Bolalarning bilimlarini baholash uchun o'yinlardan foydalanish baholash jarayonini yanada qiziqarli qiladi va bolalarga stress tug'dirmaydi.

Xulosa

Bolalar uchun o'yin asosida ta'lim nafaqat bilim olish jarayonini qiziqarli qiladi, balki ularning ijtimoiy, hissiy va intellektual rivojlanishiga ham katta hissa qo'shadi. O'qituvchilar va ota-onalar

lar bu yondashuvni qo'llab-quvvatlashlari lozim, chunki motivatsiya va qiziqishni oshirish orqali bolalar hayotida muvaffaqiyatga erishadilar. O'yin asosidagi ta'lim – bu kelajak avlodining muvaffaqiyatli va baxtli bo'lishiga olib keladigan kuchli vosita! Bolalarni yangi bilimlarga tayyorlashda ushbu yondashuvdan foydalanib, biz ularga yanada yorqin kelajak yaratishga yordam bera olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Toshkent shahri 2020-yil 23-sentyabr.
2. O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 2019-yil 16-dekabr, O'RQ-595-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davriga ta'lim-tarbiya va ilm-fam sohalarini rivojlantirishning chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-sonli farmoni. Toshkent 6-noyabr 2020-yil.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6- noyabr 2024-yil "Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi. Xalq so'zi ro'znomasi 2022-yil 27-yanvar
5. Asqarova Dilorom Qurbanova "Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash metodikasi" O'quv qo'llanma. Toshkent 2020y.

KO'ZI OJIZLAR VA ZAIF KO'RUVCILAR UCHUN TIFLOTEXNIKA

Xaytova Farida Kuchkarovna¹, Ibragimov Javlonbek Olimjon o'g'li²

¹KIUT Samarqand filiali

Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi

²KIUT Samarqand filiali 4-kurs

Maxsus pedagogika yo'nalish talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17639820>

Annotatsiya: Ushbu maqolada ko'zi ojizlar va zaif ko'ruvchilar uchun tiflotexnika vositalari, turlari va shakllari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, turli darajadagi kattalashtirishga ega bo'lgan proyeksiya uskunalari va o'qish moslamalari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Tiflotexnika, ijtimoiy-madaniy hayot, VideoLight-VGA, Gapiruvchi tonometr, Stick Talk kommunikator, DOS uchun EPARD nutq dasturi, binokulyar ko'rish.

TYPHLOTECHNICS FOR THE BLIND AND VISUALLY IMPAIRED

Khaitova Farida Kuchkarovna¹, Ibragimov Javlonbek Olimjon og'li²

¹Lecturer, Department of Pedagogy and Psychology, Samarkand Branch of Kimyo International University in Tashkent

²4th-year Student, Special Pedagogy Department, Samarkand Branch of Kimyo International University in Tashkent

Abstract: This article discusses typhlotechnical devices, their types, and forms designed for blind and visually impaired individuals. It also provides information about projection tools and reading devices with various levels of magnification.

Keywords: typhlotechnology, socio-cultural life, VideoLight-VGA, talking tonometer, Stick Talk communicator, EPARD speech program for DOS, binocular vision.

ТИФЛОТЕХНИКА ДЛЯ СЛЕПЫХ И СЛАБОВИДЯЩИХ

Хаитова Фарида Кучкаровна¹, Ибрагимов Жавлонбек Олимжонович²

*¹Преподаватель кафедры педагогики и психологии Самаркандского филиала
Ташкентского международного университета Кимё*

*²Студент 4-го курса направления «Специальная педагогика» Самаркандского филиала
Ташкентского международного университета Кимё*

Аннотация: В данной статье рассматриваются тифлотехнические средства, их виды и формы, предназначенные для слепых и слабовидящих людей. Также представлена информация о проекционных устройствах и приборах для чтения с различными уровнями увеличения.

Ключевые слова: тифлотехника, социально-культурная жизнь, VideoLight-VGA, говорящий тонометр, коммуникатор Stick Talk, речевая программа EPARD для DOS, бинокулярное зрение.

Kirish

So'nggi yillarda mamlakatimizda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish, xususan ko'zi ojiz va ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash yuzasidan zarur chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jimladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 18-aprel 2022- yildagi "Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta'lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-209-sonli qarori buning yaqqol isbotidir. Mazkur qonunning qabul qilinishdan asosiy maqsad mazkur yo'nalishdagi islohotlarning izchilligi va tizimligini ta'minlash, ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarning ta'lim olishi uchun yaratilgan shart-sharoitlarni yanada yaxshilash, ularning jamiyatga moslashuviga ko'maklashish hamda qo'llab-quvvatlash bo'yicha ishlarni yangi bosqichga olib chiqishdir.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotning metodologik asosini inklyuziv ta'lim nazariyasi, tiflopedagogika tamoyillari, maxsus psixologiya hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'limga integratsiya qilish g'oyalari tashkil etadi. Ushbu yondashuvlar orqali ko'zi ojizlar va zaif ko'ruvchilar uchun tiflotexnika vositalarining o'quv jarayonidagi o'rni, ahamiyati va samaradorligi aniqlanadi.

Tadqiqot jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, moslashtirilgan ta'lim va kompensatsion texnologiyalarni qo'llash tamoyillari asos qilib olindi. Ushbu metodologiya tiflotexnik vositalar yordamida ko'zi ojizlar va zaif ko'ruvchilar uchun qulay o'quv muhitini yaratishning ilmiy-amaliy yo'llarini aniqlashga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar

Tiflotexnika – ixtisoslashtirilgan maqsadlar uchun asbobsozlik bo'limi. Unda ko'zi ojiz, ko'zi ojiz va kar-ko'zi ojiz fuqarolarning ta'lim olishi, texnik va kasb-hunar o'rgatishi, bandligini ta'minlash, madaniy-maishiy xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan texnik jihozlarni ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilgan. Typhlotechnics shuningdek, ko'rishni to'g'rilash, rivojlantirish va tiklash kabi vazifalarni bajaradi.

"Typhlos" yunoncha "ko'r" degan ma'noni anglatadi. Shuning uchun tiflotexnika ko'rlar uchun texnika bo'lib, u oddiy asboblarni ham, vizual nazoratni boshqa idrok turlari bilan almashtiradigan juda murakkab asboblarni ham o'z ichiga olishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, bu ko'rish qobiliyatini yo'qotishning eng kuchli omillaridan biridir.

Tiflotexnikaning asosiy vazifalaridan biri ko'r odamga atrofdagi dunyo haqida to'liq ma'lumot olish va undan jamiyatga mustaqil moslashish uchun foydalanish imkonini berishdir. Vizual bu-

zilishlarni qoplash, birinchi navbatda, qolgan hissiy tizimlar – taktil va eshitish vositalaridan foydalanish orqali erishiladi. Shuning uchun tiflotexnikani rivojlantirishda bu muammoning asosiy yechimi vizual ma'lumotni eshitish va taktilga aylantirishdir.

Tiflotexnika vositalarini ishlab chiqishda quyidagi printsiplardan foydalaniladi:

- Axborotni aks ettirish uchun akustik, taktil va propriozeptiv variantlardan foydalanganda vizual funktsiyani qolgan buzilmagan analizatorlarning funktsiyalari bilan almashtirish;
- Vizual analizatorning nuqsoni tufayli yaratilgan shovqindan oshib ketadigan vizual signalni yaratish;
- Saqlangan analizatorlardan oqilona foydalanish.

Barcha maxsus tiflotexnik vositalar odatda quyidagilarga bo'linadi: maishiy, o'quv va texnik vositalar.

Bu resurslar ko'zi ojiz shaxslarning ijtimoiy-madaniy hayot va faoliyatning turli sohalarida ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ta'limda ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar ushbu manbalardan o'quv dasturida nazarda tutilgan ta'lim va rehabilitatsiya-rivojlanish tadbirlarida foydalanadilar.



Maishiy tiflotexnika vositalari. Bu ko'rlarning kognitiv qobiliyatlarini kengaytirishga yordam beradi va ularning jismoniy va madaniy ko'nikmalarini yaxshilash uchun asos yaratadi. Bularga quyidagilar kiradi:

Ta'lim tiflotexnika. Maxsus maktablar, oliy o'quv yurtlari va kasb-hunar ta'limi muassasalarining ko'zi ojiz, ko'zi ojiz va kar-ko'zi ojiz o'quvchilarning mazmuni va o'qitish usullarini oshiruvchi qurilmalar.

- Ko'zi ojizlar uchun mo'ljallangan ekranni o'qish dasturlari:
- Ai Squared-dan ZoomText, bu ekran tasvirini kattalashtiradi va ko'rsatilgan ma'lumotlarga ovozli hamrohlikni ta'minlaydi.
- Lernout & Hauspie (AQSh) kompaniyasining Kutzweil dasturi turli rejimlarda ekran tasvirlarini kattalashtirish hamda matnni tanib olish va skanerlash imkonini beradi. Unda ko'p tilli navigatsiya tizimi va rus tilidagi nutq drayveri mavjud.
- Nutq sintezi dasturlari:
- Windows OS uchun JAWS nutq dasturi (2008 yildan boshlab oltita rus tilidagi sintezatorlar mavjud).
- DOS uchun EPARD nutq dasturi.
- Nemis ishlab chiqaruvchisi Baum Elektronik kompaniyasining Virgo nutq dasturi ko'zi ojizlarga Brayl alifbosi va sintezator yordamida Windows operatsion tizimida ishlash imkonini beradi.
- NVDA nutq dasturi to'liq ruslashtirilgan va tez rivojlanayotgan rus tilida so'zlashuvchi foydalanuvchilar hamjamiyatiga ega birinchi mahsulotdir.
- Serotekdan tizimga kirish nutq dasturi (ruslashtirilmagan va Windows-ning inglizcha versiyasi uchun mo'ljallangan).



Ko'zi ojiz o'quvchilar bilan kompyuter dasturlarini qo'llash tuzatuvchi vazifalar va turli materiallar bilan o'yinga o'xshash muhit yaratadi. Talabalarning harakatlarini kuzatish va o'rganish tezligini, shuningdek, uning murakkabligini tartibga solish mumkin. Muayyan mahoratni rivojlantirish uchun takroriy kompyuter mashqlari bilan ham, bolalar ularni bajarishga katta qiziqish bildiradilar.

Bunga an'anaviy harflarni teginish, eshitish va teginish-vibratsiyali signallarga aylantiradigan o'qish mashinalari yordam beradi, ular chiqishda harflarning ovoqli dizaynini yaratadi:

- INFA-100 o'qish mashinasi ko'rish qobiliyati cheklangan foydalanuvchilarning ko'plab toifalariga nutqni o'zgartirish orqali bosma matnlarni mustaqil o'qish, Brayl displeyiga chiqarish, shuningdek, istalgan usullar kombinatsiyasidan foydalangan holda ularni Brayl printerida chop etish imkonini beruvchi avtomatlashtirilgan axborot markazidir.
- "Big'olyub Compact" o'qish mashinasi kompyuter va skanerni o'z ichiga oladi. Nutq chiqishidan tashqari, mashinada Brayl displey ham mavjud. U katta xotiraga ega va 500 000 sahifadan ortiq saqlash hajmiga ega.
- Avtofokus va 17 dyuymli LCD monitorga ega to'liq rangli Visio elektron o'quvchi. Avtomatik ekspozitsiya kontrast va yorqinlikni sozlash zaruratini yo'q qiladi. Boshqaruv tugmalari intuitiv ishlash imkonini beradi. Katta, oson sozlanishi stol optimal o'qish qulayligini ta'minlaydi. Sozlamalarni tanlash orqali moslashtirishga osonlik bilan erishiladi.
- Portativ o'qish mashinasi KNFB Reader Nokia N82 mobil qurilmasiga asoslangan matnni aniqlash va o'qish dasturidir.

Maxsus hisoblash qurilmalari uchun foydalanish imkoniyatlari ham mavjud bo'ldi. Apple Leopard operatsion tizimida o'rnatilgan qulaylik tufayli ko'zi ojiz va ko'rish qobiliyati zaif foydalanuvchilar endi Macintosh kompyuterlarida ishlash imkoniyatiga ega. Odatiy bo'lib, har qanday zamonaviy Macda etarli nutq va Brayl alifbosi imkoniyatlari, shuningdek, ekranni kattalashtirish funksiyalari mavjud.

Ko'zi ojizlar uchun yaratilgan birinchi kompyuter DAVID noutbuki edi. U o'zining ixcham o'lchamlari bilan solishtirib bo'lmaydigan ulkan imkoniyatlarni taqdim etadi. Kompyuter ko'zi ojizlar uchun barcha texnologiyalarni, jumladan Brayl alifbosi, nutq sintezatori, matnni kattalashtirish va ko'plab yangi funksiyalarni birlashtiradi. DAVID DOS tizimida ishlaydi, garchi u Windows ilovalarini ham ishga tushirishi mumkin. Kompyuterning batareya quvvati 5 soatni tashkil qiladi, undan keyin batareyalar 2 soat davomida zaryadlanishi kerak.

Netbuklar va subnotebooklar juda mashhur bo'ldi. Og'irligi 1 kg gacha bo'lgan ushbu qurilmalar standart noutbuk bilan taqqoslanadigan texnik imkoniyatlarni taqdim etadi va sezilarli darajada arzonroqdir. Ularning asosiy afzalligi - ekranni o'qish dasturi.

Xulosalar

Brayl yozuvidagi printerlar va displeylar tanlovi mavjud:

- Index Everest - bu oddiy qog'oz bilan ishlaydigan va chop etilgandan so'ng darhol foydalanishga tayyor bo'lgan brayl hujjatlarini yaratuvchi yuqori tezlikdagi brayl printeri. Ovozli aloqa va brayl boshqaruv paneli bilan jihozlangan Everestni o'rnatish va boshqarish oson, bu esa ko'zi ojiz va ko'zi ojiz foydalanuvchilar uchun idealdir.
- Index 4 X 4 PRO - bu ikki o'lchamli varaqlar uchun yuqori tezlikda ishlaydigan, ikki tomonlama brayl printeri. U brayl alifbosida yozilgan buyruqlarga ega bo'lgan maxsus panel, shuningdek, tekis versiya orqali boshqariladi.
- Vario - brayl displeylarining yangi avlodi. Bu kichkina, engil, energiya tejaydigan, kuchli va moslashuvchan bo'lib, istalgan vaqtda foydalanish mumkin bo'lgan foydalanuvchilarga qulay tajribani taklif etadi. Uning o'rnatilgan batareyasi batareyaning 40-50 soat ishlash muddatini ta'minlaydi, shundan so'ng uni taxminan 2,5 soat zaryadlash kerak bo'ladi. Vario shunchalik kichkinaki, u kompyuter klaviaturasi oldida osongina joylashadi;
- SuperVario Brayl displeyi har qanday shaxsiy kompyuter, noutbuk yoki elektron o'quvchi bilan mos keladi. Ushbu displey foydalanish qulayligi uchun barcha kerakli xususiyatlarni taqdim etadi, bunda boshqaruvning katta moslashuvchanligi va yuqori ishonchligi mavjud.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Алексеев О.Л. Теоретические основы учебной тифлотехники. – Москва, институт коррекционной педагогики РАО, 1994.
2. Соколов В.В. Специальные компьютерные технологии для лиц с глубоким нарушением зрения, 2012.
3. Соколов В.В. Современные компьютерные технологии в инклюзивном обучении студентов с глубокими нарушениями зрения, 2011.
4. Xamidova. M.U. Maxsus pedagogika. Toshkent: NIF MSH, 2018. - 164 b.
5. Dangalov.S.M. Tiflopedagogika tarixi va ahamiyati. T.: H.Homidiy, 2010. 68 b.
6. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" N-637-sonli Qonuni 23.09.2020

ДИФФЕРЕНЦИРОВАННЫЙ ПОДХОД К ОБУЧЕНИЮ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИЧЕСКИЙ ОПЫТ

Нормахмадова Шахзода Хасановна

Магистрант факультета Начального образования и воспитания

KIMYO INTERNATIONAL UNIVERSITY IN TASHKENT BRANCH

SAMARKAND E- mail: ansora051019@icloud.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17639820>

After teaching, the indicators of coherence and cohesion in their thinking change. However, the components develop differently. Deaf students struggle to use speech constructions correctly, which is explained by the peculiarities in the development of their vocabulary and thinking. Speech errors and deficiencies are observed in the words of deaf children; these arise due to the inaccurate transfer of learned speech constructions to new speech material.

The main point is that deaf students can start forming connected thoughts (including elements of reasoning) as early as primary school.

All tasks aimed at correcting sounds, developing connected speech, and enhancing oral speech perception through visual means help activate students' personal speech. These acquired skills increase their ability to use language effectively in communication with others.

Currently, advanced pedagogical technologies and innovative approaches are being introduced in the field of developing communicative skills in children with hearing impairments. In particular, the effectiveness of teaching both oral and written speech is significantly enhanced through visual-analog methods, interactive games, and multimodal communication tools. Additionally, training platforms based on special programming and artificial intelligence enable the identification and correction of individual speech errors in students. This facilitates a more personalized development of students' speech abilities.

Furthermore, recent studies show that the comprehensive development of communicative skills alongside socio-emotional abilities plays a crucial role in the successful adaptation of children with hearing impairments to the general educational process. Therefore, in the pedagogical process, alongside speech development, special attention is paid to boosting children's self-confidence and fostering collaboration skills within groups.

Conclusion. The development of communicative skills in children with hearing impairments is a complex and multifaceted process that must be organized according to the individual characteristics and developmental level of each student. The use of specialized methods and tools to overcome difficulties in speech comprehension and expression increases effectiveness. Moreover, socio-emotional support and optimizing the learning environment play significant roles in speech development.

Today, there is a growing need to implement innovative technologies and organize education based on an individual approach to develop communicative skills effectively. At the same time, it is essential to create broad opportunities for students to be active in communication, freely express their thoughts, and actively participate in social life.

As a result, the effective development of speech and communication skills in children with hearing impairments contributes to their personal and social development, academic success, and full integration into society.

References

1. Abdurakhmonov, Sh.H. (2018). *Methods for Developing Speech and Communication Skills in Children with Hearing Impairments*. Tashkent: Uzbekistan Pedagogical University Publishing.
2. Mukhamedov, D.J. (2020). *Special Pedagogy and Correction Methods*. Samarkand: Samarkand State University Publishing.
3. Rahmatova, L.B. (2019). "Ways to Ensure Socio-Spiritual Development in Children with Hearing Limitations," *Pedagogy Science Journal*, No. 3, pp. 45-52.
4. Solikhov, A.M. (2021). *Innovative Technologies in Language Development for Hearing and Deaf Children*. Tashkent: Scientific Publishing Center.
5. Kodirov, R.R. (2017). "Modern Methods for Improving Speech in Deaf Children," *Uzbekistan Journal of Special Pedagogy*, No. 2, pp. 23-30.

MAXSUS EHTIYOJLI BOLALARNING IJTIMOYILASHUVI VA MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA QO'LLANILADIGAN METODLAR

Ernazarova Dilnoza Xushvaktovna

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17639987>

Annotatsiya: Mazkur maqolada maxsus ehtiyojli bolalarning ijtimoiylashuv jarayonida maktabgacha ta'lim muassasalarining o'rni hamda samarali metodlardan foydalanishning ahamiyati tahlil qilinadi. Ijtimoiylashuv – bolaning jamiyat hayotiga moslashuvi, ijtimoiy qadriyat va normalarni o'zlashtirishi jarayoni sifatida talqin qilinadi. Maxsus ehtiyojli bolalarda bu jarayon ko'proq individual yondashuv, pedagogik qo'llab-quvvatlash hamda maxsus metodlarni talab etadi. Tadqiqotda ijtimoiy-psixologik moslashuv, inklyuziv ta'lim, o'yin faoliyati, interfaol mashg'ulotlar va art-terapiya kabi metodlarning samaradorligi yoritiladi. Shuningdek, pedagog va ota-onalar hamkorligining ijtimoiylashuv jarayoniga ta'siri tahlil etilib, metodik tavsiyalar beriladi. Maqola natijalari maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlashda maktabgacha ta'lim muassasalari uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Maxsus ehtiyojli bolalar, ijtimoiylashuv, maktabgacha ta'lim, inklyuziv ta'lim, pedagogik metodlar, art-terapiya, o'yin faoliyati, ijtimoiy-psixologik moslashuv.

SOCIALIZATION OF CHILDREN WITH SPECIAL NEEDS AND METHODS USED IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Ernazarova Dilnoza Khushvaktovna

Abstract: This in the article special necessary children's socialization in the process preschool education institutions place and effective from methods of use importance analysis Socialization is the process by which a child society to life adaptation, social value and norms absorption process as interpretation Special necessary in children this process more individual approach, pedagogical support and special requires methods. In the research socio-psychological adaptation, inclusive education, game activity, interactive training and art therapy such as of methods efficiency will be covered. Also, the teacher and parents of cooperation socialization to the process impact analysis mature, methodical recommendations is given. Article results special necessary children with at work preschool education institutions for practical importance profession will reach.

Keywords: Special necessary children, socialization, preschool education, inclusive education, pedagogical methods, art therapy, play activity, socio-psychological adaptation.

СОЦИАЛИЗАЦИЯ ДЕТЕЙ С ОСОБЫМИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ ПОТРЕБНОСТЯМИ И МЕТОДЫ, ПРИМЕНЯЕМЫЕ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

Аннотация: В данной статье рассматривается роль дошкольных образовательных учреждений в процессе социализации детей с особыми образовательными потребностями, а также значение использования эффективных методов. Социализация трактуется как процесс адаптации ребёнка к жизни в обществе, усвоение им социальных ценностей и норм. У детей с особыми потребностями этот процесс требует более индивидуального подхода, педагогической поддержки и применения специальных методов. В исследовании освещается эффективность таких методов, как социально-психологическая адаптация, инклюзивное обучение, игровая деятельность, интерактивные занятия и арт-терапия. Также анализируется влияние

сотрудничества педагогов и родителей на процесс социализации и даются методические рекомендации. Результаты статьи имеют практическую значимость для дошкольных образовательных учреждений в работе с детьми с особыми образовательными потребностями.

Ключевые слова: дети с особыми потребностями, социализация, дошкольное образование, инклюзивное обучение, педагогические методы, арт-терапия, игровая деятельность, социально-психологическая адаптация.

KIRISH

Bugungi globallashuv va axborotlashuv davrida jamiyat taraqqiyotining muhim ko'rsatkichlaridan biri sifatida inson kapitalini rivojlantirish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, ta'lim tizimida maxsus ehtiyojli bolalarning ijtimoiylashuv jarayoniga e'tibor qaratish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Chunki ijtimoiylashuv – bolaning jamiyat hayotiga faol moslashuvi, ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishi, axloqiy qadriyatlarni o'zlashtirishi hamda shaxs sifatida kamol topishida muhim omil hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari ushbu jarayonning dastlabki bosqichini tashkil etib, bolalarning psixologik, emotsional va kommunikativ rivojlanishida hal qiluvchi o'rin tutadi. Ayniqsa, maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlashda an'anaviy metodlardan tashqari, inklyuziv ta'lim elementlari, art-terapiya, o'yin faoliyatiga asoslangan mashg'ulotlar va ijtimoiy-psixologik moslashuvni qo'llab-quvvatlovchi pedagogik yondashuvlarning ahamiyati beqiyosdir.

Mazkur tadqiqotda maxsus ehtiyojli bolalarning ijtimoiylashuv jarayonida maktabgacha ta'lim muassasalarida qo'llaniladigan metodlarning nazariy asoslari hamda ularning amaliy samaradorligi ilmiy tahlil etiladi. Shuningdek, pedagog va ota-onalar hamkorligining o'rni, bolalarning ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirish yo'llari ham yoritiladi. Tadqiqot natijalari kelajakda maxsus ehtiyojli bolalarning jamiyat hayotida faol ishtirok etishini ta'minlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

So'nggi yillarda maxsus ehtiyojli bolalarning ta'lim-tarbiyasi, ijtimoiylashuvi va inklyuziv ta'lim masalalari ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar e'tiborida bo'lib kelmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim tizimini modernizatsiya qilishga oid qaror va farmonlarida ham maxsus ehtiyojli bolalarga teng ta'lim imkoniyatlari yaratish, ularni ijtimoiy hayotga faol jalb etish masalalari alohida ta'kidlab o'tilgan.

Mahalliy olimlardan M. To'xtaxodjayeva, Z. Nishonova, G. G'ulomova va boshqalar maxsus ehtiyojli bolalarning psixologik rivojlanishi hamda inklyuziv muhitda ularning shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratgan. Xorijiy adabiyotlarda esa L. Vygotskiy, M. Montessorri, J. Piaget, E. Erikson kabi olimlarning nazariyalari maxsus ehtiyojli bolalarning rivojlanish psixologiyasi hamda ijtimoiylashuv jarayonini o'rganishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda (J. Lindsay, S. Florian, M. Booth va boshqalar) inklyuziv ta'lim modeli, pedagogik qo'llab-quvvatlash strategiyalari, art-terapiya, musiqa va o'yin faoliyati orqali ijtimoiylashuvni rivojlantirishning samaradorligi ilmiy asoslab berilgan. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ijtimoiylashuv jarayonini samarali tashkil etishda pedagog va ota-onalarning hamkorligi, shuningdek, shaxsga yo'naltirilgan metodlardan foydalanish eng muhim omillar sirasiga kiradi.

Ushbu tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi, inklyuziv pedagogika, ijtimoiy-psixologik rivojlanish nazariyalari va kompetensiyaviy yondashuv tashkil etadi. Tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi:

Nazariy tahlil metodi – maxsus ehtiyojli bolalarning ijtimoiylashuviga oid milliy va xorijiy ilmiy manbalar, davlat hujjatlari, metodik qo'llanmalar va ilg'or tajribalar o'rganildi.

Tajriba-sinov metodi – maktabgacha ta'lim muassasalarida maxsus ehtiyojli bolalar bilan olib borilayotgan mashg'ulotlarda ijtimoiylashuv metodlarining amaliy samaradorligi sinovdan o'tkazildi.

Kuzatish va suhbat metodi – bolalarning o'yin faoliyatida, guruhiiy mashg'ulotlarda va ota-onalar bilan muloqotida ijtimoiylashuv jarayoni kuzatilib, sifat jihatidan tahlil qilindi.

Diagnostik metodlar – bolalarning ijtimoiy kompetensiyalarini baholash uchun psixologik test va so'rovnoma qo'llanildi.

Metodologik yondashuv sifatida ijtimoiylashuv jarayonini tizimli ravishda tahlil qilish, pedagogik hamkorlikni shakllantirish va innovatsion metodlarni qo'llash tadqiqotning asosiy tamoyillari sifatida belgilandi.

NATIJALAR

O'tkazilgan nazariy va amaliy tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy va amaliy xulosalarga kelingi.

Maxsus ehtiyojli bolalarning ijtimoiylashuvi jarayoni oddiy bolalarga nisbatan ko'proq individual yondashuvni, qo'shimcha pedagogik qo'llab-quvvatlashni hamda maxsus metodlardan foydalanishni talab qilishi aniqlandi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida qo'llaniladigan metodlar orasida o'yin faoliyati, art-terapiya, musiqa terapiyasi, ijtimoiy rolli o'yinlar va interfaol mashg'ulotlar bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirishda yuqori samaradorlik ko'rsatdi.

Pedagog va ota-onalar hamkorligi ijtimoiylashuv jarayonida muhim omil sifatida namoyon bo'ldi. Ota-onalar muntazam ravishda pedagogik jarayonga jalb etilganida bolalarda muloqot, hamkorlik va o'zini ifodalash ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlanishi kuzatildi.

Diagnostik kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, maxsus ehtiyojli bolalarda ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun tizimli va uzluksiz yondashuv zarur. Bir martalik mashg'ulotlar o'rniga bosqichma-bosqich va muntazam qo'llanilgan metodlar yanada samarali natijalar berdi.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar asosida olib borilgan tajriba-sinov ishlari shuni tasdiqladiki, **inklyuziv yondashuv** asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar bolalarning o'z tengdoshlari bilan muloqotga kirishishi, jamoadagi o'z o'rnini topishi va ijtimoiy-psixologik muhitga moslashuvini sezilarli darajada tezlashtiradi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari maxsus ehtiyojli bolalarning ijtimoiylashuvi maktabgacha ta'lim tizimida samarali tashkil etilishi uchun bir qator shart-sharoitlar zarurligini ko'rsatdi. Avvalo, ijtimoiylashuv jarayonining murakkabligi shundaki, har bir bolaning individual ehtiyojlari va rivojlanish darajasi turlicha bo'lib, ularga bir xil yondashuv yetarli natija bermaydi. Shu bois pedagoglar tomonidan shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni qo'llash muhimdir.

Amaliy tajribalar shuni ko'rsatdiki, maktabgacha ta'lim muassasalarida o'yin faoliyatiga asoslangan mashg'ulotlar, art-terapiya, musiqa va rolli o'yinlar maxsus ehtiyojli bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Bu esa Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" haqidagi nazariy qarashlarini amalda tasdiqlaydi.

Shuningdek, tadqiqot davomida ota-onalarning jarayonga jalb qilinishi bolalarning ijtimoiylashuvini yanada samarali tashkil etishga yordam berdi. Ota-onalar faol ishtirok etgan oilalarda bolalarning muloqot, hamkorlik va o'z-o'zini ifodalash ko'nikmalarida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Bu esa oilaviy muhitning bola ijtimoiylashuvidagi hal qiluvchi o'rin tutishini yana bir bor isbotlaydi.

Muhokama jarayonida shuningdek aniqlanishicha, inklyuziv ta'lim tamoyillariga asoslangan pedagogik faoliyat nafaqat maxsus ehtiyojli bolalar, balki sog'lom bolalar uchun ham ijtimoiy bag'rikenglikni shakllantirishda samarali hisoblanadi. Demak, bunday yondashuv umumiy ta'lim muhitining ijobiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, maxsus ehtiyojli bolalarning ijtimoiylashuvi jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish, pedagog va ota-onalar o'rtasida uzluksiz hamkorlikni ta'minlash hamda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni keng tatbiq etish eng muhim vazifalar sifatida qaralishi lozim.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, maxsus ehtiyojli bolalarning ijtimoiylashuvi murakab, bosqichma-bosqich jarayon bo'lib, uni samarali tashkil etishda maktabgacha ta'lim muassasalari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tadqiqot asosida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi.

Maxsus ehtiyojli bolalarning jamiyat hayotiga moslashuvi shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, pedagogik qo'llab-quvvatlash va innovatsion metodlardan foydalanishni talab etadi.

O'yin faoliyatiga asoslangan mashg'ulotlar, art-terapiya, musiqa va rolli o'yinlar ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishda samarali vosita ekanligi tajribada tasdiqlandi.

Pedagog va ota-onalar o'rtasidagi uzviy hamkorlik bolalarning ijtimoiylashuv jarayonini jadal-lashtiradi, ularning muloqot, hamkorlik va o'zini ifodalash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Inklyuziv ta'lim tamoyillariga asoslangan metodik yondashuv nafaqat maxsus ehtiyojli bolalar, balki sog'lom bolalar uchun ham bag'rikenglik, ijtimoiy hamkorlik va hurmat kabi qadriyat-larni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Maxsus ehtiyojli bolalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ta'lim muassasalari, oila va jamiyat hamkorligi bir butun tizim sifatida qaralishi lozim.

Shunday qilib, maxsus ehtiyojli bolalarning ijtimoiylashuvi jarayonini samarali tashkil etish uchun maktabgacha ta'lim muassasalarida innovatsion pedagogik metodlardan foydalanish, ota-onalar va pedagoglar hamkorligini mustahkamlash hamda inklyuziv muhitni yaratish dolzarb va-zifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "Ta'lim-tarbiya tizimini tubdan ta-komillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari va farmonlari. – Toshkent, 2019–2024 yy.
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020 y.
3. Nishonova Z. Inklyuziv ta'lim: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
4. To'xtaxodjayeva M. Maxsus pedagogika va psixologiya asoslari. – Toshkent: Nizomiy nomi-dagi TDPU nashriyoti, 2020.
5. G'ulomova G. Maktabgacha ta'limda ijtimoiylashuv jarayonining psixologik asoslari. – Tosh-kent: Ilm ziyo, 2022.
6. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cam-bridge, MA: Harvard University Press, 1978.
7. Piaget J. The Language and Thought of the Child. – London: Routledge, 2005.
8. Erikson E.H. Childhood and Society. – New York: Norton, 1993.

ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ В СИСТЕМЕ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВУЗАХ

Тухташева Рушана Садуллаевна

*Преподаватель кафедры педагогики и психологии Самаркандского филиала
Ташкентского международного университета Кимё
rt5654562@gmail.ru*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17640023>

Аннотация: В данном исследовании рассматриваются проблемы и решения, связанные с внедрением дистанционного обучения в педагогических высших учебных заведениях. Данные были собраны с использованием качественного подхода среди преподавателей и

студентов посредством интервью и фокус-групп. Среди основных выявленных проблем – технологические ограничения, трудности адаптации к учебному процессу, снижение вовлеченности студентов и отсутствие институциональной поддержки. Однако было выявлено несколько практических решений, таких как смешанное обучение, повышение квалификации преподавателей и совершенствование цифровой инфраструктуры. Результаты подчеркивают важность долгосрочного планирования и инноваций в онлайн-образовании учителей. Даны рекомендации, которые помогут учебным заведениям повысить качество и доступность своих систем дистанционного обучения.

Ключевые слова: Дистанционное обучение, педагогическое образование, высшее образование, онлайн-обучение, цифровая трансформация, вовлеченность студентов, образовательные проблемы.

PEDAGOGIK OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MASOFAVIY TA'LIM TIZIMIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI HAL ETISH YO'LLARI

Tukhtasheva Rushana Sadullaevna

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti, Samarqand filiali,

Pedagogika va psixologiya kafedrasida o'qituvchisi

rt5654562@gmail.ru

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda pedagogik oliy ta'lim muassasalarida masofaviy ta'limni joriy etishda yuzaga keladigan muammolar va ularni hal etish yo'llari ko'rib chiqiladi. Ma'lumotlar sifatli yondashuv yordamida o'qituvchilar va talabalar orasida intervyu va fokus-guruhlar orqali to'plangan. Asosiy aniqlangan muammolar – texnologik cheklavlar, o'quv jarayoniga moslashish qiyinchiliklari, talabalar faoliyatining pasayishi va institutsional qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi. Shu bilan birga, amaliy yechimlar sifatida aralash ta'lim, o'qituvchilarning malakasini oshirish va raqamli infratuzilmani takomillashtirish tavsiya etilgan. Natijalar pedagoglarni onlayn ta'limda innovatsiyalar va uzoq muddatli rejalashtirishning ahamiyatini ta'kidlaydi. Shuningdek, maqolada masofaviy ta'lim tizimlarining sifatini va mavjudligini oshirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: masofaviy ta'lim, pedagogik ta'lim, oliy ta'lim, onlayn ta'lim, raqamli transformatsiya, talabalar faoliyati, ta'lim muammolari.

PROBLEMS AND SOLUTIONS IN THE DISTANCE LEARNING SYSTEM IN PEDAGOGICAL UNIVERSITIES

Tukhtasheva Rushana Sadullaevna

Lecturer, Department of Pedagogy and Psychology,

Samarkand Branch, Kimyo International University In Tashkent

rt5654562@gmail.ru

Abstract: This study examines the problems and solutions associated with implementing distance learning in pedagogical higher education institutions. Data were collected using a qualitative approach among teachers and students through interviews and focus groups. The main identified problems include technological limitations, difficulties in adapting to the learning process, decreased student engagement, and lack of institutional support. However, several practical solutions were identified, such as blended learning, teacher professional development, and improvement of digital infrastructure. The results emphasize the importance of long-term planning

and innovation in online teacher education. Recommendations are provided to help institutions enhance the quality and accessibility of their distance learning systems.

Keywords: distance learning, pedagogical education, higher education, online learning, digital transformation, student engagement, educational challenges.

Введение

В последние годы дистанционное обучение стремительно трансформировалось из дополнительного метода обучения в основной способ предоставления образования, особенно в условиях глобальных чрезвычайных ситуаций, таких как пандемия COVID-19. Педагогические вузы, ответственные за подготовку будущих педагогов, столкнулись с особыми трудностями в этот переходный период. В отличие от других академических дисциплин, программы подготовки учителей требуют не только теоретического обучения, но и практического опыта в реальных аудиториях. В результате переход на дистанционное обучение привёл к возникновению сложных проблем как педагогического, так и технологического характера.

Внезапный переход к онлайн-форматам выявил значительные пробелы в цифровой инфраструктуре, технологической грамотности, разработке учебных программ и вовлеченности студентов. Во многих педагогических вузах как преподаватели, так и студенты оказались не готовы к быстрой цифровизации процесса преподавания и обучения. Плохое интернет-соединение, отсутствие доступа к цифровым устройствам и ограниченная техническая поддержка усугубили ситуацию, особенно в сельской местности и регионах с низким уровнем дохода. Более того, среда дистанционного обучения часто не обеспечивает поддержку совместных и межличностных аспектов, которые необходимы в педагогическом образовании, таких как совместная работа с коллегами, моделирование учебных процессов в классе и практические занятия.

Еще одна насущная проблема заключается в адаптации содержания учебной программы и методов оценки. Традиционные программы подготовки учителей в значительной степени зависят от очного взаимодействия, обратной связи и очной оценки. Перенос этих процессов в онлайн-формат без ущерба для качества и целостности обучения остается важнейшей задачей. Также растет обеспокоенность по поводу мотивации студентов и академической честности в условиях дистанционного обучения, поскольку дистанционное оценивание более подвержено недобросовестным практикам. Несмотря на эти трудности, система дистанционного обучения также предлагает новые возможности. Она стимулировала инновации в образовательных технологиях, способствовала созданию гибкой учебной среды и повысила доступность высшего образования для нетрадиционных учащихся. Педагогические учреждения теперь могут использовать эти преимущества для создания более устойчивых и инклюзивных систем образования.

Обзор литературы

Дистанционное обучение в системе высшего образования широко изучается, особенно в свете пандемии COVID-19. По мнению Дхавана (2020), онлайн-образование, хотя и обладает потенциалом демократизации доступа к обучению, также усугубляет существующее неравенство при отсутствии цифровой инфраструктуры. Ходжес и др. (2020) представили концепцию «экстренного дистанционного обучения», подчеркнув, что многие учреждения на самом деле не предлагали онлайн-образование, а скорее временное решение в ответ на кризис. В контексте подготовки учителей Бао (2020) отмечает, что педагогические учреждения сталкиваются с дополнительными препятствиями, поскольку развитие педагогических компетенций требует интерактивного, экспериментального обучения, которое трудно воспроизвести в цифровой среде.

В нескольких исследованиях подчеркивается важность готовности преподавателей и разработки учебных программ для успешного внедрения дистанционного обучения (Мартин

и др., 2020). Кроме того, в качестве частичного решения предлагается интеграция синхронных и асинхронных методов, цифровых инструментов, таких как платформы LMS, и моделирования виртуальных классов (Бозкурт и Шарма, 2020). Однако необходимы более целенаправленные исследования, чтобы понять, как эти решения можно адаптировать специально для педагогических вузов. Данное исследование опирается на существующую литературу и уделяет особое внимание проблемам и индивидуальным решениям для педагогических учебных заведений, использующих дистанционное обучение.

Методология

В данном исследовании используется качественный подход к изучению проблем и решений, связанных с дистанционным обучением в педагогических вузах. Исследование проводилось в трёх университетах, специализирующихся на подготовке учителей. Была отобрана целевая выборка из 15 преподавателей и 15 студентов бакалавриата, все из которых прошли дистанционное обучение в 2020–2024 учебном году. Данные собирались с помощью полуструктурированных интервью и онлайн-фокус-групп в Zoom. В ходе этих сессий основное внимание уделялось организации обучения, оценке, вовлеченности и цифровому доступу. Каждое интервью длилось около 30 минут и записывалось с согласия участников. Для выявления повторяющихся закономерностей и выводов применялся тематический анализ. Было получено этическое одобрение принимающего учреждения, а анонимность сохранялась на протяжении всего процесса исследования. Данная методология обеспечивает глубокое понимание жизненного опыта как преподавателей, так и учащихся в меняющемся контексте дистанционного педагогического образования.

Результаты

Качественные данные выявили ряд ключевых проблем и соответствующих решений, выявленных в ходе дистанционного обучения в педагогических вузах.

1. Технологические барьеры. Наиболее частой проблемой, о которой сообщалось, был ограниченный доступ к технологиям. У многих студентов не было личных ноутбуков, или они использовали смартфоны с недостаточной функциональностью. Нестабильное интернет-соединение, особенно в сельской местности, часто приводило к сбоям во время онлайн-сессий. Преподаватели также сталкивались с трудностями, связанными с устаревшим оборудованием и ограниченной ИТ-поддержкой.
Предлагаемые решения: Учреждения, предоставляющие программы аренды устройств и субсидирующие интернет, сообщили о более высокой посещаемости. Некоторые университеты внедрили асинхронные методы обучения (например, запись лекций и скачиваемые материалы) для студентов с плохим интернет-соединением.
2. Проблемы обучения. Преподавателям было сложно поддерживать качество обучения. Они сообщали о проблемах с переводом очных методов обучения, особенно интерактивных методов, таких как групповые дискуссии, ролевые игры и микрообучение, в онлайн-формат. Студенты жаловались на монотонность лекций с использованием слайдов, которым не хватало вовлеченности.
Предлагаемые решения: Обучающие семинары по дизайну учебных программ помогли преподавателям разнообразить онлайн-обучение. Интеграция интерактивных платформ, таких как Kahoot, Padlet и комнат для сессий в Zoom, повысила вовлеченность студентов. Некоторые вузы создали виртуальные учебные лаборатории, имитирующие аудиторную среду для практического обучения.
3. Сложности с оценкой и обратной связью. Вызывала беспокойство объективность оценки. Преподаватели сообщали об участвовавших случаях мошенничества во время онлайн-экзаменов и плагиата в письменных работах. Кроме того, предоставление своевременной и индивидуальной обратной связи в онлайн-режиме стало более затруднительным.

Предлагаемые решения: *Некоторые вузы перешли на непрерывные модели оценки, заменив экзамены с высокими ставками оценкой на основе портфолио, экспертными оценками и устными презентациями. Использование инструментов обнаружения плагиата и индивидуальная устная защита работ также способствовали обеспечению академической честности. Для обратной связи преподаватели внедрили цифровые критерии оценки и голосовые комментарии, чтобы персонализировать ответы.*

Обсуждение

Результаты данного исследования показывают, что педагогические высшие учебные заведения сталкиваются с определенными трудностями при внедрении дистанционного обучения, особенно в связи с практическим характером подготовки учителей. Распространенными препятствиями были технологические пробелы, недостаточная организация учебного процесса, слабая вовлеченность студентов и нечеткая институциональная политика. Однако исследование также выявило перспективные стратегии, которые учреждения могут использовать для решения этих проблем, такие как модели смешанного обучения, непрерывное развитие преподавательского состава и усовершенствованные системы поддержки студентов. Эти стратегии согласуются с результатами предыдущих исследований (например, Hodges et al., 2020; Martin et al., 2020), которые подчеркивают важность готовности и адаптивности к дистанционному обучению. Важно отметить, что данное исследование подчеркивает необходимость инвестирования педагогическим учреждениям в устойчивую цифровую инфраструктуру и политику, ориентированную на учащихся, а не в временные меры, принимаемые в ответ на кризис. Внедрение гибких, интерактивных и инклюзивных практик может не только смягчить текущие проблемы, но и подготовить учреждения к будущим сбоям или переходу к гибридным моделям педагогического образования. Заключение

В заключение следует отметить, что переход на дистанционное обучение в педагогическом высшем образовании выявил целый ряд взаимосвязанных проблем – технологических, образовательных, психологических и административных. Однако он также стимулировал инновации, цифровую трансформацию и переосмысление традиционных педагогических практик. Исследование показывает, что стратегическое планирование, подготовка преподавателей и институциональные инвестиции позволяют эффективно решать многие из этих проблем. Устойчивые решения, такие как смешанные среды обучения, программы цифровой грамотности и системы поддержки студентов и преподавателей, необходимы для обеспечения качественного педагогического образования в виртуальной среде. Опыт, представленный в данном исследовании, может служить основой для педагогических вузов, стремящихся к созданию устойчивых, инклюзивных и ориентированных на будущее систем образования. Поскольку дистанционное образование становится все более неотъемлемой частью высшего образования, особенно в сфере подготовки учителей, уроки, извлеченные из этого периода, могут помочь в разработке долгосрочных реформ и улучшений, которые принесут пользу как педагогам, так и будущим поколениям учащихся.

Ссылки:

1. Hodges, C., Moore, S., Lockee, B., Trust, T., & Bond, A. (2020). The difference between emergency remote teaching and online learning. EDUCAUSE Review. <https://er.educause.edu/articles/2020/3/the-difference-between-emergency-remote-teaching-and-online-learning>
2. Martin, F., Polly, D., & Ritzhaupt, A. D. (2020). Basing faculty professional development on the TPACK framework: A study of the impact on instructional practices. *Journal of Research on Technology in Education*, 52(3), 220–234. <https://doi.org/10.1080/15391523.2020.1744618>
3. Moore, M. G., Dickson-Deane, C., & Galyen, K. (2011). e-Learning, online learning, and distance learning environments: Are they the same? *The Internet and Higher Education*, 14(2), 129–135. <https://doi.org/10.1016/j.iheduc.2010.10.001>

4. Salmon, G. (2013). E-tivities: The key to active online learning (2nd ed.). Routledge.
5. Zawacki-Richter, O., & Anderson, T. (Eds.). (2014). Online distance education: Towards a research agenda. Athabasca University Press.
6. Ellis, R. (2003). Task-based language learning and teaching. Oxford University Press.

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING ESTETIK RIVOJLANISHIDA SAN'AT IDROKINING O'RNI VA AHAMIYATI

Kadirova Zarina

KIUT Samarqand filiali

*"Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrası o'qituvchisi
kadirovazarina521@gmail.com*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17640057>

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning estetik rivojlanishida san'at asarlarini idrok etishning mazmuni, uning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati va pedagogik shart-sharoitlari tahlil qilinadi. San'at idroki o'qituvchi shaxsining estetik tafakkuri, badiiy didi va ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi asosiy omil sifatida yoritiladi.

Kalit so'zlar: san'at idroki, estetik rivojlanish, bo'lajak o'qituvchi, badiiy tafakkur, estetik tarbiya, tasviriy san'at.

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF ART PERCEPTION IN THE AESTHETIC DEVELOPMENT OF FUTURE TEACHERS

Kadirova Zarina

*Lecturer, Department of "Preschool and Primary Education Methodology"
Samarkand Branch of KIUT*

Annotation. This article analyzes the content of the perception of works of art in the aesthetic development of future teachers, its educational and educational significance and pedagogical conditions. The perception of art is highlighted as a key factor in the development of the aesthetic thinking, artistic taste and creative potential of the teacher.

Key words: perception of art, aesthetic development, future teacher, artistic thinking, aesthetic education, fine arts.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ВОСПРИЯТИЯ ИСКУССТВА В ЭСТЕТИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация: В статье анализируется содержание восприятия произведений искусства в эстетическом развитии будущих учителей, его воспитательное и образовательное значение, а также педагогические условия. Восприятие искусства выделяется как важнейший фактор развития эстетического мышления, художественного вкуса и творческого потенциала учителя.

Ключевые слова: восприятие искусства, эстетическое развитие, будущий учитель, художественное мышление, эстетическое воспитание, изобразительное искусство.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarning estetik madaniyatini rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Estetik rivojlanish shaxsning nafaqat go'zallikni sezish, balki uni anglash, baholash va yaratish qobiliyatlarini shakllantiradi. Bu jarayonda san'at asarlarini idrok etish – badiiy-estetik tafakkurning poydevorini tashkil etadi. Ayniqsa, tasviriy san'at yo'nalishidagi bo'lajak o'qituvchilar uchun bu kompetensiya kasbiy mahoratning ajralmas qismi hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Kompetensiya – bu bilim, ko'nikma, malaka va tajriba yig'indisi bo'lib, u insonning muayyan sohada sa marali faoliyat yuritishini ta'minlaydi. San'at asarlarini idrok etish kompetensiyasi quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

- san'at turlarini tanish va ularni farqlash;
- asarning estetik va tarixiy kontekstini tushunish;
- subyektiv baho bera olish (yoqdi/yoqmadi emas, balki “nima uchun” degan savolga javob berish);
- o'z fikrini asoslab izohlash;
- o'quvchilar bilan muhokama yuritish va tahlil qilish.

Bo'lajak o'qituvchilar uchun idrok etish kompetensiyasining ahamiyati nihoyatda kattadir. San'atni anglash orqali o'qituvchi:

- o'quvchilarning didini shakllantira oladi;
- ta'lim jarayonini boyitadi va zerikarli darslarni qiziqarli qiladi;
- o'quvchilarning hissiy, ijodiy va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi;
- madaniyatlararo muloqotga tayyorlaydi;
- o'zining shaxsiy ma'naviy olamini boyitadi.

Tahlil va natijalar

1. San'at idrokining mazmuni va mohiyati. San'at idroki – bu shaxsning san'at asaridagi g'o'yaviy, hissiy va estetik mazmunni chuqur anglash jarayonidir. U insonning hissiyot, tafakkur va estetik baholash faoliyatining birligida namoyon bo'ladi. San'at asarini idrok etish orqali shaxs o'z dunyoqarashini kengaytiradi, go'zallikni his etish, yaxshilik va yomonlikni farqlash, estetik mezonlarga asoslanib fikr yuritish qobiliyatiga ega bo'ladi.

2. Estetik rivojlanish jarayonida san'at idrokining o'rni. Estetik rivojlanishning markazida san'atni tushunish va his etish yotadi. San'at asarlarini idrok etish:

- shaxsning badiiy hissiyotini uyg'otadi;
- go'zallikni sezish va baholash ko'nikmasini rivojlantiradi;
- ijodiy tafakkurni faollashtiradi;
- ma'naviy qadriyatlarni shakllantiradi;
- o'qituvchining tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish qobiliyatini oshiradi.

San'at idroki o'qituvchiga o'quvchilarda estetik qiziqish va madaniyatni shakllantirishda namuna bo'lish imkonini beradi. Bu jarayon o'qituvchining o'z san'at asarlariga nisbatan tahliliy, hissiy va baholovchi yondashuvini talab etadi.

3. San'at idrokini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari. Bo'lajak o'qituvchilarda san'at idroki quyidagi shart-sharoitlarda samarali shakllanadi:

- 1. Integrativ ta'lim** – san'atni tarix, falsafa, psixologiya bilan bog'liq holda o'rganish.
- 2. Faol metodlar** – tahliliy suhbatlar, badiiy asarlar tahlili, muhokama, ijodiy topshiriqlar.
- 3. Madaniy muhit** – muzey, galereya, teatr, ko'rgazmalarga tashrif orqali real estetik tajriba hosil qilish.
- 4. Axborot texnologiyalaridan foydalanish** – raqamli san'at namunalarini tahlil qilish, vizual media orqali o'rganish.
- 5. Tasviriy san'at ta'limida san'at idrokini rivojlantirishning ahamiyati.** Tasviriy san'at o'qituvchisi uchun san'atni idrok etish kompetensiyasi kasbiy kompetensiyalar tizimida markaziy o'rinni egallaydi. Chunki bu ko'nikma:

- darslarda san'atni tahliliy va estetik jihatdan yoritishni osonlashtiradi;
- o'quvchilarda badiiy did va estetik tafakkurni shakllantirishga yordam beradi;
- ijodiy yondashuvni ta'lim jarayoniga tatbiq etish imkonini beradi.

San'atni idrok etish orqali bo'lajak o'qituvchi o'zining estetik dunyoqarashini boyitadi, ijodiy va madaniy salohiyatini oshiradi, natijada u o'quvchilarga estetik zavq va ilhom baxsh etuvchi shaxsga aylanadi.

Xulosalar

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak o'qituvchilarning estetik rivojlanishida san'at idroki markaziy o'rinni egallaydi. U o'qituvchi shaxsining badiiy tafakkurini, ijodiy qobiliyatini, estetik didini va ma'naviy qadriyatlarini rivojlantiruvchi asosiy omildir. Shuning uchun pedagogik ta'lim jarayonida san'at asarlarini idrok etish kompetensiyasini shakllantirishga yo'naltirilgan metodik yondashuvlarni joriy etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4312-son qarori, 2019-yil 8-may. Madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish to'g'risida.
2. Abdullayeva, N. (2021). San'at ta'limida estetik tarbiya masalalari. – Toshkent: TDPU nashriyoti.
3. Karimova, Z. (2022). Bo'lajak o'qituvchilarda badiiy tafakkurni rivojlantirish metodikasi. – Samarqand.
4. Dewey, J. (1934). Art as Experience. – New York: Minton, Balch & Co.

TALABALARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Ne'matova Dilnavoz Shakarboy qizi. Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

"Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrası o'qituvchisi

+998917086090

nematovadilnavoz54@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17640409>

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishning pedagogik asoslari yoritilgan. Maqolada sog'lom turmush tarzining mohiyati, uning talaba shaxsining rivojlanishidagi o'rni, shuningdek, o'qituvchining bu jarayondagi roli va pedagogik yondashuvlar tahlil etilgan. Muallif sog'lom turmush tarzini shakllantirishda interaktiv metodlar, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv va tarbiyaviy faoliyatning ahamiyatini asoslab beradi.

Kalit so'zlar: sog'lom turmush tarzi, talaba, pedagogika, tarbiya, jismoniy faollik, salomatlik madaniyati, o'qituvchi faoliyati.

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF FORMING A HEALTHY LIFESTYLE AMONG STUDENTS

Ne'matova Dilnavoz Shakarboy qizi

Kimyo International University In Tashkent

Lecturer, Department of "Preschool and Primary Education Methodology"

Annotation. This article discusses the pedagogical foundations of developing a healthy lifestyle among students. It explores the concept of a healthy lifestyle, its role in the development of the student's personality, as well as the teacher's contribution and pedagogical approaches

in this process. The author emphasizes the importance of interactive methods, student-centered approaches, and educational activities in promoting a healthy lifestyle among youth.

Keywords: healthy lifestyle, student, pedagogy, education, physical activity, health culture, teacher's role.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ У СТУДЕНТОВ

Нематова Дилнавоз Шакарбой кизи

Преподаватель кафедры «Методика дошкольного и начального образования»,

Ташкентский международный университет Кимё

+998917086090 nematovadilnavoz54@gmail.com

Аннотация. В данной статье освещены педагогические основы формирования здорового образа жизни у студентов. Рассмотрены сущность здорового образа жизни, его роль в развитии личности студента, а также роль преподавателя в этом процессе и педагогические подходы. Автор обосновывает значимость использования интерактивных методов, личностно-ориентированного подхода и воспитательной деятельности в формировании здорового образа жизни.

Ключевые слова: здоровый образ жизни, студент, педагогика, воспитание, физическая активность, культура здоровья, деятельность преподавателя.

Bugungi globallashuv davrida yosh avlodning sog'lom turmush tarziga amal qilishi jamiyat taraqqiyoti va kelajak avlod salomatligini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ta'lim tizimida sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalasi pedagogika fanining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylangan. Talabalar orasida salomatlik madaniyatini rivojlantirish, jismoniy faollikni oshirish, zararli odatlardan voz kechish, to'g'ri ovqatlanish va psixologik barqarorlikni ta'minlash bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Sog'lom turmush tarzi – bu insonning jismoniy, ruhiy va ma'naviy salomatligini saqlashga qaratilgan ongli faoliyati bo'lib, unda shaxsning kundalik xatti-harakatlari, odatlari va qadriyatlari muhim rol o'ynaydi. Pedagogik nuqtai nazardan sog'lom turmush tarzi talaba shaxsining har tomonlama rivojlanishiga, o'zini anglash va boshqarish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Pedagogik jarayonda sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun o'qituvchi, tarbiyachi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik alohida ahamiyatga ega. Oliy ta'lim muassasalarida bu jarayon darsdan tashqari tadbirlar, sport mashg'ulotlari, sog'lom ovqatlanish targ'iboti va psixologik treninglar orqali amalga oshiriladi.

Talabalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, faol ishtirokli o'qitish, ijtimoiy loyihalar va o'zini o'zi tarbiyalash usullari muhim o'rin tutadi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv har bir talabaning individual xususiyatlarini hisobga olib, unga mos motivatsion sharoit yaratishni taqozo etadi.

Sog'lom turmush tarzini shakllantirishning samaradorligi pedagogik jarayonning tizimliliigi, uzviyligi va shaxsga yo'naltirilganligi bilan belgilanadi. Talabalik davri inson hayotining eng faol, psixologik va jismoniy jihatdan shakllanish bosqichidir. Shu sababli, aynan shu davrda ularning salomatlik madaniyatini shakllantirish, gigiyenik malakalarni egallash, sportga, to'g'ri ovqatlanishga, ruhiy muvozanatni saqlashga bo'lgan ehtiyojini pedagogik jihatdan yo'naltirish nihoyatda muhimdir. Ta'lim jarayonida bu maqsadga erishish uchun quyidagi metodik yo'nalishlar samarali hisoblanadi:

1. Nazariy tahlil – tolerantlik madaniyati, yoshlar tafakkuri, huquqiy asoslar haqida ilmiy adabiyotlar, qonun va normativ hujjatlar (Konstitutsiya, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun, Taraqqiyot strategiyasi va boshqalar) o'rganildi.

2. Kuzatish – ta’lim jarayonida yoshlarning muloqot madaniyati va bag’rikenglik darajasi kuzatildi.
3. Psixologik tahlil – yoshlarning motivatsiyasi, diqqat-e’tibor, hissiy muvozanat va empatiya qobiliyatlari baholandi.
4. Taqqoslash va umumlashtirish – an’anaviy va zamonaviy pedagogik yondashuvlarning tolerantlikni rivojlantirishdagi o’rni solishtirildi.
5. Huquqiy tahlil – milliy va xalqaro qonunchilik asosida tolerantlik madaniyatining normativ bazasi o’rganildi.

Tadqiqotning manbalar bazasini O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Yoshlarga oid davlat siyosati to’g’risida”gi Qonun, “Davlat tili to’g’risida”gi Qonun, “Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi” hamda BMTning “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” tashkil etdi.

Natijalar

Tadqiqot davomida o’tkazilgan tahlillar shuni ko’rsatdiki, yoshlar ongida tolerantlik tafakkurini shakllantirish murakkab, ammo zaruriy jarayondir. Bu jarayon nafaqat ta’lim muassasalari faoliyatiga, balki ijtimoiy muhit, oila, ommaviy axborot vositalari va davlat siyosatiga ham bevosita bog’liqdir. Tolerantlikni shakllantirishda birinchi navbatda ta’lim tizimining o’rni beqiyosdir. Chunki aynan ta’lim muassasalari yosh avlod tafakkurini shakllantiradigan, ularning dunyoqarashini kengaytiradigan va insonparvar qadriyatlarga yo’naltiradigan asosiy maydondir.

O’quv dasturlariga tolerantlik, madaniyatlararo muloqot, inson huquqlari, millatlararo to’uvlik, diniy bag’rikenglik kabi mavzularni kiritish yoshlarning dunyoqarashida o’zaro hurmat va hamjihatlik g’oyalari mustahkamlaydi. Bunday yondashuv, ayniqsa, zamonaviy o’quv jarayonida interfaol metodlar – munozara, rolik tahlili, guruhviy muhokama, rolli o’yinlar kabi usullar orqali yanada samarali kechadi. Bunda o’quvchilar nafaqat nazariy bilimga ega bo’ladilar, balki hayotiy misollar asosida murosaga kelish, turli fikrlarni tahlil qilish, sabr va empatiya bilan yondashish kabi ijtimoiy kompetensiyalarni ham egallaydilar.

Tolerantlikning shakllanishida oila muhiti ham muhim omildir. Ota-onaning farzandga bo’lgan mehr-muhabbati, uning fikriga hurmat bilan qarashi, boshqalarga nisbatan adolatli va bag’rikeng munosabat ko’rsatishi bolalarda erta yoshdan tolerantlik asoslarini shakllantiradi. Ota-ona o’zi namuna bo’lgan taqdirdagina farzandda insoniylik, sabr, murosaga tayyorlik kabi fazilatlar mustahkam qaror topadi. Shu bois oila tarbiyasi va maktab ta’limi o’rtasidagi uzviy hamkorlik tolerantlik madaniyatining barqaror shakllanishiga xizmat qiladi.

Jamiyat muhitida esa tolerantlikni mustahkamlashda fuqarolik jamiyati institutlari, mahalla, jamoat tashkilotlari, diniy idoralar va nodavlat notijorat tashkilotlarining o’rni ham beqiyosdir. Ayniqsa, yoshlar markazlari, volontyorlik harakatlari, ijtimoiy tashabbuslar orqali o’tkaziladigan tadbirlar yoshlarni birlashtiradi, ularning o’zaro hamkorlik, o’zaro tushunish va do’slik ruhida faoliyatini rivojlantiradi. Shu bilan birga, “Yoshlar – kelajagimiz”, “Inson qadri – oliy qadriyat”, “Tinchlik va barqarorlik yo’lida” kabi respublika miqyosidagi dasturlar yoshlarni tinchliksevarlik va bag’rikenglik ruhida tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Axborot makonida tolerantlik g’oyalari targ’ib etish masalasi alohida e’tiborga loyiq. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari yoshlarning tafakkuriga eng kuchli ta’sir etuvchi manbalar hisoblanadi. Shu sababli axborot siyosatida ijobiy, insonparvar, millatlararo to’uvlikni mustahkamlovchi materiallarga ustuvor o’rin berilishi zarur. Yoshlar orasida internet madaniyatini shakllantirish, axborotga tanqidiy yondashish, kamsituvchi, tajovuzkor yoki ekstremistik mazmundagi xabarlarini ajratib olish ko’nikmalarini rivojlantirish tolerantlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Huquqiy nuqtayi nazardan olib qaralganda, tolerantlik O’zbekiston Respublikasida konstitutsiyaviy qadriyat sifatida e’tirof etilgan. Konstitutsiyaning 19-moddasida “barcha fuqarolar jinsidan, irqi, millati, tili, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar teng huquqlidir” degan tamoyil belgilangan. Bu esa jamiyatda kamsitish, zo’ravonlik, millatlararo yoki diniy nizo kabi holatlarga

mutlaqo yo'l qo'yilmasligini anglatadi. Shuningdek, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunda yoshlarni vatanparvarlik, insonparvarlik, tinchlik va bag'rikenglik ruhida tarbiyalash davlat siyosatining asosiy maqsadlaridan biri sifatida belgilangan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, yoshlar ongida tolerantlik tafakkurini rivojlantirishda eng muhim omil – ta'lim, oila va jamiyat o'rtasidagi hamkorlikdir. Har bir tizim o'zaro bog'liq bo'lgan holda ishlaganda, bag'rikenglik madaniyati barqaror shakllanadi. Bu esa o'z navbatida jamiyatda totuvlik, ijtimoiy barqarorlik, millatlararo do'stlik va hamjihatlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Tolerantlikning rivojlanishi yoshlarning psixologik holatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday yoshlar boshqalar fikriga hurmat bilan qaraydi, o'z fikrini xotirjamlik bilan ifoda etadi, nizoli vaziyatlarda murosaga kelishni afzal ko'radi. Ular ekstremistik g'oyalarga berilmaydi, ijtimoiy hayotda faol, ongli va mas'uliyatli pozitsiyada bo'ladi. Shu ma'noda tolerantlik nafaqat axloqiy yoki madaniy fazilat, balki jamiyat xavfsizligi, barqaror rivojlanish va inson huquqlarining kafolati sifatida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, o'tkazilgan tahlillar tolerantlik tafakkurini rivojlantirish jarayoni uzluksiz va kompleks yondashuvni talab qilishini ko'rsatdi. Har bir yoshning fikrini qadrlash, turfa madaniyat va e'tiqodlarga hurmat bilan yondashish, millatlararo totuvlikni qadrlash – bu nafaqat ma'naviy, balki huquqiy zaruratdir. Bunday yondashuv orqali yoshlar jamiyatda o'z o'rnini topadi, bag'rikeng, adolatli va insonparvar fuqarolar sifatida shakllanadi.

Muhokama

Tolerantlik tafakkurini shakllantirishda davlat siyosati va ta'lim tizimi o'zaro bog'liq bo'g'inlardir.

Konstitutsiyaviy me'yorlar barcha fuqarolarning teng huquqliligini kafolatlab, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni huquqiy jihatdan mustahkamlaydi.

"Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun esa yoshlarni insonparvarlik, tolerantlik va demokratik qadriyatlarga sodiq ruhda tarbiyalashni asosiy vazifa sifatida belgilaydi.

"Taraqqiyot strategiyasi – 2022–2026"da esa tolerantlik madaniyatini rivojlantirish fuqarolik jamiyatini mustahkamlash bilan uzviy bog'langan.

Pedagogik nuqtayi nazardan tolerantlikni o'rgatishda:

- muammoli vaziyatlar asosida fikrlash;
- turli pozitsiyalarni tahlil qilish;
- empatiya va o'zaro hurmatni rivojlantirish;
- madaniyatlararo muloqot mashg'ulotlari o'z samarasini beradi.

Shuningdek, yoshlar o'rtasida ekstremizm, radikalizm va kamsitish g'oyalariga qarshi immunitetni shakllantirish tolerantlik ta'limining muhim natijasidir. Bu jarayonda ta'lim muassasalari, NNTlar, OAV va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlik alohida ahamiyatga ega.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, yoshlar ongida tolerantlik tafakkurini shakllantirish bugungi kunda nafaqat ma'naviy-ma'rifiy vazifa, balki huquqiy, siyosiy va pedagogik zaruratdir. Bu jarayon ta'lim, oila va jamiyat tizimlari o'rtasidagi uzviy hamkorlik asosida kechmog'i lozim. Agar har bir tizim o'z zimmasiga tushgan mas'uliyatni chuqur his etsa, yoshlar tafakkurida insonparvarlik, bag'rikenglik, adolat va hamjihatlik g'oyalari mustahkam o'rnashadi. Ana shundagina biz tolerantlikni faqat nazariy tushuncha emas, balki kundalik hayot me'yori, milliy mentalitet va davlat siyosatining ajralmas qadriyati sifatida qarash imkoniga ega bo'lamiz.

Shunday qilib, tolerantlik tafakkuriga ega yoshlar – bu kelajakda O'zbekistonning tinchliksevar, demokratik va ijtimoiy jihatdan barqaror jamiyatini barpo etuvchi kuchdir. Ular inson qadriyatini ulug'laydi, o'zaro hurmatga asoslangan muloqotni qadrlaydi va "Inson qadri – eng oliy qadriyat" tamoyilini hayotga tatbiq etuvchi avlod sifatida jamiyatda o'z o'rnini topadi.

Shunday qilib, O'zbekiston taraqqiyotida tolerantlik madaniyatini rivojlantirish – barqaror ijtimoiy muhit, inson huquqlariga hurmat va fuqarolik jamiyatini mustahkamlashning kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2023. – 240 b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni, 2016-yil 14-sentabr, O'RQ-406-son.
3. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni, 1989-yil 21-oktabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni, 2022-yil 28-yanvar.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3138-son Qarori, 2017-yil 5-iyul.
6. "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi", BMT, 1948-yil 10-dekabr.
7. Белокнов А.В. Менеджмент организации: современные технологии. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2002.
8. lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari bazasi.

YOSHLAR ONGIDA TOLERANTLIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA HUQUQIY ASOSLARI

Kurbonov Akram Amonovich

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
mustaqil tadqiqotchisi
e-mail: akramkurbanov88@gmail.com*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17640456>

Annotatsiya

Maqolada yoshlar ongida tolerantlik tafakkurini rivojlantirishning ijtimoiy, psixologik, pedagogik va huquqiy jihatlari ilmiy asosda tahlil qilingan. Tolerantlik madaniyatining jamiyat barqarorligi, ijtimoiy totuvlik va inson qadri uchun g'oyasini mustahkamlashdagi o'rni ko'rsatib berilgan. O'zbekiston Respublikasida tolerantlikni shakllantirishga oid qonuniy asoslar, davlat dasturlari hamda xalqaro huquqiy me'yorlar tahlil qilinib, bu jarayonda ta'lim tizimi va fuqarolik jamiyati institutlarining roli yoritilgan.

Kalit so'zlar: tolerantlik, yoshlar, huquqiy asoslar, inson qadri, totuvlik, ma'naviyat, ta'lim tizimi.

OPPORTUNITIES AND LEGAL BASIS FOR DEVELOPING TOLERANT THINKING IN YOUTH'S MIND

Kurbonov Akram Amonovich

*Samarkand state veterinary medicine medicine , animal husbandry and biotechnology university
independent Researcher e-mail: akramkurbanov88@gmail.com*

Abstract. In the article youth in mind tolerance his/her thinking development social , psychological , pedagogical and legal aspects scientific basically analysis Tolerance culture society sustainability , social harmony and human value for the idea in reinforcement place showing given . Uzbekistan In the Republic tolerance to form related legal foundations , state programs and international legal standards analysis done , this in process education system and citizenship society of the institutions role illuminated .

Keywords: tolerance , youth , legal basics , human value , harmony, spirituality, education system.

Kirish

Globalashuv jarayonida jamiyatda tinchlik, barqarorlik va o'zaro hurmat tamoyillarini ta'minlashda tolerantlik madaniyatining o'rni beqiyosdir. Ayniqsa, yosh avlod ongida tolerantlik tafakku-

rini rivojlantirish – davlat siyosatining dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Chunki yoshlar jamiyatning kelajagi, ijtimoiy munosabatlar va g‘oyaviy jarayonlarning faol ishtirokchilaridir.

Tolerantlik insonning fikr, e‘tiqod, madaniyat va urf-odatlardagi farqlarga nisbatan hurmat bilan qarash qobiliyatini ifodalaydi. Bugungi yoshlar axborot oqimlari ta‘sirida global madaniy almashinuvning faol subyekti sifatida shakllanmoqda. Shu bois ularning tafakkurida bag‘rikenglik, insonparvarlik, murosaga tayyorlik kabi fazilatlarini rivojlantirish – barqaror ijtimoiy muhitni shakllantirishning muhim omilidir.

O‘zbekistonda tolerantlik madaniyatini rivojlantirish uchun zarur huquqiy va pedagogik asoslar yaratilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida barcha fuqarolarning teng huquqliligi (19–35-moddalar), e‘tiqod erkinligi va fikr plyuralizmi kafolatlangan. “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonunda esa yoshlarni vatanparvarlik, do‘stlik va bag‘rikenglik ruhida tarbiyalash zarurligi belgilangan.

Mazkur maqolaning maqsadi – yoshlar ongida tolerantlik tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlari va huquqiy asoslarini IMRAD modeli asosida tahlil qilishdir.

Tadqiqot metodlari

Tadqiqotda quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi:

1. Nazariy tahlil – tolerantlik madaniyati, yoshlar tafakkuri, huquqiy asoslar haqida ilmiy adabiyotlar, qonun va normativ hujjatlar (Konstitutsiya, “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun, Taraqqiyot strategiyasi va boshqalar) o‘rganildi.
2. Kuzatish – ta‘lim jarayonida yoshlarning muloqot madaniyati va bag‘rikenglik darajasi kuzatildi.
3. Psixologik tahlil – yoshlarning motivatsiyasi, diqqat-e‘tibor, hissiy muvozanat va empatiya qobiliyatlari baholandi.
4. Taqqoslash va umumlashtirish – an‘anaviy va zamonaviy pedagogik yondashuvlarning tolerantlikni rivojlantirishdagi o‘rni solishtirildi.
5. Huquqiy tahlil – milliy va xalqaro qonunchilik asosida tolerantlik madaniyatining normativ bazasi o‘rganildi.

Tadqiqotning manbalar bazasini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun, “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonun, “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” hamda BMTning “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” tashkil etdi.

Natijalar

Tadqiqot davomida o‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, yoshlar ongida tolerantlik tafakkurini shakllantirish murakkab, ammo zaruriy jarayondir. Bu jarayon nafaqat ta‘lim muassasalari faoliyatiga, balki ijtimoiy muhit, oila, ommaviy axborot vositalari va davlat siyosatiga ham bevosita bog‘liqdir. Tolerantlikni shakllantirishda birinchi navbatda ta‘lim tizimining o‘rni beqiyosdir. Chunki aynan ta‘lim muassasalari yosh avlod tafakkurini shakllantiradigan, ularning dunyoqarashini kengaytiradigan va insonparvar qadriyatlarga yo‘naltiradigan asosiy maydondir.

O‘quv dasturlariga tolerantlik, madaniyatlararo muloqot, inson huquqlari, millatlararo to‘tuvlik, diniy bag‘rikenglik kabi mavzularni kiritish yoshlarning dunyoqarashida o‘zaro hurmat va hamjihatlik g‘oyalarini mustahkamlaydi. Bunday yondashuv, ayniqsa, zamonaviy o‘quv jarayonida interfaol metodlar – munozara, rolik tahlili, guruhviy muhokama, rolli o‘yinlar kabi usullar orqali yanada samarali kechadi. Bunda o‘quvchilar nafaqat nazariy bilimga ega bo‘ladilar, balki hayotiy misollar asosida murosaga kelish, turli fikrlarni tahlil qilish, sabr va empatiya bilan yondashish kabi ijtimoiy kompetensiyalarni ham egallaydilar.

Tolerantlikning shakllanishida oila muhiti ham muhim omildir. Ota-onaning farzandga bo‘lgan mehr-muhabbati, uning fikriga hurmat bilan qarashi, boshqalarga nisbatan adolatli va bag‘rikeng munosabat ko‘rsatishi bolalarda erta yoshdan tolerantlik asoslarini shakllantiradi. Ota-ona o‘zi namuna bo‘lgan taqdiridagina farzandda insoniylik, sabr, murosaga tayyorlik kabi fazilatlar mustahkam qaror topadi. Shu bois oila tarbiyasi va maktab ta‘limi o‘rtasidagi uzviy hamkorlik tolerantlik madaniyatining barqaror shakllanishiga xizmat qiladi.

Jamiyat muhitida esa tolerantlikni mustahkamlashda fuqarolik jamiyati institutlari, mahalla, jamoat tashkilotlari, diniy idoralar va nodavlat notijorat tashkilotlarining o'zni ham beqiyosdir. Ayniqsa, yoshlar markazlari, volontyorlik harakatlari, ijtimoiy tashabbuslar orqali o'tkaziladigan tadbirlar yoshlarni birlashtiradi, ularning o'zaro hamkorlik, o'zaro tushunish va do'stlik ruhida faoliyatini rivojlantiradi. Shu bilan birga, "Yoshlar – kelajagimiz", "Inson qadri – oliy qadriyat", "Tinchlik va barqarorlik yo'lida" kabi respublika miqyosidagi dasturlar yoshlarni tinchliksevarlik va bag'rikenglik ruhida tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Axborot makonida tolerantlik g'oyalarini targ'ib etish masalasi alohida e'tiborga loyiq. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari yoshlarning tafakkuriga eng kuchli ta'sir etuvchi manbalar hisoblanadi. Shu sababli axborot siyosatida ijobiy, insonparvar, millatlararo totuvlikni mustahkamlovchi materiallarga ustuvor o'rin berilishi zarur. Yoshlar orasida internet madaniyatini shakllantirish, axborotga tanqidiy yondashish, kamsituvchi, tajovuzkor yoki ekstremistik mazmundagi xabarlarini ajratib olish ko'nikmalarini rivojlantirish tolerantlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Huquqiy nuqtayi nazardan olib qaralganda, tolerantlik O'zbekiston Respublikasida konstitutsiyaviy qadriyat sifatida e'tirof etilgan. Konstitutsiyaning 19-moddasida "barcha fuqarolar jinsidan, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar teng huquqlidir" degan tamoyil belgilangan. Bu esa jamiyatda kamsitish, zo'ravonlik, millatlararo yoki diniy nizo kabi holatlarga mutlaqo yo'l qo'yilmasligini anglatadi. Shuningdek, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunda yoshlarni vatanparvarlik, insonparvarlik, tinchlik va bag'rikenglik ruhida tarbiyalash davlat siyosatining asosiy maqsadlaridan biri sifatida belgilangan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, yoshlar ongida tolerantlik tafakkurini rivojlantirishda eng muhim omil – ta'lim, oila va jamiyat o'rtasidagi hamkorlikdir. Har bir tizim o'zaro bog'liq bo'lgan holda ishlaganda, bag'rikenglik madaniyati barqaror shakllanadi. Bu esa o'z navbatida jamiyatda totuvlik, ijtimoiy barqarorlik, millatlararo do'stlik va hamjihatlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Tolerantlikning rivojlanishi yoshlarning psixologik holatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday yoshlar boshqalar fikriga hurmat bilan qaraydi, o'z fikrini xotirjamlik bilan ifoda etadi, nizoli vaziyatlarda murosaga kelishni afzal ko'radi. Ular ekstremistik g'oyalarga berilmaydi, ijtimoiy hayotda faol, ongli va mas'uliyatli pozitsiyada bo'ladi. Shu ma'noda tolerantlik nafaqat axloqiy yoki madaniy fazilat, balki jamiyat xavfsizligi, barqaror rivojlanish va inson huquqlarining kafolati sifatida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, o'tkazilgan tahlillar tolerantlik tafakkurini rivojlantirish jarayoni uzluksiz va kompleks yondashuvni talab qilishini ko'rsatdi. Har bir yoshning fikrini qadrlash, turfa madaniyat va e'tiqodlarga hurmat bilan yondashish, millatlararo totuvlikni qadrlash – bu nafaqat ma'naviy, balki huquqiy zaruratdir. Bunday yondashuv orqali yoshlar jamiyatda o'z o'rnini topadi, bag'rikeng, adolatli va insonparvar fuqarolar sifatida shakllanadi.

Muhokama

Tolerantlik tafakkurini shakllantirishda davlat siyosati va ta'lim tizimi o'zaro bog'liq bo'g'inlardir.

Konstitutsiyaviy me'yorlar barcha fuqarolarning teng huquqliligini kafolatlab, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni huquqiy jihatdan mustahkamlaydi.

"Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun esa yoshlarni insonparvarlik, tolerantlik va demokratik qadriyatlarga sodiq ruhda tarbiyalashni asosiy vazifa sifatida belgilaydi.

"Taraqqiyot strategiyasi – 2022–2026"da esa tolerantlik madaniyatini rivojlantirish fuqarolik jamiyatini mustahkamlash bilan uzviy bog'langan.

Pedagogik nuqtayi nazardan tolerantlikni o'rgatishda:

- muammoli vaziyatlar asosida fikrlash;
- turli pozitsiyalarni tahlil qilish;

- empatiya va o'zaro hurmatni rivojlantirish;
- madaniyatlararo muloqot mashg'ulotlari o'z samarasini beradi.

Shuningdek, yoshlar o'rtasida ekstremizm, radikalizm va kamsitish g'oyalari qarshi immunitetni shakllantirish tolerantlik ta'limining muhim natijasidir. Bu jarayonda ta'lim muassasalari, NNTlar, OAV va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlik alohida ahamiyatga ega.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, yoshlar ongida tolerantlik tafakkurini shakllantirish bugungi kunda na faqat ma'naviy-ma'rifiy vazifa, balki huquqiy, siyosiy va pedagogik zaruratdir. Bu jarayon ta'lim, oila va jamiyat tizimlari o'rtasidagi uzviy hamkorlik asosida kechmog'i lozim. Agar har bir tizim o'z zimmasiga tushgan mas'uliyatni chuqur his etsa, yoshlar tafakkurida insonparvarlik, bag'rikenglik, adolat va hamjihatlik g'oyalari mustahkam o'rnashadi. Ana shundagina biz tolerantlikni faqat nazariy tushuncha emas, balki kundalik hayot me'yori, milliy mentalitet va davlat siyosatining ajralmas qadriyati sifatida qarash imkoniga ega bo'lamiz.

Shunday qilib, tolerantlik tafakkuriga ega yoshlar – bu kelajakda O'zbekistonning tinchliksevar, demokratik va ijtimoiy jihatdan barqaror jamiyatini barpo etuvchi kuchdir. Ular inson qadriyatini ulug'laydi, o'zaro hurmatga asoslangan muloqotni qadrlaydi va "Inson qadri – eng oliy qadriyat" tamoyilini hayotga tatbiq etuvchi avlod sifatida jamiyatda o'z o'rnini topadi.

Shunday qilib, O'zbekiston taraqqiyotida tolerantlik madaniyatini rivojlantirish – barqaror ijtimoiy muhit, inson huquqlariga hurmat va fuqarolik jamiyatini mustahkamlashning kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2023. – 240 b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni, 2016-yil 14-sentabr, O'RQ-406-son.
3. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni, 1989-yil 21-oktabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni, 2022-yil 28-yanvar.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3138-son Qarori, 2017-yil 5-iyul.
6. "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi", BMT, 1948-yil 10-dekabr.
7. Белокнов А.В. Менеджмент организации: современные технологии. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2002.
8. lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari bazasi.

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ

Рахматова Нозима Бердиев кизи

магистрант Самаркандского филиала

Ташкентского Международного университета Кимё

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17640513>

Аннотация. В статье раскрываются теоретико-методологические основы креативного мышления как важнейшего компонента интеллектуального и личностного развития личности. Рассматриваются сущность понятия «креативность», его психологические и педагогические характеристики, анализируются основные подходы к изучению и формированию креативного мышления. Особое внимание уделяется педагогическим условиям, способствующим развитию творческого потенциала обучающихся в образовательном процессе.

Ключевые слова: креативность, креативное мышление, творческая деятельность, инновационное обучение, педагогические подходы.

KREATIV TAFAKKURNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Raxmatova Nozima Berdier qizi

Magistrant, Samarqand filiali, Toshkent Xalqaro Universiteti Kimyo

Annotatsiya. Ushbu maqolada kreativ tafakkurning nazariy-metodologik asoslari, shaxsning intellektual va shaxsiy rivojlanishidagi eng muhim komponent sifatida ochib berilgan. «Kreativlik» tushunchasining mohiyati, uning psixologik va pedagogik xususiyatlari ko'rib chiqilgan, kreativ tafakkurni o'rganish va shakllantirish bo'yicha asosiy yondashuvlar tahlil qilingan. Maxsus e'tibor pedagogik shart-sharoitlarga qaratilgan bo'lib, ular o'quv jarayonida talabalar kreativ salohiyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: kreativlik, kreativ tafakkur, ijodiy faoliyat, innovatsion ta'lim, pedagogik yondashuvlar.

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF CREATIVE THINKING

Rakhmatova Nozima Berdier qizi

*Master's student, Samarkand Branch,
Kimyo International University In Tashkent*

Annotation. The article reveals the theoretical and methodological foundations of creative thinking as a crucial component of intellectual and personal development. It examines the essence of the concept of "creativity," its psychological and pedagogical characteristics, and analyzes the main approaches to the study and formation of creative thinking. Particular attention is paid to the pedagogical conditions that contribute to the development of learners' creative potential in the educational process.

Key words: creativity, creative thinking, creative activity, innovative learning, pedagogical approaches.

Введение

Современный этап развития общества характеризуется быстрыми темпами научно-технического прогресса, информационной открытостью и необходимостью постоянного обновления знаний. В этих условиях возрастает потребность в формировании личности, обладающей развитым креативным мышлением – способностью мыслить нестандартно, гибко и оригинально. Креативное мышление сегодня рассматривается как ключевая компетенция XXI века, без которой невозможно успешное личностное и профессиональное развитие человека.

Проблема формирования и развития креативного мышления является одной из центральных в современной педагогике и психологии. Она напрямую связана с задачами модернизации образования, перехода от традиционной модели обучения, основанной на воспроизведении знаний, к инновационной модели, направленной на развитие творческого потенциала обучающихся. Поэтому теоретико-методологическое осмысление феномена креативности имеет не только теоретическое, но и практическое значение для построения эффективной образовательной системы.

Методы исследования

Понятие креативности (от лат. creatio – создание, творение) впервые было введено в научный оборот в середине XX века американским психологом Дж. Гилфордом, который выделил два типа мышления – конвергентное и дивергентное. Креативность, по Гилфорду,

основана именно на дивергентном мышлении, то есть на способности генерировать множество оригинальных идей и находить новые решения для известных проблем. Э. Торренс, развивая идеи Гилфорда, определил креативность как процесс, включающий осознание проблем, выдвижение гипотез, их проверку и формулировку оригинальных выводов.

Результаты

С точки зрения психологии, креативное мышление представляет собой интеграцию интеллектуальных, эмоциональных и личностных характеристик. Оно включает такие качества, как оригинальность, гибкость, беглость, чувствительность к проблемам и способность видеть связи между, казалось бы, несвязанными явлениями. Креативность проявляется в способности человека к воображению, интуиции, импровизации и адаптации к новым условиям.

Методологическую основу изучения креативного мышления составляют несколько ключевых подходов:

- Системный подход рассматривает креативность как сложное образование, включающее когнитивный, мотивационный и эмоциональный компоненты, находящиеся в постоянном взаимодействии.
- Деятельностный подход подчеркивает роль активной творческой деятельности в развитии креативных способностей, когда знание не передаётся в готовом виде, а открывается в процессе самостоятельного поиска.
- Личностно-ориентированный подход делает акцент на индивидуальных особенностях личности, её внутренней мотивации, стремлении к саморазвитию и самореализации.
- Культурно-исторический подход (Л.С. Выготский, А.Н. Леонтьев) объясняет развитие креативности как процесс, происходящий через освоение культурных норм и средств человеческой деятельности, где мышление формируется в социальном контексте.

Обсуждение

Формирование креативного мышления в образовательном процессе предполагает создание особой педагогической среды, стимулирующей активность и самостоятельность обучающихся. Педагог должен выступать не в роли транслятора готовых знаний, а как организатор познавательной и исследовательской деятельности, направленной на развитие творческих способностей.

Эффективными средствами формирования креативного мышления являются проблемное и проектное обучение, мозговой штурм, кейс-методы, эвристические беседы, игровые и интерактивные технологии.

Важное значение имеет также эмоционально-психологический климат в образовательном учреждении. Атмосфера доверия, поддержки и уважения к идеям учащихся способствует проявлению их инициативы и оригинальности. Таким образом, развитие креативного мышления возможно лишь при условии гармоничного сочетания когнитивных, эмоциональных и мотивационных факторов.

Заключение

Креативное мышление является важнейшим условием успешной адаптации личности к быстро меняющемуся миру. Оно обеспечивает способность к инновациям, самостоятельному решению проблем и эффективному взаимодействию с окружающей средой. Теоретико-методологические основы креативного мышления включают совокупность философских, психологических и педагогических идей, определяющих его сущность, структуру и механизмы развития.

Развитие креативного мышления в образовательной практике требует внедрения активных методов обучения, ориентации на личностный подход и создание условий для творческого самовыражения учащихся. Следовательно, формирование креативности должно рассматриваться как одна из приоритетных задач современного образования, направленного

на подготовку личности нового типа – мыслящей, свободной и готовой к преобразованию действительности.

Список литературы

1. Гилфорд Дж. Три стороны интеллекта // Психология мышления. – М.: Прогресс, 1988.
2. Торренс Э.П. Креативность и образование. – М.: Педагогика, 1990.
3. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. – М.: Педагогика, 1991.
4. Маслоу А. Мотивация и личность. – СПб.: Евразия, 2002.
5. Роджерс К. Взгляд на психотерапию. Становление человека. – М.: Прогресс, 1994.
6. Лук А.Н. Креативность: структура, методы диагностики и развития. – М.: Академия, 2005.
8. Фромм Э. Искусство любить. – М.: АСТ, 2015.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA SHAXSIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDA MAKTAB VA OILA O'RTASIDAGI HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Norov Sadriddin

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, Samarqand filiali Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi, 2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17640546>

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarda shaxsiy qadriyatlarini shakllantirishda maktab va oila o'rtasidagi hamkorlikning o'rni, mohiyati va metodik asoslari yoritilgan. Shuningdek, pedagogik-psixologik yondashuvlar, hamkorlikning samarali shakl va metodlari, shuningdek, zamonaviy texnologiyalar yordamida bu jarayonni yanada rivojlantirish yo'llari tahlil qilinadi. Maqolada oila, maktab va jamiyatning uzviy aloqasi hamda o'quvchida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishda birgalikdagi faoliyatning ahamiyati ilmiy asosda bayon etilgan.

Kalit so'zlar: shaxsiy qadriyat, hamkorlik, tarbiya, oila, boshlang'ich ta'lim, metodika, ma'naviyat, tarbiya, pedagogik yondashuv, kommunikatsiya.

METHODOLOGY FOR DEVELOPING COOPERATION BETWEEN SCHOOL AND FAMILY IN FORMING PERSONAL VALUES IN PRIMARY EDUCATION

Norov Sadriddin

Kimyo International University in Tashkent, Samarkand Branch Primary education direction, 2nd year master's student.

Abstract. This in the article elementary education in the process in students personal values school in shaping and family between cooperation role, essence and methodical basics covered. Also, pedagogical and psychological approaches, cooperation effective form and methods, as well as modern technologies using this the process further develop roads analysis The article family, school and society integral connection and in the student national and universal values in formation joint of activity importance scientific basically statement done.

Keywords: personal value, cooperation, education, family, elementary education, methodology, moral and ethical education, pedagogical approach, communication.

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА МЕЖДУ ШКОЛОЙ И СЕМЬЁЙ В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Норов Садриддин

Ташкентский международный университет Кимё, Самаркандский филиал
Магистрант 2 курса, направление «Начальное образование»

Аннотация. В данной статье освещены роль, сущность и методические основы сотрудничества между школой и семьёй в процессе формирования личных ценностей у учащихся на этапе начального образования. Рассматриваются педагогико-психологические подходы, эффективные формы и методы сотрудничества, а также пути дальнейшего развития этого процесса с использованием современных технологий. Научно обоснована значимость взаимосвязи семьи, школы и общества, а также совместной деятельности в формировании у учащихся национальных и универсальных ценностей.

Ключевые слова: личные ценности, сотрудничество, воспитание, семья, начальное образование, методика, духовно-нравственное воспитание, педагогический подход, коммуникация.

Kirish

Boshlang'ich ta'lim – bolaning shaxs sifatida shakllanishida eng muhim davr hisoblanadi. Shu bosqichda o'quvchining dunyoqarashi, xulq-atvori, e'tiqodi, ma'naviy qadriyatlari, insoniy fazilatlari shakllanadi. Bu jarayonda oila, maktab va jamoatchilikning hamkorligi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Chunki bola dastlabki axloqiy tasavvurlarni oiladan oladi, maktabda esa ularni chuqurlashtiradi, mustahkamlaydi va amaliy hayotda qo'llay boshlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida: *“Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir, u jamiyat va davlat himoyasidadir”* deb belgilangan. Shu boisdan oila bilan maktabning uzviy hamkorligi har bir bola tarbiyasida ustuvor omil sanaladi. Maktab va oila o'rtasidagi o'zaro ishonch, hurmat va mas'uliyatga asoslangan hamkorlik nafaqat bola muvaffaqiyati, balki jamiyat barqarorligining garovi hamdir.

Asosiy qism

Shaxsiy qadriyat – bu insonning ichki dunyosini, e'tiqodini, hayotiy pozitsiyasini belgilovchi ma'naviy-axloqiy me'yorlardir. Boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun bular – halollik, mehnatsevarlik, mehr-oqibat, vatanparvarlik, do'stlik, mas'uliyat va o'zaro hurmat kabi fazilatlarda namoyon bo'ladi.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 7–10 yosh oralig'idagi bolalar uchun ota-onalar va o'qituvchilar eng muhim axloqiy namuna hisoblanadi. Shu bois, o'qituvchi va ota-onaning o'zaro hamkorlikda bir xil yo'nalishda tarbiya berishi bola shaxsini to'g'ri shakllantirish uchun zarurdir.

Pedagogik nuqtai nazardan, maktab va oila hamkorligi – bu o'quvchining shaxsiy rivojlani-shida yagona tarbiyaviy makonni yaratish jarayonidir. Psixologik yondashuvga ko'ra esa, bunday hamkorlik bola emotsional barqarorligi, o'ziga ishonchi va ijtimoiy faolligini oshiradi.

Oila va maktabning hamkorligi quyidagi tamoyillarga tayanadi:

- **O'zaro hurmat va ishonch tamoyili** – ota-ona va o'qituvchi bir-birini sherik sifatida qabul qiladi;
- **Yagona maqsad tamoyili** – bolaning har tomonlama barkamol shaxs bo'lib yetishishini ta'minlash;
- **Faollik va tashabbuskorlik tamoyili** – oila ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanishi;
- **Axborot almashish tamoyili** – bola yutuqlari va muammolari haqida o'zaro ochiq muloqot yuritish.

Hamkorlikni rivojlantirishda samarali metodlar

Maktab va oila o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishda quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

1. Ota-onalar yig'ilishlari va davra suhbatlari.
2. Bu shakl orqali ota-onalarga tarbiya va ta'lim jarayonidagi muammolar, yechimlar, yangi pedagogik yondashuvlar haqida ma'lumot beriladi.

3. Individual suhbatlar.

Har bir bola o'ziga xos. Shu sababli, o'qituvchi va ota-ona o'rtasida muntazam individual uchrashuvlar bolaning shaxsiy muammolarini hal qilishga yordam beradi.

4. Ochiq darslar va tadbirlar.

Ota-onalar bolalarning faoliyatini bevosita kuzatishlari, o'qituvchining yondashuvini ko'rishlari orqali hamkorlik mustahkamlanadi.

5. Pedagogik mahorat darslari.

O'qituvchilar ota-onalarga bolalar psixologiyasi, muloqot madaniyati, konfliktlarni hal etish usullari bo'yicha maslahatlar beradilar.

6. Onlayn platformalar orqali hamkorlik.

7. Bugungi raqamli davrda ota-onalar bilan Telegram, Google Classroom, ClassDojo kabi platformalar orqali muloqotni yo'lga qo'yish ham samarali usuldur.

Oila – birlamchi tarbiya maskani bo'lib, unda bola dastlabki axloqiy qadriyatlarni o'zlashtiradi. Ota-onaning o'zaro mehr-muhabbati, o'z farzandiga e'tibori bolaning ruhiy dunyosiga bevosita ta'sir etadi. Maktab esa bu jarayonni tizimli tarzda davom ettiradi, nazariy va amaliy bilimlar orqali qadriyatlarni ongli ravishda shakllantiradi.

Ota-onalar bolaga berayotgan tarbiyasi bilan o'qituvchi faoliyatining uzviy bog'liqligi – natijada bolada ijobiy xarakter sifatlarini (mehribonlik, sabr-toqat, o'zaro hurmat, mas'uliyat) rivojlantiradi.

Bugungi kunda oila va maktab o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishda quyidagi zamonaviy yo'nalishlar dolzarbdur:

Psixologik treninglar va seminarlar – ota-onalar uchun tarbiya bo'yicha amaliy mashg'ulotlar;

“Ota-onalar kuni” tadbirlari – bolalar ishtirokida o'tkaziladigan qo'shma bayramlar;

“Maktab – oila – mahalla” hamkorligi – ijtimoiy institutlar o'rtasida yagona tarbiyaviy tizim yaratish;

Media savodxonlikni oshirish – ota-onalar uchun internetdagi pedagogik resurslardan to'g'ri foydalanish bo'yicha yo'riqnomalar.

Xulosa

Boshlang'ich ta'lim bosqichida shaxsiy qadriyatlarni shakllantirish – bu nafaqat ta'lim jarayonining, balki butun ijtimoiy hayotning muhim tarkibiy qismidir. Oila va maktab o'zaro hamkorlikda ishlagan taqdirdagina bola har tomonlama rivojlangan, ma'naviy yetuk, mustaqil fikrlaydigan shaxs sifatida kamol topadi. Shuning uchun o'qituvchi va ota-onalar o'rtasidagi muntazam muloqot, pedagogik savodxonlikni oshirish va zamonaviy metodlarni qo'llash bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. Abdullayeva, M. “Oila va maktab hamkorligining zamonaviy shakllari.” Ta'lim va tarbiya jurnali, 2022.
3. Saidov, A. “Boshlang'ich ta'limda tarbiyaviy jarayonning psixologik xususiyatlari.” Pedagogika va psixologiya, 2021.
4. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2020–2025 yillarga mo'ljallangan “Ma'naviy tarbiya konsepsiyasi”.

PEDAGOGIKA YO'NALISHI TALABALARINING IJODKORLIK QOBILIYATLARINI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

Najmiyeva Umida Kamaritdinovna

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası 2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17640596>

Annotatsiya. Maqolada pedagogika yo'nalishi talabalarining ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Zamonaviy ta'lim talablariga muvofiq ijodiy tafakkurni shakllantirishda qo'llaniladigan interfaol metodlar, loyiha asosida o'qitish, STEAM yondashuvi hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati ilmiy asosda tahlil etilgan. Shuningdek, ijodkorlikni rivojlantirish metodikasining bosqichlari, ijodiy faoliyat samaradorligi va zamonaviy pedagogning kreativ salohiyatini oshirish yo'llari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: pedagogika, ijodkorlik, kreativlik, innovatsiya, metodika, interfaol metod, loyiha, STEAM, tanqidiy fikrlash.

METHODOLOGY FOR IMPROVING THE CREATIVE ABILITIES OF STUDENTS OF PEDAGOGY DEPARTMENT BASED ON MODERN APPROACHES

Najmiyeva Umida Kamaritdinovna

2nd year master's student of the Department of Preschool and Primary Education Methodology, kimyo international university in Tashkent. samarkand branch

Abstract. The article discusses the issues of developing creative abilities of students of pedagogical specialties. The importance of interactive methods, project-based learning, the STEAM approach and information and communication technologies used in the formation of creative thinking in accordance with the requirements of modern education is analyzed on a scientific basis. The stages of the methodology for developing creativity, the effectiveness of creative activity and ways to increase the creative potential of a modern teacher are also considered.

Keywords: pedagogy, creativity, innovation, methodology, interactive method, project, STEAM, critical thinking.

Kirish

Bugungi kunda O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar yosh avlodni raqobatbardosh, innovatsion fikrlovchi, ijodkor shaxs sifatida tarbiyalashni ko'zda tutadi. Prezident qarorlarida ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchilarning kasbiy mahoratini yuksaltirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan.

Pedagogika yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar kelajakda o'qituvchi sifatida yosh avlod tafakkuriga, dunyoqarashiga bevosita ta'sir ko'rsatadilar. Shu bois, ularda ijodiy fikrlash, yangilik yaratish, o'z ishiga yangicha yondasha olish, muammolarga noodatiy yechim topish qobiliyatini rivojlantirish zamonaviy ta'limning muhim vazifasidir.

Ijodkorlik – bu shaxsning yangilik yaratish, mavjud bilimlarni yangicha talqin etish, muammoni noodatiy yechish qobiliyatidir. Ijodiy yondashuvga ega bo'lgan pedagog darsni nafaqat samarali, balki qiziqarli, o'quvchi shaxsini rivojlantiruvchi shaklda tashkil eta oladi.

Metodologiya. Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi, faoliyatli yondashuv, konstruktivizm nazariyasi hamda kreativ pedagogika tamoyillari tashkil etadi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

Nazariy tahlil – mavjud ilmiy manbalarni o'rganish, ijodkorlik haqidagi qarashlarni tahlil qilish.

Kuzatish va tajriba – talabalar bilan o'tkazilgan mashg'ulotlar asosida ijodiy yondashuv darajasini aniqlash.

Suhbat va so'rovnomalar – talabalar fikrlarini o'rganish, ularning innovatsion metodlarga munosabatini baholash.

Metodik asos sifatida B.R. Adizov, R. Ishmuhamedov, Z.A. Xolmatova, shuningdek, xorijiy olimlar L.G. Archaznikova, V.K. Tevlina, T.V. Petrova va E.P. Torrance tadqiqotlaridan foydalanildi.

Ijodkorlikni rivojlantirish metodikasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. **Motivatsiya bosqichi** – talabalarda ijodiy faoliyatga qiziqish uyg'otish.
2. **Ijodiy faoliyat bosqichi** – loyiha asosida o'qitish, interfaol metodlar, STEAM yondashuvini qo'llash.
3. **Refleksiya bosqichi** – bajarilgan ishlarni tahlil qilish va xatolardan saboq olish.
4. **Natijani baholash bosqichi** – ijodiy faoliyat mahsulini taqdim etish, himoya qilish.

Natijalar

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, pedagogika yo'nalishi talabalarining ijodkorlik darajasi ularning o'quv jarayonida qanday metodlardan foydalanishiga bevosita bog'liq.

Innovatsion texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya vositalari, loyiha asosida o'qitish kabi usullar talabalarda kreativ tafakkurni shakllantiradi.

Misol uchun, **interfaol metodlar** ("Aqliy hujum", "Venn diagrammasi", "Rolga kirish", "Debat") yordamida talabalar mustaqil fikrlaydi, muammolarga ijodiy yechim topadi.

Loyiha asosida o'qitish esa talabalarni izlanishga, hamkorlikda ishlashga va natijani himoya qilishga o'rgatadi.

STEAM yondashuvi fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika integratsiyasi orqali talabalarni kompleks fikrlashga, turli fanlarni birlashtirib ijodiy natija yaratishga yo'naltiradi.

Natijada, talabalar quyidagi o'zgarishlarga ega bo'ldilar:

- Mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari shakllandi;
- Muammoli vaziyatlarga ijodiy yondasha olish qobiliyati ortdi;
- Yangi g'oyalar ilgari surish, ularni amalda qo'llay olish tajribasi mustahkamlandi;
- Hamkorlik va jamoada ishlash madaniyati rivojlandi.

Muhokama

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, pedagogika yo'nalishida o'qiyotgan talabalarda ijodiy yondashuvni shakllantirish uchun faqat bilim berish yetarli emas – ularga ijodiy muhit va rag'batlantiruvchi tizim zarur.

Musiqqa, tasviriy san'at, texnologiya kabi fanlar ijodiy salohiyatni ochishning muhim vositasi hisoblanadi. Bu fanlar orqali talabalar hissiy kechinmalarni, estetik zavqni, badiiy fikrni namoyon eta oladilar.

Shuningdek, o'quv jarayoniga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, virtual laboratoriyalar va multimedia resurslaridan foydalanish ijodkorlikni yanada oshiradi.

Masalan, talabalarga mustaqil ijodiy topshiriqlar berish – loyiha yaratish, dars stsenariysi ishlab chiqish yoki didaktik vosita tayyorlash – ularning texnik va pedagogik tafakkurini rivojlantiradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijodkorlikning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun quyidagi shartlar zarur:

- O'qituvchining o'zi ijodiy yondashuvga ega bo'lishi;
- Talabalarga erkin fikrlash imkonini beruvchi muhit yaratilishi;
- Baholash tizimi faqat bilimni emas, balki g'oya va yechimning yangiligini ham e'tiborga olishi;
- O'qitish jarayoniga fanlararo integratsiya kiritilishi.

Ijodkorlik – bu faqat iste’dod emas, balki mehnat, izlanish va ijobiy muhit mahsuli. Shu sababli, pedagogika yo’nalishida ta’lim olayotgan har bir talaba uchun ijodkorlikni tarbiyalash – kasbiy kompetensiyaning ajralmas qismi bo’lishi zarur.

Xulosa

Pedagogika yo’nalishi talabalarining ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining strategik vazifasidir.

Innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar, loyiha asosida o’qitish, STEAM yondashuvi va tanqidiy fikrlash metodlari ijodiy salohiyatni ochishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

Kelajakdagi pedagoglar zamon bilan hamnafas, yangilik yaratuvchi, kreativ tafakkur sohibi sifatida shakllansa, bu butun ta’lim tizimining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, oliy ta’lim muassasalarida ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan metodik tizimlarni yaratish, ularni amaliyotga tatbiq etish va natijadorligini ilmiy asosda baholash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning ta’lim-tarbiya tizimini isloh qilishga oid qaror va farmonlari.
2. “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. – Toshkent, 2021.
3. Ziyamuhamedov B.H., Ochilov O.T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
4. To’xtaxodjayeva M. Pedagogik mahorat va kreativ yondashuvlar. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.
5. Jalolov J.J. Pedagogik innovatsiyalar nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.
6. Anderson L.W., Krathwohl D.R. A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing. – New York: Addison Wesley Longman, 2001.
7. Torrance E.P. Creativity: Theory and Practice. – New Jersey: Prentice-Hall, 1998.

KREATIV TAFAKKUR VOSITASIDA BO’LAJAK O’QITUVCHILARNING MUAMMOLARINI HAL ETISH KO’NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

*Negmatjonova Zilola
Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti, Samarqand filiali,
2-kurs talabasi. zilolanegmatzanova@gmail.com*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17640640>

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo’ljak o’qituvchilarning kreativ tafakkurini shakllantirish, muammolarni hal etish ko’nikmalarini rivojlantirish va 4K modeli asosida ta’lim jarayoniga yangicha yondashuv masalalari yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy ta’limda kreativlikning ahamiyati, xorijiy tajribalar va kreativ pedagogika fanining o’rni tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: kreativ tafakkur, kreativ pedagogika, ijodkorlik, muammolarni hal etish, bo’ljak o’qituvchi, 4K modeli, kritik fikrlash, kommunikativlik, kollaboratsiya, kreativ fikrlash, innovatsion ta’lim, tanqidiy fikrlash, ta’lim tizimi

DEVELOPING PROBLEM-SOLVING SKILLS OF FUTURE TEACHERS THROUGH CREATIVE THINKING

Negmatjonova Zilola

Kimyo international university in Tashkent Samarkand branch

2nd year student. zilolanegmatzanova@gmail.com

Abstract. This article discusses the issues of forming creative thinking of future teachers, developing problem-solving skills, and a new approach to the educational process based on the 4K model. It also analyzes the importance of creativity in modern education, foreign experiences, and the role of creative pedagogy.

Keywords: creative thinking, creative pedagogy, creativity, problem solving, future teacher, 4K model, critical thinking, communication, collaboration, creative thinking, innovative education, critical thinking, education system

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ РЕШЕНИЯ ПРОБЛЕМ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ЧЕРЕЗ КРЕАТИВНОЕ МЫШЛЕНИЕ

Негматджонова Зилола

Ташкентский международный университет Кимё, Самаркандский филиал

Студентка 2 курса zilolanegmatzanova@gmail.com

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы формирования креативного мышления у будущих учителей, развития навыков решения проблем и внедрения нового подхода к образовательному процессу на основе модели 4К. Также анализируется значение креативности в современном образовании, зарубежный опыт и роль дисциплины «креативная педагогика».

Ключевые слова: креативное мышление, креативная педагогика, творчество, решение проблем, будущий учитель, модель 4К, критическое мышление, коммуникативность, коллаборация, инновационное образование, критическое мышление, образовательная система.

Kirish

Bugungi globallashuv davrida texnika va texnologiyalar jadal rivojlanayotgan bir paytda, ta'lim-tarbiya jarayonini zamon talablari asosida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagog kadrlardan nafaqat bilim va malakalarni mustahkamlash, balki yangi ko'nikmalarni shakllantirish, uzluksiz o'rganish va malaka almashinuvida faol bo'lish talab qilinmoqda.

Respublikamizda ta'lim tizimida so'nggi yillarda bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. O'qituvchilardan ijodiy yondashuv, innovatsion fikrlash, o'z ustida ishlash va yangi g'oyalarni ishlab chiqish kutilmoqda. Ayniqsa, kreativ yondashuv orqali o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, muloqot, hamkorlik va ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga e'tibor kuchaymoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni qabul qilingach, boshlang'ich ta'lim tizimida ham keng qamrovli ijobiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Bugungi kunda 4K modeli – **kritik fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya va kollaboratsiya** tamoyillari asosida yangi avlod darsliklari ishlab chiqilmoqda.

4K modeli quyidagi tamoyillarni o'z ichiga oladi:

1. **Kritik (tanqidiy) fikrlash** – o'quvchilarning axborotni tahliliy yondashuv asosida baholash, mantiqiy fikrlash va o'z nuqtayi nazarini shakllantirish ko'nikmasini rivojlantiradi.
2. **Kreativ fikrlash** – yangi g'oyalar yaratish, innovatsion yondashuvlarni qo'llash, muammolarga noodatiy yechim topish imkonini beradi.

3. **Kommunikativlik** – o‘quvchilarni fikrini aniq ifodalash, tinglash, tushunish va samarali mu-loqot olib borishga o‘rgatadi.
4. **Kollaboratsiya** – jamoada ishlash, hamkorlik qilish, o‘zaro yordam va qo‘llab-quvvatlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Bu tamoyillar Singapur, Xitoy, Finlyandiya, Estoniya kabi ilg‘or ta‘lim tizimlarida keng qo‘llani-lib, PISA va PIRLS kabi xalqaro baholash dasturlarida ham o‘z aksini topgan.

Kreativ pedagogika tushunchasi

“Kreativ pedagogika” tushunchasi zamonaviy ta‘lim jarayonida muhim o‘rin egallamoqda. Ush-bu fan pedagoglarda ta‘lim va tarbiya jarayoniga ijodkorlik bilan yondashish, muammolarga noo-datiy yechim topish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Kreativlik – shaxsning yangi g‘oyalar ishlab chiqish, mavjud bilim va tajribalarni yangicha tarz-da qo‘llash, muammolarga ijodiy yechim topish qobiliyatidir. Shaxsning kreativligi tafakkur, mulo-qot, his-tuyg‘u va faoliyatda namoyon bo‘ladi.

Psixolog P. Torrens fikricha, kreativlik – muammolarni ilgari surish, farazlarni sinovdan o‘tka-zish va natijalarni tahlil qilish jarayonidir. J. Gilford esa kreativlikning quyidagi jihatlarini ajratib ko‘rsatadi: fikrning ravonligi, originallik, faraz qilish, qiziquvchanlik va fantaziya.

Kreativ pedagogika fanining vazifalari

- Talabalarda kreativ tafakkurni shakllantirishning aniq asoslarini ishlab chiqish;
- Kreativ fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metod va vositalarni aniqlash;
- Talabalarning mustaqil va ijodiy fikrlashini qo‘llab-quvvatlash;
- O‘quv jarayonida fanlararo integratsiyani ta‘minlash.

Oliy ta‘limda pedagoglar zamonaviy didaktik prinsiplarga asoslanib, kreativ metodlardan foy-dalanish orqali talabalarning o‘quv-bilish faoliyatini faollashtiradi. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchilar-ning kasbiy kompetensiyasini mustahkamlaydi.

Kreativ fikrlashni rivojlantirish usullari

- Har qanday muammoni hal qilishda noodatiy yo‘ldan foydalanish;
- Yoshlar fikriga e‘tibor qaratish;
- Eski narsani yangi shaklda qayta ko‘rib chiqish;
- Atrof-muhitni o‘zgartirib, yangicha turtki olish;
- Fantaziyani rivojlantirish va yangi g‘oyalarni vizualizatsiya qilish;
- Mustaqil o‘qish, dam olish va ijodiy muhit yaratish.

Xulosa

